

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Boshlang‘ich ta‘lim asoslari kafedrası**

**Oxunjon Safarov, Bashorat Jamilova,  
Nigora Safarova**

**BOLALARADABIYOTI**

**VA FOLKLOR**

Bilim sohasi:100000 - Gumanitar

Ta‘lim sohasi:110000 - Pedagogika

5111700 – Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish

5111800 – Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi bakalavrlari uchun

**usuliy qo‘llanma**

**TOHIKEHT**

**“TURON ZAMIN ZIYO”**

**2015**

**UO`K: 372.882.373**

**KBK 74.102**

**S-63**

Bolalar adabiyoti va folklor; Toshkent: "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2015.  
– 256 b.

**ISBN 978-9943-335-95-0**

**UO`K: 372.882.373**

**KBK 74.102**

## **ANNOTATSIYA**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish kabilarga katta e'tibor qaratildi. Shu maqsadda yangi avlod darsliklarini yaratish jadal davom etmoqda. Binobarin, professor-o'qituvchilar, olimlar tomonidan oliygoh talabalari uchun fan dasturlariga muvofiq o'quv qo'llanma, darslik, o'quv-usuliy qo'llanmalar tuzish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu o'quv-usuliy qo'llanma Oliy o'quv yurtlari uchun O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2011- yilning 17- noyabrida tasdiqlanib, BD-5111700-3.03-raqami bilan qayd etilgan, Nizomiy nomidagi TDPUda ishlab chiqilgan hamda bakalavriatning 5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishiga mo'ljallangan "Bolalar adabiyoti va folklor" namunaviy dasturi (tuzuvchilar–Q.Qahramonov, N.To'xtayeva), shuningdek, 2014-yilda shu yo'nalish "**Ona tili va adabiyot**" fan dasturining (tuzuvchilar– Hamrayev M.A., Shodmonqulova D., Abdullayeva N.M., Pardayev B.O'.) "**Adabiyot**" qismi asosida yozilgan. Unda bolalar adabiyoti va folklor fanining nazariy asoslari, bolalar folklori hamda bolalar kitobxonligi muammolari, o'zbek bolalar adabiyotining tadrijiy taraqqiyotiga oid ma'lumotlar, milliy va chet el bolalar adiblari ijodi hamda asarlarning badiiy-g'oyaviy talqinlari umumlashtirilgan.

"Bolalar adabiyoti va folklor" o'quv fani boshlang'ich ta'lim usuliyoti va sport tarbiyaviy ishi hamda maktabgacha tarbiya ixtisosliklari bakalavrlariga mo'ljallangan. Mazkur o'quv- usuliy qo'llanmada DTS talablariga binoan o'zbek bolalar adabiyoti va folklori fanining nazariy asoslari, bolalar kitobxonligi muammolariga doir mulohazalar umumlashtirilgan.

**Mas'ul muharrir:** filologiya fanlari doktori, prof. **D.O'rayeva**

**Taqrizchilar:** filologiya fanlari nomzodi dots.**D.Quvvatova**,  
filologiya fanlari nomzodi dots. **L.Sharipova**

*Usuliy qo'llanma Buxoro davlat universiteti Ilmiy-metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

### **Аннотация**

Пособия для высших учебных заведений, утверждённое Министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан от 17 ноября 2011 года, зарегистрировано под номером БД–5111700-3.03, разработано в ТГПУ имени Низами, составлено на основе образцовой программы «Детская литература и фольклор» (составители- К.Кахраманов, Н.Тухтаева), рассчитанной на начальное образование и спортивно-воспитательную работу – бакалавриата 5111700, а также предметной программы “Родной язык и литература” (составители –Хамраев М.А., Шодмонкулова Д., Абдуллаева Н.М., Пардаев Б.У.) по части “Литература”. В нем обобщены теоретические основы детской литературы и фольклора, проблемы детского фольклора и детской читаемости, сведения о развитии узбекской детской литературы, творчество национальных и зарубежных детских литераторов, отображения художественной тематики произведений.

### **Annotation**

After becoming independent our country paid attention to the education and developed it. That's why as a new method of educational system many books were published. So, for the ministry of higher and secondary education our professor teachers created new references.

These are references for higher education. Uzbekistan the Ministry of higher and secondary education accepted in 17<sup>th</sup> November 2011 confirmed and noted with this number Nizomiy BD 5111700 3.03 Pedagogical University reform and (5111700) the faculty of elementary education and sport the degree of bachelor this book classified and named by the folk lore and literature of children, (the author K. Kahramonov, N. Tukhtaeva) so 2014, this faculty “mother tongue and literature printed.” By the meaning of this book the author is opened about the problem. Uzbek and foreigner readers, the problems of children literature and others. This book especially is for the faculty of Elementary education and sport. This book consists of questions, tests, new words, visuals, schedule, slides, and is for independent reading. There are given some materials here.

# **BOLALAR ADABIYOTI VA FOLKLOR FANIDAN MA'RUZALAR MAZMUNI**

## **I. Bolalar adabiyoti fanining nazariy asoslari**

### **Reja:**

1. Kirish
2. O'zbek bolalar adabiyoti istilohi va uning paydo bo'lishi.
3. Bolalar adabiyoti fanining predmeti va vazifalari.
4. Bolalar kitobxonligi tushunchasi haqida ma'lumot.
5. Bolalar adabiyotining umumadabiyotga aloqadorligi.
6. Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.
7. Bolalar adabiyotining boshqa fanlar bilan hamkorligi yoxud adresliligi.

O'zbek bolalar adabiyotining so'z san'ati sifatidagi ulug'vor vazifasi va tarbiyachilik vositasi istiqloq yillarida alohida e'tiborga tushgani uning bir asrlik tarixidagi quvonchli hodisa. "Ayniqsa biz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan bolalar adabiyotini rivojlantirishga alohida e'tibor berishimiz, mustaqil fikrlaydigan shaxslarning shakllanishi, har qanday kitobxonlik, mutolaa madaniyati bolalikdan boshlanishini doimo yodda tutishimiz lozim",– deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov. Chindan ham bu jiddiy vazifani bajarishda, aniqrog'i, mustaqil yurtning har tomonlama yetuk, barkamol avlodini tarbiyalashda asrlar osha xalq an'analari, milliy qadriyatlar, folklor namunalari, asrlar bilan bo'y o'lchovchi milliy adabiyotimiz va jahon xalqlari adabiyotlari an'analari zaminida voqelikka aylangan o'zbek bolalar adabiyotining o'z o'rnini bor.

Mana sakson yildirki, respublikamiz pedagogika institutlari, universitetlari va kollejlarning boshlang'ich ta'lim usuliyoti, maktabgacha ta'lim yo'nalishlari talabalari o'zbek bolalar adabiyoti tarixi fanini chuqur o'rganib kelmoqdalar. O'zbek bolalar adabiyoti haqidagi fan yaratilishida XX asr boshlaridagi ma'rifatparvar pedagog va adiblarning matbuotdagi maqolalari, ular yaratgan ilk darslik va xrestomatiyalar asos bo'lgan bo'lsa-da, o'quv qo'llanmalarni tuzish harakati asr o'rtalariga to'g'ri keldi.

Mustaqil respublikamiz kelajagi bolalar tarbiyasi va ta'limiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shuning uchun ham jamiyatimizda hozirgi kunda sog'lom avlod uchun kurashish va unga g'amxo'rlik qilish alohida dastur tarzida kun tartibiga

qo'yilgan. Bolalarning ma'naviy yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi bolalar adabiyoti masalalari shu dasturga taalluqli dolzarb masalalardan biridir.

Istiqlolning dastlabki yillaridan esa o'zbek bolalar adabiyoti tarixi muammolari teranroq o'rganishga kirishildi, uning mavzu-mundariyasi, g'oyaviy-badiiy ifodasiga oid yangi talqinlar yuzaga kela boshladi. Bunda ayniqsa, O.Safarov, S.Matchonov, R.Barakayev, Q.Qahramonov, A.Rasulov, Z.Isomiddinov, B.Ashurov kabi olim va tadqiqotchilarning ko'pgina maqolalari, monografiya, risola hamda o'quv-usuliy qo'llanmalari diqqatga sazovor.

**Fanning maqsadi.** Bola tarbiyasi va uning kamoloti muammosi mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun eng dolzarb masalalar qatorida turadi. Barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta'lim va tarbiya olishi masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani fikrimizni bu jihatdan to'la dalillaydi. Shuning uchun ham bola va uning tarbiyasi, shaxs sifatida kamol topishi uchun asosiy poydevor hisoblanuvchi jarayonni dolzarb muammo tariqasida o'rganuvchi bolalar adabiyoti fani va uning ilmiy-tadqiqot sohasi, bunda erishilgan yutuqlar aynan mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning milliy dasturini hamda "Ta'lim to'g'risidagi qonuni"ni ijtimoiy hayotga tatbiq etishda o'z hissasini qo'shmoq'i lozim. Zero, o'zbek bolalar adabiyotining jahon adabiyotida tutgan o'rni, folklor bilan chambarchas bog'liqligi, tarbiyaviy mohiyati, didaktik xususiyatlari, bolalarga bag'ishlangan asarlarning kitobxonlar yosh xususiyatlariga ko'ra tasniflanishi, badiiy uslubiy izlanishlar, taraqqiyot tamoyillari, janrlar rang-barangligi yuzasidan tushuncha berish talabalar o'rganadigan mazkur fan maqsadi va vazifasi hisoblanadi.

**Fanning vazifalari:**

- Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini bolalar adabiyotining nazariy asoslari bilan tanishtirish;
- Respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalab yetkazishning muammolarini hal etishda ko'maklashish;
- "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiylashda jahon mezonlari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondoshish;
- umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatning asoslarini e'tiborga olib, ta'lim-tarbiya mazmunini teranlashtirib borish;
- uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish muammolariga e'tibor qaratish;
- bo'lg'usi ta'lim ijodkorlarining pedagogik, ma'naviy va ijodiy tafakkurini shakllantirish negizini yaratish;
- mustaqil fikrlash hamda ijodiy tahlil qilish ko'nikmasini tarkib toptirish;
- buyuk allomalar va adiblar, chunonchi, Forobiy, Farg'oniy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Elbek kabi mutafakkirlarning ta'lim tarbiyaga hamda badiiy ijodga doir ilmiy-pedagogik qarashlarini, umumbashariy qadriyatlar hamda Qur'oni Karim, Hadisi sharifda qayd etilgan umuminsoniy va ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida o'rganish.

➤ Ta'lim-tarbiya nazariyasi va tarixidagi tamoyillar, tadqiqot va usullarni maktab amaliy hayoti bilan bog'lab o'rganish;

➤ Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi ta'lim-tarbiya, ta'lim tizimlari hamda ta'limni boshqaruv jarayoniga doir eng ilg'or tajribalarga e'tibor qaratishva amaliyotda qo'llashni tashkil etish.

**Bolalar adabiyoti istilohi haqida tushuncha.** Mustaqil respublikamiz kelajagi bolalar tarbiyasi va ta'limiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shuning uchun ham jamiyatimizda hozirgi kunda sog'lom avlod uchun kurashish va unga g'amxo'rlik qilish alohida dastur tarzida kun tartibiga qo'yilgan. Bolalarning ma'naviy yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi bolalar adabiyoti masalalari shu dasturga taalluqli dolzarb masalalardan biridir. Xalq ma'naviyatining sarchashmasi hisoblanuvchi folklor asarlari buning yorqin dalilidir. Tarixning eng qadimgi davrlaridanoq inson nafaqat o'zining tirikchiligi uchun kurasha boshlagan, balki u o'z avlodi bardavomligi haqida qayg'urgan. Insoniyatni o'rab turgan dunyo va u haqdagi tasavvuri, yig'ilgan bilimlari, hayotiy tajribasi, hamda bu boradagi dono fikrlari, xulosalari bolalarga turli pand-nasihatlar shaklida, tushunarli vositalarda anglatilgan. Bu jihat barcha xalqlar og'zaki adabiyotining mushtarak xususiyatlari hisoblanadi.

Folklor har bir xalqning milliy-adabiy ijodini boshlab berishi ham shundan. Bu xususiyat bolalar adabiyoti inkishofida ham muhim rol o'ynaydi. Qachonlardir Ovrupoda aka-uka Grimmlar, X.K.Andersen, Sh.Perro, J.Rodari kabilarning ertak to'plamlari paydo bo'lgan bo'lsa, vaqti kelib, o'zbek bolalar adabiyotining boshlanmasida ham bu hodisa poydevor bo'la oldi. Inson ruhiyatida o'z-o'zini anglash davri aynan bolalikda kashf etilishi ham turli xalqlarda turli davrlarda kechdi. Negaki, bolalik insondagi bebaho ichki olam sifatida, beg'uborligu ajoyibotlari bilan kattalarni o'ziga rom etuvchi davr ekani, kattalik davri esa, xuddi eng samimiy va bolalarcha beg'uborlik tark etilgan jarayon sifatida anglay boshlanishi uchun jamiyat ma'naviy ongida yangilanish joiz edi. Hamchunin, Yevropa adiblari XVI-XVII asrdayoq nafaqat bolalikni kashf etdi, balki uni eng sof mukammallik namunasi va mehr-shafqat timsoli sifatida insonga me'ros qilib qoldirdi.

Har bir mamlakatda bolalar tarbiyasiga oid, ularga bag'ishlangan yoxud maxsus yaratilgan ijod namunalari u haqdagi istilohlarni ham vujudga keltiradi. Jumladan, o'zbek bolalar adabiyoti tarixida folklordan tashqari, didaktik adabiyot, bolalar kitobxonligi, ma'rifatparvarlik adabiyoti, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tushunchalari uning shakllanishidagi asosiy omillar hisoblanadi. Hodisaning maydonga kelishi, uning ilmiy iste'molga olib kirilishi, nihoyat, mustaqil fan sifatidagi takomili esa yaxlit tizimni tashkil etadi.

Bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui tom ma'noda bolalar adabiyotini tashkil etsa-da, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatishi taomilga kirgan. Bolalar o'qishi uchun mo'ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. Jumladan, o'zbek bolalar adabiyoti Sharq yozma adabiyotida "pandnoma", "ma'vizatnoma", "nasihatnoma", "axloq kitoblari" singari nomlar

bilan tasnif qilinuvchi asarlar zaminida voqelikka aylangani, shuningdek, uning shakllanishi ma'rifatparvarlik va maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog'liqligi ayon haqiqat. Bolalar adabiyoti tushunchasi avvalo, turli yoshdagi bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan so'z san'atidir. U voqelikni aynan o'n olti-o'n yetti yoshgacha bo'lgan bolalar idroki, tasavvuri, tafakkur obrazlarida gavdalantiruvchi badiiy asar namunalarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan u umumbadiiy adabiyot bag'rida shakllangan. Ayni paytda, u qator xususiyatlariga ko'ra alohidalik kasb etadi.

Bolalar adabiyoti avvalo:

- so'z san'atiga asoslangani va badiiy ijod mahsuli ekanligi jihatdan umumadabiyotga hamohang bo'lsa;

- unda bolalar ta'lim-tarbiyasi ustuvorligi pedagogika bilan;

- bolalar va o'smirlarning murakkab ruhiyati, qiziqishlarini aks ettirishi psixologiya;

- yosh xususiyatlarini ifodalashi fiziologiya bilan;

- ona-tabiat, atrof-olam hodisalarini keng aks ettirishiga ko'ra tabiatshunoslik fanlari;

- kichkintoylar til xususiyatlarini mujassamlashtirib tilshunoslik fanlari va defektologiya;

- xalqona ohang va jonli so'zlashuv tilidan foydalanib, xalq og'zaki ijodi bilan uzviylikda namoyon bo'ladi.

Bolalarbop barcha asarlarda yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, o'y-kechinmalari, orzu-istaklari, voqelikka estetik munosabati o'z ifodasini topadi. Ularning aksariyati yozuvchilar (kattalar) tomonidan yaratilsa-da, voqelik bolalar dunyoqarashi nuqtayi nazaridan talqin va tadqiq etiladi, bolalar tilidan hikoya qilinadi va baholanadi. Binobarin, xuddi shu xususiyatlarni o'zida namoyon qila oladigan o'zbek bolalar adabiyoti XX asrning 20-30-yillarida to'liq shakllanib, umumadabiyotning alohida tarmog'i sifatida maxsus yo'nalish kasb etdi. Bunda A.Avloniy, H.H.Niyoziy, Shokir Sulaymon, G'ayratiy, D.Oppoqova, G'ulom Zafariy, Elbek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Ilyos Muslim, Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Qudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min kabi professional yozuvchi-shoirlar bu sohani shakl va mazmun, badiiylik va obrazlilik jihatdan oyoqqa qo'ygan bo'lsalar, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan bolalar *she'riyati*, *nasri* ancha yuksaldi. Bolalar *dramaturgiyasi* va *publitsistikasiga* asos solindi. Bolalar *kinosi* va *teatri* rivojlandi. Shuni ta'kidlash joizki, bu istiloh ruscha "detskaya literatura" so'zining aynan tarjimasida emas, balki o'zi voqelikka aylangan, o'zbek bolalariga mo'ljallanib yaratila boshlangan ixtisoslangan adabiy hodisani ifodalagan holda dunyoga keldi. Ularning tarixiy-tadrijiy tamoyillari, ilmiy-nazariy umumlashmasi esa "Bolalar adabiyoti" deb nomlangan mustaqil fan tarixida o'z ifodasini topa bordi.

**Bolalar adabiyotining maqsadi va vazifalari.** Bolalar uchun maxsus badiiy adabiyot yaratish an'anasi jamiyat taraqqiyotining muhim ma'naviy ehtiyoji tarzida reallikka aylangach, uning maqsadi va vazifalari aniqlasha bordi. Badiiy adabiyot inson ruhiyatini, hatto uning shaxsiyati shakllanishi va rivojidadagi

oʻrning beqiyosligi bolalar adabiyotida yorqin koʻrinadi. Badiiy asarning moʻjizakor taʼsir kuchi oʻsib kelayotgan yosh qalblarda ezgulik, vatanparvarlik, elsevarlik, badiiy-estetik didni shakllantirish, umuman, hayotga, butun olamga ijobiy va ijodiy munosabatda boʻlishga daʼvat etadi. Shu sababli inson “bola chogʻlardan” badiiy asarga, kitobga oshno boʻlib oʻsishini taʼminlaydigan vositalardan biri bolalar adabiyoti hisoblanadi. Bundan qariyb ikki asr ilgari bolalar adabiyotining ulkan munaqqidlari V.G.Belinskiy, N.G.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubov asoslab koʻrsatganidek, yosh kitobxonlarga taʼlim-tarbiya berish bilan birga, ularga estetik zavq uygʻota oladigan, qaynoq hayot manzarasini butun borligʻicha aks ettirgan chinakam badiiy asarlar hamon muhim talabligicha qolayotir. Shuningdek, bugun bolalar adabiyoti sohasida ham faqat milliy zaminga tayanish ozlik qiladi. Zamondosh oʻquvchi oʻz milliy bolalar kitoblarini oʻqish, uqish bilan birga, jahon bolalar adabiyoti durdonalarini mutolaa qilmasligi mumkin emas. Endilikda bolalar va oʻsmirlarga moʻljallanib yozilgan asarlarda ularning faqat yosh xususiyatlarigagina emas, asar janri, mavzusi, uslubi va tasvirda oʻziga xos yondashuvlar boʻlishini taqozo etayotir. XXI asr bolalarining badiiy asarni qanday qabul qilish darajasi ham jiddiy masala. Yosh kitobxonlarga ongi va tafakkurini boyitish bilan birga, ularning qalbini, zavqini uygʻotadigan yaʼni, tuygʻulariga ham kuchli taʼsir etadigan sanʼat asarlari zarur. Zotan, bolalar adabiyoti fanining *predmetini* bolalar va oʻsmirlarga bagʻishlangan asarlarning gʻoyaviy-mavzuyiy, janriy-badiiy xususiyatlari, ularga oid ilmiy-nazariy qarashlar, tadqiqotlar umumlashmasi, mualliflar hayoti va ijodini batafsil oʻrganish kabilar tashkil qiladi. Shuningdek, xalq ogʻzaki ijodi, jahon bolalar adabiyoti namunalarini tahlil va tadqiq etish, bolalar kitobxonligi koʻrinishlarini oydinlashtirish bundagi muhim hodisalardan.

**Fanning vazifalari** esa talabalarni milliy bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish, u dastavval, ijtimoiy voqelik, xalq ogʻzaki ijodi, boy anʼanalarga ega milliy oʻzbek adabiyoti va jahon adabiyoti tajribalarini oʻzlashtirish orqali yuzaga kelganini asoslash, nihoyat, bu adabiyotning takomili, tadriji, taraqqiyot xususiyatlarini mavjud ijod namunalari misolida koʻrsatib berishdan iborat.

“Bolalar adabiyoti,— deb yozgan edi N.Fozilov,— nozik adabiyot. Bolalar adabiyoti biz bilgan kattalar adabiyotining boshi...Bolalar yozuvchilari oʻz asarlari bilan katta adabiyotga boshlovchi dargʻalar. Bu adabiyot – hurmattalab adabiyot, eʼzoztalab adabiyot... Bolaning koʻngli ham shunday. Uni sindirib boʻlmaydi. Unga hamisha eʼtibor darkor. Shundagina uning koʻngli toʻlib oʻsadi. U – mehrtalab. Shundagina u muhabbatingiz mevasiga aylanadi, izingizni bosadi”.

**Bolalar adabiyotining oʻziga xos xususiyatlari.** Bolalar uchun ham, kattalarga boʻlgani singari, inson va jamiyatga, tabiatga daxldor barcha mavzularda ijod etish mumkin. Bu farqli xususiyat mohiyatini A.A.Makarenko bolalar uchun yozayotganda *nima haqda yozish emas, balki qanday qilib yozishning muhimligida*, deb koʻrsatgan edi. Shu jihatdan kattalar turmushining murakkab qirralarini ifodalovchi maishiy hayot mavzusida Q.Muhammadiyning bolalarbop qilib yozilgan “Qoʻngʻizoy bilan Sichqonboy” sheʼriy adabiy ertagi bu fikrga asos boʻla oladi. Bu asar 1940- yilda yozilgan boʻlib, dastlab “Mushtum”



jurnalida “Qo‘ng‘iz bikach bilan Sichqonboy” nomi ostida bosilib chiqqan. Asar uchun tanlangan voqelik, muammo, g‘oya kattalar hayotiga to‘g‘ri kelsa-da, ammo u allegorik obrazlar vositasida tasvirlangani bolalarbop mohiyat kasb etgan.

Bolalar adabiyoti tarbiya quroli sifatida kichkintoylarga bilim berish vazifasini ham bajaradi, ularning qiziqishlari doirasini kengaytiradi. Garchi u “kattalar”– ijod ahli tomonidan bunyodga keltirilsa-da, bolalar olamini aynan-o‘zligicha, faqat bolalargagina xos nuqtayi nazardan badiiy tadqiq qiladi. Bolalar adabiyotining bosh xususiyati ham ana shunda: *narsa-hodisalarga bolalar ko‘zi bilan qaray bilishida, ularni bolalarcha idrok eta bilishida, ularga bolalarcha munosabat ko‘rsata olishida, ulardan bolalarcha hayratlana bilishida*. Bolalarni onalardan yaxshiroq tarbiyalaydigan odam yo‘q, chunki ular bolalar his qilgan narsani his etadilar, ular bilan birga kuladilar, yig‘laydilar. Bunday ijodiy fazilat nafaqat bolalar adabiyotiga, balki uning bunyodkorlariga ham xos xususiyat bo‘lib, har qanday yozuvchiga ham nasib qilavermaydi. Buni chuqur his etgani bois K.I.Chukovskiy “bolalar – bizning ustozimiz” degan edi.<sup>1</sup> Chindan ham bolalarni ustoz darajasida anglamoq – bu, avvalo, ularga yuksak ehtirom ko‘rgazmoq, ularning xarakterlarini, qiziqish va intilishlarini, kishilarga, narsa va hodisalarga munosabatlarini, quvonch va iztiroblarini sinchkovlik bilan o‘rganmoq, ayni zamonda shu jarayonni bolalarcha his etish, idrok qilish asosida ular uslubiga muvofiqlashtirish, badiiyat sintezidan o‘tkazmoqdan iborat san’atkorlikdir. Rost, inson ulg‘aygani sari o‘z bolaligidan yiroqlashadi, bolalik tabiatidagi xususiyatlarni yo‘qota boradi. Biroq bolalar yozuvchisi bundan mustasno; u inson sifatida har qancha ulg‘aymasin, baribir, bolalik tabiatini saqlab qolmog‘i, uni tobora teranlashtirmog‘i, bolalarcha sinchkov va qiziqsinuvchi bo‘lib, ular ko‘ngliga yo‘l topmog‘i, ruhiy dunyosiga kira bilmog‘i shart. Shundagina u chinakkam bolalar yozuvchisiga aylana oladi.

Insonshunoslik adabiyotning bosh masalasi ekan, bolalar adabiyoti ham shu makon va zamondan ayri rivojlanmaydi. Jamiyat taraqqiyotida ro‘y berayotgan buyuk o‘zgarishlar, tarixiy hodisalar, kishilar ruhiyatidagi evrilishlar kichkintoylar adabiyotida ham zuhur topadi. Shunday ekan, bolalar adabiyotining uzoq yoki yaqin o‘tmishidagi o‘ziga xosliklar hozirgi adabiy jarayonda bir muncha yangilanishi tabiiy. Chunki har bir davr o‘z adabiyoti oldiga eng dolzarb va g‘oyat muhim talablarni qo‘yadi. Shu ma’noda, o‘tgan asr boshlarida bolalar adabiyotining tarbiyaga xizmat qilishi, xalq bolalarini bilimli, ma’rifatli qilishga da’vat etishi, ularning qoloq maishiy hayotini ko‘rsatib berishi asosiy mezon qilib belgilangan bo‘lsa, sho‘ro mafkurasi davrida asosan, “baxtiyor yosh avlod” obrazini tarannum qilish bosh yo‘nalish kasb etdi. Qahramon ruhiyatini ochish, bolalar va o‘smirlikdagina kechadigan tuyg‘ular, murakkab ruhiy holatlarning badiiy tasviri juda kam asarlarda ko‘zga tashlandi. Bolalar adabiyotidagi pedagogik talablar uning so‘z san’ati sifatidagi badiiy ijod o‘zanlariga band soldi. Faqat o‘tgan asrning so‘nggi choragi, aniqrog‘i 80-yillardan boshlab bolalar adabiyoti yakranglikdan qutula boshladi. Istiqlof arafasi va mustaqillik

---

<sup>1</sup> Чуковский К.И. От двух до пяти. М. Детгиз, 1963, стр.358.

yillaridagina bolalar adabiyoti mavzu va qahramon, shakl va mazmun, janrlar xilma-xilligi jihatidan sezilarli darajada o'zgardi. Binobarin, o'zbek bolalar adabiyoti o'z taraqqiyotida umumadabiyotga mushtarak va farqli xususiyatlarga hamohang tarzda rivojlandi. Avvalo, bolalar adabiyoti tabiat va jamiyatdagi barcha mavzularda ijod etish jihatdan umumadabiyotga yaqin, "*qanday qilib yozish muhim*"ligi esa uning o'ziga xos jihatidir. Bu tarixiy tasnif mohiyati ayniqsa istiqloq davri bolalar adabiyotida yorqin ko'zga tashlanadi. Jumladan, E.Malikning "Shaytonvachchaning nayranglari" ma'rifiy qissasida ikki muhim xususiyat mavjud: *birinchidan*, mustaqillik tufayli bolalar adabiyotiga xalq pedagogikasi, milliy ta'lim-tarbiya asoslari singdirilishi; *ikkinchidan*, asar jamiyat va mamalakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi "aytsa til, aytmasa dil kuyadi"gan ijtimoiy hodisalarning obrazli tasviriga bag'ishlanganiga ko'ra ahamiyatlidir.

Bu kabi asarlarda jamiyat hayotidagi muhim o'zgarishlar, ijtimoiy voqelik, tariximizning yangi sahifalari, shuningdek, insoniy e'tiqod va iymon talqini bolalarbop yo'sinda aks ettirilgan.

Yoki, G'afur G'ulomning "Shum bola" asari haqida "Qilichning damida yurib yaratilgan san'at mo'jisasidir",– deyilishida (A.R'asulov) hikmat bor. Shu sababli, bunday asarlar yosh kitobxonni befarq qoldirmaydi. Xuddi shu nuqtayi nazardan har bir davrning eng muhim mavzulari bo'lsa-da, o'sha avlodlar qiziqishiga, qabul etishi va "hazm qilishi"ga mos tarzda, ammo yuksak nafosat darajasida badiiy ifoda etilishi maqsadga muvofiq. Shundagina bolalar asarlarining yetakchi qahramonlari talqinida ijtimoiy hayotga faol munosabat sezilib, bu jihat o'quvchiga ham ko'chadi.

Bolalar adabiyotining *ikki yo'nalishli adabiyot* ekanligi ham bu soha ibtidosida ta'kidlangan va hamon o'z ahamiyatiga ega xususiyatlardan. Chindanda, u bolalar va o'smirlarga mo'ljallangani uchun, avvalo shularning adabiyoti, ayni paytda san'at asari bo'lgani bois kattalarning ham diqqatini tortishi tabiiy. Adabiy ertak yozish an'anasini boshlab bergan va uni cho'qqiga ko'targan X.K.Andersen shuni nazarda tutib yozgan edi: "Men nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun yozayotganimni har doim esda tutaman. Bolalarni ertaklarning fabulasi ko'proq qiziqтира, kattalarni ularga singdirilgan g'oya qiziqtiradi".<sup>2</sup> Chunonchi, Sharl Perroning mashhur "Qizil shapkacha" ertagi har qancha sodda va quvnoq sujet asosida qurilgan bo'lmasin, ham bolalarni, ham kattalarni qiziqtirgani holda unda ifodalangan "Qizil shapkacha"li go'zallarni (qizil shapkacha – go'zallik ramzi, unda fransuz qizlarining umumlashma obrazlari ko'zda tutilgan) fransuz burjuaziyasining shahvoniyatparastligidan (Bo'ri qiyofasida fahshga mukkasidan ketgan burjuylar ko'zda tutilgan) ogohlantirishdan iborat g'oyani faqat asar ijod etilgan tarixiy davr mantiqidan uqa olgan kattalargina ilg'ashlari mumkin. Shuningdek, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Yengil adabiyot" darsligida keltirilgan "To'g'ri so'z bola" she'ri rostgo'y bolaning ibrati ifodasi tarzida taassurot qoldiradi. Ammo, "Meni – deb yozadi adabiyotshunos olim A.Rasulov – she'rdagi o'zga masala jalb etdi. Bolaning

---

<sup>2</sup>Andersen X.K. Ertaklar. Toshkent, "Yosh gvardiya", 1960, 4-b.

yo'lini to'sgan, qaddi qomati kelishgan, tasavvurimcha, bashang kiyingan ikki kishi kim edi? Nega ular pul berib yolg'on sotib olmoqchi bo'ldilar? Qolaversa, iste'dodli Hamzada yolg'onfurushlar qiyofasini yaratish fikri qachon, qanday paydo bo'ldi?" Olim masalaning shu tomoniga e'tibor qaratgani holda, she'rdagi yangi mazmunni inkishof etadi: XX asrda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida yolg'onning urchib ketgani, yolg'on inqiloblar, yolg'onni suv qilib ichib yuborgan "dohiyalar", yer kurrasining oltidan birida barpo etilajak jannat haqidagi uydirmalar... xullas, oxiri sarob "izm"lar munaqqid mushohadalariga asos bo'lgan. Ushbu fikrning e'tiborli tomoni yana shundaki, yuqoridagi bolalarbop jajji asar kattalar mushohadasiga sazovor mazmun tashigan. Shu ma'noda, bolalarga mo'ljalangan badiiy asar, avvalo, hammabopdir.

Sujetning qiziqarliligi bolaga haqiqatan zavq bag'ishlaydi. Biroq zamondosh kichkintoylar uchun buning o'zi yetarli emas. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamon aravasida ketayotgan yosh avlod uchun o'tkir mazmun va g'oya ham zarur. Tasavvurga boy va teran ruhiy holatlar, falsafiylik yosh kitobxon idrokini boyitishga xizmat qiladi. Hamchunin, M.A'zamning inson va zamin muammolariga bag'ishlangan mushohadakor she'rlarini bugungi yosh kitobxon diqqat bilan o'qiydi. Miraziz A'zamning "Yodgor xolaning vahimasi" she'ri yumoristik tabiati bilan o'quvchiga bitmas-tuganmas zavq bag'ishlaydi. Unda shoir, asosan, xalq tilidan o'ziga xos uslubda foydalangani e'tiborni tortadi. She'r muayyan voqelik – sujet tizimiga ega. Shuning uchun shoirning o'zi ham unga "bo'lgan voqea" degan sharhni ko'rsatib o'tadi.

She'rdan aytilishicha, bir kuni Yodgor xola shoshganicha uydan otilib chiqib dalaga chopa ketadi. Bunda shoir kampirning yoshiga munosib bo'lmagan harakatiga alohida diqqatni qaratadi:

Yodgor xola to'satdan  
bir tepdi-yu qopqani,  
chopa ketdi dalaga  
nevarasin topgani.

Anglashiladiki, buvi hali voyaga etmagan nevarasini yo'qotib qo'ygan. Shundan hovliqib, tahlikaga tushgan buvining xatti-harakatlari ajabtovur. Hovliqqan kampir chor tarafga yugurgilab, nevarasining ismini aytib chaqiraveradi:

–Akbar, Akbar, hov Akbar,  
qayga ketding, zumrasha?  
Zumda g'oyib bo'lasan  
ariq osha, yo'l osha... –  
Yodgor xola yugurar  
oyoqlari lorsillab,  
javrab borar o'zicha  
yo'l-yo'lakay harsillab.

Darhaqiqat, ba'zi o'yinqaroq bolalar kattalarni ogohlantirmasdan uydan chiqib ketaveradilar. Hatto ayrimlari buning oqibatida adashib qolishadi. Shundan cho'chigan Yodgor xola ham nevarasining ko'rinmay qolganidan vahimada va

sarosimada. Uni avval yengilgina qilib “zumrasha” deb, keyin esa g‘azabi ortib “tirmizak” deb urisha boshlaydi:

– O‘tirsana bo‘lmasmikin  
ko‘milib uy ichida?  
Tashqarida nima bor,  
nima bor ko‘y-ko‘chada?  
Akbar, Akbar, hov Akbar,  
qay go‘rdasan, tirmizak?

Hatto u achchig‘iga chidolmay “qay go‘rdasan?” ham deydi. Biroq tezda o‘zini qo‘lga olib, nevarasini quyidagi jumlar bilan alqashga tushadi:

Tez kela qol, jon bolam,  
momongni qilmay halak.

Qizig‘i shundaki, nevara hech qayoqqa ketmagan edi. Yodgor xola biroz muddat oldin uni erkab bo‘yniga mindirib olgan bo‘ladi. Ammo keksalik tufayli bir ishga angal bo‘lib, buni unutadi. Shuning uchun syujet echimida quyidagi kulgili voqea beriladi:

... Yodgor xola bo‘ynidan  
siqib so‘rar Akbarjon:  
– O‘zi qaysi Akbarni  
chaqiryapsiz, momojon.

O‘z qilmishidan o‘zining kulgisi qistagan, hatto nevarasining oldida mulzam bo‘lib qolgan onaxon sir boy bermay, yana zo‘ravonlik ko‘rsatib deydi:

–Ha, basharang qurmasin,  
darrov “ha” demaysanmi?  
Lo‘killatmay meni ko‘p,  
tez ovoz bermaysanmi?

Ayni paytda nevara ham bo‘sh kelmaydi. Buvi-nevaraning dialogi asosida she‘rning yumoristik ruhi yanada kuchaytiriladi:

–O‘zingiz opichvolib,  
o‘zingiz chaqirasiz.  
Jinnimisiz, momojon,  
nimaga baqirasiz?

Xalqning “Ona ko‘ngli bolada, bola ko‘ngli dalada” degan maqolida aytilganidek, buvi nevarasining ahvolidan tashvishda ekanligini quyidagicha izhor etadi:

- Voy Akbarjon, bolam-a,  
mening ko‘nglim alag‘da,  
depalatsa boshlandi  
o‘tgan hafta dalada.  
Butiposmi, mutipos,  
bir balolar sepadi.  
Qancha-qancha bolalar  
balnisaga ketadi.  
Mirza bo‘lang yotibdi

sariq kasalga uchrab,  
tinmasdi,  
yerga ursang,  
olovday ko'kka sachrab.  
Uyda o'tir, jon bolam,  
joning omon bo'lsa, bas.  
Sen ham dardga chalinsang,  
jonimdan bitta qolmas.

Shoir kampir tilidan keltirilgan bu she'riy parchada “depalatsa”, “butiposmi, mutipos”, “balnisa” singari ruscha so'zlarni hamda “alag'da”, “balo”, “bo'la”<sup>3</sup> dialektizmlarini va “yerga ursang, ko'kka sapchiydi”, “jonimdan bitta qolmas” kabi iboralarni qo'llash orqali kekxa onaxonlarga xos nutq ifodasini bera olgan. Natijada, o'zbek buvijonlarining tipik ko'rinishini yorqin tasvirlashga erishgan. Shunday buvijonlardan tarbiya olib o'sayotgan bolajonlar, odatda, so'zamol bo'lishadi. Shuning uchun onaxonning suyukli nevarasi Akbarjon o'ktamlilik va so'zamollik bilan unga quyidagicha dadil javob qaytaradi:

– Qo'rqmang, - deya Akbarjon,  
ovuntirar momosin, -  
menga dori sepganning  
ko'rsataman onasin.

Mazkur she'r sujetidagi zavqovarlik bolalar diqqatini tortsa, uning zaminidagi g'oya – o'tgan asrdagi “paxta ishi”ning turli jarohatlari kattalarning og'riqli alamlaridir.

Yoki, Meshpolvonning (A.Obidjon “Dahshatli Meshpolvon”) portret tasviri (“...ikki lunji nog'ora, beti oftobday zog'ora, betida eshak tepkisidan naqshlangan chandiq, qorni qirq pudlik sandiq, burni mushuknikidek puchuq, yelkasi baayni hurpaygan chumchuq, bo'yni oldinga enkaygan, quloqlari dinkaygan, oyoq bosishi ilang-bilang, boshi Yozyovon cho'lidek yap-yalang, ko'rinishidan kamgap-u anqov, aslida mahmadana-yu mijg'ov, ko'zlari boyqushnikiday ola... Xullas rosayam qiziq bola”) va qahramonlik sarguzashtlari katta-yu kichikka baravar zavq berishidan tashqari, yozuvchi bu orqali xalqona iboralar jilosi, unutilayozgan milliy ertaklar ohangi, ruhini bugungi yosh avlod qulog'iga singdirishni ko'zlaydi. Bu ham o'z navbatida, hodisaning ikki xil mohiyatiga xizmat qila oladi.

Binobarin, bolalarga mo'ljallangan badiiy adabiyot kichkintoylardan tashqari dastlab, san'at asari sifatida, so'ngra, g'oyadorligi jihatdan hammabop bo'lishi mumkin ekan. Bolalar adabiyoti tarixida voqelikning o'ziga xos tasviri ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bunda quyidagi xususiyatlar alohida ta'kidlanadi:

**a) badiiy obrazning, voqelikning aniq-tiniqligi, ko'rimgiligi.** Bu xususiyat aksaran, maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshidagi o'quvchilar kitobxonligiga xos. Ular uchun yozilgan asarlarning har bir jumlasida rasm chizish mumkin bo'lmog'i shartligi, o'rinli e'tirof. G'afur G'ulomning “O'ylashni

---

<sup>3</sup>Bo'la – shevada “xolavachcha”, “tog'avachcha” yoki “ammavachcha” ma'nosida qo'llanuvchi so'z.

o‘rganamiz” she‘rida mavhum hodisani ko‘rimli qilib tasvirlash yorqin kuzatiladi. Muxtorjonning olti yoshli singlisi Munisxondan “O‘ylashni bilasanmi?” deb so‘raganida, uning : “Aka-a, o‘zing ayta qol, O‘ylash degan nimadi?”, – deya iqror bo‘lgani bejiz emas. Shunda, Muxtorjonning “jiddiy turib”, “qoshini birga yig‘ib” o‘ylashida “muzqaymoqdan tog‘”, “nuqul gilos bog‘”, “bir qozon qaymoq”, “Tuyaday pishloq” singari obrazlar ko‘rimlilik – predmetlilik kasb etgan. Bu esa kichkintoylar tasavvurini yorqinlashtiradi. Shu sababli she‘rda ham Munisxon “Og‘zining suvi kelib: –Viy-y...” devoradi.

O‘smirlar uchun mo‘ljallab yozilgan asarlarda esa do‘stlik, muhabbat, iymon, e‘tiqod singari ko‘plab mavhum tushunchalar obrazli tasavvurda, ramziy detallarda tasvirlanadi. Masalan, A.Obidjonning “Vatan” she‘ri bugungi yosh avlod tafakkuri, o‘tkir aql-idrokiga monandligi bilan e‘tiborga loyiq :

- Senga bitta savol bor,  
Menga quloq sol, hoy, qush.  
Vayronada yashaysan,  
Noming esa naq Boyqush,  
Ayt-chi, nahot sen boysan?  
- Asl boylik neligin  
Tushunmaysan, chamasi.  
Bu vayrona bo‘lsa ham,  
O‘zimmiki hammasi,  
Shuning uchun men boyman!

Shoirning bolalarga xos tushuncha va tasavvurdan foydalanib, asl muddaoni ayta olgani diqqatga sazovor. Boyqushning ko‘rimsizligi, buning ustiga xarobada yashashi uning nomiga nomunosib ekanligi bolalarni qiziqtirishi tabiiy. Shoir aniq va ko‘rimli timsol – boyqush hamda u yashaydigan vayrona orqali kichik maktab yoshidagi kitobxonlar uchun hali mavhum bo‘lgan tushuncha – vatanparvarlik, o‘ziga beklik hissini anglatishga erishgan.

Bu o‘z navbatida badiiy adabiyotning hayotni o‘rganishdagi asosiy xizmatini oydinlashtiradi. Zotan, S.Jo‘ra, Q.Muhammadiy, A.Muxtor, Sh.Sa‘dulla, X.To‘xtaboev, T.Adashboyev, S.Barnoyev kabi ijodkorlarning kichkintoylar uchun yaratgan asarlarida aniqlik ustuvor bo‘lsa, N.Fozilov, H.Nazir, M.A‘zam, A.Obidjon, T.Malik singari adiblarning asarlarida tasavvur yetakchi. Bu esa bolalar adabiyoti o‘quvchini aniq, ko‘rimli obrazlardan mavhum tasavvurlar tomon, ya‘ni, katta adabiyotga boshlovchi ko‘prik ekanligiga dalildir.

b) **hikoya qilishda lirik yoki komik maylning kuchliligi.** Bolalar adabiyotining asosiy xususiyatlaridan biri – uning samimiy his-tuyg‘ularga boyligi ekani o‘z vaqtida V.G.Belinskiy tomonidan qayta-qayta uqdirilgan edi. Quvnoq yumor esa uni yanada to‘ldiradi. Bu hali-hanuz bolalar adabiyotining o‘ziga xosligini belgilab kelmoqda. Bolalik ummonga, bahorga qiyoslanadi. Nega? Ulardagi o‘xshashlik, go‘zallik nimada? Tabiatning inja sirlari namoyon bo‘lishidami? Darhaqiqat, bahorning intiq kutilishida ko‘ngillarni quvnatadigan betakror go‘zallik, yasharish, ajib manzaralarning xush kayfiyat bag‘ishlashi dillarni yayratsa, dengiz to‘lqinlari ruhimizga taskin beradi. Beg‘ubor bolalik,

uning beozor sho‘xliklari-yu shodliklarida ham inson ko‘ngli orom oluvchi, huzur tuyuvchi samimiyat bor. Demak, kichkintoylar va bolajon qalblar ham tabiatan ana shunday his-tuyg‘ularga moyil. “Tabiat o‘z harakatida mudom tinim bilmaydi, – deb yozgan edi Gyote. Tabiat to‘xtovsiz yangi shakllar yaratadi. Hozirgi mavjud bo‘lgan narsalar ilgari hech qachon bo‘lmagan; bo‘lib o‘tgan narsalar hech qachon qaytib kelmaydi; hamma narsa yangi va shu bilan birga eski hamdir. “Ta’bir joiz bo‘lsa, tabiatning ana shu sinoati ko‘proq bolalikda yaqqollashadi. N.G.Chernishevskiy shu ma’noda, bolalarga mo‘ljallangan badiiy asarlarda “Vah... Qanday dahshat?”, “Ey, muncha kulgili!”, “Bay-bay, muncha yaxshi!” kayfiyatlarini qo‘zg‘ovchi alomatlari bo‘lmasa, yosh kitobxonlarni to‘lqinlantira olmaydi, deb hisoblagan edi. Shu jihatdan qaralsa, o‘zbek bolalar adabiyoti tarixida ham lirik ko‘tarinkilik va quvnoq yumorga boy asarlar yosh avlod qiziqishiga ko‘proq muassar bo‘lgan. Zero, G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Sehrgarlar jangi yoxud, Shirin qovunlar mamlakati”, A.Obidjonning “Dahshatli Meshpolvon” va “Meshpolvonning janglari” kabi asarlarini o‘zgacha zavq bilan o‘qilishining siri avvalo shunda.

Real olam voqealarini xayolot dunyosiga yo‘g‘irib, adadsiz orzular tasvirida berish bolalar adabiyotining doimiy ehtiyojlaridan. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar kitobxonligiga xos ertak va hikoyalarni sehrlilik predmetlar, ajoyib-ug‘aroyib sarguzashtlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bolalar adabiyotida X.Andersen, M.Tven, R.Kipling, J.Rodari, K.Chukovskiy, X.To‘xtaboyev, A.Obidjon kabi bolalar adiblari asarlaridabu sirli tilsimlarasosiy g‘oyani ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. “Ayniqsa, Xudoyberdi To‘xtaboyevning Hoshimjoni – deb yozadi A.Rasulov–sehrlilik qalpoqchasini kiyib yarim dunyoni kezib chiqdi, ming-minglab kitobxonlar qalbidan joy oldi”<sup>4</sup>. Olim bunda X.To‘xtaboyevning mahorati, bolalar qalbini rom etish san’atini nazarda tutadiki, chindan ham o‘zbek bolalar adabiyotshunosligi oldida ularni teran yoritish masalasi ko‘ndalang turibdi.

d) **xarakter va hodisalar ifodasida dinamikaning yorqinligi, jonliligi.** Harakatchanlik, tinib-tinchimaslik, hamma narsaga qiziquvchanlik bolalarning tabiatida mavjud. Bu jihat ularbop asarlarda ham o‘z ifodasini topadi. Jahon va o‘zbek bolalar adabiyotidagi Robinzon (“Robinzon Kruzo”), Gulliver (“Gulliverning sayohatlari”), Pinokkio (“Pinokkio va uning boshidan kechirganlari”), Buratino (Oltin kalit yoki Buratinoning sarguzashtlari), Kachal polvon (“Kachal polvon yoxud yog‘och qo‘g‘irchoqning sarguzashtlari”), Qoravoy (“Shum bola”), Hoshimjon, (“Sariq devni minib”), Alamazon (“Alamazon va uning piyodalari”) kabi qahramonlarning sarguzashti, o‘ziga xos va mos harakati orqali voqealar sujetida qiziqarlilik sodir bo‘lgan. Ba’zi asarlarda esa yanada shiddatli dinamizm ko‘zga tashlanadi. K.Chukovskiyning “Moydodir” (“Yuvin, do‘mbog‘im”), Q.Muhammadiyning “Temirlar o‘yini”, Sh.Sa’dullaning “Ayyor chumchuq” kabi she’rlarida sujet shiddatli dinamizm asosida voqe’

---

<sup>4</sup> Rasulov A. G‘aroyib saltanat. T.: Adib, 2012.

bo‘lgan. Kichkintoylar o‘z tabiatiga yaqin shu xildagi harakat zamirida namoyon bo‘luvchi voqelikni kattalarga nisbatan tez ilg‘aydi, voqealar almashinuvi uning ko‘z o‘ngida yorqin akslanadi. “Temirlar o‘yini”da bu jihat temir-tersaklar ishtirokida ro‘y bersa, Anvar Obidjonning “So‘nggi axborot” she‘rida mevalar va sabzavotlar misolida ko‘zga tashlanadi:

Bo‘lib o‘tdi qishloqda	Shamollatdi qornini,
Kechazo‘r shamol.	Oshqovoq polvon.
Natijada ro‘y berdi	Pachiq qildi burnini,
Anchayin kor-hol.	Mulla baqlajon.
Uzum boshi aylanib,	Uyqichiroq bir tarvuz
Bo‘p qoldi kasal.	Yumalab borib,
Shoxdan yiqilib olma,	Uyg‘onibdi qovunning
Yotibdi o‘sal.	Boshini yorib.
Hatto giloslat edi,	Noklar yerga to‘kildi,
Bo‘lsa ham abjir.	Bo‘lishib bir jom.
To‘qnashuvda anorga...	Ammo zarar ko‘rmadi
Chaplandi anjir.	Sabzi va sholg‘om.

Ko‘rinadiki, harakatlanayotgan har bir narsa o‘ziga xos sazoga ega bo‘lishidan tashqari, bolalar sho‘xligini ham eslatadi. Kichkintoylar bu harakat va “jang” zamirida o‘sha narsalarning o‘zini va o‘zlarini ko‘rib turganday sezadilar. Ammo, bolalar ulg‘aya borgani sari ular zohiridagi bu dinamika botiniga, tasavvuriga ko‘cha borganidan, o‘smirlar adabiyotida detektiv, yoxud fantastik asarlar tarzida davom etadi. Binobarin, ulug‘ munaqqidlar ta‘kidlaganidek, bolalar adabiyotida “borliqni va barcha mavjudotni harakatga keltirmoq zarurligi” masalasi bolalikning o‘zi qadar umrboqiylik kasb etadi. Haqiqatan, kichkintoy bola nazdida “soqov tosh ham, dala-dashtdagi xas-xashaklar ham shivirlab, oqayotgan ariqcha ham, sokin esayotgan shamol ham, parvoz qilib, guldand-gulga qo‘nayotgan kapalak ham muhabbat va hayot tilida so‘zlashi” tabiiy.

e) **tilning aniqliği, tushunarlılığı va serqirralığı.** Kichkintoylar asarlarining tili grammatik jihatdan umumadabiyotga mushtarak bo‘lgani holda, bolalarcha tafakkur qilishning ifodaviy vositasi ham. Bunda bolalar adiblarining tilshunoslik mahorati muhim rol o‘ynaydi. Negaki, uch xil yoshdagi bolalar kitobxonligida asar til xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi. Jamiyat taraqqiyotida tilning o‘zgarib, boyib borishi ayon. Har bir davr yosh avlodining so‘z boyliklari imkoniyati turlicha bo‘ladi. Tushuncha va ifodalarning bola yosh xususiyatlariga mos bo‘lishiuning adresliligini ta‘minlaydi.

Jamiyatda ro‘y bergan o‘zgarishlar adabiyotda o‘z aksini topar ekan, bolalar adabiyoti ham bundan mustasno emas. Shu ma‘noda, bugungi bolalar adabiyotitil xususiyatlari, emotsionalligi jihatdan-da, “kechagi”dan bir muncha farq qiladi. XX asrning boshlarida bolalar adabiyotida ham ifoda va iboralarda o‘sha davr ruhidan tashqari, yosh xususiyatlari umumiyligi ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni, ularda bolalar kitobxonligining adresliligi nazarda tutilmagan. Maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshidagi kichkintoylarning lug‘at boyligi (leksikoni) o‘smirlarga nisbatan alohidalik kasb etishi uning keyingi bosqichlarida ko‘zga tashlandi. Abdulla



Avloniyning “Bahor”, “Yoz”, “Kuz”, Hamza Hakimzodaning “Mevalar mojarosi” she’rlarida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi.

30-80-yillar bolalar adabiyotida ham ijtimoiylashuv yetakchilik qilgan esada, kichkintoylarning til xususiyatlariga qisman e’tibor berilgan. Aytaylik, Sh.Sa’dullaning “Yil fasllari” she’ridagi:

*Milt* etib chiqdi quyosh,

Dedi: - Do‘stlar, qish *odosh*,-

misralaridan uning maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangani anglashiladi. Bunda ular nutqiga xos lug‘at aks etgan. Ta’kidlab ko‘rsatilgan so‘zlar aynan 2-6 yoshdagi bolalarning taqlidchilik, erkalash ohanglariga mos. Shoir bunday serjilo nutq zamirida bahor fasli tashrifini shu yoshdagi kichkintoylar hali sezishga ulgurmagan ikki xususiyatini – bahor qishdan so‘ng kelib, qishga xotima ekani, uning tugashi (“qish odosh”)hamda endilikda iliq kunlar (“miltillab quyosh chiqishi”) boshlanishini kichkintoy o‘quvchi saviyasiga muvofiq ma’lum qilmoqda. Yoki, shoirning:

Dala -dashtda tindi ish,

Keldi mehmon bo‘lib qish.

(Qish emas, u–qorbobo,

Sovg‘alari bor bobo.) -

she’rida ham kichkintoy bola tasavvuri o‘z ifodasini topgan. Yosh bola nazdida, yangi yil, qorboboning sovg‘a ulashishi – qish ramzi. Ularning qishni intiqlik bilan kutishlari ham shundan. Zero, shoirqish ta’rifida teran, qisqa va obrazli ifoda bilan kichkintoy olamini yorqin aks ettirishga erishgan. Uning ta’sirchanligiva bir necha avlod bolaligining sevimli she’riekani ham shundan.

Bolalarning lug‘at boyligi ularning saviyasini belgilovchi asosiy mezon. Ular ma’nan ulg‘aygani sari voqelikni o‘zlashirish imkoniyatlari, til boyligilari orta boradi. Jamiyat taraqqiyoti bu tamoyilni yanada orttiradi. Yosh avlodning did-saviyasi, tafakkuri o‘shida so‘z boyligi, ularning ma’no qirralaridan kengroq foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zotan, bolalar adabiyotining tili endilikda shu jihatdan rang-baranglik kasb etayotir. E.Vohidovning bolalar uchun yozgan “Olma” she’ri shunday so‘z jilolanishiga ega:

Men sizlarning

*Olmangiz.*

Xomligimda

*Olmangiz.*

Nortojiga o‘xshab so‘ng

Voy qornim, deb

Qolmangiz.

Ma’lumki, turkiy xalqlar she’riyatida tajnisli qofiyaga asoslangan lirik janr – tuyuq mavjud. Bunda shakldosh so‘zlar mo‘jazgina matn doirasida turli ma’nolarda va o‘rinli qo‘llanadi. Bu esa shoirdan yuksak badiiy mahoratni talab qiladi. Shuningdek, tuyuq ona tilining go‘zalligidan zavqlanish, uning beqiyos imkoniyatlari bilan faxrlanishga asos bo‘lar ekan, bolalarnibu badiiy san’atga o‘rgatish maqsadi ko‘zlanganiga shubha yo‘q. Ta’kidlangan so‘zdagi ikki xil

ma'no – meva (olma) va harakatni bildiruvchi buyruq fe'li (olmoq) she'r mazmunini osongina yod olish bilan birga, ona tilimizning serjiloligini ham namoyon qiladi. Bu shoirning “Qarag‘ay” she'rida ham kuzatilgan. Unda o'rmonda tik o'sadigan doimo yashil turuvchiignabargli daraxt (*qarag‘ay*) bilan tilimizda o'z yoki o'zga shaxsini bo'rttirib ko'rsatish, yuqorilash uchun ishlatiladigan ibora (akang *qarag‘ay*) omonimi hamda *qaramoq* fe'lidan yasalgan paronim so'zidan (*qaragay*) o'rinli foydalanilgan.

Bo'yin cho'zib

Qarag‘ay,

Yon-atrofga

Qaragay,

Der u :

Barcha daraxtdan

Baland akang–

Qarag‘ay.

Anglashiladiki, kelajakda o'tkir idrokli, keng mushohadali bolalarni tarbiyalash, ona tili va o'z yurti boyliklarining haqiqiy egasi bo'la oladigan avlodni voyaga etkazishda mazmundor, serqirra asarlarning ta'siri katta. Shu ma'noda, tilning aniqligi, yorqinligi, yoxud, serqirraligijamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib boraveradi. Ijodkorlarning o'ziga xos tasvir uslubi, ramziy ko'chimlardan foydalanish mahorati, poetik obrazlarning yangilanishi bilan badiiy so'z kamalakday jilolanadi. “Aslida biz hayratga tushadigan narsalarnigina o'qishimiz zarur”,– degan edi V.Gyote. Bu jihat bolalar adabiyoti uchun yanada muhim hisoblanib, ular kitobxonligining adresliligini ta'minlaydi desak, xato bo'lmaydi. Aslini olganda umumadabiyotda ham kitobxon har xil toifaga bo'linadi: o'z tafakkuri, qiziqish va didiga qarab u yoxud bu janrdagi, yo'nalishdagi asarlarni mutolaa qiladi. Bolalar kitobxonligida bu jihat ham yo'q emas. Ammo ularning yosh xususiyatlari bilan bog'liq tabiiy jarayon **bolalar adabiyotining adresliligini** belgilaydi. Pedagogika va psixologiyada turli yosh davrlari ruhiyatining bir-biridan sezilarli farqi asoslab berilgan. Xususan, chaqaloqlik, ilk bolalik, maktabgacha ta'lim yoshi, kichik maktab yoshi, o'smirlik, o'spirinlik, yoshlik, yetuklik va keksalik davrlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, sifatlarga ega bo'lib, ular bir-biridan odamning xronologik yosh ko'rsatkichlariga ko'ra emas, balki shu davrda inson ruhiyatida kechadigan hodisalar, ro'y beradigan o'zgarishlar uning ruhiyatidagi umumiy qonuniyatlarga binoan ham farqlanishi ta'kidlangan. Bolalar qalbini badiiy tadqiq etish, bolalikni badiiyat ko'zgisida butun borlig'icha aks ettirish, aniqrog'i, bola dunyoqarashi, botiniy va zohiriy takomillashuvi hamda ijtimoiy-axloqiy jihatdan shakllanish pillapoyalarini ko'rsatishni maqsad qilib belgilagan adabiyotijodkordan o'z o'quvchisining yosh xususiyatlari, ruhiyati, saviyasi va qiziqishlarini nazarda tutishni talab etadi. Shunga ko'ra quyidagi uch asosiy davr bolalar kitobxonligida ajralib turadi:

1) 1,5-2 yoshdan 6-7-yoshgacha – maktabgacha ta'lim yoshdagi (bolalar kitobxonligi) bosqichi:

2) 7-yoshdan 11-12 yoshgacha – *kichik maktab yoshdagi (bolalar kitobxonligi)* o‘quvchilik davri;

3) 12-13 yoshdan 16-17 yoshgacha – *o‘smirlik (o‘smirlar kitobxonligi)* davri.

### **Maktabgacha ta’lim (tarbiya) yoshidagi bolalar kitobxonligi xususiyatlari.**

O‘zbek bolalar adabiyoti tarixi ham o‘zining yangi yuz yilligiga qadam qo‘ydi. Ammo L.N.Tolstoyning bu yosh xususiyatlari haqidagi san’atkorona bahosi hamon o‘z mohiyatini saqlab kelmoqda: “Axir men hozir nimalarda yashayotganimni o‘shanda kashf qilmaganmidim? – deya xotirlagandi u yetmish yillik umriga sarhisob qila turib. – Shuncha ko‘p, shuncha tez kashf etgan narsalarimning yuzdan birini ham, qolgan butun umrim davomida kashf eta oldimmi? Aslo! Besh yashar boladan mengacha – faqat bir qadam, yangi tug‘ilgan chaqaloqdan besh yashar bolagacha – dahshatli masofa!”<sup>5</sup>. Lev Tolstoy fikrlaridan bolalar dunyosini idrok qilish, his-tuyg‘u, o‘lchovlari va qiziqishlarini ulardek anglash kattalar uchun naqadar og‘ir va mas’uliyatli ekanligi anglashiladi. Yoki, mashhur bolalar shoiri K.Chukovskiyning “Ikkidan beshgacha” asarida ham aynan shu yoshdagi bolalarning ong va bilim doirasi o‘sib borishiga oid qiziqarli ma’lumotlar to‘plangan. Muallif insondagi zukkolik va hushyorlik, iqtidor va uddaburonlik yoxud, yolg‘onchilik hamda ayyorlik kabilar aynan 2-6 yoshlik davrda to‘la namoyon bo‘lishini isbotlaydi.

Haqiqatan, chaqaloq besh yoshga to‘lgunga qadar oyoq tashlab, til chiqaradi, ongi kurtak yozib, tuyg‘ulari shakllanish jarayoniga kira boshlaydi. Inson umrining ibtidosi – go‘dakligidayoq so‘z san’ati sehri bilan tarbiyalanishi beqiyos ijtimoiy-estetik qimmatga molik. Azaldan xalq ijodiyotidagi erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, ertaklar va aytim-olqishlar shunday vazifani ado etib kelgan. Murg‘ak bolani so‘z ohangida erkalash, ardoqlash ular ruhiyatida o‘zgacha ta’sir etishi bugun folklorshunos, psixolog va pedagoglar tomonidan qayta-qayta ta’kidlanmoqda.

Ulug‘ mutafakkir Ibn Sino bundan ming yillar avval yozgan “Axloq haqida risola”sida shunday yozadi: “Tarbiyani bolaning eng yosh paytidan boshlash kerak, zero unga yaxshi xulq odat bo‘lib qolsin”. Bu fikr mag‘zini Unsurulmaoliy Kaykovus, Shayx Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy mumtoz so‘z ustalari didaktik asarlariga singdirdilar. XX asrda esa Abdulla Avloniy o‘zining pedagogik risolasida tarbiyaning zamoni haqida mulohaza yuritadi: “Emdi ochiq ma’lum bo‘ldiki, tarbiyani tug‘ulgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go‘zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan...”

Shu iqtiboslar, ta’kidlab ko‘rsatilgan jumalarning o‘ziyoq, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligining dolzarb ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bola hali kitob o‘qishni, uning mazmunini idrok etishni bilmasa-da, ularda atrof-olamdagi o‘zlariga noma’lum hodisalar, narsa-predmetlarga qiziqishlari kuchli bo‘ladi. Ayni paytda taqlidchilik asosida hayotni o‘zlashtira boradilar. Binobarin, bu yoshdagi bolalar ertaklari va

<sup>5</sup> Толстой Л.Н. Собр. Соч. т.1, М. ГИХЛ, 1952, с. 330

she'rlarining personajlari – hayvonlar, qushlar, hasharotlar, dov-daraxtlar bo'lishsa-da, odamlarga taqlidiy suratlarga ega: odamlarday gapiradi, yig'laydi, xafa bo'ladi. Bolalarda 2-3 yoshidan boshlab so'z o'rganish, so'zni anglash va aytish ehtiyoji jiddiy tus oladi. Ularning so'z boyligi albatta, yildan-yilga ortib, boyib boraveradi. Ular 3 yoshda 1200-1500 so'z bilsa, 4-5 yoshda 2500 tacha so'zni o'z iste'mollariga kiritadilar. Bola hech qanaqa grammatik qoidadan xabarsiz bo'lsa-da, so'zlarni mantiqan to'g'ri aloqaga kiritib, o'z fikri va istagini izhor qila boshlaydi, hatto qay bir tushunchalarni ifodalovchi so'zni hali bilmasada, o'zicha so'z yasab uni ifodalagan bo'ladi, shu tariqa o'z lug'atini aks ettiruvchi tili yuzaga keladi. Xuddi shunday bir vaziyatda bolaga hayvonlar, qushlar va hasharotlarning yorqin rasmlari, ularga daxldor voqelikni ifodalovchi voqeaband rasmlardan tashkil topgan pishiq kartondan ishlangan animal kitobchalar, hayvonlar haqidagi ertaklar mazmunini aks ettiruvchi dekorativ kitobchalar, kesma yoxud yig'ma kitobchalar berilmog'i, u bunday rangli kitobchalarni o'zi ochib varag'lamog'i, rasmlariga qarab, tasvirdagi narsalarni, ularning holatlarini, rangini, shaklini, a'zolarini, aytmog'i, yoxud kattalar yordamida shularni o'rganib qayta so'zlamog'i shart. Bunday kitobchalar bolada hajm, shakl va rangni his qilishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, "O'zing bo'ya" ruknidagi kontur suratli kitobchalar bu jarayonni yanada faollashtiradi, bolalar bu kitoblarni bo'yab turib konturlarda ifodalangan ma'nolarni, shakllar va ularning hammalarini ranglar garmoniyasida o'qib idrok qiladigan bo'ladilar. Bu holat ularda so'zga, so'zlashga rag'batni yanada kuchaytiradi. Bu davrda so'z ular uchun o'z ma'nosidagina anglashiladigan bo'ladi. Shuningdek, har bir jumlaning jarangdorligi, musiqiyliigi, ertaklarni o'yin, she'rlarni qo'shiq qilib ayta bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bolalar adiblari kitobxonlikning bu davriga alohida e'tibor qaratmoqlari, ularning til va nutq boyliklari, quvnoqlikka moyil tabiatlarini inobatga olmoqlari g'oyat zarur. Rost, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola o'zi qiziqqan ertak yoki she'rni, hikoyani tanlash imkoniyatiga ega emas. Ammo tanlab eshita oladi. Zukko ota-onalar, bog'cha tarbiyachilarigina kichkintoyning ko'zidagi hayrat, quvonch yoki o'ychanlikni ilg'ay biladi. Buning yorqin misoli sifatida Z.Diyorning "Kapalak", "To'p", "Suv bilan suhbat" she'ri, Sh.Sa'dullaning o'yinchoqlar tilidan aytiluvchi "Ayiq", "Buzoq", "Toychoq", "Uloqcham" she'rlarini eslash mumkinki, ular hamisha kichkintoylar tilidan tushmay keladi. Bunday she'rlardagi 2-6 yoshli bolakay fe'l atvori (kapalakni quvlashi, suv bilan suhbatga kirishishi, o'yinchoqlar tilga kirib, unga arz qilishi), nutqi ("jiyron toycham", "o'ynab-kishnab", "suzoq") ohangi aks etgani, ular sho'xligiga mos ifodalar (kapalak, buzoq, toychoq, sharqiroq soy, to'p, uloqcha...) bilan tasvirlangani, qolaversa, so'z va qofiyalarning quymaligi (buzoq-suzoq) kabilarning kichkintoy tushunchasiga muvofiqligi diqqatga sazovor.

S.Barnoyevning "Feruza aytgan qo'shiq" she'ri esa yangi asr kichkintoylarining sevimli she'ri, yoki qo'shig'i, desak yanglishmaymiz:

Quyosh bo'lsin, oy bo'lsin,  
O'zbekiston boy bo'lsin.  
Menga atlas, ukamga

Gijinglagan toy bo'lsin.

Dadam yuzga kirsinar,  
Oyim yuzga kirsinar,

Bizlar yuzga kirganda  
Yonimizda tursinlar.

She'rdagi katta-yu kichikning samimiy tilagi bor. U juda sodda, o'ynoqi ohangda bitilgan. Ayni paytda jajji qizaloq oila farovonligini istayotirki, bunda osmon-u zamin tinchligi bilan birga milliylik (atlas) hamda yurt tinchligi, otabobolar an'analariga sodiqlikning ("gijinglagan toychoq") umrboqiyiligi ko'zlanayotir. Kichikintoylar shunday she'rlarni kuylab ulg'aysa, albatta, uning mazmun- mohiyati ham qulog'iga singib boradi.

Yoki R.Farhodiyning "Tonggi so'z" hikoyasida qator taqlid so'zlar ishlatilganiga ko'ra e'tiborli: "Miyov-miyov! G'uv-g'uv. Chiriq, chiq-chiriq! Vov-vov-vov! G'oq-g'oq-g'oq! G'a-g'a-g'a!". Bular tongda uyg'ongan Ahmadning yo'lda uchratgan do'stlari mushuk, shamol, Qoplon, g'oz va o'rdaklarning erta tongda aytgan so'zlari – "Assalomu-alaykum!" degani. Bunday hikoyalar jajji kichikintoylarga estetik zavq berish bilan birga tarbiyaviy vazifaga ham ega. Bolalar uchun asar yozganda ana shu fazilatlarini inobatga olib, ularga hayotni anglab olishlariga, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga, narsalar haqida o'z tushunchalarining qaror topishiga, shularni imkoniyatlari ko'taradigan darajaga xizmat qiladigan so'z zahiralarini muttasil boyitishga ko'maklashish maqsadi ko'zlanmog'i shart. Shundagina maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi o'z vazifasini muvaffaqiyatli bajargan, deb hisoblash mumkin.

**Kichik maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi** ham o'ziga xos tafovutlarga ega. Chunki bu yoshdagi bolalarning ichki olami nihoyatda boy. Ular hali ko'p narsani bilmasa-da, lekin bilishdan iborat na'naviy ehtiyoj jarayonini boshdan kechiradi. "Bolalarga o'zlari sezgan va o'ylaganlarini gapirib berish g'oyat qiyin, chunki ularni so'zda ifodalashga to'g'ri keladi", – deb yozgan edi Yanush Korchak taxallusi bilan butun dunyoga tanilgan polyak adibi Genrika Goldshmit. – Bundan ham og'irrog'i esa yozish. ...lekin bolalar shoir va faylasufdirlar." Darhaqiqat, u o'zining pedagogik tajribasi, bolalar shifokori sifatidagi bilimi, betakror yozuvchilik iqtidori orqali bolalik dunyosining ko'pgina sir-asrorlarini ilg'ay olgan; xususan, bola qalbining erkinligi qushga, kapalakka va gulga qiyoslanishini, hamchunin ular o'zlariga jonivorlar, hasharot-u hayvonlarni aka-uka, yoxud, tengqur do'stdek tutishini ta'kidlaydi. Chindan ham shunday. Bolalar tabiatidagi "shoirlik"–ularning hamma narsadan hayratlanishlari, har bir hodisadan hayajonlanishlari bo'lsa, "faylasuflik" – hayratni va hayajonni qo'zg'agan shu narsalar va hodisalarning asl mohiyatiga qiziqishlaridir. "Bu nima?", "Bu nega bunaqa?", "U nima deydi?", "U nega katta yoki nega kichik?", "U qanday o'sadi?", "Nega qattiq?", "Nega yumshoq?", "Suv nega qotadi?", "Quyosh qanday qizitadi?", xullas, shu xildagi sanoqsiz savollar bu yoshdagi bolalarning qiziqishlari hosilasi bo'lib, ana shu savollarga topgan va topolgan javoblari-olamni

o'zlashtirish yo'llaridir. Olam ular uchun jumboqqa aylanarkan, ularning o'zlari ham "nimavoy"ga aylanishlari tabiiydir. Shu ma'noda N.Nosov yaratgan Pochemuchka (Nimavoy–o'zbek tilida Bilmasvoy tarzida tarjima qilingan) – bu yoshdagi bolalarning umumlashma obrazi darajasiga ko'tarilgan. Bunday umulashma obrazni Q.Muhammadiyning "Tabiat alifbesi" turkumiga kiruvchi lirik qahramon timsolida ham ko'rish mumkin. U ham butun vujudi bilan "Yong'oqni nega yong'oq deymiz?", yoki "Yong'oqning qobig'i nega qattiq?" "Olcha nega qip-qizil?", "O'rik nega sarg'ayib pishadi?", "Jiydaning shoxi nega egik?", "Shaftolining bargi nega achchiq?", "Sada nega meva qilmas?", "Dada, bog'bon nega tokni qirqib turadi?", yoki "Tok daraxti bir xil-u uzumlari nega har xil?", "Mol nega kavsh qaytaradi?", "Chittak nega chittak?" singari son-sanoqsiz savollarga aylangan. Q.Muhammadiy bu savollarga poetik javob berish maqsadida "Nima to'g'risida asar yaratmasin, nima haqda gapirmasin, doim o'sha narsadan inson hayotini ko'zda tutib, ma'no izlaydi. Shoir shu ma'noni topadi ham. Bu ma'no doim bolalarning hayotdan oladigan birinchi taassurotlarini izohlaydi, uning dunyoqarashi shakllanishiga xizmat qiladi"<sup>6</sup> Eng muhimi, bolada insonni sevish, kasb-u koriga rag'bat bilan qarash, shu asosda hayotni anglash va sevish tuyg'usini ardoqlab o'stiradi. Bu yoshdagi bolalar folklordan kengroq bahramand bo'la boshlaydilar: tez aytishlar mashqi bilan nutq tovushlari talaffuzini ravonlashtirsalar, chandish o'ynab so'zlar ohangdoshligini idrok qiladilar; guldurguplar vositasida so'z va harakat uyg'unligini his etsalar, topishmoqlarni yechish jarayonida zehnlarni charxlay boradilar. Hayvonlarga oid ertaklarga qiziqishlari sehrli-fantastik va hayotiy-maishiy ertaklarga omixtalashib, ular hisobiga to'lisha boradi va xayollariga parvoz bag'ishlay boshlaydi. Hayotiy-maishiy ertaklarni o'qish jarayonida real hayot hodisalariga qiziqishlari uyg'ona boradi. Ertakka bu xildagi ma'naviy chanqoqlik turli xalqlar ertaklarini ham, shuningdek, yozma adabiy ertaklarni ham sevib o'qishga chog'laydi: Sharl Perro, aka-uka Grimmlar, Hans Kristian Andersen, P.Yershov asarlarini, ayniqsa, bolalarga moslashtirib tabdil qilingan E.Rapsenning "Baron Myunxauzenning sarguzashtlari", shuningdek, A.Tolstoyning "Oltin kalit yoki Buratinoning boshidan kechirganlari", Leonid Solovyevning "Nasriddin afandi sarguzashtlari", Sh.Sa'dullaning "Yog'och qo'g'irchoq yoki Kachal polvon sarguzashtlari" ertak-qissalarini, Turg'unboy G'oyibovning adabiy-nasriy ertaklarini zavqu shavq bilan o'qiydilar. Multfilmlarga va qo'g'irchoq teatrlari spektakllariga o'chliklari zamirida ham aslida ertakka ehtirosli qiziqishlari yotadi. Ayni paytda ham bunday asarlarning ahamiyati pasaymagan. Shu bilan birga, o'sib kelayotgan yosh avlodni endilikda ko'proq mantiqiy bilimlar, insonning ruhiy kechinmalari, tabiat va jamiyat munosabati masalalari qiziqtirayotgani sir emas. R.Tolibning "Kim baxtiyor?" she'ri shu ma'noda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tabiatiga monand:

O'tirib goh Mirjalol,

O'zicha aytar bobo:

<sup>6</sup> Qarang: Qo'shjonov M. Katta hayot va jo'shqin lirika. – Kitobda: Quddus Muhammadiy. Tabiat alifbesi. She'rlar. –T., "Yosh gvardiya", 1971, 3-b.

O'zicha surar xayol:  
 "Bobom qanday baxtiyor?  
 O'zlarida ixtiyor,  
 Birov bermaydi tanbeh.  
 Yanglishsalar hamki ... eh,  
 Doim hurmatda bobom.  
 Hamma beradi salom,  
 Joy tayyor, dimog'i chog',  
 Avtobusga chiqqan chog'  
 "Bobomlarga maza xo'p,  
 Uxlaydilar rosa ko'p.  
 Xunob bo'lib erta-kech,  
 Misol yechmaydilar hech.

"Alam qilarkan goho,  
 Ko'z xira oyoq og'rir,  
 Keksalik ekan og'ir.  
 Yaxshi emas ishtaham,  
 Unum yo'qdir ishda ham,  
 Tunbo'yi kelmay uyqu  
 Bosar keksalik, qayg'u.  
 Qani, endi bo'lsam yosh,  
 O'tirmasdim qashlab bosh.  
 Kuchi, sog'liqlari bor,  
 Yoshlar qanday baxtiyor?"

She'rdagi inson umrining ikki qarama-qarshi qutblari – keksalik va yoshlik yuzma-yuz kelgan. Shoir keksalikni dastlab, zohiriy jihatlarinigina bola tasavvuri orqali aks ettiradi. Bu kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga xos bo'lgan uyquni yaxshi ko'rish, arifmetik misol va masalalardan xunob bo'lish, shumtakaliklari uchun dakki yeyaverish kabilar bilan muvoziy qo'llanib, tasvirdagi aniqlikni ta'minlay olgan. Bobo o'ylari orqali esa umr poyonidagi botiniy kechinmalar, qarilikning o'ziga yarasha tashvishlari his qilinadi. Yosh kitobxon bobo va nevara xayolidan ogoh bo'lgach, keksalarni ko'proq e'zozlash zarurligi, haqiqiy baxtiyorlik esa yoshlikda ekani, "bosh qashlab" o'tirmay, bilim olish, izlanish zarurligini anglaydilar.

Umuman, kichik yoshdagi o'quvchilarni ham davr taraqqiyotining barcha muammolari, mavzulari qiziqtiradi. 8-11 yoshli bolalar, xalq nasri va adabiy ertaklar, tabiat, Vatan, vatanparvarlik, ota-onaga muhabbat, axloq-odob va kitob o'qishga da'vat ruhidagi asarlar bilan birga, insonni teranroq o'rganishga oid she'r va hikoyalarni katta qiziqish bilan o'qiydilar. Binobarin, o'zbek bolalar adabiyoti tarixida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar kitobxonligini G'.G'ulom, H.Olimjon, S.Jo'ra, Z.Diyor, Q.Muhammadiy, Sh.Sa'dulla, I.Muslim, A.Rahmat, Q. Hikmat, P.Mo'min, T.Adashboyev, M.A'zam, A.Obidjon va boshqalarning quvnoq she'r va qo'shiqlari, dostonlari va she'riy ertaklari; H. Nazir, X.To'xtaboyev, N.Fozilov, M.Osim, T.Malik, H.Shayxov, S.Barnoyev, F.Musajon, O.Husanov va boshqalarning hikoya, qissa hamda romanlari tashkil etib keldi. Istiqloлга erishgach, bu yoshdagi kitobxonlarga, ayniqsa, vatanparvarlik va Vatan tarixi haqidagi badiiy asarlar behad zarurligi, xorijdagi tengqurlari hayoti haqidagi asarlar ham alohida qiziqish uyg'otishi yaqqolroq anglandi. Bu jihatdan ham milliy adabiyotda yaratilgan "Qonli barmoqlar", "Zafar va Zahro" (Oybek), "Dunyo bolalari" (A.Muxtor), "Afg'on hikoyalari" (S.Barnoyev) qatorida mashhur italyan bolalar adibi Janni Rodarining "Chipollinoning boshidan kechirganlari", "Jelsomino yolg'onchilar mamlakatida", "Muzqaymoqdan qurilgan shahar", shved bolalar adibasi Astrid Lindgrenning "Mittivoy va tomda yashovchi Karlson haqida ikki qissa", polyak Yanush Korchakning "Qirol

Matiush birinchi”, shuningdek, qardosh xalqlar bolalar adabiyotlarining eng sara namunalari alohida qimmat kasb etadi. Bu xildagi asarlar bolalarning olam va odamlar haqidagi bilimlarini rivojlantiradi, lug‘at boyliklarini oshiradi, dunyoqarashlarining shakllanishiga, insoniy fazilatlarining tarkib topishiga, xarakterlarining toblanishiga ta’sir ko‘rsatadi, nihoyat, badiiy adabiyot ular uchun chinakam “hayot darsligi”ga aylana boradi.

**O‘smirlar kitobxonligi** o‘quvchilarning shu yoshdagi ruhiyatiga monand ancha murakkab. O‘smirlik insonni bolalalikdan yoshlikka o‘tuvchi va o‘z navbatida, boshqa yoshlardan o‘zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davridir. Bu taxminan, bolaning 5-sinflarda o‘qish paytlariga to‘g‘ri kelib, 13 yoshdan 16-17 yoshgacha bo‘lgan davroralig‘ida kechadi. Ayrim bolalarda bu 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O‘smirlikda rivojlanishning barcha: fiziologik, biologik, aqliy, ijtimoiy- tarbiyaviy ko‘rinishlari ko‘zga tashlanadi. Bunda endi u “bola” emas va shu bilan birga hali “katta” ham sanalmaydi. Shu sababli uning o‘z-o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlari o‘zgara boradi. O‘smirlar o‘z ideallari (mutlaq ijobiy) ni orzu qilib, ularni o‘zlarida ro‘yobga chiqarishni maqsad qiladilar. Bu yoshda biror kasb yoki hunarni egallashga qiziqish va intilish paydo bo‘ladi. O‘smirlarning orzu-istaklari ummondek ulkanligi va xilma-xilligi bilan ham ajralib turadi. Eng muhimi, o‘smir o‘zini tarbiyalashda kitob, kinofilm qahramonlaridan andaza oladi. Shunday ekan, o‘smirlarga mo‘ljallangan badiiy adabiyotning vazifasi ham o‘ta mas’uliyatli va serqirradir. Unutmaslik kerakki, o‘smirlik inson hayotining ajoyib pallasi, shaxs sifatida shakllanishining asosi. O‘smirning aqliy kamolotga yetishuvi muhim o‘ringa ega. Ularning o‘z fikrini aniq ifodalashga yo‘naltirish, mustaqil mulohaza yuritish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, muhimi, bu jarayonni anglab yetishlarida ilmiy-badiiy asarlar muhim rol o‘ynaydi. Xususan, Oybek, A.Qahhor, M.Osim, N.Safarov, O.Muxtor, T.Malik kabi yetuk adiblarning biografik va avtobiografik qissalari, esse hamda hayotiy hikoyalari dasturulamal bo‘ladi. O‘smirlardagi ulkan ma’naviy ehtiyoj va shaxs sifatida kamol topish zaruratini o‘z zamonidayoq payqagan M.Gorkiy XX asrning 30-yillarida “Mashhur kishilar hayoti” ruknida badiiy-biografik asarlar ijod etish tashabbusi bilan chiqqan edi. Shu munosabat bilan mashhur yozuvchilar, olimlar, bastakorlar, harbiy sarkardalar, mohir hunarmandlar-u jahon urushi va mehnat qahramonlari hayoti, ijod yo‘lining badiiy-tadqiqiy namunasi bo‘lgan yuzlab asarlar yaratildi. Yakunlangan asrning yetmishinchi yillariga kelib, bu ruknda asarlar ijod etish an’anasi o‘zbek ijodkorlari faoliyatida ham ko‘rina boshladi. Endilikda Aziz Qayumovning “Alisher Navoiy”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Abu Ali ibn Sino”; Laziz Qayumovning “Hamza”; Naim Karimovning “Hamid Olimjon”, “Oybek”, “Cho‘lpon”, “Usmon Nosir”; Adham Akbarovning “G‘afur G‘ulom”; Ozod Sharafiddinovning “Abdulla Qahhor”; Bo‘riboy Ahmedovning “Mirzo Ulug‘bek”, “Amir Temur”; Otayorning “Mirtemir”, “Islom shoir”; Habib Karimovning “O‘ral Tansiqboyev” singari asarlari shu yo‘nalishdagi izlanishlarning samaralari bo‘lib, o‘zbek voqeligini ilmiy-ma’rifiy asosda badiiy tadqiq etganligi bilan e’tibor qozonib borayotir. Bunday asarlar o‘smirlarni insonparvarlik , tarixiy



qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalaydi, ularning kasb tanlashlariga ko'maklashadi, ajdodlar jasoratidan iftixor qilish tuyg'ularini o'stirib, chinakam vatanparvar inson sifatida kamol topishlariga ta'sir ko'rsatadi.

“Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlari mezonidir”,– deb ta'kidlagan edi yurtboshimiz I.A.Karimov. Binobarin, o'smirlik ham jismoniy, ham ma'naviy-axloqiy balog'atga yetishuv bo'sag'asi ekan, qahramonlar xatti-harakati orqali shu yoshdagi o'quvchilarga ibratdan saboq berish – ularga mo'ljallangan kitoblarning asosiy vazifasidir.

Shunday adabiy janrlar bo'ladiki, ular o'quvchida nafaqat badiiy-estetik zavq uyg'otadi, balki ilmiy-nazariy bilimlarini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bunday asarlar kitobxon ma'naviy-axloqiy olami yangi o'zanlarining ochilishiga turtki bo'ladi. Adabiy xotira-yodnoma asarlar shu jihatdan o'smirlar kitobxonligida ham alohida qiziqish uyg'otadi. Umuman, xotira – orombaxsh tuyg'u. U har bir insonga deyarli hamroh, qalbiga sirdosh, keksayganida esa yagona dilkash suhbatdosh. Eng shirin kechinmalar, ko'ngil ardog'idagi do'stlar faqat xotiradagina tiniq aks etadi. Yillar o'tib, qadrdonlar davrasi, suhbat-yu siyrati bu olamda omonatligi anglanganida, xotiralar bilan taskin topadi inson qalbi. Xotira yozish ham shu ma'noda sohir qalb sog'inchiga xos bir ilinj.

XX asr o'zbek adabiyoti nasri taraqqiyotida o'z hikoyalari va qissalari bilan salmoqli hissa qo'shib kelayotgan adib Nosir Fozilovning “Irmoq” nomli birinchi hikoyalar to'plamiyoq el nazariga tushgan edi. Uning “Oqim” qissasi esa xalqlar o'rtasidagi mehr-oqibat kuychisi sifatida bolalar adabiyotida o'ziga xos yo'nalishni boshlab berdi. Adib nasri, xususan, “Saraton”, “Shum bolaning nabiralari”, “Qorxat”, qissalari; “Bolaligim-poshsholigim”, “Ustozlar davrasida”, “Saraton” to'plamlariga kirgan asarlari o'smirlar kitobxonligi xazinasini boyitgani bilan e'tiborga loyiq. Zotan, adib ijodida kasbdosh, safdosh ustozlari, do'stlari, shogirdlari haqida zavqi baland badia – esse va xotiralar yozish alohida yo'nalishni tashkil qiladi. Uning bu turkumdagi asarlari, avvalo, davr adabiyoti tarixi, so'ngra, adiblar hayotining muhim qirralari, adabiy jarayonda u yoki bu ijodkorning mavqeyi, hayotiy faoliyati, tajribasiga xos xususiyatlar asrorini ochishda ayricha g'oyaviy qimmat kasb etganligi bilan e'tiborni tortadi. Binobarin, ularning har birida u yoki bu yetuk adiblarning jonli siymosi butun haybati bilan gavdalanib turadi.

Ta'kidlash joizki, Nosir Fozilov ancha ilgari bu janrga qo'l urib, yuksak mahorat sohibi ekanligini namoyon etgan edi. Uning 1988-yilda nashr etilgan “Ustozlar davrasida” kitobi o'z davrida yuqori baholangan edi. Oradan yigirma yildan ziyodroq vaqt o'tib, bu mavzuga tag'in qo'l urishi bejiz emas, albatta. Yozuvchi endi bu kitobini ustози Said Ahmadning “Topganlarim va yo'qotganlarim” kitobiga javob shaklida “Topdim-u yo'qotmadim” deb ataydi. Shu nomdayoq, asarning bosh muddaosi oydinlashadi. Kitobda qirqqa yaqin adabiyot salaflarining yorqin siymosi muallif xotirasi orqali qayta jonlantirilgan. Ularning ko'pchiligi foni dunyodan boqiy olamga rixlat qilganlarning yodlari

sifatida barhayot. Xotira kitobdagi lavhalarining aksariyati darslik va ilmiy adabiyotlarda uchrayvermaydigan, hayotiy va quvnoq voqealarga boy ekanligi bilan diqqatni tortadi. N.Fozilov har bir adib haqida o'zi bilgan, o'zi ko'rgan, guvohi bo'lgan voqealarni samimiy bayon qiladi.

Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulom, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Odil Yoqubov, Said Ahmad, O'lmas Umarbekov – bular o'zbek adabiyotining zabardast ijodkorlari. Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, Abdulla Tojiboyev, G'abiden Musrepov, Aben Sotiboldiyevlar esa qozoq adabiyotining yetuk namoyandalari. Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzayev, Tog'ay Murodlar esa o'zbek adabiyoti osmonidagi yorqin yulduzlar, chaqmoqday yarq etib ko'ringan betakror iste'dod sohiblari. Ular o'zbek va qozoq adabiyotlarining bir necha avlodiga mansub jondosh va qondosh namoyandalari, ular siymosida shu ikki xalqning do'stlik rishtalari nechog'lik mustahkamligi, ijodiy hamkorliklari tufayli shu ikki xalq ma'naviyati qay darajada jilolanishiga oid qayd-u dalillar bisyor. Biroq adib-u shoirlar haqida har qancha o'qimaylik, tashnalik qonmaydi; ularni yaqindan bilish, suhbatidan bahramand bo'lish har bir o'zbek-u qozoq kitobxonining ezgu orzusi bo'lib qolaveradi. Ammo, bularni bilishning ham hamisha imkoni bo'lavermaydi. Ularning siz-u bizga o'xshamagan noyob fazilatlari, o'zigagina xos hayot tarzi kitobxonlarni qiziqtirishi tabiiy. Nosir Fozilov ana shu kabi ezgu maqsadni ushatish yo'lida xayrli ishga qo'l urgan adiblardan. Uning omadi shuki, taqdir taqozosi uni o'sha adiblar bilan hamqadam, hamkasb, hamsuhbat qilgan. Turli tasodiflar tufayli ular bilan adabiy uchrashuvlar-u sayohatlarga chiqqan; ustoz-u shogird tutingan, aka-uka sifatida suxanvorlik qilishgan, talay qiziq hangomalarni boshdan kechirishgan. Bunday zamondoshlikning mas'uliyatini his qilgan N.Fozilov o'z adabiy xotiralarida ustoz san'atkorlar hayotining nodir sahifalarini yosh avlodga "tiriltirib" ko'rsatib beradi. Chindan ham muallifning umr bo'yi topganlari – do'st-u birodarlari eng qimmatli gavharga teng. Ularning yodi, olgan saboqlari yo'qolmas inju. Buni keng kitobxonlar ommasi bilan baham ko'rmaslik esa – bila turib ularni shunday ganjinadan mahrum etishday bir gap.

Albatta, yangi ming va yuz yillik o'smirlar kitobxonligi arsenali bundan-da ortib borishi, jahonga mashhur mumtoz adiblar va o'zbek yozuvchilarining tarixiy, detektiv, biografik roman va qissalarini, esse hamda she'riy asarlarni, ilmiy-ommabop kitoblarni mutolaa qilishlarini taqozo etayotir. Shuningdek, ular endi bolalar adabiyoti bilan cheklanib qolmay, umumadabiyot xazinasidan keng bahramand bo'layotirlar. Bugungi o'smir P.Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", M.Osimning "Karvon yo'llarida", "Zulmat ichra nur", "Ibn Sino qissasi", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasasi" singari tarixiy, biografik roman va qissalarni o'qimay turib, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, A.Navoiy, Bobur kabi ulug' ajdodlar hayot yo'lini to'liq tasavvur qila olmaydilar. T.Malikning "Alvido bolalik", "Shaytanat" qissasi ham ularga jamiyatda shaxsning shakllanishidagi muhim omillardan saboq berishi uchun g'oyat zarur. Shuningdek, X.To'xtaboyevning "Mungli ko'zlar", "Jannati odamlar"; O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Urushning so'nggi qurboni",

“Dunyoning ishlari” kabi asarlari, M.Yusuf, A.Oripov, E.Vohidov she’rlari ham o’smirlar qo’lidan tushmay kelayotir. Bu shundan dalolat beradiki, o’smirlar kitobxonligi asosan uch yo’nalishda davom etayotir:

*Birinchi*dan, o’tgan asr o’rtalaridan bolalar va o’smirlar uchun maxsus ijod qilgan H.Nazir (“Yonar daryo”, “Lochin qanotlar” kabi), N.Fozilov (“Shum bolaning nabiralari”, “Saraton” k.), X.To’xtaboyev (deyarli barcha asarlari), F.Musajonov, L.Mahmudov, T.Malik, H.Shayxov, M.A’zam A.Obidjon, T.Adashboyev singari adiblarning badiiy teran asarlari o’z o’quvchisini yo’qotmay kelayotir.

*Ikkinchi*dan, o’smirlarning bugungi intilishlari, qiziqishlariga mutanosib asarlar maxsus yaratilmayotganidan, ular umumadabiyot namunalari jadal talpinmoqdalar. Bunda yuqorida zikr etilgan asarlar, shuningdek, jahon adabiyotining yangi namunalari (masalan J.Roulingning “Garri Potter” kabi) sujeti, mavzusi dolzarbligiga ko’ra o’smirlar e’tiboriga sazovor bo’layotir.

*Uchinchi*dan, XXI asr o’smirlari video va audio filmlardan tengdoshlari hayotini qidirishga berilmoqdalar.

Ta’bir joiz bo’lsa, uchinchi yo’nalishda ma’naviy oziq olishga intilayotgan o’smirlar kattalarni ko’proq tashvishga soladi. Shu ma’noda, o’smirlar kitobxonligida davr ruhini, o’smirlar obrazini, dolzarb mavzularni o’z milliy qadriyatlarimizga xos va mos tarzda badiiy teran ifoda etish zarurligi, adiblarning bu masalaga jiddiy e’tiborlari joizligini taqozo etadi. Shundagina o’smirlar adabiyoti ham kelajagi buyuk ozod va obod Vatanning, erkin va bunyodkor xalqning kurashchan farzandlari qilib tarbiyalashga hissa qo’shadi.

**MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:** *istiloh, qo’llanma, xrestomatiya, omil, genezis, so’qma so’z, munaqqid, muqallid, nasr, nosir, nashr, noshir, muharrir, musavvir, matbuot, kitobchilik, xarakter, tur, janr, dinamizm, emotsionallik, lirik, komik, matbaa, realistik, badia, esse, fiziologik, biologik, biografik, dialektizm, sujet, publitsistika, detektiv, fantastik, dilogiya, trilogiya, tetralogiya, pamflet, feleton.*

***Bilim, ko’nikma va malakani rivojlantirishga yo’naltiruvchi savollar :***

1. Bolalar adabiyoti istilohi dastlab qayerda va qachon qo’llanila boshlandi? Fan sifatida-chi?
2. O’zbek bolalar adabiyotiga oid darsliklar va ularning muallifini eslang.
3. O’zbek bolalar adabiyotining paydo bo’lish omillarini bosqichma-bosqich tavsiflang?
4. Bolalar adabiyotining ikki yo’nalishdaligi nimada ko’rinadi?
5. Bolalar adabiyotidagi tasvirning o’ziga xosligini qanday izohlaysiz?
6. Bolalarbop asarlardagi xarakter va hodisalar ifodasida dinamikaning yorqinligini misollar asosida tushuntiring?
7. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi haqida nimalarni bilasiz?
8. Kichik maktab yoshidagi bolalarga mo’ljallangan badiiy asarlar qanday spetsifik xarakterga ega?
9. O’smirlar kitobxonligida qaysi yo’nalishdagi asarlar yetakchi ahamiyat kasb etadi?

## MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI

### 1. “Bolalar adabiyoti” istilohi dastlab qachon va qayerda qo‘llanilgan?

- a) eng qadimgi davrlarda, xalq ijodida;
- b) o‘rta asrlarda, yozma adabiyotda;
- d) XX asrning 20-yillarida, davriy matbuot maqolalarida;
- e) mustaqillik yillarida, tadqiqotchilar ishida.

### 2. O‘zbek bolalar adabiyotining fan sifatida takomillashuvi va unga doir darsliklarning chop qilinishi to‘g‘ri qayd etilgan javobni aniqlang?

- a) XX asrning o‘rtalari, 1953, 1967, 1973, 1976, 1978, 1981, 1989;
- b) XX asr boshlari, 1905, 1910, 1937, 1953, 1981, 1989;
- d) XIX asr oxiri, 1889, 1898, 1900, 1913, 1917.
- e) XXI asr boshlari, 1995, 1997, 2002, 2005

### 3. O‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lish omillari qaysi javobda bosqichma-bosqich to‘g‘ri ifodalangan?

- a) folklor, jahon adabiyoti, rus adabiyoti, mumtoz adabiyot, jadid adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti;
- b) ijtimoiy voqelik, xalq og‘zaki badiiy ijodi, o‘zbek mumtoz adabiyoti, yangi realistlik o‘zbek adabiyoti, jahon va rus xalqlari bolalar adabiyotini o‘rganish va o‘zlashtirish, ilk maktab darsliklari;
- d) yozma yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi, sho‘ro davri mafkurasi, mustaqillik davri adabiyoti;
- e) istiqloq davri adabiyoti

### 4. Bolalar kitobxonligi haqidagi tushuncha qaysi javobda batafsilroq qayd etilgan?

- a) umuman, kitob o‘qish hodisasi, kattalar didi, hayotiy tajribasi dunyoqarashiga mos holda yaratilib, bolalarning ham o‘qish doirasida amal qilgan hammmabop badiiy - ilmiy hamda professional bolalar adabiyoti;
- b) bolalarning o‘zlari tomonidan ijod etilgan adabiyot namunalari;
- d) kattalar uchungina daxldor badiiy adabiyot;
- e) faqat bolalarga ixtisoslashgan, ulargagina mo‘ljallangan adabiyot namunalari.

### 5. Bolalar kitobxonligi va adabiyoti orasidagi tafovut qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) bolalar kitobxonligi og‘zaki, adabiyoti esa yozma shaklda bo‘lishi;
- b) bolalar kitobxonligi kattalarga, adabiyoti bolalargagina mo‘ljallanganligi;
- d) bolalar kitobxonligida didaktikaning ustivorligi, adabiyotida esa uning ko‘zga tashlanmasligi;
- e) bolalar kitobxonligi ijtimoiy-estetik hodisa sanalib unda mantiqiy tafakkurning ustuvorligi, bolalar adabiyotida esa obrazli badiiy tafakkur amal qilib, adabiy-estetik hodisa hisoblanishi.

### 6. Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi yagona vosita qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) yozuv;
- b) so‘z ;
- d) til;
- e) tovushlar.

### 9. “Bolalar adabiyoti bu..” ushbu mulohaza qaysi javobda to‘g‘ri davom ettirilgan ?

- a) bolalarning o‘zlari o‘qishlari mumkin bo‘lgan adabiyot;
- b) ota-onalar o‘qishiga mo‘ljallangan adabiyot;
- d) sodda mazmunga ega rasmiy kitoblar majmui;
- e) bolalarning yosh xususiyatlariga ko‘ra ularga ixtisoslashgan professional badiiy adabiyot namunalari;

7. Bolalar adabiyoti fanining obyektini qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) bolalar uchun yozilgan yuksak badiiy ijod namunalari va adiblar ijodi;
- b) maktab darsliklari;
- d) bolalar matbuoti;
- e) kichkintoylar psixologiyasi.

1-jadval



**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Арзамасцева И.Н., Николаева С.А. Детская литература. –М.:Академия, 2000.
2. Barakayev R. Abdulla Avloniy va bolalar adabiyoti. –Т.: Fan, 2004.
3. Белинский В.Г., Чернишевский Н.Г., Добролюбов Н.А. О детской литературе. – М.: Дет.лит.1983.
4. Bolalar adabiyoti va zamonaviylik. –Т.:Fan, 1981.
5. Ibrohimova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari.– Т.:O‘qituvchi,1994.
6. Suyumov A., Jumaboyev M..Bolalar adabiyoti. –Т.:O‘qituvchi. 1995.
7. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklori.–Т., 2006.
8. Irisxo‘jayeva S. Bolalar adabiyotida didaktika.–Т.: Fan, 1978.-48b.
9. Mamajonov S. Hozirgi o‘zbek bolalar adabiyotining ba’zi tendensiyalari.–Bolalar olami. –Т.,1975.
10. Safarov O. O‘zbek bolalar adabiyotining spetsifik xususiyatlari.–Kitobda: O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon.–Т.:Fan, 1989, 4-18-betlar; Yana: Oliy o‘quv yurtida “Bolalar adabiyoti”fani muammolari. // Til va adabiyot ta’limi j.,1994, 2-3-son,4-6-betlar.Yana: O‘zbek bolalar adabiyoti tarixi mundarijasini belgilashga doir.// O‘TA, 1998, 6-son,63-66-b., yana: Bolaning tili chiqdi. // Maktabgacha tarbiya. 1992, 1-son, 40-41-b.; yana: Bolalar kitobatiga bir nazar. // Sog‘lom avlod uchun. – 1997, 11-son, 22-24-b.
11. Shermuhamedov P., Tursunov J., Safarov O., Egamov X. O‘zbek bolalar adabiyoti. Darslik- xrestomatiya.–Т.:O‘qituvchi, 1976.

## II. BOLALAR FOLKLORI

### Xalq og‘zaki badiiy ijodi – bolalar adabiyoti sarchashmasi

#### Reja:

1. Bolalar folklori tabiati.
2. Bolalar folklorining janriy tasnifi.
3. Allaning janriy xususiyatlari.
4. Bolalar qo‘shiqlarining janriy tarkibi va mavzuviy mundarijasi.
5. Maqollar va ularning etnopedagogik ahamiyati.
6. Ertaklar va ularning janriy tasnifi.

**Bolalar folklori tabiati.** Xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti xilma-xil adabiy tur va janrlarda namoyon bo‘lgan hodisa sifatida kishilik jamiyati tarixida ko‘p vazifali ijtimoiy-estetik mohiyatga ega so‘z san‘ati hisoblanadi. U hamma zamonlarda ham o‘z ijodkori bo‘lgan xalqning orzu-armonlarini ifodalab keldi, qolaversa, xalqning o‘z-o‘zinigina emas, balki bolalarning ham ma‘naviy-axloqiy jihatdan shakllanishlarida muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajarmoqda. Bolalar xalq ijodiyotidan ota-bobolarining hayot tajribasini, mehnat va kurash ilmini o‘rganib kelayotirlar. Ular xalq qo‘shiqlaridan, doston-u ertaklaridan, afsona-yu rivoyatlaridan sevish-sevilish, samimiyat, insoniylik, sabr-u qanoat, mehnatda fidoiylik, eng muhimi, otalari yashab obod etgan Vatan tuyg‘ularini idrok etish asnosida yurt erki va ozodligi uchun kurashgan buyuk ajdodlari To‘maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy va Amir Temurlarning jasoratlaridan saboq olmoqdalar, yashash va yaratish romantikasidan surur tuymoqdalar. Binobarin, xalq ijodiyoti qadim zamonlardan hozirgacha bolalar uchun ham ezgulikni qadrlash va yovuzlikdan nafratlanish sabog‘i bo‘lib, avloddan avlodga o‘tgani sayin muttasil to‘lishib, mukammalashib, og‘izdan-og‘izga ko‘chgani sayinmtobora sayqallanib, xalq milliy ruhini teranroq aks ettirgan holda asrlar davomida avlodlar ma‘naviy-axloqiy vorisligini ta‘minlab keldi, jamoa ijodi namunasi sifatida xalq zakovatini, iste‘dodini va til boyligini namoyish etdi, xalq uchun o‘zligini anglash, o‘z tarixini sevish vositasiga aylanib qoldi, eng muhimi, yozma adabiyotning bunyodga kelishida genetik asos vazifasini bajardi. Bu silsilada bolalarning o‘z folklori ham muayyan rol o‘ynadi.

Binobarin, **bolalar folklori – kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o‘zaro uyg‘unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o‘yinlar, qo‘shiqlar va musiqiy poetik janrlarning yaxlit bir tizimiga aylangan xalq og‘zaki ijodiyotining o‘ziga xos tarmog‘idir.**

Shunga qaramay, o‘zbek bolalar folklori namunalarini to‘plash, nashr etish va ilmiy-estetik qimmatini o‘rganishga uzoq zamonlar e‘tibor berilmay kelindi. XX asrning dastlabki choragi oxirlarida bu ishga kirishilgan bo‘lsa-da, u uzluksiz jarayonga aylanmadi. Elbek to‘plab, tartib berib 1937-yilda chop ettirgan “Bolalar

qo‘shig‘i” to‘plamidan O.Safarov tartib bergan “O‘zbek xalq ijodi” seriyasida 1984-yilda bosilib chiqqan “Boychechak” to‘plamigacha kechgan salkam yarim asrlik uzilish ana shu fikr dalili bo‘la oladi. O‘zbek bolalar folklorini o‘rganish 60-yillardan e‘tiboran izchillasha bordi. Z.Husainovning “O‘zbek topishmoqlari” (1966), G.Jahongirovning “O‘zbek bolalar folklori” (1975), shuningdek, O.Safarovning “Bolalarni erkalovchi o‘zbek xalq qo‘shiqlari” (1983), “O‘zbek bolalar poetik folklori” (1985), “Alla-yo alla” (1999), “Chittigul” (2004), “O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari”(2012) Sh.Galiyevning “O‘zbek bolalar o‘yin folklori” (1998) singari tadqiqotlar tufayli bu izlanishlarning samaralari ko‘zga tashlanadigan bo‘ldi. Shuni ham aytish kerakki, folklorshunoslar orasida mavsum va marosim qo‘shiqlariga munosabatda ularning ijodkori har qachon kattalar bo‘lganini e‘tirof etish bilan bolalarning bu sohadagi qo‘shiqchiligini yo cheklash, yo tamoman inkor etish hollari ham mavjud. To‘g‘ri, marosimlarni kattalar uyushtirganlar. Ularning o‘tkazilish tartiblarini ham, rasm-rusumlari va qo‘shiqlarini ham kattalar ijod etganlari rost. Lekin unutmaslik lozimki, shu marosimlarning birortasi ham bolalar ishtirokisiz o‘tmagan; hech bo‘lmaganda, bolalar tomoshabin sifatida unga qatnashganlar va kattalar bajargan ishlarni ko‘rgach, o‘sha marosimni keyinroq o‘yinda muqallid qilib o‘zlari bajarganlar, shu muqallidlariga yarasha qo‘shiqlarni to‘qiganlari ham ayni haqiqat. Binobarin, bolalarning ham o‘z marosim va mavsum qo‘shiqlari yuzaga kela boshlagan. Bu jarayon davr o‘tishi, turmush sharoitining o‘zgarishi, yangicha ijtimoiy munosabatlarning tug‘ila borishi tufayli u yoki bu marosimning tamoman yo‘qolishi, yo shunchaki kattalar o‘rtasida nufuzini yo‘qotishi natijasida o‘sha marosim bolalar o‘yini yoki ijrochiligida yashash shakliga o‘tishi bilan yanada chuqurlasha borgan. Bunday holatni “Boychechak”, “Chittigul”, “Binafsha”, “Oppoqijon” kabi mavsum qo‘shiqlari misolida yaqqolroq ko‘rish mumkin. O‘zbek bolalar folklori namunalari tabiatidan kelib chiqib, genetik asoslariga ko‘ra uni uch qismdan tarkib topgan hodisa sifatida kuzatish mumkin:

*I. Kattalar hamisha o‘z farzandlarini o‘ylab yashaganlar – mehnat va ijod bilan shug‘ullangan. Bu jarayon ularda bola va uning taqdiri to‘g‘risida qayg‘urish majburiyatining tobora chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo‘shiqlarning to‘qilishiga sabab bo‘lgan. Ayniqsa, chaqaloqni parvarish etish mas‘uliyati behad katta bo‘lgan. Onalar ana shu murakkab mas‘uliyatni zimmalariga olganlar: o‘tkir zakovat, tadbirkorlik, beqiyos insoniy mehribonlik evaziga o‘zlari goho tushunib, goho tushunmay, «bolalarni tarbiyalab o‘stirish bilan mamlakatning kelajak tarixini, demakki, dunyo tarixini ham tarbiyalab yetishtirganlar. Bu yo‘lda qo‘shiq ularga madadkor bo‘lgan: bolalarini qo‘shiq bilan uxlatganlar, yig‘lasa, kuylab ovutganlar, erkalatganlar, hatto qo‘shiq bilan chaqaloqqa daxldor marosim rasm-rusumlarni bajarganlar. Shu zaylda allalar, aytim-olqishlar, ovutmachoqlar, erkalamalar, qiziqmachoqlar va qaytarmachoqlar yuzaga kelgan. Ularda erkalash leytmotiv bo‘lgan. Shu sababli xalq og‘zaki poeziyasining ana shu namunalari erkalamalar poeziyasi tarzida umumlashtirish va xarakterlash asoslidir.*

Erkalash poeziyasi namunalari ijro maqsadi, o'rne va bola yoshiga munosabatiga ko'ra ikki guruhga ajraladi. Birinchi guruhga mansub qo'shiqlar bolaning beshikdaligi davri bilan chambarchas bog'liq, shu vajdan ularni **beshik qo'shiqlari** deyishadi. Allalar va etnografik mazmundagi aytim-olqishlar ana shunday xarakterga ega.

Beshik qo'shiqlari chaqaloq uch yoshni to'ldirgunigacha aytilsa, ikkinchi guruhga mansub qo'shiqlar bola tug'ilganidan to 6-7 yoshga to'lgunigachaijro etilsa-da, aslida ular beshik bilan bog'lanmagan onalik mehri tarovatidan bitilgan badihalardir. Bular **suyish qo'shiqlari** bo'lib, erkalamalar, ovutmachochlar, qiziqmachochlar va qaytarmachochlardan tarkib topgan.

*II. Kattalar bolalarning tabiatga munosabatini shakllantirishda ham faol ishtirok etadilar. Buning natijasida bolalar taqvim va uni ifoda etuvchi marosim qo'shiqlari yuzaga kelgan.* Bahor, yoz, kuz, qish mavsumlari bilan bog'liq bunday qo'shiqlarning bir qismi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqozosiga ko'ra kattalar repertuaridagi mavqeini yo'qota borib, yo tamoman so'nib ketgan, yo transformaciyaga uchrab bolalar repertuariga ko'chib o'tib saqlanib qolgan. "Boychechak", "Chittigul", yo ramazonlar va hayitliklar shular jumlasidan hisoblanadi. Qolaversa, ibtidoiy ajdodlarimizning animistik va totemistik e'tiqodlari asosida shakllanib, endilikda o'sha mohiyatini yo'qotgan **yalinchoq va hukmlagich** janrlari bolalar repertuarida hamon faol yashamoqda.

*III. Bolalarning o'z ijodkorligi va ijrochiligi hosilalari bo'lgan qo'shiqlar va o'yinlar – o'zbek bolalar folklorining asosini tashkil etadi.*

**Bolalar folklorining janriy tasnifi.** So'z va harakatning nisbatiga ko'ra bularni ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

1. Bolalarning maishiy qo'shiqlari.
2. Bolalarning o'yin folklori.

**AYTIM-OLQISHLAR** erkalovchi motivdagi rasm-rusum qo'shiqlari bo'lib, asosan, bolalarning beshik davriga oid turli-tuman marosimlarda ijro etiladi: chaqaloq besh va to'qqiz kunga to'lganda, ilk bor cho'miltirilganda, beshikka ilk bor va har gal bog'langanda, yana qayta ochib olinganda, ilk bor tish yoriganida, birinchi marta mustaqil o'tirganida, ilk bor oyog'ida tikka turganida, birinchi marta odimlaganida, toy-toylaganida, har gal yangi kiyim kiygizganda, ilk bor ovqat yeganida, qizaloq sochini ilk bor yuvganda-taraganda, o'g'il bola sochi ilk bor olinganda, chaqaloq tirnog'i ilk bor qir qilganda, bolalar sha'niga har gal isiriq tutatilganda, xullas, urfiyatga aylangan va e'tiqod bilan amal qilinadigan shu xildagi rasm-rusumlarning har biri mazmuniga yarasha aytim-olqishlar mavjud. Aytaylik, chaqaloq 7-9 oyligida ilk bor qadam tashlab mustaqil yurishga intila boshlaydi. Shunda uning qadami qutlug' va ravon bo'lishi uchun oyog'i chigilini echish rusumini bajarish an'anaga aylangan. Dastavval, bolakayning oyoqlariga ipak chilvir solib tushovlaganlar, so'ngra u yura boshlaganda boshida bir juft kulcha ushatila turib, orqa tarafidan bola oyog'idagi chilvirni qaychilab kesa turib:

Adoq-adoq yurisin,  
Tikan shunga kirmasin.  
Ko'zi qattiq bandalar,



Ko‘zi shunga tegmasin,-

deya alqaganlar. Ehtiyot chorasi sifatida darhol is chiqarilib, isiriq tutatilgan. Kulchalar marosim ishtirokchilariga taqsimlab berilgan. Odatda bu marosim haftaning xosiyatli kunlari sanalgan chorshanba yo juma kunlarida nishonlangan.

Bunday marosimlarning ma‘lum qismi ijtimoiy taraqqiyot tufayli endilikda so‘nishga yuz tutgan bo‘lsa-da, ma‘lum qismi xalq an‘analarining poetik uzvi sifatida hamon yashamoqda. Aytaylik, bolalarning yangi kiyim kiyishiga oid aytim-olqishlar yangi ijtimoiy munosabatlar ta‘sirida transformatsiyaga uchrab, tug‘ilgan kunni nishonlash jarayonida bolaga yangi kiyim kiydirish qutloviga aylangan:

San bir yillik,  
Man ming yillik.  
Kiya-kiya to‘zdiraylik,  
Dugonalarimdan o‘zdiraylik.

Bu xildagi aytim-olqishlarning ijrosidagi o‘ziga xoslik shundaki, ularni avval bolaga kiyim kiydiruvchining o‘zi aytadi, so‘ngra kiyim kiyayotgan boladan uni takrorlash talab qilinadi. Bola shu talabni ado etadi, xolos.

Aytim-olqishlar xalqimizda bolaparvarlik tuyg‘usining e‘tiqod darajasiga ko‘tarilganligini ko‘rsatuvchi marosimiy qo‘shiqlardir.

**ERKALAMA VA OVUTMACHOQ**lar ham suyish qo‘shiqlarining bir-biridan farq qiluvchi mustaqil janrlari sanaladi. Ovutmacholqlar kichkintoylar g‘ashlanganda, chinqirib yig‘laganda, ehtiyojga aylanish oqibatida yuzaga kelsa, erkalamalar uchun esa, kayfiyatning ko‘tarinkiligi muhimdir. Erkalamalar mehr xuruji jarayonida yuzaga keluvchi badihalardir. Ovutmacholqlar vaziyat taqozosi tufayli ehtiyojga aylansa, erkalamalar kayfiyat taqozosi tufayli yuzaga chiqadi.

**ERKALAMALAR** xalqning o‘z farzandlariga beqiyos mehr tovlanishlarini aks ettiradi:

O,shugina, shuginagina,  
Munchagina tunchagina.  
Shunchagina-kunchagina.  
Yashnab turgan g‘unchagina.

Mehr xuruji ona qalbini tug‘yonga keltirganidan u shu so‘zlar tizimi ritmida arzandasini ardoqlash, erkalash ohangini chuqur tuygan. Erkalamalarda “-gina”, “-ginagina” qo‘shimchalari faol, ularda kichraytirishdan ko‘ra erkalash ma‘nosi bo‘rtibroq tovlanadi.

Erkalamalarning “Ha, lo‘tti-lo‘tti”, “Ha, do‘rsa-do‘rsa”, “Ha, kishta-kishta-kishta”, “Kishtala-kishtal” singari taqlidiy va so‘qma so‘zlar tizimidan iborat an‘anaviy qolipga aylangan satrlar bilan boshlanuvchi qator turkumlari borki, faqat 2-3 yashar bolalarga mo‘ljallangan. Buning sababi – shu yoshdagi bolalar vaznining yengilligi, ularni havolata-havolata ko‘tarib tushirish o‘ngg‘ayligidir. Erkalama ham xuddi shu harakat ravishiga mutanosib ohangda shovqin solingan holda aytiladi:

Ha, do‘rsa-do‘rsa-do‘rsa.  
Bozorga otasi borsa,  
Go‘shu birinch ketarsa,  
Onasi pazanda bo‘lsa.  
Bolasi xo‘randa bo‘lsa.

Erkalamalarda kichkintoylar kelajagiga daxldor orzularni kuylash-yetakchi motivdir. Ular, asosan, yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarga aytilsa-da, aslida bolalarni faol erkalash jarayoni 11-13-yoshga to‘lganlaridagina va hatto undan keyin ham davom etishi mumkin. Biroq bu davrda erkalash poetik shaklda kechmay, maqtash, xatti-harakatni ma‘qullash va minnatdorchilik izhoridan iborat obrazli iboralar (“Yasha!”, “Balli!”, “Ofarin!”, “Rahmat”, “Barakalla!”, “Baraka top!” va hokazo) va olqishlar vositasida amalga oshadi. Erkalamalar bolalarda samimiylik tuyg‘usini tarbiyalaydi.

**OVUTMACHOQLAR** esa bolani tinchlantirish ehtiyojini qondiruvchi badihalardir:

Vo‘y-vo‘y, shuginani kim urdi?  
Vo‘y-vo‘y, shuginaga kim lab burdi?  
Yig‘lama, oppoqqinam,  
Boshimdagi qalpoqqinam!

Ko‘rinayotirki, chaqaloqning yig‘isi onada uni tinchlantirish assotsiatsiyasini uyg‘otgan. Ona shu zaruriyatga ko‘ra so‘zga murojaat qilayotir. U so‘zbozlik qilayotgani yo‘q, balki so‘zni tashkil etgan tovushlar garmoniyasida tinchlantiruvchi ohangga urg‘u berib, orom beruvchi, ovituvchi ma‘noni anglatishga, his etishga va tuydirishga erishayotir. Bunda bolani bag‘riga bosib, beshik yo belanchakda tebrata turib, unga termulgan holda lablarni cho‘chchaytirib yoxud bolaning yupqagina lablarini qitiqlab, ovituvchi ma‘noning omuxtalashtirilishiga alohida ahamiyat berilishini ham unutmashlik darkor. Shundagina so‘zlarda ham, tovushlarda ham ohang, ma‘no va harakatning o‘zaro muvofiqligi ovutmachonning ritmik mehvariga aylana oladi. Buni his-hayajonni ifodalovchi so‘zlarning juftlashgan takrori bo‘rttirib ifodalagan:

Ho‘-ba, ho‘-ba, nega yig‘laysan?  
Ho‘-ba, ho‘-ba, nega big‘laysan?  
Ho‘-ba, ho‘-ba, big‘-big‘lama  
Ho‘-ba, ho‘-ba, san yig‘lama.  
Ho‘-ba, ho‘-ba .. jo..o..on, jo..o..on,  
Sadqa senga shirin jo..o..on.

“Ho‘-ba, ho‘-ba” taqlidiy so‘zidan tarkib topgan anafora mayin va cho‘zinchoq ohangda aytiladi. Tovushlar alliteratsiyasi asosida ohangdoshlik kasb etgan qofiyalar anaforadagi mayin va cho‘zinchoq ohangni to‘ldirib, izchil tarovatlanishini ta‘minlagan. Natijada boladagi injiqlikni elita oladigan jozibali ovituvchi ohang yuzaga kelgan.

**QAYTARMACHOQLAR.** Bolalar uchun, asosan, beshik davri tugagandan keyingi ma‘naviy ehtiyoj taqozosiga ko‘ra yuzaga kelgan badihalar bo‘lib, she‘riy namunasi ko‘pincha monolog, nasriy shakli dialog (savol-javob) negizida quriladi.

Uning poetik nutqida bir voqeadan ikkinchisi o'sib chiqadi, shu zaylda har ikkala tipdagi qaytarmachoqlarda ham bu xususiyat mushtarak fazilatga aylangan. Har ikkala holda ham qaytarmachiq sujetini tashkil etgan har bir voqea alohida epizod tusini oladi, biroq bu epizodlar umumiy bir motiv (g'oya) atrofida izchil mantiqiylik asosida birlashgan bo'ladi. Bunda har bir epizod bir savol shaklida, izohi ham o'zida birin-ketin qaytarilaveriladi. Hodisani qaytarmachiq deyilishi va alohida janr sifatida e'tirof etilishiga ham xuddi shu xususiyatlari asos bo'lgan. Masalan, "Yumalandim yumoq topdim" satri bilan boshlanuvchi qaytarmachiqda lirik qahramon yumalab yumoq topadi (1), yumaloq ichidan taroq topadi (2), taroqni momoga beradi (3), momo unga churak (non) beradi (4), churakni cho'ponga beradi (5), cho'pon unga tayoq beradi (6), tayoqni daryoga tashlaydi (7), daryo unga ko'pik beradi (8), ko'pikni tutga surtadi (9), tut unga yaproq beradi (10), yaproqni molga beradi (11), mol unga sut beradi (12), sutni pishirib turganida qaydagi quyon uni to'kib ketadi (13). Shuncha mehnati zoye ketadi. Ko'rinayotirki, o'n uchta epizod bir-biridan o'sib chiqqan, o'zaro uzviy mantiqiy ketma-ketlik hosil qilgan. Alohida-alohida voqealar qaytarilib, bir ipga marjondek tizilgan holda yaxlitlik kasb etgan. Shu tariqa, xususiylik o'zaro uyusha turib umumiylikka aylana borgan. Bola uchun saboqlik xususiyati ham shunda: har bir voqea, yo hodisa o'zicha mustaqil, biroq bir-biri bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Bolaga ana shu haqiqat uqtirilmoqda.

"Kun, san nimadan kuchlisan?" qaytarmachiq'i dialog negizida qurilgan. Unda bolalarni qiziqtirgan "Dunyoda kim kuchli?" savoliga javob narsa va hodisalar bahsi asosida—voqeadan voqeaning o'sib chiqishi shaklida bola qiziqishi va idrokiga mos holda bayon qilingan:

- Kun, san nimadan kuchlisan?
- Man kuchli bo'lsam, bulut bosarmidi?
- Bulut, san nimadan kuchlisan?
- Man kuchli bo'lsam, yomg'ir yog'armidi?

Ko'rinayotirki, har bir savol o'zidan keyingi voqeaga mantiqiy maydon hosil qilgan, shu maydonaro voqealar tizila boradi: yomg'ir yerni, yer o'tni, o't qo'zini, qo'zi bo'rini, bo'ri echkini, echki sichqonni, sichqon qumursqa(chumoli)ni o'zidan kuchli deb biladi va eng e'tiborlisi shundaki, ularning har biri o'zlaridagi ojizlikni ham oshkora tan ola borishadi. Voqealar shu xilda mantiqiy zanjirsimon tizim tusini ola boradi. *Antropomorfizm* usuli kun, bulut, yomg'ir, sichqon va qumursqa singari nabotot hamda hayvonot olamiga mansub jonzotlarni odamlar singari so'zlash xususiyatiga ega bo'lishlarini ta'minlagan, natijada qaytarmachiqdagi sujet dinamikasi ta'minlangan.

**HUKMLAGICHLAR** ham qadimgi ajdodlarimizning totemistik e'tiqodlariga daxldor marosim qo'shiqlarining ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot ta'sirida transformatsiyaga uchrab, bolalar repertuariga o'tgan va bolalarcha mushohadakorlik zamirida qayta sayqallanib, yangi motivlar, yangi obrazlar hisobiga to'lishgan badihalar silsilasidir. Totemistik e'tiqod qoldiqlari bolalarning hasharotlarga munosabati ifodalangan hukmlagichlarda ravshanroq ko'rinadi.

Chunonchi, bolalar orasida beshiktervatni ko‘rganda uning vositasida fol ochish an‘anasi mavjud:

Beshiktervat, beshiktervat,  
Salima xolam nima tug‘adi?

Beshiktervat o‘ng oyog‘ini ko‘tarsa-o‘g‘il, chap oyog‘ini ko‘tarsa-qiz tug‘ilishiga yo‘yilgan.

Ertapishar xilili uzum xol tashlaganda xonqizi, tillaqo‘ng‘iz hasharotlari ko‘payadi. Bolalar orasida xalilipazak yoki hasanak nomlari bilan ham yuritiladigan xonqizi sirtida nuqtasimon xolchalar borligidan unga xol deb murojaat qilishadi:

Xol, xol, xol,  
Otang o‘ldi,  
Onang o‘ldi,  
Borib xabar  
Olmaysanmi?

Rivoyatga ko‘ra, xonqizi aslida podsho qizi bo‘lgan-u, qashshoq bir cho‘ponni sevgani uchun g‘azablangan otasi uni “Iloyo, qumursqaga aylan!”– deya qarg‘agan emish. Shu qarg‘ish tutib, u hasharotga aylanganmish. Xonqizi deyilishi shundan qolganmish. Tillaqo‘ng‘iz, kaltakesak, ilonga ham shu xildagi murojaat tarzida to‘qilgan hukmlagichlarda totemistik qarashlar saqlangan. Qarg‘a, musicha, to‘rg‘ay, bedana, qaldirg‘och, laylak va boshqa qushlarga oid hukmlagichlarning ma‘lum qismida totemizm ta‘siri bir qadar sezilsa-da, taqlidiy so‘zlar faolligida to‘qilgan aksar namunalarida bu ta‘sir, asosan, so‘ngan. Taqlidiy so‘zlar hukmlagichlarda ma‘lum poetik vazifani bajaradi:

– Qurvaqajon, vaq-vaqa,  
Ko‘zing nega bundaqa?  
Bugun o‘sma qo‘ymadim,  
Shuning uchun shundaqa.

Taqlidiy so‘zlar yordamida yaratilgan bunday hukmlagichlarning ko‘pchiligi totemistik aqidalar ta‘siridan xoli bo‘lib, bevosita bolalar dunyoqarashini, ularning voqelikka hayratomiz munosabatlarini, idrok va zavqlaridagi o‘zgachalikni aks ettiradi.

**MASXARALAMA**lar esa satirik ruhdagi, aniqrog‘i, bolalarning voqelikka sinfiy-ijtimoiy nuqtayi nazardan tanqidiy munosabatlarini ifodalashi va ijro etilishi jihatidan tegishmachoqlardan farq qiluvchi badihalardir. Tegishmachoqlar ham, masxaralamalar ham shovqin solib aytilishlariga ko‘ra o‘zaro o‘xshasalar-da, birinchisi – bevosita obyektga qaratilgan bo‘lib, ko‘pchilik tomonidan ijro etilsa, ikkinchisi–ayni ijro jarayonida obyektga qaratilgan bo‘ladi. Masxaralamalar yakka holda – soloda aytilaveradi, goho deklomatsiya qilinishi ham mumkin.

Masxaralamalarda bolalar sinfiy mavqelarini ayonroq ko‘ra boshlashlari tufayli sinfiy dunyoqarashlarining kurtak ota borishidan tug‘ilgan tanqidiy munosabatlarini ifodalash yetakchi tamoyildir. Dastlabki bosqich bo‘lganidan bu jarayon birmuncha jo‘n va soddaroq kechadi. Bolaning ijtimoiy hodisaga tanqidiy

munosabatini ifodalaovchi sinfiy nazari oddiy tashqi belgilarni ajratib ta'kidlash shaklida zuhur topadi:

Yomg'ir yog'aloq,  
Echki sog'aloq.  
Boylar bolasi –  
Qorni dumaloq.

“*Yomg'ir yog'ishi*” - tabiatga xos hodisa, jamiyatga esa suv tekin sanaladi. “*Boylar bolasi*” mehnatkashlarni “*echkiday sog'ayotgan*” otalari hisobidan “*qorinlarini dumalatib*” yashayotgani sarkastik parallelizmida fosh qilingan.

Masxaralamalar hamma zamonlarda – o'tmishda ham, bugun ham yaratilmoqda. Qaysi zamonda yaratilganidan qat'iy nazar, davrning tarixiy ruhiga muvofiq yovuzlar qiyofasini konkret an'anaviy ifodalarda fosh etadi. Bunda bolalar tasavvurining konkretligi, yovuzlik yoki yovuzlarni badbashara qiyofada aniq ko'rishni taqozo etishi obrazlar tasviridagi an'anaviylikka mone'lik qilmagan. Shu sababli bunday masxaralamalar poetik tavsifnomaga o'xshaydi:

Otam ketgan urushga,  
Dushmani ko'p qirishga.  
Boshi uzun, ko'zi ko'r  
Gitlarni o'ldirishga.

**ALLALAR.** “Alla” istilohining kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar mavjud. Kimdir uni arabcha “olloh” so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shakli desa, kimdir o'zbekcha “aldamoq” so'zidan kelib chiqqan, shunga ko'ra u bolani aldab-avrab uxlatish ma'nosiga ega deya izohlashga urinadi. Bu izohlarning soxtaligi va haqiqatni aks ettirmasligi o'z-o'zidan ayonlashib turibdi. L.Z.Budagov chig'atoychada “allala” boshning orqasi, ya'ni «ensa»ni anglatishini qayd etgan. Chindan ham chalqanchasiga yotganda boshning orqasi yostiqa bosilib, shu holda uxlanadi. Chaqaloq beshikka, belanchakka faqat bosh orqasi—allalasi bilan chalqanchasiga cho'zilib uxlaydi. Bolaga uyqu chaqirishda qo'llanishi shu vazifasidan kelib chiqqan. Bunda “**allala**” shakli “**alla, alla-yo, alla-yo alla**” tarzidagi ko'rinishlar bilan to'lishib, uyquga chorlovchilik mohiyatini kasb etgan. Chaqaloq yoshini to'ldira borishi jarayonida bu so'zdagi tovushlarni idrok etishi tufayli uyqusi kelganda o'zining ham “**alla**” so'zi lug'aviy jihatdan “bosh orqasi” va “uxlamoq” ma'nolarini anglatasa, istilohiy ma'nosiga ko'ra uyqu chaqirmoq, uxlatmoq asosiy vazifasiga aylangan silsilaviy qo'shiq turini anglatadi. Abu Ali ibn Sino allaning shu xususiyatini ming yil ilgariyoq payqab, shunday e'tirof etgan: “... bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak: Biri, bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan muzika va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan muzikaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi”. Bu mulohazadan to'rt narsa ayonlashadi: **birinchisi**, allaning bundan ming yil ilgari – Ibn Sino zamonida ham mavjudligi bo'lib, janrning genetik asosiga nazar solish imkonini beradi. **Ikkinchisi**, allaning ijrosi – sekin-asta tebratishga omixta holda kechishi, **uchinchisi** esa, bolani uxlatishgagina

xizmat qilishi va nihoyat **to'rtinchisi**, bolaning ham jismoniy, ham ma'naviy chiniqishida muhim ahamiyat kasb etishi to'g'ri ilg'angan.

Allalar, odatda, bolalarning emizikli davrida – ular to 3 yoshini to'ldirgunlarigacha aytiladi. Ularning bolalarning shu yoshi bilan bog'lanishi qat'iy bo'lib, beshik qo'shig'i sifatida tavsiflanishiga yo'l ochgan. Allalarni ona suti bilan bog'lab “sutda qorilgan va mehrga yo'g'rilgan qo'shiq” tarzida muqaddaslashtirilishi sababi shunda

*Allalar faqat kuylanadi. Ularni shunchaki aytish yo deklomatsiya qilish mumkin emas. Monoton ohang o'zbek allalari uchun mushtarak xususiyatdir. Odatda, allalar kuyi bilangina bolaga orom bag'ishlaydi, uni elitadi. Bola uchun uning so'zi emas, balki kuyi muhim. Chunki u hali so'zni anglamaydi. Alladagi so'zlar ona uchun muhim: ular ona qalbining nidolari.* Allalarning bir maromdagi tebranishga mos mayin ohangi bola ma'naviy ehtiyojining dastlabki qondirgichi sifatida xizmat eta boshlaydi. Zero, tadqiqot va kuzatishlarning tasdiqlashicha, chaqaloq tug'ulgach, uchinchi kundan e'tiboran kuy va ovozni idrok eta boshlaydi. Birinchi oyda o'zidagi musiqiy idrokini – ritm va ohangni idrok eta olishini namoyon eta boradi, lekin unga u qadar murakkab bo'lmagan tovushlarning o'zaro almashishi ohangi va ritmikasigina o'ngg'ay hisoblanadi.

Binobarin, *so'z ohang va harakat birligi, aniqrog'i, shu uzvlarning o'zaro mantiqiy aloqadorligi tufayli allalarning kompozitsion butunligi yuzaga keladi.*

*Allalarda to'rtlik band tuzilishi yetakchi bo'lsa-da, uchlik, beshlik, oltilik, ettilik va sakkizlik tarzida bir butun tugallangan allalar ham, shuningdek, shu xildagi band asosida to'qilgan namunalar ham ancha.* Jumladan, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalaridagi allalarning aksariyati, asosan, to'rtliklar, beshliklar va sakkizliklar shaklida bo'lsa, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent va Farg'ona vodiysida hajman bir necha to'rtlik yo beshlikdan iborat voqeaband yo lirik allalar salmog'i baland. Bunday strofik xilma-xillik onalarning alla kuylayotgan vaziyatdagi kayfiyatining natijasi bo'lib, allada kuylanishi kutilgan g'oyaviy niyatning salmog'iga, ko'tarinkiligiga, yo'nalishiga bog'liq. O'zbek allalarida shunday bir ichki mantiq borki, u qaysidir bir ishorada harakat, ohang va mazmun birligini ta'minlab turadi.

Onalar o'zlari xush yoki noxushliklaridan qat'iy nazar farzandlariga hamisha mehribonlik bilan kuylaydilar: farzandlarini erkalata turib uyqu chaqirganlarida eng nafis ranglarni tanlashga, shu ranglarni g'oyat nazokat bilan ishlatishga e'tibor beradilar. Bolalari tabiatini toblantirishda doimo tiniqlik va quvnoqlikka aloqador tuyg'ularni teran ifodalashga xizmat qiluvchi poetik obrazlarga, sifatlash va o'xshatishlarga murojaat qiladilar, shu maqsadda **qo'zichoq, qo'chqor, olqor, toychoq, saman, toyloq, bo'taloq, kiyik(ohu), quralay, serka, bulbul, to'ti, lochin, tog', shahm, chirog', qizil gul** obrazlarida farzandlari qiyofasi va taqdiriga xos fazilatlarini umumlashtirib e'zozlaydilar:

Bulbul qushning bolasi,  
Alla, qo'zim-o, alla.  
Daraxtda bo'lar uyasi,  
Alla, bolam-o, alla.

Daraxt boshini sel olsa,  
Alla, qo‘zim-o, alla.  
Shaydolar bo‘lar onasi,  
Alla, bolam-o, alla.

O‘zbek allalarini kompozitsion tarkibiga ko‘ra ikki turga bo‘lish mumkin:

**1. VOQEABAND (SUJETLI) ALLALAR.** Bularni allachilikning eng takomillashgan namunalari sanash joiz. Bunday allalar yagona, yaxlit sujet (voqea)ga ega, barcha bandlardagi poetik muddao bir silsilada markazlashgan hayotiy voqealarning epizodlari uyg‘otgan kayfiyatlar tasviridan iborat bo‘ladi. Ularda kompozitsiya puxta: ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya va yechim singari uzvlar mavjud:

Bulbul sayrar yozina, alla-yo alla,  
Qulluq qush ovozina, alla-yo alla.  
Manim bulbul shu o‘g‘lim, alla-yo alla,  
Quloq qo‘ysin ovozima, alla-yo alla.  
Bulbul kichkina qushdir, alla-yo alla,  
Sahar ovozi xushdir, alla-yo alla.  
Bermang bulbula ozor, alla-yo alla,  
Bulbul beozor qushdir, alla-yo alla.  
Bulbul sayrar chamanda, alla-yo alla,  
Shu bag‘ri keng vatanda, alla-yo alla.  
Uni aslo cho‘chitmang, alla-yo alla,  
Sayrasin shu chamanda, alla-yo alla.  
Bulbul uchar qo‘limdan, alla-yo alla,  
Har kim qo‘rqar o‘limdan, alla-yo alla.  
Shu bulbulim sayrasa, alla-yo alla,  
O‘lim qochar yo‘limdan, alla-yo alla.

Allada ekspozitsiya-bulbulning yozda sayragan va maftunkorligining har qanday minnatdorlikka sazovorligi bo‘lsa, tugun–bulbul obrazidagi o‘g‘ilning kelajakdagi taqdiri, aniqrog‘i, kim bo‘lishi. Kulminatsiya esa shu bulbul–o‘g‘il taqdirining o‘limga ro‘para kelmasligi niyatidan tug‘ilgan tuyg‘ular qarama-qarshiligida ko‘rinadi. Nihoyat, shu o‘g‘il–bulbulning xushxon sayrab qolishi–o‘limni qochirishidan iborat taskin tugunning optimistik yechimi hisoblanadi.

Voqeabandlik xususiyatini nafaqat lirik, balki yumoristik hamda yig‘i va yo‘qlov xarakteridagi allalarda, shuningdek, badihaviy allalarda ham kuzatish mumkin.

**2. PAROKANDA ALLALAR** ham o‘zbek onalari repertuarida serob bo‘lib, ayni zamonda nisbatan faol yaratilmoqda. Ularning muhim xususiyati–yaxlit va izchil sujet negizida qurilmaganligidir. Bunday allalarda har bir band o‘zicha mustaqil, tugal motiv, yo mazmunga ega. Lekin mustaqillik boshqa belgi, xolos. Chunki mazmun mantiqi, baribir, bolaga qaratilganligi tufayli bir necha bayt yoki band yagona bir ipga tizilgan bo‘ladi. Buni vazn, qofiya, radif va naqarot singari badiiy-tasviriy hamda kompozitsion-struktural uzvlar kuchayadi. Allada parokandalikning yuzaga kelishida uni kuylayotgan ona kayfiyatidagi beqarorlik,

aniqrog‘i, sarguzashtlari, hayotiy tashvishlaridagi omad va omadsizliklari, o‘kinchlari, armonlari girdobiga nechog‘lik chuqur kira borishi, mutaasirligi asosiy rol o‘ynaydi. Bunday vaziyatlarda “...o‘z mulohazalariga kuchli g‘arq bo‘lib ketish oqibatida ona chaqalog‘ining kelajak taqdirini va hayotining barcha davrlarini o‘ylay boshlaydi. Fikri bola atrofida aylanadi-yu, biroq qo‘shiqqa ozmi-ko‘pmi miqdorda onalik hislari va istaklarini singdirayotganini o‘zi sezmay qoladi” (A.Vetuxov). Natijada onaning o‘y-mulohazalari ikki yo‘nalishga bo‘linadi: hambolani, ham o‘zini o‘ylashga moyillasha boradi, oqibatda esa, ona o‘y-mulohazalarida parishonlik-tarqoqlik yuzaga kela boshlaydi. Biroq onaning o‘zi haqidagi o‘y-mulohazalari aslida bolasi atrofidagi o‘y-mulohazalar zamirida kechadi. Bu esa alladagi sirdan parokandaday tuyulayotgan motivga bir butunlik bag‘ishlab turadi.

**Bolalar qo‘shiqlari.** Ota-onalar o‘z bolalarning tabiatga munosabatlarini shakllantirishda ham faol ishtirok etadilar. Buning natijasida bolalarning taqvimi va unga aloqador mavsum-marosim qo‘shiqlari yuzaga kelgan. Yil fasllari–bahor, yoz, kuz, qish mavsumlari bilan bog‘liq bunday qo‘shiqlarning bir qismi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqozosiga ko‘ra kattalar repertuaridagi mavqeyini yo‘qotgan, yo tamoman so‘nib ketgan, yo transformatsiyaga uchrab bolalar repertuaridagina saqlanib qolgan. “Qo‘shiq” keng ma‘noda qo‘shiqshunoslikka, tor ma‘noda folklorga oid atamadir. Qo‘shiq– xalq og‘zaki ijodida shakllangan lirik janr sifatida mashhur. Uning muhim belgisi – ijro uchun mo‘ljallanganlik. Xalq qo‘shiqlari biror musiqa jo‘rligida (lapar, yor-yor), muayyan ish-harakat ritmi (qo‘sh qo‘shiqlari, charxchi qo‘shiqlari) yoki ma‘lum bir ruhiy holat mohiyatiga (yo‘qlovlar) mos tarzda ijro qilingan.<sup>7</sup> Bu jihatlar bolalar qo‘shiqlarida ham namoyon bo‘ladi. U turli fasl, holat va vaziyatlarda, yoxud har xil o‘yinlar jarayonida kuylanib, bolalarning aqliy va jismoniy kamolotga yetishuvida muhim omil sanaladi. Bolalar qo‘shiqlari orasida bahor va yoz mavsumlariga bag‘ishlangan namunalari ancha faol. Ayniqsa, bahor fasli katta-yu kichik qalbini quvonchga to‘ldirgan.

**“Boychechak”** – bolalar kuylaydigan mavsumiy va marosim qo‘shig‘i. Boychechak qadimda Navro‘z elchisi sifatida bolalar quvonchiga sabab bo‘lgan. Undan guldastalar yasashgan bolakaylar hovlima-hovli yurib, qo‘shiq kuylab, boychechak ulashib, bahor xabarini berib, suyunchi olishgan. Uning xush kayfiyatda kuylanishi, “Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak, Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak” naqarotining mazmun mohiyati katta-yu kichikka birdek tushunarli. Biroq qo‘shiqni yod olgan, zavqqa to‘lib kuylagan kichikintoylar uning mazmunini teran anglaganlaridagina xalq madaniy tarixi, milliy qadriyatlarimizdan voqif bo‘ladilar. Qo‘shiqning birinchi bandi shunday boshlanadi:

Boychechagim boylandi,  
Qozon to‘la ayrondir.

<sup>7</sup> Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, “Akademnashr”, 2010.–B.384



Ayroningdan bermasang,  
Qozon-tovog'ing vayronidir.

Qo'shiqda qadimgi ajdodlarimizning ilk bahor kunlaridagi "qozon to'ldi" marosimi va bahor kelganiga ishora qilinayotir. Negaki, boychechak bahor elchisi ekan, endi yaylovda o't-o'lanlar ko'karadi, sigir-echkilar suti ko'payadi, issiq boshlanishi bilan hamma ayronxo'rlikka o'tadi. Kishilarning qozon to'ldirib ayron tayyorlashi va bir-birlariga ulashishi xayrli udumlardan sanalib, xalqda uni bir-biridan qizg'anganda ro'zg'orga putur yetishi mumkinligi inonchini paydo qilgan. Boychechak haqidagi qo'shiqlarning genezisi juda qadimiy davrlar bilan bog'liqligi qo'shiqning keyingi bandida ko'rinadi:

Boychechakni tutdilar,  
Tut yog'ochga osdilar,  
Qilich bilan chopdilar,  
Baxmal bilan yopdilar.

Bu tarixan hosildorlik kulti bilan bog'liqligini zamondosh o'quvchiga tushuntirish lozim. Folklorshunos olimlar e'tiroficha, o'simliklar kultining paydo bo'lishi ibtidoiy madaniyat davri bilan bog'liq bo'lib, qadim inonchlardan biridir. "Arxaik dunyoqarashda, – deb yozadi A.Musaqulov, – butun tabiat kabi o'simliklar ham jonli va ongli, deb tushunilgan va ko'pgina xalqlar o'zlarining ilk ajdodlarini o'simliklar totemi bilan bog'lashgan"<sup>8</sup>.

Boychechak – badavlat, muqaddas, ilohiy gul degan ma'nolarga ham ega. Olimlar ta'kidicha, qo'shiqlarda boychechak to'ng'ich go'zal qizga o'xshatiladi. Yuqoridagi misralar ham shu ma'noda juda qadim davrlarda ko'klamgi marosimlarda qizlarni qurbonlik qilish marosimidan nishona ekani e'tirof etilgan. Qo'shiqdagi:

Boychechakni tutdilar,  
Tut yog'ochga osdilar.  
Qilich bilan chopdilar,  
Baxmal bilan yopdilar.

misralari shunday talqinga asos bo'lgan. Zotan unda ta'riflangan boychechak–erta bahorda ochilgan gul ekanligi bilan birga tarixiy hodisalarning umumlashma obrazi hamdir. Qo'shiq tugagach, boychechakxonlarga sovg'a-salomlar berishgan. Bolalar bularni o'zaro bo'lishib olgan, hammalari birgalikda mehmonnavozlik qilishib, xalqimizning mehmondorchilik an'analarini o'zlashtirishgan. Shu ma'noda:

Boychechagim boylandi,  
Ko'chama-ko'cha aylandi.  
Boychechagim ko'k somsa,  
Cho'ntaklarga joylandi,-

---

<sup>8</sup> Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. T., «Fan», 2010. –B.207.

misralari orqali bolalarning ilk boychechakni olib, hovlima-hovli suyunchi so‘rashi, keksalar uni yuzlariga sutib, “omonlik-omonlik”,– deya yeguliklar, pullar berishlari, ko‘k somsalar pishirishlari poetik ifodalangan.

Bolalarning qo‘shiqqa bo‘lgan kuchli moyilligi ular faoliyatining asosini tashkil etuvchi o‘yinlarda ham namoyon bo‘ladi. Ular bir-birlarini o‘yinga qo‘shiq aytib chaqirish asosida *chorlamalar*, o‘yinda ishtirok etadigan bolalar tarkibini aniqlashda *cheklashmahoqlar*, navbat aniqlashda *sanamalar*, shuningdek, o‘yin nihoyasida *tarqalmahoqlar* kuylashgan. Bularning har biri bolalar folklorining mustaqil poetik janrlari hisoblanadi.

Albatta, davrlar, avlodlar yangilanishi bilan bunday o‘yin- qo‘shiqlar ham o‘zgarib, yangicha mazmun-mohiyat kasb etishi tayin. Xususan, turli sport o‘yinlari, anjomlari va mashg‘ulotlari keng miqyosda ommalashib bormoqda. Shunday bo‘lsa-da, xalq ijodining ko‘pgina namunalari bolalar ma‘naviy olamini boyitishda hamon hissa qo‘shib kelmoqda. Bolalar repertuarida ibtidoiy ajdodlarimizning qadimgi animistik va totemistik aqidalari asosida shakllanib, endilikda o‘sha mohiyatini yo‘qotgan *yalinchoqlar* va *hukmlagichlar* hamon yashamoqda.

**YALINCHOQLAR**–ibtidoiy animistik qarashlar zamirida vujudga kelgan tabiat hodisalariga aloqador mavsumiy marosim qo‘shig‘i. Ular qachonlardir kattalar repertuarida yuzaga kelgan. Biroq davrlar o‘tishi bilan animistik e‘tiqod ham so‘na borgan, natijada, unga daxldor marosim ham so‘ngan. Lekin shu marosimning verbal qismi bo‘lgan aytim-qo‘shiqlar, inchunin, *quyoshga, oyga, yulduzlarga, kamalakka, shamolga, yomg‘irga* va boshqa tabiat hodisalariga sig‘inishni ifodalagan qo‘shiqlar ham asta-sekin yalinish-sig‘inishdan iborat animistik mohiyatini yo‘qota borib, goh parcha (rudiment) holda, goh transformatsiyaga uchragan holda bolalar repertuariga o‘tib yashay boshlagan. G‘oyat keng tarqalgan va xilma-xil variantlarga ega “Oftob chiqdi olamga” yalinchog‘i shu jihatdan e‘tiborga ega. Uni qish oxirlab, quyosh bulutni yorib ko‘ringanda, bolalar o‘sha quyoshga qarata, quvnoq ruhda shovqin solib, sakrab-sakrab birgalikda jo‘ravoz bo‘lib kuylaganlar:

Oftob chiqdi olamga,  
Yugurib bordim xolamga.  
Xolam: – Ana yer,– dedi,  
Borib o‘tin ter,– dedi.  
O‘tin terdim bir quchoq,  
Non yopdi o‘choq-o‘choq.  
Menga berdi elakday,  
O‘ziga oldi g‘ilakday.  
Otib urdim eshikka,  
Boshim tegdi teshikka.

Yalinchoqning quyosh ko‘ringandagina unga qarab kuylanishida ajdodlarimizning quyoshga sig‘inishdan iborat qadimiy animistik e‘tiqodining tarixiy ildizini fahmlash qiyin emas. Gerodot ma‘lumoticha, qadimgi massagetlar eng chopqir otni qurbon qilib, quyosh chiqishini intizor kutganlar va unga

sig'inish marosimini uyushtirganlar. To'marisning quyosh nomi bilan qasamyod qilishida ham shu e'tiqodga ishora qilinayotgani ayon. Shu e'tiqodning so'nishi tufayli marosimi ham yo'qolgan, davrlar o'tishi bilan bolalar qishki o'yinida kuylanadigan yalinchoq shaklida saqlanib qolgan. Biroq endi animistik mohiyatini ham yo'qotgan, unda shikoyat motivini ifodalash ustuvor tus olgan; qishning shafqatsizligi mehrsizlik mohiyatini ochuvchi ijtimoiy parallelizm (muvoziylik)ni yuzaga keltirgan. Yalinchoqda lirik qahramon muruvvat ko'rsatmagan xolasidangina emas, balki o'tin tersa-da, mehnati munosib qadrlanmaganidan o'ksinadi, biroq o'z qadrini yerga urmaydi. Yalinchoq bolalarga ana shunday axloqiy saboq beradi.

**Maqol**, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, donolar yoki donishmandlar so'zi, oqinlar so'zi va otalar so'zi atamaları bilan el orasida yurgan bu janr namunalari g'oyat ommaviy bo'lib, umumfolklor hodisasi hisoblanadi. Ilmiy taomilda esa maqol atamasi iste'moldadir. Maqol arabcha "qavolla" so'zidan olingan va "aytmoq, so'zlamok" ma'nolarini anglatadi. Xalq orasida "qavlida sobit" yoki "qavlida tutruqsiz" iboralari bor: birinchisida "so'zida qat'iyatli, bir so'zli" ma'nolari anglashilsa, ikkinchisida "so'zida turmaydigan, o'z so'zi ustidan chiqa olmaydigan, so'zi bilan ishi bir bo'lmagan" ma'nolari ifodalangan. Binobarin, "maqol" so'zi o'zbek tilida ikki mahnoda, avvalo, o'z lug'aviy mahnosida "so'z, nutq"ni anglatga, ikkinchidan, istilohiy ma'noda folklorda keng tarqalgan janrni ifoda etadi.

Maqol, masal va naql janrlarining yuzaga kelishiga tahsir ko'rsatgan, masal va naqlning xulosasi, qissadan chiqarilgan hissasiga aylanganligi tufayli ba'zan masal va ba'zan naql istilohlari bilan ayqashib ketgan. Aslida esa "masal" so'zi ham arabcha bo'lib, "o'xshamoq" ma'nosini anglatga-da, o'zbek tilida maqol va biror maqsadni izohlashga qaratilgan majoziy hikoya singari ikki ma'noda qo'llanadi. Biroq XX asrga kelib uni maqol ma'nosida istifoda etish cheklana borildi. Faqat tojik folklorshunosligida maqolni masal istilohi bilan atash qaror topdi.

"Naql" so'zi ham maqol ma'nosida qo'llansa-da, arabcha so'z bo'lib, "ko'chirmok" ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida esa "bayon qilmoq, hikoya qilmoq, rivoyat qilmoq" singari ikkinchi bir ma'noga ega va xalq og'zaki nasrining mustaqil aforistik janrini ifodalovchi ilmiy istiloh sifatida qo'llanadi. "Yaxshi naql-tomiri aql" maqolida "naql"-maqol ma'nosidadir.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona axloq-odob qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-falsafaviy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo'lib yuzaga keladi. Har bir xalq maqolida o'sha xalqning qalbi, milliy sajiyasiga xos qarashlari ifodalansa-da, ulardagi g'oya umumxalqqa

tegishlidir. Shu xususiyatlariga ko'ra, maqollar ham milliy, ham umuminsoniy mohiyat kasb etganlar.

Maqollar insonlarning turli sohalardagi faoliyatlari jarayonida uzoq muddatli sinovlardan o'tgan turmush tajribalarining hosilasi–barqaror va o'zgarmas, to'g'ri va haqqoniy xulosasi tarzida yuzaga kelgan.

Maqollar ham she'riy, ham nasriy shakllarda bo'lib, na lirik, na epik turga mansub. Shu sababli ular ham, topishmoqlar, irimlar va obrazli iboralar kabi paremik turga kiritilib, yozib olinishi va to'planib kitobat qilinishi *paremiografiyaga* daxldor bo'lsa, paydo bo'lishi, taraqqiyot tamoyillari va qonuniyatlari, badiiyati *paremiologiyada* o'rganiladi.

Maqollar shaklan ixcham bo'lsalar-da, badiiyatiga ko'ra yuksak obrazlilikka egadirlar. Ularda fikr sodda, tabiiy, ravon, silliq va tushunarli bo'lib, ta'sirchan ifodalanishi ehtiyoji turli narsalar, hayvonlar, o'simliklar va hodisalar obrazlaridan g'oyaviy-badiiy niyatni ifodalashda foydalanishni taqozo etgan. Natijada, timsoliy obrazlar vositasida hayotdagi ijobiy yo salbiy voqealarga, insoniy munosabatlarga axloqiy baho berilib, hukmlar chiqarilgan.

Maqollar tuzilishiga ko'ra, bir va bir necha sintaktik butunliklar asosida tashkil topgandir. Bir sintaktik butunlikdan iborat maqollar, odatda bir qismli maqollar sanalib, ko'pincha darak gap yo'sinida bo'ladi: "Ayol tilini ayol biladi", "Arg'imchiga qil-quvvat", "Vatanni sotgan er bo'lmas", "Gavhar yerda yotmas", "Yomon it egasini qopar", "Ishni ishchandan o'rgan" kabi. Ko'p sintaktik butunlikdan iborat maqollar esa ko'p qismli, yoki murakkab maqollar deb yuritiladi. Bunday maqollar bir-biriga o'xshash, yoki zid fikrlar bayonidan iborat bo'ladi. Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan; bir qismi tasviriy mohiyatga ega bo'lsa, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir: "Aytmas yerda tilingni tiy, mehmonga borsang nafsingni tiy", "Bulbulning sayrashi guldir, mehr xazinasi tildir", "Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin", "Yolqitsa ham yog' yaxshi, yondirsa ham yoz yaxshi", "Ishonish bilan kasal bo'lsang – umid qilsang, tuzalasan" kabi yuzlab maqollarda ikkinchi qism zarbli va asosiy o'gitni ifodalaydi.

Maqollar jonli so'zlashuv tilida yaratilgan va shu taxlitda so'zlanadi. Aksariyati to'g'ri ma'nolarda qo'llansa, ma'lum qismi ko'chma (ramziy va majoziy) ma'no tashiydi: "Avval o'yla, keyin so'yla", "Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga", "Mehnat, mehnatning tagi rohat", "Vatani borning – baxti bor, mehnati borning–taxti", "Vataning tinch–sen tinch" maqollarida to'g'ri ma'no ustuvor; "Dunyoni suv olsa – o'rdakka ne g'am?", "Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi" singari maqollar ko'chma ma'nolardagina hikmatlilik kasb etgan.

Maqollarda saj'lar faol bo'lib, o'ziga xos ichki qofiyadoshlikni yuzaga keltirgan va ularning ohangdoshligini ta'minlaydi.

Maqollarni tasnif qilishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud. Jumladan, alifbe tartibida, mavzulari, sinonimik yoki antonimik mohiyatiga ko'ra, to'g'ri yoki ko'chma ma'no tashishiga hamda qaysi ijtimoiy davrda yaratilganligiga-xronologiyasiga ko'ra guruhlash, yo tasnif qilish paremiologiyada an'anaga aylangan. Ammo hozircha o'zbek maqolshunosligida alifbe tartibi va mavzusiga

ko‘ra tasnif qilish an‘anasiga ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari” (1987) va ko‘p jildlik “O‘zbek xalq ijodi” ruknida “O‘zbek xalq maqollari” (1989) to‘plamini tuzishda amal qilingan. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek xalq maqollarini yozib olish tarixi ancha qadimiy bo‘lib, ikki yo‘nalishda davom etganini kuzatish mumkin:

**Birinchi yo‘nalish** – *maqollarni jonli so‘zlashuvda qanday aytilsa, shu holatida xalqdan yozib olish va kitobat qilish*. O‘zbek xalq maqollarini ilk bor yozib olish va kitobat qilish XI asrning buyuk filologi Mahmud Qoshg‘ariy nomi bilan bog‘liq. U juda ko‘p turkiy qabila va xalqlar orasida bo‘lib, xalq ijodiyotining boshqa janrlariga mansub namunalari qatorida anchagina maqollarni ham yozib olib, “Devonu lug‘otit turk” asarida darj etdi. Shu asosda maqollarni kitobat qilish an‘anasini ham boshlab berdi. Tubandagi maqollar shular jumlasidan bo‘lib, ularni hozirgi nusxalari bilan yondosh berish asosida har biriga oid transformatsiya jarayoni hamda ma‘no tovlanishlarini kuzatish mumkin:

M.Qoshg‘ariyda:

*Kishi olasi ichtin,  
Yilqi olasi tosh tin.*

Hozirgi nusxasi:

Mol olasi-toshida,  
Odam olasi –ichida.

Maqol mazmunida hech qanaqa o‘zgarish bo‘lmasa-da, undagi sintaktik bo‘laklar o‘rin almashgan. Qadimiy o‘zbekcha “kishi” so‘zi arabcha “odam” va turkiy xalqlarning otga sig‘inishi asosida qo‘llangan “yilqi” so‘zi umumlashtiruvchi ma‘noga ega arabcha “mol” so‘zi bilan almashgan. Bu eski o‘zbek tili so‘z boyligiga arablashtirish nechog‘li kuchli ta‘sir ko‘rsatganini ayonlashtiradi. Shuningdek, o‘rin-payt kelishigini ifodalovchi –“-tin” qo‘shimchasi “-da” bilan almashinib, tilning grammatik qurilishiga xos o‘zgarishni namoyon etadi. Bunday holatni devondagi: “Tog‘ toqqa qovushmas, odam odam bilan qovushur”, “Er so‘zi–bir” maqollarini hozirgi “Tog‘ tog‘ bilan uchrashmas, odam odam bilan uchrashar” va “Yigitning so‘zi bir bo‘lar” nusxalari bilan qiyoslaganda ham kuzatish mumkin.

O‘zbek halq maqollarini yozib olish an‘anasi XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoirlar Muhammadsharif Gulxaniy va Sulaymonqul Rojiylar tomonidan davom ettirildi. Gulxaniy 400 dan ko‘proq, Rojiy esa 450 tacha xalq maqolini to‘plab, o‘zlarining “Zarbulmasal”larida jamlab berganlar. Albatta, ular ilmiy maqsadlarni ko‘zlab maqol yig‘maganlar. Bunda, asosan, asarlarida xalqona jozibani kuchaytirish, personajlar tilini individuallashtirish va tabiiy, sodda ifodaviylikka erishishni nazarda tutganlar. Shunga qaramay, ularning bu xizmati o‘zbek paremiografiyasi tarixiy tadrijini ko‘rsatishda ayricha ahamiyatga ega.

XIX asrning 2-yarmidan e‘tiboran o‘zbek xalq maqollarini ilmiy asosda yozib olish va nashr etish harakati izchil tus ola bordi. Venger olimi H.Vamberi 1867-yilda Leypsigda chop ettirgan “Chig‘atoy tili darsligi”ga 112 ta o‘zbek maqolini kiritdi. U bu maqollarni o‘zbek tilida arab alifbosida va lotincha transkripsiyada, so‘ngra, o‘zi amalga oshirgan nemis tilidagi tarjimalari bilan e‘lon

qildi va ilk bor o'zbek xalq maqollarini Yevropa jamoatchiligi e'tiboriga havola etdi. Vamberi e'lon qilgan maqollar orasida "Ot oriqlikda–yigit g'ariblikda", "Aqlli kishi ikki marta bir toshga qoqilmas", "Ichda bo'lgan og'riqni kesib bo'lmas", "Qo'ling moyli bo'lsa, boshingga surt", "Tilidan kelgani qo'ldan kelsa, hamma odam gadoy bo'lmay xon bo'lur", "Oshiqqan oshga shayton qo'shilur", "Hayit otliniki, to'y to'nliniki" singari nodir namunalar borki, hanuzgacha biror to'plamda uchramaydi. Keyingi maqol esa hozir "To'y kimniki–tegishliniki, hayit kimniki–barchaniki" shaklini olgan holda o'zgargan. "Ichda bo'lgan og'riqni kesib bo'lmas" maqoli o'z ma'nosida tushunilsa, ya'ni zamonaviy tibbiyot taraqqiyoti ichdagi har qanday og'riqli a'zoni kesib, yamab va yangilab davolay olishi inobatga olinsa, eskirganligi ayonlashadi, biroq ko'chma ma'noda qo'llansa, unda inson ichki olamiga xos murakkab tuyg'ular anglanadi va maqol hamon o'z mohiyatini yo'qotmagan holda xizmat qilaverishi ravshanlashadi. Missioner K. P. Ostroumov ham 1888-1890-yillarda chop etilgan "Sirdaryo viloyati" statistikasi uchun materiallar to'plami"ning birinchi jildida – 492 ta va ikkinchi jildida – 628 ta, jami – 1120 maqolni o'zbek va o'z tarjimasida rus tillarida e'lon qilgan. U bu maqollarni bevosita o'zi yozib olgan emas, balki rus-tuzem maktabi talabalari yordamida to'plashga muvaffaq bo'lgan.

O'zbek xalq maqollarini to'plash va ommaga yetkazishda 70-80-yillarda jiddiyroq kirishildi. Bu sohadagi dastlabki ish E.Siddiqov tuzgan "Dengizdan qatralar" (1976) to'plami bo'ldi. Unda ikki mingdan ziyodroq o'zbek maqollari alifbe tartibida jamlangan edi. Bu davrda T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov, M.Madrahimova singari folklorshunoslar g'ayrati bilan 4 ming maqoldan tartib berilgan "O'zbek xalq maqollari (1978, 1981 va 1984) to'plami yuzaga keldi. 13 ming maqolni o'z ichiga olgan ikki jildlik "O'zbek xalq maqollari" va "O'zbek xalq ijodi" ruknidagi ko'p tomlik tarkibidagi "O'zbek xalq maqollari" tomligi nainki o'zbek paremiologiyasi, balki folklorshunosligi tarixida ham muhim voqea bo'ldi. Nihoyat, 1980-yilda Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar ilk bor o'zbek maqollarining izohli lug'atidan iborat "Hikmatnoma" asarini e'lon qildilar. Bu asarlar o'zbek xalq aforistik tafakkurining naqadar boyligini namoyish etdi.

**Ertak** umumfolklor hodisasi sifatida eng qadimiy epik janrlardan bo'lib, M.Qoshg'ariy o'z "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy xalqlarda uning "etuk" atamasi bilan yuritilganini qayd etadi. Unga ko'ra, etuk "biror voqeani og'zaki hikoya qilish"ni anglatadi. Biroq jonli so'zlashuvda O'zbekistonning turli joylarida, chunonchi, Namangan viloyatining Janubiy qismida "ertangi" deb yuritiladigan bu hodisa – ertangi, bo'lib o'tgan, qadimgi zamonlardan qilinajak hikoya ma'nosini anglatsa, Samarqand, Farg'ona va Surxondaryoda bu hodisa – matal, Xorazmda – varsoqi, Buxoroda – ushuk, Toshkentda – cho'pchak, yana boshqa bir qator maskanlarda – hikoya, hikoyat, og'zaki hikoya, o'trik yoki o'tirik, afsona deb yuritilsa-da, folklorshunoslikda ertak ilmiy istilohi qabul qilingan va muhim muomalada bo'lib, ruslardagi "skazka" istilohiga teng ekvivalentga aylangan. Zero, Alisher Navoiy asarlarining qadimgi lug'ati, sanaluvchi "Abushqa"da ham "ertak" istilohi uchraydi.

“Ertak” so‘zi “er”, aslida “ir” yo “yir, jir” hamda “tak” so‘zlaridan tarkib topgan. “ir” yo “yir” Alisher Navoiy zamonida og‘zaki hikoya, yo doston ma’nolarini anglatganki, bu xususda u shunday ma’lumotni yozib qoldirgan:

Ey yirov, sen ham ishingni ko‘rguz,  
Yotug‘on birla ulug‘ irni tuz

Navoiy tilga olayotgan “ulug‘ ir” aslida doston bo‘lib, uni yotug‘on (hozir do‘mbira) jo‘rligida yirov ijro etgan. Yirov yoki jirov hozir ham xalq an’anaviy dostonlari ijrochisini anglatadi. Navoiy zamonasida “ir” dostonni anglatgani bois u ertak ma’nosida “cho‘rchak” istilohini qo‘llaydi va og‘zaki eposga xos bu ikki hodisani bir-biridan farqlaydi:

Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim, bo‘lg‘ay,  
Qoshingda qissai Yusuf bir uyqu keltirur cho‘rchak.

Shuni ta’kidlash joizki, Navoiy qo‘llagan “cho‘rchak” istilohi hozir Toshkent muzofotida “cho‘pchak” va uyg‘urlarda “cho‘chek” shakllarida fonetik o‘zgarishga uchragan holda iste’moldadir. Ertak xalq og‘zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo‘lgan janridir. Ular juda uzoq o‘tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari, marosimlari asosida paydo bo‘lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlar haqidagi orzu-o‘ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklar janr sifatida uzoq muddatli shakllanish jarayonini boshdan kechirgan. Ular ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan. Davrlar o‘tishi bilan hikoya qilish ham takomillashib borgan, so‘zga sig‘inish, ilohiy kuchlarga sig‘inish, animistik, totemistik, fetishistik e’tiqodlar, gallyutsinatsiya va tush ta’sirida fantastik (taxayyuliy) vositalarga to‘lisha borsa, hayvonlarni ovlash, xonikalashtirish, ular inonchlariga ishonish, hayvon mahsulotlaridangina emas, balki kuchidan ham foydalanish jarayonlarida hayvonlar haqidagi ertaklar paydo bo‘la boshladi. Astasekin shu xildagi ertaklarda turmush tajribasini omixtalashtira boorish, u yoxud bu xildagi qusur va kamchiliklardan kulish ertakdagi obrazlarga majoziylik (allegorik) xususiyatni baxsh etdi. Natijada hayvonlarga oid ertaklar tarkibida majoziy namunalar yuzaga kela boshladi.

Feodal munosabatlar tarkib topib, unda ijtimoiy jarayon takomillasha borgach, ertaklarda ham shu ijtimoiy munosabatlarni ifodalash tamoyili chuqurlasha bordi, natijada, hayotiy uydirmalar asosidagi maishiy ertaklar paydo bo‘la boshladi. Shu zaylda, ertaklar ijtimoiy-estetik hodisa sifatida xalq epik ijodiyotida mustahkam qaror topdi.

**Ertaklarning paydo bo‘lishi.** Ertak xalq og‘zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo‘lgan janridir. Ular juda uzoq o‘tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari, marosimlari asosida paydo bo‘lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olijanob insoniy fazilatlar haqidagi orzu-o‘ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

**Ertaklarni ijro etish tartibi.** Ertaklar professional ijrochilikka asoslangan. O‘tmishda ertaklar yilning ma’lum davrida belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega bo‘lgan yoshi ulug‘, dono, hurmatli va e’tiborli kishilar tomonidan aytilgan. Odatda bunday professional ijrochilar ertakchi, deb yuritiladi.

Ertaklarning ijrosi uch xil usulda tashkil etilishi mumkin:

- a) teatrlashtirilgan shaklda;
- b) deklamatsion shaklda;
- v) ohangga solingan shaklda.

O‘zbek ertaklarining uch ichki turini farqlab o‘rganmoq ma’qul.

1. Sehrli -fantastik ertaklar
2. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
3. Maishiy-hayotiy ertaklar.

**Ertaklarning janriy tabiati.** Ertaklar xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining epik turiga mansub bo‘lib, o‘ziga xos g‘oyaviy-mavzuviy yo‘nalishga, axloqiy-ta’limiy va ijtimoiy-estetik vazifalarga ega. Ertaklar ham og‘zaki tarzda jamoa ijodi mahsuli sifatida anonim ko‘rinishda yaratiladi. Garchi, uning to‘qilish ibtidosi individual ijodkorga borib taqalsa-da, og‘izdan-og‘izga, urug‘dan-urug‘ga, avloddan-avlodga o‘tish jarayonida dastlabki ijrochisiga xos belgilarini, obrazlarini, motivlari va badiiy vositalarini deyarli saqlab qoladi. Shu bilan birga versiya va variantlilik hosil qilishi mumkin.

Ertaklar, asosan, professional ijrochilikka asoslanadi. Kishilarda cheksiz badiiy zavq uyg‘ota olish imkoniyatiga egaligi boisidan ko‘p hollarda ta’limiy-tarbiyaviy maqsadlarda aytiladi.

Ularning sujeti qiziqarliligi, uydirmalarga boyligi, sarguzashtga to‘laligi bilan diqqatni tez jalb qiladi. Va albatta, o‘z nihoyasida ezgulikning yovuzlik, oydinlikning qorong‘ulik, haqiqatning nohaqlik, hayotning o‘lim, aqllilikning nodonlik, adolatning jaholat va to‘g‘rilikning egrilik ustidan g‘alaba qozonishini tarannum etadi.

Ertaklar o‘z janriy tabiatiga xos badiiy- kompozitsion qurilishga ega. Ular bir xil badiiy shakliy qoliplar doirasida yaratiladi va ijro etiladi. ***Kirish, boshlama, tugun, epik sarguzasht va tugallama*** ertak kompozitsion qurilmasining asosini tashkil etadi.

Ertaklarning an’anaviy kirish bilan boshlanishi jahondagi barcha xalqlar ertakchiligi uchun mushtarak xususiyat hisoblanadi. Goho shunchaki kirish, goho *an’anaviy zachin* deb yuritiluvchi bu hodisani rus folklorshunosi V.Dal “докучное сказки” istilohi bilan atab, bolalar folklorining mustaqil janri tarzida tavsiflaydi. Chindan ham so‘zma-so‘z tarjimada “zeriktiradigan”, yoki “ezma ertak” tarzida ifodalash mumkin bo‘lgan bu hodisa o‘zbek bolalar folklorida ham ermaklar silsilasini tashkil etadi. Qolaversa, ular qat’iy bir ertak bilan uzviy mantiqiy bog‘liq holda yashamaydi, balki istalgan ertakni boshlashdan avval aytilishiga ko‘ra nisbatan mustaqil bo‘lib, sayyor holda ijro etilaveriladi. Ularga xos bu xususiyatni o‘zbek ertakshunosi K.Imomov ham “kirish qismi ba’zan sodda, primitiv sujet shaklini oladi”,– deya qisman tan olsa-da, har qalay uni ertak kompozitsiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarashni afzal biladi.



**Hayvonlar haqidagi ertaklar.** Ertak xalq og‘zaki ijodining qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Qadimgi kishilarning tasavvurlari natijasida yuzaga kelgan afsonalarning zaminida dastlabki ertaklar paydo bo‘lgan. Dastlabki ertaklarda mifologik obrazlar ko‘p uchraydi.

Bu tipga mansub ertaklarning yaratilishida ibtidoiy insonlarning qadimgi totemistik qarashlari muhim rol o‘ynagan. Ularda hayvonlar yetakchi personajlar bo‘lib, insonlar qiyofasida tasavvur etilgan va badiiy jonlantirilgan. Shunga ko‘ra ularning sujetida inson obrazi keyingi o‘rinda turadi, ko‘p hollarda voqelikka inson aralashmaydi. Binobarin, ular yaratilish maqsadi, mazmun-mohiyati jihatidan ham ichki ko‘rinishlarga ega:

- *etiologik ertaklar* bo‘lib, bularda u yoki bu hayvon shakli, belgi xususiyatlari haqida ma’lumot berish yetakchi motivdir.
- *sof hayvonlar haqidagi ertaklarda* insonlarga naf keltiruvchi hayvonlar madhi etakchi motivga aylangan.
- *majoziy (allegorik) ertaklarda* insonlarga xos qusur va kamchiliklarni hayvonlar fe’li va xatti-harakati timsolida tanqid qilish, fosh etish, yoki kulish yetakchi motiv darajasidadir



Hayvonlar haqidagi ertaklar dramatik ijroga asoslangan; professional ijrochilar tomonidan hayajonli qilib aytib beriladi. Aytish jarayonida ijrochi ertakdagi hayvon – personajlarning turfa harakatlari va ovozlari taqlid qiladi, ertak tarkibida she’riy parchalar bo‘lsa, ularni kuyga solib ijro qiladi.

Maishiy-hayotiy ertaklarning mazmuni bevosita real hayotga bog‘liqdir. Ularda real ijtimoiy voqelik hayotiy uydirma asosida tasvirlanadi, hayotiy real kishilar bosh qahramon bo‘lib keladi. Maishiy-hayotiy ertaklar taxayyulotdan deyarli xoli bo‘lib, ayrim hollardagina fantastik detallar uchrashi mumkin.

Hajviy-maishiy ertaklar asosida o‘tkir satira yoki zavqbxsh kulgi (yumor) yotadi. Bunday ertaklar hajman ixcham, mazmunan lo‘nda bo‘ladi.

“Ertaklar hech vaqt bekorchi, ermak narsalar emas,— deb yozgandi ulug‘ adib Muxtor Avezov,— ular hamma vaqt zo‘r ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga egadirlar. Bahaybat maxluqlar haqida hikoya qiluvchi ertak va afsonalar hamda bu boy

janrning boshqa turli ko‘rinishlarida u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlarini badiiy ifodasini topgandir”. Ularda ajdodlarimizning yashash va kurash sabog‘i ifodalangan.

Ertaklar xalqning necha-necha ming yilliklar davomidagi hayotiy tajribalarini umumlashtirgan holda uning ijtimoiy ongida, estetik didida, axloqiy qarashlarida, e‘tiqodida kechgan o‘shir-o‘zgarishlarning badiiy tarixi sifatida ayri-ayri ahamiyat kasb etgan. Shu bois hozir ham miriqib tinglanadi, sevilib o‘qiladi. Muhimi, navqiron avlodning ma‘naviy-axloqiy kamol topishida ham ertaklar beqiyos ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda.

Sehrli-fantastik ertaklar ming yillar davomida insoniyatning turli yovuz kuchlariga qarshi olib borgan kurashlari davomidagi xulosalari, ulardan kelib chiqadigan ehtiyojlarning o‘ziga xos yechimi sifatida maydonga kelgan. Inson doimo xayoliy orzu-istaklar bilan yashaydi. Bunday orzu-istaklarning ro‘yobini sehrli-fantastik ertaklarda ko‘rish mumkin.

Bu ertaklarda uchadigan otlar va gilamlar, so‘ylaydigan jonzotlar, sehrgar kampirlar, devlar, osmonda, yer va suv ostida yashaydigan odamlar va boshqalar ishtirok etadilar. “Ur to‘qmoq”, “Zumrad va Qimmat”, “Yoriltosh” kabi ertaklar shular jumlasidandir.

**MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:** *aytim-olqish, erkalama, alla, taqvim, maishiy, etnopedagogik, poetika, tizim, ovutmachiq, qiziqmachiq, qaytarmachiq, etnografik, deklomatsiya, monoton, repertuar, kumulyativ, animistik, totemistik, yalinchoq, hukmlagich, cheklashmachiq, verbal, qiqillama, tegishmachiq, uzv, dialog, monolog, guldurgup, chandish, arsenal, alliteratsiya, ritm, tabu, maqol, masal, mashoyix, oqin, hukm, paremik, paremiografiya, paremiologiya, sintaktik, saj‘, fetishtik, gallyutsinatsiya, inonch, versiya, mif, afsona, rivoyat, uydirma, tugun, sajiya, motiv, sayyor, allegoriya, antropomorfizm, folklorizm, stilizatsiya, tabdil.*

***Bilim, ko‘nikma va malakani rivojlantirishga yo‘naltiruvchi savollar :***

1. O‘zbek bolalar folklorining asosiy janrlari haqida mulohaza yuriting.
2. Qo‘shiq deb nimaga aytiladi va qanday qo‘shiqlar erkalash poeziyasiga daxldor?
3. Bolalarning taqvimiy qo‘shiqlaridan misol keltirib, sharhlab bering.
4. Beshik qo‘shiqlari nima va u bolaning qaysi yoshida aytiladi?
5. Maishiy qo‘shiqlar deganda nimani tushunasiz?
6. “Alla” istilohi va uning kuylanishi haqida ma‘lumot bering.
7. Allalarda farzand qiyofasini umumlashtiruvchi qanday poetik obrazlar mavjud?
8. Voqeaband va parokanda allalarning o‘zaro tafovutini tushuntiring.
9. Maqol janri tabiati va uning etnopedagogik ahamiyatini tushuntiring.
10. Paremik tur deganda nimani tushunasiz?
11. Paremiologiya nimani o‘rganadi? Paremiografiya-chi?
12. Ertak istilohi va uning qo‘llanilishi haqida mulohaza yuriting.
13. Xalq ertaklarining janriy tabiati va o‘ziga xos xususiyati nimalardan iborat?
14. O‘zbek ertaklarining ichki turlari va ularning o‘zaro tafovutlari haqida ma‘lumot bering.

## MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI

### 1. “Bolalar folklori bu-..” Qaysi javobdagi mulohaza o‘rinli?

- a) kattalarning bolalar uchun ijod etgan og‘zaki adabiyotlari;
- b) kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining o‘zaro uyg‘unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o‘yinlar, qo‘shiqlar, musiqiy poetik janrlar tizimidan iborat xalq og‘zaki ijodining tarmog‘i.
- d) bolalarning o‘zlari tomonidagina ijro etiladigan turli qo‘shiqlar;
- e) mavsumiy-marosim qo‘shiqlari.

### 2. O‘zbek bolalar folklorini to‘plash, tartib berish qachon va kim tomonidan amalga oshirilgan hamda u qanday nomlanadi?

- a) 1965-yil, Sh.Sa‘dulla, “Yoriltosh”;
- b) 1937-yil, Elbek, “Bolalar qo‘shig‘i”;
- d) 1984-yil, O.Safarov, “Boychechak”;
- e) 1975-yil, G‘.Jahongirov, “O‘zbek bolalar folklori”.

### 3. “Alla” istilohining lug‘aviy ma‘nolari qaysi variantda yorqinroq aks etgan vaxalq qo‘shiqlarining qaysi turkumiga mansub?

- a) “Olloh”, “aldamoq”, “ensa” ma‘nolarini bildiradi, erkalash poeziyasining beshik qo‘shiqlari turkumiga kiradi;
- b) “uxlamoq”, “tinchlanmoq”, “jim bo‘lmoq” ma‘nolarini bildiradi, go‘dak qo‘shiqlari turkumiga kiradi;
- d) “yig‘lamoq”, “kuylamoq”, “orom olmoq” ma‘nolarini bildiradi, bolalik turkumidagi qo‘shiq hisoblanadi;
- e) barcha javoblar noto‘g‘ri.

### 4. Allaning ijro etilishi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) xor jo‘rligida ijro etiladi, mungli ohang;
- b) ifodali aytiladi, quvnoq ohang;
- d) alla faqat kuylanadi, monoton ohang;
- e) oddiy she‘r singari

### 5. Go‘dak uchun allaning nimasi muhim?

- a) kuyi;
- b) so‘zi;
- d) tovushi;
- e) mazmuni.

### 6. Allaning kompozitsion butunligini ta‘minlovchi unsurlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) matni;
- b) kuyi;
- d) ohangi;
- v) so‘z, ohang va harakat birligi.

### 7. Maqollar el orasida yana qanday atamalar bilan aytilishi qaysi variantda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda;
- b) maqol, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi;
- d) donolar yoki donishmandlar so‘zi, oqinlar so‘zi, otalar so‘zi;
- e) a,b,d javoblar.

### 8. Maqolning qaysi so‘zdan olinib, qanaqa ma‘no anglatishi va qanday hodisaligi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang?

- a) fors-tojikcha “matal” so‘zidan olingan, “so‘z” ma‘nosini anglatadi, umumadabiy hodisa;
- b) arabcha “qavvola” so‘zidan olingan, “aytmoq, so‘zlamoq” ma‘nolarini bildiradi, umumfolklor hodisasi;

d) o‘zbekcha “hikmat” so‘zidan olingan, dono fikr ma’nosiga ega, donishmandlikka xos hodisa;

e) a,b,d javoblar.

**9. Ertaklarning paydo bo‘lish an’anasi va shakllanish jarayoni qaysi variantda o‘z aksini topgan?**

a) u ibtidoiy odamlarning turmushdagi biror voqeani oddiygina hikoya qilishlari asosida yuzaga kelgan;

b) ertaklar so‘zga sig‘inish, ilohiy kuchlarga sig‘inish, animistik, totemistik, fetishistik e’tiqodlar, gallyutsinatsiya va tush ta’siridafantastik vositalarga to‘lisha borgan;

d) insonlarning hayvonlarni ovlashlari, xonakilashtirishlari, mahsulotlari va kuchidan foydalanishlari oqibatida hayvonlar haqidagi ertaklar, nihoyat, feodal munosabatlar tarkib topib, ijtimoiy jarayon takomillasha borgachhayotiy-maishiy ertaklar ham paydo bo‘lgan;

e) barcha javoblar to‘g‘ri;

**10. Ertaklarni ijro etish tartibi haqidagi mulohaza qaysi variantda to‘g‘ri?**

a) ertaklar professional ijrochilikka asoslangan;

b) o‘tmishda ertaklar yilning ma’lum davrida belgilangan paytda, ijrochilik salohiyatiga ega bo‘lgan yoshi ulug‘, dono, hurmatli va e’tiborli kishilar tomonidan aytilgan;

d) ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytiladi; ertak, odatda, dehqonlarning dala yumushlari tugagan paytda-kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytilgan;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

**11. Sayyor sujetli ertaklarga xos xususiyatlar qaysi javobda o‘z aksini topgan?**

a) shomdan boshlanuvchi qorong‘ulik tonggacha hukmron bo‘lganligidan ertaklar olamiga xos sirlilik;

b) ertaklar ko‘pincha mazmunan o‘zaro o‘xshasalar-da, biroq milliy ruh, milliy urf-odat, milliy dunyoqarash, milliy tilga xosifodaviy vositalarva geografik muhit tasviriga ko‘ra farqlanuvchimustaqil adabiy- og‘zakihodisa;

d) ertaklarning ayrimqismlari bevosita dramatik harakat yordamida , ba’zan deklamatsion shaklda ijro qilinishi;

e) a,b,d javoblar.


**12. O‘zbek xalq ertaklari ifodalayotgan voqeligining sajiyasi, g‘oyaviy mazmuni, obrazlar talqini, badiiy tili, uslubi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra necha turga bo‘linadi ? Ular qaysilar?**

a) 5 turga: sehrli, novellistik, kumulyativ, hayvonlar haqida, hayotiy ertaklar;

b) 2 turga: fantastik va realistik;

d) 3 turga: hayvonlar haqidagi, odamlar haqidagi, hayotiy ertaklar;


e) 3 turga: sehrli-fantastik, hayvonlar haqidagi, maishiy- hayotiy ertaklar.




### Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari:



### Alla janri xususiyatlari



## BOLALAR FOLKLORI JANRLARI



## ERKALAMA

- Erkalamalarda kichikintoylar kelajagiga daxldor orzularni kuylash-yetakchi motivdir. Ular, asosan, yetti yoshgacha bo`lgan bolalarga aytilsa-da, aslida bolalarni faol erkalash jarayoni 11-13-yoshga to`lganlaridagina va hatto undan keyin ham davom etishi mumkin.

Ha, do`rsa-do`rsa-  
do`rsa..  
Bozorga otasi borsa,  
Go`shtu birinch  
ketarsa,  
Onasi pazanda bo`lsa.  
Bolasi xo`randa  
bo`lsa..

## OVUTMACHOQLAR

**Bolani  
tinchlantirish  
ehtiyojini  
qondiruvchi  
badihalardir:**

Vo`y-vo`y, shuginani kim  
urdi?Vo`y-vo`y, shuginaga  
kim lab burdi?Yig`lama,  
oppoqqinam,Boshimdagi  
qalpoqqinam!

## QAYTARMACHOQLAR.


Bolalar uchun, asosan, beshik davri tugagandan keyingi ma`naviy ehtiyoj taqozosiga ko`ra yuzaga kelgan badihalar bo`lib, she`riy namunasi ko`pincha monolog, nasriy shakli dialog (savol-javob) negizida quriladi.

-Kun, san nimadan kuchlisan?  
-Man kuchli bo`lsam, bulut bosarmidi?  
Bulut, san nimadan kuchlisan?  
-Man kuchli bo`lsam, yomg`ir yog`armidi?

## TOPISHMOQ

Xalqning turmush tarzi va qadimiy e`tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda- «insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda» (F.I. Buslaev) paydo bo`la boshlagan.





8-slayd

## Ertaklarni ijro etish tartibi



## O`zbek ertaklarining uch ichki turini farqlab o`rganmoq ma`qul.



## Hayvonlar haqidagi ertaklar.

1. Etiologik ertaklar. Bularda u yoki bu hayvon shakli, belgi xususiyatlari haqida ma`lumot berish etakchi motivdir.

2. Sof hayvonlar haqidagi ertaklar. Bularda insonlarga naf keltiruvchi hayvonlar madhi etakchi motivga aylangan.

3. Majoziy (allegorik) ertaklar. Bularda insonlarga xos qusur va kamchiliklarni hayvonlar fe`li va xatti - harakati timsolida tanqid qilish, fosh etish yoki kulish etakchi motiv darajasidadir.



### ***Tavsiya etiladigan adabiyotlar:***

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– –T., 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Allayo-alla. O‘zbek xalq allalari. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Safarov; –T.:O‘qituvchi, 1999.
4. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. –T.: Fan, 1964.
5. Berdiyev H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. –T.:O‘qituvchi,1989.
6. Boychechak. O‘X I. To‘plovchi, nashrga tayyorlovchi O.Safarov.– T.G‘ASN,1984.
7. Valixonov O. Chiston. // “Guliston” j., 1974, 7-son, 31-b.
8. Galiyev Sh., O‘zbek bolalar o‘yin folklori.– T.:Fan, 1998.
9. Jalolov G‘. O‘zbek ertaklarida janrlararo munosabat. – T.:Fan,1983.
10. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. –T., 2006.
11. Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori. – T.:O‘qituvchi, 1972.
12. Imomov K. O‘zbek xalq satirik ertaklari. –T.:Fan,1974.
13. Mahmudov T. Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostoni va uning folklor asoslari. SamDU asarlari: Adabiyot va hayot. – Samarqand,1969, 84-100-b.
- 14.Safarov O. Chittigul. O‘zbek bolalar xalq o‘yinlari. –T.G‘ASN, 2000. Yana:Hamid Olimjon she’riy-adabiy ertaklari. // Pedagogik mahorat, 2003, 4-son, 62-69-b. Yana: Folklor va bolalar adabiyoti. // O‘TA, 2003, 6-son, 20-27-b. Yana: O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –T.: Musiqa, 2010. Yana: Bolalarni erkalovchi o‘zbek xalq qo‘shiqlari. –T.,1985; yana: O‘zbek bolalar xalq o‘yinlari. – T.:Sharq, 2010.
15. Topishmoqlar. O‘XIT. –T.: G‘ASN, 1989.
16. Shermuhamedov P. Ertak-bu bir bahona. Kitobda: Bolalar olami. –T.:Yosh gvardiya, 1989, 11-19-b.
17. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. – T.,1990; yana: Maqollarning paydo bo‘lishiga doir. // O‘TA, 1971, 4-son, 31-33-b.
18. O‘zbek allalari. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: T.Nafasov, K.Ochilov. – Qarshi, “Nasaf”, 1994.
19. G‘oziyeva S. Rasmlil topishmoqlar. –T.:O‘qituvchi, 1979.
20. Husainova Z. O‘zbek topishmoqlari. –T.:Fan, 1966

### III. BOLALAR O‘YIN FOLKLORI

#### Reja:

1. Harakatli o‘yinlar tizimi va tasnifi.
2. Ma’naviy (so‘z) o‘yinlarining poetik xususiyatlari
3. Topishmoqlarning janriy xususiyati.
4. Tez aytishlarning etnopedagogik ahamiyati.

Bolalar o‘yinlarining xususiyati shundaki, ularda o‘yinchi ham, tomoshabin ham – bolalarning o‘zlari, yagona bir siymoda birlashgan holda namoyon bo‘ladi. Shu bois har bir o‘yin – o‘ziga xos betakror dramatik asarday, hayotning qay bir parchasi, qay bir dardi, qay bir muammosini aks ettiruvchi sahna asariga aylanadi, uning muallifi ham, sahnalashtiruvchisi ham, ijrochisi ham, tomoshabini ham – tag‘in o‘sha bolalarning o‘zlari, o‘zlari ...

O‘yinda bolalarning ijodkorlik salohiyatlari badihatan namoyon bo‘ladi. Zero, bolalar o‘ynab turib zavqlanadi, o‘ynab kurashga tushadi, o‘ynab mag‘lubiyat alamini cheksa, o‘ynab g‘oliblik nashidasini suradi, o‘ynab o‘rganadi, o‘ynab kashf etish va ijod qilish ilmini o‘zlashtiradi, o‘ynab kuylaydi, o‘ynab hamkorlik va hamdardlik tuyg‘usini tuyadi, o‘ynab birlashadi va birlashmoq manfaatdorligini his qiladi, hatto o‘ynab judo bo‘ladi, yolg‘izlanadi va yakkalik iztirobini chekadi. Shu zaylda o‘yin uning uchun o‘zlari yashayotgan va keyinchalik o‘zlari o‘zgartiradigan olamni anglash va idrok etish yo‘lidagi eksperimentlariga aylana boradi.

O‘yinda harakat hayot ma’nolarini ifoda etuvchi ma’no kasb etsa-da, asosan, taqlidiy mohiyatga ega. Bolalar faoliyatida taqlidchilikning yetakchi tamoyilga aylanishi sababli ham xuddi shu omil bilan bog‘liq bo‘lib, o‘yindagi har bir taqlidiy harakat turmushning qay bir qirrasini aks ettiruvchi ma’no tashishi bilan o‘ziga xos saboq kuchiga ega. Binobarin, o‘yin – bolalar uchun hayotni o‘rganish va o‘zlashtirish vositasi, bolalar o‘ynab turib yashashadi. O‘yin shunday bir hayotki – bolalarning vujudini chiniqtiradi, ongini peshlaydi, shakllantiradi va o‘stiradi. Olamni anglash va o‘zlashtirish mashqlaridan tarkib topgan bunday hayot – bolalar uchun jiddiy mashg‘ulotdir. Shu ma’noda o‘yinlar amaliy pedagogika, san’at va jismoniy tarbiyadan iborat yaxlit tizimning tengsiz boshlanmasi, binobarin, xalq pedagogik dahosining hosilalari hisoblanadi. Ularning ma’lum qismi harakat zamirida voqe bo‘lsa, ma’lum qismi faqat so‘z zamirida qurilgandir. Shu xususiyatiga ko‘ra ularni **HARAKATLI** o‘yinlar va **MA’NAVIY (so‘z)** o‘yinlari tarzida ikki guruhga ajratish mumkin.

Harakatli o‘yinlar tarkibi va vazifasiga ko‘ra ma’naviy (so‘z) o‘yinlaridan tubdan farq qiladi. Ular hamisha kompozitsion tuzilishiga ko‘ra uch qismdan iborat holda tarkib topishgan. Bular tubandagicha: *1. Muqaddima qismi*. Buni debocha yo boshlamalar ham deyish mumkin. Muqaddima shovqin bilan aytiladigan yoki kuylanadigan chorlamalar, cheklashmachoqlar va sanamalarni o‘z ichiga oladi. Bularning har biri mustaqil folkloriy hodisa bo‘lib, muqaddimaning

janriy tarkibini tashkil etadi. 2.O'yinning o'zi. 3.O'yin intihosi yoxud yakuni. Bunga tarqalmachoq janri kiradi. Shuni ta'kidlash joizki, bunday tarkibiy tuzilish ma'naviy (so'z) o'yinlar uchun xos bo'lmay, faqat harakatli o'yinlar uchungina xos mushtarak xususiyatdir. Bolalar qalbi qo'shiqqa shu qadar oshuftaki,ular hatto faoliyatlarida asosiy o'rinda turuvchi o'yinlarini ham qo'shiq bilan ziynatlaganlar. O'ynagani bir-birlarini qo'shiq aytib chaqiradilar, bunday badihalar **CHORLAM**Alar deb yuritiladi. Chorlamalar bolalarning bir-birlarini o'yinga chaqirish jarayonida kechinmalarini vaziyat taqozosiga bog'liq holda ifodalaydi vahamisha o'yinga da'vat etish, chaqirishdan iborat vazifasini bajaradi:

– Bacha, bacha, bozi,  
Kim qora qozi?  
Kim o'yinga chiqmasa,  
Bo'yniga tosh tarozi!

Yoki:

Bacha bo'lsang, kelaver,  
O'ynab, o'ynab ketaver.  
Kel-ho, kel,  
Kel-ho, kel.

Ikkala chorlama ohangi ham yolg'iz bolaning ko'cha bo'ylab sakrab-sakrab chopish harakatiga mos. Dastlabkisida o'tmishdagi turmushga xos adolatsizlikka kinoya motivi ustivor: lirik qahramon o'yinga chorlovchi hakamlik qiluvchi qozining qora ishini qilmaslikdan ogohlantirayotir: *“Kim qora qozi”*. Shuncha chorlasa-da, o'yinga chiqmayotganlarni o'sha zamon kattalarisingari qarg'ayapti: *“Bo'yniga tosh tarozi”*. Chorlamada o'tmishdagi og'ir hayotning bolalarni muddatidan ilgari kattalarday mulohaza yuritishga, kattalarday gapirishga, qarg'ashga majbur qilganligi in'ikos topgan. Shu xususiyatiga ko'ra unda zamon ruhi, ijtimoiy hayot ruhi tarixan muhrlangan. Ikkinchisida esa, bunday ruh yo'q, unda quvnoq kayfiyatga yo'g'rilgan chorlov motivi ustivor. Hayqirib, baqirib-chaqirib, shovqin solib kuylash barcha chorlamalar uchun mushtarak xususiyatdir.

O'zbek bolalar o'yinlari tashkil etilish tartibiga ko'ra, ikkiyo'nalishga ega:

Birinchi yo'nalishdagi o'yinlarda bolalar o'zaro ikki raqib tarafga bo'linmoqlari taqozo etiladi, bu vazifani o'yin muqaddimasi sifatida cheklashmachoqlar vositasi hal qiladi.

Ikkinchi yo'nalishga mansub o'yinlar esa, bolalar raqib tomonlarga bo'linmaydi, balki faqat navbat (gal)da turuvchini aniqlash asosida tashkil etiladi. Navbatda turuvchi esa o'yin muqaddimasi vazifasini bajaruvchi sanamalar vositasida aniqlanadi.

**CHEKLASHMACHOQLAR.** O'zbek bolalari orasida shunday o'yinlar ko'pki, aksariyati jiddiy musobaqa xarakteriga va ichki qonun-qoidalarga ega. Bolalar shu qonun-qoidalarga g'ayriixtiyoriy tarzda amal qiladilar va bu jarayonda ichki intizom, tartiblilik va o'ynash huquqi mas'uliyatini sezish ruhida tarbiyalanadilar. Bunday ichki qoidalardan biri-o'ynagani to'planishgan bolalarni ikki raqib guruhga taqsimlash masalasidir. Bu jiddiy masala bo'lib, bolalar uni

aniq ichki intizom, tartib va quvnoqlik bilan hal qilishda cheklashishga amal qiladilar.

Cheklashish xalqimiz orasida qadimdan ma'lum. M.Qoshg'ariy "cheklashdi" so'zining "qur'a tashlash" ma'nosi borligini qayd etgan. O'tmishda qur'a tashlab tole sinashgan, fol ochib taqdirni oldindan bashorat qilganlar. Folbinlar faoliyatida qur'a tashlab fol ochish an'anasi hamon uchraydi. Qur'a tashlash hozirgi zamonsportida ham keng qo'llanilmoqda. Bu o'yindagi cheklashish asosida yuzaga kelgan.

Cheklashish bo'lajak ikki raqib guruh onaboshilari tanlangandan so'ng amalga oshiriladigan o'yin muqaddimasi bo'lib, ko'p hollarda qur'a tashlash yo'li bilan hal qilinishi an'anaviydir.

Cheklashmachoqlar odatda ikki bolaning o'zaro yashirincha kelishuvi-til biriktirib o'zlariga yasama "ot qo'yish"lari asosida yuzaga keladi. Bu ular va onaboshi o'rtasidagi savol-javobning sirliligini ta'minlaydi. Cheklashmachoqlar aksaran onaboshiga murojaat qilish bilan boshlanadi.

- Mati, mati,  
Kimi navbati?
- Meniki.

(Onaboshilardan biri):

- Toji tillo xo'rozni olasanmi  
Yo chala mullo tovuqnimi?
- Toji tilla xo'rozni!
- Men-toji tillo xo'roz.  
– O't men tomonga.

Bunday cheklashmachoqlar murojaat va savoldan iborat bo'lishsa-da, savol hal qiluvchi ahamiyatga ega. Savollar to'liqsiz gap shaklida bo'lib, hamisha ikki qismdan tashkil topadi va o'zaro so'roq intonatsiyasi asosida yo, yoki, yoxud bog'lovchilari vositasida bog'lanadi:

- Ho'ppoqni olasanmi, yo so'poqni?
- Tayloqni olasanmi, yo toychoqni?

Murojaat shunchaki onaboshiga qaratilgan bo'lmay, balki uning tashqi ko'rkini tavsiflash motiviga ham ega:

- Onaboshi, onaboshi,  
Yigitlarning qalamqoshi.  
Nima yeysan, ne olasan?  
Atalami? Palov oshi?

Bunday hollarda murojaat va savolni "Nima yeysan?", "Ne olasan?", "Kimni olasan?" singari qo'shimcha savollar o'zaro bog'laydi, shu asosda savolning so'roq ohangi yanada kuchaytiriladi:

- Boshla boshiq,  
Qalam qoshiq.  
Kimni olasan,  
Tovuqnimi? Xo'roznimi?

Ko‘rinadiki, bolalar cheklashishni ta‘minlagan barcha sirli nomlarning o‘zaro mutanosibligiga ahamiyat berganlar. Bu cheklashmachoqlarda poetik fazilatni kuchaytirgan, ular estetik zavqini tarbiyalovchi vositaga aylantirgan.

**SANAMALAR.** Bular behad keng tarqalgan o‘yinboshi badihalari bo‘lib, asosiy vazifasi-o‘yin boshlanishi oldidan uni boshlab beruvchini, navbatda turuvchini aniqlash, biror bola galini tayinlashdan iborat. Sanamalar butun o‘yinga kompozitsion asos bo‘lolmasalar-da, muqaddima sifatida uning tarkibiy uzvini tashkil etadi va o‘sha o‘yinning yo‘nalishiga poydevor soladi. Bu ma’sul vazifa sanamalarda raqamlarni “poetik raqsga tushirish”, so‘z yoki so‘qma (ma’nosiz) so‘zni raqam o‘rniga qo‘llab, sanash intonatsiyasida qo‘llash asosida ritmik o‘ynoqilikka erishish negizida amalga oshiriladi. Bunda sanamalarning leksik xususiyati qanchalik bo‘rtib ko‘rinsa-da, ularni ritmik ohangdorlikdan xoli holda tasavvur etish yaramaydi. Shu xususiyatiga ko‘ra sanamalarning uch turini farqlab ko‘rsatish mumkin:

*1. Voqeaband sanamalar.* Bu turga mansub sanamalar asosini sanash ritmiga omuxta sujet tashkil etadi. Bunday sujetlar mo‘jazzgina bo‘lib, bir-biriga mantiqan bog‘langan ikki-uch harakatnigina ifodalaydi. Harakatning mantiqan izchil tartibi sanash ohangini yuzaga keltiradi.

Ko‘pincha birdan yettigacha, birdan o‘n ikkigacha va birdan o‘n oltigacha bo‘lgan raqamlar faol qo‘llanadi. Biroq birdan ikkigacha, uchgacha, to‘rtgacha.. yettigacha va nihoyat, ba‘zan o‘ngacha to‘liq sanalsa-da, qolgan hollarda ritmik ehtiyoj va qofiya ohangdoshligi talabiga ko‘ra sakrab o‘n, o‘n ikki, o‘n olti sanog‘i aytib ketilaveriladi:

Bir, ikki.. aylana,  
Aylanaga kir yana.  
Anqov bo‘lma, ey o‘rtoq,  
Doving keladi yana.

Yoki:

Bir, ikki,.. o‘n,.. o‘n ikki,  
O‘n ikki deb kim aytdi?  
O‘n ikki deb men aytdim,  
Ishonmasang, sanab boq:  
Birim – bilak,  
Ikkim – elak.  
Uchim – ichak,  
To‘rtim – terak.  
Beshim – beshik  
Oltim – olganim,  
Yettim – yetganim.  
Sakkizim – jonon qizim,  
To‘qqizim – qizil yuzim.  
O‘nim – ishimdagi unum,  
O‘n birim – aytilgan sirim,  
O‘n ikkim – chiqa tur san, ukkim!

2. *Kumulyativ sanamalar.* Uch-o‘n ikki yashar bolalarning fikrlashlari va uni bayon etishlari ayni holatdagi kayfiyatlariga bog‘liq ravishda turlicha kechishi psixologik jihatdan asoslangan.

Bolalar o‘yin jarayonidagi zavq-shavq ta‘sirida mantiqsizliklarga tabiiy ravishda yo‘l qo‘yadilar: hayajonlanib, quvonchlarga to‘lib-toshib o‘z fikrlarini poyma-poy so‘z va iboralar vositasida ifodalashdan huzurlanadilar. Bu hol sanamalarning kumulyativ turida chuqur iz qoldirgan. Zotan, ular bolalarning o‘yin boshlashdan hayajonlanishlari oqibatida sochilib ketgan fikr-tuyg‘ularining mantiqan bog‘lanmagan so‘z va iboralarda ifodalana turib, sanash ritmiga qat‘iy buysungan holda poetik ohangdorlik kasb etib tizmalanishi, to‘planishi tufayli yuzaga kelgan an‘anaviy o‘yin badihalaridir. “Kumulyativ” so‘zi bu xildagi sanamalarning yetakchi xususiyati – tartibsiz va mantiqsiz so‘zu iboralarning sanash ritmida to‘planishini to‘la aks ettiradi, shu sababli ularni kumulyativ sanama istilohi bilan alohida guruh sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq:

Avag-avag,  
Boy talog‘i,  
Do‘stim tavak.  
Boy kuchugi.  
Shoh ho‘kizi,  
Qachon kelar?  
Shoh kapalak.  
Yozi kelar.  
Turna qaro,  
San tur,  
Tur kuchugi.  
San chiq!

Shu holatida sanamada yaxlit bir manzarani tasavvur etishda nimadir yetishmayotganday, sintaktik tuzilishi sanash ritmida bo‘lganidan mantiqdorlik bir qadar chekinganday. Shunga qaramay, unga hayvonlar, qushlar va hasharotlarni ifodalovchi epitetli obrazlar tizilishib kelgan. Bolalar shunday obrazlar vositasida tabiatga munosabatlarini ham yashirmaydilar. Ular tushunchasidagi “shoh ho‘kizi”, “shoh kapalak” obrazlari o‘sha hayvon va hasharotning shohga qarashlilikini anglatmaydi, balki “ho‘kizlar shohi”– eng zo‘ri, yaxshisi, “kapalaklar shohi”– eng chiroylisi, go‘zali” ma‘nolirini ifodalab, bolalarning estetik didlari andozalarini namoyon etadi.

3. *So‘qma sanamalar.* Bu xildagi sanamalarning farqli xususiyati shundaki, bularda voqeabandlik (sujet) yo‘q, raqam, ma‘noli so‘z butkul chekingan, faqat so‘qma (ma‘nosiz) so‘z hal qiluvchi poetik mohiyat kasb etgan.

Bolalar nutqida o‘zlarini o‘rab olgan olamdan, “o‘z imkoniyatlari darajasida idrok etilgan va yangilangan” tovushlardan so‘z shaklida tovush birikmalari paydo bo‘ladi. Ular hech qanaqa ma‘noga ega bo‘lmasa-da, ohangdorligi jihatidan bolalar qalbiga yaqindir, ularning olamga munosabatlarini ifodalovchi o‘ziga xos vositalardir. Shu sababli bunday tovush birikmalarini so‘qma so‘z tarzida nomlash an‘anaga aylangan. *So‘qma so‘z, aniqrog‘i, so‘z shaklidagi tovush birikmalari*



*nomi bo'lib, har xil hodisalarni yopadi.* Bolalar idrok etgan olamni tovushlar ohangdorligi silsilasida ifoda etadi.

So'qma so'zning sanamalar "qurilish material"ga aylanishi janrning to'la-to'kis bolalar repertuariga o'tishi, kattalar ijodkorligiga xos raqamlarga sig'inish an'analaridan batamom tozalanib, bolalar ijodkorligi namunasiga aylanganligini tasdiqlovchi muhim dalildir. Shu ma'noda, so'qma sanamalar janrning takomillashgan turi sifatida bolalar poetik folklori arsenalini boyitdi va bugungi kunda ham faol ijod qilinmoqda:

Abadayni,  
Shabadayni,  
Shab-shabadayni.  
Dumala qoq,  
San chiq-u boq!

Sanamalar o'zbek bolalar folklorining qadimiy va g'oyat keng tarqalgan, bugungi kunda ham faol davom etayotgan janri hisoblanadi. Hech bir janr bolalarda ritm tuyg'usini tarbiyalashda unga tenglasha olmaydi. Shu xususiyatiga ko'ra, u bolalar shoirlari va bastakorlari diqqatini tortib, badiiy janrga aylanish jarayonini kechmoqda. Samuil Marshak, Daniil Xarmslar rus bolalar poeziyasida sanamalarning ko'rkam adabiy namunalarini yaratgan bo'lsalar, M. A'zam, T.Adashboyev, Anvar Obidjon, Q.Uzoqovlar uni o'zbek bolalar poeziyasi arsenaliga kiritish yo'lida izlanmoqdalar. Bu o'zbek bolalar adabiyotining folklor bilan ijodiy uyg'unlashuvi jarayonining istiqbol omili hisoblanadi.

**HARAKATLI O'YINLAR.** Bu xildagi o'yinlarni yuzaga keltiruvchi vositalar turlicha namoyon bo'ladi, qay birida narsa (o'yinchoq) harakatni yuzaga keltirib boshqarsa, qay birida faqat so'z bu vazifani ado etadi. Shu xususiyatiga ko'ra ularni uch ichki turga bo'lib o'rganish mumkin:

1. *Sof harakatdan iborat o'yinlar.* Bularni taqlidiy o'yinlar deyish ham mumkin, chunki ularda harakat narsa yoki so'z vositasida emas, balki taqlid negizida yuzaga keladi. "Almash qadamlar", "Sirg'anchiq yoki toyinishma", "Ona tovuq va hakka", "Jik-jik", "Duk-duk", "Shax-shax", "Quvlashmashoch" va boshqa shu xildagi o'yinlarda harakat u yo bu hodisaga taqlid zamirida voqelikka aylangan.

Sof harakatdan iborat o'yinlarning aksariyati maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga mosligi bilan ajralib turadi.

2. *Harakatni narsa boshqaradigan o'yinlar.* Bu guruhga mansub o'yinlar kichik maktab yoshdagi va o'smirlarga mos bo'lib, ularda harakat tuproq, loy, toshcha, tanga, ishti, hanggo'z, oshiq, danak, yong'oq, ro'mol, chillak va chillakdasta, jirtak, lanka, to'p, koptok, qo'g'irchoq, sopol va metall hushtaklar, yog'och g'ildirakli itarma aravachalar, g'arg'ara, kamon, soqqa, varrak, parrak, suv solib puflyadigan sopol bulbulchalar, govg'altaklar, hallo'ngi, turli-tuman o'yinchoqlar yuzaga keltiradi hamda boshqaradi. Shunisi muhimki, o'tmishda bu o'yinchoqlarning aksariyatini bolalarning o'zlari yasashgan, yo'ngan, tikkan, xullas, tayyorlashgan.

Harakatni narsa boshqaradigan o‘yinlar silsilasini “Besh tosh”, “To‘p tosh”, “Ishti”, “Hango‘z”, “Kalpo‘sh to‘ppi”, “Urib qochar”, “O‘rtada o‘tirish”, “Oldim”, “Kim echki?”, “Tandir-mandir”, “To‘pdan saqlan”, “Qalpoq tepdi”, “Chillak”, “Qol-qolak”, “Baynol”, “Laxtak va laxtakboz”, “O‘ra koptok”, “Salavot”, “Chillim kes”, “Tizma”, “Qocharma”, “Jambul”, “Quloq cho‘zma”, “Ko‘zbog‘log‘ich”, “Podsho-vazir” va boshqalar tashkil etadi. Bu o‘yinlarning har birida bir narsa, aytaylik, toshcha, koptok, qalpoq, chillak, ro‘mol va hokazolar harakatni yuzaga keltirishga xizmat qilishdan tashqari, o‘sha harakatni boshqarib turadi.

XX asrning o‘rtalaridan e‘tiboran zavod-fabrikalarda ishlab chiqarila boshlangan “madaniy” o‘yinchoqlar vositasida o‘ynash rusumga kira boshladi. Futbol, voleybol, basketbol singari sport xarakteridagi o‘yinlarning tobora ommalasha borishi – bolalar o‘rtasidagi xalqona o‘yinlarni siqib chiqara boshladi. Bunda o‘zbek xalq o‘yinlariga eskilik sarqiti qabilida qarashni targ‘ib qilgan sho‘ro mafkurasi ham ma‘lum darajada hissa qo‘shdi. Qolaversa, texnik tafakkur taraqqiyotiga monand “Konstruktor”, aviaplanerchilik va boshqa shu xildagi o‘yinlarning bolalar faoliyatiga kirib borishi ular aqliy olamining o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatmay qo‘ymadi.

3. *Harakatni so‘z boshqaradigan o‘yinlar.* Bu turdagi o‘yinlar tarkibiy tuzilmasida qo‘shiq muhim uzvga aylangan. U o‘yinda harakatni yuzaga keltiradi va butun o‘yinni boshqaradi, aniqrog‘i, qo‘shiq yo o‘yin kompozitsiyasining asosini tashkil etadi, yo o‘yin yo‘nalishida biror vazifani bajaradi. Shu xizmati bilan u o‘yin estetik qimmatini oshiradi va folkloriy ruhini kuchaytiradi.

Jumladan, “Oq terakmi – ko‘k terak?” o‘yin-qo‘shig‘i bu jihatdan yorqin misol bo‘la oladi. Bu o‘yin-qo‘shiq bolalar repertuarida uzoq zamonlardan beri o‘ynalib kelinadi. Shunga ko‘ra uning verbal qismi bo‘lgan qo‘shiqlari zamon ruhiga yo‘g‘rilgan holda xilma-xil variantlarda uchraydi. Biroq o‘yinining ijro tartibi hamma zamonlarda ham bir xilligicha davom etib kelayotir. Unda to‘plangan bolalar dastlab ikki onaboshini belgilab, so‘ngra cheklashmashoq vositasida ikki raqib tarafga ajraladilar. Bunda o‘yinchi bolalar sonining teng bo‘lishiga ayricha e‘tibor qilinadi.

Taraflar o‘zaro ro‘para turib, har biri alohida saflangan holda tizilishadi. Safdagilar esa bir-biri bilan o‘zaro qo‘lma-qo‘l ushlab, o‘zlaricha “devor” hosil qilishadi. Shunda gal olgan taraf raqib tarafdagilardan xor bo‘lib so‘rashadi:

Oq terakmi, ko‘k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?

Yoki:

Qamar-qamar, qamchini,  
Qovurg‘aning yanchini.  
Oq terakmi, ko‘k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?

Raqib tarafdagilar ham shu ohangda xor bo‘lishib, shunday javob qaytarishadi:

–Kichkina Karim kerak!

Yoki:

–Jilmayibgina turgan,  
Bo‘tako‘z Zumrad kerak!

Odatda qarshi taraf kichikroq, kuchsizroq yoki o‘zlariga yoqqan bolani da‘vat etishi an‘anaviydir. Shu sababli da‘vat etuvchi bola nomi turlicha sifatlanmog‘i mumkin, biroq bu javob satri ritmining savol satrlari ritmiga mos bo‘lishiga mone‘lik qilmasligi lozim. Da‘vatlangan bola esa, raqib taraf safini yorib o‘tish niyatida shiddat bilan chopib borib, ko‘ksi bilan bir-birini ushlab olgan qo‘llar “arqoni”ni “kesib” o‘tmog‘i shart; agar u kesib o‘ta olsa, g‘olib sanalib, o‘zi kesib o‘ta bilgan “arqon”ni hosil qilgan qo‘llar egalaridan birini yetaklab keladi va o‘z safiga qo‘shadi; aks holatda esa uning o‘zini mag‘lub sifatida qarshi tarafdagilar o‘z safiga saqlab qolishadi. O‘yin to bir taraf safi tugagunicha davom etaveradi. O‘yin tartibi va ijrosiga xos qoidalar hamon qat‘iyligicha qolgan; safni yorgan – g‘olib, yorolmagan – mag‘lub. Eng muhimi, safni yorishi zarur topilgan bola qarshi tarafning kuchsiz joyini mo‘ljallay olishga, o‘sha joynigina yorib o‘tishga o‘z kuchi yetishini his qilishga, demak, aniq mo‘ljal ola bilishga va o‘z kuchiga ishonch hosil qilishga ham o‘rganadi.

**Topishmoqlar** xalqning turmush tarzi va qadimiy e‘tiqodlari ifodasi sifatida yuzaga kelgan. Ular shartli nutq natijasida qadimiy ajdodlarimizning ibtidoiy animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan davrlarda–“insoniy shuur endigina uchqunlana boshlagan zamonlarda” (F.I.Buslayev) paydo bo‘la boshlagan. Qadimgi ajdodlarimiz tabiat stixiyasi oldidagi ojizliklari tufayli narsalarni, odamlarni, hayvonlarni, qushlarni o‘z nomlari bilan aytmay, ularni g‘ayritabiiy kuchlar zararidan, insu jinslar va balo-qazolardan omon saqlashni ko‘zlab, boshqa so‘zlar bilan pardali qilib ayta boshlashlaritufayli ilk topishmoqlar yuzaga kelgan, buning izlarini hozirgi o‘zbek topishmoqlarida ham kuzatish mumkin, aytaylik, otani – nor, momoni – tuya, echkini – Abdukarim, quyonni – uzunquloq, itni – shalpangquloq, ko‘zni – darcha, bug‘doyni – qizil deb atalashida o‘sha sirlilik nishonalari mavjud.

Predmetli topishmoqlarda yashiringan aniq narsaning individual xususiyatlari lo‘nda, siqiq, sodda va tushunarli tarzda badiiy so‘z vositasidachizib beriladi. Ularda borliqdagi narsalarningo‘zaro o‘xshashligi va yaqinligi to‘g‘risida ma‘lumotlar beriladi. Shu ma‘lumotlar yordamida inson tevarak-atrofidagi narsa-hodisalarning serqirraligini his qiladi.

Predmetli topishmoqlarda yashiringan narsaning miqdori muhim rol o‘ynaydi. Shu xususiyatiga ko‘ra topishmoqlar ikki turkumga ajratiladi:

1. *Bir predmetli topishmoqlar.* Bu xildagi topishmoqlarda birgina narsa jumboqlanadi: jumboq ham bitta, javob ham bittadir: “Bossang, vaqillaydi”, “Jar boshida jarti supra” topishmoqlari birgina satrdan iborat holda jumboqlangan va “baqa” hamda “quloq” singari birgina javobga ega. Bunday topishmoqlar ikki, uch, to‘rt satrli ham bo‘lishi mumkin. “Oy”ni yashirgan “Bir parcha patir–olamga tatir” ikki satrli; “baliq”ni yashirgan “Suv ichar ko‘ldan, ko‘zlari nurdan, terisi puldan” uch satrli va “toshbaqa”ni yashirgan “Beli, beli belang ot, Beli qalin yo‘g‘on ot, Tog‘u toshdan yumalab, Tura kelar to‘rig‘ ot” to‘rt satrli bo‘lsa-da, bir

predmetli topishmoqlardir. Chunki ulardagi har bir satrda yashiringan narsaning bir belgi-xususiyati ta'rif, yo tavsif qilingan. Biroq aslida birgina narsani jumboqlagan, bir necha mustaqil topishmoqlar o'zaro birlashib, bir butunlik hosil qilishgan bo'lsa-da, biribir, birgina javobga ega bo'lib, bir predmetli topishmoqligicha qolavergan:

Chopsa – chopilmas,  
Bo'lsa – bo'linmas,  
Kessa – kesilmas,  
Ko'msa – ko'milmas,  
Yo'nsa – yo'nilmas.

Besh satrning har biri mustaqil topishmoq sifatida “soya” hodisasini yashirganidek, bir butun holatida ham shu yagona javobga ega. Bu xildagi topishmoqlar sodda topishmoqlar, deb ham yuritiladi.

2. *Ko'p predmetli yoki murakkab topishmoqlar.* Yuqorida ko'rilganidek, hamma birlashgan topishmoqlar ham bir predmetli bo'lavermaydi. Aytaylik:

Tog'da talaymonni ko'rdim,  
Suvda sulaymonni ko'rdim.  
Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim,  
Yumalab yotgan toshni ko'rdim,-

topishmog'ining har bir satri mustaqil bir jumboq bo'lib, ko'p predmetlilik xususiyatini kasb etgan. Bu murakkab topishmoqda bir yo'la to'rt narsa–bo'ri, baliq, sumalak va toshbaqa jumboqlangan. Har bir bayti alohida topishmoq shaklida ham aytilishi mumkin, faqat saj'lanish asosidagi ohangdoshlik baytlarda bir butunlikni yuzaga keltirib, kompozitsion yaxlitlikni ta'minlagan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, aslida topishmoqlar har gal bir predmetli shaklda jumboqlanib yuzaga kelgan esa-da, og'zaki ijro jarayonida vaqt o'tishi bilan yangi-yangi jumboqlanishlar evaziga murakkablasha borib, ko'p predmetlilik xususiyatini kasb etishgan: “Chaqaloq” qachonlardir “Og'zida bor ozig'i” tarzida bir predmetli topishmoq holida jumboqlangan, keyinchalik beshik paydo bo'lib, sumakdan foydalanish odatga kirgach, ikkinchi predmet ham yondosh holda jumboqlana boshlangan, natijada topishmoq yana to'lisha borgan:

Og'zida bor ozig'i,  
Tagida bor qozig'i.

Davr o'tishi bilan “beshik”, “ko'krak” va “tuvak” ham jumboqlanib, topishmoqning yanada murakkabroq namunasiga aylangan. Bunda jumboqlangan predmetlarning mantiqan o'zaro aloqadorligiga e'tibor berilgan:

Taqir-taqir taqirmon, uni toping, dilbarim.  
Ichida bor mehribon, uni toping, dilbarim.  
Og'zida bor ozig'i, uni toping, dilbarim.  
Tagida bor qozig'i, uni toping, dilbarim.  
Qoziq osti xurmacha, uni toping, dilbarim.

Ko'p predmetli topishmoqlar goho birgina savoldan iborat bo'lgani holda bir necha javobni talab qiladi: Dunyoda to'rt narsa yo'q.

Javobi:– Osmonning ustuni yo‘q,  
Hovuzning qopqog‘i yo‘q.  
Ko‘rpaning yengi yo‘q,  
Oshpichoqning qini yo‘q.

Ko‘p predmetlilik topishmoqlarning eng murakkab turi chaldirmoqni yuzaga keltirgan. Chaldirmoqlar ham she‘riy, ham nasriy shakllarda uchraydi. Nasriy chaldirmoqlar esa ertak, yoki masala shaklidir: “Bir to‘da g‘oz uchib borar ekan. Bir g‘oz kelib: “Ey yuz g‘oz, salomat bormisiz?”–debdi. Unda to‘dadagi g‘ozlardan biri aytibdi: “Biz yuz g‘oz emasmiz, yana biz miqdori g‘oz bo‘lsa, yana bizning yarmimiz miqdori va yarmimizning yarmi bo‘lsa, o‘shanda sen ham qo‘shilsang– yuz g‘oz bo‘lamiz”. Havodagi g‘ozlar qancha ekan? Masala tipidagi bu chaldirmoqning javobi:  $36 + 36 + 18 + 9 + 1 = 100$ .

Topishmoqlarda xalq turmushining barcha qirralari ifodalangan: ularda ijtimoiy davr va vaqt tushunchasi mavjud. Shu xususiyatiga ko‘ra ularning qachon yaratilganini belgilash va o‘sha davr voqeligiga baho berish mumkin: “Bit”ni yashirgan “Abdullaxon–beustuxon” topishmog‘ida xalqqa og‘ir jafolar ko‘rgazgan XVI asrdagi Buxoro amiri zolim Abdullaxon I obrazi yaratilgan. Ijtimoiy tengsizlikka nafrat ifodasini Andijonda yashagan mashhur isqirt boy Samatjonga munosabat asosida yaratilgan “sichqon” haqidagi tubandagi topishmoqda ham ko‘rish mumkin:

Tokchama-tokcha,  
Samatjon boyvacha.

O‘zgalarni ezish hisobida dunyo orttirgan tekinxo‘r Samatjon boyvachchaning sichqondan nima farqi bor? Topishmoqdagi ijtimoiy motiv mohiyatini ana shu istehzo tashkil etadi.

Yaratilish davri va mazmuniga ko‘ra topishmoqlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

*An‘anaviy topishmoqlar* – xalqning uzoq o‘tmishiga daxldor topishmoqlar silsilasi. Ularda ajdodlarimizning butun moziy davomidagi turmush tarzi, ijtimoiy-estetik qarashlarini ifodalovchi narsa va hodisalar jumboqlangan. Aytaylik, qachonlardir topishmoqlar kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-madaniy munosabatlarni aniqlashda vositachilik vazifasini bajargan. O‘shanda topishmoqlar hozirgidek ma‘naviy o‘yin xarakterida bo‘lmagan, balki aqlni, kuch-g‘ayratni sinovdan o‘tkazish sharti sifatida xizmat qilgan. Topishmoqlar yordamida el-u yurtga boshliq (podshoh) tanlangan, jang-u jadallarda urushuvchi tomonlar lashkarboshlarining topishmoqqa bergan javobining to‘g‘ri yo noto‘g‘riligiga qarab, g‘olib belgilangan va ortiqcha qon to‘kishlar oldi olingan. O‘shanda topishmoq javobini topolmagan tomon “shahar berdim” deb yengilganini tan olgan va g‘olib istagan shahar, yo qishloqni o‘z mamlakatiga qo‘shib olgan. Hozirgacha topishmoq shartini topolmay yutqizganda “shahar berdim” deyishlari shundan qolgan. Hatto yigit-qizlarning bir-birlariga munosib umr yo‘ldoshi tanlashlarida ham topishmoqlar bo‘lajak kuyov uchun aql sinovi shartiga aylangan. Bu mulohazalarni xalq og‘zaki ijodidagi ayrim afsona va ertaklar ham tasdiqlaydi. Chunonchi, yunonlarning Sfinks haqidagi afsonasida

aytishilicha, dono Edip maxluq bergan topishmoqqa to'g'ri javob topgani tufayli nafaqat omon qoladi, balki boy va g'oyat go'zal Fiva shahriga hukmdor etib tayinlanadi. Yoxud, o'zbek xalqining "Dono qiz" ertagida podsho o'zi uylanmoqchi bo'lgan qizning aqlu zakovatini topishmoq orqali sinagach, so'ngra, unga uylanishga azm etganligi ifodalansa, qator sehrli ertaklarda bosh qahramon yovuz devlarni, jodugar kampirlarni topishmoq orqali mag'lub etib, o'z niyatiga erishganligi aks etgan. Xullas, an'anaviy topishmoqlar qadimiy qadriyatlarimizning betakror badiiy namunalari hisoblanadi, ulardan o'tmishdagi ajdodlarimizning ijtimoiy hayotdan orttirgan asriy tajribalari, tevarak-atrof va borliqqa doir fikr-mulohazalari, mushohadalarini bilib olish mumkin.

*Yangi topishmoqlar.* Bular bevosita an'navay topishmoqlar ta'sirida yaratilgan bo'lib, ularga xos an'anaviy shakl, badiiy usullar va jumboqlanish uslubini, asosan, saqlab qolgan. Ularda hamisha zamonaviy mavzuga murojaat yetakchilik qiladi. Bu esa topishmoq janri qismatida davomiylikni ta'minlagan omil hisoblanadi.

Ularni aytishga xalq muayyan tartib-qoidaga, taqvimga rioya qilgan, chunki topishmoqlarni magik so'z hosilasi deb tushungan. Chunonchi, ruslar xristianlik e'tiqodiga ko'ra, Iso tug'ilgan kunga bag'ishlab 25- dekabrda 5-6- yanvargacha o'tkazadigan ikki haftalik "svyatki" bayrami davomida topishmoq aytishsa, o'zbeklar va tojiklarda dehqonlar kuzgi yig'im-terimni tugatgach, qishning uzun kechalarida aytishgan. Kunduzgi ishga xalal bermaslik uchun topishmoqni kunduz kuni aytish ta'qiqlangan. Ajdodlarimiz bug'doy ko'karib unib-o'sayotganda, daraxtlar gullab, meva tugayotganda, hayvonlar qishki uyqudan uyg'onganda ular haqida topishmoq aytilsa, topishmoqlarda ta'riflansa, ularga yovuz kuchlar hasad qiladi va zarar yetkazadi, deb irim qilishgan. Qishda esa yovuz kuchlar ham tirik tabiatni o'lgan gumon qilib, uyquga ketgan, deb hisoblashgan. Shunday tasavvur va qarashlar topishmoq aytish taqvimini yuzaga keltirgan.

Topishmoqlar yozma badiiy adabiyotga ham samarali ta'sir ko'rsatib, mumtoz she'riyatda *lug'z*, *chiston*, *muammo*, *ta'rix* va *muvashshah* singari janrlarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, XX asrda o'zbek bolalar she'riyatida adabiy topishmoqlar yozishning an'anaviy tus olishini ta'minladi. Bu sohada Jahon otin Uvaysiy, Gafur Gulom singari zabardast shoirlar boshlagan an'anani Shukur Sa'dulla, Ilyos Muslim, Adham Rahmat, Po'lat Mo'min, Safar Barnoyev, Tursunboy Adashboyev, Rauf Tolib va S.G'afurov singari bolalar adabiyotining turli avlodiga mansub ijodkorlar davom ettirmoqdalar. Ayniqsa, ulkan bolalar shoiri Quddus Muhammadiyning she'riy-adabiy topishmoq janridagi ijodiy izlanishlari g'oyat samaradorligi bilan e'tiborga loyiq. Shoir "Toping-chi?", "Viz-viz", "O'ylab top", "Buni toping bolalar, aytib bermang onalar" singari she'riy adabiy topishmoqlarida xalq topishmoqlariga xos an'anaviy unsurlarni istifoda etish bilan cheklangan bo'lsa, "Militsioner amakim" asarida xalq posbonlariga xos xususiyatlarni jumboq holida ta'riflash asosida kasbni sir tutadi va sharaflovchi ma'no beradi. Natijada, she'ring har bandi – bir jumboq tusini oladi. Olti band – olti jumboq shaklida jamlanib, yagona umumlashma poetik g'oyani aks ettiradi. Har bir bandda el soqchilarining ma'lum bir fazilati

ta'riflanib, shu ta'riflarning kimga taalluqliligi sir tutiladi. Bunday jumboqning javobi har bir bandagi so'nggi misrada ochiladi:

Qomatiga kelishgan forma, pagoni,  
Yonboshida charm, qinda nagani,  
Yigitlar arsloni, man-man degani,  
Bolalarim bilasizmi? Ayting kim?

– Kamar taqqan militsioner amakim!

Shu zaylda u topishmoq janri kompozitsion tuzilishidan ijodiy foydalanib, she'riy adabiy topishmoqning yangi ichki namunalarini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Binobarin, xalq topishmoqlari qatorida bu xildagi adabiy topishmoqlardan ham yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda, didaktik va axloqiy maqsadlarda keng va samarali foydalanilmoqda. Topishmoq endilikda tom ma'noda, bolalar ma'naviy mulkiga aylandi va ularni hozirjavoblikka, topqirlikka, narsa va hodisalar mohiyatini teran anglashga, sezgirlik va sinchkovlik bilan kuzatishga o'rgatish uchun xizmat qilmoqda.

**TEZ AYTISHLAR.** O'zbekistonning turli joylarida "tutal", "chalg'itma", "chalg'ituv", "chalish", "adashish" deb yuritiladigan bu folklor hodisasi keng tarqalgan. Tez aytish istiloh sifatida janrning birgina xususiyatini – bir nafasda shiddat bilan aytilishinigina ifoda etsa-da, tez aytishdan kuzatiladigan maqsad nimaligini anglatmaydi. Shunday cheklanganlikka egaligiga qaramay, ruscha "skorogovorka" istilohining tarjima ekvivalenti sifatida ilmiy taomilga singib ketgan.

O'zbek tilida mavjud turli atamalarda tez aytishdan kuzatiladigan ikki maqsad bo'rtib ko'rinib turadi: birinchisi, tez aytishdan murod–chalg'itish. So'zda chalish, yoki adashish deyilishi shundan. Ikkinchisi, tez ayta turib chalishish–tutilishga teng. Shu sababli tutal deyilgan. Biroq chalg'itish ham, chalishish ham, adashish ham, tutilish ham o'xshash tovushlardan iborat so'zlar, aniqrog'i, alliteratsiya zamiridagi so'zlar qatorini shiddat bilan bir nafasda aytish negizida voqe bo'lganligi tufayli tez aytish yetakchi xususiyatga aylanib, folklor hodisasini ifodalovchi istiloh darajasida barqarorlik kasb etgan.

Tez aytishlar aslida kattalar og'zaki ijodiga xos bo'lsa-da, mohiyatan bolalar nutqidagi kemtikliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Bolalar tez aytish vositasida o'z ona tillaridagi tovush va so'zlarni ravon, burro, ochiq talaffuz etishni, tovushlarning ohangdorligini, so'zlarning nozik ma'no tovlanishlarini his va idrok qilish, anglash hamda ilg'ab olishni mashq qiladilar. Shu ma'noda ular tovush va so'z ustidagi poetik-mantiqiy mashqlar hisoblanadi.

Tez aytishlar bolalar ma'naviy ehtiyojlariga mosligidan ularni tezgina o'zlashtira borganlar, asta-sekinlik bilan o'zlari ham ularning bir qator yengil va oddiy namunalarini ijod qila boshlaganlar. Natijada, davrlar o'tishi bilan tez aytishlar bolalar folklori arsenaliga o'tib qolgan. Zotan, tez aytish nutq tovushlari alliteratsiyasiga asoslanuvchi folklor janri bo'lib, o'xshash tovushli so'zlar yoki so'z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi jarayonida u yoki bu tovush, yo so'z talaffuzida chalg'ish natijasida voqe bo'luvchi ma'no o'zgarishi negizida yuzaga keladi. Shu xususiyati tufayli o'tmishda tez aytish kattalar repertuarida

uchragan va aksariyat holatlarda pornografik xarakterga ega bo'lgan. Bora-bora katta yoshli bolalar va o'smirlar repertuariga ko'chgan, ular bu xildagi tez aytishlarni o'yin shartiga aylantira borishgan, kim uni to'g'ri aytolmasa, chalishsa, o'sha yutqizgan sanalib, g'oliblar qo'ygan shartni bajargan, yoki o'yinda navbatda (galda) turgan. Tez aytishlar orasida 34, hatto 47 so'zli namunalar borki, ularni aytishda 7-12 yoshdagi bolalar nafasi yetmaydi. Binobarin, aytish mumkinki, XIX asrning 2- yarmi va XX asr boshlarida katta yoshdagi bolalar repertuariga o'tish jarayonida tez aytishlarda pornografik xususiyat so'na boshlagan. Bunda, ayniqsa, o'sha davrda kuchaya boshlagan ma'rifatparvarlik harakati ta'siri muhim rol o'ynagan. Xususan, ta'lim jarayonida ulardan foydalanish istagi kichik va o'rta yoshdagi bolalar repertuariga o'tishiga yo'l ochgan. Natijada, tez aytish bolalar folklori doirasida yashay boshlagan. Buni ayrim ko'p so'zli tez aytishlarning turli yoshdagi bolalar repertuarida xilma-xil variantlarda uchrashi tasdiqlaydi. Chunonchi, "T" va "P" portlovchi undoshlari va "U" unlisi alliteratsiyasiga asoslangan "Bir tup tut" tez aytishi 28 so'zdan iborat.

Alliteratsion ritm u yoki bu tovushning to'g'ri va ravon talaffuzini ta'minlashga bo'ysunganidan, ularni shovqin solib shiddat bilan aytish (skandovka) zaruriyatga aylangan. Shu sababli tez aytishlarni kuylab bo'lmaydi. Bu xususiyat, ayniqsa, nasriy tez aytishlarda yanada ravshanroq tovlanadi, ularning aksariyati ko'p so'zli: har bir so'z o'zaro o'xshash tovushli bo'lganligidan ichki alliteratsion ohangdorligini yuzaga keltirgan. O'z navbatida, bu ichki turoqlanish asosida o'ziga xos poetik ritm hosil qilgan:

– E jo'ra, bizning quyoshlamada quyoshmalashib ket,  
quyoshlamalashsang ham quyoshmalashib ket,  
quyoshlashmalashmasang ham quyoshmalashib ket.

Tez aytishda poetik ritm istak ohangiga ega. Umuman, nasriy tez aytishlarda poetik ritm xilma-xil ohanglarni (gumon, so'roq, buyruq, xabar) ifodalashi mumkin. Bu xususiyat ham she'riy, ham nasriy tez aytishlar uchun mushtarak bo'lib, ularning mazmundorligini, g'oyaviyligini ta'minlagan. Bunda talaffuzning aniq va ochiqligiga, poetik taktga, mantiqiy urg'uga alohida e'tibor berish zarur. Shularning birortasiga rioya qilinmasa, o'sha zahoti ritmdan chiqib ketadi, ma'no yoki mazmunda mantiqsizlik yuzaga keladi.

Nasriy tez aytishlarning shunday namunalar borki, ularda poetik ritmdan voz kechilgan, ijtimoiy mazmundorligini bo'rttiruvchi alliteratsion ohangdorlikkagina urg'u qilingan:

– Namanganda usta Musa puch pistafurush bor ekan. O'sha usta Musa puch pistafurushning oltmish uch pud puch pistasi bor ekan. Oltmish uch pud puch pistasi bo'lsa ham o'sha usta Musa puch pistafurush, oltmish uch pud puch pistasi bo'lmasa ham o'sha Musa puch pistafurush.

Tez aytishda savdodagi qalloblikni fosh etish – yetakchi motiv; pistaning puchligini ta'kidlovchi "p" va "ch" tovushlari – alliteratsiya asosi. Binobarin, "puch pista" iborasi tez aytish uchun *muddao husni* –motivni ifodalovchi vositaga aylangan. *Muddao husni* ham she'riy, ham nasriy tez aytishlarda tugun vazifasini o'taydi. Ular motivnigina emas, balki qaysi tovushni alliteratsiyaga solishni,



yoxud soʻzni takrorlashni belgilovchi vosita sifatida soʻz, yoki soʻz birikmasi shaklida namoyon boʻladi:

Qishda kishmish pishmashmish,  
Pishsa kishmish qishmashmish,

Yoki:

Chustda usta Tursunmatning uchta tus tovugʻi bor.

Oʻsha uchta tustovuq Chustdagi usta Tursunmatning uchta tustovugʻimi yoki boshqa usta Tursunmatning uchta tusdagi tovugʻimi?

Birinchi tez aytishda “kishmish” soʻzi muddao husni boʻlib, “sh” undoshining alliteratsiyasiga zamin yaratgan va qish fasliga oid maʼlumotni tashigan. Ikkinchi tez aytishda “uchta tustovuq” birikmasi–muddao husni, “ch”, “t”, “s” undoshlari alliteratsiyasi shu negizda hosil qilingan. Tez aytishda bu ibora lutf sanʼatini yuzaga keltirgan; dastlab, tustovuqlar miqdorini–uchtaligini anglatsa, keyin ularning rangi–uch tusdaligiga ishoraga aylangan. Tovush alliteratsiyasi tez aytish ijrosi jarayonida shu nozik maʼnoni ilgʻashga xalal yetkazgan. Natijada, chalgʻish hodisasi yuz bergan. Bu xildagi rang-barang tovush alliteratsiyalari, omonimlar, omofonlar, omograflar, paronimlar va taftologiyalar zamiridagi maʼno tovlanishlari pedagoglar va bolalar eʼtiborini tortdi. XX asrning 30-yillaridayoq boshlangʻich sinflarda ona tili va oʻqish darslarida oʻquvchilar talaffuzini burro etishda, tovushlarning nozik maʼnolarini fahmlashlari hamda farqlashlarini taʼminlashda tez aytishlardan didaktik maqsadlarda foydalanila boshlandi.

**MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:** *sof harakat, predmet, bir predmetli, koʻp predmetli, alliteratsiya, chandish, hukmlagich, guldur-gup, chorlama, sanama, tarqalmachiq, topishmoq, tatal, chalgʻitma.*

***Bilim, koʻnikma va malakani rivojlantirishga yoʻnaltiruvchi savollar :***

1. Qaytarmacholarning janriy xususiyati haqida fikr yuriting.
2. Yalinchoqlar janriy tabiati haqida soʻzlang.
3. Hukmlagichlarning paydo boʻlish manbalari va ijro usulini tushuntiring?
4. Bolalar oʻyin folklori nima?
5. Harakatli va maʼnaviy(soʻz) oʻyinlar haqida maʼlumot bering?
6. Tez aytishlar qanaqa janr va ularning mantiqiy mashq hisoblanishi sabablarini izohlang.
7. Maʼnaviy oʻyinlarning qanaqa turlari bor? Ular qanday poetik xususiyatlarga ega?
8. Alliteratsion ritm nima? Tez aytishlarning nasriy va sheʼriy namunalari misol keltiring?

***Mavzuga oid test savollari:***

**1. Tez aytishlar Oʻzbekistonning turli joylarida qanday yuritiladi va undan kuzatilgan asosiy maqsad nima?**

a) “chalgʻitma”, “adashish” shakllari uchraydi, maqsad: bir nafasda shiddat bilan ayta olish;

b) “chalish”, “adashtirish” deb yuritiladi, maqsad: alliteratsion soʻzlarni aytilish;

d) “tatal”, “chalish”, “adashish”, “chalgʻituv” deb yuritiladi, maqsad: bir nafasda shiddat bilan ayta olish va tez aytishda chalgʻish, tutilish;

e) nafasni ushlab turishni mashq qilish

**2. Tez aytishlarning yuzaga kelishi va janriy xususiyati qaysi javobda mufassalroq aks etgan?**

- a) nutq tovushlari alliteratsiyasiga asoslanuvchi folklor janri;
- b) o'xshash tovushli so'zlar yoki so'z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi;
- d) u yoki bu tovush yo so'z talaffuzida chalg'ish natijasida voqe bo'luvchi ma'no o'zgarishi;
- e) a,b,d javoblar.

**3. Topishmoqlarning paydo bo'lish davri va yetakchi manbalari qaysi javobda o'z aksini topgan?**

- a) antik davr, xalqning turmush tarzi;
- b) qadimiy ajdodlarimizning animistik va totemistik qarashlari shakllana boshlagan zamonlar, ajdodlarning tabiat stixiyasi oldidagi ojizliklari, xalq ertaklari;
- d) o'rta asrlar, yozma adabiyotning takomillashuvi, xalq durdonalariga murojaat;
- e) XX asr boshlari, xalq og'zaki ijodini to'plash va o'rganish.

**4. Topishmoqlarning tabiatiga xos xususiyat qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?**

- a) hayvonot va nabotot dunyosi, tabiat hodisalarigaoid aniq va ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'proq jumboqlashtiradi;
- b) yashiringan narsaning asosiy xususiyatlarini, eng muhim etakchi belgilarini xoh ko'chma ma'noda, xoh o'z ma'nosida bo'lsin- aniq va ravshan izohlab beradi;
- d) Har qanday topishmoq jumboq va javob qismlariningbir butunligidan iboratdir;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

**5. 1. Beli, belibelang ot,  
Beli qalin yo'g'on ot,  
Tog'u toshdan yumalab,  
Tura kelar to'rig' ot;**

**2. Tog'da talaymonni ko'rdim,  
Suvda sulaymonni ko'rdim,  
Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim,  
Yumalab yotgan boshni ko'rdim.**

Keltirilgan ikkala topishmoqda yashiringan predmet hamda ularning o'zaro tafovutlanuvchi xususiyati qaysi variantda to'g'ri aks etgan?

- a) birinchisida-egarli ot, ikkinchisida- bo'ri, baliq, sumalak,toshbaqa; o'zaro tafovuti - qofiyalanishida;
- b) birinchisida-ot, ikkinchisida- bo'ri, baliq, holvaytar, toshbaqa; birinchisi 15 so'zli, ikkinchisi 12 so'zli;
- d) birinchisi- toshbaqa, ikkinchisi- bo'ri, baliq, sumalak, toshbaqa; birinchi topishmoq bir predmetli, ikkinchisi ko'p predmetli;
- e) biri she'rgiy, biri nasriy saj'da ifodalangan

**6. "Bir tup tut" tez aytishi qaysi unli va undosh tovushlar alliteratsiyasiga asoslangan, necha so'zdan iborat hamda u qaysi yoshdagi bolalar repertuariga xos?**

- a) "T" portlovchi, "R" undoshlari va "U" unlisi alliteratsiyasiga asoslangan. 27 so'zdan iborat, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar repertuariga xos;
- b) "P" portlovchi undoshiga asoslangan, 28 so'zdan iborat, kichik maktab yoshidagi bolalar repertuariga xos;
- d) "T" va "P" portlovchi undoshlari hamda "U" unlisi alliteratsiyasiga asoslangan, 28 so'zdan iborat, o'rta va katta yoshdagi bolalar repertuariga xos;
- v) to'g'ri javob yo'q.

**7. Qishda kishmish pishmashmish,  
Pishsa kishmish qishmashmish.**

**-Bu tez aytishdagi muddao husni, tovush alliteratsiyasi hamda qanaqa ma'lumot tashiyotganligi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?**

- a) "kishmish", "sh" undoshi, qish fasli;
- b) "pishmoq", "m" undoshi, pishmaslik haqida ma'lumot;
- d) "qish", "sh" undoshi, kishmish haqida ma'lumot;
- v) "q", "sh", "m" undoshlari alliteratsiyasiga bag'ishlangan


**8. Topishmoqlarning yozma badiiy adabiyotga ta'sirini mumtoz she'riyatdagi qanday janrlar bilan asoslash mumkin?**

- a) lug'z, chiston, muammo, ta'rix muvashshah;
- b) chiston, masal, zarbulmasal, aforizm, lug'z, tuyuq;
- d) ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, chiston, lug'z, maqol, chandish;
- e) u faqat xalq og'zaki ijodidagina mavjud.


**9. O'zbek bolalar she'riyatida adabiy topishmoq janri qaysi adiblar ijodida ko'proq uchraydi ?**

- a) Navoiy, Uvaysiy, Q. Muhammadiy, Sh. Sa'dulla, G'.G'ulom;
- b) P. Mo'min, S. Barnoyev, S. Ahmad, A. Obidjon, T. Adashboyev;
- d) A. Avloniy, Q. Hikmat, X. To'xtaboyev, R. Tolib;
- e) Sh. Sa'dulla, I. Muslim, A. Rahmat, P. Mo'min, S. Barnoyev, Q. Muhammadiy.


*9-slayd*




*10-slayd*





11-slayd





12-slayd





#### ***Tavsiya etilgan adabiyotlar:***

1. Allayo-alla. O'zbek xalq allalari. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Safarov ; –T.:O'qituvchi, 1999.
2. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. –T.:Fan,1964.
3. Berdiyev H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. –T.: O'qituvchi,1989.
4. Boychechak.O'XI . To'plovchi, nashrga tayyorlovchi O.Safarov. – T.: G'ASN,1984.
5. Galiyev Sh., O'zbek bolalar o'yin folklori. –T.: Fan, 1998.
6. Gorkiy M., Ertaklar haqida.–Kitobda: Adabiyot haqida. –T.O'zadabiynashr,1962, 319-322-b.
9. Jalolov G'. O'zbek ertaklarida janrlararo munosabat. – T.: Fan,1983.
10. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. –T.: O'qituvchi, 1972.

## **IV . MUMTOZ ADABIYOTDA BOLALAR KITOBXONLIGI ASOSLARI**

### **Reja:**

1. Bolalar kitobxonligi tabiati
2. Alisher Navoiy – bolalarga
3. Muhammad Sharif Gulxaniy – bolalarga.
4. Alifbe manzumalar bolalarning dastlabki o'qish kitobi

**Bolalar kitobxonligi tabiati.** Bolalar kitobxonligi tushunchasi *ikki xil* ma'noviy ifoda kasb etadi. Keng ma'noda, umuman, *bolalarning kitob o'qish hodisasi*, ular o'qishiga mo'ljallangan barcha adabiy-badiiy, ilmiy-ommabop

asarlar mutolaasi bolalar kitobxonligini tashkil qiladi. Ammo, bolalarga bag'ishlangan ijod namunalari hali mavjud bo'lmagan davrda, ilgari davom etib kelayotgan kattalar o'rtasidagi *kitobxonlik*, *qissaxonlikda* yoxud, didaktik asarlar mutola qilishga harakat qilganlarki, buni bolalar kitobxonligining dastlabki ko'rinishi sifatida qayd etish mumkin. Kitobxonlik bu – birgalikda kitob o'qish yoki, kitob, kitobatchilik bilan bog'liq tushuncha. Bolalar kitobxonligi haqida munosabat bildirgan Safo Matchonov: “..kitobxonlik tor ma'noda kitob o'qishni bildirsa, keng ma'noda tanlab o'qish, his etish, anglash va fikr bildirish tushunchalarini o'z ichiga qamrab oladi. U badiiy adabiyotdan oziqlanadi, adabiy tanqid va pedagogika ko'magida yuksala boradi”,– deb yozadi. Haqiqatan, kitobxonlik keng va tor ma'noda ham kitob mutolaasiga daxldor. Shu sababli “Kitob” turli tillarda har xil jaranglasa ham, mohiyatan bir tushuncha ifodalaydi. Masalan, qadimgi xitoycha va turkcha “*kuchnig*”– noma, dasxatlarni muqovalash, qadimgi skandinavcha “kenning”– o'rgatish, ossur tilida “kunukku”– nashr qilish, ruscha “kniga” (masalan, “Bibliya” yunoncha so'z bo'lib, “Kitoblar” degan ma'noni anglatadi) – asarlarning nashr etilishi (qadimda esa qo'lyozmalarning ham muqovalash) va nihoyat arabcha “ktob” – yozilgan, muqovalangan asar, ma'lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan bosma (qadim qo'lyozma ham) asar ekanligi ma'lum bo'ladi.

Demak, kitob insoniyat olamining yaratgan noyob mo'jizalaridan biri sifatida, ajdodlar aql-idrok kuchining qudratli quroli va ziyo chashmasi ekanligi oydinlashadi. Hamchunin, ilk qo'lyozmalar, kitobatchilik an'analari, adabiy-badiiy asarlar o'zbek bolalar kitobxonligining ibtidosidir. Jamiyatning bolalikka munosabati, farzand ta'lim-tarbiyasi haqida qayg'urish ilk kitoblardayoq ko'zga tashlangani shunday mulohazaga asos bo'ladi.

Zotan, o'ttiz asr muqaddam Movarounnahr zaminida vujudga kela boshlagan “Avesto” ana shunday kitoblarning ilk namunasi edi. “Avesto” tom ma'noda qadimgi tarixning buyuk sivilizatsiyasidir. U orqali juda ko'p ma'lumotlar, ajdodlarimizning eng qadimiy urf-odatlarini, diniy va dunyoviy bilimlari, ta'lim-tarbiyaga oid qat'iy qonun-qoidalar, ota-ona va farzand, ustoz va shogird munosabatlari, qiz va yigit bolalarning o'rganishi joiz bo'lgan hunarlari, shuningdek, badiiy tafakkur namunalari insoniyat madaniyatining nodir durdonasi sifatida bizgacha yetib kelgan.

“Avesto”shunoslar, adabiyotshunoslar bu kitobning yaratilish tarixi, uning eramizdan oldingi IX asrda ilk kurtaklari bizning yurtimiz hududi – ko'hna Xorazm zaminida paydo bo'la boshlab, VI asrda uzil-kesil shakllangan mazdoparastlik dinining asoschisi Zardusht va uning ta'limoti haqida ko'plab ilmiy-badiiy risolalar yaratishgan. Jumladan, professor H.Homidiyning “Avesto saboqlari” risolasi e'tirofga sazovor. Risolada tarixiy shaxs Spitamon Zaratushtraning voyaga yetishi, tarbiyasi haqida ham so'z boradi. Ta'kidlanishicha, Purushasp o'g'lining tarbiyasi va muhofazasi bilan jiddiy shug'ullangan. Zardusht yetti yasharligidan o'n besh yasharligigacha donishmand, shoir Barzin Kuras qo'lida ilm oladi. Xususan, u ijtimoiy bilimlar, tabiatshunoslik,

kalomi bade', notiqlik san'atini puxta egallaydi; ustozlari aytgan she'rlar, asotirlarni yod oladi; qabila bahodirlaridan jangovarlik, jahonpahlavonlik, chavandozlikni o'rganadi. O'n olti yoshida Zardusht beliga oqil va jasur yigit sifatida "mardlik kamari"ni boylaydi... Endi u nor tuyalarni boqishdan tashqari, otasi uyushtiradigan yig'inlarda, qavm mo'ysafidlarining bahslarida ishtirok etib, qabilalarning urf-odatlarini o'rgangan...

"Avesto" boshqa barcha diniy kitoblar singari qomusiy mohiyatga ega bo'lgan asar hisoblanadi. Jumladan, unda xotin-qizlar haq-huquqini e'zozlash, oila daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota-onalarning farzand oldidagi, farzandlarning ota-ona uchun mas'uliyati, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlash xususida ibratli fikrlar mavjud. Zardusht o'zining ta'limotida "Andishai nek" (pok e'tiqod yoki ezgu fikr), "Guftori nek" (to'g'ri, rost so'z yoki, ezgu kalom), "Kirdori nek" ( yaxshi amal yoki ezgu ish) birligiga suyanadi.

Muhimi, *ilk kitobxonlik* an'analari "Avesto" va unga oid tafsirnomalarni o'qish asosida yuzaga kelgan, maktab hodisasi ham o'z sarchashmasini shu kitoblar o'qiladigan va kuylanadigan ehromlardan boshlanganiga shubha yo'q. "Avesto"da tarbiyachilar, muallimlar, ustod-u mudarrislarlarning burchlari belgilangan, ular zimmasiga jamiyatning eng muhim yuki topshirilganligi qayta-qayta uqdirilgan, ularning faoliyatiga qarab "yaxshi" va "yomon" ustozlarga ajratib izohlangan, baho berilgan. Yaxshi ustozlar "sog'lom, aql-hushli farzandlarni, jasur, dono va turli tillarni biladigan o'g'il-qizlarni, elni balo-qazolardan himoya eta oladigan o'g'lonlarni, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan avlodni" tarbiyalaydi. Shu sababli ustozlar Axuramazdaga yaqin, poktiynat kishilar sifatida alqanadi va ularning yoshlar qalbida hayotga muhabbatni singdirishdagi buyuk xizmatlari e'tirof etiladi. Yomon ustozlar esa hayotni g'amgin qiluvchi, hayot chirog'ini so'ndiruvchi, johiliyat sari yetaklovchi nodonlar sifatida qoralanadi.

"Avesto"da qiz bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berish lozimligi bir necha o'rinda maxsus ta'kidlangan: "O'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalar ilmu donish o'rganishga jiddiyroq kirishsinlar. Zeroki, ular ota-ona xonadonida bo'lgan vaqtlarida ota ro'zg'orini tartibga solib, ziynat berib borsalar, jufti haloli manziliga borgach, bolalar tarbiyasi, ta'limi bilan, kelajak nasl tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim bo'ladi"...

Qadimgi rus tarixining buyuk tadqiqodchisi akademik N.I.Konrad, adabiyotning paydo bo'lishi va rivojlanishida Gilgamish haqidagi epos, Injildagi tafsilotlar, "Mahabxorat", yoki "Iliada" matnlari katta "chashma" bo'lib xizmat qilganligini ta'kidlagan edi. "Qadimgi Eski dunyo, – deb yozadi olim, – yangi adabiyot uchun birinchi manbaa bo'lib xizmat qilgan".<sup>9</sup>

Shu nuqtayi nazardan qaralsa, "Avesto"dagi o'gitlar mazmuni xalq maqollari, mumtoz adib va mutafakkirlar ijodi mag'ziga singdirilib, yosh avlod kamolotiga uzoq asrlar davomida munosib hissa qo'shib kelgan kitobxonlik namunasi hisoblanadi. O'rta Osiyo xalqlarining qomusiy kitobi "Avesto" qariyb

<sup>9</sup> Bu haqda qarang: Будур Н.В. и др. Зарубежная детская литература. – М.: Академия, 1998. –Стр.7



ikki ming yillik (mil.avv. IX-VIII, mil. VIII asrlar) tarixida yosh avlod tarbiyasi, ilm-u ma'rifati uchun qanday yuksak ahamiyat kasb etgan bo'lsa, arablar istilosidan so'ng musulmonlikning muqaddas kitobi "Qur'oni karim" shunday ma'naviy komillik asosiga aylandi. Bolalik huquqlarining anglana borilishi oqibatida bolalar imkoniyatlarini hisobga olish zaruriyati tug'iladi. Natijada, VIII asrdayoq Eron pedagoglari tomonidan Qur'on negizida musulmonlikning asosiy hukmlarini qamrab oluvchi "Haftiyak" darsligi tuzilgan. Bu o'quv kitobi, salkam o'n to'rt asr davomida Eron, Markaziy Osiyo, Sharqiy Xitoy, Hindiston va boshqa musulmon o'lkalarida ilk alifbe vazifasini o'tab kelgan. Haftiyak-forscha tojikcha so'z bo'lib, Qur'onning yettidan biri degan ma'noni anglatadi. U o'tmishda Turkiston maktablarida ham o'quvchilar arab alifbosini o'zlashtirganlaridan so'ng bir-ikki yil davomida o'qitiladigan xrestomatiya va birinchi qo'llanma hisoblanadi. Binobarin, "Haftiyak" bolalarning ilk o'qish kitobi, kitobxonlik asosi, shuningdek, ularni Qur'oni karimni o'qishga shaylaydigan, uning ruhiga olib kiradigan dastur vazifasini o'tagan.

Jahon bolalar adabiyotiga P.Vozdvijenskiyning "Injil" hikoyalari bolalar uchun" deb nomlangan kitobi juda mashhur. Muallifning o'zi bu haqda shunday yozadi: "Men Yangi va Eski Tavrotning barcha voqealarini juda sodda, bolalar tilida so'zlashga harakat qildim, bu kitobni o'zlari o'qishadimi, yoki unga onasi, katta opasi yoki savodli enaga o'qib beradimi, farqi yo'q; asosiysi, bolalar eng kichik yoshlaridan o'zlarining toza va beg'ubor qalblari bilan so'zlangan hikoyalarning mazmunini tushunib, anglab olishsin".

Ta'bir joiz bo'lsa, xuddi shunday xulosani o'zbek bolalar kitobxonligi tarixidagi qur'onxonlik, haftiyakxonlik, hadisxonlikka nisbatan ham aytish mumkin. Qur'onda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan bo'lib, ularga aniqlik kiritish va izohlash uchun Muhammad (s.a.v.) o'z hadislarini aytgan. Bu hadislarni payg'ambarlarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilganlar. Payg'ambar vafotidan so'ng esa hadislarni naql qilish odat tusiga kirgan. Islomni qabul qilgan xalqlar madaniy va g'oyaviy merosining ko'p unsurlari Islomga hadis shaklida o'tgan. Hadis yig'ish o'rta asr musulmon madaniyatining muhim xususiyati bo'lib, bilim izlashning asosiy mazmuni hisoblangan. Hadis har qanday ilmiy asarni asoslashning muhim qismi bo'lgan. Shu sababli undan xalq hikmatli so'z va matal sifatida ham foydalangan. Hadislarning ijtimoiy-axloqiy qimmati chuqur insonparvarlik mazmuni bilan yo'g'rilganidadir. Masalan, bolani tarbiyalashda ota-onaning burch va mas'uliyatlari "Yosh bolani yelkaga mindirish haqida", "Solih bola ko'zga shodlik, xursandlik keltirishga sababchidir", "Ota o'z farzandlariga odob o'rgatishi va yaxshilik qilishi haqida", "Yetim bolani tarbiyat qiluvchining fazilati haqida", "Yosh bolalar bilan hazillashish haqida", "Yangi pishgan mevani atrofdagi yosh bolalarga berish haqida" kabi hadislarda naql qilinsa, farzandning ota-onasi, qarindosh-urug'lari va umuman, kattalar oldidagi burch, mas'uliyatlari "Onani rozi qilish haqida", "Otani rozi qilish haqida", "Ota-ona keksaygan vaqtida xizmat qilib duolarini olmasdan jannatga kira olmagan kishi haqida", "Ota-onani so'kmaslik haqida"gi hadislarda o'z ifodasini topgan. Yoxud, Ismoil Al-

Buxoriyning eng yaxshi ish-ochlarga taom, tanish-notanishlarga salom berish, eng yomon ish-nohaq qon to‘kilishi, shuningdek, musulmonlarning bir-birlari bilan uch kundan ortiq arazlab, gina saqlab, gaplashmay yurishi mumkin emasligi haqidagi hadislar mazmun-mohiyatan hamon ijtimoiy-tarbiyaviy qimmatga ega.

Xullas, ajdodlar an‘analari, ma‘naviy boy merosi avlodlarga to‘la-to‘kis yetib borishi uchun ularni qanday bo‘lsa shundayligicha bolalarga ham tushuntirish joizligi ayonlashadi. Bu jihatdan o‘tmishda bolalar kitobxonligi namunasi hisoblanuvchi yana bir majmua – “Chor kitob” fikrimizni tasdiqlaydi. U bolalarning ilk o‘qish kitobi sifatida forscha-tojikcha chahor kitob – to‘rtta kitobning bir muqova ostidagi jamlanmasini anglatadi. U fors-tojik tilida bitilgan esa-da, qariyb olti asrdan ziyodroq vaqt davomida nafaqat, Movarounnahr-Turkiston, balki butun Markaziy Osiyo xalqlarining ma‘naviy va e‘tiqodiy birliklarini ta‘minlash va tarbiyalashda xizmat qilib kelgan. “Chor kitob” tarkibidagi birinchi kitobning unvoni –“Nomi haq”(Ollohning nomi) bo‘lib, u musulmonlikning birinchi sharti kalimai shahodatning mohiyatini sharhlashga bag‘ishlangan. Ikkinchi kitob “Bidon”(“Bilgil”) deb nomlangan bo‘lib, iymon, islom va namoz ma‘rifati savol-javob tarzida ixcham tushuntiriladi. Uchinchi kitob “Muhimatul muslimin” (Musulmonlikning muhim qoidalari) bo‘lib, savollarga hadislar vositasida javob berilganligi bois “Qavlun Nabiyy” (“payg‘ambar so‘zi”) deb ham yuritilgan.

To‘rtinchi kitob – “Pandnoma” esa etnopedagogik mohiyati bilan ajralib turadi. Unda insoniylik mohiyati, yaxshi fazilatlar va yomon xislatlarni o‘zaro muqoyasa qilish negizida tahlil va talqin qilingan. Umuman, “Chor kitob”ning birinchi va to‘rtinchi kitoblari she‘riy, ikkinchi va uchinchi kitoblari esa nasriy shaklda bo‘lib, ular mazmun-mohiyatan bir-birini to‘ldirib, islomiy ta‘lim-tarbiya o‘zani sifati yaxlit kompozitsiya shakliga keltirilgani e‘tirofqa loyiqdir. Muhimi, barcha kitoblar ham insoniylikni sharaflovchi, pok axloq-odobga ega shaxsni tarbiyalashdagi vosita ekanligi hamda o‘tmishdagi bolalar kitobxonligi tarixining yorqin sahifasi nuqtayi nazaridan diqqatga sazovor.

Nihoyat, islomiy qarashlarni idrok etishda ularning mazmunini ommabop, obrazlar vositasida hikoya qilish an‘anaga aylanib, diniy-axloqiy pandnoma va qissalar, dunyoviy ahamiyatga ega didaktik asarlar silsilasi yuzaga kelgan. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari farzand tarbiyasiga alohida e‘tibor bilan qaraganlar. Jumladan, Al-Muqoffaning (mil. 721-757) “Irshod ul-kabir” va “Irshod ul -sag‘ir” didaktik risolalari arab adabiyotida yaratilgan ilk pandnoma hisoblansa, X-XV asrlar davomida fors-tojik, arab va turkiy tillarda Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotlarida ham nasrda, ham nazmda pandnomalarning xilma-xil yo‘nalishlari silsilasi yaratilgan. Ayniqsa, Kaykovusning “Qobusnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Farididdin Attorning “Ilohiynoma”, Sa‘diy Sheroziyning “Guliston”, Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub”, Husayn voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” singari nasriy pandnomalari; shuningdek, Ahmad Yassaviy hikmatlari, Attorning “Pandnoma” va Sa‘diy Sheroziyning “Bo‘ston” manzumalari, Jomiy va Navoiy

“Arba’in” (she’riy hadis)lari esa nazmiy pandnomachilik sifatida yuksak e’tirofqa sazovordir.

Muhimi, ularning aksariyati bolalar kitobxonligidan keng o‘rin olgan. Ya’ni, bu pandnomalar ba’zan mavzu-mohiyatiga ko‘ra, ba’zan esa bevosita atalganlik nuqtayi nazaridan bolalar adabiyotining tarixiy o‘tmishiga daxldordir. Bu durdona asarlar uzoq asrlardan buyon farzand tarbiyasi uchun dasturulamal bo‘lib, poklik, rostgo‘ylik, insoniylik fazilatlarini singdirib kelmoqda.

Eski maktablarda Kaykovusning fors-tojik tilida bitilgan “Qobusnoma” asaridan keng foydalanilgani va u ham otaning farzandiga bag‘ishlovi jihatidan bolalar kitobxonligi tarixida ayricha ahamiyat kasb etadi.<sup>10</sup> Asar o‘zbek tiliga birinchi marta 1860- yilda shoir va tarjimon, tarixnavis Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan. U 44 bobdan iborat bo‘lib, mo‘jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlar tarzida berilgan, har bir hikoya mustaqil mazmun-mohiyatga ega. “Qobusnoma”da ham jismoniy, ham aqliy tarbiyaning barcha qirralari teran tahlil etilgan, inson shaxsining shakllanishi uchun muhim detallarga e’tibor qaratilgan. Shu bois pandnoma farzandga mo‘ljallangan esa-da, unda katta hayotiy tajribaga ega inson qarashlari didi, saviyasi, e’tiqodi va ijtimoiy mavqeyi, nuqtai nazari ustivor. “Qobusnoma” o‘z davri xalq pedagogik qarashlarini umumlashtira olgan asar sifatida ham e’tirofqa loyiq. Unda tilga olingan masalalarning ko‘pchiligi hali-hanuz dolzarb ahamiyatini yo‘qotmagan. Jumladan, asarning “Ota-ona haqini bilmak” (beshinchi bob), “Hunar fuzunliq bila baland qadr bo‘lmoq”(oltinchi bob), “Suxandonlik bilan baland martabali bo‘lmoq” (yettinchi bob), “Farzand parvarish qilmoq” (yigirma yettinchi bob) zikridagi axloqiy-estetik mohiyatga ega munosabatlar, yoxud insonning jamiyatdagi mavqeyini belgilovchi muhim omillar to‘g‘risidagi qarashlar jozibali hikoyatlar orqali mushohadalangan. Masalan, Kaykovus o‘g‘liga ikki tomon (ota va ona)dan ham nasl-nasabi pokligi va ulug‘ligini tanishtirib, tushuntirar ekan, bu qadru qimmatni baland tutishini ta’kidlaydi va shunday uqtiradi: “Bu jahon bir ziroatgohdur, har nima eksang, shuni o‘rasan va har na so‘z desang, shuning javobin eshitursan. Degilkim, dunyo joyi foniy va oxirat saroyi boqiydur. Bu joyda iffatli, parhezkorlarning himmati sherlarning himmatidekdur, badkirdorlarning himmati itlarning himmatidekdur. It har saydnikim olsa, o‘sha joyda yer, sher har saydniki olsa, boshqa joyda yer. Bu oriyat saroyi sening saydgohingdur va tangri taoloning ibodati sening saydingdur. Agar dunyo saroyida toat saydini inkor qilsang, oqibatining mujibi bo‘lur”. Muallif bu orqali insonlarning o‘z ezgu-amallari bilan ikki dunyo saodatiga erishishlariga umid qiladi. Kaykovus boshqa masalalar qatori farzand parvarishi zikrida alohida to‘xtaladi. Chaqaloqqa eng avval yaxshi ism qo‘yish, farzandni oqil va mehribon doyalarga topshirish, sunnat qilur vaqtida sunnat qilish, qudratiga loyiq to‘y va tomosha qilish hamda o‘qishni o‘rgatish joizligi ta’kidlanadi. Shuningdek, farzandga turli hunar, kasb, ilm o‘rgatish haqida fikr yuritgan. Ota o‘g‘liga yana

---

<sup>10</sup> Kaykovus. Qobusnoma. Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarj. Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. – T.:O‘qituvchi, 2011.

quyidagilarni alohida uqdiradi: “Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendin o‘g‘lingning ko‘nglida gina qolmasin. Ammo uning ko‘ziga o‘zingni haybatlig‘ ko‘rguzg‘il, to seni xor tutmasin va hamisha sendin qo‘rqib yursin. U bir narsani orzu qilsa, qudrating yetguncha undin ayamag‘il, to tanga havasi bila sening o‘limingni tilamasin... sen adab, hunar va donishni farzandingga o‘zingdin meros qilg‘il. Toki, uning haqin bajo kelturmish bo‘lg‘aysan...”

Shubhasiz, Unsurulmaoliy Kaykovus qarashlarida o‘z davri, mavqeyi, ijtimoiy qatlami ta’siri yaqqol ko‘rinadi. Shunday bo‘lsa-da, mutafakkirning axloqiy qarashlarida hamma zamonlar uchun ibratli o‘gitlar bisyor. Binobarin, “Qobusnoma” hozirgi zamon pedagogikasining ham faol qo‘llanmalaridan biridir. Zero, mumtoz bolalar kitobxonligi ana shunday pedagogik risolalar, pandnomalar bilan to‘lisha borib, didaktik adabiyot namunalarini ham qamrab ola boshlagani ayonlashadi. Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” forscha-tojikcha yaratilgan mumtoz kitobxonlik namunasi bo‘lsa, Alisher Navoiyning didaktik asarlari turkiy bolalar kitobxonligidan keng o‘rin olgan.

### **Alisher Navoiy – bolalar kitobxonligida**

Inson axloqiy fazilatlari, ta’lim-tarbiyasi Sharq adabiyotining yetakchi mavzu va mohiyatini tashkil etishi bejiz emas. Bu mavzudagi adabiyot-pandnomalardan tashqari, badiiy yuksak dostonlar, nasriy asarlarda ham “ma’viza”, ya’ni o‘git-nasihati xarakteridagi qismlar bo‘lganligi adabiyotning “adab” so‘zidan olinganligini asoslaydi. Inson odobi, ongi, ilm-u amali tufayli barcha maxluqotlarning afzali, sharifi deb ta’riflanishi turkiy adabiyotda Navoiy dahosi bilan boshlanadi. Chorak kam olti asrdiki, Alisher Navoiy xalq faxri, tilimizning bayroqdori, she’riyat mulkingning sultoni, madaniyat va ma’naviyatimizning porloq quyoshi bo‘lib kelayotir. “Yoshlarimiz Navoiyni qanchalik chuqur va puxta bilsa,— deb yozadi I.Haqqul,— ma’rifat, ezgulik, komillik sirlarini o‘shancha kengroq egallaydi. Navoiyning so‘zlari diliga o‘rnashgan odam, o‘zi istasin-istamasin, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiyni yetarli darajada bilish-adolat, diyonat va imon-e’tiqodning kuchiga ishonch demak”. XV asrning so‘nggi choragi, XVI asrdan e’tiboran Navoiy asarlarini o‘qish o‘ziga xos an’anaga aylana borgan. Sharq xalqlari kitobxonligida fors-tojik tilida shohnomaxonlik, sa’diyxonlik, hofizxonlik, rumiyxonlik, jomiyxonlik bilan birga, turkiy (eski o‘zbek) tilidagi yassaviyxonlik, qissaxonlik yonida navoiyxonlik ham qaror topgan. Jumladan, bolalar kitobxonligida Navoiy asarlarining ayri-ayri ahamiyati borligi bejiz emas. Ulug‘ mutafakkir yosh avlod tarbiyasi uchun alohida e’tibor zarurligini o‘z dostonlari va asarlarida yorqin ifoda etgan. Xususan, “Xamsa”ning dastlabki uch dostoni – “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, shuningdek, “Mahbub ul-qulub”, “Arba’in”(Qirq hadis)da shoirning axloqiy qarashlari o‘z tajassumini topgandir. Navoiy “Xamsa”sidagi kirish dostoni “Hayrat ul-abror” (Yaxshilarning hayrati) falsafiy, ta’lim-tarbiyaga oid she’riy asar bo‘lib, u Sharq adabiyotidagi

xamsanavislik an'anasiga muvofiq yozilgan bo'lib, didaktik mazmundadir. Navoiy dostonining muqaddima qismidagi munojotlarda shoir Allohning buyuk va beqiyos go'zalligini ta'rif va tavsif etish bilan birga, shoir barcha mavjudot orasida eng ulug'i, eng sharofatlisi insondir, degan fikrni badiiy yuksak darajada ifoda etadi:

Barchasini garchi latif aylading,  
Barchadin insonni sharif aylading.

“Hayrat ul-abror” asarining boshlanishi uch hayrat tavsifidan iborat. Ularda tabiat, koinot va insonning ulug'ligi va go'zalligi tasvir etilgan. Bu uch mavjudotning yagonaligi, bir-biridan ajralmasligi, ularning hayratomuz darajadagi uyg'unligi uch hayratning asosiy mundarijasini tashkil etadi. 63 bobdan tarkib topgan dostonning 21 faslini an'anaviy muqaddimaviy boblar, 40 bobini – 20 maqolat va 20 hikoyat, qolgan ikki bobini esa – xotima va bir hikoyat tashkil etadi. Dostondagi yigirma maqolat komil inson o'zida mujassam etmog'i lozim bo'lgan fazilatlar izhoridan iborat. Asarning bir necha boblari odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlagan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolatida odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr va mulohazalarini bayon qilishi bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir adablilik to'g'risida fikr yuritarkan, uni kichiklarga baxtiyorlik, ulug'larga yuksak martabalilik omili, deb biladi. Bunda tavoze' – kamtarlikni asosiy vosita sifatida talqin etadi. Alisher Navoiy axloqiy qarashlarini ifodalashda hayotiy detallardan keng foydalanadi: “Qachonki yangi chiqqan oy tavoze' saqlab, qaddini xam qildi, u kun sayin kamol topa boshladi. ...Osmon ham tavoze'ga rioya qilib egilgani uchun butun olam uning amriga buysunadi...” Hayo va adab insonning sharaf belgisi ekan, kulgu – adabsizlikning belgisi sifatida talqin etiladi. Shoir kaklikning qahqahasi ovchi tuzog'iga, g'unchaning ochilishi (kulib) xazon bo'lishiga, chaqmoqning kulgusi yerga pastlashishiga sabab bo'lganini tasviriy ufodalar orqali ko'rsatib beradi. Shuningdek, Alisher Navoiy kamtarinlik to'g'risidagi me'yorni shunday ko'rsatadi: qulga bek ortiqcha tavozu' korsatsa, o'ziga azob-uqubat iplarini orttirgan bo'ladi. Gadoning oldida sajda qilish marhamat emas; unga bir dirham bersang, bu unga nisbatan marhamat ko'rsatishdir. O'rindan turib bolaga joy berish ham adabdan emas; keksalar bu ishni adab hisoblashmaydi.

Shu tariqa, shoir adablilik shartlarini saqlashda har bir odamning darajasiga qarab bajarish loyiqligini ta'kidlaydi. Jumladan, ulug' mutafakkir yosh bolaga nisbatan eng zarur ish, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir, deb ko'rsatadi. Uning e'tiroficha, tarbiyaning biri bolaga yaxshi ism qo'yish bo'lib, uni nomi bilan chaqirganlarida uyaladigan bo'lmasligi kerak. Navoiy bolaga ilmu-adab o'rgatish uchun muallim chaqirish lozimligini uqdirar ekan, shafqat qilish foydali, ammo ortiqchasi zarardir, deydi. Binobarin, har xil balolardan farzandini o'z mehri bilan asrashni ota-onaning tavoze'si hisoblasa, ota-onani hurmat qilish – “buni bajarish uning(farzand) uchun majburiyatdir”,– deydi. Shoir katta-yu kichikka qarata ota-onaga xizmatni birdek qilish, xizmati qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bilishni o'z o'gitlarida ilgari suradi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,  
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.  
Ikki jahoningga tilar sen fazo-  
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.  
Tun-u kuningga aylagali nur posh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Dostonning sakkizinchi maqolatida Navoiy yolg‘izlikka nisbatan ko‘pchilik-jamoatni ulug‘lab, kishilarning bir-birlari bilan ahil, do‘st bo‘lishlarini istaydi. “Hayrat ul-abror”ning o‘ninchi maqolati rostgo‘ylik, halollik va to‘g‘rilikka bag‘ishlangan. Shoir yolg‘on so‘zlashning yomon oqibatini “Sher bilan Durroj” masalida ovchining tuzog‘iga tushgan Durroj obrazida hikoya qiladi.

Ilm ahllariga bag‘ishlangan o‘n birinchi maqolatda ilm va ilm ahli, qalam ahli, el manfaati, savob va jaholat, xudbinlik va xudbinlarga munosabat kabi masalalar axloqiy tahlil etiladi. Navoiy bir musofir, kambag‘al odamning chinakam ilm olishi uchun ne-ne muhtojlik, qashshoqlik, ochlik va sarson-sargardonliklar mashaqqatini bayon qilar ekan, ilmida sohibqiron bo‘lguncha o‘ttiz yillik davr o‘tishini, shunda ham bitta-ikkitagina kamolot egasi bo‘lib yetishishini asoslaydi. Ammo, uning ko‘ngli ilm maskani, ilm dargohi, uning bir qatra vujudi ilm daryosiga aylangani ulkan muvaffaqiyat sifatida talqin etiladi. Alisher Navoiy olimlik martabasini ana shunday yuksaklikda ko‘radi. U ilm ahli deganda ko‘p tillarni va bilimlarni egallagan qomusiy olimlik sharafini nazarda tutib, ularning johillarga xizmat qilishini esa zolimlik, deb baholaydi.

Navoiy olimlar bilan jaholat egasi bo‘lgan bek-u amaldorlarning surati va siyratini taqqoslarkan, hayotiy detallarni ayni muqoyasa sifatida eslatib o‘tadi: “Egnidagi to‘nida yuzta yirtiq bo‘lsa ham, gulning to‘ni yirtiq-yirtiq ekani ayb emas-ku! Quyoshning yalang‘ochligi uning ziynati-ku; bulutdan libos kiyganda esa, hamma yoqni qorong‘ilik bosadi. ...Er kishining sharafi kiyimda emas; dur sadafdan uzoq bo‘lsa, bahosi kamaymaydi. Pashshaning ham ust libosi zarrin, ammo uning qo‘nadigan joyi o‘limtiklarning ustidir.”<sup>11</sup>

Darhaqiqat, ma‘rifatparvar va buyuk shoir Alisher Navoiyning axloqiy-ta‘limiy qarashlari hozirgi kunda ham shu jihatlari bilan o‘z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda. U o‘z zamonidayoq, yoshlarni ilm-hunar egallash, mehnatni sevishga undab, o‘rganilgan ilm va hunarni xalq, Vatan yo‘lida sarf qilish zarurligini uqdirgan. Navoiy ta‘limotida ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o‘qish, o‘rganish ta‘kidlanadi. Bu jihat shoirning o‘z hayotiy tajribasida ham yetakchi shiorga aylanganini, ya‘ni juda yoshligidan ta‘lim olgani, o‘qishga berilganidan anglash mumkin. Qolaversa, 4-5 yoshlaridanoq ko‘p she‘rlarni yod bilganligi, Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qush nutqi”) asarini ham bolalik chog‘laridayoq qayta-qayta o‘qib, yod olgani bu fikrni asoslaydi. Alisher Navoiy umrining so‘nggi damlarigacha iqtidorli yoshlarga, ma‘rifatga katta e‘tibor qaratganligini kuzatish mumkin. U mehnatkash xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik

<sup>11</sup>Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A.Hayitmetov. –T., 1974. –B.85.

qilganligi, podsho Husayn Boyqarodan o'g'il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o'zi madrasalar qurishda tashabbus ko'rsatgani ham navoiyshunoslar tomonidan ko'p ta'kidlangan. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o'zining "Ixlosiya" madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo'lgan mablag' ajratgani ana shunday e'tiborli dalillardan.

Navoiy dars beruvchini quyoshga o'xshatadi va bu quyosh o'z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya'ni mudarris "abjadxonalar"ga, hali ilmdan bexabar bo'lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma'rifat beradi, deydi. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiyaviy fikrlarini o'zi yaratgan badiiy asarlarida ko'proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning xislati juda katta, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy inson shaxsining kamol topishi bolalikdan boshlanajagini nazarda tutib, dostonlaridagi ayrim boblarni qahramonlarining bolalik tarbiyasiga bag'ishlaydi. Jumladan, Farhod va Majnun bolaligi tasviri bunga yorqin dalil bo'la oladi.

U axloqiy-ta'limiy qarashlarini butun hayoti va ijodiy faoliyatining sintezi hisoblanuvchi "Mahbub ul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") pandnomasida yanada chuqurlashtirgan. Bu asar shoirning ustozlari Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" singari didaktik adabiyot an'alaridan ijodiy ilhomlanib yozilgandir. "Mahbub ul-qulub"da buyuk shoir va mutafakkirning jamiyatdagi turli qatlamlariga mansub shaxslar to'g'risida umr bo'yi qilgan kuzatuvlaridan kelib chiqqan xulosalari yakun topgan. Unda Navoiy yaxshi fe'l-xususiyatlarni sanab o'tgan, odamlar uchun foydali o'git va misollar keltirgan. Ayniqsa, o'gitlar shoirning barhayot da'vatlari tarzida navqiron avlodlarni asrlar osha barkamollik sari undab kelmoqda. Va aytish joizki, Navoiy asarlari xuddi shu nuqtayi nazardan nafaqat bugun, balki o'tmishda ham bolalar kitobxonligi asosi sifatida ma'lum va mashhur bo'lgan.

To'rt asrdan ziyodroq davr mobaynida Alisher Navoiy asarlarini xalqimiz qo'lyozma kitoblar (devonlar, bayozlar va tazkiralardan) o'qib o'rgandi, shoir g'azallari negizida yaratilgan qo'shiqlar ham navoiyxonlikda ayri-ayri ahamiyat kasb etdi. Maktablarda ham, madrasalarda, davra va suhbatlarda ham shoir asarlariga rag'bat tobora kuchaya bordi.

Xususan, XIX asrning so'nggi choragidan e'tiboran shoir asarlarini ko'p sonli adablarda toshbosma (litografiya) va tipografiyalarda chop etish yo'lga quyilgach, bu jarayon yanada chuqurlasha va kengaya bordi. XX asrda Navoiy asarlarini o'qib-o'rganish o'rta va oliy maktab dasturlaridan keng o'rin oldi, asrning oxirlariga borib esa, bog'chalar ta'limi doirasiga ham kiritila boshlandi. Shu zaylda turli yoshdagi kitobxonning o'z Navoiysi qad rostlaydigan bo'ldi. Shu ehtiyoj "Xamsa" dostonlarining, shuningdek, "Lison ut-tayr" va "Mahbub ul-qulub" asarlarining hozirgi adabiy tilda qayta aytilgan nasriy bayonlari va tabdillarini yaratishga, qolaversa, kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangani "Qiziq hikoyalar" (1991) nashrini amalga oshirishgacha olib keldi.

Buyuk gumanist bolalarga kelajak sohiblari sifatida qaradi, shunga ko‘ra ularning tarbiyasiga alohida e‘tibor berish zarurligini uqtirarkan, bu sohadagi axloqiy qarashlarini “Xamsa” dostonlarida, xususan, dastlabki uch dostoni – “Hayratul-abror” (“Yaxshilarning hayrati”), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”da, shuningdek, “Lison-ut-tayr” (“Qush tili”), “Mahbub ul-qulub” (“Qalblarning sevgani”) hamda “Arba’in hadis” (“Qirq hadis”) kabi asarlarida olg‘a surdi. Bu asarlar bolalar navoiyxonligida ayricha mavqe hosil qilib keldi.

Alisher Navoiy komil insonning shakllanishi bolalikdan boshlanajagini nazarda tutib, Farhod va Majnunlarning bola sifatida ulg‘ayish jarayonlarini ko‘rsatishga alohida e‘tibor berdi. Farhod tirnoqqa zor Chin mulkinging shohi xonadonida tug‘iladi, bu orziqib kutilgan xurramligu ushalgan armonning nishonasi edi. Shu sababli shoir murg‘akkina chaqaloqni tubandagicha tanishtiradi:

Ko‘zida ashk selidan asarlar,  
Damida oh dudidin xabarlar.  
Muhabbat nuri olinda huvaydo,  
Jamolida vafo tug‘rosi paydo.  
Falak deb dard elining shohi oni,  
Malak deb dard o‘ti ogohi oni.

Bu chizgilarda chaqaloqning kelajagiga daxldor bashorat tajassum topgan, ya‘ni, yig‘lab dunyoga kelgan bu chaqaloqning nafasida ne-ne mashaqqatlarni kechajagidan xabar berguvchi ohlar tutuni o‘rlab turgan ekan. Manglayida esa muhabbat nuri porlayotganidan, chehrasidan vafo tug‘ro(tamga)sining barqi mavjud. Osmon uni barcha dardlilarning shohi timsolidagi farishta qilib yaratgan go‘yo, u barchaning dardidan “ogoh” – xabardor o‘g‘lon bo‘lib dunyoga kelgan. Shu bois uning nomi ham o‘ziga mos bo‘lmog‘i, hadisda aytilganiday, o‘z ota-onasidan oladigan birinchi mukofoti munosib ism bo‘lmog‘ini asoslarkan, shoir dastlab bunday o‘g‘ilga ota bo‘lish nasib etgan shohning ruhiy holatini shunday ifodalaydi:

Ato ul durga chun nazzora qildi,  
Sadafdek og‘zi kulmakdin yoyildi.

Shundan so‘ng shoir chaqaloqqa ism qo‘yish tafsilotiga o‘tadi. Unga tanlangan ism qismatiga daxldor besh so‘zning bosh harflaridan tuzilgan: “firoq”dan–“f”, “rashk”dan–“r”, “hajr”dan–“h”, “oh”dan–“o” va nihoyat, “dard”dan–“d” harflarining bir-biriga “murakkab” qilinishi asosida yuzaga keltirilgan, uni bunyodga keltirgan “ustodi ishq”ning irodasi shunday:

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,  
Hurufi maxzanin besh qism qo‘ydi.  
Firoqu rashku hajru oh ila dard,  
Biror harf ibtidodin aylabon fard.  
Borin ustodi ishq etgach murakkab,  
Tarakkubdin bu ism o‘ldi murattab.

Ko‘rinayotirki, chaqaloqning tug‘ilishi–jismoniy hodisa bo‘lsa, unga ism qo‘yish–ma‘naviy hodisa. Navoiy chaqaloqning jismoniy ulg‘ayishini ma‘naviy



ulg'ayishga omixtalashtirgan holda tasvirlashga ayricha e'tibor berarkan, bunda dastlab, allaning nechog'li katta ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi:

Arusi charx tun-kun doya kirdor,  
Bo'lib har tavra holidin xabar dor.  
Beshik davrida chiniyu xitoyi,  
Bo'lib yuz no'sh lab dostonsaroyi.  
Ko'zining nozi eldin eltib uyqu.  
Anga uyqu keturmakka navogo'

Doya tun-kun uni parvarish qilib, "dostonsaro"lik, ko'zlariga noz uyquni chorlash uchun "navogu"lik qilib allalar aytib, quvnab-yashnab ulg'ayishga ma'naviy asos solganliklaridan u bir yoshni to'ldirganidayoq, oyoqda turadi: beshikni tark etib mustaqil yura boshlaydi. Shu zaylda u hammaning suyumlisi bo'lib ardog'lanadi.

Bu yanglig' chun bir o'ldi yoshi oning,  
Sharaf durriga yetti boshi oning.  
Qadam urdiyu tarki mahd qildi,  
Kuyub emgak, yururga jahd qildi.

Falakning aylanishi tufayli u ana-mana deguncha uch yoshga to'lib, so'zlarni durday terib, ishq afsonalarini so'zlaguvchi bo'ldi. Shoir tasvirida uch yashar Farhod o'n yashar boladay fikr yuritishi bilan barchani taajjublantira boradi:

Chu uch yoshiga chekti davri aflok,  
Takallum qildi andoqkim duri pok.  
So'z bori bo'lib afsonai ishq,  
Malomu maskani koshonai ishq,  
Ajabdur uch yoshida o'zga atfol,  
Nechukkim o'n yoshida o'zga atfol .

Navoiy bola ma'naviy kamolotida ustoz-tarbiyachining rolini shu xilda baholaydi. Farhodning uch yasharligidayoq, bu qadar ham jismoniy, ham axloqiy-ma'naviy kamol topishida, albatta, unga murabbiylik qilgan doya va allalagan "navogo" hamda "dostonsaro"lar xizmati katta edi. Shu sababli endi unga saboq berish uchun "hakimi nuqtadon" kerakligini ota o'z vaqtidayoq tushundi:

Ato bu nav' ko'rgach ish hisobin,  
Munosib angladi ilm iqtisobin.  
Keturdilar hakimi nuktdone,  
Bilik birla jahon ichra jahone

Farhod shu xilda nuktdon ustodan "falak mushkilotlari" va ularni yechish yo'llarini o'rganishga kirishdi, "quyosh yanglig' yorug'" fikri bilan "uchinchi oy ravon bo'ldi savodi". "Qur'on"ni yod oldi. Uning zehni shu qadar tez ediki:

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,  
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.  
Ne so'z nikim o'qib ko'ngliga yozib,  
Dema ko'ngliki, jon lavhiga qozib.  
O'qub o'tmak, uqib o'tmak shiori.  
Qolib yodida safha-safha bori.

Alisher Navoiy ta'limni "o'qish va uqish" prinsipi asosida tashkil etishni bundan besh yarim asr muqaddam Farhodni tarbiyalash vositasi sifatida ko'rsatib o'tgan edi. Majnun tarbiyasida ham Navoiy shu yo'lning maqbulligini yana ta'kidlaydi. Majnunni ham 4-5 yoshlar oralig'ida bir "hunarvor ustod"ga berilganini, u ham bunda o'z qobiliyatini namoyish etganini shunday ifodalaydi:

Kun bor edikim besh-un sabaqni  
Anglab evurar edi varaqni.

Navoiy bolalarni tarbiyalashda Farhod va Majnun timsollarida ideal namunalarni kursatdi.

Navoiy bolalar tarbiyasida axloqiy qarashlarning muhimligiga ham alohida ahamiyat berdi. Bu jihatdan "Xamsa"ning kirish dostoni sanaluvchi "Hayrat ul-abror" hamda eng so'nggi asari "Mahbubul-qulub" favqulodda qimmatga ega.

**"Hayrat ul-abror"** ("Yaxshilarning hayrati") dostoni 1483 yilda yozilgan bo'lib, 64 bobdan tarkib topgan. Jami 3988 bayt ( 7976 satr)dan iborat. Dostonning 21 bobi-muqaddima, 40 bobi-asosiy qismi bo'lib, 20 maqolot, 20 hikoya va masaldan tashkil topgan. So'nggi 3 bobi-xotimasidir.

Dostonning asosini 20 maqolot tashkil etadi, hikoya va masallar ularga ilovalar sanaladi. Dastlabki to'rt maqolot iymon, islom, salotin va "riyoyi xirqapo'shlar suluki" haqida bo'lib, keyingi maqolotlarda axloqiy tushunchalar xususida bahs etadi. Shoir olg'a surgan axloqiy-ta'limiy qarashlar silsilasida xulq-odobni, mehnatsevarlikni, saxovatpeshalikni, mehribonlik va adolatpeshalikni, umuman, insonni sharafluvchi ezgu fazilatlarni targ'ib etish va insonni tubanlashtiruvchi yaramas odat va xislatlarni shafqatsiz tanqid qilish yetakchi tamoyildir. Jumladan, beshinchi maqolatda karam xususida mulohaza yuritiladi. Unda saxiylik bilan baxillik bir-biriga qarshilantirilib, axloqiy mohiyatiga baho beriladi.

Shoir talqinicha, saxovat-olijanob insoniy fazilat, lekin uning o'ziga xos shartlari bor. Bular tubandagilar; a) saxovat ehtiyojga nisbatan beminnat bo'lganidagina joizdir; b) saxiylik deb to'kib sochish -isrofdir; v) kimdandir tama'girlik bilan saxovat kutish-haromdir. Binobarin :

Oni saxiy anglagil, ey xushmand,  
Kim ani davlat qilibon sarbaland.  
Holi agar yaxshi durur, gar taboh,  
Kimsadin etmas tama'i molu joh.,  
Har neki haq, bersa qanoat qilur,  
Ham neki amr etsa itoat qilur.

Nasriy bayoni: Ey hushyor odam, sen shunday odamni saxiy deb bilki, baxt-davlat uning boshini yuqori ko'tarib, ahvoli yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham birovdan molu amal tama' qilmasa. Bunday odam xudo nima bersa-qanoat etadi, nimani buyursa-bo'ysunadi.<sup>12</sup> Navoiy saxovatni shu xilda tushuntirarkan, kishilarning saxovatiga ko'z tikishdan ko'ra o'z qo'l kuchi bilan kun ko'rish

---

<sup>12</sup> Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Nasriy bayon qiluvchi A. Hayitmetov.T., G'ASN, 1974, 49-b.

naqadar olijanob insoniy fazilatligini ko'rsatish maqsadida "Hotami Toyi hikoyati"ni keltiradi.

To'qqizinchi maqolotda ishqni vasf etsa, o'ninchi maqolotda rostgo'ylik va to'g'rilikdan bahs yuritadi. Bunda shoir xilma-xil o'xshatishlar vositasida rostgo'ylik va to'g'rilikning yolg'onchilik va egrilikdan afzallik xususiyatlarini ochib beradi. Nihoyat yolg'on so'zlashi tufayli ovchi tuzog'iga ilingan durroj (tustovuq) holatini bayon etuvchi "Sher bilan durroj" masalini keltiradi. Masalda keltirilishicha, bir beshada sher yashar, har gal bolalasa, chumolilar (mur) uning bolasini nobud qilaverganidan yurak oldirib qo'ygandi. Shu sababli:

Tishlabon ul moyai payvandini

Og'zida asrar edi farzandini.

Biroq shu "beshada" bir durroj ham yashar, hamisha sher vahmidan cho'chiyverganidan qo'qqisdan: "farr eta" uchar, bundan shervachcha seskanib ketardi. Bu holdan sher g'am chekardi, Nihoyat sherning

Ko'ngli bu ishdin bo'lib ozorlik,

Boshladi durroj bila yorlik.

Va unga boshiga har qanaqa tashvish tushsa, ko'maklashmoqqa so'z berib, qo'qqisdan uchaverib, uning bolasini qo'rqitmasligini shart qilib qo'yadi. Endi durroj uning yonida cho'chimay, emin-erkin yashay boshlaydi. Hatto shu emin-erkinligiga ishonch hosil qilish uchun sherni sinamoqchi bo'lib, bir gal ovchi domiga tushdim deya faryod ko'taradi. Sher uni qutqarmoqqa borsa, faryod yolg'on bo'lib chiqadi. Durroj bu harakatini bir necha bor takrorladi. Shu sababli sher unga ishonmay qo'ydi, Boshqa bir mahalda durroj chindan ham sayyod domiga tushadi. Bu gal u:

Qichqiribon dom aro ul muftalo,

Necha dedi, dod meni tuttilo.

Sher qulog'iga yetib ul maqol,

Savtini doyingidek etti xayol.

Ko'p eshitib erdi bu yolg'onini,

O'yla gumon etti chin afg'onini.

Har necha kim rost fig'on ayladi,

Sidqini ham kizb gumon ayladi.

Shu tariqa, durroj o'z yolg'onining qurboni bo'ldi. Masaldan kelib chiqqan xulosa shu!

Alisher Navoiy ana shu axloqiy-ta'limiy qarashlarini butun hayoti va ijodiy faoliyatining sintezi bo'lgan "Mahbub ul-qulub" ("Qalb sevgilisi", 1500) asarida yanada chuqurlashtiradi. Bu asar ustozlari Shayx Sa'diyning "Guliston", "Buston" va Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" singari didaktik bitiklari an'alaridan ijodiy ilhomlanib yozilgan bo'lib, tarkibiy jihatdan uch qismdan iborat:

Birinchi qismi "Xaloyiq ahvoli va atfoli kayfiyatida" ("Kishilarning ahvoli, fe'l-atvori va gap-so'zlarining ahamiyati haqida") bo'lib, 40 fasldan tashkil topgan. Ularda jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar hamda ularning ijtimoiy mavqeini tavsiflash yetakchilik qiladi. Odil podshohlar, beklar, nomunosib noyiblar (o'rinbosarlar), zolim podshohlar, diyonatsiz sadrlar (mansabdorlar),

maqtanchoqlar, yasovullar, lashkarlar, shayxul-islom, qozilar, qonunshunos muftilar, mudarrislar, tabiblar, mutasavvufklar (bularni nazm gulistonining xushovoz qushlari deb ataydi muallif), kotiblar, maktab ahli, mutrib va mug'anniylar, ashulachilar, qissago'ylar, va'zxonlar, munajjimlar, savdogarlar, kosiblar, xalq amaliy san'ati ustalari, mirshablar, zindoniylar, qorovullar, dehqonlar, bezorilar, g'arib va bechoralar, gadoylar, qushchilar va ovchilar, uylanish va xotinlar, riyokor shayxlar, xarobot ahli-rindlar haqida batafsil ma'lumotlar berarkan, feodal jamiyatga xos ijtimoiy tabaqalanish xususiyatlarini ochadi. Bunday vaziyatda Navoiy o'z zamonasining ulkan jamiyatshunosi sifatida gavdalanadiki, u bergan ma'lumot XV asrdagi ijtimoiy munosabatlar tarixini o'rganishda hamon qimmatli manba sifatida xizmat qiladi.

Navoiy iqtidorli o'quvchilarni, olimlarni, kotiblarni, shoirlarni san'atkorlarni hurmat qilishga chorlaydi. Uningcha, o'qish ham, o'qitish ham g'oyat mas'uliyatli ish, chunki beqiyos qunt, havas va g'ayratni talab etadi. Bolalarni savodli, bilimli qilish yo'lida o'qituvchi chekadigan zahmat ozmuncha emas. Binobarin, shogirdning burchi, garchi ustoz unga bir harf o'rgatgan esa-da, o'sha ustoz hurmatini joyiga qo'ymoqdan iborat. Shogird ustozni umr bo'yi izzat qilmog'i, unutmashligi lozim:

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitish  
ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Asarning ikkinchi qismi "Hamida atfol va zamima hisol xosiyatida" ("Yaxshi fe'llar va xislatlar to'g'risida") tarzida nomlangan va u o'n bobdan iborat bo'lib, axloqiy masalalarga bag'ishlangan. Unda inson axloqi yaxshi fe'llar va yomon xislatlarga bo'lingan holda talqin qilinadi. Yaxshi fe'llar silsilasida tavba, qanoat, sabr, tavoze' va odob, ishq tavsiflanadi, ularning mohiyatini ochish niyatida kichik-kichik tamsiliy voqealar keltirilib, inson kamolotidagi ahamiyati ko'rsatiladi.

Asarning uchinchi qismi "Mutafarriqa favoyid va amsol surati" ("Turli foydali maslahatlar va maqollar") tarzida nomlangan bo'lib, 118 tanbihdan tashkil topgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "tanbeh" arabcha so'z bo'lib, "nojo'ya xatti-harakat uchun beriladigan ta'zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo" tarzida izohlansa-da, Navoiyda u hikmat ma'nosida qo'llangan. Zero, ularda Navoiy umr bo'yi kuzatgan hayotiy tajribalarini lo'nda, qisqa va obrazli qilib, aforistik darajada ifoda etgan. S.G'aniyeva to'g'ri qayd etganidek, bu tanbihlarda "odam va odamiylik haqida, chin insoniy fazilatlar to'g'risida asrlar mobaynida xalq tajribasi va bilimining qaymog'i sifatida yig'ilgan fikrlar, shuningdek, Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribalarining natijalari, xulosalari keltirilgandir. Navoiyning o'zi qayta-qayta takrorlagan "oz so'z-soz so'z" hikmatiga to'la rioya qiladi va hech qanday mubolag'asiz aytish mumkinki, deyarli har bir jumla ta'kid va tanbih aforistik xarakterga ega bo'lgan hikmat va donolik namunalari yaratadi.

Bu tanbihlar keyinchalik "Navoiy aforizmlari" nomi ostida alohida terilib, 1947-yilda Hodi Zarif va 1961-yilda Y.Eshonqulovlar tomonidan kitobchalar shaklida nashr etilishi yosh avlod tarbiyasi uchun yuksak ta'limiy ahamiyatga ega.

Ularda insonni sharaflash yetakchi motivdir. Binobarin, har bir tanbih mohiyati pirovad-oqibatda bir o'g'itda jamlangan, ulardan qay birida zamona nosozligidan shikoyat qilinsa, qay birida insonni ilm olishga, kasb-hunar o'rganishga, hayotni va o'z salomatligini qadrlashga, mehnatsevarlikka, odillikka, halollikka, xullas, ezgulikka da'vat etuvchi motivlar yetakchilik qiladi. shu sababli ulardan ayrimlarini keltirib o'tish foydadan xoli bo'lmaydi:

“O'ziga bino qo'ygan odam-aqlsizdir; o'ziga zeb bergan-beor, satangdir”.

“Eshitmoq kishini boyitadi; ko'p gapirmoq sayozlatadi, ko'p gapirgan, ko'p yanglishadi. Ko'p yegan, ko'p yiqiladi. Tan kasalining asosi, ko'p yemakdir, qalb kasalining sababi, ko'p demakdir. Ko'p demak – o'zga mag'rurlik, ko'p yemak – nafsga bandalikdir”.

“Takabburlik – shayton ishi va manmanlik – nodon ishi”.

“Xudparastlikdan butparastlik yaxshiroqdir”.

“Insoniyat bog'ining eng go'zal daraxti – ehsondir va odamiylik xazinasining eng bebaho gavhari ham ehsondir”.

“Saxovatsiz odam – yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi”.

“Himmat ahlining ixtisosi – saxovatdir”.

“Himmatsiz kishi – er sonida emas”.

“Oliyhimmat odam – balandparvoz lochindir; behimmat – sichqon ovlovchi kalxatdir”.

“Himmat egasi – qashshoq bo'lsa ham tubanlik qilmas; himmatsiz odam – xazina topsa ham buyuklarga teng bo'lmas”.

“Yaxshiliklarni topmoq – yedirmoqdir; ayblarni yashirmoq – kiydirmoqdir”.

“Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt”.

Bular shoirning avlodlarga qaratilgan o'g'itlarigina emas, balki barhayot da'vatlari bo'lib, zamonlar osha navqiron naslni komillik sari undab kelmoqda.

Buyuk mutafakkir ana shunday o'lmas g'oyalar bilan kishilikning yangi-yangi avlodlari qalbiga yo'l topib, mangulik kasb etib kelmoqda.

### **Muhammad Sharif Gulxaniy – bolalarga**

Muhammad Sharif Gulxaniy XIX asrning birinchi yarmi Qo'qon adabiy muhitida masal – tamsil janrida xalqchil asar yaratishga muvaffaq bo'lgan shoirdir. Uning hayoti va ijodiga oid tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Gulxaniy tabiatan yumor va hajvga usta, xalq urf-odatlarini va til boyliklarini, maqol, matal, naql va rivoyatlarni chuqur biladigan ijodkordir. U fors-tojikcha g'azallarida Jur'at taxallusini qo'llagan bo'lsa, o'zbek kitobxonlariga Gulxaniy taxallusi bilan mashhur. Gulxaniy – olovqalb, majnunsifat ma'nolarini bildiradi. Gulxaniyning eng muhim ijodiy fazilati shundaki, u XIX asr folkloristi sifatida o'zbek xalqining donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollarni to'plab, o'zining mashhur “Zarbulmasal” asarini yaratgan. Shoir uni yaratishda xalq og'zaki ijodi bilan birga, buyuk hind masali “Kalila va Dimna”dan, Firdavsiy, Jomiy, Hofiz Sheroziy, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar asarlari an'alaridan keng

foydalangan. Chindan ham jahon adabiyoti xazinasining noyob durdonasi sanalmish “Kalila va Dimna” qadimgi hind folklori zaminida vujudga kelgan. Uni hind podshohi Dobshalim uchun faylasuf *Beydabo* yozganligi naql qilinadi. Jumladan, kitob muqaddimasigi ayrim fikrlar e’tirofga loyiq: “Har bir xalqning olim va faylasuflari qanday vositalar bilan bo‘lmasin, o‘z orzu va istaklarini amalga oshirmoq, mavjud tartibni intizomga solmoq uchun hamisha fikr yuritganlar, har xil tadbirlar ila ish ko‘rmoqchi bo‘lganlar, bu haqda har xil asarlar yozmoqqa intilganlar. Shulardan biri qushlarning va yovvoyi, yirtqich hayvonlarning tilidan yozilgan, g‘oyat chuqur ma’noli, nafis ramz va muammolarga to‘la ushbu kitobdir...Olimlar bu yo‘lni tanlab zo‘r imtiyozga ega bo‘lganlar: avvalo, bu bilan ular xohlagan so‘zlarini aytib, har bir bobni orzu qilganlari darajada bezash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Buning ustiga, ular shu yo‘l bilan nasihat, hikmat, latifa va hazil-mutoyiba javohirlarini bir-biriga qo‘shganlar, toki dono odamlar bu kitobni mutolaa qilib, foydalansinlar, nodon odamlar esa, uni afsona deb o‘qisinlar.

*Yosh shogirdlar esa, savodli bo‘lmoq, ilm orttirmoq, naql aytmoq maqsadida bu kitobda yozilganlarni osonlik bilan yodlarida saqlab qolgusidirlar. Katta bo‘lib, aql va tajriba egasi bo‘lganlarida, yodlab olgan va esda saqlab qolgan naqlar ustida fikr yuritib, ularni tushunganlarida dillari naqadar foydali hikmatlar bilan to‘lganligini ko‘radilar va o‘zlari kutmagan ulkan boylikka, bitmas-tuganmas xazinaga ega bo‘lganlarini biladilar. Yoshlarning xursandligi katta bo‘lganda otasidan meros bo‘lib qolgan xazinani topgan va shu tufayli umrining oxiriga qadar qiyinchilik ko‘rmasdan yashay olishini bilgan odamning sevinchiga o‘xshaydi.”<sup>13</sup>*

Ta’kidlangan jumalarni Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari haqida ham aytish mumkin. Bu esa asarning yosh kitobxonlar uchun g‘oyat muhimligini asoslaydi. Gulxaniy ham Yapaloqqush va Ko‘rqush suhbatida ayrim hikoyatlar bayonini “Kalila va Dimna”nadan topmoq joizligini ta’kidlaydi.<sup>14</sup> “Zarbulmasal” Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi, u xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni – xalq maqollarini yig‘ib, kitob holiga keltirish lozimligini aytgani hamda Gulxaniy shu nozik xizmatga loyiq, deb topilgani nazarda tutilsa, mazkur asarlarning maqsad-mohiyati juda yaqinligi oydinlashadi.

“Zarbulmasal” so‘zi “zarb” va “masal” so‘zlarining qo‘shilmasidan iborat bo‘lib, adabiy atama sifatida masal, maqol, matal keltirib so‘zlamoqlikni anglatadi. Zero, undagi pandnamo hikoyatlar, xususan, majoziylik, qushlar, hayvonlar tilidan so‘zlash, “Tuya bilan bo‘taloq”, “Maymun bilan najjor”, “Toshbaqa va chayon”, “Bozanda va Navozanda” kabi bir qancha masallar hamda xalq maqollarining keltirilishi bilan ham yuqorida zikr qilingan asardan ijodiy ilhomlanib yozilganligini tasdiqlaydi. Ammo, aytish joizki, “Kalila va Dimna” turli mavzudagi hikoyatlar zahirida qurilgan pand-u hikmatlardan iborat, voqealar bayoni, hikmat va maqollar ifodasi ham mumtoz adabiyotga xos yashirin,

<sup>13</sup> Kalila va Dimna. S.G`aniyeva tarj. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1992. –B.38.

<sup>14</sup> Bu haqda qarang: Gulxaniy. Zarbulmasal. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2009. –B.8

majozlar tilida soʻzlashdan iborat. Undagi masallar garchi turli parrandalar, qushlar va yirtqich hayvonlar oʻrtasidagi munozaralar, munosabatlari orqali hikoya qilinsa-da, yuksak andisha, falsafiy va purhikmat oʻgitlar ustuvorlik qiladi. Gulxaniy esa feodal jamiyatining kishisi sifatida oʻtkir satiraga keng oʻrin bergan. Binobarin, “Zarbulmasal” majoz asosiga qurilgan qissa boʻlib, unda turmush voqea-hodisalari, turli ijtimoiy toifaga mansub kishilarning feʼl-atvorlari, bir-biriga munosabatlari qushlar, hayvonlar tilida bayon qilinadi. Muhimi, asarda xalq maqollari va naqlari (400 dan ortiq) keng oʻringa ega. Undagi asosiy voqea-hodisalar qushlar–hayvonlar timsollari orqali ifodalanganligi, bosh qoliplovchi hikoya boyoʻgʻli va Yapaloqqush hikoyasi bilan bogʻlanib ketuvchi katta-kichik masal-hikoyalar ham keltirilganligi uchun adib uni “Zarbulmasal” deb nomlagan. Qushlar obrazlari asarning asosiy mazmunini belgilaydi, hayvon-hasharot va kishi obrazlari qushlarning oʻzaro suhbatlarida, ular tomonidan keltirilgan naql-u rivoyatlarda namoyon boʻladi.

Asar sujetidagi voqealar xalq ertaklariga monand yozilgan: Yapaloqqush oʻgʻli Kulonkir sultonni uylantirish maqsadida oʻz yaqini Koʻrqushni Boyqush huzuriga sovchilikka yuboradi. Boyoʻgʻlining nihoyatda goʻzal, quyosh yangligʻ Gunashbonu ismli qizi bor edi. Yapaloqqushning har qancha qalin boʻlsa topilur deya oʻz tarafidan sovchilikka borishga unaganida, Koʻrqush quyidagi maqollar orqali unga gap uqtirmoqchi boʻladi: “Bor maqtansa topilur, yoʻq maqtansa chopilur”, “Yolgʻon masal turmas”, “Uyat oʻlimdan qattiq”, “Ermon yogʻochining egilgani – singani, er yigitning uyalgani – oʻlgani”, “Oyoq yugurigi oshqa, ogʻiz yugurigi boshqa...” Sen kim, Boyoʻgʻlining eshigiga kishi yubormoq kim? Hech bilmasmusenki, “Teng tengi birla, tezak qopi birla”. Yapaloqqush: “Andin bizning nima kamligimiz bor?”, –deganda esa Koʻrqush: “Maqtangan qiz toʻyda uyalur”, “Oʻzini maqtagʻon oʻlumning qarovuli”. Sening ahvoling olamgʻa maʼlumdir. “Oyni etak birla yashirsa boʻlurmi?”, “Chumchuq semursa, botmon boʻlurmi?”, “Olakoʻzanak ola boʻlsa ham, arslon boʻlmas, olatoʻgʻanoq olgʻur boʻlsa ham, ahvoli maʼlum” kabi.

Ana shunday maqolli aytishuvlar, “sovchi”ning yoʻldagi hamsuhbatlari orasidagi masallar hikoyasi, bir-ikki bordi-keldidan soʻng ming xaroba – chaldevor(chordevor) qalin badaliga Boyoʻgʻli rozilik beradi. Yapaloqqush shonu shavkat bilan toʻy anjomlarini keltiradi, oʻsha davrdagi quda-andachilikka xos hamma rasm-rusumlar, milliy odatlar bajo keltirilib, toʻy marosimlari oʻtkaziladi. Bu marosimlarda ikki tomondan juda koʻp qushlar – Koʻrqush, Hudhud, Turumtoy, Kordon, Bozanda, Navozanda, Anqo, Humo, Ukob, Lochin, Oqqush, Turna, Gʻoz, Oʻrdak, Suqsur, Kaklik, Bedana, Olatoʻgʻanoq, Zarqaldoq kabilar qatnashadi va har biri oʻziga yarasha xizmatni ado etadilar. Fargʻona iqlimida xarobalar kam boʻlganligi uchun Movarounnahr iqlimidan (Buxoro amirligi) 1000 chordevor topishib, kelin Gunashbonu mahriga toʻlaydilar.

Koʻrinadiki, Gulxaniy asarda aniq makon (Hoʻqand, Buxoro) va zamon (XIX asr), hayotiy voqelik (feodal jamiyatidagi notenglik)ni hamda xalq anʼanalarining yaxshi-yomon qirralarini majoz va kinoya, soʻz oʻyinlari, kesatiqlar orqali bayon etadi. Garchi unda oʻz yurti (Qoʻqon) va uning xoni (Umarxon)ga sodiqlik, u

boshqarayotgan yurtning boshqa hududlardan ko'ra obodroq ekanligiga ishora etilsa-da, Xolboqi misgar, Yodgor po'stindo'z, Muhammad Amin mufti, Otaboy amin, Sayid Azimxon, Eshon kalla haqidagi hajviy-rivoyaviy epizodlarni ochiq-oydin keltiradi.

Muallif o'z masallarida majoziy obrazlar orqali hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, xalqqa qashshoqlik keltirgan o'zaro feodal urushlarga qarshi ommaning noroziligini ifodalaydi. Shuning uchun Yapaloqqush va Boyo'g'lining bir-biriga quda bo'lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to'y bahonasi bilan mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi Ko'rqush, Hudhud, Kulonkirsulton, Sho'ranul, Malik Shohin va Kordonlarning bir-birlariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g'oyaviy mazmunini ravshanlashtiradi.

Gulxaniy "Maymun bilan najjor" masalida hunar va hunar ahlini ulug'laydi, qo'lingdan kelmaydigan ishga aslo urinib kulgi bo'lma, ko'r-ko'rona birovga taqlid qilib falokatga yo'liqma, degan fikrni maymun qismati orqali ko'rsatadi. Bu masal axloqiy tarbiyaviy mavzuda bo'lib, ishning mohiyatini bilmay, pala-partish kirishuvchi va oxirida o'zi sharmanda bo'lib qoluvchi kishilarga o'git-nasihatchilik tarzida keltirilgan.

Mehnatkash xalqning og'ir hayoti va mehnati, huquqsizligi va nochorligi, ayanchli qismati esa "Tuya bilan bo'taloq"da badiiy tasvirlangan. Gulxaniy bu masalda Sarbon, Tuya va Bo'taloq orqali xususan, o'zi yashayotgan jamiyatdagi tengsizlikni, uning og'ir mashaqqatlarini bayon qiladi. Chunki xalq uchun "tirikchilik toshdan qattiq", Sarbon o'z g'amida, tuya og'ir yuk ostida, Bo'taloq esa ona sutidan mahrum.

Gulxaniyning "Toshbaqa bilan chayon" masalida esa bir-biriga zid va qarama-qarshi ikki obraz berilgan: toshbaqa-aqlli, farosatli, safarlarda ko'p yurib, ancha tajriba orttirgan, insofli, sodiq va qadrdon do'st timsoli, chayon esa uning ziddi. U boshqalarga yomonlik qilishdan huzur qiladi, yaxshilikni bilmaydigan kimsalarning ramziy obrazidir.

Gulxaniy qissadan hissa chiqarib, kishilarni hushyorlikka odamoxunlikka undab: "Aslning xatosi bo'lmas, nojinsning oshnosi bo'lmas", "Bo'ynida illati borning oyog'i qaltiraydi", – degan maqollarni keltiradi.

"Zarbulmasal" majoz va masallar, xalqning jonli iboralari asosiga qurilgan asar. Undagi she'riy va nasriy matnlar turli badiiy san'atlar vositasida ta'sirchan ifoda etilgan.

"Zarbulmasal" ham "so'z matosi qadim o'tmishda to'qilgani, ranginkamon rishtalari butun yer yuzini, go'zal so'z gilamlari bilan burkab chiqqan" yodgorliklarga monandligi jihatidan, nafaqat kattalar, balki bolalar ham zo'r qiziqish bilan o'qib kelayotganligi uning bolalar kitobxonligidagi muhim o'rnini belgilaydi. Umuman, asarda zarb, zarblash usulidan foydalanilgani uchun nomi "Zarbulmasal" hisoblangan. Unda 400 dan ortiq maqol va iboralar singdirilgan. Asar tarkibida quyidagi masallar bor: "Toshbaqa bilan chayon", "Tuya bilan bo'taloq", "Maymun bilan Najjor", "Kabutar bilan zog", "Yodgor po'stindo'z", "Dumsiz eshak", "Yolg'onchi tuya". Asardagi masallarning jami 15 dan ortiq.

"Zarbulmasal" xalq orasida "Yapaloqqush hikoyasi" ham deyiladi.



**Alifbe manzumalar (abitsedariy) ta'lim-tarbiya asosi.** O'tmishda eski maktablarda o'qish va yozishni o'rgatish bir necha bosqichli jarayonni tashkil etgan. Maktablar bo'lganki, faqat o'qishni o'rgatgan, maktablar bo'lganki, faqat yozishni o'rgatishga ixtisoslashgan.

Eski maktablarda yozuvni o'rganishda "hijo" yoki "tahajji" usulidagi uch bosqichga amal qilingan: birinchi bosqichda arab alifbosidagi har bir harfni alohida-alohida yozish mashq qilingan. Bu bosqich *MUFRADOT* davri deyilgan. Aytaylik, arab alifbosida mavjud 28 harfning har biri to'rt shaklga ega; bu 112 harfiy belgi degani. Agar arab yozuvining yuzdan ziyod ko'rinishlari hisobga olinsa, bu harflarini ifodalovchi belgilar miqdori qanchaga yetishini tassavur qilish qiyin, albatta. Ammo har bir belgini chiroyli va yorqin, qiyomiga yetkazib yozishga, demakki, husnixat (kalligrafiya)ga alohida e'tibor qilingan. Shu vajdan mufradot davri birmuncha cho'zilgan.

Ikkinchisi – *MURAKKABOT* bosqichi deyilgan. Bunda harfni harfga old tomondan qo'shib yozish, ostki va ustki belgilarning to'g'ri ifodalanishiga alohida e'tibor qilingan. Shu zaylda harfni harfga qo'shganda hosil bo'luvchi hijolarni idrok qilish mashqi qiyomiga yetkazilgan.

Uchinchi bosqichda so'zni yozishga o'tilgan, bu *MUQATTAOT* davri deyilgan. Bu bosqichda o'quvchilar ikkiliklar, ruboiylar, qit'alar, tuyuqlar va g'azallarni ko'chirib yozishni mashq qilganlar.

Eski maktablarda uzoq asrlar davomida yozuv ana shu taxlitda o'rgatib kelindi. Bu esa, o'z navbatida, yozishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirishni taqozo etgan, natijada, shu yo'nalishdagi tajribalarni umumlashtiruvchi alifbo manzumalar yuzaga kela boshlaganki, bular abidsedariylar (yoki alifbo she'rlar) deb yuritiladi.

Alifbo manzumalari faqat xattotlik asrori bayonidan iborat, yoki xattotlik san'atini o'rganuvchilargagina mo'ljallanib qolmay, balki hammabopligi, umuman, yozuvni o'rganishni niyat qilgan katta-yu kichikka xozligiga ko'ra o'tmishdagi bolalar kitobxonligida ayricha o'rin tutadi. Aytaylik, ularda qog'ozning "abreshimiy", "nimkatoniy", "abri bahor", "haftrang" turlari va ularda yozish xususiyatlari, yozuv vositalari – siyoh, qora qamish, qalam, pargor (sirkul), mistar (transparant), qalamtarosh, qalamqat, xato ko'chirishganda uni yuvuvchi abr(shtrix) kabilarni qanday asrash va ishlatish, shuningdek, arab yozuvidagi har bir harfni qanday esda tutish, buning uchun o'sha belgi tabiatda nimaga o'xshashligini eslash hamda o'sha harfiy belgi hajmi qanday bo'lishiga oid ma'lumotlar berilgan. Biroq, turkiyzabon bolalarning yozuvni o'rganishi uchun o'z tillarida yaratilgan bunday qo'llanmalar mavjud emas edi.

Shermuhammad Munisning "Savodi ta'lim" alifbo manzumasi ana shu ehtiyojni qondirish yo'lida yaratilgan dastlabki asar hisoblanadi. U bolalar va yoshlarning xat-savod chiqarishlarini, ilm o'rganishlarini yengillashtirish maqsadida yozilgan. Munis an'anaga sodiq qolib, dastlab o'ziga yozuv qoidalarini o'rgatgan ustoz Ibn Hojibga minnatdorchilik bildiradi, so'ngra, asar yozishdan ko'zlangan maqsadini bayon qiladi:

Ko'p muddat erdi guruhi mushtoq,

Ta'lim sumanbarig'a ushshoq.  
Mashq, etmak ishida xat bitarga,  
Ta'lim vuqufig'a yetarga.  
Aylar edi xizmatim aro po'y,  
Dilresh o'lib o'ylakim qalam mo'y...

Munis "ko'p muddat"dirki o'zbek maktablari uchun savod chiqarishga qulay tadrisiy qo'llanmalar yo'qligidan "xat bitish ta'limini vuqufiga yetkazish" qiyinligini, binobarin, shu holga xotima berish maqsadida bel bog'laganini shunday uqtiradi:

Bilgancha surib qalamni har yon,  
Ta'lim ishin aylar erdim oson.

Shundan so'ng shoir qalam va xat vasfiga o'tadi. Uningcha, qalam o'quv quroligina emas, balki yozuv vositasi bo'lganligi uchun ahamiyatli. Shu boisdan:

Zebo qamishini nayshakar bil,  
No'gida aning shakar samar bil.  
Harfidan oqib sharobi ma'ni,  
El andin erur xarobi ma'ni.

Qalam ilm ahli nasibasini butun qiladi, saltanatlar yumushini raqam qiladi.  
Xullas:

Olam ishi intizomi andin,  
Olam elining nizomi andin.  
Ul bo'lmasa– bo'lmagay kitobat,  
Bul bo'lmasa–qolmagay hikoyat...

Xat esa, aslida qalam "no'gidan" oquvchi "sharobi ma'ni". Xat vositasidagina kishilik jamiyati yaratgan ilm-u hikmat avloddan avlodga meros bo'lib, yetib keladi:

Xatdur asbobi taroshi xoma,  
Ziynat baxshi uzori noma.  
So'z maxzanining nishonasi ham,  
Ma'no durining xazonasi ham.  
Har so'zki, ko'nguldan o'ldi mavjud  
Xat bo'lmasa–bo'lgay erdi nobud...

Munis o'quvchilarni chiroyli yozishga da'vat etar ekan, buning uchun, avvalo, xat yozish vositalari – qalam-u qalamtarosh, qalamdon-u qalamqat singari yozuv qurollarini ozoda, "taxt va shaxt" tutish zarurligini uqtiradi. Shundagina "xatti xub"– husni xatga erishish mumkin, deb hisoblaydi muallif:

Ey kim xatti xub erur taloshing,  
Bo'lsin bu sifat qalamtaroshing.  
Agar yaxshi yo'nilmasa qalamlar,  
Shak yo'qki, yomon tushar raqamlar.

352 satr (176 bayt)dan iborat manzumaning birinchi qismida ana shu masalalar xususida bahs yuritilgan. Masnaviy shaklida bitilgan asarning ikkinchi qismi arab yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi 28 harfning shakli, ularning nimalarga o'xshashligi va imlo xususiyatlarini birma-bir ta'riflaydi. Bunda u harflar hajmini

nuqtalar bilan belgilash an'anasidan voz kechmaydi; "Nuqta bilan o'lchamak shior et",– deydi. Shoir ta'kidicha, "Ul qavmki xatga erdi voqe', Bu nuqta alardan o'ldi voqe'". Muhimi, bunday usul harflar hajmi va shaklini qat'iylashtirishi, demakki, belgining har xilligiga chek qo'yilishi ayonlashadi. So'ngra, arabcha "alif"dan to "shin" gacha har bir harfni poetik ta'riflashga o'tadi:

"Ro" qomati ikki nuqta, ammo  
Boshi biyik ermas, o'ylakim "zo".  
"Zo" uch nuqta-u lek sarkash,  
Qilsa bo'lur oni qushga o'xshash.

Shoir har bir harfni o'quvchilarga shu xilda tanishtirar ekan, savod o'rgatishda badiiy-tasviriy vositalar, suvrat solishdan foydalanishni tavsiya etadi. Chunonchi, yuqoridagi misolda "z" (zo) harfi shaklan qushga o'xshashligi bilan o'quvchi zehnda tez o'zlashuvini ta'minlagan. Shunga o'xshash:

"Nun" olti nuqtadur, ey qarindosh,  
Ikki oyoq, ikki tan, ikki bosh.  
Uch nuqtadur ikki lab arosi,  
Ul nav'ki umqining binosi.

Buning ustiga "nun" shunaqa bir harfiy belgiki, boshqa bir qator harflarning shakliy ifodasida ishtirok etadi:

"Qof" avvali "fo" boshiga monand,  
"Nun" halqasig'a va lek payvand.

Yoki:

Gar "lom"ni istasang murattab,  
"Nun" birla alifni qil murakkab.

Shoir barcha harflarni ta'riflab bo'lgach, ko'nglidagi ulug' niyati amalga oshganidan tasalli topib, asarining nomi va yozilish tarixini shunday izohlaydi:

Bu nomaki bo'yla topti tanzim,  
Yozildi oti "Savodi ta'lim".  
Ta'rixi aning bu nav' adodur,  
Hijrat chog'idinki, g'am fizodur.  
Ming ikki yuz o'n to'qqiz edi yil,  
Dog'i ramazon uchinchisi, bil.  
Go'yoki, chahorshanba erdi,  
Itmomi qalamga dast berdi.

Hijriy 1219-yil ramazon oyi uchinchi chorshanbasi melodiy hisobga aylantirilsa, 1804-yilning 4-dekabri kelib chiqar ekanki, bu asarning yozib tugallanganligi sanasidir. Eng muhimi, Shermuhammad Munis shu asari orqali imlo masalalariga daxl qilib, harfiy belgining shakli, hajmi, yozilish tartibini qoidalashtirdi va o'quvchilarda yozish malakalarini shakllantirishga, shu yo'l bilan bu sohadagi har xillikka barham berishga urindi.

Maktab ta'limi jarayonida abjad hisobini o'rgatish ham birmuncha qiyinchiliklar tug'dirgan. Binobarin, shu qiyinchiliklarni yengish yo'lida abjad hisobida yechiladigan chistonlar yozish an'anaga aylana boshlagan. Bu sohada, ayniqsa, XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan

zabardast shoira va novator muallima Jahon otin Uvaysiy alohida namuna ko'rsatgan.

Jahon otin Uvaysiy (1780-1845) zamonasining peshqadam ziyolilari mulla Siddiq va Chinni otinlar xonadonida tug'ilib tarbiya ko'rgan. U yoshligidayoq she'riyatga va maktabdorlikka havas qo'yadi. Otasi mulla Siddiq fors-tojik va o'zbek tillarida she'rlar yozgan. Qur'oni karimni qiyomiga yetkazib qiroat qilganligidan uni Hofiz bobo deb e'zozlaganlar. Onasi Chinni otin ham xat-savodli bo'lib, maktabdorlik qilgan, qiziga ham yozish va o'qitishni yoshligidayoq o'rgatgan. Hatto ba'zi hollarda o'zi yumush bilan band bo'lgan kezlarda qiziga xalifalik xizmatini buyurgan. Jahon ana shunday vaziyatda otinlik tajribasini to'plagan va maktabdorlik hadisini o'zlashtirib borgan. Xuddi shu faoliyati tufayli elga tanilgan, maktabdorligiga shoiraligi qo'shilib, Qo'qon xonligi muzofotida shuhrat qozongan, hatto dovrug'i Umarxon saroyigacha yetib borgan. Bu hol uni ulkan shoira Nodira bilan yaqinlashuviga yo'l ochgan.

Uvaysiy eri vafotidan so'ng Nodira taklifi bilan Qo'qonga kelgan.

A.Valixonovning shahodaticha, dastlabki paytlarda shoira haramda yashaydi. U haramdagi qizlar – kanizaklar orasida xat-savod o'rgatish hamda musiqiy ilmning amaliy jihatlaridan ta'lim berish bilan shug'ullanadi. Shoira asira shogirdlari qismatiga achinarkan, ularni loaqal jamiyatdagi ana shu mavqelari mohiyatini mulohaza qilishga undovchi, shu asosda ijtimoiy onglarini uyg'otishni ko'zlab bir qator chistonlar yozadi. U shogirdlarini mustaqil o'ylay bilishga, narsa va hodisalarni belgilariga qarab ajrata olish malakalarining shakllanishiga, sezgir va topqir bo'lishlariga erishmoq yo'lida izlanarkan, rang-barang mavzularda chistonlar bitib, ta'lim mazmundorligini chuqurlashtiradi, samaradorlikni oshiradi; bu esa uning maktabdorlik faoliyatida izlanganligi, qolaversa, eski maktablarda o'z zamonasidagi ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida ayrim islohotlarni amalga oshira olganligini ko'rsatadi. Chunonchi, uning anorga bag'ishlangan chistoni bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. Shoira bu chistonni yaratishda Alisher Navoiyning shu nomdagi lug'zidan ijobiy ilhomlangan, deyish mumkin. "Badoye' ul bidoya" devoniga kiritilgan bu lug'z shoirning yoshligi davrida bitilgan:

Ne mijmardur, to'la axgar, vale ul mijmar andomi.  
Erur sun' ilgidin gohe musaddas, gah musamman ham.  
Chiqar ravzandin axgari dudi-yu bu turfakim, oning  
O'tiga dud yo'qtur, mujmarig'a balki ravzan ham.  
Otu mijmar dema, bor ul sadafkim, durlarin oning  
Evurdi qonga davroni mus'habid, charxi purfan ham.  
Agar bu nav' emas, bas ne uchun barmoq kuchi birla  
Bo'shar jismi, oqar qoni, anga majruh o'lib tan ham.  
Nechakim tab'i noridur va lekin me'da norig'a  
Berur taskin, muning naf'in topibman voqian man ham.

E'tibor qilinsa, lug'zda dastlab anorning tashqi va ichki ko'rinishi tasvirlangan. Ya'ni, anor bamisoli "mijmar"– manqalday bo'lib, ichi "to'la axgar"– cho'g'. Shakli goho "musaddas"– olti qirrali, goho "musamman"– sakkiz

qirrali. Manqallar ham odatda olti, yoki sakkiz qirrali shaklga ega holatda yasalgan. Biroq bu shunday bir manqalki, laxcha cho‘g‘ining tutuni va shu tutun chiqadigan “ravzan”i – tuynugi yo‘q.

Uvaysiy ustozidan farqli o‘laroq, anorni yashirarkan, unga to‘rt satrda tavsif beradi: u anorni gumbazga o‘xshatadi. Biroq bu shunday bir gumbazki, uning “eshigi, tuynugi” yo‘q, lekin ichida “gulgunpo‘sh qizlar”– anor donalari makon tutgan:

Ul na gumbazdir, eshigi, tuynugidan yo‘q nishon,  
Necha gulgun, po‘sh qizlar manzil aylabdur, makon.  
Sindurib gumbazni qizlar holidan olsam xabar,  
Yuzlarida parda tortig‘liq, turarlar bag‘ri qon.

Shoira talqinicha, gumbaz–zulm haddan kuchaygan Qo‘qon xonligi mulki. Gulgunpo‘sh qizlar anor donalari yanglig‘ bag‘ri qonga aylangan va o‘sha mulkda hukmron feodal munosabatlar asoratidan ezilgan xotin-qizlarning umumlashma obrazi. Ularning “yuzlariga parda tortilgan”–anor donalari ustidagi parda shunga ishora. Shoira ana shu “gumbazni sindirib”, ular holidan xabar olmoq zarurligini uqdirayotir. Bu shoiraning ulug‘ jasorati ifodasi.

Bu chiston yechimini adabiyotshunoslar turlicha sharhlashgan. Chunonchi, E.Ibrohimova yozadi: “To‘rt misraga sig‘dirilgan katta mazmunga anor ta‘rifinigina emas, balki to‘rt devor orasida ovoz chiqara olmasdan faryod qilayotgan, qavat-qavat niqob orasida yorug‘ olamni ko‘rish imkoniyatidan mahrum etilgan millionlab mahzuma, munlig‘ ayollarning hayoti, taqdiri mujassamlashtirilgan. Bu yuzlariga parda tutgan bag‘ri qonlar nidosi, noroziligi ifodasidir. Bunda shoiraning tutqunlikka qaratilgan, g‘azabli isyoni mazmuni ham bor. Chunki xotin-qizlar ozodligi, erki haqida so‘z bo‘lishi mumkin bo‘lmagan zamon ayoli – Uvaysiy mustahkam istehkomga (gumbaz) qamalgan qizlarning qora parda ortidagi qora taqdirini qoralaydi. Asar majoziy tasvirning yorqin namunasi ham bo‘la oladi.

I.Haqqul esa, uning ijtimoiy-estetik mohiyatini yanada teranroq izohlab: “Eshik tuynugi, nishonasiz gumbaz – bu dahr, toza havolari so‘rib olingan jamiyat. Inson farzandini qullikka mahkum etgan, mute yashashga majburan ko‘niktiruvchi feodal tuzum qafaslari. Shoirani shular ichidagi “gulgunpo‘sh qizlar”– ayol huquqsizligi azobga soladi. She‘rdagi “sindirib” so‘zi – belgili so‘z. Uvaysiy nega aynan shu so‘zni qo‘llagan? Har jihatdan buning sabablarini izohlash qiyin. Lekin bir narsa aniq; u “sindirib”da qay zaylda bo‘lmasin, parchalanishga mahkum jamiyat tartib va qoidalariga o‘zining keskin munosabatini singdirgan. “Yuzlariga parda tortig‘liq, turarlar bagri qon”– o‘tmishdagi xotin-qizlarning ham tashqi, ham ichki holatini bundan aniq, bundan chuqur ifoda etgan satr o‘zbek she‘riyati tarixida kamdan-kam topilsa kerak”, – degan edi.

Bu fikrlarning to‘g‘riligini abjad hisobi asosida yechiladigan va “g‘am haddin oshti” iborasini yashirgan tubandagi chistoni ham tasdiqlaydi:

Yolg‘izimda uchradi: ul dev edi yoki pari,  
*Ming boshi, qirq ergashi bor, yona sakkiz navkari.*

Holga kelmas, butni taqmas, barchasi jallodvas,  
To'rti chorlab, o'nu ellik, menga yuzlandi bari.  
Birining qo'lida uch yuz xanjar-u to'rt yuz pichoq,  
O'ning og'zida buldur: "Pora qil!" – deb gaplari.

"Abjad" – harflar yig'masi hosilasi, arab alifbosida an'anaga ko'ra har bir harf bir raqam (son) qiymatiga ega. Yuqoridagi chistonning yechimi: "g'am haddin oshti!" iborasini beradi. Shoira bu iborani chistonda aks ettirib, o'zi yashagan ijtimoiy muhitdan noroziligini yorqin ifoda etgan, ayni choqda, o'z shogirdlariga ijtimoiy tengsizlikdan saboq berib, ular ongini uyg'otishni, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashlarini shakllantirishni ko'zlagan.

Shoirning "qalam", "qog'oz", "kamar", "o'qloq", "dutor", "sham", "ko'ylak", "qaychi" singari predmetlar, "uyqu", "yong'oq", "makkajo'xori", "daraxt", "qizil gul", "bog'", "xok" (tuproq), "choy", "chakas", "kaklik", "ko'z", "to'y", "jon", "suv", "muhabbat", "tun" va "kun"ga oid chistonlari ham abjad hisobi asosida yechiladi:

Bog' oralab bir gule ko'rdim, ajoyib nogahon,  
Yuz tani bor, yetti shoxi, o'n butoq bo'lmish ayon.  
Yoproq'i o'ttiz, yigirma bandi, o'ttiz ildizi,  
Ey Falotun, tab' olim, aylagaysen imtihon.

Bu chistonning abjad hisobi bo'yicha yechimi "qizil gul" iborasini ifodalaydi.

Shoira bolalarda o'quv qurollariga havas uyg'otmoq va ularni sarishta-saranjom hamda ozoda tutmoqlarini ko'zlab, "qalam" va "qog'oz" haqida shunday chistonlar yaratgan:

Ul na qushdur:boshi yuzdir, qo'lga olsang xosiyat,  
Oning o'ttizdir qanoti, yurmagidur ofiyat,  
Poyi qirq, abjad hisobi anda ermish bandi bog'.  
Banddin aylang xalos ul qushni, qilmang qabziyat.

Yoki:

Ul na shahredur, yigirma bob, bir bozori bor,  
Bulbuli mingdur, ajoyib yetti gulzori bor?  
Yona vasfi shahri Rumdur, hindular tutmish vatan,  
Tashna sursa, bog'i abjaddin chiqqan anhuri bor.

Bundagi sonlar ifodalan harflar jamlanganda, "qog'oz" so'zi kelib chiqadi.

Uvaysiy ellikka yaqin chiston yaratgan, shulardan o'n sakkiztasi shoiraaning turli to'plamlari va ayrim tadqiqotlarda e'lon qilingan. Chistonlar xilma-xil mavzularda bo'lib, xalq ijodiyotiga xos topishmoq hodisasidan ijodiy ta'sirlanish samarasi sifatida yozilgan. Shoira bu xizmati bilan XIX asr o'zbek mumtoz adabiyotining janriy arsenalini boyitdi.

Anbar Otinning (1870-1915) "Yakka bayt"lari ham alifbe-manzumaning o'ziga xos namunasi.

U arab harflari ifodalagan tovushlarni idrok etishni qulaylashtirishni ko'zlovchi to'rtlik, oltilik, sakkizlik va o'nlik shaklidagi poetik tizmalar bo'lib, qofiyalanuvchi so'zlarning oxirgi hijosida muntazam takrorlanib kelishi ritmik bir

butunlikni ta'minlab kelgan, bunga g'oyaviy-axloqiy ruhi qo'shilib, asarning kompozitsion yaxlitligiga erishilgan.

Odam ersang ma'ni bil dona-dona,  
Vatan erur senga ikkinchi ona  
So'zlamasdan oldin so'zingni sina  
Har bir so'zdir umring ichinda sina .

Shoira birato'la odamiylikning to'rt fazilatini ta'kidlayotir: birinchisi-odamiylikning bosh fazilati bama'niligida, farosatligida. Aksincha, bema'nilik va farosatsizlik–odamiylikka zid xislatlar. Ikkinchisi–Vatanni ikkinchi ona o'rnida idrok etish, uni chin dildan sevish muhofazasiga fidoyi bo'lishga shaylik ham odamiylikning ziynati. Uchinchi–so'zni amaliyotda isbotlash va to'rtinchi–so'zda sobitlik, bular bari bir-birini to'ldiruvchi axloqiy mezonlar bo'lib, odamiylik tushunchasini mohiyatan ochishga xizmat qilgan. Harfdan harfga o'tgan sayin, shoira odamiylikning yangidan-yangi axloqiy jilolarini namoyish eta boradi.

“B” tovushi jilosidan odam adabiga zeb beruvchi axloqiy qarashini shunday tovlantiradi:

Ulg'ayursan sanda bor o'lsa adab,  
Ulg'ayursan sanda yor o'lsa adab.  
Odam ersang, tashqi surat berma zeb,  
Ona yurtningni hamisha ayla zeb.

Shoira tashqi ko'rkka oro berish odamiylikka kirmasligini, ichki go'zallikning afzalligini, Vatanni obod qilish chinakam insoniy burchligini shu yo'sinda ta'kidlayotir. “B” tovushi bahonasida shu g'oyani umumjahoniy darajaga ko'taradi. Dunyoda yaxshi nom qoldirish uchun yaxshi ishlar qilish zarurligini uqtiradi.

Shu tariqa, g'oyaviy-badiiy barkamol alifbe-manzuma namunasini yaratib, el farzandlarining tezroq xat-savod egallashlariga munosib hissa qo'shgan. Binobarin, bunday alifbe-manzumalar XX asrda bolalar she'riyatida yuzaga kelgan alifbe she'rlar-abidsedariylar uchun an'anaviy zamin vazifasini o'taganligi bilan ham qimmatlidir.

**MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:** abitsedariy, mufradot, murakkabot, muqattaot, chiston, lug'z, hiyo, abjad, yakka bayt, alifbe-manzuma, abjad, muvashshah, muammo, ta'rix, musaddas, musamman, hikoyat, maqolat, masal, harfiy san'atlar, alifbe-g'azal, alifbe-ruboiy, alifbe-muxammas, tanbih.

***Bilim, ko'nikma vamaalakani rivojlantirishga yo'naltiruvchi savollar :***

1. Alisher Navoiy asarlarining bolalar kitobxonligidagi o'rniga munosabat bildiring.
2. “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyat, maqolat va masallar, hikoyalar mazmunini tushuntiring.
3. “Mahbub ul-qulub” pandnomachilikda kimlarning an'analardan ilhomlanib yozilgan va uning mazmun-mundariyasi nimadan iborat?
4. O'zbek tilida bitilgan ilk alifbo-manzuma qaysi?
5. Mumtoz she'riyatdagi harfiy san'atlar, abjadxonlik va ularning ko'rinishlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

6. Alifbe manzumalar(abitsedariylar) haqida nimalarni bilasiz va ularning ko‘rinishlari haqida ma’lumot bering.
7. Eski maktablarda o‘qish va o‘qitishning bosqichlari qanday usullarda olib borilgan?
8. Mufradot nima? Misol keltirib tushuntiring.
9. Murakkabot nima? Uni izohlang.
10. Muqatta’ot haqida ma’lumot bering. U eski maktablarning qanday bosqichi hisoblanadi?
11. Abjadxonlik nima va u qanday o‘rganilgan? Shu usulda yechiladigan chistonlarga misol keltiring?
12. “Savodi ta’lim” risolasi qanday asar? Uning muallifi kim?
13. Shermuhammad Munis boshlang‘ich sinflarda o‘qish va yozishni o‘rgatishda nimalarga e’tibor qaratgan va bu haqda qanday manzuma bitgan?
14. “Chiston” so‘zining lug‘aviy ma’nosi va uning yana qanday nomlar bilan yuritilishi, an’aviyligi haqida mulohaza yuritng.
15. Jahon otin Uvaysiy chistonlaridan misol keltirib, tahlil qiling.
16. Anbar Otinning “Yakka bayt”lari qanday asar?
17. Alifbe-g‘azal, alifbe-ruboiy, alifbe-muxammaslarga munosabatingiz?
18. Uvaysiy chistonlarida abjad hisobining qo‘llanilishi va ular yechimining tarbiyaviy ahamiyati haqida qanday tasavvurga egasiz?

### ***Mavzuga oid test savollari:***

**1. Alisher Navoiy ijodining bolalar kitobxonligidagi o‘rni qaysi asarlar bilan belgilanadi?**

- a) “Hayrat ul- abror”, “Mahbub ul-qulub”, “Arbain hadis”
- b) “Farhod va Shirin”, “Lison ut- tayr”, “Sabba’i sayyor”
- d) “Saddi Iskandariy”, “Layli va Majnun”, “Mantiq ut -tayr”
- e) “Muhokamatul lug‘atayn”, “Majolisun nafois”

**2. Qaysi javobda”Hayrat ul -abror” dostoniga xos asosiy xususiyatlar bayon etilgan?**

- a) Doston 1488- yilda yozilgan bo‘lib, 64 bobdan tarkib topgan;
- b) Dostonning asosini 20 maqolot tashkil etadi, hikoya va masallar ularga ilovalar sanaladi;
- d) Shoir bu asarda axloqiy-ta’limiy qarashlar silsilasida xulq -odobni, mehnatsevarlikni, saxovatpeshalikni umuman, insonni sharaflovchi ezgu fazilatlarni targ‘ib, yaramas odatlarni esa tanqid qiladi;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

**3. Navoiy umrining so‘nggida ustozlari Sa’diy va Jomiylardan ilhomlanib yozgan didaktik asarining nomi, necha tarkibiy qismdan iboratligi ifodalangan javobni belgilang.**

- a) “Lisonut-tayr”, yetti asosiy qism;
- b)”Saddi Iskandariy”, besh asosiy qism;
- d) “Sabba’i sayyor”, yetti qism;
- e) “Mahbub ul-qulub”, uch qismdan iborat;

**4.”Mahbub ul-qulub”dagi “tanbih” so‘zining ma’nosi va mazmun mohiyati qaysi javobda to‘g‘ri?**

- a) Nojo‘ya xatti-harakat uchun beriladigan ta’zir, koyish,ogohlantirish yoki jazo;
- b) Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribalarining natijalari, xulosalari bo‘lib, aforistik xarakterga ega;
- d) lo‘nda, qisqa va obrazli qilib yaratilgan hikmat va donolik namunalari;
- e) b va d javoblar.

**5. “..Bu paytda mening qiziquvchan ta’bim Farididdin Attorning “Mantiq ut –tayr” dostoniga ko‘ngil qo‘ygan edi. Men bu asarni takror-takror o‘qir, yosh ko‘ngil undan bahra topmoqda edi. .. Undagi ajoyib hikoyatlarga o‘rganib qoldim, qush tilidan aytilgan**



**kinoya va majoziy fikrlar menga oshno bo'lib qoldi". Bu e'tirof qaysi ijodkor tarjimai holiga xos va u qanday munosabat bilan aytilgan? To'g'ri variantni aniqlang.**

- a) Sa'diy tarjimai holi, "Guliston" dostonining yozilish sababi;
- b) Jomiy tarjimai holi, "Bahoriston" debochasida;
- d) Navoiy tarjimai holi, "Lisonut-tayr" dostonining yozilish sababini izohlash;
- e) Ibn Sino tarjimai holi, "Tayr risolasi"ni yozish jarayonida.

**6. Majoziy personajlar – Simurg', Hudhud va qushlarning ramziy ma'nosi hamda ular ishtirok etgan asar nomi to'g'ri qayd etilgan javobni belgilang.**

- a) Simurg' – xudo, Hudhud – shayx, murshid, qushlar – kishilar; "Lisonut tayr";
- b) Simurg' – o'ttiz qush, Hudhud – popishak, qushlar – insonlar; "Tayr risolasi";
- d) Simurg' – si murg', Hudhud – podsho, qushlar – xalq; "Mantiq ut -tayr";
- e) Simurg' – uch qush, Hudhud – oddiy qush, qushlar – tabiat ramzi, "Tayr risolasi"

**7. Abitsedariy mazmuni va mohiyati qaysi javobda to'g'ri qo'llangan?**


- a) Alifbe manzumalar – o'qish va yozishni o'rgatishga asoslangan;
- b) Alfavit, harflarni o'rgatgan;
- d) Krill alifbosiga asoslangan "O'qish kitob"lari ;
- e) Ona tili darsliklari.

**8. O'zbek tilida bitilgan ilk alifbo-manzuma nomi va muallifi bayon etilgan javobni belgilang.**


- a) "Mufradot", Mirali Tabriziy;
- b) "Yakka baytlar", Anbar Otin;
- d) "Sirot ul-xat", Sulton Ali Mashhadiy;
- e) "Savodi ta'lim", Shermuhammad Munis.

14-slayd





15-slayd



16-slayd

## Alisher Navoiy ijodini boshlang`ich sinflarda o`rganish

Hirotda tuprog`ida voyaga yetgan,  
"Qush tili" yo`llarin munawwar etgan,  
Yillar to`zonidan sog`-omon o`tgan  
Navoiy bobomlar  
Buyuk odamlar

Mir Alisher otash zabondir,  
Umri boqiy omon-omondir,  
G`azallari fidoyi – jondir,  
Navoiy bobomlar  
Qutlug` qadamlar

(T.Adashboyev. "Navoiy bobomlar")

Navoiy eldan yordamini ayamagan, Hirotda aholisini og`ir soliqlardan qutqargan, u Hirotda bir qancha mashhur oromgohlar, madaniyat koshonalari bunyod etgan, o`z mablag`lariga ko`pgina xonaqoh –u madrasalar, to`qqizta hammom, o`n to`ppta masjid qurdirgan

Navoiy bolaligidayoq hammaning e`tiboriga tushgan, avvalo, odobli bo`lgan, ko`p kitob o`qigan, zehni o`tkirligidan minglab misra g`azallarini yod bilgan. Kichiklikda yozgan she`rlariga ustozlari ham qoyil qolishgan, ona tilini yaxshi bilgan, fors va arab tillarini ham puxta o`rgangan (P.Mo`min. "Donolarning donosi")

17-slayd

**Navoiy ijodini kichik yoshdagi bolarga qanday o`rgatish mumkin?**

- "Sher bilan Durroj" masali asosida rasmi o`yinchoq kitobcha va multfilm qilish orqali
- "Yolg`onchi", "Hotami Toy", "Suhayl va Mehr", "Muqbil va Mudbir" mazmuniga mos multplikatsion filmlar, qo`girchoq teatri spektakllari ishlash
- "Xamsa" dostonlari syujetlarini turli yoshdagi bolalar saviyasiga moslab badiiy qayta aytish-interpretatsiya qilish
- Mo`yqalam sohiblari, multfilm ishlovchilar, noshirlar, artistlaru olimlar hamkorligi
- "Qiziq hikoyatlar" seriyasidagi suratli kitobchalarni chop etish

18-slayd



18

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul- abror. Nasriy bayon. –T.G‘ASN, 1967.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –T.:G‘ASN, 1983.
3. Alisher Navoiy. Lison ut -tayr. –T.: G‘ASN,1984.
4. Alisher Navoiy. Qiziq hikoyatlar. –T.,1991.
5. Aliqulov H., Omonboyev R. Jomiy va Dovoniy ta’lim-tarbiya haqida. –T.,1984.
6. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. –T.:G‘ASN, 1979.
7. Abu Ali ibn Sino. Salomon va Ibsol. –T.:G‘ASN, 1980.
8. Anbar Otin. She’rlar. Risola. –T.: G‘ASN,1970.
9. Imom Ismoil al-Buxoriy.Hadis.4 jildlik. –T.,1991.
10. Kaykovus. “Qobusnoma”. –T.,1986.
11. Murodov A. O’rta Osiyoda xattotlik san’ati tarixidan. –T.:Fan, 1971.
12. Uvaysiy. Devon. –T.:O‘zdavnashr,1963; yana: Ko‘ngil gulzori. – T.:G‘ASN,1983.
13. Uvvatov U. Imom Ismoil al-Buxoriy. Risola. –T.,1988.
14. Chor kitob. Olim Bo‘ri tarj. –T.:Cho‘lpon, 1992.
15. Shermuhammad Munis. Savodi ta’lim. –T.,1997.
16. Qodirova M. XIX asr o‘zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri. –T. :Fan, 1977; yana: Uvaysiy. –T.:Fan, 1983.

## V. O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING SHAKLLANISHI

### Reja:

1. Milliy uyg‘onish harakatining bolalar adabiyotini yuzaga keltirishdagi roli
2. Abdulla Avloniy – islohotchi pedagog va bolalar shoiri
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy – ma’rifatparvar bolalar shoiri
4. Elbek – bolalar shoiri, nosiri va islohotchi muallimi

**Milliy uyg‘onish harakatining bolalar adabiyotini yuzaga keltirishdagi roli.** O‘lkamizning ilmiy-ma’rifiy taraqqiyoti tarixida buyuk islohotlar ko‘p kuzatilgan. Miloddan yetti asr ilgari Xorazm zaminida yuzaga kela boshlagan “Avesto” ming yildan ziyodroq vaqt mobaynida O‘rta Osiyo xalqlarining nafaqat diniy, balki ma’naviy-ma’rifiy mayog‘i bo‘lib keldi. IX-XI asrdayoq yurtimizdan yetishib chiqqan Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abulqosim Zamaxshariy, Imom Ismoil Buxoriy singari o‘nlab mutafakkir allomalarning ilmiy-badiiy merosi nafaqat bizning, umuman, insoniyatning ma’naviy-madaniy taraqqiyoti uchun bebaho xazina sanaladi. Shuningdek, temuriylar davrida ilmiy kashfiyotlari bilan jahonga dong taratgan Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy ilm-ma’rifat olamida yakdillik bilan e’tirof etiladi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarning so‘z va qalam sehri ham dunyo tamaddunida alohida o‘ringa ega.

XIX asrdagi O‘rta Osiyoning Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo‘qon xonligidagi iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, diniy inqiroz va nizolarning oqibati, o‘lkaning jaholat va mustamlaka botqog‘iga botirgan edi. XX asr Sharqining eng mashhur, eng taraqqiyparvar harakati – jadidchilikka asos solgan Ismoilbek Gasprali to‘g‘ri e’tirof etganidek: “Shijoat maydonida Temurlarning, Shayboniylar ismi-shariflari unutilgani kabi ilm maydonida Ibn Sinolar, Farobiyilar, maorif maydonida Ali Qushchi, Ulug‘beklar yoddan chiqib, butun Movarounnahr bir xonaqoyi parishon va diyori darveshon o‘lmish edi. Ilm, hilm, maorif izzat-nafs va haysiyat (hurmat-e’tibor) riyokorlikka aylangan edi...”

Shu sababli mustaqillik yillarida B.Qosimov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, Sh.Rizayev, H.Boltaboyev singari yetuk adabiyotshunos olimlar hamda yosh tadqiqotchilar tomonidan o‘tmishdagi davr murakkabliklari, jadid adiblarning faoliyati teran tadqiq etildi. Milliy uyg‘onish, millatning o‘zligini anglash jarayoni mazkur davr adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil qilganidek, o‘zbek bolalar adabiyotining rasman qaror topishi ham umumadabiy hodisaning yangi bir qirrasini sifatida maydonga keldi.

XIX asrning 90-yillarida yangi usuldagi maktablar tizimi Turkistonga ham yetib keladi. 1893-yili Ismoilbek Gaspralining o‘zi Buxoroga kelib, amir bilan uchrashadi va yangi maktab ochishga muvaffaq bo‘ladi. Chor hukumatining maqsad va intilishlariga zid bo‘lgan bunday maktablar Turkistonning boshqa o‘lkalarida ham birin-ketin ochila boshlaydi. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 1907- yili turkistonda 30 ta jadid maktabi bo‘lib, 1300 nafar bola o‘qigan. Rost, 1884 -yilda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktablari ochilgan edi. 1892- yilda

o'lkada ularning soni 21 taga yetgan bo'lsa, 1917 yilning boshlarida 170 tani tashkil qilgan.

Shunday bo'lsa-da, "ikki buyuk asr oralig'i"da o'zbek bolalar adabiyotining chinakam mohiyatiga mos qiyofasi *uch asosiy voqelik* asosida qad rostladi. **Birinchi**, shu davr adabiy hayotining yangilanishiga ko'ra, Xorazmda Ogahiy, Bayoniy kabi ijodkorlar tashabbusi bilan tarjima maktabining maydonga kelishidir. Shu munosabat bilan o'nlab asarlar fors tilidan tarjima qilindi. Toshkentda mashhur hind eposi "Kalila va Dimna"ni Fazlulloh Almaiy (1852-1891), arab ertaklari "Ming bir kecha"ni Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934) forschadan o'zbekchaga o'giradilar. Shuningdek, Murodxo'ja domla tomonidan Sa'diy Sheroziy "Guliston"ining yangi tarjimasi amalga oshiriladi. Natijada, XIX asrning 80-yillarida L.N.Tolstoy, 90-yillarda A.S.Pushkin, A.A.Krilov nomlari badiiy tarjimalar orqali o'zbek o'quvchilariga tanila bordi. Keyinchalik bu adiblarning asarlari jadid maktablari darsliklariga ham kiritilgan.

**Ikkinchi**, XX asr boshlaridagi ma'rifatparvar pedagog va adiblar Saidrasul Aziziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Elbek va boshqa o'nlab ziyolilarning "usuli jadid" maktablarida tahsil oluvchi o'zbek o'quvchilari uchun yaratgan ellikdan ortiq alifbo va o'qish kitoblari bu jarayonni yuzaga chiqishiga asos bo'ldi. Bu darsliklar avvalo, bolalarbop maxsus asarlar ijod etish an'anasini boshlab berganiligi bilan diqqatga sazovor. Negaki, xalq bolalarini ma'rifatli qilishni ko'zlab ochilgan yangi usuldagi maktablar uchun o'zlari tuzgan "Kitobat ut-atfol" (Behbudiy), "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni" (Avloniy) "Yengil adabiyot", "Qiroat kitobi", "O'qish kitobi", (Hamza), "Tahsib us-sibyon" ("Bolalar tarbiyasi"), "Qiz bola yoki Xolida" (S.Ayniy), "O'qu" (Fitrat) singari darsliklarda hayotiy voqelikning badiiy ifodasida bolalarning yosh xususiyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu haqda adabiyotshunos olim R.Barakayev kengqamrovli ma'lumot beradi.<sup>15</sup>

**Uchinchi** esa o'zbek bolalar matbuoti inkishofi va ularning yosh avlodga alohida ta'siri hodisasidir. U 1919-yildan e'tiboran yosh kitobxonlarni bir maslakka uyushtirish, tarbiyalashga bel bog'laydi. Garchi 20-yillardagi adabiy-badiiy jurnallarning faoliyatlari birmuncha qisqa bo'lgan esa-da, ularning bolalar adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi diqqatga sazovor. 20-yillar o'zbek bolalar adabiyoti matbuot sahifalarida tug'ilganligi, ular ta'lim-tarbiyani jonlantirishda samarali ta'sir ko'rsata olganligini ta'kidlovchi e'tiroflar talaygina.<sup>16</sup> Haqiqatan, 1919-yil 23-mayda Samarqanddagi 1-totor bilim yurti o'quvchilari tomonidan chiqarilgan "Bolalar yo'ldoshi" jurnali o'z faoliyatini shunday da'vat bilan boshlagan edi: "Majalla ikki bo'lak berilib, avvalgi bo'lagi o'quvchilar qalami ila

<sup>15</sup>Qarang: Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., "Fan", 2004.

<sup>16</sup> Bu haqda qarang: Oripov Q. O'zbek sovet bolalar adabiyotining vujudga kelishida matbuotning roli. (20-yillar) / Xalqlar do'stligi-adabiyotlar do'stligi. - T., 1972. - T.99. - B. 121-144; yana: Suyumov A. Bolalar jurnallari haqida // Sovet maktabi. - 1970. № 6. - B. 32-37; yana: Qoriyev B. 30-yillar o'zbek sovet adabiy jurnallari / O'zbek sovet adabiyoti tarixi. - T., 1971. - T.2. - B. 614-625.

olib borilur, keyingi bo‘lagi o‘quvchilar to‘ldira olmaganda yozuvchilar to‘dasi (hay‘at tahririyati) qo‘lindan o‘tkazilur va mumkin bo‘lgan qadar o‘quvchilarga o‘rin ko‘proq beriladir... Turkiston o‘lkasidagi yosh o‘qituvchilar, albatta, bu zo‘r tilak ila maydonga qo‘yilgan majallaga tovush bersunlar”<sup>17</sup>. Nashrlar atrofiga uyushgan Sadridin Ayniy, Rahim Mahmudiy, Abdulxabir Abdulla o‘g‘li, Abdurashid Abdujabbor o‘g‘li kabi yozuvchi va shoirlar bolalar hayotiga oid maqola, hikoya va she‘rlar yozib turishgan.

Manbalarda shu yili yana bir jurnal chiqqanligi qayd etiladi: “1919 yil may oylarida, – deb ma‘lumot beradi Q.Oripov, – “Yosh sharq” nomli jurnal bosmadan chiqadi. Bu jurnalga Finkelshteyn muharrirlik qiladi, jurnalning redkollegiyasida mahalliy yoshlardan Rahim Inomov, Botu va boshqalar bor edi. Biroq bu yoshlar jurnali birinchi sonidan so‘ng gazetaga aylantirildi”. Ziyo Said, Botu, Akmal Ikromov, A‘zam Ayub, Usmonxon, Julqunboy, Mirmulla, Cho‘lpon, Elbeklar gazeta bilan hamkorlik qilib, uning 5-dan 10-sonigacha chiqarishga muvaffaq bo‘ladilar.<sup>18</sup>

1921-yilning martida xalq maorifi komissarligi tomonidan “Bolalar dunyosi” nomli yana bir jurnal chop etilgan. Ushbu nashrning yetakchi maqsadlari bolalar va o‘smirlarning qiziqishlari hamda yangicha qarashlarini targ‘ib etish bo‘lgan. U “yosh o‘qituvchilar orasida ong-bilim tarqatuv yo‘lida chiqarilaturg‘on o‘zbekcha bolalar jurnali” edi. Garchi davlat Milliy kutubxonasida mazkur nashrning bor-yo‘g‘i birgina soni saqlanib qolgan bo‘lsa-da, unda chop etilgan maqola, she‘r va hikoyalar jurnalning umumiy mundarijasi haqida tasavvur uyg‘ota oladi. Jumladan, undagi Cho‘lponning “Kapalak” she‘ri, Majid Usmonning “Qimmatli tortiq”, Subutoy, Xurshid, Zarif Vali, Rahim Solining shunga o‘xshash hikoyalari, badiiy lavhalar, ya‘ni “bolalarga qiziqarliq har xil hikoyacha, she‘r, adabiy-tarixiy parchalar bilan ziynatlangan”ligi e‘tiborga loyiq.

Bundan tashqari, o‘sha yillarda davlat nashriyoti tomonidan bolalar uchun “Sharq chechagi” nomli yana bir jurnal chop etilgan. Biroq unga doir ma‘lumotlar Bois Qoriyev (Oltay)ning dissertatsiyasidagina uchraydi. “Bolalar dunyosi” jurnali,– qayd etilgan mazkur tadqiqotda, – 3-4-sonlari birga “Sharq chechagi” nomida chiqdi. Bu sonda Andersening “Margaritka”, “Qush qo‘shig‘i” sarlavhali hikoyalarining tarjimasini berilgan. Yana, Yoqub Fayziyning “Kichkina yozuvchi” hikoyachasi, A.Qodiriyning Julqunboy imzosi bilan “Tayoq maktabi” sarlavhali asarlari e‘lon qilindi”<sup>19</sup>.

Bu dalillar nashr sahifalarida ko‘proq badiiy ijod namunalari berilgani, ular asosan, bolalarga mo‘ljallab yozilganini asoslaydi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “Julqunboy” imzosi bilan yozilgan “Tayoq maktabi”da eski maktab o‘quvchisi Muxtor timsoli, uning obrazi orqali ilm dargohlaridagi ichki tartiblar, o‘qitish usullarining qoniqarsizligi, domlarning tayoqli munosabati real aks ettirilgani qayd etilgan.

<sup>17</sup> Qarang: Bolalar yo‘ldoshi. –1919. № 1. – B. 3.

<sup>18</sup>O‘sha manba

<sup>19</sup>Qoriyev B. (Oltay). 20-yillar o‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari (shu davr jurnallari asosida): filol. fanl.nomz. diss. – T., 1967.

Turkistonda bolalar jurnallarining uzviy nashri 1929-yildan boshlangan. “O‘zbekiston Maorif xalq komissarligi tomonidan chiqarilgan oylik badiiy, tanqidiy-bibliografik “Yosh kuch” jurnali” shu ma’nodagi dastlabki nashrdir. Uning maqsadi va yo‘nalishi quyidagi murojaatnomada ayonlashadi: “Bolalar! Qo‘lingizda bo‘lgan jurnalimiz sizlarni to‘plashda, uyushtirishda, tarbiyalashda katta ko‘makchidir. Jurnalga mushtariy bo‘lishingiz yetmaydi. Unga yozuvchi bo‘lib, har xil she‘r, hikoyacha, maqolalar berib turish uchun yozg‘uvchi yosh kuchlar jurnal tebrasiga to‘planishlari kerakdir.”<sup>20</sup>

Bundan tashqari, 1929-yilda “O‘zbekiston Markazqo‘mi qoshidagi firqa bolalar tashkiloti Markaziy byurosining fikr tarqatuvchisi” sifatida ish boshlagan “Lenin uchquni” (1991-yildan “Tong yulduzi”) gazetasini ham uzluksiz nashr sifatida e’tirof qilish lozim. Muhimi, shu kabi bolalar va o‘smirlar uchun maxsus chiqarilgan gazeta-jurnallar faoliyati, so‘ngra, 1925-27-yillardan boshlab “O‘zbek seksiyasi” nashriyotining (O‘zGIZ) chet el va qardosh xalqlar bolalar adabiyotidan tarjima asarlar nashr eta boshlagani, qolaversa, S.Ayniy, A.Qodiriy, G‘.G‘ulom, G‘ayratylarning bolalar uchun yozgan asarlari o‘zbek bolalar adabiyotining chinakam tadrijiga hissa qo‘sha oldi va bu yo‘ldagi mustahkam qadam edi. Shuningdek, Shokir Sulaymon va G‘ayratiy kabi iste’dodli adiblar bolalar uchun ko‘plab hikoyalar va she‘rlar yozgani e’tirof etiladi. Zero, o‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishida turli xil o‘qish kitoblari, xrestomatiyalar, teatr asarlarining ahamiyati katta bo‘lgan. Bunda Elbek muallifligidagi “O‘zbekcha o‘qush” kitobi ham alohida ta’kidlanadi.<sup>21</sup>

Umuman, o‘tgan asrning 20-yillaridagi maktab darsliklari va matbuot sahifalarida e’lon qilingan bolalar adabiyoti namunalari hodisaning muayyan tizimlashuvini boshlab bergani bilan e’tiborlidir. Binobarin, o‘zbek bolalar adabiyoti – *she’riyati*, *nasri* va *dramaturgiyasi* o‘tgan asrning 20-yillarida shu zaylda qaror topib ulgurdi. A.Qodiriyning “Uloqda”, “Jinlar bazmi” hikoyalari yosh qahramonlar ruhiyati talqiniga ko‘ra bolalar adabiyoti hodisasining ehtiyoji bilan paydo bo‘lgani-da, shu haqiqatni oydinlashtiradi.

XX asrning arafasi va boshlarida o‘zbek bolalari uchun ixtisoslashgan maxsus badiiy adabiyot yaratish harakati yuzaga kelib, izchil tusga kira boshlagach, Sirojiyning “Bolalar adabiyoti to‘g‘risida bir fikr” (“Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali, 1921-yil, 3-son, 30-31-b.), “Qizil o‘zbek matbuotida bolalar adabiyoti” (“Zarafshon” gazetasi, 1924-yil 21-iyun, 157-son), Zarif Bashirning “Bolalar adabiyoti kerak” (“Turkiston” gazetasi, 1923-yil, 27-aprel), G‘ozi Olim Yunusovning “Bolalar adabiyoti haqida” (“Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali, 1925-yil, 3-son), Shokir Sulaymonning “Bolalar adabiyoti nashr qilish kerak” (“Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1926-yil, 30-sentabr, 224-son) maqolalarida yigirmanchi yillar bolalar adabiyoti oldida turgan muhim vazifalar xususida fikr yuritilgan. Nihoyat, bolalar adabiyotiga avvalo, shu olam vakillari uchun maxsus yaratilgan asarlar sifatida qarash an’anaga aylandi. Bunda, jahon va rus bolalar adabiyotining

<sup>20</sup> Ramzi M. Armug‘on // Yosh kuch. – 1929. - № 1. – B. 1.

<sup>21</sup> Shermuhamedov P. O‘zbek bolalar adabiyotining shakllanish bosqichlari. – Kitobda: O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. T., “Fan”, 1989.–B. 23-27.



ilg'or an'analari, boy tajribalarining ta'siri ham katta bo'ldi. Nihoyat, *bolalar olami va qiziqishlari, yosh xususiyatlari, didi va tiliga mos, tafakkuri va tasavvuriga xos tarzda yaratilgan badiiy ijod namunalari alohida yo'nalishni tashkil etish darajasiga erishadi.*

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek bolalar adabiyotining ilk qadamlari dastavval, o'qish kitoblari bag'rida tug'ildi. Chunki boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi; uning zaminida o'quvchilar savodxonligini ta'minlash bilan birga, ularni badiiy adabiyotning sehrlı olamiga olib kirish ko'zda tutiladi. Bu jihat ilk darsliklardan oq an'anaga aylanib kelayotir, desak xato bo'lmaydi. Adabiyotshunos R.Barakayev o'zbek adabiyotidagi bolalar uchun maxsus yaratilgan ilk alifbo Saidrasul Aziziyning "Ustodi avval" (1902) kitobi ekanini ta'kidlaydi. Shundan keyin esa Oktabrgacha (1917-yilgacha – O.S., B.J., N.S) islohotchi pedagog va adiblarning ellikka yaqin nomdagi alifbo va o'qish kitoblari nashr qilinganini qayd etadi. Bunda Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval"(1907), "Adib us-soniy"(1909), Serikboy Oqayevning "Xrestomatiya, ya'ni terma kitob"(1911), Qori Usmon ibn Abduxoliq Shoshiyning "Ta'limi avval"(1910), Mulla G'ulomiddin Akbariy(Kabirzoda)ning "Ta'limi soniy"(1912), Abdurahob ibn Abdullo Ho'qandiyning "Tahsili alifbo" (1912), Muhammadjon Rasuliyning "Bolalar bog'chasi"(1915), Muhammadamin Faxriddinovning "Rahbari soniy"(1916) singari alifbo va o'qish kitoblari, nihoyat, Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy darsliklarini birma-bir sanab o'tadi. Ularning umumiy xususiyatlari haqida esa: "Yuqorida nomlari zikr etilgan alifbo va o'qish kitoblari deyarli to'lig'icha **badiiy matnlardan** tashkil topgani sababli ularni istisnosiz, **badiiy adabiyot namunalari** sifatida ham tadqiq etish joiz",– degan mulohazani ilgari suradi. Hamchunin, bu tipdagi kitoblarning paydo bo'lishini **o'zbek bolalar adabiyotidagi haqiqiy tug'ilish**, deb hisoblaydi olim (ta'kid bizniki – O.S., B.J., N.S.).<sup>22</sup>

Bunday e'tirofni yana bir manba tasdiqlaydi: "10-yillarning boshida (1910-yillar – O.S., B.J., N.S), – deb yozadi B. Qosimov,– bema'lol aytish mumkinki, yangi adabiyot shakllanib ulgurgan edi. Bu borada 1901-yilda chop etila boshlagan Munavvarqorining "Adibi avval", "Adibi soniy", Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" (1902), Aliasqar Kalinning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", Rustambek Yusufbekovning "Ta'limi avval", "Ta'limi soniy" kabi darslik va darslik-majmualari, xususan, ulardagi ixcham didaktik she'r va hikoyalar yangi adabiyotning shakllanishida ilk tajribalar vazifasini o'tadi."<sup>23</sup>

Darhaqiqat, milliy uyg'onish harakatining o'zbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirishdagi roli ham aslida shunday darsliklar va badiiy ijod namunalari alohida o'rni bilan belgilanadi. Zero, o'zbek bolalar adabiyoti tarixini yoritishda o'tgan asr boshlarida yetishib chiqqan ko'pgina ma'rifatparvar adiblar faoliyati va ularning darsliklari muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>22</sup>Qarang: Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., "Fan", 2004.–B.27-29.

<sup>23</sup> Qarang: B.Qosimov va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T., 2004. –B.210.

**Munavvarqori Abdurashidxonov** (1878-1931). Munavvar – “nur olgan”, “nurli” degani. Bu soʻzni ziyoli oʻrnida ham qoʻllaydilar. Qori – Qurʼonni maromiga yetkazib oʻqiydigan kishilarga nisbatdir.

Munavvarqori oʻz nomiga munosib, maktab-maorif islohoti, milliy maktab yaratish, chet elga bolalarni oʻqishga yuborish, boylarning boshini qovushtirib, maorifga xizmat qildirish, turli xayriya jamgʻarmalari tuzish kabi faoliyatida ham, adib va murabbiy sifatida ham ziyo tarqatuvchi zot edi. Taʼkidlash joiz, Munavvarqori boshqa jadid adiblariga nisbatan, juda kech – 1999- yilning aprelida oqlandi. Shungacha u haqda xorijda maqolalar yozilgan, xolos. Faqat istiqloldan keyingina B.Qosimov, S.Xolboyev, S.Axmedov, I.Abdullayev, N.Avezov, N.Ergashova kabi tadqiqotchilar maqolasida adibning jadidchilik, maʼrifatparvarlik hamda pedagogik faoliyati keng oʻrganila boshlangan. Bu haqda B.Qosimov shunday yozadi: “Munavvarqori yaqin tariximizning eng yorqin shaxsiyatlaridan. U millatning uygʻonishiga yordam beradigan deyarli hamma soha bilan shugʻullandi. Lekin ulardan uchtasi ajralib turadi. Bular: maorif, matbuot, siyosiy faoliyat”<sup>24</sup>. Darhaqiqat, muallimlik uning birinchi kasbidir. Munavvarqori 1901-yilda Toshkentda birinchilardan boʻlib “usuli jadid” maktabi ochadi. Bunda uning darsliklari alohida qiymatga ega. U madrasalarda asosiy darslarni arab tilida emas, balki ona tilida olib borish, diniy saboqlar bilan birga, ijtimoiy fanlarni oʻqitish masalasini kun tartibiga qoʻyadi. Usuli jadid maktablari faoliyatini teran oʻrganib, ongda, fikrlashda, maorifda oʻzgarish yasamay turib, jaholatdan qutulib boʻlmashligini birinchilar qatori anglab yetadi. Munavvarqori madrasalarda yillar mobaynida oʻqitiladigan bilimga tez, oson va yengil olib boradigan yoʻlni topish haqida qaygʻuradi. U yangi qoʻllanmalarni, fundamental, zamonaviy pedagogika asosida kichik maktab-madrasalarni tashkil etishni xohlardi.

Munavvarqori usuli jadid maktablari uchun suv va havodek zarur boʻlgan darslik va dasturlarni ishlashga kirishadi. 1907-yilga kelib “Adibi avval” darsligini yaratdi. Oʻzbek tilining deyarli ilk alifbolaridan boʻlgan bu kitob Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” darsligi bilan oldinma-ketin bosilib chiqadi. U tez orada Turkistondagi barcha maktab oʻqituvchilari tomonidan yaxshi kutib olinadi va amaliyotga tatbiq qilinadi.

Islohotchi pedagog 1912-yilga kelib, oʻquvchilarga husnixat, jugʻrofiya, islom tarixi, turk qavmlari tarixi fanlarini oʻqita boshlaydi, maktab ostonasiga qorovul qoʻyib, ijtimoiy sohalardan saboq beradi.

Uning “Adibi avval” alifbe va “Adib us-soniy” oʻqish kitoblari darslik-majmua yoʻsinida yozilgan boʻlib, koʻplab sheʼr va ixcham hikoyalarni oʻz ichiga olganligi bilan diqqatga sazovor. Ular mavzusiga koʻra rang-barang: koʻpchiligi axloqiy-tarbiyaviy, tarixiy, ijtimoiy mavzuda boʻlib, yoʻnalishiga koʻra, ibratomuz pandlardan tashkil topgan; tili sodda, oʻqilishi qiziqarli.

Xususan, “Adib us-soniy” boshlangʻich sinf oʻquvchilariga alifbedan keyingi oʻqish kitobi ekanligi sababli bevosita kichikintoylar didi, tiliga mos, sodda usulda

---

<sup>24</sup> Bu haqda qarang: B.Qosimov. Milliy uygʻonish.Toshkent, “Maʼnaviyat”, 2002. –B 235.

yoziqlan. O'sha davr alifbo va o'qish kitoblarining o'ndan ortiq ro'yxati nazarda tutilsa, Munavvarqori darsligi kichkintoylar yosh xususiyati inobatga olinib yoziqlan dastlabki o'qish kitobi ekanligi oydinlashadi.

“Adib us-soniy”da bolalarni kindik qoni to'kilgan ona-Vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, Vatan tuprog'ini, uning benazir tabiatini to'lib-toshib kuylash ruhidagi hikoyatlar alohida o'rin egallaydi. Muhimi, bunday matnlar bolalarbop ifoda uslubiga egaligi bilan e'tiborni tortadi. “Adib us-soniy”dagi matnlarning ba'zilari mumtoz adabiyotdan davom etib kelayotgan va xalq orasida ancha mashhur rivoyatlar (“Iskandar Zulqarnayn”, “Odob”, “Iskandar ila Arastu”, “Yolg'onchilik zarari”) bo'lsa, ayrimlari rus adabiyotidan qilingan tarjimalar (“Ikki yo'ldosh”)dir. Shu bilan birga, o'qish kitobidan bolalar olami, ularning turli fe'l-atvoridan hikoya qiluvchi didaktik matnlar (“Ko'r ila do'xtir”, “Orif ila Sodiq”, “Ahmad ila onasi”) ham o'rin olgan. Darslikdagi hikoya va she'rlar, qissadan hissa tariqasida keltirilgan baytlar esa uning bolalar adabiyoti namunasi sifatida o'rganishga ham asos bo'ladi.

**Mahmudxo'ja Behbudiy** (1875-1919). Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkistonning orzu- armonlaridan biri sifatida maydonga keldi.

U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalistdir. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab davrida yashadi. Mahmudxo'ja Behbudiy 1875- yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniyl oilasida dunyoga kelgan. Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, so'ngroq Buxoroda tahsil ko'rgan. An'anaviy tahsildan so'ng o'z ustida qunt va sabot bilan ishlash orqali u qozi, mufti darajasiga ko'tariladi. Mahmudxo'ja dunyoqarashining shakllanishida esa Rusiya jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil Gasprialining xizmati katta bo'lgan.

1899-1900- yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbus va g'ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi “Halvoyi”, “Rajabamin” qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi.

Behbudiy Turkistonda jadidlar harakatining yetakchi vakillaridan biri sifatida savodsizlik, johillik, qoloqlik, madaniyatsizlikka qarshi qizg'in kurash olib bordi. Maktab maorif ishlarini rivojlantirish g'oyasini targ'ib etish Behbudiy faoliyatining tub asosini tashkil qiladi. Behbudiy Buxoroda amirlik tuzumiga ma'lum bir islohotlarni kiritish va shu bilan milliy madaniyatni rivojlantirishni istagan.

O'tgan asr boshlarida Turkiston uchun shunday oyna kerak ediki, toki undan millat o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsun. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyning teatr va matbuot sari boshladi. “Padarkush” shu tariqa maydonga keldi. Muallif “Milliy fojia” atagan 4 manzarali bu drama jaholat va

nodonlik haqida, o‘qimagan bolaning buzuq yo‘llarga kirib, o‘z otasini o‘ldirgani haqida hikoya qiladi.

Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste’dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o‘z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O‘zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko‘proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi.

Millati, Vatanining taqdiriga befarq bo‘lmagan jadidchilik harakatining rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiy ham maktab, ham madrasalardagi ta’lim tizimini, o‘qitiladigan fanlarini, darsliklarini islomiy, sharqona an’analarni saqlagan holda isloh qilish tarafdori edi. Shu maqsadda u “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar maktubi”), “Tarixi muxtasari islom” (“Islomning qisqacha tarixi”), “Amaliyoti islom”, “Madxali jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), “Muxtasari jug‘rofiyai rusiy” (“Rossiyaning qisqacha geografiyasi”) kabi oltita darslik yaratdi. Bular ilk o‘zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo‘llanma sifatida emas, til, yozuv, madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Kitobat ul-atfol” darsligida qator muammolarni ko‘tarib chiqqan va ularning yechimi bilan bog‘liq fikr - mulohazalarni bildirgan. Adib tildagi qorishqlikdan voz kechib, o‘zbek tilining hamma uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlashga harakat qilgan. Behbudiy birinchilardan bo‘lib, tilimizga punktuatsiya – tinish belgilarini olib kirdi.

“Kitobat ul-atfol”da o‘nta rumuz-tinish belgi keltirilgan. Behbudiy tinish belgilariga ularning ahamiyatini tushungan mutaxassis sifatida munosabatda bo‘ldi. Rumuzlar:

*Alomati savol – [?]*

*Alomati nido, taajjub, xitob – [!]*

*Alomati mutariza – [()]*

*Alomati mummyiza – [“”]*

*Ikki so‘zni farqqilaturgon alomat – [-]*

*Alomati murodofot, ya‘ni ikkisi bir pog‘onada – [ -]*

*Ozgina turmoq uchun – [,]*

*Bayon va tafsil uchun – [:]*

*Notamom so‘zlar, kinoya, mubham va mahzuflar alomati – [...]*

*So‘zni oxiri yoki vaqti tom alomati – [.]*

1. Nuqta [.] - yozuv belgisi sifatida qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o‘zbek tilida XIX asrning 2-yarmidan boshlab ishlatila boshlangan. Behbudiy mazkur tinish belgisini ishlatish o‘rniga ko‘ra: “So‘zni oxiri yoki vaqfi tom alomati” deb nomlagan. Haqiqatda ham ushbu belgi tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq gaplar oxirida qo‘yiladi.

2. So‘roq belgisi [?]/ning kelib chiqishini lotincha “questio”– so‘roq so‘ziga bog‘laydilar. So‘roq ma’nosida mazkur so‘zning birinchi harfi “Q” ishlatila boshlangan. Keyinchalik hozirgi belgisi holatiga kelib qolgan. O‘zbek matnlarida 1885-yildan “Turkiston viloyatining gazetisi”da uchragani, 1900- yildan muntazam

ishlatila boshlagani ayonlashadi. Mahmudxo‘ja bu tinish belgini ishlatish o‘rni, mohiyatiga ko‘ra “Alomati savol” deb nomlaydi.

3. Undov [!] belgisi o‘zbek tiliga rus tilidan o‘tgan. Mutaxassislarning fikricha, u lotincha “lo” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, unga nuqta qo‘yilishi bilan hosil bo‘lgan. Bu tinish belgisining zarurligini anglagan holda Behbudiy uning ishlatish o‘rni va mohiyatiga ko‘ra “Alomati nido, taajjub, xitob” deb nomlaydi va targ‘ib qiladi.

4. Ko‘p nuqta [...] -XIX asrning 2- yarmidan boshlab o‘zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e‘tiboran “Turkiston viloyatining gazetisi”da muntazam qo‘llangan. Behbudiy esa mazkur belgini ishlatishdan kelib chiqib “Notamom so‘zlar, kinoya, mubham va mahzuflar alomati” deb nomlaydi. Bunday nomlanish o‘quvchiga mazkur tinish belgisidan qachon, qay o‘rinda foydalanish savodini ham beradi.

5. Vergul [,] - tinish belgisi sifatida G‘arbiy Yevropada XIV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O‘zbekcha matnida XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Ma‘lumki bu tinish belgisi uyushiq bo‘laklarini, hamda qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni, qolaversa, undalma, kiritmalarni ajratish uchun ishlatiladi, mazkur tinish belgisi yarim to‘xtamni talab qiladi. Shuning uchun Behbudiy vergulni “Ozgina tinmoq uchun” deb ataydi.

6. Ikki nuqtaning [:] yozma nutqda ishlatish zaruriyatini Behbudiy to‘g‘ri aniqlagani holda “Bayon va tafsil uchun” deb nomlab, rasmiy tinish belgi sifatida e‘tirof etadi.

7. Tire [-] belgisini jahon tilshunosligiga N.M.Karamzin (XVIII asrda) kiritgan. U o‘zbek yozuviga XIX asrning 70-yillaridan “Turkestanskoye vedomosti” gazetasining ta‘sirida ishlatila boshlangan. Behbudiy mazkur belgini “Ikki so‘zni farq qilaturg‘on alomat” deb ataydi. O‘rni kelganda ta‘kidlash lozimki, bu tinish belgi Behbudiy ta‘kidlaganidek, faqat ikki so‘zni farq qilishda ishlatilish bilan cheklanmay, dialogik nutqda, ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda, qolaversa, uyushiq bo‘laklar va umumlashtiruvchi so‘zlar o‘rtasida ishlatiladi.

8. Qavs [()]o‘zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab, aniqrog‘i, 1873-yildan “Turkiston viloyatining gazetisi”da ishlatilgan. Behbudiy bu belgini “Alomati mu‘tariza” deb amaliyotga rasmiy tinish belgisi sifatida targ‘ib qila boshlagan.

9. Behbudiy “Alomati mummyza” deb nomlagan qo‘shirnoq belgisini [“”] amaliyotga rus olimi professor A.A.Borsov kiritgan. O‘zbek yozuvida esa, u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi.

Mana shu kabi muammolarning ildizini anglagan Behbudiy “Kitobat ul-atfol”ni yaratdiki, maktab yoshidagi o‘quvchilarning hujjatilik bilan tanishuvlari, bunda eski, tushunarsiz, an‘anaviy usul va yo‘llardan voz kechib, yangi uslub va tahrirdagi hujjatlarni yozishni o‘rganishlarini tavsiya qiladi.

Darslikdagi bu maqsad keyinchalik badiiy matn va she‘rlarni ifodali o‘qish, his-tuyg‘uni ta‘sirchan ifoda etish yo‘lida alohida xizmat qilgani diqqatga sazovor.

**Sadriddin Ayniy** (1878-1954). Ustod Sadriddin Ayniy bolalar uchun ijod etishga ma'rifatparvarlik faoliyati boshlab kelgan edi. U zullisonayn (ikki til egasi) adib sifatida ma'lum va mashhur. Sadriddiy Ayniy ham jadid ma'rifatchilik harakatining yorqin namoyandalaridan biri bo'lib maydonga chiqqan. Adib vatandoshlarini uyg'otishning yagona yo'li – ularni o'qish va o'qitishga jalb qilish, deb tushundi; o'zi eski maktab va madrasalarda uzoq yillar tahsil ko'rgani, uning barcha mashaqqatlarini anglab yetganligi sababli usuli jadid maktablari haqida ko'proq bilishga intiladi.

1903-yilda Samarqandga borib, Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi bilan tashkil etilib, o'sha davrda do'ruq yoygan Abdulqodir Shakuriyning "usuli jadidiya" maktabini ko'radi, undagi o'qish va o'qitish jarayonlari bilan tanishadi. U yerda va Buxoroda o'zi ko'rgan tatarcha maktablar tajribasiga asoslanib, do'sti Abdulvohid Munzim bilan hamkorlikda 1908-yilda shunday maktab ochishga muvaffaq bo'ldi.

Ayni choqda Ismoil Gaspiralinig "Xo'jayi sibyon" ("Bolalar muallimi") va Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat ut-atfol" ("Bolalar kitobi") darsliklaridan ilhomlanib, shuningdek, "Chor kitob" hamda Shayx Sa'diyning "Guliston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarlariga xos an'analardan ijodiy foydalanib, 1910-yilda "Tahzib us-sibyon" ("Yoshlar tarbiyasi") darsligini yaratadi. Muallifning e'tiroficha, "bu adabiy kitob xarakterida bo'lib, bolalarni xiyla zavqlantirar edi". Darslik o'qituvchiga metodik maslahat beruvchi ("Ogoh etish") uqtirishi bilan boshlanib, dastavval "Tarbiyali bola" sarlavhali didaktik maqola berilgan. So'ngra, shu didaktik maqoladagi fikrlar "Hikoyat", "Odobli bola", "Ota-ona" va "Savol-javob" sarlavhali maqolalarda rivojlantirilgan. Chunonchi, "Hikoyat"da Yo'ldosh ismli o'quvchining yolg'onchiligi, har gal qalamini o'zi sindirib, boshqa biror safdoshi boshiga qo'yib, uni gunohkorga chiqarish bilan shug'ullanishi, har qancha nasihat qilinsa-da, qulog'iga olmagani, baribir yolg'on tuhmat qilishdan toymay, oxiri safdoshlari muallim va mudarris bo'lib yetishganlari holda u hammol va mardikor bo'lib yashashga mahkum bo'lgani bayon qilingan.

"Odobli bola" didaktik maqolasida odob va odoblilik qoidalari tushuntirilsa, "Ota-ona" didaktik maqolasida farzandning ota-ona oldidagi burch va mas'uliyati haqida so'zlanadi. So'ngra, "Savol" sarlavhasi ostida she'riy topishmoq berilib, uning birinchi bandida ona fazilatlari, ikkinchi bandida ota fazilatlari jumboqlanib, o'sha fazilatlar tafsilotiga ko'ra jumboqlarni yechish o'quvchi zimmasiga yuklanadi. Jumboqlanish esa mumtoz she'riyatdagi chistongo'ylik an'analari asosida voqe bo'lib, shu xususiyati bilan bolalarni qiziqtiradi, o'ylashga majbur qiladi. Bola mustaqil fikr qila turib, chistonda onaga xos fazilatlar jumboqlanganini anglab yetadi va uning javobi ona ekanligini aniq topadi. Shu tariqa, bola tarbiyasida ota-ona va maktab hamkorligi masalasi alohida ta'kidlanadi. Muallif "Ustoz–muallim" rukniga mansub "Maktab", "Savol-javob", "Marhamatli Ahmadjon", "Maktab qoidasi haqida hikoyat", "Maktab vasfiga oid masnaviy", "Maktab qanday bo'lishi kerak?", "To'g'rig'o'y va o'g'ri bola", "Tosh hikoyati", "Aqlli odam va baland baxt egasi", "Badbaxt odam", "Arabbek va

ukalari hikoyati”, “Arabbek chorbog‘i”, “Aqlli bola”, “Esli bola”, “Hikoyat”, “Muallim va shogird hikoyati” va “Hikoyat” singari didaktik maqolalar va she‘rlarda bu muddaoni oydinlashtiradi.

S.Ayniy tojik va o‘zbek maktablari uchun talay alifbe, o‘qish kitoblarini tartib berdi. Jumladan, “Qiz bola yoki Xolida” (1922), birinchi sinf uchun “Soli naxustin” (“To‘ng‘ich yil”, 1924), “Tojik alifbesi” (1927), “Qiroat kitobi” (1930), Ismoilzoda, Payrav Sulaymoniy va Rahim Hoshimlar bilan hamkorlikda birinchi bosqich maktablar va texnikumlar uchun “5 dar 4” qiroat kitoblarini (1931) tartib berdi.

Bu darsliklar orasida “Qiz bola yoki Xolida” qizlar maktabiga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘zbek tilida yozilganligi bilan ajralib turadi. Bu axloqiy-adabiy asar adibning yangi zamon maktablari uchun tuzgan birinchi darsligi edi.

“Qiz bola yoki Xolida” o‘ttiz darsga mo‘ljallangan. Har bir dars materiali o‘ziga xos adabiy-axloqiy lavha shaklidir. Ularda nazariy bilimning amaliyot bilan aloqadorligi, mehnatning foydasi va mehnatsevarlik, xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va boshqa qator masalalar to‘g‘risida bahs yuritilib, muallif ular talqini jarayonida Xolida shaxsining kamol topishini ko‘rsatishga harakat qiladi.

Asarning asosiy qahramoni – Xolida. Darslikdagi 16 lavhada bevosita uning xulq-atvori, ishlari va boshqalarga munosabati haqida gapirilsa, 10 lavhasida o‘qishi va tarbiyasi xususida to‘xtalgan. Umuman, Xolida oilada, maktabda va tabiat qo‘ynidagi faoliyat jarayonida ko‘rsatilib, inson shaxsi shakllanishida bu uch omilning ta‘siri badiiy tarzda gavdalantiriladi.

Darslik qizlar maktabida o‘qishga mo‘ljallanganligi bois, dastlabki uch lavhasida qizlarning jamiyatdagi o‘rnini ifodalovchi umumlashtiruvchi saboq beriladi: “Qiz bola ota-onaning eng sevukli bir mevasidur.

Qiz bola ota-onaning qayg‘ulik chog‘larinda eng mehribon bir sirdoshidir.

Qiz bola qavmu qarindoshlarining obro‘yi va nomuslaridir.

Qiz bola uyning ziynati va xonadonning davlatidir.

Qiz bola yurtning bog‘i va butun el-u ulusning chirog‘idir...<sup>25</sup>

Ayniy odobli bo‘lmoq yaxshi bo‘lmoqning bosh sharti ekanligini 2- va 3-darslarda o‘rganiladigan “Adabli qiz bola” va “Yaxshi qiz bola” lavhalarida tushuntirib o‘tgach, keyingi darslarga mo‘ljallangan lavhalarda Xolidani harakatga soladi. Olti yashar Xolida ota-onasining yakka-yu yagona qizi bo‘lganidan bir qadar taniq, injiqroq va o‘zgalarni nazarga ilmaydigan bir qiyofada kitobxonga ilk bor tanishtiriladi: “Xolida qabatma-qabat kiyimlarni kiyib, halqa va uzuklarni taqib, yasanib yurar va boshqa qizlarni nazari ilmas edi. Chunki odamning odamligi kiyim bilan deb gumon qilar edi”(10-b). U ilk bor oddiy mashkobning qizi Fotima bilan to‘qnashib, asl haqiqatni anglab olishga muyassar bo‘ladi. Xolidada o‘qishga, ilm olishga havas uyg‘onadi, mehnatsevarlik, insondo‘stlik fazilatlarini shakllana boradi. “Xolida xat va savoddan bo‘lak narsani istamaydur”, “Xolida maktabga boradir”, “Xolida shohi va baxmal kiyimlarini sug‘urib tashlaydir”, “Xolida qo‘l ishlarini o‘rganadur”, “Xolida tikish tikadur”, “Xolida

<sup>25</sup> Ayniy S. Qiz bola yoki Xolida. Toshkent. 1964. 9-bet

Qunduzni o‘limdan qutqaradur” va boshqa qator lavhalarda Xolidaning inson sifatida shakllanishi ko‘rsatilgan. Har bir lavhada turli mavzudagi suhbatlar yo muallimaxonimning shogirdlariga o‘giti, yo Xolidaning mulohazalari, yoki Xolida haqidagi hikoyalar tarzida berib boriladi. Masalan, “Sog‘liqni saqlamoq kerak” sarlavhali lavhada o‘qiyimiz: “Muallimaxonim o‘z shogirdlarining ilmlarini ko‘paytirishga va axloqlarini tuzatishga qancha g‘ayrat ko‘rsatsa, alarning sog‘liqlarini saqlashga ham o‘shancha harakat qilar edi. Bu to‘grida aytar edi: “Qizlarim! Odam bolasi kasal bo‘lg‘andan keyin, ko‘p azoblar chekar, tabibga borar, bir talay jamalg‘a tortar, ota-onasini, og‘a-inisini, qavmi-qarindoshlarini qayg‘uga solar, shuning ila barobar yo sog‘ayur, yoki yoshlik chog‘inda o‘lub ketar. Shuncha azob va uqubatlardan qutulishning birdan bir yo‘li: sog‘liqni saqlashdir”(18-bet.) Yoki, “Mashhur xotinlar” lavhasida shunday hikoya qilinadi: “Bir kuni Xolidaning otasi bozordan yangi bosilib chiqqan “Mashhur xotinlar” otli kitobni keltirdi. Xolida ushbu kitobni bir-ikki qatla diqqat bilan o‘qib chiqdi. Ushbu kitobda yozilg‘an xabarlara ko‘ra Islom dunyosida ancha mashhur xotinlar o‘tgan ekanliklari, she‘r aytg‘onlar sakson to‘rt nafar, mudarris bo‘lib dars aytg‘onlar yigirma to‘rt nafar, xalqqa va‘z so‘ylab, xalqni to‘g‘ri yo‘lg‘a undab yurg‘anlar yigirma sakkiz nafar ekan...” (21-bet.)

“Qiz bola yoki Xolida” asarini shu fazilatlariga ko‘ra professor I.Braginskiy povest deb ataydi va hatto uni adibning “Tahsib us-sibyon”idagi “Xonadoni xushbaxt” hikoyasining mantiqiy davomi sanaydi. Adabiyotshunos P.Shermuhamedov esa bu darslik haqida: “S.Ayniyning bu lavhalarini badiiy asar deyish mumkin emas, chunki bu yerda bolalar xarakteri hayotiy to‘qnashuvlar, ruhiy holatlar orqali ochilmaydi, faqat maqola uslubida avtorning qarashlari bayon qilinadi, xolos”,– deb ta‘kidlaydi.<sup>26</sup> Rost, “Qiz bola yoki Xolida” avvalo, darslik tarzida yozilgan. Unga badiiy jihatdan mukammal qissa talabidan yondashib bo‘lmaydi. Qolaversa, yangi o‘zbek adabiyotining ilk namunalari, qissa va hikoyalari ham shu kabi didaktik ifodalar, bayon uslubiga xos bo‘lgan. Darslikning bolalar uchun mo‘ljallanganligi nazarda tutilsa, bu tabiiy. Ammo shunisi muhimki, bolalar adabiyoti shu qolipda qolib ketmadi. Badiiy, janriy ko‘lamiga ko‘ra o‘zining mustaqil o‘zanlarini topa bordi. Binobarin, “Qiz bola yoki Xolida” bolalar nasrining shakllanishi va rivojlanishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

20-asrning 30-yillaridagi bolalar adabiyotiga nazar solinsa, ijod ahlining maktabga ijodiy munosabati birmuncha jonlanganligini kuzatish mumkin. Buning sababini sho‘rolarning maktabni qayta qurish, umumiy majburiy boshlang‘ich ta‘limga o‘tish, savodsizlikni ommaviy ravishda tugatishga qaratilgan siyosati bilan izohlash mumkin. Aftidan, xuddi shu holat Ayniyga eski maktabdagi o‘qitish jarayonini eslatgan ko‘rinadi. Va u 1933-yilda “Eski maktab” avtobiografik qissasini yozdi. Dastlab tojik tilida bitilgan bu qissa 1935-yilda alohida kitob shaklida bosildi, so‘ngra, qayta-qayta nashr etilib, maktab darsliklariga kiritildi.

---

<sup>26</sup> Qarang: O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. T.: “Fan”, 1989. –B.33.



Ayniy bu asarini 1938-yilda o‘zbek tilida qayta ijod qildi. Hozirga qadar uning o‘zbekcha nusxasi o‘n martadan ziyod qayta nashr etildi.

Asar o‘tmishdagi eski maktablarda amal qilingan ta’lim va tarbiya tizimining mohiyatini badiiy obrazlarda gavdalandirib, sarguzasht shaklida – avtobiografik yo‘sinda ifodalab berdi. Zero, uning o‘zi eski maktabning barcha achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan edi. Shu sababli qissa markazida uning o‘z obrazi turadi. “Eski maktab” qisasida o‘tmishdagi diniy maktab hayotining haqqoniy tasvirini yaratib bergan. Asarda yosh Sadridinning hayoti aks etadi. Bu avtobiografik qissada eski usuldagi maktabda berilgan ta’limning qoloqligi va tan jazosidan bolalarning azoblanishi; domlanning layoqatsizligi va qo‘polligi, shogirdlarning befoyda o‘yin va mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishlarini tasvirlab, muallif o‘tmishda bolalik davrining befoyda va zerikarli o‘tganidan afsuslanadi.

Eski maktablarda bolalar turli yasharligidan boshlab qatnashishi mumkin bo‘lgan. Sadridin ham maktabga to‘rt yasharligidan qatnay boshlagan. Lekin otanasini uning maktabda qiynalayotganini ko‘rib, to olti yoshigacha maktabga uzatmaydilar. Eski maktabxonalar uy xonalari kabi yorug‘ va tinch bo‘lmay, torgina bir xonadan (hujradan) iborat bo‘lgan. Ularga tuynuklardan ozgina yorug‘lik kirib turgan, xolos. Shu torgina, xira xonada uch yuz uylik Sokter qishlog‘ining to‘rt yashardan o‘n ikki yashargacha bo‘lgan barcha bolalari saboq olishgan. Undan tashqari, Sokter xo‘jalar qishlog‘i bo‘lgani uchun “Tabarruk” qishloq hisoblanganidan, atrof qishloqlardagi ba’zi “ixlosmandlar” ham o‘z bolalarini bu maktabga yuborganlar. Maktabxonada bolalar Ayniy ta’biri bilan aytganda “amir zindonda qamalgan bandilar kabi” bir-birovlarini bosib, tiqilib, qiynalib tahsil olishgan.

Eski maktablarning sharoitini real aks ettiruvchi bu tasvirni o‘qigan hozirgi yoshlar beixtiyor o‘zlariga o‘qish, bilim olish uchun yaratilgan qulay imkoniyatlar, yorug‘ va keng sinf xonalari, turli xil darsliklar, o‘tirishga mo‘ljallangan o‘rindiq, doska eng muhimi, ularning barchasi bepul tashkil qilinganligini ko‘z oldilariga keltirishlari va bundan ta’sirlanishlari tabiiy.

Ushbu kitobni o‘qigan o‘quvchi o‘z davri maktablarini beixtiyor qissada tasvirlangan maktabga qiyos qilar ekan, istiqloq davri yoshlariga uning barkamol avlod bo‘lib ulg‘ayishi uchun beqiyos imkoniyatlar yaratib berilganini yanada chuqurroq his etadi. O‘z Vatani bilan faxrlanish, ozod va mustaqil, farovon va baxtiyor hayotdan minnatdorchilik hissi ortadi.

Serqirra faoliyat sohibi bo‘lgan Sadridin Ayniy faoliyatida pedagoglik ham o‘ziga xos o‘rin tutgani bois, u o‘z davrining maktab va madrasalari hayotiga alohida qiziqish bilan qaradi hamda ular haqida ko‘rgan-kechirganlarini “Eski maktab”, “Esdaliklar” singari asarlarida alohida tasvirlab ko‘rsatdi.

“Ko‘p asrlik o‘zbek adabiyoti tarixida, – deb yozadi professor N.Karimov,– XX asr adabiyoti alohida ahamiyatga ega. Milliy uyg‘onish adabiyoti yoki jadid adabiyoti atamalari bilan tilga olinib kelayotgan bu davr, avvalo, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon singari o‘lmas ijodkorlarning nomlari bilan bog‘liq. Bu ulug‘ zotlar, birinchi navbatda, shoir yoki yozuvchi

bo'lganlari holda XIX asr oxiri, XX asr boshlarida vujudga kelgan yangi ta'lim tizimi, milliy matbuot va teatr san'atiga ham asos soldilar”.

Darhaqiqat, olim yuqorida zikr etgan allomalar serqirra adib, islohotchi ma'rifatparvar, ta'bir joiz bo'lsa, o'zbek bolalar adabiyoti uchun ham hissa qo'shgan ilg'or ziyolilar edilar. Jumladan, **Abdurauf Fitrat** (1886-1938) siyomosida nafaqat yangi o'zbek adabiyoti asoschilaridan biri, dramaturg, shoir, nosir, balki, zabardast olim va fidoyi pedagog, yoshlar rahnamosini ko'rish mumkin. U 1913-yilda Istanbuldan Buxoroga maorif homiysi, ma'rifiy g'oyalari bilan qaytib keladi. Biroq o'z maqsadlarini bu davrda mutaassiblik avj olgan Buxoroda amalga oshirilmagach, Shahrisabz va Karkida yangi maktablar ochish bilan shug'ullanadi. Ayni paytda, yangi maktablar uchun darsliklar ham yozadi. Fitratning 1917- yilda tartib bergan “O'qu” (Boku) darsligi ibtidoiy maktablarning so'ng sinfi uchun mo'ljallangan. Unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, qiziqishlari inobatga olinib, talay lavhalar, mashq(tamrin), ibratomuz hikoyat va savol-javoblar berilgan. Ba'zi matnlar esa badiiy-tasviriy jihatdan ahmiyatga esga. Aytaylik, darslikdagi “Yurtimiz, Arslon bilan Botir” sarlavhali matnida obrazli vositalar yuksak mahorat bilan go'zal va ta'sirli bayon etilgan. Bunda sharqliklarga xos odob-axloq belgilari badiiy talqin etiladi; unda hikoyaga xos tasviriy detallar talaygina. Xususan, muallif poklikka yo'g'rilgan tongning bolalar qalbida farahbaxsh tuyg'u uyg'otishi, Arslon va Botirning yarim kechadan buyon dalada qo'sh haydayotgan “sevukli otalari Hasan boboga salom berib, qo'lini o'pib, duosini olib kelish uchun” o'tlanishlarini, bunda ota-o'g'il munosabati, ularning bir-birlari oldidagi burch va mas'uliyat milliy qadriyat tarzida ulug'lanishini tasviriy ifodalarda bayon etadi: “Hasan bobo ham endigina namoz o'qib bo'lib, qiblaga qarab, bolalarining haqiga duo qilayotgan edi. Ikkigina ho'kizi boboning duosiga omin, deya turgan kabi yonida boshlarini egib turgan edilar” tarzidagi voqelik bayoni ota duosining ulug'ligini obrazli ifodalayotir. Fitrat bolalarga mo'ljallangan mazkur hikoyasida kundalik voqealar, dolzarb mulohazalarni ham xalq ertaklariga monand obrazli bayon etishga erishadi. Aka-ukalar otalarining duosini olgach, uyga qaytayotib, o'ng qo'ldan “Voy, tangrim!” degan tovushni eshitib to'xtaydilar. Qarasalar, “Qurigan yog'ochning ko'lankasida, yirtiq bir choponni yuzlarigacha tortib o'tirgan va ehtimolki, qattiq bir isitma tutgan bir xotin”ga ko'zlari tushadi. Ramzlardan iborat bu detallarga, chunonchi, “qurigan yog'och”– qulatilishga mahkum etilgan mustabid tuzum; “ko'lanka” – millatning erkli turmushiga soya tashlagan ijtimoiy tuzum; “yirtiq chopon”– mazlum o'lka qiyofasi; “isitmali xotin” – dardchil Turkiston timsoli ekanligiga, harqalay, bolalarning idroki hali yetmasligi ayon. Shu sababli muallif bolalar tabiatiga xos ketma-ket savol berish detalidan foydalanib, mavzu mohiyatini oydinlashtirishga erishadi. Botir va Arslonning: “Onajon! Nima bo'ldi sizga?”; “Biron o'g'lingiz yo qizingiz yo'qmidimikim, kelib qo'lingizdan tutib, holingizni so'rsin?”; “Qanday tosh yurakli ekan ular?” kabi so'roqlariga javoban “ayol”ning: “Men butun O'zbekistonning, chig'atoylarning onalari erurman, o'tim Turkistondur”,– deyishi yozuvchi badiiy niyatini oydinlashtirishga xizmat qilgan. Millat yoshlarining ilmsizliklari va

jaholat oqibatida “ona”ning shunday ahvolga tushganini anglab yetgan o‘g‘lonlar yaxshi o‘qishga bel bog‘laydilar. Shu ma’nodan Arslon va Botir obrazlarini ham ramziy ma’no tashishi anglashiladi. Zotan, Abdurauf Fitrat o‘z kelayotgan yosh avlodga o‘z yurti, mamlakatini mustamlakadan qutqarish, dardiga darmon bo‘lishlarini shu tarzda uqtiradi.

Yetuk satirik va tarixiy romannavis adib **Abdulla Qodiriy** (1894-1938) ham o‘z davrida bolalar hayotini aks ettiruvchi hikoyalar yozgan. Uning Julqunboy taxallusi bilan yozilgan “Tayoq maktabi”da yangi maktabning afzalligi, uning bolalar tarbiyasida tutgan roli, eski maktabning qiyinchiliklari bolalar tili orqali qiziqarli tasvirlansa, “Uloqda” hikoyasining qahramoni o‘n ikki yasharli Turg‘un chavandozdir. Hikoyadagi yosh Turg‘un ta’rifi, bolalik zavqi, uning yangi kiyim kiygandagi quvonch va g‘ururi tabiiy tasviri bilan e’tiborni tortadi. Shuningdek, xalq orasida keng tarqalgan uloq o‘yinining yetuk chavandoz darajasi o‘smir Turg‘un his-tuyg‘ulari, ruhiy olami, sevinchu shodligi orqali ifodalanishi voqea tasviri emas, ruhiyat va xarakter holati tasviri ustuvorligiga ko‘ra XX asr boshlaridagi o‘zbek hikoyachiligidagina emas, bolalar nasrida ham jiddiy yutuq, deyishga asos bo‘ladi. Adibning “Jinlar bazmi” asari ham bola tilidan hikoya qilingan. Unda bolalarcha qo‘rquv hissiyotlari, tuyg‘ulari real aks etgan.

“Ushbu hikoyani necha bor o‘qib chiqmaylik,— deb yozadi adabiyotshunos S.Mirvaliyev,— hamisha yoshlikning qandaydir asov to‘lqinlari bilan qayta-qayta uchrashgandek bo‘lamiz; ...xususan, asar qahramoni holatlari biz boshimizdan kechirgan hayot – turmush manzaralaridek jonli, ishonarli va tabiiy, ayni chog‘da jozibali”.<sup>27</sup> Darvoqe, aynan bolalikdagina barcha sirli tilsimlar, ajoyibotlar olami, g‘aroyib voqealar haqiqiy tuyuladi. “Jinlar bazmi”ning dastlab, bolalarga alohida zavq bag‘ishlashi, fantastik ertaklarga xos qiziqarliligi ham shundan. Agar hikoyada yoshgina murg‘ak bola tasavvuri teran aks etmasa, ehtimol, uning ta’sirchanligi ham bu qadar tabiiy chiqmas edi. O‘quvchi ko‘proq hikoyachi (O‘sarqul) emas, bu voqeani tinglagan (“Otam bu hikoyani boshlagan vaqtda mening vujudimni qo‘rquv o‘rab olar edi-da, ichimdan “Meni ham shunday jinlarga yo‘liqtirma”— deb tangriga yolvorib qo‘yar edim”) bola holatini yorqin ko‘radi, qo‘rquvdan titrayotgan, rangi oqarib, ko‘rpa ostiga bekinib olgan bolakay ahvolini his qiladi. Yozuvchi ushbu voqea tafsilotlarini shu qadar teran, yorqin bo‘yoqlarda chizadiki, chindan ham o‘sha kichkintoy bola yosh Abdulla obrazini, ruhiyatini aks ettirganday tuyuladi. Shu sababli, “Menga qolsa,—deb ta’kidlagan edi S.Mirvaliev bu asar haqida— uni avtobiografik hikoya ham derdim”. Olim muallif tasvirlagan joy – bog‘-ishkomlar, ovloq jin ko‘chalar, pastqam dala hovlilarni adib yoshligida yashagan uyga o‘xshatadi. Demak, bu ham yozuvchi tasvirining aniqligi, ishonarliligi va ayni paytda bolalik xotiralarining uyg‘oqligi dalolatidir. Binobarin, adabiyotshunos P.Shermuhamedov ham “Uloqda” va “Jinlar bazmi” hikoyalarining bolalar adabiyoti taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilganini o‘rinli e’tirof etadi.

---

<sup>27</sup> Mirvaliyev S. Abdulla Qodiriy. Toshkent, “Fan”, 2004. –B.53

Binobarin, XX asrning birinchi choragini tom ma'noda, o'zbek bolalar adabiyoti va adabiyotshunosligi shakllanib, yosh nihol singari bo'y cho'za boshlagan davr, deb aytishga asos bor. Ayni paytda uning tadrijiy taraqqiyotida **bir tomondan** ma'rifatparvarlik g'oyalari zamirida paydo bo'lgan milliy uyg'onish va jadidchilik harakati, **ikkinchidan** uzoq asrlik mumtoz adabiyoti an'alarining qayta tiklanishi, **uchinchidan**, rus bolalar adabiyotida kattalar yozuvchisi sifatida tanilgan M.Gor'kiy, M.Mayakovskiy, A.Tolstoy, A.Bryusov, A.Benua, I.Repin singari san'at arboblarning bolalar uchun yozgan asarlarining o'zbek bolalar adabiyotiga qilingan tarjimalar ta'sirida, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, S.Ayniy, Elbek kabi adiblarning bolalarbop hikoya, qissa va darsliklar yaratishi, **to'rtinchidan**, ilk o'qish kitoblaridagi she'r, hikoya, masal kabi janrlarning vujudga kelgani, shuningdek, bolalar *dramaturgiyasi*, *publitsistika va adabiyotshunosligi* kabi alohida-alohida tarmoqlari qaror topa boshlagani muhim omil bo'la olgan. Ta'kidlangan ijod yo'nalishlari keyinchalik har biri mustaqil adabiy sohalar sifatida taraqqiy etgan bo'lsa-da, ularning barchasi avvalo, bolalarga bag'ishlangan va ular haqidagi ijod namunasi ekanligiga ko'ra yaxlitdir.

Bu davr **o'zbek bolalar dramaturgiyasining** shakllana boshlagani ham alohida ta'kidga loyiq. G'ulom Zafariyning 20-yillarda ijod etgan bir pardali yoki bir ko'rinishli pyesalari bolalar dramaturgiyasining **ilk qadami** sifatida qayd etiladi. Bu haqda M.Olimova, B.Imomov kabi adabiyotshunos olimlarning e'tirofi diqqatga sazovor: "U 20-yillarning dastlabki kunlaridan boshlab,— deb yozadi tadqiqotchilar G'.Zafariy haqida,— bolalar uchun kichik-kichik sahna asarlari yaratishga kirishdi. Adib ularda xalqchil kuy-ko'shiqlardan, bolalar olamida tarqalgan o'yin usullaridan mo'l-ko'l foydalandi. Bolalarning farahli tabiat quchog'ida shod-xurram yashashlarini sahnaviy usullar yordamida jonlantirdi".<sup>28</sup> Jumladan, G'ulom Zafariyning dastlabki pyesalaridan biri "Tilak"dir. (1922) u bolalarni ilm olishga, o'zaro do'stona yashash, birodarlik, zamonaga munosib ma'rifatli bo'lishga da'vat etadi. Muallif asar qahramoni Murodning o'y-fikrlarini ochishda, uni individuallashtirishda sirli-romantik usullarni qo'llab, sahnaviylikka, ta'sirchanlikka erishgan. Umuman, o'zbek bolalar dramaturgiyasining 1920-80-yillardagi namunalari, ularning ayrim xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. G'.Zafariyning 1915-1926-yillarda yozgan "Bahor", "Binafsha", "Quyvon", "Rahimli shogird", "Mozorlikda", "Erk bolalari", "Tatimboy ota" singari bir pardali "operetta"lari bolalar va yoshlar hayotidan olingan bo'lib, ular o'zbek adabiyoti tarixida bolalar musiqali dramasiyning dastlabki namunalari ekanligini professor N.Karimov ham alohida ta'kidlaydi.<sup>29</sup>

Ta'bir joiz bo'lsa, bu jihatlar o'zbek bolalar adabiyoti hodisasining to'la-to'kis qaror topganligi va uning turli tarmoqlari ham ko'zga tashlanayotganidan dalolat edi. Shu ma'noda, bolalar adabiyotining mavjud ahvoli va uning oldida turgan zarur vazifalarning o'sha davr matbuotida muhokama etilishi (bu yuqorida

<sup>28</sup> Bu haqda qarang: B.Imomov, Q.Jo'rayev, H.Hakimova. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1995. —B. 205.

<sup>29</sup> Qarang: Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent, "O'zbekiston", 2008. —B.167.

zikr etilgan edi– O.S., B.J., N.S) o‘z navbatida, **bolalar adabiy tanqidchiligini** ham boshlab berdi.

“Eng nozik, eng qiyin nuqtalardan biri,— deb yozadi Sirojiiy o‘zining bir maqolasida,— bu haqda bolalarning tushunchalariga, ko‘rishlariga, yoshlariga qarab va bolalar tili bilan anglata olmoqdir... buning uchun bolalarga asar yozadiganlar, avvalo, haqiqiy bolalik davrini o‘tkazib, u davrdan qolgan jonli sezgilarni tinglamakka majburlar; ikkinchidan, bolalar ruhiyati bilan yaqindan tanish bo‘lishi, ya’ni, tarbiyachi bo‘lish shartdir”.<sup>30</sup> Yoki, Abdurahmon Sa‘diyning fikrlarida ham o‘sha davr adabiyotshunosligidagi dolzarb muammo ilgari surilgan: “Bolalarning o‘z turmushlari, o‘z tillari, o‘z erklari, o‘z qiziquvlari bordir,— deb yozadi muallif. – Bularning ruhi ham kattalarnikidan farq qiladi. Ularning adabiyotlari ham shunga muvofiq bo‘lishi kerak”.<sup>31</sup> Ijodkor tanlagan uslub asar tilining yoqimli, ta’sirchan chiqishiga qarab baholanishi, bolalarbop asarlarda fikrni bola tafakkuriga muvofiqlashtirib, sodda ifodalash ularning o‘ziga xos uslubini belgilashi haqida adabiyotshunos H.Yoqubov ham to‘xtalaib o‘tgan. Olimning ta’kidicha, g‘oyaviy boylik va murakkablik, aniq va tugal fabula, ritmik harakatni sodda ifodalagan, mayin yumorni ishlata bilgan tilnigina bola tili, deb qayd etish mumkin.<sup>32</sup>

XX asr boshlaridagi o‘zbek bolalar adabiyotining maydonga kelishi, ravnaq topishida davr ijtimoiy muhitining ta’siri ham katta bo‘lgan. B.Qosimov ta’biri bilan aytganda, zamon yangilanish zamoni edi. Millat yashamoqchi bo‘lsa, hamma narsani—maktab-maorifdan jamiyat idora tuzumigacha yangilamog‘i, o‘zgartirmog‘i lozim bir davrda o‘zbek bolalar matbuoti, adabiyotiga ham asos solingani oydinlashadi. Tezkorlik bilan yangi avlod tarbiyasiga kirishmoqning yagona yo‘li sifatida ularga mo‘ljallangan matbuot va adabiyotga ehtiyoj katta bo‘lgan. Shu tariqa, ma’rifatparvar pedagoglarning darsliklari, yetuk adiblarning bolalarga bag‘ishlangan didaktik hikoyalardan **bolalarga mo‘ljallangan maxsus adabiyot** sari jadal qadam tashlandi. Natijada Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ijodkorlar eng avval bolalar shoiri sifatida tanildilar.



**Abdulla Avloniy - islohotchi pedagog  
va bolalar shoiri  
(1878-1934)**

*Har g‘amning poyoni bordir, har alamning oxiri,  
Har zimistonning bahori, har xazonning oxiri.*

<sup>30</sup>Qarang: O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. T.: “Fan”, 1989. –B.

<sup>31</sup>O‘sha joy

<sup>32</sup>Yoqubov H. Bolalar adabiyoti sifatini ko‘taraylik. // Sovet adabiyoti. - 1936. - № 6. – B. 15.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi o‘zbek milliy madaniyatining atoqli ma’rifatparvarlaridan biri Abdulla Avloniydir. Adib hayoti va ijodi sho‘ro davrida izchil o‘rganilmadi. Istiqloq yillaridagina uning serqirra ijodi va faoliyatiga xolis baho berildi. Natijada, Abdulla Avloniy ma’rifatpar shoir va adib, islohotchi pedagog, dramaturg, o‘zbek matbuoti inkishofi, jadidchilik harakati namoyandasi, davlat va jamoat arbobi sifatida qayta tanildi. Bunda, soha tadqiqotchilari, xususan, B.Qosimov, N.Karimov, R.Barakayev kabi olimlarning hissasi kattadir.

**Addulla Avloniy** arab va fors tillarini yoshlikdagi mustaqil mutolaa vaqtida egallagan. U matbuot ishlarida faol ishtirok etish bilan birga “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” nomli to‘rt qismdan iborat to‘plamning birinchi kitobini “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” deb nomlaydi. A.Avloniyning darsliklari mundariyasi, ularning mazmuni, ta’lim-tarbiyaviy jihatlari ko‘plab tadqiqotlarda tilga olingan. Uning bolalar adabiyotiga qo‘shgan benazir xizmati esa o‘sha darsliklardagi she’rlari, hikoyalari, matn va masallarining bolalarbopligidadir.

Jumladan, shoirning “Ikkinchi muallim”dagi “Maktabga da’vat” she’rida muallif bevosita yosh kitobxonga murojaat qiladi:

Boqdi gunash panjaradan bizlara,  
Yotma deyr barcha o‘g‘il qizlara.  
Nolayi faryod qilib barcha qush:  
Maktabingiz vaqti, deyr sizlara.  
Boshladi har kim o‘z ishin ishlara,  
Siz-da turing, maktabingiz izlara.  
Siz-da kitoblarni oling shavq ila,  
Tez yuguring, ilm yo‘lin gezlara.

She’rda tong otishi, uyqudan uyg‘onish vaqti yetganligi o‘z ma’nosidan tashqari, ramziy ma’no ham tashiydi. Avvalo, erta tong quyoshi shiringina uxlab yotgan kichkintoy o‘g‘il-qizlarni nurlari bilan erkalab uyg‘otarkan, ularni tong qushlari–chug‘urchuqlar, bolari-yu buzoqlardan andaza olishga, ularning kundalik “mashg‘ulot”lari bor bo‘lgani kabi o‘quvchilar ham kitob-daftarini qo‘lga olib, ilm yo‘lini izlashga borishlari lozimligi uqdiriladi. Shuningdek, she’r mazmunidan gunash-quyosh hurlik va ozodlik ramzi, uyqu esa jaholat, g‘aflat timsoli bo‘lib, bolalar uyg‘onishga, o‘zligini anglashga da’vat etilayotir, degan ma’no ham anglashiladi. Shu sababli shoirning “Ikkinchi muallim” darsligidan joy olgan “Maktab” she’rida yosh avlod – maktab o‘quvchilariga shunday murojaat qilinadi:

Maktab berur Qur’on siza,  
Maktab berur *iymon* siza,  
Maktab berur *huron*siza,  
G‘ayrat qilub o‘qing, o‘g‘lon!

Maktabdadur ilmu kamol,  
Maktabdadur husni jamol,  
Maktabdadur *milliy xayol*,  
G‘ayrat qilub o‘qing, o‘g‘lon!

Shundan ham ko‘rinaduki, Avloniy she‘rda o‘z qarashlarini ham singdira olgan. She‘r barmoq vaznida yozilgan bo‘lib, to‘qqiz banddan iborat. Avloniy an‘anaviy muqaddimadan so‘ng, yangi usuldagi maktab ta‘rifini keltiradi. She‘rning har bir misrasida maktabga rang-barang tavsif beradi. "Maktab" so‘zi she‘r davomida yigirma yetti marta jaranglab, har bind oxirida o‘g‘lonlarning unda g‘ayrat bilan o‘qishi uqtiriladi. She‘rning birinchi bandi a-a-a-a shaklida qofiyalangan bo‘lsa, qolgan bandlarining dastlabki uch misrasi o‘zaro qofiyalanadi, to‘rtinchi misra esa birinchi bandga mos ravishda takrorlanib, ritmik, kompozitsion butunlikni ta‘minlaydi:

Maktab uyi – dorulamon,  
Maktab hayoti jovidon,  
Maktab safoyi qalbi jon,  
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!

She‘rda maktabning eng osoyishta, tinch va xotirjam, yoshlar hayotining mazmuni, huzurbaxsh uy ekanligi, shuningdek, musaffolik, samimiylik, beg‘uborlikka yo‘g‘rilgan bolalik ramzi ham teran ifodalangan. Aniqrog‘i bu ta‘riflarning barchasi yaxlit holda bolalik timsolini oydinlashtiradi. Zotan, maktab va bola (o‘g‘lon) obrazi she‘r davomida egizak tushuncha sifatida yangraydi, go‘yo. Shu tariqa, maktabning barcha mo‘jizalari, chunonchi, doruladab (odob-axloq uyi), Ollohning ehsoni, ajib gulzor singari o‘ziga maftun qilishi, dur-u gavhar manbai, jannat eshigini ochuvchi, jaholatdan yiroqligi (qo‘yingchi, yigirma yetti sifati) kabilar bola tafakkurida yangi olam yarata oladi. Shoir bu she‘rida ma‘naviy san‘atlardan *tansiq us-sifotdan* keng foydalangani oydinlashadi.

Muallifning “Maktab gulistoni” kitobidagi “Maktab” she‘rida ham ushbu fikr mantiqan davom ettiriladi:

Firdavsi jinon maktab, nodonlarga jon maktab,  
Bilgan kishiga qadrin, bir dorulomon maktab.  
Johillara g‘am maktab, yalqovlarga kam maktab,  
Husnixat kishilarga chin ruhi ravon maktab.  
Jonim, o‘qungiz maktab, boru yo‘qingiz maktab,  
Sizlar uchun, avlodim, bog‘u guliston maktab.

Shunga o‘xshash, “Maktab” nomli she‘r A.Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she‘rlardan 2-juzv” kitobida ham uchraydi. Unda maktab ta‘rifining yanada yangi qirralari bo‘rtib turadi:



## MAKTAB

Maktabdur oftobi jahon saodating,  
Maktabdur osmoni zamon sabovating,  
Maktabdur joyi dilkash, shirin maqomdur,  
Maktabdur behishtu jannat qur tabiating.



Ko‘rinadiki, she‘rlar mavzu jihatdan bir, ammo ularning talqini, badiiy ifodasi murakkablasha borgan. Birinchi she‘rda shoir yosh kitobxonni o‘qishga, ilm-ma‘rifatga targ‘ib qilsa, ikkinchi she‘rda maktabning kimlarga foyda-yu qanday kishilarga zarar ekani qiyoslanadi; uchinchi she‘rda esa maktabning alohida manfaatlari xususida emas, umummillat va yurtga keltiradigan foydalari tilga olinadi.

Darhaqiqat, maktab mavzusi birgina Avloniy she‘riyatida emas, balki, o‘tgan asr boshlaridagi har bir ziyoli, ijodkor va ma‘rifatparvar adib uchun dolzarb edi. Abdulla Avloniyning she‘rlarida esa aynan maktab yoshidagi kichkintoylar tasavvuri, qiziqishlari, tili va tushunchasi ustuvor. A.Avloniy bolalarga samimiy fikrlarini o‘ynoqi satrlarda tasvirlash bilan birga, Vatan va uning qismati bilan bog‘liq jiddiy mulohazalarni-da bayon etadi. Shoir Vatan ta‘rifini boshlab, “Tog‘laridan konlar chiqar, Yerlaridan donlar chiqar, Havosi o‘ta yoqumlik, Cho‘llari bor toshlik, qumlik, Toshkand emas, toshqand erur, Kesaklari gulqand erur”, deya bolalarda ona diyorga katta mehr uyg‘otishga erishadi. Jumladan, “Vatan” nomli she‘rida ona-yurtning noz-ne‘matlari, boyliklari ta‘rif-tavsif etiladi. Shu bilan birga, onaday aziz, mushfiq go‘sha haqida lirik qahramon–yosh avlodning qayg‘uli nidosi aks etadi:

Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!  
Javlon urib yashaydurgon xonamizsan!  
Seni sotmoq mumkinmidur, o‘zing o‘yla,  
Tiling bo‘lsa, hasratlaring tuzuk so‘yla!..  
Sotib-sotib qoladurmiz g‘amga botib,  
Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.

Shoir o‘tmishda ma‘rifat gulshani bo‘lgan yurtimizning jaholat botqog‘iga botganidan afsuslar chekib, Vatan tobora vayronaga aylanayotgani, ilm-ma‘rifatga oshno bo‘lishgina kishilarni bu g‘amdan qutqazishini ta‘kidlaydi. Shu ma‘noda shoirning “Ilma targ‘ib”, “Jaholat”, “Istiqboldan orzularim”, “Millatga salom”



she'rlari millat farzandlariga xitob tarzida bitilgan. Umuman, A.Avloniy "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" kitoblarida yosh kitobxonlar tafakkuriga mos ilm xosiyati va ilmsizlik oqibati to'g'risida pandnoma tarzidagi satrlarni bitgan bo'lsa, "Maktab gulistoni"dagi she'r, hikoya va masallarda ijtimoiy dolzarb muammolarni ham qamrab olgani ayonlashadi. Zero, bunday she'rlar orqali yosh avlodni ma'rifatga da'vat etish bilan birga, ularni vatanparvar, o'z millatiga, yurtiga sadoqatli qilib tarbiyalash maqsadi ham ko'zlangan.

"Turkiy guliston yoxud axloq" asari esa axloqiy va ta'limiy asardir. Bu asarda Abdulla Avloniy o'z ijtimoiy va axloqiy-ta'limiy qarashlarini bayon etadi. "Turkiy guliston yoxud axloq" Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nosir Xusravning "Saodatnoma", Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Ahmad Donishning "O'g'illarga nasihat" kabi asarlari tarzidagi didaktik adabiyot namunasidir. XX asr boshlarida bunday asarni o'zbek tilida birinchi bo'lib Abdulla Avloniy yaratdi va ta'lim-tarbiya ishlarida uni tatbiq etdi.

Asar katta-kichik 64 bobdan iborat bo'lib, har bir bob ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlanadi va biri ikkinchisini to'ldiradi, takomillashtiradi. Yozuvchi bu asarini yaratishda xalq pedagogikasidan keng foydalangan. Abdulla Avloniy odamlarni xulq, xatti-harakat nuqtayi nazaridan ikki guruhga bo'ladi: "Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar; agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg'a tavsif bo'lub "yaxshi xulq", agar tarbiyatsiz o'sub, yomon ishlar ishlaydurgan bo'lub ketsa, yomonlikka tavsif bo'lib "yomon xulq" atalur".<sup>33</sup>

Avloniy bola kamolotida tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va tarbiya "yo hayot, yo mamot masalasi" deb biladi. Bu fikrning naqadar muhimligini, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmasligini, bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi ekanligini yurtboshimizning alohida munosabatlari orqali ham dalillash mumkin. "Bu haqda fikr yuritganda, – ta'kidlaydi I.A.Karimov, – men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi".<sup>34</sup>

Darhaqiqat, Abdulla Avloniy "Tarbiya" sarlavhasi ostida tarbiya turlari haqida fikr yuritadi. Bolani tarbiyalashda "Tarbiyaning zamoni", "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi", "Axloq tarbiyasi" kabi to'rt asosiy omil g'oyat muhim ahamiyat kasb qilishini ta'kidlaydi. Bola tarbiyasida muallif bola yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning roli katta ekanligini ko'rsatadi va bu sohada oila, maktab sharoitini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Shuningdek, tarbiya bolaning axloqiga, xulq-atvoriga kuchli ta'sir etishini e'tirof qilgan muallif ota-

<sup>33</sup>Bu haqda qarang: Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, "O'qituvchi", 1992, 3-9-b.

<sup>34</sup> I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008, 62-b.

onalarning o‘z bolalarini tarbiya qilishlariga da’vat qiladi. Abdulla Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qitmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdur”. Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiya uzviy bogliq ekanini ham ta’kidlaydi: “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur”– deydi.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston...” asarida “Vatanni suymak” degan alohida bob ham bor. Unda yosh qalblarda o‘z Vatani Turkistonga nisbatan muhabbat tuyg‘ularini mavjga keltiruvchi shunday misralar bayon qilingan:

Vatan, Vatan deya jonim tanimdan o‘lsa ravon,  
Banga na g‘am, qolur avlodima o‘z Vatanim.  
G‘ubora do‘nsa g‘amim yo‘q vujud zeri vahm,  
Charoki, o‘z Vatanim xokidur go‘ru kafanim.  
Tug‘ub o‘san yerim ushbu Vatan vujudim xok,  
O‘lursa aslina roje’ bo‘lurmi man g‘amnok.

Vatan tuprog‘i muqaddas: unda ajdodlarimizning xoklari bor, unda kelajak nasllarimizning haqlari bor. Shuning uchun ham Vatanni oddiygina sevisish mumkin emas, uning istiqboli uchun kuyunish, kurashish, kelgusi avlodlarga to‘la-to‘kis, ozod farovon holda topshirish hissi risolada teran aks etgan. Abdulla Avloniy ona-Vatanga mana shunday yoniq qalb bilan munosabatda bo‘lishni shu tariqa, matn va hikoyalarida, she’rlarida ilgargi surgan.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan bir kichik bob “Hifzi lison” (“Tilni asrash”) deb nomlanadi. Hamma vaqt, hamma jamiyatda millatning mavjudligini, e’tiborini belgilovchi ko‘zgusi uning tili va adabiyotidir. Har bir inson, birinchi navbatda, o‘z ona tilini mukammal bilishi, tilining ravnaqi, sofligi uchun kurashishi kerakligini Abdulla Avloniy she’riy baytlarida ham ifodalaydi. Ona tiliga nisbatan buyuk muhabbat bilan aytgan so‘zlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘sib kelayotgan yosh avlodga qaratilgan edi:

E ona til, aziz qadrdomim,  
Iltifoti ruhim, rahmonim.  
Tug‘dig‘im kundan aylading ulfat,  
O‘lgunimcha ayilma, ey jonim.  
Menga ilmu adab san o‘rgatding,  
Chin adib, muallim shonim.  
Millatning ruhini ko‘targuchisan,  
Ey muqaddas karamli sultonim.

Abdulla Avloniy XIX asr rus mumtoz adabiyoti vakillari I.A.Krilov va L.N.Tolstoyning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Jumladan, I.A.Krilovning 21 ta masali, “Maymun ila ko‘zoynak”, “It ila yo‘lovchi”, “Qarg‘a ila Zag‘izg‘on”, “Tulki ila Qarg‘a” kabi asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, “Maktab gulistoni” kitobida e’lon qilingan. Aytaylik, “Arslon bilan ayiq” hikoyasida do‘stlik va hamjihatlikning hayot moyasi ekanligi ibratli bir voqea orqali

ko'rsatiladi: Arslon bilan ayiq do'stlashadi. Do'stlar bir kuni ovga chiqadilar. Ancha urinishlardan so'ng bir kiyikni qo'lga tushiradilar. Lekin nogahon o'rtada janjal chiqadi. Arslon kattaligini pesh qiladi va o'ljaning ko'prog'ini talab etadi. Ayiq esa kichikligiga qaramasdan ko'p mehnat qilganini aytadi. Bahslashuv urushga aylanadi. Ikkala tomon ham holdan toyadi. Qimirlashga majoli qolmaydi. Bundan bo'rilar xabar topadilar va o'ljani pok-pokiza tushiradilar. O'z qilmishlaridan pushaymon do'o'stlar surgalib kelib, qoldiq suyaklarni chaynash bilan kifoyalanadilar.

Ko'rinadiki, Avloniy birdamlikka alohida urg'u beradi. Shu sababli yana bir hikoyasida chumolilar hamkorligini o'rnak qilib ko'rsatadi. Ittifoqsizlikning zarari, balki, halokatli oqibatini ko'rsatishi bejiz emas.

“Eshak ila bulbul” masali I.A.Krilovdan qilingan erkin tarjimadir. Aliasqar Kalinin uning nasriy mazmunini o'z darsligiga kiritgan bo'lsa, Avloniy she'riy yo'l bilan tarjima qiladi. Kitobga kiritilgan hikoyalarning ikkitasi bevosita do'stlikka bag'ishlangan bo'lib, biri “Yolg'on do'st”, ikkinchisi esa “Chin do'st” deb nomlangan. Inson fe'lini hayotiy voqealar orqali ko'rsatuvchi latifa va hikoyatlar, afandi sarguzashtlari xalq og'zaki ijodida benihoya ko'p. “Ikkinchi muallim”dagi ko'pgina hikoyalar mana shu zaminda maydonga kelganini anglash mumkin. Asardagi “Taqsim”, “Ikki devona”, “Ochko'zlik”, “Aqlli bog'bon” kabi ixcham hikoyalar shundan dalolat beradi. Jumladan, “Ikki devona” hikoyasi xalq latifalariga yaqin turadi. Unda yumoristik ohang, xalqchil asosga ega mutoyiba ruhi sezilib turadi:

“O'tgan zamonda bir devona bir shaharga borub, har kimni urub-so'kub nima uchun odamlar hammasi bir tarafga qarab yurmaslar. Biri bu tarafga ketsa, biri u tarafga ketar, dedi. Odamlar javob berdilarki, har kim o'z ishi bor tarafga borur. Biri bozorga borsa, biri uyiga qaytur, dedilar. Devona bularning so'zini qabul qilmadi. Oxirida arolaridan biri turub: “bu devonadur, devonaning so'ziga shoyad devona javob bersa”– deb bir devonani olib keldi. Birinchi devona so'radiki:

–Yer yuzidagi odamlar nimaga bir tarafga qarab yurmaslar? Ikkinchi devona:

–Yer kemaga o'xshash suv ustinda turadur. Agar odamlar hammasi bir tarafga qarab yursalar, barchamiz suvga ag'darilub ketarmiz,– deb javob berdi.

Birinchi devona:–Balli do'stim! Hammadan san yaxshi javob berding!– deb jo'nab ketdi.

Hissa: Har kishiga o'z maslakdoshining so'zi maqbuldur.”

“Aqlli bog'bon” hikoyasida esa “oltin-mehnatda” ekanligi talqin etiladi. Avloniy mehnatni sharaflovchi mana shu naqlga murojaat etadi. Uni nihoyatda sodda va ixcham shaklga solib, bolalarga taqdim etadi. Bu bilan bolalarda mehnatga muhabbat uyg'otishga, har kim baxt va kamolotga faqat mehnat orqaligina yetishishi mumkinligini ta'kidlashga intiladi. Darslikda bu mavzuga bag'ishlangan hikoyalar talaygina. Binobarin, Avloniyning bu masalaga alohida e'tibor qaratganini uqish mumkin.


Kitobda nodonlikni qoralovchi, ilm-ma'rifatni ko'klarga ko'taruvchi talaygina she'riy va nasriy hikoyalar bor. “Ilmsizlik balosi” nomli she'riy hikoyaning mazmuni ancha soddaligi bilan ajralib turadi:

“Bir kishi xat tanimas edi. Kasal bo‘ldi, tanasiga yara toshdi. O‘g‘lini tabibga yubordi. Tabib shishada dori berdi: birini ichish, ikkinchisini surish uchun. Kasal ota savodsizligi uchun ularni farqlay olmaydi: “sharbat” deb yaraga suradigan zaharli dorini ichib, jon berdi”.

To‘g‘ri, muallif ranglarni bir oz quyuqlashtirgan. Imsizlikning yomon oqibatiga fojey tus bergan. Bu ishni atayin qilgan. Negaki, bu xil bo‘rttirishning ta‘sir kuchi juda kattadir.

Xullas, adibning har ikki “Muallim”dagi ixcham she‘riy va nasriy hikoyalari, bir jihatdan usuli jadid maktablari darsliklarining mazmun va qurilishini anglashga yordam bersa, ikkinchi tomondan muallifning pedagogik qarashlarini oydinlashtirishga xizmat qila oladi.

Umuman, Adulla Avloniy asarlari mazmundorligi, xilma-xil maqol va masallardan keng foydalangani hamda ta‘sirchanligi bilan o‘z davrida yaratilgan boshqa didaktik, pedagogik majmualardan ajralib turadi. Avloniy bemorga dorini asalga qo‘shib edirgan tabibga o‘xshab, axloqiy-ta‘limiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o‘quvchiga, jumladan, bolalarga nafis va zavqli libosda taqdim etadi. Binobarin, ixcham hikoyalar va she‘rlar bolalar xotirasiga osongina o‘rnashib qolishiga erishilganki, xuddi shuning o‘zi A.Avloniyning islohotchi pedagog va bolalar shoiri ekanligiga dalolatdir.



**Hamza Hakimzoda – ma‘rifatparvar  
bolalar shoiri  
(1889-1929)**

Ilmning ahamiyatini, inson hayotida ma‘rifat tutgan yuksak maqomni tasvirlashga yo‘naltirilgan adabiyot ma‘rifatchilik adabiyoti hisoblanadi. O‘zbek adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon ma‘rifatni tarannum etishga alohida e‘tibor berilgan. Ko‘p asrlar oldin yashab o‘tgan Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy singari adiblar ham ma‘rifatni ulug‘lab asarlar yozganlar.

Bu yo‘nalishdagi adabiyot XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida qayta rivojlandi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar, Avloniy, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon singari yozuvchilarimiz shu adabiyotning vakillari sifatida shuhrat topdilar. Hamza Hakimzoda Niyoziy ana shunday adiblardan biridir.

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yili Qo‘qonda tug‘ildi. U 7 yoshidan maktabda xat-savod o‘rgana boshladi. Maktabni bitirgach, madrasaga va I.V.Orlovning kechki rus-tuzem maktabiga o‘qishga kirdi. Hamza madrasada o‘qigan chog‘laridayoq Firdavsiy, Hayyom, Sa‘diy, Nizomiy, Hoqoniy, Jomiy, Fuzuliy, Bedil va boshqalarning ulkan she‘riyati bilan tanishdi, shuningdek, Sharq olimlarining asarlarini o‘qiydi.

1908-yilda Hamza ota-onasining noroziligiga qaramay, madrasani tashlab ketdi. Uning o'zi yozganidek, ota-onasining o'jarligi, ma'murlarning zulmi, kambag'allik tufayli dunyoviy bilimlarni egallash to'g'risidagi orzusini amalga oshira olmadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy bor-yo'g'i 40 yil umr ko'rgan bo'lsa-da, butun hayotini xalqqa xizmat qilish uchun bag'ishlagan olovqalb shoir va dramaturgdir. Shu bilan birga u tarbiyachi, murabbiy, jamoat arbobi sifatida nom qoldira oldi. Hamza o'z xalqiga ilm-ma'rifat tarqatish uchun, xalqining ozod hayot kechirayotganini ko'rish uchun shaxsiy manfaatlaridan butkul voz kecha olgan yozuvchidir.

Hamza o'zining pedagogik faoliyatini 1910-yilda Toshkentda Qashqar mahallasida maktab ochib, bolalarni o'qitishdan boshlaydi. Shu yilning oxirlarida u Qo'qondagi mahalliy rus-tuzem maktabida muallim bo'lib ishlaydi va 1911-yilda yangi maktab ochib, ta'lim-tarbiya ishlariga ba'zi o'zgartirishlar kiritadi. O'quvchilarning o'rganayotgan materialni quruq yod olishi foydasiz ekanligini aytib, sinfdan tashqari mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor beradi, ona tili darslarini ko'paytiradi, yangi darsliklar yozadi. Bolalarning o'quv qo'llanmalari, ovqat va kiyim-kechak bilan to'liq ta'minlanmagani bu xildagi maktablarning ishlashida katta qiyinchiliklar tug'dirardi. Ammo Hamza "Jamiyati xayriya" tashkil qilib maktabini saqlab qolish uchun kurashadi. Uning ishlari haqidagi shov-shuv Qo'qon shahridan tashqariga ham tarqala boshlaydi. Mahalliy ma'murlar bunday "xavfli ta'lim-tarbiya manbai"ga toqat qilolmaydilar va 1913-yilda maktabni yoptirishga muvaffaq bo'ladilar. Hamza o'z ona yurtini tashlab, chet elga ketishga majbur bo'ladi.

1913-1914-yillarda Hamza chet ellarda: Afg'oniston, Hindiston, Suriya, Turkiya mamlakatlarida, Makkada sayohatda bo'ladi, u mamlakatlarda bo'layotgan o'zgariishar, yangiliklar bilan tanishadi.

Hamza 1914-yilda Qo'qonga qaytib keladi va kambag'al yetim bolalar uchun maktab ochishga harakat qiladi. Nihoyat, "Dorul yatim" ya'ni, "Yetimlar maktab"ini ochadi. Maktab Qo'qonda 1914-yil sentabrdan ishga tushadi. Unga Qo'qonning har tarafidan kelgan faqir va yetim bolalar pulsiz qabul qilinib, hatto ba'zi bechorahollarga daftar ham berilgan.

Hamzaning "Doril yatim" maktabi uchun o'zbek tilida tuzgan darsligi tabiatga, yo xalqlar tarixiga oid hikoyalardan iborat bo'lgan. Shunga ko'ra, ruhoniylar uni ollohga va podshoga qarshi chiqishda ayblaydilar. Ko'p o'tmay, "Doril yatim" maktabi yopib qo'yiladi, Hamza esa siyosiy jihatdan ishonchsiz va milliy ozodlik harakatining ishtirokchisi degan mulohaza bilan mirshabning maxfiy nazorati ostiga olinadi.

Hamza 1915-yilda Marg'ilonga keldi. U oshkora ravishda yangi maktab ochishga, lekin ehtiyot bilan ish ko'rishga harakat qildi. Shu tariqa, Marg'ilonning tinch va xilvat ko'chasida yangi maktab paydo bo'ldi. Uning binosi Qo'qondagi maktab binosidan ham yomonroq edi.

Hamza ta'lim-tarbiya masalasini nazariy jihatdan ishlab chiqish bilan birga, Turkistonda maktablarni qayta qurishning amaliy masalalarini hal qilishda faol

qatnashdi. U 1916-yilda Zavqiy, Ahmad Aliyev va boshqa jamoat arboblari bilan birgalikda “Farg‘ona vodiysidagi musulmon aholi orasiga xat-savod yoyish jamiyati” tuzdi. Jamiyat pul to‘plab, borshlang‘ich maktablar ochdi. Ularda darslar o‘zbek tilida olib borildi.

Hamza boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan darsliklari hamda she‘rlari bilan o‘zbek bolalar adabiyotining rivojiga ham katta hissa qo‘shgan. Uning o‘zi tashkil qilgan yangi usuldagi maktab talabalari uchun yozgan “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” darsliklari, ularga kiritgan she‘r, hikoya va masallari, ta‘limiy-ma‘rifiy ahamiyatga ega asarlari shu jihatdan ahamiyatli. Ayniqsa, shoirning o‘quv qurollari madhiga bag‘ishlangan she‘rlari, “Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi” hikoyasi, “Toshbaqa bilan chayon” masali bolalar yosh xususiyatlariga muvofiqligi bilan diqqatga sazavor. Niyoziyning “Yengil adabiyot”ida ilm va joholat muqoyasasiga oid she‘rlari mavjud. Masalan, quyidagi she‘rda ilmni jannatning eshigini ochuvchi, xazinaning yo‘lini ko‘rsatuvchi porloq nur sifatida, maktabni esa insonning ilm-ma‘rifat nuridan bahramand bo‘lib, olim bo‘lishidagi dastlabki bosqich–beshik sifatida tasvirlaydi:

Ilm–jannat eshigi,  
Xazinaning teshigi,  
Insonni olim qilgan,  
Maktab erur beshigi.

Bu ifoda jaholat bilan muvoziy qo‘llanilib, jannat va do‘zax, xazina va jahannam, olimlik va so‘qirlik, maktab va g‘aflat singari zid ma‘noli tushunchalar orqali realistik mohiyat kasb etadi.

Jahl–do‘zax eshigi,  
Jahannamning teshigi,  
Bog‘lab solan ko‘zingni,  
G‘aflat erur beshigi .

So‘ngra, olimlik xosiyati va johillik kasofati aniqroq ko‘rsatib beriladi:

Olim bo‘lsak dunyoda,  
Kelur har ish bunyoda,  
Biz ham suv ostin kezub,  
Ham ucharmiz havoda.

Johil qolsak dunyoda,  
Xo‘rlik kelur ziyoda,  
Hayvon kibi yuk tashub,  
Cho‘l kezarmiz piyoda.

Demak, shoir yosh avlodlarining bir kuni olimlar qatoridan o‘rin olishiga, hatto suv osti va osmonda kezadigan bilimdon bo‘lishiga ishonadi. Kelajakka ishonch ruhi adibni bolalar uchun ko‘plab darsliklar, ijtimoiy-siyosiy mavzuda, dunyoviy ilm, kasb-hunarni o‘rganishga undovchi she‘rlar bitishiga turtki bo‘ladi. Shoirning “Qalam” g‘azali yengil vazn, o‘ynoqi ohangdan iborat bo‘lmasa-da, mazmunan dolzarb. She‘r qalam haqidagi qasida tarzida yozilgan. Lirik qahramon

maktabga kelib, qalamga oshno bo‘lgani va shu tufayli aqli raso, ilm-u adab egasi bo‘lgani hamda barcha orzu umidlari ro‘yobga chiqqanini ta’rif-tavsif etadi:

O‘qudim, chiqdi savodim ham xatim yaxshi bo‘lub,  
G‘ayratinga yarasha ishlar mango qildi qalam.

Harna kim yozmish qalam so‘zidin also chiqmadim,  
Ul mani ham aytganim axir bajo qildi, qalam.

Shoir bolalarni maktabga qiziqtirish, o‘quv qurollariga havas uyg‘otish, qolaversa, limning xosiyatini teran idrok etadi. Yosh qahramon tilidan “Bor edi ko‘nglumda bo‘lmoq podsholik orzu, O‘tmadi fursat bu hojatim ravo qildi qalam. Bir gadoni o‘g‘li erdim podsho qildi qalam”,– deya ma’rifatni ulug‘laydi. Natijada shoir she’ri va talqinidan insonning jamiyatdagi mavqeyi, qanday inson sifatida bo‘y ko‘rsatishi ana shu ilm sharofatidan ekanligi anglashiladi.

Hamzaning bolalar uchun yozgan yana bir she’ri “Bir kishining bor edi to‘rt bolasi” deb nomlanadi. Aslida bu mavzu o‘tgan asr boshlaridagi o‘zbek bolalar adabiyotida alohida yo‘nalish sifatida ko‘zga tashlanadi. O‘sha davr o‘qish kitoblaridagi axloq-odob mavzusi insoniylikning turli yaxshi va yomon jihatlarini qamrab olgan. Saxiylik va baxillik, to‘g‘riso‘zlik va yolg‘onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik, sabr va sabrsizlik, qanoat va ta‘magirlik, sadoqat va bevafoqlik, adolat va jabr-zulm singari insoniylikning qarama-qarshi qutblarida turgan o‘nlab fazilat va illatlarning yaxshi-yu yomon jihatlarini xususida fikr yuritilib, yaxshisidan o‘rnak olishga, yomonidan hazar qilishga undovchi she’r, hikoyalarga keng o‘rin ajratilgan. Hamzaning yuqoridagi she’ri shu mazmuni o‘zida ifoda eta oladi. Unda hikoya qilinshicha, bir oilaning to‘rt farzandi bo‘lib, uylariga kelgan mehmonning puli yo‘qoladi. U pulni hech biri oldim demaydi, ko‘rganim yo‘q deydi. Shunda ota bolalarni teragash befoydaligini anglab, hiyla ishlatishga majbur bo‘ladi: tort bolasini ham bir uyga qamab, oldiga qora kuya qo‘yadi va deydi:

Kimki rost esa gar so‘zi,  
Qora bo‘lur o‘zicha ikki yuzi;  
Kimni agar yolg‘on erursa so‘zi,  
Bor-yo‘g‘i qora bo‘lur o‘ng yuzi.

Bolalarning kattasi pulni olganligi uchun bu hiylani tushunmay, o‘ng yuzim o‘zicha qora bo‘lsa, chap yuzimni o‘zim qora qilay, deb kuyani surkaydi. Ota bolalarni tashqariga chiqqanida kattasining chap yuzi qoraligini ko‘radi, qolganlarining yuzi esa oq bo‘ladi. Shunda kimning o‘g‘ri ekanligi bilinib, xolaning puli qaytib beriladi. Shu tufayli bu fe’lini tashlagan bolani shoir yosh kitobxonlarga ibrat qilib ko‘rsatar ekan, qissadan hissa tariqasida:

Kimi bo‘yla xiyonat qilur,  
Bir kuni o‘zini shuyla xijolat qilur,

deb ta’kidlaydi.

Bu mavzudagi asarlarning o‘zbek bolalar adabiyotiga kirib kelishi uchun yo‘nalishda amalga oshgan: *birinchisi*, xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyoti ta’sirida; *ikkinchisi*, rus tilidan qilingan tarjimalar orqali; *uchinchisi*, mualliflarning o‘zlari yaratgan asarlari orqali. Hamzaning yuqoridagi she’riga shu

jihatdan yondashilsa, u L.N.Tolstoyning “Danak” hikoyasidan ijodiy ilhomlanib yozganligi ayonlashadi.

H.H.Niyoziyning “Mevalar mojarosi” turkumidagi she’rlari ham bolalarbopligi bilan diqqatni tortadi. Unda bolalarga xos xarakter xususiyatlar, chunonchi, maqtanchoqlik, baxillik, manmanlik, chaqmachaqarlik, mushtumzo‘rlik odatlari mevalar mojarosi misolida ko‘rsatib berilgan.

Bundan tashqari, Hamza xalq orasidan turli mazmundagi qo‘shiq va ashulalarni yig‘ib, ularning ayrimlari uchun o‘z davri hayot voqealarini aks ettiruvchi matnlar yozgan. Hatto u yozgan qo‘shiqlarning ayrimlari hajviy holatni ifodalaydi. Shoirning bunday she’rlari uning “Oq gul”, “Qizil gul”, “Yashil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul”, “Safsar gul” kabi ramziy nomlar bilan nashr ettirilgan “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” kitobidan o‘rin olgan. Hamza folklorga xos nozik poetik uslub elementlarini chuqur o‘zlashtirib, ulardagi ilg‘or gumanistik g‘oyalarni rivojlantirdi. Ayniqsa, uning xalq ijodida keng tarqalgan

19-slayd

## *Hamzaning badiiy ijodi*

- 1905-yildan boshlab yozgan 214 ta she’rini jamlab, 1814-yilda “**Devoni Nihoniy**” nomli qo‘lyozma devon tuzadi.
- Kambag‘al oila farzandlari va yetim bolalar uchun Qo‘qon va Marg‘ilonda maktablar ochdi. Qo‘llanma sifatida o‘qitish uchun “**Yengil adabiyot**”, “**O‘qish kitobi**”, “**Qiroat kitobi**” singari darsliklar yozdi.
- Qo‘llanma sifatida o‘qitish uchun “**Yengil adabiyot**”, “**O‘qish kitobi**”, “**Qiroat kitobi**” singari darsliklar yozdi.
- Hamza 1915-1919-yillarda “**Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasini chop ettirdi.**”

Shularga tayanib aytish mumkinki, o‘zbek bolalar adabiyoti hodisasining paydo bo‘lishida Hamza Hakimzoda Niyoziyning munosib hissasi bor.





## Elbek bolalarlar shoiri va islohotchi pedagog (1898-1938)

20-yillarda chinakam shakllanish jarayoniga kirgan o'zbek bolalar adabiyotini **Elbek** ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

Qatag'onlik davri o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Elbek – Mashriq Yusupovdir. U 1898-yilda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanining Xumson qishlog'da tavallud topgan. Muallimlik uni ham badiiy ijod, ham ilmiy ijod sari yetakladi. Badiiy ijodga havas unda, o'z e'tiroficha, 14 yoki 15 yoshdagida uyg'ongan bo'lsa-da, "1917-yildan boshlab yozuvga" chinakamiga berildi. Uning asl ismi Mashriq, otasi Yunus bo'lsa-da, elga dardkashlikni ko'zlab, Elbek taxallusini qo'llab, "she'rlar va ba'zan hikoyachalar yoza boshladi". Uning "Armug'on" (1921) masallar, "Ko'zgu" (1925), "Yolqinlar" (1927), "Sezgilar" (1927), "Bahor" (1929), "Mehnat kuylari" (1930), "She'rlar" (1934), "Chirchiq bo'ylarida" (1935), "G'unchalar" (1935) she'rlar to'plamlari, "Qo'shchi Turg'un" (1925), "Dadamat" (1936) hikoyalar majmualari, "Tozagul" (1934), "Bog'bon", "Etik", "Mergan" (1935) poemalar alohida kitoblar tarzida arab va lotin alifbolarida bosilib chiqdi. Uning she'rlari "Chig'atoy gurungi" uyushmasi chop etgan "O'zbek yosh ijodkorlari" (1922) to'plamidan joy oldi. Yangi-yangi she'r, hikoya va maqolalari o'sha davr matbuotida tez-tez bosilib turdi, o'zi ham o'zbek matbuotining faol namoyandasiga aylanib "Inqilob", "Maorif va o'qitg'uvchi", "O'zbekiston Sovet adabiyoti", "Bilim o'chog'I", "Yangi yo'l", "Alanga", "Uchqun" (Buxoro Xalq Respublikasi Maorif nazorati organi) singari qator jurnallarni tahrir hay'ati ishida qizg'in qatnashdi, shu zaylda Respublika matbuotining yuzaga kelishi va shakllanishida, o'zbek jurnalistikasining qaror topishi va rivojlanishida munosib hissa qo'shdi.

Elbek o'zbek tilining xalqimiz milliy qiyofasini ifoda etish uchun astoydil kurashdi, bu tilni kamsituvchilarga qarata 1922-yilda shunday satrlarni bitgandi:

Mungli qushim, sayrab-sayrab kel, anglat:  
Kimlar erur turk tilini sotuvchi!  
Bulbul kabi sayrab turg'on bu tilni  
Uyalmayin bu o'lkadan otuvchi.  
Boldan totli, jondan tunuk turkchani  
Tushunmaydi xo'rlab-xo'rlab yotg'uchi  
Ochunlarda boyligini ko'rasdan  
Kimdir bunga: "Yordi, yormas degan!"  
Mungli qushim, ularni qo'y, sen sayra,  
Turk tilining dong'in chiqar ko'klarga...

"Til" she'ridan keltirilgan parchadan anglashtirayotirki, unda ifodalangan g'oya istiqlol g'alaba qozonib, milliy tilimiz davlat tili maqomini olgan ayni zamonda ham o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q.

Elbek o'zbek halqining boy og'zaki ijodiyotini to'plash va o'rganish ishiga ham tilshunos-muallim sifatida Turkiston Maorif Xalq Komissarligi qoshidagi O'zbek bilim hay'atida ishlagan kezlaridayoq kirishgan edi. U Bo'stonliq

atroflaridan turli qo‘shiqlar, laparlar, og‘zaki drama, maqol va matallar, topishmoqlarni maroq bilan to‘pladi. Shu kuzatishlari jarayonida xalq adabiyoti juda boy bo‘lishi bilan birga o‘z davri va o‘sha zamon kishilarining turmushlarini o‘z ichiga olgan qimmatli adabiy vasiqalardir, degan xulosaga keldi. Binobarin, ularni to‘plash, nashr etish va o‘rganishga jadal kirishishi zarurligini uqdirib, yoshlar ongini faollashtiruvchi o‘zi to‘plagan xalq topishmoqlari, maqollari va qo‘shiqlarini jamlab “Topishmoqlar, maqollar va ashula to‘plami” nomi ostida 1923-yilda bostirib chiqardi. Bu kitob g‘oyat qizg‘in kutib olindi, unga O‘zbekistonning boshqa joylaridagi folklor namunalari qo‘shish istagini ifodalovchi takliflar ham bo‘ldi. Bu taklifni inobatga olib, Elbek Sirdaryo, Buxoro, Farg‘ona, Xorazm va Samarqand shahar va qishloqlarini kezdi, folklor asarlarini yozib g‘oyat yangidan to‘plagan materiallarni qo‘shgan holda 1928-yilda G‘ulom Zafariy bilan hamkorlikda “Ashulalar” to‘plamini nashrdan chiqardi, 1936-yilda yana yangi materiallarni qo‘shib, shu to‘plamni uchinchi nashrini amalga oshirdi.

Elbek xalq ertaklarini to‘plar va o‘rganar ekan, ularga o‘zi o‘zbekchaga o‘g‘irgan A.S.Pushkinning “Baliqchi va baliq haqidagi ertak”, “Oltin xo‘roz”, “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak” tajribasi asosida yondashib, ertak sujetini nazmda bayon etish an‘anasini o‘zbek bolalar dostonchiligini yuzaga keltirishga tatbiq etdi. Bu jihatdan uning 1935-yilda nashrdan chiqqan “Ertaklar” to‘plamini tashkil etgan “Kambag‘al yigit va par dasturxon”, “Erksiz folchi”, “Omonat” she‘riy ertaklari alohida ahamiyatga molik.

“Erksiz folchi” she‘riy ertagida ijtimoiy motiv ustuvor. Xalqning “Soxta folbin” ertagi sujetini nazmda bayon etish asosida bitilgan bu she‘riy ertakda nochorlikdan soxta fol ochish evaziga tirikchilik qilishga uringan, ammo kutilmagan omadi bilan podshoning yo‘qolgan xachiri va qaroqchilar xazinadan o‘margan bir qop oltinni topib nazarga tushgan, nihoyat yolg‘oni chinga aylanib saroy folbini sifatida izzat-ikrom qozonsa-da, erkidan ayrilib tahlikada yashashga mahkum bo‘lgan folbin qismati ko‘rsatilgan. Folbin o‘zining yolg‘ondakam folchi ekanini har qancha takrorlamasin, na podshoh, na saroy ahli unga ishonishmaydi, uning yolg‘on gapini esa rost o‘rnida qabul qilishadi. Elbek bu bilan saroyning yolg‘on va ig‘volar maskaniga aylanganini, unda yolg‘on rost o‘rnini tamoman egallaganini fosh etadi.

Elbek o‘zbek bolalari xalq qo‘shiqlarini to‘plash va nashr etishning ham tashabbuskorlaridan bo‘lgan. U o‘zi to‘plagan material asosida 1937- yilda chop ettirgan “Bolalar qo‘shig‘i” to‘plami o‘zbek folklorshunosligi tarixidagi dastlabki urinish samarasi sifatida ahamiyatlidir. To‘plamda 18 ta bolalar qo‘shig‘i jamlangan.

Elbekning boshlang‘ich maktab bolalari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari tuzish tajribasi bolalar yosh xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda badiiy asarlar yozish iqtidorini, demakki, bolalar shoiri va bolalar yozuvchisi sifatidagi iste‘dodini shakllantirishda muhim omil bo‘ldi. Bu jihatdan “Bilim” darsligining ikkinchi kitobida keltirilgan “Odamlarning kuchi nimada?” hikoyasi e‘tiborga loyiq:

Odam miltiq, tuzoq, qarmoq, ketmon yasaydi. Yirtqish hayvonlarni topib otadi. Tuzoq qo'yib, qushlarni ilintiradi. Qarmog'iga tiqish uchun ketmon bilan yer kovlab, qurtni topadi va baliqni suvdan ilintirib oladi: odamning kuchi yasagan qurollarida."

Yoki Elbekning "Yo'ldoshning tegirmoni", "Totli sho'rbo" va "Jo'jalar" hikoyalari ham qator fazilatlariga ega. Chunki "Yo'ldoshning tegirmoni"da bolalar ijodkorligi o'yin jarayonida ochib beriladi:

"O'qur choq" to'rtligi esa parallelizm negizida bitilgan bo'lib, axloqiy-didaktik mazmunga ega. Butun to'rtlikda "qanot" so'zi rang-barang ma'noda tovlanadi:

G'oz qanoti oq bo'lur,  
Er qanoti ot bo'lur.  
Bolalarning qanoti –  
Maktabda o'quv bo'lur.

She'ring voqeaband mazmunga ega bo'lishi – unda epiklik alomatini ta'minlabgina qoldirmaydi, balki uning bolalarbopligini, aniqrog'i, undagi mazmun va obrazlarning "ko'rimliligini"– bola idrokiga mosligini belgilaydi. Shuni ta'kidlash joizki, Elbek butun faoliyati davomida 30 dan ziyod masallar yozadi va shu asosda o'zbek masalchiligini rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqdi. Elbek bu masallarni yaratishda xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti va I.A.Krilov masalchiligiga xos an'analardan ijodiy foydalandi. Chunonchi, "Sichqon xotinning qiz uzatishi", "Qora qushlar ila toshbaqalar" masallari uchun "Kalila va Dimna"da mavjud bo'lgan sichqon xotinning qiz uzatishi, qarg'a va toshbaqa sujetlaridan foydalangan. "Olaqarg'a va Qurbaqa" masalini esa I.A.Krilovning "Qarg'a va Tulki" masalidan ijodiy ta'sirlanib yozgan. Zotan, u I.A.Krilovning "Fil va Laycha", "Ko'zgu va Maymun", "Tulki va uzum", "Eshak bilan bulbul", "Bo'ri bilan Turna" masallarini o'zbek tiliga o'girish jarayonida mahorat sirlarini o'zlashtirgan, lekin o'ziga xos ijod yo'lidan borgan.

"Olaqarg'a va Qurbaqa" masalida maqtovdan taltayib ketib, o'ljasidan ajralib qolgan Olaqarg'aning gumrohligidan kulinadi. Olaqarg'a Qurbaqani tutib olib, daraxt shoxiga qo'narkan, Qurbaqa undan qutilishni ko'zlab, Olaqarg'ani maqtay boshlaydi:

Dedi: – Ey barcha qushning sen go'zali!  
Dunyoda ko'rmadim men senday qushni...  
Senga teng yo'q yerda emas, ko'k ustida,  
Qani biroz sayrab bergil, men eshitay.

Olaqarg'a bunday maqtovdan erib ketib, sayramoqqa kirisharkan, og'zidan Qurbaqa tushib ketadi va suvga sho'ng'ib undan qutuladi.

Shoir maqtanchoqlik fojeasini boshqa bir asari – "Sholi va Kurmak" masalida ham ochib beradi. Masal Sholi va Kurmak orasidagi munozara asosida qurilganligidan, mumtoz adabiyotimizdagi munozara janriga hamohang. Lekin undan keltirib chiqarilgan bosh g'oya – sholikorni qadrlash, shu asosda sholikorlik

mehnatiga muhabbat uygʻotish motivi masalga xos mantiqiy yakun tarzida namoyon boʻladi.

Elbek bolajonlar uchun talay quvnoq sheʼrlar yozib, “Koʻzgu”, “Yolqinlar”, “Bahor”, “Gʻunchalar” singari toʻplamlarida eʼlon qildi. Bu sheʼrlarida kichkintoylarni tabiat bilan tanishtirishga, ularda hasharotlarga, oʻsimliklarga, qushlarga mehr-muhabbat tuygʻularini uygʻotish evaziga Vatanni sevish sabogʻini berishga intildi. Masalan, “Lolazorda” sheʼrining lirik qahramoni Lola dengiz yuzida sizib olgan taassurotini shunday ifodalaydi:

Chiqqan edim dalaga,  
Koʻzim tushdi bolaga.  
Bordim-da, uzdim-oldim,  
Oy, qiziq holga qoldim!

“Laylak” sheʼri bolalar va Laylak oʻrtasidagi savol-javob negizida qurilgan. Unda bolalarning:

– Nega doim turmaysiz,  
Bizlar bilan yurmaysiz?

degan savoliga Laylak shunday javob qiladi:

Nima qilay, doʻstlarim,  
Qish hech meni qoʻymaydir.  
Undan qochib ketmasam,  
Qornim hech ham toʻymaydir.

Shoir sheʼrda Laylakning yil fasllariga xos turmush tarzi haqida maʼlumot berish evaziga jonli hayot manzaralarini yaratgan. “Quyvon” sheʼrida esa holat manzarasi gʻoyat jonli chizilgan:

Seskanib ketdi Quyvon,  
Qaradi u yon-bu yon.  
Yuragi duk-duk etdi  
Sakradi, chopdi-ketdi.

Shoir qishning poetik qiyofasini ham shu qadar aniq va tiniq chizadi-ki, sheʼrni oʻqib, bunga qanoat hosil qilasan, kishi:

Oq toʻnin kiyib  
Qish bobo keldi.  
Barchani tiyib,  
Yugurib-yeldi.  
Oq kapalakdek,  
Qorlar uchishdi,  
Qop-qora yerni  
Oʻpib quchishdi.

Qish sururi shu qadar sodda va ravon ifodalangan. Oʻzbek bolalar sheʼriyatida qish – Qish bobo qiyofasidagi badiiy obraz shaklida ana shu sheʼrdan koʻrina boshlagan boʻlsa ajab emas.

**MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:** *jadid, usuli savtiya, alifbo, masal, allegoriya, rus-tuzem, devon, g'azal, poema, "Chig'atoy gurungi", jurnalistika, nazm, obraz, ramz.*

***Bilim, ko'nikma vamaalakani rivojlantirishga yo'naltiruvchi savollar:***

1. Milliy uyg'onish harakati nima va uning o'zbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirishdagi roli.
2. Milliy matbuotda bolalar adabiyoti haqidagi bahslar qachon boshlangan?
3. Abdulla Avloniy nega ilk bolalar shoiri va islohotchi pedagogi sifatida e'tirof etiladi?
4. Hamza – ma'rifatparvarlik adabiyotining taniqli namoyandasi ekanligini asoslang?
5. "Turkiy guliston yoxud axloq"– pedagogik risolasining ta'limiy-axloqiy pandnoma ekanligini oydinlashtiring.

***Mavzuga oid test savollari:***

**1. O'zbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirgan asosiy omillar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

a) XX asr boshlaridagi "usuli savtiya" maktablari o'quvchilariga mo'ljallangan alifbo va o'qish kitoblari (majmualar) maydonga kelib, ularga tom ma'nodagi o'zbek bolalar adabiyotining tug'ilishi deb qarash mumkin.

b) XX asrdagi maktab darsliklari birinchi marta bola dunyoqarashi, qiziqishlari, tafakkur olami hamda yosh xususiyatlariga muvofiq yozilgan; ulardagi badiiy ijod namunalari ham kichkintoylar tasavvuriga yaqin bo'lgan.

d) Turkistonda jadidchilik harakatining ommaviylashuvi bolalar adabiyotining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

e) barcha javoblar to'g'ri.

**2. XX asr boshlaridagi o'zbek ma'rifatparvarlik harakatining yetakchi namoyandasi, Toshkentdagi "usuli savtiya" maktablarining asoschilaridan biri, o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga samarali hissa qo'shgan shoir qaysi javobda keltirilgan?**

a) Hamza Hakimzoda Niyoziy;

b) Abdulla Avloniy;

d) Sadridin Ayniy;

e) Mahmudxo'ja Behbudiy.

**3. "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli to'rt qismdan iborat to'plami muallifi va uning darsliklari qaysi javobda ko'rsatilgan.**

a) Hamza, "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar", "Yengil adabiyot";

b) Ayniy, "Tahzib us- sibyon", "Qiz bola yoki Xolida";

d) Abdulla Avloniy, "Birinchi muallim" "Ikkinchi muallim";

e) Abdurauf Fitrat, "O'qu".

**4. Firdavsi jinon maktab, nodonlara jon maktab,**

***Bilgan kishiga qadrin, bir dorulomon maktab Ushbu misralar bilan boshlanuvchi she'r va to'plam nomi hamda muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?***

a) "Yengil adabiyot", "Maktab", Hamza

b) "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab", Abdulla Avloniy;

d) "Maktab gulisoni" kitobidagi "Maktab", A. Avloniy.

e) "Tahsib us-sibyon", "Maktab";

**5. Ma'rifatparvar adib Hamzaning bolalar uchun tashkil qilgan maktabi, darsliklari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

a) Yetimlar maktabi, "Tarbiyat ut- atfol", "Maktab gulistoni";

b) "Dorulyatim", "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi";

d) Mardikorlar maktabi, "Uchinchi muallim", "Yengil adabiyot";

e) Ishchilar maktabi, "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar".

**6. “Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi” hikoyasi qaysi ma’rifatchi adib qalamiga mansub?**

- a) Hamza;
- b) Ayniy;
- d) Avloniy;
- e) Elbek.

**7. “Tahzib us-sibyon” darsligi muallifi va nashr etilgan yili to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.**

- a) Ayniy, 1930 yil;
- b) Hamza, 1910 yil;
- d) Ayniy, 1910 yilda;
- e) Avloniy, 1913 yil.

**8. Ayniyning 1920-yillarda nashr etgan asari nomi va uning yo‘nalishi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.**

- a) “Alifbo”, husnixatni o‘rganishga;
- b) “Qiz bola yoki Xolida” qissasi, qizlar maktabiga mo‘ljallangan;
- d) “Tarbiyali bola”, axloq-odob o‘rganishga;
- e) “Odobli bola”, odob o‘rganishga.

**9. Ustod Ayniyning maktab va tarbiya mavzu ilgari surilgan asarlari qaysi javobda to‘g‘ri.**

- a) “Qullar”, “Doxunda”, “Sudxo‘rning o‘limi”;
- b) “Odina”, “Buxoro inqilobi tarixi”;
- d) “Guli surx”, “Kulliyot”;
- e) “Eski maktab”, “Yetim”, “Esdaliklar”.

**10. 1919-1921-yillarda nashr etilgan bolalar matbuoti namunalari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan**

- a) “Yosh kuch”, “Tong yulduzi”, “Xurshid”, “Shuhrat”
- b) “Bolalar yo‘ldoshi”, “Bolalar dunyosi”, “Sharq chechagi”.
- c) “Samarqand”, “Oyna”, “Bolalar dovushi”, “Taraqqiy”
- d) “Gulxan”, “G‘uncha”, “Donovord”, “Kapalak”


**11. 1920-30-yillarda bolalarga bag‘ishlangan asarlar yozgan ijodkorlar qayd etilgan javobni aniqlang?**

- a) Avloniy, Hamza, S.Ayniy, G‘ayratiy, Shokir Sulaymon;
- b) Elbek, G‘.Zafariy, Rahim Soli, Xurshid, H.Olimjon, Oybek;
- c) Q.Muhammadiy, Q.Hikmat, Po‘lat Mo‘min, M.Osim, Oybek;
- d) a va b javoblar

## O'quv- vizual materiallar

20-slayd


XX asr boshlaridagi "usuli jadid" maktablari ochib o'qituvchilik qilgan va o'qish kitoblari yaratgan ma'rifatparvar pedagog-adiblar



21-slayd

### G'ayratiy

• O'zbek adabiyoti ravnaqiga o'z ulushini qo'shgan adiblardan bin G'ayratiy— Abdurahim Abdulla o'g'li 1902 yil 15 fevralda Toshkentning Degrez mahallasida hunarmand oilasida dunyoga keldi. Uning otasi o'qimishli, adabiyotga qiziqqan kishi bo'lgan. Onasidan erta judo bo'lgan Abdurahim mahalladagi Oyimxon aya qo'lida tarbiya topgan. Uning adabiyotga qiziqishida ham aya aytgan ertaklar muayyan rol o'ynagan. 1912—1915 yillarda u avval eski maktabda, so'ng madrasalarda tahsil oladi. Shu yillarda Navoiy, Muqimiy, Furqat asarlari bilan tanishadi.



22-slayd

- 1926 yilda G'ayratiy Ozarboyjonga borib, Bokudagi bilim yurtida o'qiydi. U yerda M. O'rdubodiy, M. Mushfiq, S. Rustam, J. Jabbor kabi taniqli adiblar bilap tanishadi va muloqotda bo'ladi. Bokudan qaytgach, Toshkentdagi muzikali drama teatrida adabiy emakdosh bo'lib xizmat qiladi. 1929—1931 yillarda O'zbekiston Davlat nashriyotida muharrir va bo'lim boshlig'i bo'lib ishlaydi. Uning birinchi she'riy to'plami 1927 yilda «Erk tovushi» nomi bilan nashr etiladi. 1928 yilda «Yashash taronalari» she'riy to'plami, «Qutulish» nomli hikoyalar to'plami chop etiladi. She'riy to'plamga kirgan «She'rim», «Shoir», «Tanburchi qizga», «Mening tuyg'ularim» kabi she'rlarida shoirning dunyoqarashi gavdalanadi.

## G'ayratiy dramalari

- Bulardan tashqari, G'ayratiy dramatik asarlar ham yaratgan. Uning «Omon», «Yo'ldosh», «Qanotli do'stlar», «O'rmonda» kabi dramalari uzoq yillar respublika qo'g'irchoq teatri va yosh tomoshabinlar teatri repertuaridan mustahkam o'rin olib keldi.



23-slayd

*Men A.Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", - degan fikrini mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun bunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. "*


*( I.Karimov)*



## Abdulla Avloniy ijodining janriy arsenali:



U yangi maktablar uchun o'quv kitoblar yozib, nashr qildirgan. Jumladan, "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'rt qismdan iborat, "Birinchi muallim" (1911y.) "Ikkinchi muallim" (1912 y.), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Maktab guliston" (1915 y.), "Mardikorlar ashulasi" (1917 y.) va boshqa darslik va o'qish kitoblarini yaratgan.



#### A.Avloniy ijodi bo'yicha tezkor savollar:

- A.Avloniy maktab o'quvchilari uchun qanday darsliklar yozgan?
- **J:** "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1912), "Tarix", "Turkiy Guliston yoki axloq" (1913) kabi zamonasi uchun muhim va zarur bo'lgan darsliklarni yozgan.
- U qanday taxalluslar bilan she'r, hikoya, feleton va kichik hajmdagi dramatik asarlar yozgan?
  - **J:** A. Avloniy "Nabil", "Shuhrat", "Abdulhaq", "Indamas", "Tangriquli", "Shapa-loq", "Chol", "Ab", "Chig'aboy" taxalluslari bilan asarlar yaratgan.
- A. Avloniyning qanday dramatik asarlarini bilasiz?
- **J:** "Pinak", "Advokatlik osonmi?", "Ikki muhabbat", "To'y", "S'ezd", "Layli va Majnun", "Biz va siz", "Portugaliya inqilobi"

- A. Avloniy qaysi tillarni bilgan?
- **J:** A. Avloniy fors, rus, ozarbayjon, arab tillarini bilgan.
- A. Avloniyning fasllarga bag'ishlab yozgan she'rlari qaysilar va ularga misollar keltiring.

- **J:**Uning fasllarga bag'ishlangan "Bahor", "Yoz", "Kuz", "Qish" kabi she'rlari bor.
- Taniqli teatr artisti Gavhar Zokirova A. Avloniyning kimi bo'ladi?
- **J:**A. Avloniyning uch qizi, uch o'qli bo'lgan. Shundan eng to'ng'ich farzandlari Sora bo'lgan. Uning yakka-yu yagona farzandi Gavhar Zokirova. U A.Avloniyning nabirasi

- A. Avloniyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida kimlar kitob yozganlar?
- **J:**A. Boboxonov, M. Maxsumov "Abdulla Avloniy", B. Qosimov "Abdulla Avloniy" (adabiy pedagogik portretlar), U. Dolimov "Ma'rifat darg'alari" va boshqalar.

- A. Avloniy rus adibi I. A. Krilovning qaysi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?
- **J:**U I. A. Krilovning 21 masalini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Jumladan, "g'ayrijins ittifoq", "Tulki ila serka", "Maymun ila ko'zoynak", "It ila yo'lovchi", "Qarg'a ila zag'izqon" kabilar.

- Adib "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida o'z fikrlarini va mulohazalarini dalillash uchun mashhur mutafakkirlardan kimlarning fikrlarini keltiradi?

- **J:**Avloniy o'z mulohazalarini dalillash uchun Aristotel, Platon, Gippokrat, Mirzo Bedil, singari mashhur mutafakkirlar fikrlarini keltiradi.

- Avloniy "Muxtasar tarixi adabiyoti va tarixi Islom" asarida qaysi payg'am-barlarning qissalarini bayon etgan?

- **J:**Avloniy "Muxtasar tarix adabiyoti va tarixi Islom" asarida odam alayhissalomdan Muhammad alayhissalomgacha o'tgan payg'ambarlarning qissalari va zuhuri islomni bayon etgan.

- A. Avloniy bilan bog'liq joylarni bilasizmi?
- **J:**Avloniy nomida bir qator maktablar bor. O'zbekiston yozuvchilari uyushmasi bolalar adabiyoti bo'yicha uning nomida mukofot ta'sis etgan. Toshkentdagi yirik ko'chalardan biri, Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish, markaziy institut va mahallalarning biri uni nomida.

- Qaysi yozuvchining qanday asarida A.Avloniyning tarjimayi holi berilgan va unga bag'ishlangan?

- **J:**Mashhur yozuvchi Tohir Malikning "Qaldirg'och" ("Savohil") qissasi.

### ***Tavsiya etilgan adabiyotlar:***

1. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T: O'qituvchi, 1992. –B. 62
2. Avloniy Abdulla. O'son, millat! Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi B. Qosimov, Sh.Rizayev – T.: Sharq, 1993. –B. 144
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik, 1-2-jildlar. T.: Ma'naviyat, 1998.
4. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy.–T.: Fan, 2004.
5. Niyoziy H.H. Mukammal asarlar to'plami. 4 tomlik, 2-tom. Pedagogik risolalar. – T.:Fan, 1980; yana: Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi. MAT, 2-t. – T.,1981
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish. T.: Ma'naviyat, 2002.
7. Qosimov B. va boshq. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. –T.: Ma'naviyat, 2004.
8. Tohir Malik. Qaldirg'och, qissa. – T.: Yosh gvardiya, 1987. – B.236
9. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. –T: O'qituvchi, 1990. –B. 26 - 102.
10. Ozbek bolalar adabiyoti antologiyasi. 1-qism. She'riyat. –T.: O'qituvchi, 2006

## VI. BOLALAR ADABIYOTI RIVOJLANISH SARI

### Reja:

1. Adabiy ertak va uning bolalar adabiyoti taraqqiyotiga ta'siri.
2. G'.G'ulom – bolalar shoiri va nosiri.
3. Oybekning bolalik olami.
4. H.Olimjon – bolalarning ertaknavis adibi.

Asosan, she'riyat va hali hikoyachilik doirasida qolib kelayotgan bolalar adabiyoti 30-yillarga kelib, xalq ijodiyotiga keng va chuqur murojaat qilishga kirishib, o'z janriy imkoniyatlarini **adabiy ertakning** *she'riy ertak, nasriy ertak, ertak qissa, dramatik ertak* singari xilma-xil oraliq shakllari bilan boyitish hamda to'ldirishga muvaffaq bo'la boshladi. Aslida XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning 10-yillarida fors-tojik shoiri Ubayd Zokoniyning "Mushuk ila sichqon" qissasi(Xislat tarjimasi), rus adabiyoti namoyondalari I.A.Krilov, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy masallari, ertaklari va hikoyalarining o'zbek tiliga o'girila boshlanganligi, shuningdek, Said Rasul Aziziy va Abdulla Avloniyning voqeaband she'rlari, masallari hamda Hamzaning xalq rivoyati asosida yozilgan "Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" she'riy ertagi, qolaversa, Abdulla Qodiriyning 20-yillarda xalq ertagi ruhida yozilgan "Jinlar bazmi" va Abdurauf Fitratning "Qiyomat" nasriy adabiy ertaklaridan o'z sarchashmasini olgan folklor sujetlari negizida bolalarbop asarlar yozish va shu asosda realistik o'zbek bolalar adabiyotini shakllantirish va rivojlantirish harakati 30-yillar arafasi va davomida chinakkam yangi bosqichga ko'tarildi. Buning bir qancha sabablari va omillari bor edi.

*Birinchidan*, xuddi shu yillarda o'zbek folklorshunosligi ancha jonlangan edi, xalq qo'shiqlari va dostonlari qatorida ertaklarni yozib olish va nashr etishda samarali natijalarga erishila boshlandi. Bu ishda Elbek, G'ulom Zafariy va Shukur Sa'dulla singari bolalar adiblari ancha faollik ko'rsatdilar. Ayniqsa, Elbek bolalar folklorini to'plash yo'lida qizg'in izlandi, 1937- yilda o'zi to'plagan asarlar asosida tartib bergan "Bolalar qo'shig'I" to'plamini nashr ettirdi.

*Ikkinchidan*, 30-yillarning boshlarida "Bolalarga ertak kerakmi? Sehrli-fantastik ertaklar ular tarbiyasiga zararli emasmi?,"–degan mavzularda boshlangan qizg'in bahs xalq ertaklariga munosabatni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi. Natijada, xalq ertaklari sujetlarini turli shakllarda ijodiy interpretatsiya qilish va shu asosda bolalarni xalq fantaziyasi olamiga olib kirish bir muncha jonlandi. Bu hol bolalar epik poeziyasining yuksalishi va dramaturgiyasining oyoqqa turishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Sirasini aytganda, bolalarga atalgan badiiy adabiyot yaratish an'anasining dastlab, adabiy ertak shaklida Daniel Defo, Jonatan Svift, Jan de Lafonten, Sharl Perro, Erix Rapse, aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmilar, Vilgelm Gauf, Hans Kristian Andersen, Karlo Kollodi, V.Jukovski, P.Yershov va boshqalar ijodiyotida keng miqyosda namoyon bo'lganligi va o'zbek bolalar adabiyoti vakillarining ular tajribalarini ijodiy o'zlashtira boshlashlari jarayon qiyofasini belgilay berdi. Natijada, folklor va yozma bolalar adabiyoti munosabatlari ikki tomonlama chuqurlashishga kirishdi.

Bolalar uchun ijod etish an'anasi hali yozuv bo'lmagan qadimgi zamonlardayoq onalar allalari, erkalamalari, ovutmachoblari, shuningdek, xalq ertaklari, topishmoqlari, taqvim va maishiy qo'shiqlari, butun bir tizim tarzida namoyon bo'luvchi o'yinlari shakllarida folklor bag'rida yuzaga kelgan edi. Binobarin, bolalar uchun ijod etish xalq pedagogikasi va etnografiyasi aqidalariga to'yintirilgan qadimiy an'ana bo'lib, uning ijodiy andazasi bolalarga mo'ljallangan ixtisoslashgan badiiy yozma adabiyotning vujudga kelishini ta'minlagan omil bo'ldi. Bu folklor va yozma adabiyot orasidagi genetik (bevosita) aloqa natijasi edi.

Folklor va yozma adabiyot orasidagi bilvosita aloqa esa bolalar adabiyotida folklorizmlarning xilma-xil ko'rinishlarini yuzaga keltirdi va bolalar adabiyotining xalqchillashuvini, g'oyaviy-badiiy barkamollashuvini, qiziqarliligi va tabiiy soddaligini ta'minladi. Shu tariqa o'zbek bolalar adabiyoti ham folklorga tayangan holda shakllana va rivojlana bordi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek bolalar adiblari xalq ijodiyoti namunalarini to'plash, nashr etish va bolalarga moslashtirish, folklordagi janriy rang-baranglik va ifodaviy vositalardan ijodiy foydalanishda, asosan, tubandagi ikki yo'nalishda amal qildilar:

*Birinchi yo'nalish* – folklor namunalari (ertaklar, masallar, rivoyatlar, latifalar va hokazolarni) bolalar yoshi, saviyasi va ruhiga moslashtirib qayta ishlash yoki tabdil (interpretatsiya) qilish. Bu ijodiy jarayonning bosh sharti – asarning xalqchil ruhiga putur yetkazmagan holda g'oyaviy-badiiy barkamolligini ta'minlash va shu asosda axloqiy-tarbiyaviy qimmatini oshirish hisoblanadi. Jumladan, xalq ertaklarini bolalarga moslashtirib qayta aytish an'anasi jahon xalqlari, xususan, rus bolalar adabiyotida anchagina tajribaga ega. Shukur Sa'dulla ana shu ilg'or tajribani o'rganish asosida nafaqat o'zbek, balki, boshqa xalqlar ertaklarini ham bolalarga moslashtirib tabdil qilishda ma'lum natijalarga erishdi. Bu jihatdan, ayniqsa, uning 30-50-yillardagi izlanishlari samarali bo'ldi. Bu davrda u ellikdan ortiq xalq ertagini bolalarga moslashtirib, qayta ishladi va kichkintoylarga tortiq etdi. Bular "Ikki sandiq" (1945,1948), "Yoriltosh", "Uch tulki" (1947), "Qarg'aboy" (1948), "Tulki bilan turna" (1951), "Maqtanchoq quyon" (1953), "Ayyor tulki" (1955), "Ohanrabo" (1959) singari rasmiy kitobchalar tarzida nashrdan chiqdi. **Sh.Sa'dulla** xalq ertaklarini kompozitsion soddaligiga, xalqchilligiga, g'oyaviy yo'nalishiga putur yetkazmay, zamon talablari doirasida axloqiy-tarbiyaviy qimmatga molik bo'lishiga diqqat qildi. Natijada, ertaklar turli yoshdagi kichkintoylar uchun "hayot darsligi" vazifasini o'tay boshladi. Bu jihatdan adibning maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun "Och bo'ri", "Chol bilan bo'ri", "Sholg'om", "Bo'g'irsoq", "Bo'ri va echki bolalari", "Qarg'a va qo'zi" kabi ertaklarni qayta ishlashdagi xizmatlari e'tiborga arzigulikdir.

*Ikkinchi yo'nalish* – folklor sujetlari asosida she'riy, nasriy va dramatik asarlar ijod etish, yoki stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar. Bu yo'nalish barcha xalqlar bolalar adabiyotlari ravnaqida yetakchi omillardan hisoblanadi.

Folklor janrlarining kompozitsion qulayliklari – ommaviyligi bolalarga atab yoziladigan asarlar uchun g‘oyat muvofiqdir. Bolalar adiblari bu haqiqatni chuqurroq anglay borganlari sari ko‘proq ijodiy kamolotga erishayotirlar. Ular xalq sujetlariga monand sujetlar o‘ylab topa boshladilar. Bunday to‘qima adabiy sujetlar ko‘pincha hayot voqeligini doim kuzatish va undan oziqlanishning, shuningdek, biror maqol va matalning mazmunini voqeaband tafsilot vositasida kichkintoylarga yetkazish niyatining natijasi bo‘lib tug‘iladi. Bu esa ularning xalq sujetlari negizida yozilgan asarlardan farq qiluvchi xoslik belgisi sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni janr e‘tiborlariga ko‘ra adabiy ertaklar, doston-ertaklar, adabiy masallar, adabiy latifalar deb atash to‘g‘riroqdir. Bu jihatdan, ayniqsa, adabiy ertaklarning bolalar poeziyasini taraqqiy ettirishdagi roli katta bo‘ldi. Kichkintoylarni voqeligimiz ruhiga olib kirishda, ularga hayotdan saboq olishni va odam tanishni o‘rgatishda S.Jo‘raning “Qaldirg‘och”, Z.Diyorning “Yuksak tog‘, keng o‘tloq va mard o‘rtoq haqida qissa”, Q.Muhammadiyning “Qo‘ng‘izoy va sichqonboy”, “Sandal va pechka”, “Chivin urishqoq va shamol polvon haqida”, “Dono bobo va uning 101 nevara-chevaralari”, Sh. Sa‘dullaning “Bir tuxum tarixi”, “Bir yallachi va bir o‘yinchi”, “Yalqov ayiq”, “Ravochoq haqida ballada”, “Qurumsoq”, Po‘lat Mo‘minning “Kecha, bugun va erta haqida ertak”, “Tish cho‘tka, paroshok va atirsovun ertagi”, “Gaz polvon ertagi”, “Cho‘lning cho‘lga xati”, Safar Barnoyevning “Oltin shahar haqida afsona”, “Vijdon”, “Qo‘g‘irchoqlar podshosi”, Tunsunboy Adashboyevning “Nur daryo”, “Uch bo‘taloq va sirli qovoq”, Miraziz A‘zamning “Chumolioy bilan arioyning sayohati”, “Erk qushi”, Anvar Obidjonning “Odil Burgutshoh va Zamburug‘ laqabli josus haqida ertak”, Tohir Qahhorning “Ko‘zga ko‘rinmas maxluq”, Hamza Imomberdiyevning “Ajdah komida”, Muhammadjon Rahmonning “Momoqaymoq”, Nurali Qobulning “Odam, oyqortog‘ va daydi shamol haqida ertak” kabi ko‘pgina adabiy-she‘riy ertaklarining axloqiy-estetik qimmatini kattadir. Bu asarlar o‘zbek bolalar epik poeziyasining xalqchil zamonaviy namunalari hisoblanadi.

Shuni ta‘kidlash joizki, XX asrning 60-80-yillarida bolalar adabiyoti vakillarining folklorga ijodiy munosabati yanada chuqurlasha bordi. Bu davrda ular folklorning qator janrlariga xos shakl va ifoda usullarini ijodiy o‘zlashtirishga alohida rag‘bat ko‘rsata boshladilar, natijada, bolalar epik poeziyasida she‘riy adabiy ertakning qator ichki ko‘rinishlari bilan birga adabiy topishmoq, adabiy tez aytish, adabiy latifa, prozada esa adabiy nasriy ertak, ertak-qissa singari oraliq shakllar yuzaga keldi. Nasriy adabiy ertak janrida T.G‘oyibov, P.Muhammadyorova, A.Abdurazzoq, M.Murodov, A.Irisov, Y.Shukurov, Y.Sa‘dullayeva, S.G‘afurov, R.Farhodiy va R.Tolibovlar izlangan bo‘lsalar, A.Obidjon “Dahshatli Meshpolvon” (1989) ertak-qissasini yaratib, janrning yangi voqelik asosidagi jilosini ta‘minladi. Bugina emas, u “Pahlavonning o‘g‘irlanishi”, “Qo‘ng‘iroqli aldoqchi”, “Qorinbotir” singari ertak-pyesalari bilan folklor sujetlari tipidagi zamonaviy bolalar dramaturgiyasini boyitishga hissa qo‘shdi. Bu jihatdan u Po‘lat Mo‘minning “Qovoqvoy bilan Chanoqboy”, “Suqatoy va Konfetboy”, “Ona bolam deydi, bola onam deydi”, G‘ani Jahongirovning “Ajoyib urug‘”,

O.Tolibov va I.Ahmedovlarning “G‘ayrat va g‘afolat”, Ergash Raimovning “Qorboboning yangi yil sarguzashtlari” va Rahim Farhodiyning “O‘tkir shoxli buqacha” singari ertak-pyesalarida ko‘ringan salbiy xarakterdagi stilizatsiyalash usulini yanada chuqurlashtirdi va bu an‘ananing hayotiyiligini ta‘minladi. Bu ertak-pyesalarda nafaqat sujet qurilishida, balki obrazlar xatti-harakatlarida, nutqida, xilma-xil ifodaviy vositalarda ertaklarga xos fantastik unsurlar, tasviriy vositalar yetakchi taomilga aylangan.

2-jadval



**Gafur G‘ulom – bolalar shoiri va nosiri**  
(1903-1966)

Akademik shoir G‘afur G‘ulom kattalarning ardoqli adibi bo‘lishi bilan birga bolalarning ham sevimli ijodkoridir. U XX asrning 20-yillaridan 60-yillarigacha bolalar uchun she‘rlar, hikoya va qissalar yozdi. Uning she‘rlarida bolalar hayoti, ularning orzu-armonlari, o‘kinchlari, quvonchlari ifoda etilgan edi. Shoirning bolalarga atalgan she‘rlari 1935-yilda “Turg‘un va O‘rdak”, 1940-yilda

“Mukofot”, 1949-yilda “Tongotar qo‘shig‘i”, 1953 -yilda “Bari seniki”, 1955-yilda “Bir g‘uncha ochilguncha”, 1958-yilda “Siz mening yoshligimsiz” to‘plamlariga kiritildi. Ayni damda nasriy asarlaridan “Netay” 1930-yilda, “Tirilgan murda” 1934-yilda, “Yodgor” 1936-yilda, “Shum bola” 1963-yilda chop qilindi. Ayni chog‘da G‘afur G‘ulomning she‘riy to‘plamlarini nashr ettirish shoir vafotidan so‘ng to‘xtab qolmadi. 1969-yilda “Bayram maktubi”, 1970-yilda “O‘ylashni o‘rganamiz”, 1983-yilda “Farzandlarimga” she‘riy to‘plamlari bosildi. Zero, G‘afur G‘ulomning bolalarga atalgan asarlarisiz o‘zbek bolalar adabiyotini tasavvur qilib bo‘lmaydi. G‘afur G‘ulom mutafakkir va faylasuf shoir sifatida bolalar yurt kelajagi ekanini, ularning kamoli xalq kamoli ekanini his qildi, shu tuyg‘ularni she‘rlarida goh bola bo‘lib, ularning dunyosini yoritisa, goh kattalarning bolalarga munosabatlarini aks ettirdi.

G‘afur G‘ulom bolalarga kattalarning munosabatini “Charog‘larim-qarog‘larim”, “Aziz avlodlarimizga”, “Mening bir satrim”, “O‘qing qizlar”, “Chiroy”, “Siz mening yoshligimsiz”, “Sen salomat bo‘lsang bas” kabi she‘rlarida ifodalar ekan, o‘zining bolaparvar shoir ekanini namoyish qila olgan. U xalq shoiri sifatida yurtimizning har bir bolasini o‘ylagan, ularning har birining kelajagi uchun qayg‘urgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. G‘afur G‘ulom “Men,— deya yozgan bir xatida, – avvalo, bolalar deganimda o‘z bolalarimni o‘ylaganim yo‘q. Butun respublikamizni o‘z oilam deb, respublika bolalarini o‘z bolalarim deb bilaman. Demak, ular uchun yozganim yozgan”.

Bolalarga jahon va zamon ularniki ekanini uqtirish Vatan ravnaqi, xalq taraqqiyoti yo‘lidagi ta’sirli vositasidir. She‘r falsafaga boy, shuning bilan birga sodda, ohangi ravon va qalbga yaqin.

Barmog‘ingga kirmoqchi tikanga bag‘rim qalqon,  
Ko‘zim qorachig‘lari, sizga nur yarashadi.  
Qo‘ng‘iroq sochlaringiz qo‘ng‘ir, qora, za‘faron,  
Oftobning tarog‘ida onalar tarashadi.

She‘r g‘oyasi, badiiyatiga ko‘ra ta’rifga loyiqdir; shoir bolalar barmog‘iga kirishi mumkin bo‘lgan tikanga bag‘rini tutib berishga rozi. U bolalarni kattalarning ko‘z qarog‘i deb hisoblaydi.

G‘afur G‘ulom – donishmand shoir. U bolalarga, yosh avlodga ishonch bilan qaragan. Yetimlik mavzui G‘afur G‘ulom ijodida ko‘p uchraydi. Negaki, shoirning o‘zi yetimlik jabrini tortgan inson. U to‘qqiz yoshda otasiz qoladi, o‘pka shamollashidan vafot qilgan otasi to‘rt norasidaga G‘afurni bosh qilib ketdi. Kenja singlisi endi olti oylik edi. U tirikchilikning qaynoqli, alamnok ko‘chalariga kirib chiqar ekan, yashashni o‘rgandi. Oqibat hayot kurashlardan iboratligini angladi. Yetimlikning nochorligini, alamlarini “Netay” qissasida Netayning fojeasi taqdiri yordamida aks ettirgan bo‘lsa, “Shum bola”da Qoravoy o‘g‘il bola-ku, deb hisobladi, uni yaxshi hayotdan umidvor qilib yaratdi. Qoravoy hayot unga behisob azoblar tayyorlasa ham, qaddini rostlab, yo‘lida davom etdi. Bu ma’lum ma’noda G‘afur G‘ulomning o‘zi edi. G‘afur G‘ulom yangi davlat yetimlarga e’tibor qilayotganini, o‘zbek yetimparvar xalqligini ko‘rib, “Yodgor”da boshqacharoq yetimlikni tasvirladi.



Gʻafur Gʻulom umrining oxirigacha yetimlik ogʻriqlarini unutmadi. Nasrida aks ettirganidan tashqari, sheʻriyatida ham yetimlikni ifodaladi. Shoir bolalarga “kelajagim, keragim” deb murojaat qilar ekan, yuragi ham bolalarniki ekanini taʻkidlaydi. Shoirning yetimlik motivi mavjud sheʻrlarida bugungi bolalikka shukrona bor. Istiqloq davrining katta-yu kichigi bu sheʻrlarni oʻqib, bugungi bolalik uchun mustaqil Vatandan, ozod davlatdan minnatdor boʻlsa arziydi. Shoir oʻz asarlarida hajvdan mahorat bilan foydalangan. “Shum bola”dagi fojeali bolalikni ham shu qadar satira va yumorga oʻraganki, asardagi qaygʻuli voqealarni koʻrib turib ham kulaverasiz.

Bu jihat Gʻafur Gʻulomning hajviy sheʻrlarida ham yetakchi. Uning “Ahmad yomon bola emas-ku, ammo...” sheʻrida Ahmadjonning boshi, oyogʻi, qoʻl, burun, oʻpka kabi jism aʻzolari oʻzaro majlis qilib, dardlarini toʻkib soladilar. Oqibat ular shunday qaror qilishadi:

Ahmadjondir xoʻjayin hammamizga,  
Intizomga, tozalikka va bizga,  
Bundan keyin bermas ekan eʻtibor,  
Ishlamaymiz, mana koʻndalang qaror.

Bu obrazli ifoda, eʻtiroz bolalarni oʻylantirib qoʻyishi tabiiy, kichik maktab yoshidagi bolalar sheʻrdagi voqelikka ishonib, mening ham oyogʻim, boshim, burnim va shu kabi aʻzolarim ishlashdan bosh tortishmasin, deb xavotirlanib, ularni avaylay boshlasalar, oʻsmir hamda oʻspirinlar sheʻrdagi majoziy maʻnodan toʻgʻri xulosa chiqarishadi. Inson aʻzolari kasal boʻlish mumkinligini anglab, ularni avaylay boshlaydi:

Soʻz boshladi tikka turib oyogʻi,  
Qora charmday iflos edi har yogʻi,  
– Men nimaman, zanglagan boltamanmi,  
Ahmadjonda bir emas, oltitamanmi?

Bolalar oʻzlaridagi tana aʻzolarini qayta berilmasligini, ularni almashtirib boʻlmasligini, ularni avaylash lozimligini anglashadi. Bu shoirning yutugʻidir.

Mana yarim asrdiki, uning satira va yumor bilan sugʻorilgan bolalarbop sheʻrlari bolalarni ham, kattalarni ham birday kuldiradi va tarbiya qiladi.

## “Nortojining kurak tishi”

Oldingi toʻrtta kurak tishining  
Sogʻi yoʻq – hammasi chirik, darz ketgan.  
Baʼzisi juda past, baʼzisi baland,  
Baʼzisi lab yular-misli tikan.  
Nortoji oʻzi shoʻx, erinchoq bola-  
Yuzini haftada arang yuvadi.  
Koʻcha ham kuylarda chang tuproq kechib,  
“Olapar”, “Toʻrtkoʻz”ni doim quvadi.




Gʻafur Gʻulom oʻzbek edi, ayni damda inson edi. U oʻzbekona lutf qilardiyu, butun dunyoni oʻylardi. Goh Oʻzbekiston, goh Oʻrta Osiy, goh Sharq, goh Moskvani tarannum qilsa-da, dunyo yagona tizimga egaligini, har bir qaricherning tinchligi, koinotning tinchligi ekanini chuqur anglardi. Ulugʻ shoirligi ham bir millatni emas, butun dunyoni oʻylab qaygʻurishi bilan oʻlchanadi:

Biz yashagan yer yuzi  
Juda katta dasturxon.  
Olam toʻla neʼmatdan  
Toʻyadi ahli jahon.

Shoirning bolalarga yozgan sheʼrlari rang-barang mavzudadir:





Shoir “quyosh, suv, havo, tuz, ona yer hayot degani, odamzot teng huquqli, barchasidan birday bahramand bo‘lishi joiz”, deb hisoblaydi va fikrining ikkinchi tomonini shunday ifodalaydi:

Har kishining o‘z tuqqan  
Aziz ona Vatani,  
Tinchgina boshpanasi,  
Oilasi, chamani.

G‘afur G‘ulom vatanparvar shoir sifatida har bir she‘rida Vatanni tarannum qildi, yoshlarni Vatanni sevishtga, uni ardoqlashga chorladi. Bolalar ongiga o‘zbekning O‘zbekiston sarhadlaridan boshqa yerlarda sochilib yotganini, qayerda bo‘lmasin o‘zbek bizning jondoshimiz, qondoshimiz ekanini uqtiradi:

Vatandoshlar salomin necha jildli bir kitob aylab,  
Navoiy deb Musalloga kelibman intixob aylab.  
Samarqand, Andijon, Toshkandu, Urganju, Buxorodan,  
O‘zing nash‘u namo topgan sharafli shonim ma‘vodan,  
Sening orzularing ro‘yobga chiqqan yangi dunyodan.

G‘afur G‘ulom xalqini sevdi, Vatanining bir qarich yerini ham ko‘ziga to‘tiyo qildi. Bu tuyg‘ularini she‘rga solib, yosh avlodga taqdim qildi. U maktabni ulug‘ dargoh hisoblaydi. Negaki, ko‘chalarda sargardon o‘tgan bolaligi maktab ko‘rib taskin topadi. Hali bolaligi tark etar-etmas murabbiylik qilgan G‘afur G‘ulom umr yo‘lini ilm, maktab, ustoz tushunchalarini anglagan damlarda belgilab oldi:

Katta bilimlarning zina poyasi-  
Kishilik ijodin yetugi kitob.  
Maktabdir haqiqiy ona siynasi,  
Ma‘rifat-zehnimiz ufqida oftob

Shoir ustozlarga ta‘rif berar ekan, ularni ongimizni yorituvchi ulug‘ zotlar deb hisoblaydi. Shoir bolalar uchun ko‘plab she‘rlar yozdi.

G‘afur G‘ulomning bolalar shoiri va nosiri qiyofasiga otalik va murabbiylik tuyg‘ulari chuqur singishib ketgan. Bunda yetimlikda kechgan bolalik xotiralari

ta'siri ayriqcha rol o'ynaganini alohida ta'kidlash joiz. Shu holat uni qo'liga qalam olib ilk she'rini yozishga undagan edi. "Bir kuni, – deb yozgan edi u o'zining "Kechmish va kechirmishlarimdan" xotiranomasida, – bolalar bog'chasidagi yetim bolalardan 15 tasini bizning internatga o'tkazdilar. Men bu go'daklar bilan birga tunab qoldim. Kechasi uxlamay, kuzatuvchilik qilib chiqdim. Shu kecha o'z yetimligim, boshimdan kechirganlarim va shu yetim bolalar ahvoli... to'g'risida she'r yozdim. Shu she'rimni birinchi she'rim desam bo'ladi". O'sha ilk she'ridayoq u bolalarning ham hazrati Odam farzandi ekanligini, binobarin, ular ham insonday yashash va ulg'ayish huquqiga ega ekanliklarini ularning o'z tillaridan favqulodda bir ko'tarinkilik bilan ifoda etgan edi.

Biz Odam bolasimiz,  
Odamning donasimiz.  
Biz o'sib ulg'ayamiz,  
Olim bo'lish g'oyamiz.

G'afur G'ulom yetimlikda ulg'ayganini umr bo'yi unuta olmadi. Yetimlik uni o'ksik qalb sohibiga aylantirgan va mudom ta'qib etganligi tufayli bolalarga atab qaysi mavzuda she'r yozmasin, o'sha zahoti xotirasi qatlaridagi yetimlik armonlari uyg'onishi tabiiy edi. Kattalar uchun yozilgan va XX asrdagi o'zbek she'riyatida voqeaga aylangan "Sen yetim emassan"da ham, bolalarga atab bitilgan "Bayram maktubi" va boshqa qator she'rlarida ham bu holni kuzatish mumkin. Inchunin, shoirning roppa-rosa ellik ikki yasharligida yaratgan "Bayram maktubi" she'rida o'qiymiz:

O'ttiz sakkiz yil burun  
Bugungi siz bilan teng  
O'n to'rt yoshlarda edim.  
Tongsiz, uzun kechqurun  
Qora qo'ynin ochar keng  
Ko'z o'ngida uchurum.  
Maktab qayoqda deysiz?  
Nonning hatto o'zi yo'q,  
Bo'z yaktak, yirtiq ishton,  
Eshiksiz, o'tsiz, nursiz,  
Vayronalar qup-quruq,  
Xalq tentirar parishon  
Oq podshoning urushi  
Yurtni yergacha toptab,  
Tekkan edi tinkaga.  
Och qo'shinning yurishi  
Yer yuzini gur o'rtaq,  
O'xshardi alangaga.

Sho'ro mustamlakachiligi siyosatining butun fojeasini bolalik xotirasi vositasida shu xilda fosh etarkan, qonxo'r fashistlar ming-minglab bolalarni otalaridan ayro etib, yetim qoldirayotganidan jirkanganida yana o'sha "o'ninchi yillar sargardonligi"ni eslamay, o'tolmaydi:

Yetimlik nimadir-  
 Bizlardan so‘ra.  
 O‘ninchi yillarning  
 Sargardonligi;  
 Isitma aralash  
 Qo‘rqinch tush kabi  
 Xayol ko‘zgusidan  
 O‘chmaydi sira  
 Men yetim o‘tganman,  
 Oh, u yetimlik...  
 Voy bechora jonim,  
 Desam arziydi,  
 Boshimni silashga  
 Bir mehribon qo‘l,  
 Bir og‘iz shirin so‘z  
 Nondek arzanda.  
 Men odam edim-ku...  
 Inson farzandi...

Sen yetim emassan,  
 Tinchlan jigarim,  
 Quyoshday mehribon,  
 Vataning — onang,  
 Zaminday vazmin-u,




Mehnatkash mushfiq  
 Istagan narsangni tayyorlaguvchi  
 Xalq bor — otang bor.  
 Cho‘chima, jigarim,  
 O‘z uyingdasan.

G‘.Gulomning o‘smirlar kitobxonligining asosini tashkil etgan “Netay”, “Yodgor” va “Shum bola” qissalarida ham shu muammo tahlil qilindi. Adib asarlarida yetimlikni keltirib chiqargan sabab va oqibatlarga badiiy nazar solish yo‘lidan boradi. Uning talqinicha, yetimlik-mohiyat e‘tibori bilan o‘gaylik ham. Chindan-da, o‘z otasi yo onasi (ba‘zan har ikkovi)dan bevaqt ajralib, o‘gay ota yoki o‘gay onadan shafqat emas, shafqatsizlik ko‘rgan bolakayning achchiq va alamli qismati-shunday foje’ qismatdir. Bunday holatda yetimning o‘gayligi birmuncha shaxsiy fojea sanalishi mumkin. Ammo G‘afur G‘ulom masalani shu

holda yechish yo‘lidan bormagan, aksincha u o‘tmishdagi nobop tuzum va bemehr jamiyatning shafqatsizligi ham o‘lganni tepkilab, yetim-yesirlarga o‘gaylik qilishi fojeasini ochishga harakat qildi va aytish mumkinki, bunga muvaffaq ham bo‘ldi. Bu jihatdan Netay va Shum bola – Qoravoyning yetimlik qismati talqini e‘tiborni tortadi.

## “Shum bola”

- Adibning “Shum bola” qissasida o‘zbek xalqining o‘tmishdagi og‘ir hayoti, xususan, o‘smirlarning qarovsizligi, ularning bir parcha non deb darbadar kezishlari achinarli nasvirlansa, ba‘zi obrazlarning harakatlari kulgi ostiga olinadi




## “Shum bola” kinofilmidan lavhalar



“Yodgor” qissasida yetimlik sujetni harakatga solgan motiv. Unda yetim go‘dak Yodgorning qismatiga munosabat hal qiluvchi rol o‘ynaydi. S.Mamajonov to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Yodgor” ma’lum jihatidan poetik ramzli nom. Go‘dak Yodgor asarda tasvir obyekti bo‘lmasa ham yozuvchi uchun yangi insoniy munosabatlarni ko‘rsatib berishda vosita rolini o‘ynaydi. Bu go‘dak Mehri va Jo‘ralar, ularning ota-onalarining qalb dunyosini ochib beruvchi bir kalitdir, shu go‘dak asar voqeasini yaratadi, konfliktga keskin tus beradi, sujetni o‘stiradi va uni ikkiga bo‘lib tashlab, keyin yana bir-biriga qo‘shadi, Shu go‘dak xarakterlarni rivojlantiradi, ochadi. U asardagi voqealar va odamlarni bir-biri bilan munosabatga kirituvchi, asarning hamma bo‘lagini yozuvchining ko‘rish markaziga bog‘lab, tortib turuvchi magnitdir: Mehrining o‘z sevganiga shu go‘dak xalaqit beradi. Jo‘raning “aybsiz aybdor” bo‘lib, onasi, aka va ammalari oldida ta’naga qolishida shu go‘dak sababchi bo‘ladi, xuddi shuningdek, Jo‘raning insoniyligini ochib beruvchi, Saodat sevgisini sinovdan o‘tkazuvchi va Mehriга hayot haqiqatini tushuntirgan ham shu go‘dak – Yodgordir.





Gʻafur Gʻulom bolalarga yuzlab sheʼrlar hadya qildi. Uning “Sen yetim emassan”, “Oʻylashni oʻrganamiz”, “Bari seniki” kabi sheʼrlari dunyo bolalar adabiyoti xazinasiga qoʻshilishiga loyiq sheʼrlardek.

Gʻafur Gʻulom oʻz sheʼrlarida bolalik olamini tarannum qilar ekan, quyidagilarni amalga oshirdi:

1. Har bir sheʼrda bolalarning kelajagi ulugʻ boʻlishiga ishonch bor. Gʻafur Gʻulom faylasuf shoir sifatida yosh avlodga ishonch bildirish, ularni ruhlantirish juda muhimligini angladi. Shu boisdan “Yasha, deyman, oʻgʻlim!”, “Bari seniki” deb xitob qildi.

2. Gʻafur Gʻulom bolalardagi kamchiliklarni yumor yordamida koʻrsatib berdi. “Nortojining kurak tishi”, “Ahmadjon fotograf”, “Ahmad yomon bola emas, ammo...” kabi sheʼrlari bolalar hajviyotining oʻlmas namunalaridir.

3. Gʻafur Gʻulom asli yetim oʻsdi. Yetimxonada ishladi. Hatto ilk sheʼrini bolalarga bagʻishladi. Shoir oʻzining nochor yetimligi bilan Vatan himoyasidagi yetimlar hayotini solishtirib, yetimlik motiviga oʻzgartirish kiritdi. Folklorda yetimga mifologik kuchlar homiylik qilsa, shoir sheʼrlarida el-yurt gʻamxoʻrlik qilishi ifodalanadi.

4. Shoirning deyarli har bir sheʼrida Vatan madhi bor, uning sheʼrlari yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalay oladi.

5. Gʻafur Gʻulom yosh avlodning komil boʻlishida ilm, maktab, ustoz yetakchi oʻrin tutishini sheʼrlarida ifoda etdi.

6. Shoirning bolalarbop sheʼrlarini asosan yetti, toʻqqiz, baʼzan olti, sakkiz, oʻn bir hijolidir. Qofiyalari rang-barang.

7. Gʻafur Gʻulom talay voqeaband sheʼrlar yozdi, bu sheʼrlar sujeti bolalarni tarbiyalashga moʻljallangan.

8. Shoir sheʼriyatida talmeh, tashbeh, jonlantirish, qarshilantirish, sifatlash, anafora, tavzeʼ, mubolagʻa kabi sanʼatlar mahorat bilan qoʻllangan va ular yordamida sheʼrlar badiiyati oshirilgan.

Gʻafur Gʻulom - yetuk bolalar shoiri. U deyarli ertaklar yozmadi, balki haqqoniy hayot tasviri asosida bolalar taʼlim-tarbiyasiga muhim hissa qoʻshdi. Shoir ijodida oʻz davri mafkurasi sezilsa-da, u boqiy sheʼrlar yaratib, davrlardan osha oldi, istiqloq davrida bolalarning sevimli shoiriligicha qoldi.





## Oybekning bolalik olami

(1905-1968)

O‘zining roman va qissalari, ilmiy-nazariy, siyosiy, badiiy publitsistik asarlari, tarjimalari, ajoyib she‘rlari, dostonlari, hikoyalari bilan o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitgan atoqli so‘z san‘atkorlaridan biri **Oybek** bolalar adabiyoti taraqqiyotiga ham munosib hissa qo‘shgan adibidir. U yaratgan she‘r va hikoyalar, qissa va dostonlar bolalar ma‘naviyatiga samarali ta‘sir etib, yosh avlod estetik didining shakllanishida katta rol o‘ynamoqda. “Gunafsha” (1926), “Bolalikni eslab” (1926), “Shaharcha bolalariga” (1934), “Shoirning bolaligi” (1937), “Eski va yangi bolalik” (1937), “Odobli Tursun”, “Ahmadjon bog‘bon” (1971) kabi she‘riy kitoblari, “Zafar va Zahro” (1953), “Haqgo‘ylar” (1976), “Bobom” (1957) kabi dostonlari, “Alisherning yoshligi” (1967) qissasi, “Globus” hikoyalar to‘plami, “Bolalik” kabi asarlari ayniqsa xarakterlidir. Yozuvchi Oybekning bolaligi ham barcha mehnatkash xalq bolalari kabi kechadi. U yoshlikdan uy-ro‘zg‘orga qarashish, guzardan narsa olib kelish, suv tashish, o‘tin yorish, qor kurash kabi yumushlarni bajaradi. Barcha bolalar kabi bahor vaqtlarida tomma- tom oshib, varrak uchirar, dovuchcha qoqar, qish bo‘lsa oshiq o‘ynar, xo‘roz, tuxum va it urishtirishlarda qatnashar, yoz kunlari onasining pinjida qarindosh-urug‘larining uylariga “mehmon”ga borar, hayit, sayil va boshqa milliy bayram kezlarida esa o‘zida yo‘q sevinibdor o‘yini, xalq qiziqchiliklarini, ko‘ngil ochar tomoshalarni ko‘rishga muyassar bo‘lar edi. Keyinchalik “Shaharcha bolalariga”, “Shoirning bolaligi” she‘rlarida shu manzaralar o‘z aksini topadi. Oybekning bolalar va o‘smirlarga bag‘ishlangan she‘riy asarlarida bugungi qaynoq hayot, ilm, hunar va mehnatga bo‘lgan muhabbat, vatanparvarlik, jamoatchilik, ijtimoiy burchni anglash kabi xususiyatlar aks etgan. Bu fazilatlar o‘sha davrda Oybek asarlarining yetakchi mavzuig a aylanadi. Shoir g‘oyaviy-badiiy kuchli she‘rlar bilan birga, bolalar va o‘smirlar hayotini tasvirlovchi hikoyalar ham yozdi. 1981-yilda adibning “Globus” nomli to‘plami bosilib chiqdi. Bunda Oybekning shu vaqtgacha e‘lon qilinmagan “Gulnor opa” (1930), “Fonarchi ota” (1930), “Singan umid” (1930), “Tillatopar” (1930 ) hikoyalari ham chop etilgan. Oybek kichik yoshdagi maktab bolalari uchun Pokiston bolalari hayotidan “Qonli barmoqlar” (1962) hikoyasini yozdi. Hikoyada Pokistonda tinchlik uchun kurashuvchilardan qanday qasos olinayotganligi, ularning bolalari ko‘chalarga chiqarib tashlanayotganligi, tilanchilikka va malaylikka mahkum etilayotganligi hikoya qilinadi. Yozuvchi buni asar qahramoni to‘qqiz yoshli Alining sarguzashtlari orqali tasvirlaydi. Oybek hikoyada Alilarning yashash sharoitini va qanday kun kechirishini quyidagicha tasvirlaydi: “Gorishov Lohurning bag‘ridagi bir daha. Lohur – qo‘shiqlar, gullar diyori. Gorishov esa dahshat! Ali bu xaroba – vayronalar ichida

yuguradi. Ko‘cha, yo‘lka deydi narsa yo‘q, tutash xaroba kulbalar. Shunday xaroba kulbalarining birida Ali bilan onasi, otasi qamalgandan so‘ng haydalib, ko‘chaga tashlangan edi”. Pokiston shaharlarining ko‘cha-ko‘ylarida to‘da-to‘da tilanchi bolalar yuradi. Gadoylar odatda “baxshish” deyilsa, o‘zlarini tomdan tashlab yuborishga tayyor ekanligi hikoyada bo‘rtib turadi. Ali bir parcha non qidirib, besh-olti kundan buyon rastalarni kezib yurganida gulobchi do‘kondor uni chaqirib “jahl aralash dedi: “Mana bu yashiklarni bo‘shat!” Buning evaziga esa haq to‘lashga va‘da qiladi. Ali: “rostdanmi?”,- deb so‘radi va do‘kondorning “ha” degan tovushini eshitgach, bola uzun xo‘rsindi, jilmaydi. Kir, kalta ko‘ylagining yenglarini shimarib, ishga tushdi”. Ali yashiklardagi siniq gulob shishalarini tashiydi: “Siniq, cheti uchgan shishalar va berahm quyoshning issig‘i xunob qilar, kichik barmoqlari tilingan, qo‘llari qon. Ammo och, tentirab yurishdan charchagan bola bu xizmatdan vaqti xushedi. Isqirt, juldur, cho‘pday oriq bolalar bolaning qonagan qo‘llariga tikildilar. Bolalar Aliga ko‘mak bermoqchi bo‘lganlarida u “rahmat”, deb javob berdi. Ali och-nahor, barmoqlarini shisha siniqlari kesib achitishiga, bir parcha non topishning nihoyatda azob-uqubatlari va mashaqqatlariga qaramay, do‘kondor gulobchining og‘ir ishini bajardi. Do‘kondor bir qutini ochib, yupqa “chapatti” nonni uloqtirdi. Ali ilib oldi, quvonib dedi:

– Darrov borib, ayamga beraman, u kasal!

– Aya, men keldim, non topib keldim. Turing, non yeng, non...

Kampir onaning yuzini ochdi:

– O‘tdi olamdan!

Dard bilan, yo‘qchilik bilan, ochlik bilan, g‘am bilan hamisha kurashgan bu g‘arib ayolning yuzida baxtsiz hayotning eng so‘nggi nafasida o‘lim bilan kurash dahshati ko‘rinar edi”. Bu hayotiy parcha faqat pokistonlik Alining hayoti uchun xos hodisa bo‘libgina qolmay, balki kambag‘al mehnatkash bolalarining hayoti uchun ham tipik hol edi. Kitobxon Alining sarguzashtlari bilan tanishar ekan, unda oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum etilgan bolaning ayanchli taqdiri orqali yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg‘ulari shakllanadi. Muhimi shundaki, hayotda doimo yovuzlik bilan ezgulik orasida tinimsiz kurash borishini, bu kurash insonlarni ulug‘ ishlarga otlantirishi mumkinligini his qiladilar.

Oybek buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiyning bolalik yillari haqida hikoya qiluvchi “Alisherning yoshligi” qissasini (1967) yozdi. Ulug‘ Navoiy Oybekning sevimli siymolaridan biri edi. Bu haqda adib maqolalaridan birida shunday hikoya qiladi: “Navoiy she‘riyati va Navoiy obrazi hamisha kuchli bir quyosh kabi ko‘nglimni tortar edi. O‘z asarlarimda Navoiy obrazini yaratishga zo‘r mayl va istagim bor edi. Yoshligimdan beri Navoiyning o‘lmas, adabiy she‘rlarini sevib o‘qir edim, uning jozibali g‘azallari borgan sari ko‘nglimga singib bordi, shakl va mazmunlari yuragimni maftun etdi... U mening ko‘nglimda, yodimda edi, butun borlig‘imni band etgandi. Yursam-tursam hamisha Navoiyni o‘ylar edim. Uning ma‘nodor, aqlli ko‘zlari hamisha xushfe‘l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl pok, ulug‘ qalbini his etardim, ko‘z o‘ngimda ko‘rardim...” Oybek 1928-yildan boshlab Alisher Navoiy ijodini chuqur o‘rganishga kirishdi. U dastlab, Navoiy ijodiga doir ko‘pgina ilmiy maqolalarni o‘qib o‘rganadi. Keyinroq “Navoiy”, “Guli

va Navoiy” dostonlarini nashr ettiradi. Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan “Navoiy” romanida ulug‘ shoir va mutafakkir hayotining kamolot davri tasvirlanadi. “Alisherning yoshligi” qissasida Hirotdagi (taxminan 1447-1452- yillar) tarixiy voqealar, shahzodalarning Shohruh vafotidan keyingi o‘zaro taxt uchun kurashlari va shu davrda o‘tgan Alisherning bolalik (to‘rt yoshdan boshlab) yillari haqida hikoya qilinadi. Qissada Alisher obrazining takomili o‘sha vaqtdagi tashqi muhit voqealari va ziddiyatlari bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Hukmron doira orasida mavqei ancha baland bo‘lgan G‘iyosiddin va Gulbegim bekaning oiladagi samimiyligi, o‘zlarini sipo ham oqilona tutishlari, farzandi Alisherning ham jismoniy, ham aqliy tomondan kamolotida muhim rol o‘ynaganligi haqqoniy tasvirlanadi. Yosh Alisher xarakteridagi o‘ziga xos xislatlar uning bolalik chog‘idanoq namoyon bo‘lgan edi. Alisher siymosiga xos bo‘lgan aqllilik, kattalarga bo‘lgan samimiy hurmat, she’riyatni nozik his etish, g‘azallarni g‘oyat maromiga yetkazib, ifodali o‘qish, ayniqsa, “ot choptirishdan fikr yuritish yaxshiroqdir chamamda”, deya fikr yuritishi kitobxonda katta taassurot qoldiradi. Alisherning keyinchalik buyuk davlat arbobi, ulkan shoir darajasiga yetishishida bu kabi fazilatlarning o‘zigina yetarli asos bo‘lib xizmat qilmadi, albatta. Oybek Alisher xarakterining shakllanish jarayonini har bir epizod, suhbat, yordamchi obraz va qahramonlar munosabati orqali ham badiiy asoslay olgan. Alisherning o‘qishga – maktabga bo‘lgan havasini adib uning tilidan: “Ov qilmoq merganlik – ermak narsa, lekin eng zo‘r zaruriyat maktabdir. Turmushning ko‘p sirlarini maktab o‘rgatadi”, deb uning ilmga bo‘lgan qiziqishini tasvirlaydi. Shu bilan birga uning ota-onasi, qavm-qarindoshi va boshqalarning suhbatlari, shoirlarning g‘azallari Alisherga katta ta’sir etganini qayd etadi. Adibning “Bolalik” qissasi avtobiografik xarakterga ega bo‘lib, uning markazida yosh Musaning sarguzashtlari yotadi. Musa obrazining hayotdagi asosi adib Oybekning o‘zidir. Asarda Musavoyning yetti yoshgacha bo‘lgan davrdagi xakteri sho‘xlik, tegajoqlik, tinib-tinchimaslik va o‘yinqaroqlikdan tashqari, ochiq ko‘ngil, dangalchi o‘tkir zehnliligi Oybekona tasvirga ega. “Bolalik” qissasida Turg‘un, A‘zam, Ahmad, Qodir, Hoji, Sobir kabi Musavoyning tengqurlari va o‘rtoqlarining obrazlari ham berilgan. Ularning har biri o‘z shaxsiy qiyofalariga ega. Oybek o‘sha davr tashvishlari bolalar hayoti va taqdirida ham ma’lum darajada aks etganligini mahorat bilan tasvirlaydi. Xulosa qilib aytganda, Oybek yuqoridagi kabi asarlari bilan o‘zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va yuksalishiga katta hissa qo‘shdi. U o‘zining bunday asarlari bilan bolalar adabiyotining sevimli kuychisiga aylanib qoldi.



## Hamid Olimjon bolalarning ertaknavis shoiri (1909-1944)

Atoqli o‘zbek shoiri **Hamid Olimjon** “bolalik kunlari” danoq xalq ijodiyotiga mehr qo‘yganligini faxrlanib kuylaydi. Bora-bora folklor “fikrini tortib”, butun umrga unga mahorat sabog‘i, tadqiqotlar va original asarlar yaratish manbaiga aylanib qoldi. Jumladan, uning xalq shoirlari Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Abdulla shoir, Islom Nazar o‘g‘li bilan doimiy ijodiy muloqotlari, qator xalq dostonlari, ayniqsa, qahramonlik eposi “Alpomish”ni nashrga tayyorlashi va ular ustidagi kuzatishlari folklorga ijodiy munosabatini yanada chuqurlashtirgan ilhom manbai vazifasini o‘tadi.

Qolaversa, u bolalarga mo‘ljallab yozgan “Lola”, “Vatan”, “Ona va o‘g‘il”, “Hulkarning she‘ri” va “Samolyot” singari qator she‘rlarida xalq ijodiga xos obraz, motiv, ohang va janr stilizatsiyasi unsurlardan mahorat bilan foydalandi.

H.Olimjon umr bo‘yi xalq ertaklarini tinglashdan tolmadi. Bu haqdagi iqrorlarini “Ona” she‘rida “Faqat sevadi-yu ertak aytadi” deya ifodalasa, “O‘zbekiston” she‘rida “Ertaklarga quloq tutardim” tarzida e‘tirof etgan, nihoyat “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostoni debochasida tinglagan ertaklari va ulardan olgan taassurotlarini yaxlitroq umumlashtiradi: “Uyqusiz tunlarim”da “ko‘p ertak eshitgandim” deya “o‘sha damlar”ning sururini qayta tuyadi. Eshitganlari esa “O‘zi uchar gilamlar, “Tohir-Zuhra”, “Yoriltosh”, Oyni uyaltirgan qosh, O‘t bog‘lagan qanotlar, Beqanot uchgan otlar, Baxtiyor bilan Oygul, So‘ylaguvchi devorlar, Bola bo‘p qolgan chollar”. Ana shu ertaklar uning fikrini tortgan, “havasini ortirgan”, pirovard-oqibatda, uning san‘atkor bo‘lib shakllanishida ta‘sir ko‘rsatgan va nihoyat uning o‘zida ham “To tonggacha so‘ylasam ertak” (“Savol”) degan ijodiy niyatni uyg‘otgan edi. Bu niyat 30-yillarning ikkinchi yarmiga kelib shoirga tinchlik bermay qo‘ydi, natijada uning o‘zbek bolalar dostonchiligi taraqqiyotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan va o‘zbek bolalar epik poeziyasida yangi bosqichni boshlab bergan “Oygul bilan Baxtiyor” (1937) hamda “Simurg‘ yoki Parizod va Bunyod” (1939) ertak-dostonlari birin-ketin dunyoga keldi. Bu asarlar o‘zbek bolalar epik poeziyasida yangi oraliq janr – ertak-doston shaklining qaror topishidan tashqari, folkloridan ijodiy o‘rganish va o‘zlashtirishning ham yorqin namunalari bo‘ldi. Natijada, o‘zbek bolalar epik poeziyasida shakliy izlanishlar tobora chuqurlasha bordi va bolalar dostonchiligi bag‘rida maqol-ertak, masal-ertak, naql-ertak, ertak-doston, rivoyat-ertak va she‘riy latifa singari xilma-xil oraliq janrlarda asarlar yaratish an‘anaviy tus ola bordi.

Aslini olganda, Hamid Olimjon bu ertak-dostonlarini bolalarni ko‘zlab yozmagandi. A.S.Pushkin ham o‘z ertaklarini yozganida shunday yo‘l tutgani ma‘lum. H.Olimjon Pushkinning ertaklari ustidagi ijodiy izlanishlariga xos

tajribalariga suyanib, adabiyotning mehnat ahli turmushiga kengroq va chuqurroq singishini, butun ommaning kitobxon bo'lishini nazarda tutib, shu ommabop janrga qo'l urgan edi. Binobarin, ertak-dostonlar yozilgan tarixiy sharoitga nazar solinsa, shoir izlanishlarining ijtimoiy-estetik mohiyati yanada ravshanlashadi. Shoir bolaligida tinglagan ertaklar silsilasida qolib ketmadi, o'z asari sujeti ustida ishlashda "Malikai Husnobod", "Susambil" ertaklari sujetlari, shuningdek, "Erni-er qiladigan xotin", "Qahramon", "Yaltillama sopol tovoq" ertaklari motivlari, hatto "Chambil qamali" va "Jizzax qo'zg'oloni" (Fozil Yo'ldosh o'g'li asari) kabi xalq dostonlaridan ham ijodiy ta'sirlandi.

Chindan ham ertak-dostonda muhabbat va baxt tarixi emas, balki unga erishish uchun kurash tarixi ertaknamo yo'sinda ifodalangan. Bu kurashga jamiyatda xotin-qizlar mavqeini tiklash motivi ham hamohang. Shu sababli asar voqealari markazida Oygul obrazi turadi, u voqealarni harakatlantiruvchi kuchni boshqaradi. Bu g'oya-ertak-doston asosi bo'lgan "Malikai Husnobod" ertagining bosh g'oyasi. Ko'rinadiki, xalqning o'zida bu g'oya feodal munosabatlar jarayonida qadimdan yuzaga kelgan. Ijtimoiy tengsizlik hamma zamonlarda ayollarni o'z huquqlarini tanishga undagan va bu xalq ijodida xilma-xil janrlardagi asarlarda, jumladan, "Malikai Husnobod" ertagida ham aksini topgan. Oygul xalq ertaklarida hamma zamonlarda o'z erki, o'z huquqi, o'z muhabbati uchun kurashib kelgan ayollarning umumlashma obrazi darajasiga ko'tarilgan. U podsholar taklifini rad etar ekan, shunchaki o'z ijtimoiy mavqeidangina kelib chiqmaydi, balki podsholarning zolimligi, xalqni istibdodga giriftor etganligi, ma'naviy subutsizligini ko'zga tutib, shunday yo'lni tanlaydi. Shu xususiyatiga ko'ra u asardagi talqinda hatto Baxtiyordan ham faolroqdir. Rost, u podachi Baxtiyorni ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan o'ziga tengligi uchungina emas, balki ham jismoniy, ham ma'naviy barkamolligi uchun ixtiyor etdi: Chunki u:

Go'zal edi va chinor  
Qomatiga edi zor.  
Ko'kraklari butun bir  
Oftobni yashirardi.  
Tanlariga bir umr  
O't lovullab turardi.  
Qilichday o'tkir edi,  
Rustam kabi zo'r edi..

Baxtiyor xuddi shu fazilati bilan Oygul qalbini zabt etgandi va shu fazilatlarini tufayli uning dilidagi orzularni ro'yobga chiqarishga ko'makdosh bo'la olardi. Chindan ham asarda shu nuqtadan e'tiboran Baxtiyor Oygul istaklarining ijrochisiday harakat qiladi. Ular hamkorlikda Susambilda "Yangi bir dunyo qura" boshladilar. Nihoyat: Oygul himoyasida,

Baxtiyor soyasida  
Susambilda erkin, shod,  
Yashar edi xaloyiq.  
Uni butun odamzod  
Xayol qilishga loyiq.

Insoniyat tarixi hamisha erk va adolat uchun kurashdan iborat bo‘lib kelgan, xalq ijodiyotida ham, mumtoz adabiyotda ham bu kurash turli shakllarda, jumladan, ozod va farovon yurt shaklida, Forobiyda esa “ideal shahar” tarzida ifodalanib kelingani nazarda tutilsa, H. Olimjon kishilikning shu asriy g‘oyasini o‘sha an’anaviy mantiq doirasida talqin qilganligi ravshanlashadi.

“Oygul bilan Baxtiyor” – jabrdiyda xalqning o‘z haq-huquqi, erki yo‘lidagi kurashini ifodalasa, “Simurg‘ yoki Parizod va Bunyod”– mehnat ahlining halolligini, so‘zi va ishida sobitligini, mardligini, o‘z insoniy tuyg‘ularining chinakam e‘zozkori ekanligini tarannum etadi. Sirasini aytganda, bu ertak-doston uchun manba vazifasini o‘tagan “Simurg‘ afsonasi” O‘rta Osiyo xalqlari, ayniqsa, o‘zbek va tojik folklorida qadim zamonlardan beri mashhurdir. U “Mahiston afsonasi” nomi bilan ham yuritilgan. Og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurgan bu afsonani ulug‘ Firdavsiy birinchilardan bo‘lib, yozma adabiyot mahsuliga aylantirgan. Simurg‘ bilan bog‘liq epizod “Shohnoma” tufayli xalq ijodiyotida keng tarqalgan “Rustam” ertagida qayta ishlanib, jozibasini yanada oshgandir. Simurg‘ bu ertakda dunyoda bo‘ladigan voqealarni o‘z vaqtida bilib turadi: Zolning tug‘ilish muddati, uning olamdagi voqealarni o‘n yil ilgari biladigan hukamo bo‘lishi va ming yil yashashini shu Simurg‘ bashorat qiladi. Xalqning tabiat stixiyalari sirlarini oldindan bilish istagi Simurg‘ obrazida ana shunday ifodalangan edi.

Simurg‘– afsonaviy bahaybat qush. Uning yordamida ertak qahramoni eng mushkul, hatto uddalash amrimahol bo‘lgan ishlarni bajaradi, olis masofalarni ko‘z ochib yumguncha bosib o‘tadi. Yer ostidagi qahramon uning ko‘magida yer yuziga chiqadi. Lekin unutmashlik lozimki, Simurg‘ har qanday qahramonga darrov ko‘maklashavermaydi. U yaxshilik ko‘rgach, javob qaytaradi. Bunda an’anaviy motiv – uning bolalariga tajovuz qilmoqchi bo‘lgan ajdar yoki ilonni o‘ldirishi shart. Shu yaxshiligi evaziga Simurg‘ qahramonning fidoyisiga aylanadi.

Simurg‘– antropomorfizm hodisasi mahsuli. Odam qiyofasiga kira oladigan, odamday harakat qila va so‘zlasha oladigan xususiyatlari qahramonlarga g‘oyat qo‘l keladi. U evrilish xususiyatiga ega: istasa –kesakka aylana oladi, ista–qanoti o‘tkir qilichga aylanib, tog‘ni kesadi. Xalq orzularining ramzi bo‘lgan bu qush Murg‘ufarmon, Ko‘ktubulg‘on nomlari bilan ham yuritiladi. Mahmud Qoshg‘ariy turkiy xalqlar yozma adabiyotida bu xususda ilk ma‘lumot berganlardan bo‘lsa kerak: “Ko‘ktubulg‘on – bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanoti po‘lat bo‘ladi va u qanoti bilan toqqa urilib, bir tomondan boshqa tomonga o‘tadi”.

Shundan boshlab, bu afsonaviy qush turlicha g‘oyalarni talqin etishda vositachilik qildi. Buni Ibn Sinoning “Tayr risolasi”, Fariddidin Attorning “Mantiq-ut-tayr”, Alisher Navoiyning “Lison-ut-tayr” asarlaridagi talqinlar dalillay oladi.

Xalq orzularining otashin kuychisi H.Olimjonni ham bu sehrgar qush maftun etdi. Natijada, u 1939-yilda ertak-doston ustidagi ijodiy ishini yakunladi, dastlab uni respublika radiosidan o‘qib eshittirdi. Xuddi shu yillarda tojik shoiri Muhammadjon Rahimiy ham “Afsonai Simurg‘” dostoni ustida ishlayotgan edi. U bu dostonni 1937-yilda boshlagan bo‘lsa-da, 1964-yilda tugata oldi. M. Rahimiy

dostoni xalq sujetini aynan saqlagandir. Doston markazida besh og‘ayni botirlarning Tagob qal‘asi malikasi Mahistonning “uchar ot”, “yengilmas qilich”, “jahon ko‘zgusi”, “hayot olmasi” va “ishq sharobi” topishdan iborat besh shartini bajarishlariga oid epizodlar yotadi.

H.Olimjon esa bu manba bilan cheklanib qolmadi, u “Oynai jahonnamo”, “Botir oshiq” singari ertaklar sujetlaridan ham ijodiy foydalanib, tamoman yangi mazmundagi ertak-doston yaratdi. Bunda unga Pushkinning xalq ertaklaridagi ijtimoiy motivni kuchaytirish an‘anasi yordam berdi. A.S.Pushkin “Oltin xo‘roz”da shohning g‘ofilligidan, “Shoh Salton”da esa, uning ma‘naviy buzuqligidan kulib, ertaklaridagi ijtimoiy motivning o‘tkiriligiga erishgan va shu usulda zulmkorlar qiyofasini fosh etgan edi. H.Olimjon ham “Oygul bilan Baxtiyor”da shohni zulm saltanati tirgagi sifatida ko‘rsatsa, “Simurg‘ yoki Parizod va Bunyod”da subutsizligini namoyish etadi. Shoir bu ertak-dostonida yovuzlik va subutsizlik hukmronligidagi muhitda voyaga yetgan Parizodni asarning markaziy obrazlaridan biri sifatida bo‘rttiradi. Shu zaylda asl afsonada go‘zallik va sevgi timsoli bo‘lgan Mahiston o‘rnida H. Olimjon g‘oyaviy niyatiga mos toshbag‘ir Parizod obrazi maydonga kelgan.

Parizod – xudbin va dumog‘dor xon qizi. Xon saroyidagi barcha pastkashliklar muhitida shakllangan. Shu sababli “qalbi marmarday sovuq” bu qiz “tishidan zahar tomgan, ishidan o‘lim yoqqan, shoxi osmonda, tirnog‘i qonda” bo‘lgan dev bilan xufya oshno edi. Shu pastkashligi, boylikka o‘chligi va kambag‘alni nazariga ilmaganligi tufayli Bunyodni ham seva olmasdi. U va‘dada ham noshud. Bunyodni o‘limga ro‘para qilib, aslida unga tegishga rozi bo‘lmay, shunchaki undan qutilmoq vajidan va‘da bergan edi. U shu qadar yuzsizki, devni yengib kelgan g‘olib Bunyodga shu niyatdagina va‘da berganligini tan oladi:

Cho‘ponni sevolmadim,  
Hech ko‘ngil qo‘yolmadim.  
G‘urbatga qorganimning,  
Devga yuborganimning  
Sababi shunda edi,  
Ko‘nglim tugunda edi.  
O‘lib ketar deb edim,  
Chirib ketar deb edim.  
Qancha botir bo‘lsang ham,  
Zo‘r bahodir bo‘lsang ham,  
To‘shaging xas deb bildim,  
Aslingni past deb bildim,  
Sevolmadim seni men,  
Chunki men xon qiziman .

Xon qizi surbetlik bilan otasining xonligidan kerilarkan, o‘zini aslzoda hisoblab, oddiy mehnatkashlar “aslini past” deb qaraydi. H.Olimjon Parizod timsolida feodal ierarxiyasida hukmron doiralardagi dumog‘dor va subutsiz xotin-qizlarning salbiy umumlashma namunasini yaratdi.

Bunyod – Parizodning antipodi, aslzoda emas, oddiy cho‘pon. Ishida ham, so‘zida subuti butun. Shartning og‘ir-yengilini bilmaydi, ezgulik yo‘lida o‘limdan qaytmaydigan bahodir. U – xalq pahlavoni. Nomining “gapiruvchiligi” ham shu niyatning ifodasi. G‘oyat kamtar va kamsuqum inson. Oriyat va nomusni baland tutadi. Hatto so‘zida tuturiqsiz Parizod hayosizlarcha uni tahqirlab, otasining vaziriga tegib olganini aytganida Bunyod “o‘tda tutaqib”

Ne aytarin bilmasdan,  
Tili so‘zga kelmasdan..  
Parizodni, xonni ham,  
Ikki nomard jonni ham  
Qilichdan o‘tkazmoqqa,  
O‘limga yutqizmoqqa

shaylanganida ham qasos o‘tida yonib, saroydan mardona chiqib ketadi. Parizod shart qo‘ygani uchun yovuz devni o‘ldirganligini ta’na qilmaydi, aksincha bu, garchi shoir biror ishorada aks ettirmasa-da, eldoshlarini yovuzlikdan qutqazgani uchun shunday yo‘l tutadi va g‘azablansa-da, hech narsa demay chiqib ketadi. Ammo:

Bevafo xon qizini,  
Nomard xonning o‘zini,  
Unutmadi hech qachon .

Xuddi shu tuyg‘u uni kelajakdagi kurashlarga chog‘lashi muqarrar. Ertak-doston shu xildagi umidbaxsh ruh bilan yakun topadi.

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash zarurki, butun ertak-doston davomida Simurg‘ Bunyodga birgina epizodda – devni yengishini ta’minlashidagina ko‘maklashsa-da, aslida bu voqealar dramatismni avj nuqtaga chiqarib, tugunni yechishga ochqich vazifasini bajargan hal qiluvchi epizoddir. H.Olimjon shunga urg‘u berib, asariga “Simurg‘ yoki Parizod va Bunyod” deya nom qo‘ygan. Binobarin, asar nomini qisqartirib yoki shoirning ayrim majmualarida bo‘lganidek, “Semurg‘” tarzidachalkashtirib yozishi noto‘g‘ridir. Negaki, afsonaviy qush nomi-Simurg‘ bo‘lib, o‘ttiz qushni anglatadi, forscha Semurg‘ esa – uch qush ma’nosidadir. Bunda miqdordagi farq Simurg‘ning bo‘rtirma timsolini dalillashini unutmazlik lozim.

Xullas, H.Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, “Simurg‘ yoxud Parizod va Bunyod” ertak-dostonlarida xalq ertaklarining vorisi sifatida ish ko‘rdi, xalq ertaklarining ijtimoiy-axloqiy mundarijasini xalqona ohang va poetik vaznda realistik ifoda etdi. Shu sababli bu asarlar hamon sevilib o‘qilmoqda, ular asosida sahna asarlari, kinofilmlar yaratilib kelinmoqda. Jumladan, “O‘zbekfilm” tomonidan 1972-yilda yaratilgan “Simurg‘” ertak-filmi o‘zbek bolalar badiiy filmlarining yorqin namunasiga aylanib qoldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq ijodiyotiga xos ifoda usuli, sujet qurilishi, kompozitsion aniqlik, obrazlilik, tilning soddaligi va boshqa unsurlardan ijodiy foydalanish o‘zbek bolalar adabiyoti realizmini, xalqchilligini, janriy xilma-xilligi, g‘oyaviy-badiiy ko‘lamdorligi va saviyasini ta’minlamoqda. Akademik S.Mamajonov yozganidek: “Xalq ijodi yozuvchilar uchun xalq tarixini, kurashini,



uning maqsad va ideallarini, ruhi, ongi, psixologiyasi va xarakterini, uning boy tilini o'rganish manbai bo'lmoqda; xalq bilan, hayot va zamon bilan uzviy bog'lanishda ma'lum ma'noda g'oyaviy-estetik ko'priklardan biri bo'lib xizmat etmoqda". Shunday xizmati tufayli o'zbek bolalar adabiyoti tobora teranlashmoqda va hayajonbaxshligi kuchaymoqda. Binobarin, bu jarayonni chuqur va har taraflama tadqiq qilish – o'zbek bolalar adabiyoti kamolotining ufqlarini ochishga yo'l ko'rsatishi aniq.

**MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:** *poeziya, proza, dramaturgiya, matbuot, adabiy ertak, ertak qissa, avtobiografik qissa, biografik qissa, masal, ertak-doston, tasvir, bayon, talqin, bolalarcha tafakkur.*

***Bilim, ko'nikma va malakani rivojlantirishga yo'naltiruvchi savollar:***

1. Xalq ertaklarining adabiy ertakka o'sib chiqish omillari nimada? Bu an'ana qachon boshlangan?
2. O'zbek bolalar adabiyotidagi folklorizm va stilizatsiya namunalari munosabat bildiring.
3. H.Olimjonning ertaknavislik faoliyatini izohlang, she'riy-adabiy ertaklaridan misol keltirib, tahlil qiling.
4. Sh.Sa'dullaning "Och bo'ri, sho'x qo'zi va qirchang'i" she'riy ertagi qanday usulda yaratilgan? Undagi folklorizm hodisasi haqida mulohaza yuriting.
5. "Sholg'om", "Bo'g'irsoq", "Bo'ri va echki bolalari" kabi xalq ertaklari negizida yaratilgan adabiy ertaklar va ularning mualliflari to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Janr, sujet, motiv yoxud obraz stilizatsiyasining sintezlashuvi deganda nimani tushunasiz? Misollar yordamida izohlab bering.
7. H.Olimjon "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonini yozishda xalqning qaysi ertaklari va dostonlari sujeti va motivlaridan ijodiy foydalangan?
8. "Simurg' yoki Parizod va Bunyod" ertak-dostoni uchun xalqning qaysi ertagi va afsonasi manba vazifasini o'tagan?
9. Oybekning bolalar adabiyotidagi o'rni?
10. "Qonli barmoqlar" da qaysi xorij bolalari hayoti aks etgan?
11. Biografik va avtobiografik asarlar haqida ma'lumot bering.
12. G'afur G'ulomning "O'ylashni o'rganamiz" she'rida qanday ifoda ustuvor?
13. G'.G'ulomning yumoristik she'rlaridan birini tahlil qiling?
14. G'.G'ulom qissalarida yetimlik motivi va jamiyatning bolalikka munosabati ifodasi qaysi qissalarida ko'zga tashlanadi?

***Mavzuga oid test savollari:***

**1. "Zafar va Zahro", "Haqgo'ylar", "Bobom" dostonlari muallifini aniqlang.**

- a) Sulton Jo'ra;
- b) G'.G'ulom;
- c) Zafar Diyor;
- d) Oybek.

**2. Oybekning avtobiografik qissasi qaysi javobda to'g'ri?**

- a) "Alisherning yoshligi";
- b) "Bolalik";
- c) "Zafar va Zahro"
- d) "Shoirning bolaligi"

**3. Oybekning biografik qissasi qaysi javobda to'g'ri?**

- a) "Alisherning yoshligi";
- b) "Bolalik";
- c) "Zafar va Zahro";
- d) "Shoirning bolaligi".

**4. Oybekning xorijlik bolalar hayotidan hikoya qiluvchi qissalari qaysi qatorda to‘g‘ri korsatilgan?**

- a) “Alisherning yoshligi”, “Haqgo‘ylar”;
- b) “Qonli barmoqlar”, “Zafar va Zahro”;
- c) “Bobom”, “Bolalik”;
- d) “Singan umid”, “Tillatopar”.

**5. Oybek buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodini o‘rganishga kirishgan davri va Navoiy haqidagi asarlari qaysi javobda to‘g‘ri?**

- a) 1940-yildan, “Navoiy” romani, “Alisherning yoshligi”, “Bolalik”, qissalari;
- b) 1960-yillardan, “Guli va Navoiy”, “Navoiy”, “Bobom” dostonlari;
- c) 1928-yildan, “Navoiy”, “Guli va Navoiy” dostonlari, “Navoiy” romani, “Alisherning yoshligi” qissasi;
- d) “Husayn va Navoiy”, “Alisher navoiy” qissalari.

**6. “Bolalik” qissasidagi Musa obrazining hayotdagi asosi qaysi javobda to‘g‘ri?**

- a) adib Oybekning o‘zi;
- b) adib Oybekning bobosi;
- c) adib Oybekning ukasi;
- d) adib Oybekning otasi.

**7. Hamid Olimjonning bolalar va o‘smirlar kitobxonligiga daxldor asarlari mundarijasini aniqlang;**

- a) “Oygul bilan Baxtiyor”, “Semurg‘ ” ertak dostoni;
- b) “Hulkarning she‘ri”, “Samolyot”, “Lola”, “Vatan”, “Ona va o‘g‘il” she‘rlari;
- c) “Jangchi Tursun”, “Zafar dostoni”;
- d) a va b javoblar

**8. Hamid Olimjon xalq og‘zaki ijodi ta‘sirida qaysi dostonlarni yaratdi?**

- a) “Jangchi Tursun”, “Semurg‘”;
- b) “Oygul bilan Baxtiyor”;
- c) “Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod”;
- d) b va c javoblar.

**9. H.Olimjon “Oygul va Baxtiyor”ni xalq og‘zaki ijodidagi qaysi ertak asosida yozgan?**

- a) “Malikayi Husnobod”;
- b) “Malikayi Turandot”;
- c) “Gulqahqah”;
- d) “Uchar gilam”;

**10. “Oygul va Baxtiyor” ertak dostonidagi Darxon kim va u nima uchun isyon ko‘taradi?**

- a) Oygulning otasi, ozodlik uchun jabr-zulmga qarshi ozodlik uchun kurash olib borgan isyonchilarning boshlig‘i;
- b) Jambil xonining zolimligini fosh etib, ozodlik yo‘lida qurbon bo‘lgan mehnatkash xalq vakili;
- c) Jambil elining xoni;
- d) a va b javoblar.

***Tavsiya etilgan adabiyotlar:***

1. O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon.– T.:Fan, 1989.
2. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild.–T:O‘qituvchi, 2006.
3. O‘zbek bolalar adabiyoti. Maqolalar. –T.:Yosh gvardiya, 1969.
4. Oybek. Bolalik. –T.,2005; yana: Alisherning yoshligi. –T., 2007
5. Ravshanov P. Bolalikning sehrli olami. –T.:Yosh gvardiya, 1985; yana: Tarix badiiyati. –T.,1989
6. Olimjon H. Oygul bilan Baxtiyor.– T.:Yulduzcha, 1988.

## VII. BOLALAR ADABIYOTI RIVOJLANISH BOSQICHIDA

### Reja:

1. Sulton Jo‘ra – o‘smirlar kuychisi.
2. Zafar Diyor – kichkintoylar shoiri.
3. Quddus Muhammadiy – bolalarning tabiatshunos shoiri.
4. Shukur Sa‘dulla – bolalar shoiri, adibi va dramatik pyesalar muallifi.

### Sulton Jo‘ra – o‘smirlar kuychisi

(1910-1943)



Sulton Jo‘ra o‘ttizinchi yillarda o‘z salaflari qatorida o‘zbek bolalar adabiyotini rivojlantirish, yuksaltirish uchun kurashgan adiblardan biri edi. Shoirning hayotlik chog‘ida “She‘rlar” (1933), “Fidokor” (1939) va “Moskva” (1941) to‘plamlari bosilib chiqqan edi. Shunga qaramay u o‘z nomiga abadiylik sharafini baxsh eta oldi.

Sulton Jo‘ra navqiron avlodning otashin do‘sti bo‘lib mehnat, mardlik va baxtiyor yoshlik kuychisi sifatida tanildi. U o‘zbek bolalar adabiyotining bunyodkorlaridan biri edi. 15 yillik ijodiy faoliyati davomida “Sherlar” (1933), “Fidokor”(1939) va “Moskva”(1941) singari uchtagina she‘riy to‘plamini hayotligida o‘zi chop ettirgan bo‘lsa, keyinchalik uning butun ijodi merosi “Havorang gilam” (1953), “Ochiq chehralar”(1959), “Yomg‘irdan so‘ng” (1965), “She‘rlar” (1973), “Qaldirqoch” (1981), “So g‘inchli salom” (1988), shuningdek, rus tilidagi “Рождение истинно” (1961) va “Открытое лицо” (1986) kabi o‘nlab to‘plamlar holda kitobxonlarning ma‘naviy mulkiga aylantirildi.

Sulton Jo‘ra 1910-yilning 15-yanvarida Buxoro amirligidagi Shofirkon tumanining Qog‘oltom qishlog‘ida kambag‘al dehqon oilasida dunyoga keldi. O‘z tarjimai holida yozganidek, 3-4 yasharligida ota-onasi o‘lib, qarindoshlari qaramog‘ida qoladi. Hamqishlog‘i bog‘bon Abdurauf Dushanboyev xonadonida asrandi o‘g‘il bo‘lib, uning xizmatini qila turib, qishloq masjidi huzuridagi eski maktabda savod olishni ham unutmaydi. Bu davrda ukasi Saidni olis Qazalidagi qarindoshlari olib ketsa, opalari Xadicha, Fotima va Osmanurlar birin-ketin turmushga chiqib, turli manzillarda yashay boshlashadi. Shu zaylda bo‘lajak shoirning oilasi parokanda holda turmush girdobiga sho‘ng‘iydi. Sulton 14 yoshga to‘lgach, Buxoro shahrida yashayotgan opasi Fotima Jabborovani qora tutib, Buxoroga keladi. Opasini topgach, bir muddat unikida yashab, shahardagi yetti yillik maktabda o‘qiy boshlaydi. Uni 1927-yilda tugatib, Buxoro pedagogika bilim yurti (sobiq xalq maorifi institute – Innarpros)ga o‘qishga kiradi. Bu yerdagi jo‘shqin hayot uning g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shdi, ijodkorlik salohiyatini harakatga keltirdi. “Yulduz” taxallusi bilan bilim yurti devoriy gazetasida dastlabki she‘riy mashqlarini e‘lon qilib turdi. Bilim yurtida birga o‘qigan sinfdoshi Qurbon Badaliyning xotirlashicha, Sulton Jo‘ra “ayniqsa, she‘riyatga, pyesalardagi rollarni

ijro etishga juda qiziqar, shuningdek, musiqiy asboblarni yaxshi chertar va nihoyat, chaqqon futbolchi ham edi”.<sup>35</sup>

Bilim yurtida 1928-1929- yillarda “Bilim uchquni” nomida ta’lim-tarbiyaviy, adabiy-fanniy oylik jurnal chiqarib turilgan; bu jurnalda Jalol Ikromiy, Tuyg’un, Ziyo Ikromiy, Hakim Homidiy, Kunashboyev, Mavlon Ikromiy kabi talaba-ijodkor yoshlar qatorida Sulton Jo’raning ham asarlari bosilib turgan. Chunonchi, uning “Erk qizi” she’ri shu jurnalning 1929-yilgi qo’shma sonida bosilgan. Lekin uning matbuotda bosilgan dastlabki she’ri “Mehnat qo’ynida” atalib, 1927- yilda “Yangi yo‘l” jurnalida bosilgan edi. Binobarin, uning she’rlari ana shu davrdan e’tiboran “Buxoro axbori” gazetasi va turli jurnallarda tez-tez ko’rinadigan bo’ldi.

Sulton Jo’ra 1930-yilda bilim yurtini muvaffaqiyatli tugatib, shahardagi uchinchi yetti yillik maktabda o‘zbek tili va adabiyotidan dars bera boshladi.

1933-yili Andijon viloyatining Izboskan tumanida yashab ishlayotgan opasi Fotima va pochchasining chorlovi bilan ular oldiga ko‘chib bordi. Dastlab 17-maktabda o‘qituvchilik qila boshladi. U Andijondagi faoliyati haqida o‘z avtobiografiyasida quyidagilarni arz etadi: “1938-yil 18-sentabrda Andijonga kelib, xotin-qizlar bilim yurtiga til va adabiyotdan o‘qituvchi bo‘lib kirdim. 1934-yilda Andijon kechki pedinstitutining geografiya fakultetiga kirib, 1940-yil yanvarida uni tugatib chiqdim (chunki u vaqtda litfak yo‘q edi). Til va adabiyot sohasida mustaqil o‘z ustimda ishlab, kechki institutda lektorlik qildim”.<sup>36</sup> Keyinchalik shoir ijodini maxsus o‘rganib, nomzodlik dissertatsiyasini yozgan Nabijon Qobilov aslida uning ana shu ma’ruzalarini tinglagan shogirdi edi. U Andijon xotin-qizlar bilim yurtida o‘qitgan yana bir shogirdi, keyinchalik taniqli folklorshunos bo‘lib yetishgan filologiya fanlari doktori, professor G‘.Musina ustozini fazilatlarini shunday xotirlaydi: “Men Andijon pedagogika bilim yurtida o‘qib yurgan vaqtimda hurmatli Sulton Jo’ra bizga o‘zbek tili va adabiyoti fanlaridan dars berar edi. Studentlar o‘rtasida: “Kimda-kim Sulton Jo’radan ta’lim olsa, u albatta, tilchi, adabiyotshunos, yoki shoir bo‘lib yetishadi”, degan gap yurar edi”. Bu shunchaki gap bo‘lmay, ayni haqiqatning e’tirofi ekanligini u o‘qitgan talabalar safidan M.Mirzayev, G‘.Musina, Q.Razzoqov singari taniqli filolog olimlar-u Mahmud Jalil, Sotti Mamajon kabi shoirlarning yetishib chiqqani yaqqol tasdiqlaydi. Sulton Jo’ra ayni paytda qizg‘in adabiy-ijodiy faoliyat bilan ham shug‘ullanib, zamonasidagi ijtimoiy hayot muammolariga bag‘ishlangan she’rlar, she’riy ertaklar, dostonlar, ballada va dramatik asarlar yozdi. Bu asarlarida Vatan va uning tabiati, mehnat va uning zavqi, xotin-qizlar ozodligi va quvnoq bolalikni sharafladi. Aytish mumkinki, bu davrda u g‘oyat faol ijodkor sifatida nainki Andijonda, balki butun respublikada ham tanildi va e’tirof etila boshlandi. Buni G‘G‘ulom bosh-qosh bo‘lib, 1939 -yilda Toshkentda uning adabiy kechasi o‘tkazilishi, qolaversa, xuddi shu yili Moskvada bo‘lgan o‘zbek adabiyoti va san’ati dekadasida yetuk shoir va adiblar safida qatnashuvi hamda “Hurmat belgisi” ordeniga sazovor bo‘lishi dalillari yaqqol tasdiqlaydi. Gap shundaki, to

<sup>35</sup>Qurbon Badaliy. Sinf-dosh, saf-dosh edik... «Buxoro mavjlari», 2006, 3-son, 11-bet

<sup>36</sup>O`sha joy.

1940-yilgacha, shoirning o‘zi “birinchi she’riy to‘plamim” deb e’tirof etgan “Fidokor” to‘plami nashr etilishigacha u asosan, davriy matbuotda bosilgan she’riy va publitsistik asarlari bilan shunday e’tibor qozona olgan edi. Rost, bu asarlarning kattagina qismi katta yoshdagilarga mo‘ljallangan esa-da, u bolalar va o‘smirlarni ham unutmadi, ular uchun g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlar yozib, bolalar va o‘smirlar kuychisi sifatida tanildi. U turli yoshdagi bolalar ruhiy olamini nafis his qila olganligi sababli ular xarakteridagi tabiiy soddalikni, tinib-tinchimaslikni, ayrim hollarda yolg‘onchilig-u dangasalikni yorqin ifoda eta oladigan “Lola”, “Oy nechta”, “Cho‘ntak”, “Mamatning kechirimi”, “Yolg‘onchi”, “Qarzdor”, “Kimning xati chiroyli”, “Yaxshi” va “A‘lo”ning maqtovi”, “Harflar paradi”, “Tinish belgilarining majlisi” kabi XX asrning 30-yillaridagi o‘zbek bolalar she’riyatining betakror namunalarini yaratdi.

Aytaylik, “Harflar paradi” she’rida lotin yozuvidan krill yozuviga o‘tishning madaniy hayotimizdagi muhimligini bolalar qalbiga singdirishni ko‘zlasa, “Tinish belgilarining majlisi” asarida tilshunoslikning tarkibiy qismi bo‘lgan punktuatsiyaning mohiyatini badiiy obrazlar orqali tushuntirish nazarda tutilgan. Binobarin, bunday she’rlar g‘oyat katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shoir majoziy obrazlardan mohirona foydalanib, har bir tinish belgisining o‘ziga so‘z beradi, ular o‘z vazifalarini g‘oyat aniq ta’riflashadi. Ayni chog‘da tinish belgilari o‘zlarini o‘rinli ishlata olmaganlaridan o‘pkalab ham oladilar. Bu esa shoirning yengil yumor bilan sug‘orilgan qochirimi edi. She’rning yutug‘i shundaki, asarda tinish belgilari o‘z vazifasini bayon qila turib, shu qoidaning isboti ham namoyon bo‘lgan:

– O‘rtoq rais, endi menga navbat bering,-  
Deb so‘z oldi kichik to‘qmoq – bizning vergul.  
– Gar undalma gapda kelsa qoq o‘rtada  
Uning ikki yonboshida men jo‘rttaga:  
“Qani endi undalmaxon, qochib boqchi”– ,  
Deb bo‘lurman, yubormayin unga soqchi.  
Gar undalma gap so‘ngida kelsa, u choq,  
Undan oldin qo‘yilurman, tushun, o‘rtoq!

Shoir har bir tinish belgisining ko‘rimli obrazini yaratadi. Undov belgi-mirzaterakka, nuqta – koptokka, so‘roq belgisi – o‘roqqa, vergul – to‘qmoqqa, qo‘shirnoq – qiziqchilarga, tire – gugurt cho‘piga o‘xshatiladi. Hatto, nuqtaning grammatik mohiyati “fikrlar stansiyasi”ga tenglashtiriladi. Bunday she’rlardan albatta, o‘quvchilar estetik zavq olishdan tashqari, ilmiy ma’lumotga ham ega bo‘ladilar.

Sulton Jo‘ra kichkintoylar tabiatidagi beg‘uborlikni ko‘pgina she’rlarida samimiy ifodalaydi. Jumladan, “Ikki baho”, “Cho‘ntak”, “Qarzdor”, “Mamatning kechirmishi” kabi she’rlarda ayrim bolalar xarakterida sodir bo‘luvchi illatlarni yumor yordamida aks ettiradi.

“Shoir qisqa umr ko‘rib, nihoyatda oz fursat ijod qilganiga qaramay, adabiyotda o‘z izini qoldirdi. U G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Uyg‘un, Maqsud

Shayxzodalar shogirdi edi. Ammo faqat ustozlardan o‘rganib qolmay, o‘ziga xos she‘riyat bilan maydonga chiqdi.

Uning she‘riyati bir butun holda Erk va kurash to‘g‘risidagi o‘ylardan iborat bo‘lib, asosan, qahramonlik mavzusiga bag‘ishlangan”,– deb yozadi shoirning hamyurti Omon Muxtor Sulton Jo‘ra tavalludining yetmish yilligi munosabati bilan nashr etilgan “Qaldirg‘och” kitobining “Jo‘shqin kunlar shoiri” deb nomlangan so‘zboshisida.<sup>37</sup> Haqiqatan ham shoir she‘riyati o‘zining mana shu xususiyatlari bilan ajralib turadi. Muhimi, u endi boshqa janrlarda ham barakali ijod qilish bilan birga, xalq ertaklari negizida she‘riy-adabiy ertaklar yarata boshladi.

Shoir yosh kitobxonlar uchun yirik badiiy asarlar ham ijod etgani diqqatga sazovor. Uning “Qaldirg‘och”, “Zangori gilam” she‘riy ertaklari va “Bruno” poemasi o‘zbek bolalar she‘riyati taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. “Yolg‘onchi” dostonida maktabda yomon o‘qiydigan No‘monjonning ota-onasini aldashi, o‘qituvchi esa ularni maktabga chorlab bergan xatlarini har gal yirtib tashlashi, nihoyat, o‘qituvchisining o‘zi ular uyiga kelib, No‘monjon xatti-harakatlarini fosh etishi va o‘z yolg‘onlari oqibatidan izza bo‘lgan lirik qahramonning tuzalish sari yuz tutishi ifodalangan. “Qaldirg‘och” ertagida yurt sog‘inchi, “Zangori gilam” ertagida esa erk uchun kurash motivlari in‘ikos topgan.

Shoir “Bruno” poemasida ulug‘ italyan olimi Jordano Brunoni o‘lmas obrazini yaratdi. “Bruno” poemasi nainki shoir ijodida, balki XX asrning 30-40-yillaridagi o‘zbek poeziyasida ayricha mavqega ega bo‘lgan asardir. Shoir ijodiy merosi tadqiqotchisi N.Qobilovning shahodaticha, unda bu asarni yozish ishtiyoqini shoir hali Andijon kechki pedagogika instituti geografiya fakultetida o‘qib yurgan kezlarida professor Leonovning buyuk italyan olimi Jordano Bruno haqida o‘qigan ma‘ruzalari uyg‘otgan. Shundan so‘ng Sulton Jo‘ra Bruno ilmiy faoliyati haqida xilma-xil materiallar to‘plab o‘rgana boshlaydi, nihoyat, 1937-yilda “Bruno” poemasini yozishga kirishib, tugagan har bir bobini safdoshlariga o‘qib berib, ular fikr-mulohazalari asosida yana qayta ko‘rib, asarini mukammallashtira boradi. 1940 -yilda esa uni “O‘zbek adabiyoti” (hozirgi “Sharq yulduzi”) jurnalida e‘lon qiladi. Dostonni sinchiklab o‘qish esa shuni ko‘rsatadiki, unda shoir hamma zamonlar uchun dolzarblik qimmatini yo‘qotmagan fan va diniy fanatizm, fan va diniy aqidaparastlik o‘rtasidagi kurash mavzusini asos qilib olgani ko‘zga tashlanadi. Dostonda umuman, dinni qoralash ko‘zlanmagan, balki har qanaqa zulmu taaddi, zo‘ravonlik bilan reaksion mohiyatini namoyon etgan diniy ekstremizm va uning qabih tarafdorlarini fosh etish ruhi ustuvorligini payqash qiyin emas. Yana unutmaylikki, shoir bu muammoni aql-zakovat bilan nodonlik, ezgulik bilan yovuzlik, haqiqat bilan yolg‘on, hur fikrlilik bilan aqidaparastlik, erkinlik bilan tutqunlik o‘rtasidagi shafqatsiz kurash negizida hal qilishga uringan. Bunda fan va diniy fanatizm o‘ziga xos niqob vazifasini o‘tagan.

Sulton Jo‘ra o‘rta asrlarda Yevropa tarixida kechgan voqelikka murojaat qilarkan, o‘zbek adabiyotiga tamoman yangi mavzu xorijda yashovchi xalqlar

---

<sup>37</sup>Sulton Jo‘ra. Qaldirg‘och. Toshkent, ASN, 1980, 3-bet.

turmushi mavzusini olib kirdi. Shu tariqa, italiyalik buyuk astronom, matematik va faylasuf olim Jordano Brunoning (1548-1600) fojeali qismati doston syujetiga asos qilib olindi.

Shoirning bolalarga atab yozgan “Yolg‘onchi” (1941), “Zangori gilam”(1940) she‘riy ertagidan tashqari “Karim va Qunduz”(1939) poemasi, “Parvoznoma” (1939) balladasi, “Qaldirg‘och”(1939) she‘riy ertaklari dolzarb mavzudaligi, siyosiy, badiiy puxtaligi va katta salmog‘i bilan shoir ijodining kamolotiga guvohlik qiladi.

Shoirning “Karim va Qunduz ” poemasi o‘zbek xalqining baxtiyor hayotini tasvirlashga bag‘ishlangan. Shoir o‘zbek xalqining realistik obrazini yaratish bilan o‘sha davrlarda yuz bergan muhim o‘zgarishlarni ko‘rsatib beradi.

Shoir poema qahramoni Normat otaning fojeali bir sarguzashtini hikoya qilish bilan o‘tmishdagi suv tanqisligi, suv uchun bo‘lgan qonli mojarolar manzarasini, mehnatkashlarning og‘ir hayot manzaralarini tasvirlab beradi. Rost, sho‘ro davrida yer-suv mehnatkashlar qo‘liga o‘tdi. Suv haqidagi jirkanch fojeali hodisalar orqada qoldi. Ammo, ekin maydonlarining kengayishi, gigant xo‘jaliklar tuzilishi orqasida suvga bo‘lgan talab kuchayib, suv tanqisligi hamon sezilib turardi. Poema qahramonlari Karim va Qunduz shijoati, mehnatsevar, tadbirli kishilar ekani, Normatning keksaligiga qaramay kuch-g‘ayratga to‘laligi, kanal qazuvchilar ro‘yxatiga birinchilardan bo‘lib yozilishi ibratga sazovordir.

Sulton Jo‘raning “Parvoznoma” balladasi ham fan va din o‘rtasidagi muammoni ifodalovchi asardir. Asarning lirik qahramoni uchishga orzumand bo‘lgan xalqdir. O‘tmishda bu orzu faqat afsonalarda: goh “Semurg‘ qush”, goh “Uchar ot” yoki “Uchar gilam”larda o‘z ifodasini topganini shoir turli xalq afsonalari misolida hikoya qiladi.

Eng muhimi shundaki, shoirning hamma janrdagi asarlari o‘ziga xos g‘oyaviy teranlik, badiiy yuksaklikka ega. Sulton Jo‘ra asarlarini keng kitobxonlar ommasidan qizg‘in qarshi olinishi va sevilib o‘qilishi-shoirning xalq didiga kira biluvchi mahorat egasi ekaniga jonli guvohdir.

Sulton Jo‘raning “Zangori gilam” she‘riy ertagi folklor motivida original liro-epik asar yaratishning yorqin namunasi. Ertak ikki qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida o‘zbek va tojik xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan “Havorang gilam” (“Zangori gilam”) nomli ertak sujetidan keng foydalaniladi. Asar voqeasi ertaklardagidek:

Bor ekan-da yo‘q ekan,  
Och ekan-da to‘q ekan,—

degan an‘anaviy zachindan boshlanadi. Unda zulm o‘chog‘i bo‘lgan boynikida xizmat qiluvchi Rahim ismli cholning hayoti, adolatsizlik tufayli boshiga tushgan jafoli kunlar tasvirlanadi.

Cholning Qorasoch ismli qizi va xotini bo‘lib, bular chor-nochor kun kechiradilar. Rahim boyning qo‘lida arzimagan ish haqi evaziga ishlab, oilasini zo‘rg‘a boqardi. Biroq ular “yarim och yirtiq – juldir ust-bosh” bilan yursalar-da, do‘st va inoq yashardilar. Ammo bularning bisotida bor-yo‘g‘i birgina gilami bo‘ladi. Gilam juda chiroyli edi. Havorang tog‘lar, yam-yashil shinam bog‘lar,

firuza, shisha osmon, unda nur sochgan oy va yulduzlar, gullarning suratlari ipak bilan solinganidan ular gilamga qarab zavqlanardilar. Shu gilamdan dillari orom olib yashar edi. Rahim gullarni sevgandek, gilamni ham sevar, ko‘z qorachig‘iday asrar edi. Lekin ochko‘z boy kambag‘alning birgina gilamiga suq ko‘zi bilan qaraydi. Cholning “bitta-yu bitta gilam, u mening ko‘z nurginam”,– deganiga qaramay, shu gilam tufayli uni quvg‘in qiladi, Rahimning oilasi boshiga ko‘p jafolar soladi, o‘zini zindonga tashlaydi. Rahim boyning xizmatkori Mamatning yordamida zindondan qochadi. Zindondan chiqqandan so‘ng na kulbasini, na xotini va na qizini topadi. Shundan keyin boshini olib, chiqib ketadi. Tog‘dagi bir g‘orda asalarilar-u, yovvoyi echkilar va tog‘ burguti yordamida, hamdardligida umr kechiradi. Kunlar ketidan kunlar o‘tadi. Asarning finali, ya’ni yakuni shoirning shu turkumdagi boshqa epik asarlari singari tugaydi. Rahim ajoyib voqeaning guvohi bo‘ladi. U jahonni larzaga soluvchi ulkan bir xalq qurilishini, yangi – o‘zgacha hayotiy manzarani ko‘radi, ular cholga o‘zining zangori gilamiga o‘xshab ko‘rinadi. Chol hayron, boy qo‘lida ishlab yurgan odamlar bir-biiridan xushchaqchaq, qo‘li-qo‘liga tegmaydi. Rahimning hayrat bilan bergan savoliga shunday javob qilishadi:

Shu on keng dala birdan:  
Dedi: “Sizmi gapirgan?  
Hozir yer dehqonniki!  
Endi yangi qonun-ku!  
Qilinib katta bir jang,  
Boylar etilmishdir tang!.. ”

Nihoyat, Rahim o‘lkada katta bir o‘zgarish ro‘y berganini, ozodlik uchun qonli janglar bo‘lganini, qizi xalqning o‘zi xo‘jayin bo‘lgan xo‘jalikka rahbarlik qilayotganini ko‘rib, ko‘zi sevinch yoshlariga to‘ladi.

Cholning qizi Qorasoch bilan uchrashuv epizodi juda ta’sirli qilib tasvirlangan. Qishloq kengashining raisi qilib saylangan Qorasoch huzuriga Rahim cholni keltiradilar. Boy o‘rnida yosh ayol o‘tirganini ko‘rgan chol hayron bo‘lib qoladi: “Tili burro, boshiga qizil durra o‘ragan” qiz cholning ko‘ziga tanish ko‘rinadi.

Qiz ham issiq boqish-la,  
Cholga mehr bag‘ishlab,  
Qaradi-yu qoldi tek,  
Va to‘satdan turib tik  
Dedi: “Oh, jonim dadam!”  
(Hayron qoldi bor odam)

Chol ham qizini – Qorasochni taniydi, boshi toshdan bo‘lgan bolam deb alqaydi, o‘zi singari och-faqirlarning bunday hayotga erishishlariga ishongisi kelmaydi. Yangi hayotga erishish tarixlarini qizi otasini uyiga etib ziyofat bergandan keyin asta-sekin tushuntirib beradi. Asar sho‘ro davri mahsuli bo‘lganligi uchun, albatta, shoir baxtli hayotning asoschisi sifatida Leninni ko‘rsatadi va uni olqishlaydi. Shu o‘rinda, “Zangori gilam” she’riy ertagining



mana shu oxirgi qismi g'oyaviy jihatdan eskirganligini ham ta'kidlab o'tishga to'g'ri keladi.

Yozuvchi xalqning qudrati buyuk kuch ekanini, haq o'z o'rnida qaror topishini yuksak ta'sirchanlik bilan tasvirlaydi. Rost, asarga bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, undagi g'oyalarning ba'zilari eskirganligi, davr esa o'zgarib, qarashlar ham yangilangani uchun unga boshqacha baho berish lozimligini ta'kidlab o'tish joiz. Bugun boylarga, umuman, o'tmishga qarash, baho berish tubdan o'zgardi. Shoir o'z davrining farzandi, o'z zamonasining g'oyalari bilan to'yingan asarlar yaratishga haqli, shuning uchun Sulton Jo'raning asarlardan ba'zi bir jihatlarga shu nuqtayi nazardan munosabat bildirish joiz. Shunga qaramay, "Zangori gilam" ertagida bugun ham, bundan keyin ham kitobxonga ozuqa beruvchi fazilatlar talaygina. Ulardan birinchisi, insonning erk, ozodlik uchun kurash masalasi. Shunga ko'ra, she'riy-adabiy ertakdagi Rahim chol uning qizi Qorasoch va boshqa personajlar ozodlikni sevuvchi, erkka intiluvchi, ezgulik uchun kurashuvchi qahramonlar sifatida qadrlidir.

"Zangori gilam" she'riy ertagi shu nomdagi xalq ertagi syujetini qayta tabdil qilish asosida yaratilgan.

Umuman, ertak yangi zamon voqeligini ma'qullash ruhida bo'lib, shoirning yuksak saviyadagi folklorizm yaratish evaziga o'zbek bolalar epik poeziyasiga yangi poetik shakllar va obrazlar kirita olganligidan dalolat beradi.

Xalq og'zaki ijodi o'zining o'ta xalqchilligi, chuqur mazmuni, hayotiyligi, til va uslub ravonligi, badiiy barkamolligi bilan qadrlanadi. Xalq badiiy ijodining bolalar uchun eng zarur xususiyatlari uning namunalari sujetidagi voqealar sehrli hodisalar, ajoyib-g'aroyib obrazlarga nihoyatda boy bo'lishi va har bir bola uchun yangi bir olam hisoblanishidadir. Folklor asarlarining tili, badiiy uslubi juda sodda va ravon bo'lganligi uchun yosh kitobxonning o'qishi, tushunishida qulaylik tug'dirishi tabiiy. Shuning uchun bolalar shoirlari xalq og'zaki ijodining mana shu fazilatlariga katta e'tibor berib ijod qildilar. Bu esa ular asarlarining xalqchillik ruhini oshirishga yordam beradi.

Sulton Jo'ra xalq ijodidan – folklor asarlaridan mohirlik bilan foydalanadi. U afsonaviy epos va ertaklar motivini real hayot lavhalari bilan to'ldiradi. Aytaylik, "Jannat" ertagida afsonaviy tasvirlar sujet uchun asos bo'lgan bo'lsa, "Zangori gilam"da muallif bosh qahramon Rahimning birinchi qismdagi jafoli hayotini tasvirlashda xalq ertagi sujetidan keng va unumli foydalanadi. Rahimning keyingi hayoti, ya'ni avvalgisiga qarama-qarshi bo'lgan baxtli hayoti aniq va real hayot zaminida tasvirlanadi. Ko'rinib turibdiki, muallif folklor asarlarining quli bo'lib qolmagan balki, undagi manzara, sujet va tasviriy vositalarni ijodiy qo'llagani holda o'z asarlariga sayqal beradi.

Shoir ertakda o'zi ko'p murojaat qiladigan qarshi qo'yish usulidan, shu bilan birga ramziylikdan unumli foydalanadi. Zangori gilam chol uchun og'ir va mashaqqatli hayotda birdan-bir ovunchoq zavq-shavq manbai edi. Gilamidan ajralgan chol ozodlikdan, erkidan ham ajralib tutqunlikda qoladi. Do'stlarining yordamida zindondan qutulgan Rahim chol yangi hayotga erishgan odamlar makoni – o'z qishlog'iga kelar ekan, eng avvalo, "Hovli o'rtasidagi qayrag'och

qoshidagi” o’sha zangori gilamiga ko’zi tushadi. “Do’ndiq-do’ndiq bolalar, go’yo g’uncha lolalar” o’ynayotgan gilamga hayratlanib tikiladi. Gilam (ayniqsa, uchar gilamlar) xalq ertaklarida qahramonlarni seyr-jodu vositasida bir mamlakatdan boshqasiga bir zumda eltib qo’yuvchi bir vosita hisoblansa, Sulton Jo’ra uni ozodlikka eltuvchi, ezgulikka boshlovchi detal sifatida tasvirlaydi. Haqiqatan ham shu gilam tufayli Rahim chol qizini topadi, xalqning ezgulik topganini boylarning zulmidan ozod bo’lganini bilib oladi.

Shoirning mahorati shundaki, zangori gilamni shunchalik go’zal va samimiy ta’riflaydiki, yosh kitobxon ko’zi o’ngida yorqin gavdalanadi. Bunda havorang tog’lar:

Yam-yashil shinam bog’lar  
Firuza-shisha osmon,  
Va osmondan nur sochgan

Oy va yulduzlarning barchasi ipak bilan solingan ko’p asil va go’zal yagona gilam tasvirlanadi. Gilam Rahimga yetti avloddan meros qolgan, shuning uchun “gullar namni sevgandek”u gilamini sevadi.

Sulton Jo’ra – xayoloti kuchli ijodkor, qahramonlarning kiyimlari, yurish-turishlari asrdanasrga o’tishlarida fantastika elementlari keng qamrovli ekani ko’rinadi. Bu asarni bugun o’qigan o’quvchi shoirning orzu-xayollari qaysidir ma’noda ro’yobga chiqqanligini anglab yetadilar.

Shoir Sulton Jo’ra mohir tarjimon ham edi. U tatar xalq shoiri Abdulla To’qayning bolalarga atalgan “Echki bilan qo’y haqida ertak” asarini o’zbekchaga o’girib, bolalar adabiyotimizni qardosh xalqlar mumtoz asarlari hisobiga boyitdi. Sulton Jo’ra so’zi bilan ishi bir inson edi. Shu sababli ikkinchi jahon urushi boshlanib, fashistlar xalqimizning boshiga olamshumul kulfat solganda shoiriligini pesh qilmay, ko’ngillilar safida janggohga otladi. Qalam-u qurol bilan jang qiladi. Otishmalar ostida okoplarda “Chavandoz”, “Pulemyotchi ovozi”, “To’pchi Muhammad”, “Nayzamiz”, “Berlin aptekasida”, “Qahramon qo’chqor”, “Sog’inib”, “Jahon seni olqishlar” singari ikkinchi jahon urushi davridagi o’zbek harbiy she’riyatining sara namunalarini yaratdi. Ularda o’zbek jangchilarining jasoratini kuylab, g’alabaga ishonchlarini mustahkamladi. Sulton Jo’ra 1943-yilning 14-noyabrida Belorussiyaning Gomel viloyatiga qarashli Borshchevka qishlog’ida bo’lgan shiddatli jangda halok bo’ladi. U jangda ko’rsatgan jasorati uchun vafotidan so’ng “Ikkinchi darajali Vatan urushi” ordeni bilan taqdirlangan edi.



## Zafar Diyor (1912-1946)

O'zbek bolalar she'riyati taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan kichkintoylarning iste'dodli shoirlaridan biri Zafar Diyor 1912-yilda Namangan viloyatining hozirgi Chust tumanidagi Samsotepa qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. 1916-yilda Zafarlar oilasi Toshkent shahriga ko'chib keladi. Zafarning otasi dala ishlarida,

onasi esa bosmaxonada mehnat qiladilar. 1927-yilda Zafar to'liqsiz o'rta maktabni bitiradi va Samarqanddagi Narimonov nomli pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi. Uning dastlabki she'riy mashqlari bilim yurti devoriy gazetasi sahifalarida ko'rinishda boshlaydi. O'tgan asrning 20-yillar oxiri va 30-yillar boshlarida hozirgi "Tong yulduzi" gazetasida, "Yosh kuch" jurnallarida she'rlari chop etila boshladi. Shoir o'z asarlarida kichkintoylarning orzu-umidlari, armonlari, kattalarga berayotgan yordamlari, do'stliklari zo'r muhabbat bilan kuylanadi.

Kichkintoylar hamisha "o'yin" ichida yashaydilar. "O'yin ichida" olamning xilma-xil ko'rinishlari, ranglaridan ogoh bo'lishadi. "O'yin ichida" o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob izlashadi. "Suv bilan suhbat" ana shunday savol-javob asosida qurilgan.

Bola:

– Quloq solgin so'zimga!  
Nega buncha shoshasan?  
Qayerdan bu kelishing,  
Qirg'oqlardan toshasan?

Suv:

–Yaxshi bola toychangdek  
O'ynab, kishnab kelishim,  
Qir, adirlar oralab  
Shamol kabi yelishim,—  
Ko'rasanmi, hu o'sha  
Oppoq qorli tog'lardan.

She'r avvalo, bola tabiatiga monand savolga ko'mib tashlash usulida yozilgani bilan kichkintoy o'quvchi e'tiborini tortadi. Bola uning javoblaridan qoniqsa-da, suvning endi borar yeri, manzili qiziqtiradi. Suvning qorli tog'lardan oqib kelishi, dalalarga, bog'-rog'larga oziq bo'lishi ma'lum bo'lgach, toshqin suvning sarguzashtlaridan zavq tuyadi. Shu tariqa suvning tog'lardan oqib kelib, bog'-rog'larni sug'orishi ayonlashadi.

Yoki, shoirning "To'p" she'rida bolalarning sevimli o'yinchoqlaridan biri koptokhaqida so'z boradi:

To'pim, to'p-to'p etasan,  
Ursam, uchib ketasan.


Handalakdek yumalab  
Bizni xursand etasan.

Shoir chiroyli o'xshatishdan foydalangan. To'p va handalak bolalarga juda yaqin tushuncha va birdek sevimli. To'p so'zining lug'aviy ma'nosi ham uning to'p-to'p etishida, go'yo. Shusababli undagi quvnoq ohang, yengil yumor, samimiy tasvir va aniq obrazlar kichkintoy tushunchasiga hamohang, shuningdek, yod olishga qulay.

Zafar Diyorning o'zi aytganidek, uning she'rlarida bolalarning tabiat va jamiyat hodisalari bilan tanishishiga katta ahamiyat beriladi. Kichkintoylar o'zlarining do'stlari – kapalaklar, qaldirg'ochlar, laylaklar haqida quvnaq-quvnaq kuylaydi. Shoirning “Kapalak” she'ri sujetli voqea asosiga qurilgan. Jajji lirik qahramon kapalakka murojaat qilib, u bilan suhbat qilish, do'st tutinish orzusini bayon qiladi:



Kapalakning tutqich bermay, shoshib uchishi, guldan gulga qo'nib, sharbat so'rib o'tirishi – “pildir-pildir uchishi” lirik qahramonga zavq bag'ishlaydi, ammo uni tutolmaganidan halak. Negaki, u kapalakni juda yaxshi ko'rgani uchun do'st bo'lmoqchi, xolos. Unga ozor yetkazmoqchi emas. Ana shu orzusini aytish uchunгина uni tutib, suhbatlashmoqchi. Bu jihat kichkintoylar tabiatiga xos va mosligi anglashilib turadi.



Zafar Diyor maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga mo'ljallab yozgan she'rlari shu kabi sodda, samimiy tuyg'ularga yo'g'rilgan, obrazlarning ko'rimliligiga asoslangan bo'lsa, ertak va dostonlarida o'smirlar tafakkuri yetakchi. Shoirning 30-yillarda yozgan "Yuksak tog', keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa" dostoni qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishga bag'ishlangan, davr voqeligi aks etgan ertak-dostondir. U uch o'rtoq–keng o'tloq, yuksak tog' hamda mard o'rtoq–inson muloqoti, hamkorligiga bag'ishlangan. Ertak keng sahrolar tasviri, chang-u to'zon qoplagan dashtning qonib suv ichish orzusini hikoya qilish bilan boshlangan. Ayniqsa, uning bag'ridagi o'tloq alamzada. Negaki:

–Dilbar yozda, bahorda,  
Kunduz, hatto nahorda,  
Bir qush yayrab o'tmasa,  
Bir qultum suv yutmasa,  
Karvonlar ham o'tar kam.

Shu sababdan o'tloq o'ksib-o'ksib yig'lab, qiyomatli o'rtog'i bo'lgan tog'ga dardli boqadi. Bu paytda u yuksak tog' usti to'la oppoq qor bilan xuddi posbon-u, osmon unga soyabondek turardi. O'tloq hatto unga yalbora boshlaydi:

–Do'stim, senda suv mo'ldir,  
Ustingda qor mo'l-ko'ldir.  
Suv bor – shunday obodsan,  
Obodlikdan xo'b shodsan.  
Sen ham yashnab kul desang,  
Sevinchlarga to'l desang,  
Ber suvingdan menga ham  
Qo'yay hayotga qadam.

Afsuski, shunday yuksak tog' qadrdon o'rtog'i – o'tloq sahhroga obihayot berishdan, ko'ksiga suv qo'yishdan ojiz edi. U shundan nadomat chekadi:

–Bilsang, oyoq-qo'lim yo'q,  
Senga eltar yo'lim yo'q,  
Qanday qilib o'rtoqjon,  
Suv yo'llayman sen tomon.  
Buning uchun kuch kerak,  
Kuchga to'la zo'r bilak.

Ularning ana shu suhbatlari ustiga qomati chinordek, savlati Go'ro'g'lidek bir mard o'rtoq kelib qoladi. Birinchi bo'lib, yuksak tog' so'z boshlaydi:

–Hoy, mard o'rtoq, mard o'rtoq,  
Qara, shuncha keng o'tloq,  
Suvsizlikdan dili tog'...  
Chamanzorga aylantir,  
Mangulikka shodlantir.

Bu fikrni issiqlikdan qovjirab, hansirab yotgan o'tloq ham qo'llab quvvatlaydi:

Suv ber menga, suv bergin,  
Ko'ksimdan so'ng gul tergin,–

deydi. Ana shundan keyin uch o'rtoq o'zaro kelishib, "Sir" tomon, ya'ni Sirdaryoga yo'l oladilar. U o'z yo'lida goh qirg'oqlarga sig'may to'lib-toshar, goh to'qaylar-u bog'lardan o'tib, Orol dengiziga suvini etib quyar edi. Inson qo'li tufayli o'sha suvlarning bir qismi, qaqrab yotgan sahrolarga burib yuboriladi...

Ertak shu uch o'rtoq orzusining ro'yobga chiqishi bilan xotima topadi. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, do'stlikning, o'zaro hamkorlikning ulug'lanishi asarning tarbiyaviy ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek, asar yosh avlodni tabiatga muhabbat ruhida voyaga yetishlariga hissa qo'sha oladi. Zafar Diyor bolalar va o'smirlarga xos shijoatkorlikni, mehnatsevarlikni kuylagan. Ayni paytda o'z davrining dolzarb mavzusi – qo'riq vabo'z yerlarni o'zlashtirish masalasini bolalar adabiyotida o'ziga xos usulda, ertak janri sujetini zamonaviy voqelik asosida yaratishga erishadi. Uning masnaviy shaklida a-a, b-b,d-d... yozilishi bolalar dostonchiligi rivojiga hissa qo'shganidan dalolatdir. Lirik qahramonlarning nomlanishi (o'tloq, tog', o'rtoq) va sifatlari (keng, yuksak, mard) hamana'naviy va zamonaviy talqinlarga xos. Shu bilan birga, asar g'oyasi bugungi ekologik fojealar zaminini oydinlashtirishga, uni zamondosh o'quvchiga tushuntirishga xizmat qiladi:

Yo'q-yo'q, bo'shga oqish, bas.  
Bir Orolga boqish, bas.  
Inson seni no'xtalar,  
Telbaliging to'xtalar!  
Yurib yangi yo'llardan,  
Bog'-bo'stonlar ochasan,  
Suv bilan nur sochasan.

Endilikda, Orol dengizining halokati bir jihatdan o'sha Sirdaryo suvining muntazam kelib quyilmaganida, cho'l-u sahrolarni o'zlashtirish miqdori oshib ketib, suv tanqisligi ortib ketgani ta'kidlanayotgan ekan, bu asar o'sha davr voqeligini, hodisaga bir yoqlama yondashish oqibatlarini anglashga yordam beradi. Shunga ko'ra, asarning badiiy saviyasi e'tirofqa loyiq holda uning mavzusiga zamon voqeligi in'ikosi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Umuman, Zafar Diyor ona yurt, serquyosh o'lka, kichkintoylar baxtiyorgligi, qiziqishlari, kechinmalarini tarannum etuvchi she'rlari bilan o'tgan asrning 30-yillari bolalar adabiyotiga alohida hissa qo'sha olgan, bugun ham she'rlari jajji o'quvchilar tilida baralla kuylanadigan shoir sifatida barhayotdir.

Uning «Ona allasi» (1942) qo'shig'i o'z vaqtida yozilgan qo'shiq edi.

- Uxla, qo'zim, do'ndig'im,  
Uxla, mana, chiqdi oy.  
Seni sevib, erkalab,  
Jo'r bo'ladi menga soy.  
Maqtovingni kuylasam,  
Yumilmaydi hech ko'zim.  
Uzoq tunlar onangga  
Yo'ldosh ? yorug' yulduzim.  
Uxla, bolam, oyginam,  
Kishnab turgan toyginam..





## Quddus Muhammadiy

(1907-1997)

Butun umrini, ijodini kichkintoylarning katta adabiyotiga bag'ishladi. U XX asr o'zbek bolalar she'riyatini mavzu mundarija hamda janriy xilma-xillik bilan boyitgan zabardast shoir. Shoir ijodi o'tgan asrning 30-yillaridan, to yangi asr bo'sag'asiga qadar keng qamrovli shakl va tamoyil kasb etdi.

Shu davr mobaynida shoir she'rlarini bog'cha bolasidan tortib, maktabni tamomlayotgan o'spirinlargacha birdek sevib o'qidi, qo'shiq qilib kuyladi. Q.Muhammadiyning alohida chop etilgan she'riy to'plamlari, ertak-dostonlaridan tashqari, birgina maktab darsliklariga kiritilgan asarlarining o'ziyoq, uning ommabop va hammabop she'rlar yozganidan dalolat beradi. Muhimi, ana shu ehtiros hali-hanuz so'ngani yo'q. Shoir she'rlari mustaqillik bolalari tomonidan ham birdek, sevib o'qilmoqda. Shunga yarasha ijodkor badiiy olamining talqini o'zining yangi qirralari bilan to'lishib bormoqda.

*She'r yo'lin o'rgatgan quyoshim, oyim,  
Kunduzim, yulduzim, ilhomim, so'zim,  
Shu Vatan, shu xalqim, shu o'g'il-qizim,  
She'rimning asosiy mavzui sizlar.  
Asarim ovozi - parvozi sizlar,  
O'zingiz ilhomim oltin o'zagi,  
O'zingiz she'rimning husn-bezagi.*

Haqiqatdan ham shoir she'rlarining mavzusi bepoyon Vatan, uning mehnatsevar xalqi, shirin o'g'il-qizlaridir. Asarlarining ovozi ham, parvozi ham, ilhomining oltin o'zagi, she'rining husn-bezagi ham shulardir. Shoir o'z asarlarida bolalarning yurak tuyg'ularini, orzu va intilishlarini, o'qishdagi yutuqlarini aks ettirish bilan birga, ulardagi kamchiliklarni qoralaydi, uni yo'qotish yo'llarini izlaydi, topadi, o'z o'quvchisiga talabchan o'rtoq, qattiqqo'l ustoz sifatida yo'l ko'rsatadi. To'qson yillik umrini bolalarga she'r, qo'shiq, doston, doston-ertak yaratishga qaratgan Quddus Muhammadiy 1907-yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keladi. Bo'lajak shoirning otasi Muhammad Alibek Abdurahmonbekov ancha savodli kishi edi. Shu sababii u dastlabki ma'lumotni otasidan oldi.

1925-yilda otasi vafot etgach, Quddus Muhammadiy avval amakisidikida, soʻngra esa maktab-internatda tarbiya oladi. Internatda Q.Muhammadiyning birinchi sheʼri “Chuvalachi” maydonga keladi va bu yerda chiqadigan “Quyosh” nomli devoriy gazetada bosilib chiqadi. Shu ilk mashqlaridayoq boʻlajak shoirning nafasat olamini kuzatish va badiiy idrok etish talanti hamda umumlashtirish mahorati yaqqol koʻrinadi. U yetti yillik maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent qishloq xoʻjalik texnikumiga oʻqishga kiradi. Bu yerda u bolalar uchun sheʼrlar yoza boshlaydi. Uning “Tong oʻyini”, “Paranji”, “Ahmad va asalari”, “Seleksiya stansiyasi” nomli sheʼrlari vaqtli matbuotda bosilib chiqadi.

1931- yildan Q. Muhammadiy maktabda botanika oʻqituvchisi boʻlib ishlaydi, shu bilan birga, Oʻrta Osiyo davlat universitetining biologiya fakultetida oʻqiy boshladi.

Bolalar uyidagi va universitetdagi hayot, mehribon murabbiy va muallimlarning gʻamxoʻrliklari Q.Muhammadiy qalbida bir umr oʻchmas iz qoldiradi. Bu yerdagi oʻzaro doʻstlik boʻlajak shoir qalbini togʻdek koʻtarib yuboradi.

Quddus Muhammadiy Oybek, H.Olimjon, Gʻ.Gʻulomlarni oʻzi uchun ustoz deb bilgan, ulardan oʻrgangan, ular bilan doimo ijodiy muloqotda boʻlgan. U ilk sheʼrlaridan biri orqali ulkan adib Oybek bilan tanishadi. Oybek bu isteʼdodli bolalar shoirini hamisha qoʻllab-quvvatlab, ijodiga gʻamxoʻrlik qilib kelgan. Bir kuni Yozuvchilar uyushmasida mushoira boʻladi. Mushoiraga raislik qilayotgan Hamid Olimjon sheʼr oʻqish navbatini Q.Muhammadiyga beradi. U zavq bilan “Saʼva sayrarkan” sheʼrini oʻqiydi. Boʻlajak shoirning ijodiy qobiliyatini payqagan H.Olimjon sheʼr tugashi bilan uni yoniga chaqirtiradi. Qachondan beri sheʼr yozishini, qayerda ishlashini surishtirib, sheʼr maʼqul tushganini aytadi. Soʻng bolalar uchun sheʼrlarning kamligi haqida toʻxtalib, mana shunday ajoyib sheʼrlarni koʻproq yozishni taʼkidlaydi.

Q.Muhammadiy ijodiga xos boʻlgan muhim xususiyatlardan biri hozirjavoblikdir. Shoir asarlarida ona-Vatanga muhabbat, aʼlo oʻqish, xulq-odobda boshqalarga namuna boʻlishga daʼvat etish, fan va texnikani oʻrganish muammolari asosiy mavzulardan hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Quddus Muhammadiy Islom shoirga adabiy kotiblik qiladi. Bu yerda u xalq ogʻzaki ijodi namunalari bilan yaqindan tanishadi. Islom shoirdan koʻp narsalarni oʻrganadi. Shoirning birinchi sheʼrlar toʻplami 1946-yilda “Oʻquvchiga esdalik” nomi bilan bosilib chiqadi. Shundan keyin uning 60 dan ziyodroq turli nom va tillardagi kitoblari bosilib chiqdi.

Quddus Muhammadiy doimo zarur mavzularda asarlar yaratib keldi. Har bir sheʼrni kundalik hayotimizdan olib yozdi. Yozganda ham qiziq yozdi, qizgʻin yozdi, soz yozdi. Bolalarni oʻqishga, hunar oʻrganishga, odobli boʻlishga, mehnatga chaqirdi, qiziqitirdi, yordam berdi. Buni shoirning “Oʻquvchiga esdalik” sheʼrida koʻrish mumkin. Asarda maktab oʻquvchisining maʼnaviy qiyofasi va vazifalariga mufassal toʻxtalib, oʻqish, bilim oʻrganish zarurligini taʼkidlaydi:

*Boʻlay desang bogʻbon,  
Yo Vatanga posbon,  
Yo osmonda uchuvchi,  
Yo dengizda suzuvchi,*



*Nimaki qilsang tilak,  
Bariga o'qish kerak.*

Quddus Muhammadiy sofdil, a'lochi o'quvchi bolalarni samimiy sevadi, o'z she'rlarida bunday bolalarni maqtaydi. "A'lochi Sodiq", "Sinov", "Mening orzum", "Bizning uyda", "Yasha, Omon!", "Besh", "Solijonning darsxonasi" va boshqa she'rlari a'lochi o'quvchilar haqida yaratilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shoir bu she'rlari orqali a'lo o'qish, tinmay mehnat qilish bilangina ilm-fan sirlarini egallash mumkinligini bolalar qulog'iga quyadi.

Uning "Maktab", "Maktab she'ri", "Maktabimiz peshtoqida", "Maktabingiz tarixini bilasizmi?", "Birinchi sentabr", "O'quvchiga esdalik", "Hunar maktabi o'quvchilarining esdaligi", "O'qituvchim olqishlayman", "Ustozingga rahmat", "Solijonning darsxonasi", "Besh", "Baholar poygasi", "Ahmadjon a'lochidir", "Kimning xati chiroyli", "Harflar o'yini" singari turli saviya va sajiyadagi she'rlari maktab mavzusining xilma-xil qirralarini qamrab olgan butun bir turkumni tashkil etadi. Shoir maktab mavzusidagi bu she'rlarni "Maktabma-maktab yurib, talay joylarni kezib" yozganligini e'tirof etarkan, dastlab "maktab" so'zi ma'nosini poetik izohlagan holda o'quvchilarga shunday tushuntiradi:

Maktab so'zin bilaman,  
Lo'nda ma'nosi – o'qish.  
O'qiganing eng a'lo,  
Miyangga quyish, uqish,  
Uqqaning dilga yuqish.  
O'qiganing turmushda  
Traktordek ishlatish.

Shoir talqinicha, maktab–ma'naviyat maskani; insonni kamolot sari boshlaydi, xalq va Vatan ishiga yaraydigan qilib voyaga yetkazadi. Shu sababli uning peshtoqida "O'qish so'zi yozilgandir uch marta". Shoir uning har bir marta yozilganiga alohida poetik ma'no yuklaydi. Birinchi yozuvida o'qiganni uqish, ikkinchichisida "O'qiganing Vatanda, hamma ish, qurilish, har qadamda elingga yordam bersin, ilm - bilimingdan olam yorisin", uchinchisida "bilim – olam va odam guli", binobarin, u bilan "olam ilmining ufqini ko'zlamoq" zarurligi ma'nolari ifodalanganini ta'kidlaydi. Shu sababli, maktabni sevmok – nafaqat ota-onaning, balki o'qituvchining ham muhabbatiga sazovor etadi. Shoirning ilk bor maktabga qadam qo'yayotgan kichkintoylarga bag'ishlangan va Hamzaning "Maktab" she'riga hamohang qilib dialog shaklida bitilgan mana bu she'rida shu ruh ustuvor:

Dunyoda eng sevgan joying  
Qayer?– dedi.  
Dedim: – Maktab.  
Sababin ayt, – dedi, dedim:  
– O'rgatadi ilm-u adab.  
Ota-onam sevsa meni  
Qo'zichog'im, quvonchim, deb.  
O'qituvchim sevar meni

O'quvchim ham a'lochim, deb.

Shoir kichkintoy lirik qahramonning bu quvonchi va g'ururi zamirida bola shaxsiyati shakllanishida oila va maktab hamkorligi nechog'li ahamiyatga ega ekanligini murg'ak qalblardagi farahli tuyg'ularda g'oyat sodda va samimiy ifoda eta olgan. Shu tariqa, o'quvchi va o'qituvchi munosabati maktabdagi o'qish va o'qitish jarayonining asosini tashkil etishi shoir she'rlari mavzu ko'lamini kengaytira borgan.

Quddus Muhammadiy "nimavoylar"ning savollariga jamiyatning ertasini o'yilgan holda javob izlashi sababi, she'rlar sarlavhasi ham savollardan iborat: "Dadajon, nima uchun oftob yerga qarab turadi?", "Kimning uyi eng kattakon?", "Hamma narsa yer ustida, yer o'zi nima ustida?", "Olcha nega qip-qizil?", "Yong'oqning qobig'i nega qattiq?", "Yong'oqni nega yong'oq deymiz?", "Tok daraxti bir xil-u uzumlari nega har xil?", "O'rik nega sarg'ayib pishadi?", "Jiydaning shoxi nega egik?", "Shaftolining bargi nega achchiq?", "Sada nega meva qilmas?", "Dada, bog'bon tokni nega qirqib turadi?", "Qora mushukchani mashina nega bosdi?", "Nima uchun mushuk odamlardan ajralmaydi?", "Mol nega kavsh qaytaradi?", "Chittak nega qittak?", "Qaldirg'ochlar charchamaydimi, dada?", "Laylakning oyoq-tumshug'i nega uzun?", "Qushlar qishda qayda qo'noqlar?", "Xo'roz nega qichqiradi?" kabi. Bular shunchaki jo'ngina savollar emas, har qanday ota-ona ham ularga dab-durustdan nima deb javob berishga qiynaladi. Aytaylik, o'rik nega sarg'ayib pishadi? – degan savolga g'o'raligida turshak bo'lgan o'rik quyosh nuri bilan haroratdan xlorofill so'rib, qizarib pishib yetiladi, deb javob bergudek bo'lsangiz, unda xlorofill nima, quyoshdan uni qanday so'radi, kabi yangidan-yangi savollar tug'iladi. Quddus Muhammadiyning topqirligi shundaki, u bunday savollarga insonni uning mehnati va kasb-u korini sharaflovchi ma'noga ega didaktik javob topadi, bu didaktik javob yangi savolning tug'ilishiga deyarli o'rin qoldirmaydi. Aytaylik, chindan ham o'rik nega sarg'ayib pishadi? Shoir bu savolga shunday javob beradi: o'rik o'zini ekan, vaqtida sug'organ, vaqtida tagini yumshatgan, vaqtida quruqshagan shox-shabbasini qirqib parvarishlagan inson dasturxonini ziynatlashni intiqlik bilan kuta-kuta rangi sarg'ayib, yetilib pisharmish. Shoir bunda xalqning "kuta-kuta rangi somon bo'ldi" iborasi mazmunini yangicha talqin etgan.

"Chuvalchang – traktor" she'rida esa bolalar bilan chuvalchang tanasiga ekskursiya qilib, obdon o'rganib, shunday tanishtiradi:

Juda oddiy jonivor,  
Na oyoq, na qo'li bor,  
Na ko'zi bor, na quloq,  
Hamma yog'i go'sht, biroq.  
Og'zi boru tishi yo'q.  
Dumi boru nishi yo'q.

Shu holiga qaramay, u tuproq ostida yashab turib, yerning unumdorligini oshiradi. "Yer qatlamini yumshatib, kesaklarni, tuproqni qo'zilatib, shudgorni bo'rsillatadi". Ko'zga ko'rinmas shu ishi bilan yerni oziqlantiradi. Shu xizmati

bilan u traktor xizmatini ado etadi, binobarin ularni ilon deb, bosib-tepib yanchib tashlamaslik lozimligini uqtira turib, yana tabiatni himoya qilish sabog'ini beradi.

Quddus Muhammaddiy poeziyasida tabiatga munosabat mavzusi behad keng qamrovli bo'lib, asosan uch yo'nalishda talqin qilingan: birinchi yo'nalishda tabiat bilan tanishtirish motivlari kuylansa, ikkinchi yo'nalishda tabiatdan zavqlanish motivlari yetakchilik qiladi, uchinchi yo'nalishda esa tabiatni muhofaza qilish ustuvor motivga aylangan. U tabiatga shu qadar oshuftaligi tufayli bolalarni ham tabiatni sevishga da'vat etib, o'z poeziyasida ekologik tarbiya berishni ham ko'zlaydi. Gap shundaki, u kuylagan tabiat O'zbekiston bog'u-rog'lari, tog'u daryolari, shaharu qishloqlariga xos manzaralar, shu maskanda yashovchi hayvonlar, qushlar, hasharotlar, shu zaminda o'suvchi ming dardga davo bo'luvchi giyohlar, xalqimiz milliy boyligiga aylangan paxta va hokazolar bo'lib, bunday tasvir xalqimiz milliy mentalitetiga mos va shu xalqning milliy xarakterini ochishga xizmat qiladi.

Quddus Muhammadiy shoirlik iste'dodi va zakovati sayqal topa borgani sari she'rlarini dastlab to'plam tartib berishda ming yillar davomida mumtoz adabiyotimizda namoyon bo'lib kelayotgan sharqona devon tartib berish an'alariga ham ijodiy munosabatda bo'lishga intiladi va ayrim natijalarga erisha oldi. Quddus Muhammadiy o'z asarlaridan saralarini "Oftob, Yer, Suv, Havo", "Dov-daraxt mehriyo yashil do'stlar", "Yerdagi jon-u jondorlar", "Qanotlilar" hamda "Odam va maqollar" sarlavhalari ostida besh guruhda jamlab, 1971 – yilda "Tabiat alifbesi" nomi ostida bir kitobini nashr ettirgan edi. Miraziz A'zam e'tiroficha, bu "kitob yosh she'r ixlosmandlari tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilingach, shoirimiz ikkinchi tajribani boshlab yubordi: o'sha kitobdagi qismlarni kengaytirib kitob holiga keltirishga kirishdi. Shoir bu sohadagi izlanishlarini 1974-yilda boshlab 1988-yilda intihosiga yetkazdi. Yetti yil davomida umumiy "Tabiat alifbesi" nomi ostidagi besh she'riy to'plam quyidagi tartibda bosilib chiqdi:

1. Tabiat alifbesi. 1-kitob. – T., 1974
2. Bog'larda bolalar. 2-kitob. – T., 1976.
3. Qanotli do'stlar. 3-kitob. – T., 1977.
4. Cho'pon bobo qo'shig'i, 4-kitob. – T., 1979.
5. Odam - olam qo'shig'i, 5- kitob. – T., 1981.

Shu tariqa, Q.Muhammadiy o'zbek bolalar adabiyoti tarixida ilk bor besh kitobdan iborat yaxlit majmua yaratish an'anasini boshlab berdi. Bu besh kitobdan iborat she'rlar majmuasi har qanday ko'p tomlik saylanma yoki tanlangan asarlardan shunisi bilan farq qiladiki, ularning har bir kitobida alohida bir mavzudagi she'rlar, ertaklar jamlangan bo'lib, barchasi birgalikda tabiat alifbesidan saboq beruvchi yagona konsepsiya negizida tartib berilgan. Natijada, besh kitob "yagona bir organizmga uyushgan, bir butun asar shaklini" olgan. Uning "Tabiat alifbesi" deb atalgan birinchi kitobida olam va uning tuzilishi, yil fasllari, jismlar va ularning inson hayotiga daxldorligini ifodalovchi quyosh, yer, suv va havo haqida bahs etuvchi she'rlar jamlangan bo'lsa, "Bog'larda bolalar"

otlig‘ ikkinchi kitobi nabotot olamini tashkil etuvchi dov-daraxtlar, gullar, xullas, yashil do‘stlar haqidagi she‘rlardan tarkib topgan.

Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan uchinchi kitobi “Qanotli do‘stlar” deb nomlangan va unda qushlar olami, ularning xilma-xil tabiati hamda insonlar hayotiga daxldor qirralarini ifodalovchi she‘rlar jamlab berilgan.

Kasb-hunar va mehnatga havas uyg‘otuvchi she‘rlar “Cho‘pon bobo qo‘shig‘i” otlig‘ to‘rtinchi kitobga jamlangan bo‘lsa, insonning tabiat farzandi ekanligi haqidagi she‘rlar beshinchi kitob bo‘lgan “Odam – olam qo‘shig‘i” mundarijasini tashkil etadi. Shu zayilda besh she‘riy kitob inson va uning hayoti, inson va uning tevarak-atrofida yashovchi qushlar, hayvonlar, hasharotlar bilan inson va uning nabotot olami, osmon jismlari, yerdagi narsalar bilan munosabati mohiyatini bolalarga xos qarashlar zahirida badiiy talqin qilishga yo‘naltirilgan xilma-xil janrlardagi asarlar silsilasini qamrab olgan. Shu fazilatiga ko‘ra, bu besh she‘riy kitob nainki Quddus Muhammadiy ijodida, balki XX asrdagi o‘zbek bolalar she‘riyati tarixida ham betakror adabiy hodisa bo‘lib qoldi. Uning bosh qahramoni –bolalik va shoirning o‘zi.

Shoir qushlar, hasharotlar, hayvonlar obrazlarini majoziy vositaga aylantirib, “Maqtanchoq qo‘ng‘iz”, “Mag‘rur she‘r va ayyor tulkivoy”, “Arslon bilan sichqon”, “Eshak bilan baliq”, “Xo‘roz nega qichqiradi”, “Tovuq nega qaqiqlaydi”, “Boyqush emas, oyqush haqida”, “Bir o‘zboshimcha chumchuq haqida”, “Anqo qushmas, anhor qush” kabi o‘nlab she‘riy rivoyat va ertaklar yaratdi. Ularda inson fe‘l-atvoridagi qator qusurlardan kulib turib, yosh avlodga halollik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, farosatlik, hamdardlik, mehnatga tayyor turish kabi axloqiy fazilatlardan saboq beradi. Shu zaylda u inson va tabiatni yaxlit holda talqin qilib, yosh avlodni olamni bor go‘zalligi va murakkabligi bilan qabul qilishga undaydi. Zero, tabiatni sevish – Vatanni sevish degani bo‘lib, gumanistik tuyg‘ularni tarbiyalashning asosiy omili hisoblanadi.

Quddus Muhammadiy she‘riyatiga nazar solinsa, ikki xususiyat bo‘rtib turadi: biri o‘quvchilardagi fazilatlarni o‘rnak qilib ko‘rsatish; ikkinchisi – ulardagi ayrim kamchilik va qusurlarni hajv qilish. U bolalarni sinchkovlik bilan kuzatarkan, ular tabiatidagi ijobiy xatti-harakatlarni yoqlash va tasdiqlash, illatlarni esa “isitmasi oshkor etmasdan burun” hajv bilan davolash yo‘lidan boradi. U bolalarda uchrab turuvchi yalqovlik, maqtanchoqlik, yolg‘onchilik, ishyoqmaslik, o‘ta uyatchanlik, injiqlik, tantiqlik, qo‘rqoqlik, beti qattiqlik, terslik, qo‘rslik, irkitlik, xabarkashlik kabi xulqlarni kalaka qiladi. Shoirning “Qoravoyning shu ishi to‘g‘rimi?”, “Rahimani taniyman”, “Nomsiz erkatoylar”, “Lapashang”, “O‘z-o‘zini tanqid”, “Ravshvnjonning qo‘li tilga kirdi”, “Ikki mushuk”, “Dum”, “Teshaning buzog‘i nega suzag‘on bo‘ldi?”, “Ahmadjonning ukoldan qo‘rqishi”, “Bir anqovcha”, “Nurmat nega bir oyoq?”, “Qing‘ir ish” “Chumchuqdan gap eshitmoq uyat emasmi?”, “Qulog‘i bor quloqsiz o‘g‘limga” kabi yumoristik she‘rlari, shuningdek, “Bir o‘zboshimcha chumchuq haqida”, “Sandal va pechka”, “Qo‘ng‘izoy bilan Sichqonboy” singari hajviy ertaklari ana shunday xususiyatlarga ega.

Bu holat shoir hajviy lirikasining gultoji bo‘lgan “Dum” she’rida yanada ko‘zga yaqqol tashlanadi. She’rda bo‘sh o‘zlashtiruvchi qoloq o‘quvchilar kulgi vositasida fosh etiladi. Bunda shoir “mish-mish”larning tez tarqaluvchanligi, og‘izdan og‘izga shiddat bilan o‘tib, barchaning diqqatini qarata borishi muhim. Kulgi obyekti esa – “Turg‘unning dumi”:

Bir maktabda gap mish-mish,  
Turg‘unning dumi bormish.  
Xo‘sh, bu ajab, qanday dum,  
Hech kimda yo‘q-ku bu dum?  
Qushga uchmoq, qo‘nmoqqa,  
Molga chivin qo‘rmoqqa.  
Hasharotga tig‘-yaroq.  
Yilqiga cho‘tka-taroq.  
Dum borki qaysi jonda,  
Ishi bor har maqomda.

Shu bois barcha jonzoqlar o‘z dumlari bilan faxrlanadi, dum - ular uchun or va nomus timsoli. Shoir shu zaylda jonzoqlar dumi bilan Turg‘unning “dum”ini majoziy kontrast vositasiga aylantirib, qushlarga, mollarga, hasharotlarga va yilqiga dumning foydali tomonlarini ko‘rsatish bilan Turg‘unday “ikkichi” bolalarga kesatq va kinoya qilish imkoniyatini tug‘dirgan. Natijada, bu jonli yumoristik xarakterning kashf etilishini ta’minlagan.

Q.Muhammadiy hajviy lirikasiga xos mushtarak xususiyat shuki, undagi aksar salbiy personajlar asar oxirida yo tuzaladi, yo o‘z xatosini anglab olib tuzalish ahdini ko‘ngliga soladi, yo shoirdan tuzalish dashnomini eshitadi.

Quddus Muhammadiy butun ijodiy faoliyati davomida xalqni o‘z ustoz deb bildi, xalqning boy va qadimiy og‘zaki badiiy ijodiga mehr bilan qaradi, uni qunt bilan o‘rganishdan tonmadi. Xususan, xalq shoiri Islom ota Nazar o‘g‘liga shogird tushib, ancha vaqt davomida u bilan ijodiy muloqotda bo‘lishi uning xalq ijodi sirlarini yanada chuqurroq idrok etishiga kengroq imkoniyat ochdi. Xalq qo‘shiqlari ritmidagi o‘ynoqilikni yuzaga keltirgan vositalarni his eta boshladi, xalq afsonalari, rivoyat, naql, ertak va topishmoq janrlariga xos shakl, syujet motivlari va ritmidan ijodiy ilhomlanib, o‘zbek bolalar epik poeziyasini folklorizmlarning xilma-xil jilolari bilan boyitdi. Natijada, “Tovuq nega qaqillaydi?”, “Xo‘roz nega qichqiradi?”, “Mushuk nega pixillaydi?”, “Olahakka og‘zidan tug‘ar emish”, “Hakkavoyning xom xayoli”, “Bulbul bilan mayna qissasi”, “Oy yuzida nega dog‘ bor?”, “Tentak soy”, “Buvi va sandiq” qissasi, “Tut daraxti va ipak qurti tutilishi”, “Zag‘izg‘on”, “Toshbaqa” singari she’riy afsona va she’riy rivoyatlar, “Bir mayizni qirq bo‘lib” she’riy naqli, “Bir o‘zboshimcha chumchuq haqida”, “Qo‘ng‘izoy bilan Sichqonvoy”, “Sandal va pechka”, “Chivin urushqoq va shamol botir”, “Oltin daraxt”, “Dono bobo va bir yuz besh pahlavon o‘g‘il va qizlari haqida ertak”, “Ola bola va a‘lo bola qissasi”, “Bog‘bon chol uch xum ertak aytganmish”, “Erkinjon oyga chiqibdi”, “Adashgan bola qissasi” kabi she’riy ertaklar hamda “Oltin olov, shirin palov va yashil qozon

haqida topishmoq” she’riy ertak-topishmog‘idan iborat oraliq janrlardagi asarlari dunyoga keldi.

Quddus Muhammadiy folklorning boy materiallarini ijodiy o‘zlashtirish, bilish bilan cheklanmay, undagi tez aytish va topishmoq kabi janrlar shaklini stilizatsiya qilish asosida, she’riy tez aytishlar va she’riy topishmoq singari oraliq janrlarning xilma-xil go‘zal namunalarini yaratdi. Chunonchi, gullar poetik tavsifiga bag‘ishlangan she’rlaridan biri “Ur to‘qmoqgul” tez aytish shaklida bitilgani bilan e’tiborni tortadi. Qizig‘i shundaki, bu gul ko‘pchilik bolalarga notanish, ular shunday gul borligini bilishmaydi ham. Qolaversa, gul nomidagi “r”, “l”, “q” tovushlar takrori uning talaffuzida qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Shoirshu holatni chuqur his etganidan shu tovushlar faol qatnashadigan va “urto‘qmoqgul” so‘zlariga ohangdoshlik hosil qiladigan so‘z va iboralardan foydalanib, ritorik so‘roqlar vositasida she’riy tez aytishning ravon va o‘ynoqi namunasini to‘qigan:

Urto‘qmoqgul, gul to‘qmoq gul,  
Ajab qiziq, bu qanday gul?  
Yo‘g‘ - e, bunday emasdir ul,  
Urto‘qmoq bo‘lmasdi gul!

Tez aytish ritorik so‘roq bilan boshlanib, poetik inkor orqali to‘ldirila borilgani bois “r”, “l”, “q” tovushlari talaffuzidagi chalg‘itish alomatlari so‘ndira borilgan. Keyingi satrlarda bu jarayon chuqurlashtirilib, o‘sha qiyin talaffuz etiladigan tovushlarning aniq va burro aytilishiga zamin yaratilgan:

– Men emasman urto‘qmoqgul,  
Ham emasman gul to‘qmoq gul.  
Ishim, biling, gul to‘qimoq gul,  
Bog‘ni gulga liq to‘ldirmoq.  
Guldan qiziq shiypon qurmoq,  
Guldan ko‘kka ishqom qurmoq.  
Osmonni chaman qilmoq,  
Shu sababdan nomim o‘rtoq,  
Urto‘qmoqmas, gul to‘qimoq.  
Yulduzlarga bo‘lay o‘rtoq!

Diqqat qilinsa, she’rda “r” tovushi 13, “l” – 27, “k” tovushi 38 martadan qo‘llangan va bunday tovush takrori tez aytish ritmiga xos o‘ynoqilik va ravonlikni ta’minlagan. Zotan, o‘quvchi qiyin tovushlar talaffuzini o‘zlashtira borish jarayonida urto‘qmoqgulning o‘zi haqida ham ma’lum tushunchaga ega bo‘ladi.

Shoir maktabgacha yoshdagilar yoki maktabdagi kichkintoylar uchun u yoki bu giyoh, hayvon, qush, hasharot, xullas, tog‘, daryo, buloq - barchasini ta’riflaydi va tavsiflaydi. Inchunun, ukkini kichkintoylarga shunday ta’riflaydi:

Qushlar qizig‘i ukki,  
Qayrilma tumshuq dukki,  
Ko‘zi yonar olovdek,  
Tunda yonar oftobdek,

Kalamushni ov qilar,  
Tekinxo‘rni daf qilar.

“Q” va “k” tovushlari alliteratsiyasi ukki ovozi ifodalab, qiyofasining ko‘rimligini ta‘minlagan. Ko‘zining olovdek yonib turishi, tunda ovga chiqib, asosan, tekinxo‘r kalamushlar bilan oziqlanishi haqidagi ma‘lumotlar esa, ukkiga oid tasavvurni boyitadi. Olti satrlik bu jajji she‘rda qofiya kemtikligini yopuvchi vositalar izlangan. “Qarchig‘ay” she‘ri sakkiz satrli, bevosita qarchig‘ayning o‘ziga murojaat shaklida bitilgan:

Qarchig‘ay, hoy, qarchig‘ay,  
Qarashlaring achchig‘-ay,  
Panjang o‘xshar zanjirga,  
Tirnoqlaring xanjarga,  
Vajohating o‘zgacha,  
Shijoating zo‘r muncha?  
Qarchig‘ay, hoy, qarchig‘ay,  
Qarashlaring achchig‘-ay.

Bu she‘rda ham “q” tovushi alliteratsiyasi qarchig‘ay ovozi eslatayotir, qolaversa, “qarashlari achchig‘” “xanjar tirnoqli” qush butun vajohati-yu shijoati bilan kichkintoy kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantirilgan. Shuningdek, kaptarning “g‘uv-g‘uv” xonishi-yu nomi mazmunining poetik sharhini ifodalovchi so‘zlarda shu xonishga ohangdosh tovushlarning faolligi qush haqidagi tasavvurni uyg‘ota oladi:

Kaptarim deydi g‘uv-g‘uv,  
G‘uv-g‘uvlab nima der u?  
Kaptarimning so‘zi bu,  
Kaptar so‘zi qizig‘-u  
G‘uv-g‘uv degani o‘quv,  
O‘quvga kerak uquv,  
Kaptar maktabi yo‘g‘-u.  
Kitob - daftari yo‘g‘-u.  
G‘uv-g‘uv so‘zi - maktabi,  
Daftar, qalam, kitobi.  
Uni o‘qib der g‘uv-g‘uv,  
G‘uv-g‘uvning ma‘nosi shu!

Diqqat qilinsa, butun she‘r vujudidan kaptar ovozi taralayotganday, kaptar ovozi ifodalovchi g‘uv-g‘uv taqlidiy so‘zi satrlar oxiridagi “u-bu”, “o‘quv-uquv”, “yo‘g‘-u” va “shu” so‘zlari hosil qilgan ohangdoshlik asosida shunday vaziyatini yuzaga keltirgan, qolaversa, shoir o‘quv va uquv so‘zlar orqali kaptar “g‘uv-g‘uv”i ma‘nosiga ishora qilib, kutilmagan didaktik ma‘noga ishora qiladi, ya‘ni kaptar daftar-u kitobidagi so‘z “g‘uv-g‘uv” bo‘lib, ma‘nosi “o‘qi-o‘qi” demoqchi bo‘ladi.

Bundan tashqari, Q.Muhammadiy topishmoqlarning janriy xususiyatlari va kompozitsion qulayligidan foydalanadi; mumtoz she‘riyatimizda mavjud chistonnavislik an‘analarini ijodiy rivojlantirib, “Toping-chi?”, “Viz-viz”, “O‘ylab

top”, “Buni toping, bolalar, aytib bermang onalar”, “Buni toping bolalar” kabi qator she’riy topishmoqlarini yaratadi.

Shoir topishmoq janri imkoniyatlaridan keng miqyosida foydalanishni ko‘zlab, bolalarni ijtimoiy voqelikka faolroq aralashiradigan va shu xususda fikr yuritishga da’vat etadigan topishmoq-she’r va topishmoq-ertak singari oraliq janrlarda quvnoq asarlar ijod qildi. “Buni toping, bolalar, aytib bermang, onalar” topishmoq she’rining dastlabki bandi yettilik shaklida: olti satri jumboqni tasvirlasa, so‘nggi satri o‘sha jumboq yechimini ifodalaydi. Keyingi bayti sakkizlik shaklida: yetti satrda jumboq tasvirlangan, keyingisida yechim berilgan. Jumboqlarning birinchisi – lolalar, ikkinchisi–buloqlar! Keyingi jumboq 21 satrda, to‘rtinchi jumboq 20 satrda, beshinchi jumboq 10 satrda, oxirgi jumboq 11 satrda tasvirlanib, javobi sir tutilgan. Bularni topish o‘quvchilarga havola qilingan:

Buni toping bolalar,  
Aytib bermang, onalar!

satrlari bilan topishmoq - she’r intiho topgan.

“Bir o‘zboshimcha chumchuq haqida” she’riy ertakda esa ishyoqmaslik, dangasalik va o‘zboshimchalik bilan yashashni xohlab, safdoshlari yonidan ketgan va yolg‘izlikka mahkum bo‘lgan chumchuqcha fojeasi orqali axloqiy saboq berish ko‘zlangan. Erta bahordan barcha chumchuqlar in qurish niyatida tizilishsa, o‘zboshimcha chumchuq esa:

Tayyor kavak inlar ko‘p,  
Hammasi o‘zimmiki.  
Nima kerak in qurib,  
Bir kichik so‘qqa boshim–  
Qayga borsam sig‘aman,  
In qurishning o‘rniga,  
Yallo qilib yuraman, –

deya ularga qo‘shilmaydi, ular qayta-qayta chaqirsalar-da, qaysarlik qilib, “chirq-chirqlab” sang‘iydi. Shoir uning o‘zboshimcha sang‘ishlarini ham kulgili qilib tasvirlar ekan, nojo‘ya xatti-harakatlariga salbiy ma‘no yuklaydi. U na onasining, na jamoadoshlarining gapiga kirmay, “bir zumda shaharni chir aylanib” hali tegirmonga kirib, so‘ramay don cho‘qibdi, hali “biletsiz” tol shoxida turib kino ko‘ribdi, hali tayyor in maza deya pechka karnayiga kirib, is-qurumga belanib, kaltafahmlik bilan beparvo yuraveradi. Uni bu ahvolda ko‘rgan chumchuqlar “bu irkit qush qanday qush” deya undan jirkanib, o‘zlarini uzoqroq tutadi. Shunday bir vaziyatda o‘zi yakkalanib qolganini sezadi-da, ishlayotganlarga qo‘shilish u yoqda tursin, hatto horma deyishni-da xayoliga keltirmabdi. Shunda hayron bo‘lib o‘ziga: – Mendan do‘stlarim bezor, Gunohim nedir buncha?!– deya Musicha oldiga borsa, u chumchuqchani tanimay :

– Ovozindan chumchuqsan ,  
Namuncha botding kirga ?  
Afti-angoring qora,  
Hammaning qochgani rost .  
Yuz-ko‘zing qasnoq-yara ,



Patlaring ham to‘zg‘igan.  
Is bosgan, kir, g‘ijmaloq,  
Ustingga qarab bo‘lmas .  
Hech bir joying emas sog‘,  
Patlaring taramabsan,  
O‘zinga qaramabsan.  
Yaxshisi hozir, bolam,  
Daryoga borib cho‘mil,  
Yuvin, tozalan,

Tozalanib, so‘ngra kel, – deydi. Chumchuqchaga cho‘milishdan o‘zga chora qolmabdi. U cho‘milib kelibdi-da, Musicha xola shundan so‘ng uni tanibdi, boshqa chumchuqlar ham endi undan hurkmay, yaqiniga kelib, shuncha vaqtdan beri qaydaligini so‘rashsa, u hamon o‘sha karnay uyini maqtashdan qolmay, bizning in tayyor, issiq, ko‘kka qarab turibdi, lekin sizlarning inlaringiz hanuzgacha bitmaydi,-deya pisanda qilishda davom etibdi. Ishlayotgan chumchuqlar unga parvo qilmay in qurishni davom ettiraveribdilar. Ularning bu ishi chumchuqchaga ta‘sir etsa-da, boshida qo‘shilmasligini esga olib, “Yalinmayman!”– deya o‘z so‘zida qat‘iyat bilan turaveribdi. Lekin ich-ichidan boshqa chumchuqlar ishiga qoyil qola boshlabdi. Ularning chiroyli uylariga suqlana-suqlana, oxiri yana uchib daydiligiga ketibdi. Nihoyat, jig‘ildonini to‘ldirib, yana o‘sha karnay iniga kirib uxlaganida :

Undan olov – dud chiqib,  
Abgor bo‘pti bu safar.  
Qosh, pari kuyib ketdi,  
Tashqari g‘iz-g‘iz sovuq.  
Chumchuqcha qip yalang‘och,  
Egnida par to‘ni yo‘q.  
Kuygan a‘zo-badani,  
Achishardi jizillab.

Shundagina u o‘z nojo‘ya xatti-harakati haqida o‘ylashga majbur bo‘libdi:

Ko‘pchilikning qadri ko‘p,  
Chumchuqchaga bilindi.  
Yolg‘izlik yomon ekan,  
Boshiga tushib bildi.  
Xatosin tushunibdi.

Dildirab, o‘lay deb turganida Musicha xola yana joniga oro kiribdi. Ota-ona urug‘i bundan xabar topib, Musicha xolaga uni asrab olgani uchun minnatdorchilik bildirib, “gap uqmas o‘jar bola”sini o‘z inlariga olib ketishibdi: Chumchuqcha esa:

– Ayrilmayman sizlardan,

Ta‘zirimni xo‘p edim, – deya tavba qilib, ko‘pchilikdan uzr so‘rabdi. O‘shandan beri u jamoasidan ayrilmay, birga yurib, birga ishlarkan.

“Qo‘ng‘izoy bilan Sichqonboy” Q.Muhammadiy ijodiyotidagi shoh asar bo‘lib, 1940-yilda yozilgan va dastlab “Mushtum” jurnalida “Qo‘ng‘iz bikach

bilan Sichqonvoy” nomi ostida o‘sha yili bosilib chiqqan. Shoir uni yana qayta ishlov berib, takomillashtirib 1955-yilda hozirgi nomi bilan e‘lon qildi. Shundan beri bu asar shoirning 1957-yil bosilgan “Tanlangan asarlar” va 1977-yilda “Tabiat alifbesi” ning uchinchi kitobi bo‘lmish “Taniqli do‘stlar”da qayta-qayta nashr etildi. Binobarin, bu asar o‘zbek bolalar epik poeziyasi taraqqiyotida ayricha salmoqqa ega bo‘lib, H.Olimjon, Mirtemir va S.Jo‘ra kabilar boshlab bergan she‘riy ertaknavislik an‘anasi hosilasi sifatida yuzaga keldi.

Bor ekanda, yo‘q ekan,  
Och ekanda, to‘q ekan.  
Yaqin o‘tgan zamonda,  
Qo‘rg‘ontepa tomonda.  
Qo‘ng‘izoy qiz bor ekan,  
Husnda barno ekan,  
Oy kabi tanho ekan.  
Sodda fe‘lli, quvnoq qiz,  
Ko‘ngli ochiq, o‘ynoq qiz.  
Sochlari sunbul ekan,  
Qo‘shiqqa bulbul ekan.  
Serg‘ayrat mehnatsevar,  
Odobli, epchil, chevar.  
Sevarkan uni hamma,  
Elu yurt, xola, amma.  
Hatto mitti kapalak,  
Qo‘ng‘iz desa pirpirak.

Shu tariqa, Qo‘ng‘izoy va uning tarafdorlari bir tomonda, Sichqonboy va uning tarafdorlari ikkinchi tomonda turib o‘zaro kurashga kirishadilar va kurash lavhalarini ertak sujetini asosini tashkil etadi. Qo‘ng‘izoy o‘z muhabbati uchun har qancha kurashmasin, pul va zo‘ravonlikni kasb qilib olgan Sichqonboyga tegishga majbur bo‘ladi. Sichqonboyning o‘z xotini va bolalari bor, lekin boylik uni quturtirgan, u Qo‘ng‘izoy visoliga yetish uchun hech narsadan qaytmaydi, hech narsani ayamaydi, xotinini qo‘yib yuboradi, Qo‘ng‘izoyga sovchi ustiga sovchi yuborib, uni ham, ota-onasini ham holu joniga qo‘ymaydi. Boshida o‘zini “ombor mudiri, mudirlarning kuziri, tekin puli” oshganidan shoshilib, bosar-tusarini bilolmay “hamyonini xazonday socha boshladi”. Bular bilan ham muddaosiga yetolmasligini payqagach esa kalamushni sovchilikka yuborib, Qo‘ng‘izoy otasiga po‘pisa qilib, qizini bermasa, o‘ldirajagini aytib, nihoyat murodiga yetadi. Shoir Sichqonboy o‘tkazgan to‘y lavhalarini yanada yorqinroq chizadi. To‘yga oid rasm-rusumlar tasvirida Sichqonboyva uning safdoshlari xatti-harakati, dabdabali to‘y manzarasi real aks etadi:

Tekinxo‘rlar kelishib,  
Biri pazanda bo‘pti,  
Biri sozanda bo‘pti,  
Ola qarg‘a karnaychi,  
Qora qarg‘a surnaychi.

Baqalar nog'orachi,  
Go'ng pashsha hofiz, kuychi.  
Beshiktervat o'yinchi,  
Chigirtka chertar g'ijjak.  
Sichqon olifta luchchak.  
Chirildoq shovvoz naychi,  
O'yin tushar ninachi.  
O'rgimchak tor quribdi,  
Qo'ng'izoy oh uribdi.

Bu tasvirda har bir qush, hasharot yoki hayvon o'z qiyofasi, harakati va ovozi bilan jonli gavdalantirilgan. Ayni chog'da ularning barchasi to'y shavqidan sarmast, faqat Qo'ng'izoy diliga kulgi sig'may turibdi. Uning butun vujudini alam va norozilik qoplagan. Shoir bu holatni kelindan rozi- rizolik so'rash udumi orqali yanada bo'rttiradi. Qo'ng'izoyning har qancha zo'rlashmasin, tan mahramlikka rozi bo'lavermaydi, lekin qayta-qayta so'rovlardan keyin uning yangasi Qo'ng'izoy qiz tilidan "ha" deb yuboradi. Nihoyat qizni Sichqonboy uyiga etgan zahoti, yo'lak tomonda:

Qo'shni bo'lak tomondan.  
Yig'lagan ovoz kepti,  
Bekilmagan eshikdan,  
Chiqibdi sichqon bekach.  
Kavak uyda qon bekach,  
Sichqonboyning xotini.  
Bir vaqt sevgan otini.  
Ya'ni jufti yo'ldoshi,  
Qo'ng'izoyning kundoshi.  
Ortida sichqonchalar,  
Tiriklay yetimchalar.  
Tizilishib ketma-ket,

Dadalashib, chiyillab kela boshlaydilar. Sichqonboy qancha g'azablanmasin, Qo'ng'izoy dili ham shu qadar og'riqqa to'lib ketibdi. Bular ham yetmaganday, "Sichqon o'lsin xotinboz" chiqib qoldi. U "Qancha xotinni qo'ydi, ko'plarni ko'zin o'ydi". Ustiga ustak yana "Ichib keladi kunda, ba'zida yarim tunda" janjal, mashmasha ko'targani-ko'targan. "Erkak xotinga podshoh deya" Qo'ng'izoyning yulqib uradi. Xotiniga Chumchuq bilan yuribsan, – deb tuhmat qilishdan ham tap tortmaydi. Holbuki, Qo'ng'izoyning qo'li uy ishlaridan bo'shamasdi: "Kasov edi qo'llari, Supurgi sumbullari". Dard ustiga chipqon deganlaridek, qaynonasi ham chayonday, unga nashtar sanchgani-sanchgan edi. Bunday og'ir vaziyatdan to'ygan Qo'ng'izoy bir kuni qochib onasinikiga keladi. Sichqonboy uning izidan kelib, unga qancha tuhmatlar qilib, yana zo'ravonlik bilan uyga olib keladi. Endi uni avvalligidan battar xo'rlay boshlaydi. Shunda uning eski do'stlari kapalak-u ninachilar joniga oro kirib:

Qo'rqma sichqon do'g'idan,  
So'yloq tishi o'qidan.  
Sen uchun biz parvona,

Emasmiz-ku begona.  
Sichqonlar ko‘zini och!  
Dugona, o‘rmonga qoch! – deya maslahat beradilar.

Qo‘ng‘izoy shu maslahatga amal qilib, oysiz qorong‘u tunda o‘rmonga qarab qochadi. Uni o‘rmondagi dov-daraxtlar-u gullar, sayroqi qushlar kapalak va ninachilar xursand kutib olishadi. Shunda u tinmay ishlaydi va o‘ziga mos mehnatkash asalari bilan topishib oladi. Endi ularning to‘yi eskicha udumlarsiz:

Na bir sovchi na dallol,  
Na qo‘yu, na qalin mol.  
Na nikoh na go‘shanga,  
Na bir yonida yangasiz.

O‘zlari xohlaganlaricha zavqu surur bilan bo‘lib o‘tadi. “To‘yga yurak to‘yboshi” bo‘ladi. Bu oddiy bir to‘y bo‘lib, unga barcha o‘rmonliklar keladi:

Kelishdi juft - juft bo‘lib,  
Ketma-ket to‘p-to‘p bo‘lib.  
Sa‘va, bulbul, to‘rg‘aygacha,  
Qolmadi chittakkacha.  
Bo‘ldi ajoyib bazm,  
O‘yin, askiya, hazil.  
Qushlar sayrar – orkestr,  
Laylak – drijor master.  
Kapalaklar o‘yinchi,  
Raqsga tushar ninachi.  
Ayiqlar masxaraboz,  
Maymunlar o‘ynar dorboz.  
Bolarilar xizmatda,  
Qo‘ng‘izoyim izzatda.

Shoir to‘y manzarasini butun borlig‘i bilan harakatda ko‘rsata olganligi tufayli u zavqovarlik kasb etgan. Shu zavqu quvonch Qo‘ng‘izoyning baxtli turmushi dalolatiga aylangan.

Ertak oxirida Sichqonboy o‘g‘rilikka kirib, mushuk qo‘liga tushgani xabar qilinarkan, qissadan hissa tarzida “Har kim ekkanini o‘rar” degan xulosa o‘rtaga tashlanadi.

Shunday qilib, Quddus Muhammadiy o‘zbek bolalar she‘riyatining sohibkori darajasiga ko‘tarilib, uni tom ma‘noda yangi mavzular va g‘oyalar, yangi badiiy shakllar va obrazlar, yangi tasviriy vositalar va uslublar bilan boyitdi; kelajak bunyodkori bo‘lgan navqiron naslning orzu-armonlari, o‘yin, o‘qish va yashashdagi zafarlari, iztirob va quvonchlari, orzu va umidlarini, odam va olamga munosabatlarini turfa jilolarda kuylab nafaqat o‘z yurtida, balki uning sarhadlaridan tashqarida ham tanildi. Uning asarlari yigirmadan ziyod tillarga tarjima qilinib, S.Marshak, A.Barto, S.Mixalkov singari bolalar shoirlari e‘tiborini qozondi.

## Shukur Sa'dulla

(1912-1972)



1912-yilning 15-yanvarida Jizzax shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. U dastlabki savodini eski maktabda chiqargach, 1924-yilda Samarqand shahriga kelib, pedagogika bilim yurtida o'qiydi. 1932-yilda shoirning "Hayqiriq" nomli she'rlar to'plami chop etiladi.

Sh.Sa'dulla 1931-yilda O'zbekiston Davlat nashriyotining bolalar va yoshlar adabiyoti bo'limiga muharrirlikka ishga taklif etiladi. 1950-yilda Sh.Sa'dulla I.Muslim bilan hamkorlikda bolalar shoiri S.Marshakning "She'r va ertaklar" asarini o'zbek kitobxonlariga tortiq etishdi.

Daniyalik mashhur ertakchi G.X.Andersen, rus yozuvchisi N.A.Nekrasovning asarlarini, L.Tolstoy va B.Jitkovning hikoyalarini, bolalar shoirlari M.Kvitko, A.Barto, M.Mirshakar, O.Berdiyorov, M.Fayzulina she'rlarini, V.Lebedov-Kumachning yoshlik taronalarini, B.Gorbatovning "Bo'ysunmaganlar" (1953), V.Osayevaning "Vosyok Trubachev va uning o'rtoqlari" (1954) povestlarini, Korney Chukovskiyning "Doktor Voyjonim" (1966) asarini ona tilimizga tarjima qilgan.

Sh.Sa'dulla bolalar uchun turli janrlarda ijod etdi: she'r, poema, hikoya, qissa, opera va bir qancha she'riy ertaklar yozdi. Hatto xalq ijodiyotiga mansub ayrim an'anaviy janrlarni yozma adabiyotga omuxtalashtirdi. Xalq latifalari asosida "Ikki donishmand", "Afandining ko'ylagi", "Afandi tegirmonchi va ko'sa" kabi she'riy latifalardan topishmoq janri talablarini saqlagan holda topishmoq - she'r namunalari yaratdi.

Bolaligida ertakka o'ch bo'lgan shoir ulg'ayganida ham shu odatini tark etmay, "Ayyor chumchuq", "No'xat polvon", "Laqma it" kabi she'riy ertaklarini "Yoriltosh", "Afsona yaratgan qiz" singari ertak- pesalarini, "Kachal Polvon yoki yog'och qo'g'irchoqning sarguzashtlari" ertak- qissasini yaratdi.

Uning maktabgacha tarbiya va kichik maktab yoshidagi bolajonlarga bag'ishlab yozgan ko'plab she'rlari hamon kichkintoylar tilidan tushmay keladi. Ayniqsa, "Shohista", "Yomg'ir-yog'aloq", "Yaxshi ism", "Dildor va koptok" she'rlari baayni jajji bolakaylar fe'l atvorini to'la aks ettirgani bilan ajralib turadi. Shuningdek, Sh.Sa'dullaning yil fasllari haqidagi she'rlari maktab darsliklaridan o'rin olganligi e'tiborli. Muallifning "Yoriltosh", "Kachal polvon yoxud yog'och qo'g'irchoqning sarguzashtlari" ertak dramalari, "No'xatpolvon", "Laqma it", "Ayyor chumchuq" adabiy ertaklarining sujeti va badiiy-kompozitsion xususiyatlari diqqatga sazovor. Shukur Sa'dullaning o'zbek bolalar nasri taraqqiyotiga qo'shgan hissasi "Komandirning boshidan kechirganlari", "Aziz qishlog'im" qissalari orqali xarakterlidir.

Shukur Sa'dulla maktabgacha yoshdagilar uchun samarali ijod etdi. Uning asarlari xilma-xil janrlarda yozilgan bo'lib, asosan, quvnoq voqeaband she'rlar, Vatan tabiatining ko'rkam lavhalarini ifodalovchi peyajlar, portret-she'rlar, she'riy imzolar, o'yin qo'shiqlari, masal-ertaklar, masallar, topishmoq va

boshqalardan iborat. Ularda kichkintoy zamondoshimiz faoliyatining turli qirralari tevarak-atrofga, undagi narsa-hodisalarga munosabatlari, orzu-o‘ylari, intilishlari, xarakterlari bolalarcha mushohadakorlik negizida poetik tadqiq qilinadi. Qizig‘i shundaki, kichkintoylarimiz hayotida kunda uchraydigan har qanday hodisadan insonni ma‘nan boyitadigan ma‘no topishga intiladi. Bunday intilishning samarasini “Kim yaxshi?”, “Dildor va koptok”, “Lola va men”, “Oymoma”, “Kichkina bola”, “Qiz va gul”, “Bola va to‘rg‘ay”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Turnalar”, “Hasan-Husan”, “Dam olish kuni”, “Uloqcham” kabi o‘nlab she‘rlari misolida ko‘rish mumkin.

Adabiyotshunos A.Milient e‘tirof etganidek, murg‘ak bola tasavvurida otanasi va yaqin qarindoshlarining o‘z hayotida qanday rol o‘ynayotganliklarini anglash - muqaddas Vatan tushunchasi mohiyatini idrok etishning boshlanishidir. Shukur Sa‘dulla masalani shu taxlitda tuyadi. Buni o‘zining kichkintoylarning gapirish uslubiga monand qilib yozgan savol-javobdan iborat "Kim yaxshi?" she‘rida jozibali aks ettiradi:

Ayasi der: – Xo‘p, aytib ber,  
Uyimizda kim yaxshi?  
– Ayam yaxshi, dadam yaxshi,  
Buvimlar ham yaxshi! – der.  
– Akanglar-chi?  
– Akam yaxshi!  
– Opanglar-chi?  
– Yaxshilar!  
– O‘rgilay, – deb hammalari  
Jajji qizni o‘pishar!

Ko‘rinayotirki, shoir ko‘zlagan maqsad ulkan: oilada hammaning hurmatini qozonish uchun barchani bir ko‘zda ko‘rish lozim. Shoir shu axloqiy aqidani bolalar tabiati mantiqiga mos keladigan pafos darajasiga ko‘taradi va muddaosiga erishadi. “Dildor va koptok” she‘rida Shukur Sa‘dulla bolalarni kichkinaligidayoq mustaqillikka, o‘z-o‘ziga xizmat etish ko‘nikmalarini vujudga keltirishga, shu jarayonda bolalar fe‘l-atvoridagi nuqsonlarni tuzatish maqsadida pedagogik nuqtayi nazardan to‘g‘ri muomala qila bilish zaruriyatini uqtiradi. Bunda shoir shunchaki nasihatgo‘ylik qilib o‘tirmaydi, balki hayotiy voqealarni poetik obrazlarda gavdalantirib, o‘quvchiga estetik ta‘sir ko‘rsatadi. Shoirning ustaligi shundaki, u Dildor fe‘l-atvoridagi tantiqlikni bolalar nutqiga xos takrorlarni qo‘llash va bolalarning mudom tinimsiz harakatda bo‘lish mantig‘iga muvofiq, asosan, harakatni ifodalaydigan fe‘l turkumidagi so‘zlarga shoirona harorat singdirib ishlatish orqali asoslaydi. Natijada, bolalar nutqidagi xos tinim (pauza), fe‘l-atvoriga xos tantiqlik she‘r intonatsiyasidayoq anglashib turadi. Shoir shu ekspressiv vosita tufayli kichkintoylarga mehnatga muhabbat hissini singdirishga erishgan.

“Ozoda” portret-she‘rida tozalik mehnat natijasi ekanligi “olti yashar jajjigina Ozoda” timsolida o‘rnak qilib ko‘rsatiladi. “Dastyor qiz” she‘rida mehnat hurmatga erishtiradi, degan g‘oya bolalar hayotidagi oddiy voqea bayoni orqali

olg'a suriladi. "Lola va mushuk" she'rida ozodalikka munosabat bolalarcha mushohadakorlik zamirida talqin qilinadi. Shoir bunday harakatlar o'xshashligi mantiqiga tayanib, ichki kompozitsion yaxlitlikni vujudga keltirgan. Shoir kichkintoylar ruhiyatining murakkabliklarini chuqurroq bilishga intiladi. Shu sababli ular fe'l-atvoridagi har qanday o'zgarishlarga bir xil munosabatda bo'lavermaydi: insoniy fazilatlar va kechinmalarni chuqur samimiylilik bilan ifodalasa, "bolalarcha soddalik" deb ataluvchi xislatlardan yengilgina kulib, jilmayib qo'yadi. Bunday paytda beg'araz yumor shoir she'rlarining haroratiga aylanadi. "Dam olish kuni", "Oymomo" she'rlari shu xildagi yumoristik ruhi bilan ajralib turadi.

Kichkintoylarning Vatanimiz go'zal tabiatidan zavqlanib kechgan rang-barang tuyg'ularini ifodalashda peyzaj Sh.Sa'dullaning asosiy tasviriy vositasiga aylanganidir. Bu jihatdan shoirning "To'rt fasl" turkumi, "Bahor keldi", "Yomg'ir yog'aloq", "Turnalar", "Qiz va gul", "Yoqut ko'zli isirg'a", "Birinchi qor", "Men archa kesgani o'rmonga bordim", "Archa qo'shig'i" singari she'rlari e'tiborlidir.

"Qiz va gul"– o'zbek bolalar poeziyasida maktabgacha yoshdagilar uchun yaratilgan peyzaj lirikasining go'zal namunasi. Bu asar Hamid Olimjonning mashhur "Lola" she'riga hamohang qilib yozilgan. Unda tabiat go'zalligi fonida inson go'zalligi shoirona nafosat bilan yoqinlantirilgan:

Daryo oqar jo'sh urib,  
Sohil to'la gul-lola.  
Ko'kka boqib, g'oz turib,  
Kuylar jajji qiz bola.  
Sochlariga gul taqib,  
Oro berar o'ziga.  
Daryo emas, gul oqib,  
Ko'rinar qiz ko'ziga.  
Daryo labi lolazor,  
Kuylar jajji Gulbahor!

Sirtidan mo'jazgina ko'rinadigan bu she'rda faqat "jo'shqin daryo" va "ko'kka boqib", "g'oz turib" kuylayotgan "jajji qiz bola" obrazlari borday tuyuladi. Aslida esa, shoir she'r yakunlanmasida qizcha nomini ma'lum qilib, asarni yangi bir ramziy obraz – bahor obrazi hisobiga boyitadi. Gulbahor gapiruvchi ekspressiv nom. Uning timsolida "sochlariga gul taqqan" baxtiyor qizaloqlarimiz hamda tabiatga fayz kiritib kelayotgan ko'rkam fasl obrazlarini yorqin tasavvur qilish mumkin.

She'riy imzo – o'zbek bolalar poeziyasi uchun mutlaqo yangi janr. U asosan, dialog yoki monolog shaklida bo'ladi. Ba'zan topishmoqdek jumboqdan iborat bo'lsa, ba'zan epigramma xususiyatiga ega. Bunday paytda piching, istehzo uning asosiy fazilatiga aylanadi. Binobarin, she'riy imzo kuchli emotsional ta'sirchanlikka ega miniatyur badiiy asar hisoblanadi. She'riy imzoda hayvonlar, qushlar, hasharotlar hamda boshqa narsa-hodisalarning she'riy tavsifi ixchamgina: ba'zan oddiygina, ba'zan yumoristik tarzda ifodalanadi. Uning har bir satri yoki bandining mazmuni asosida aniq narsa yoki voqeani aks ettiruvchi jozibali rasm

chizish mumkin. Demak, she'riy imzo shoir va rassomning hamkorlikdagi fantaziyasi mahsuli hisoblanadi.

Uning hayvonlar, qushlar, hasharotlar va bolalar o'yinchoqlari to'g'risidagi qator asarlari ma'rifiy-badiiy qimmatga ega she'riy imzolar sirasini tashkil etadi. "Chittak"– qushcha rasmi ostiga "chekilgan" ana shunday she'riy imzolardan. Shoir unda topishmoqdagidek yashiringan narsa-jumboqning belgilarini sanab ko'rsatib, shu usul bilan kichkintoylarga chittakning tashqi ko'rinishiga oid oddiygina ma'lumotlar beradi. Ular tasavvurini aniq tushunchalar hisobiga to'ldiradi va boyitadi:

Men qushchaman kichkina,  
Tillarim chuchukkina.  
Ola-chipor qanotim,  
Bilsangiz – chittak otim.

Chittak o'zini shunday tanitadi. Uning so'zlash uslubi xuddi bolalarnikiday. Antropomorfizmdan foydalanish she'riy imzoning ma'rifiy ahamiyatini ta'minlashdan tashqari, tez yodlanishini ham qulaylashtiradi. Demakki, kichkintoylar lug'at boyligini "ola-chipor", "chuchukkina", "chittak" kabi yangi tushunchalar hisobiga boyitish imkonini tug'dirgan.

Shoir poetik ijodida hajviy she'rlar barmoq bilan sanarli: "Olim uyaldi", "Bizning oyna", "Ivirsiq", "Anqov", "Shalabbo", "Injiq qizcha", "Jumboq" kabilar shu silsilani tashkil etadi. Shukur Sa'dulla 60-yillarga kelib o'z qalamini nasrda ham sinay boshlaydi, bunda ham u maktabgacha yoshdagi kichkintoylarning o'ylari, orzulari, ishlari, taqdirlari, xarakterlarini badiiy tahlil qilishni maqsad qilib olgandi. Binobarin, uning bunday hikoyalari ma'lum darajada kichkintoylar olamining o'ziga xos badiiy tadqiqotlari desa bo'ladi. Bu hikoyalarning aksariyati ichki qarama-qarshilik negizidagi kompozitsion asosda qurilgan: "Tush", "Ismi qo'yilmagan xat", "Yutqiziq", "Yaxshilik" hikoyalari ana shunday fazilatga ega. Hikoyalarning aksariyatida ifodalanayotgan fikr-muddao muallif tanlagan sarlavhalardayoq ravshan anglashilib turadi: "Anqov", "Yalqov", "Qo'rqoq", "Qaysar", "Ochko'z", "Chaqimchi", "O'jar", "Dilozor", "Izza", "Gap uqmas" va hokazo. Bu hajviy hikoyachalarda adibning o'zi tasvirlanayotgan voqealarga aralashmaydi.

"Komandirning boshidan kechirganlari" (1961) qissasi yozuvchining sarguzasht janridagi dastlabki mashqidir. Bu qissa o'zbek bolalar prozasida maktabgacha yoshdagi kichkintoylar hayotini, orzu va tashvishlarini realistik va romantik bo'yoqlarda ifodalagan birinchi yirik asar hisoblanadi. "Komandirning boshidan kechirganlari" asarida serquyosh respublikamizning azim poytaxti, Sharqning mash'ali – go'zal Toshkent shahri besh yashar Hayotning tasodifiy sayohatlari fonida epik tarzda tasvirlanadi. Unda Hayot markaziy figura, u hali maktab ko'rmagan, kuzatuvchanlik qobiliyati past maktabgacha yoshdagi kichkintoylarning vakili sifatida harakat qiladi.

Asarda Hayotning harakati tasodiflar negizida sodir bo'lsa-da, yozuvchi talqinida ko'zlagan ma'lum estetik-tarbiyaviy maqsadni aks ettiradi. Chindan ham qahramon sayohatlari kechgan Toshkentning e'tiborli joylarining tasviri



kichkintoyni qanchalik zavqlantira olsa, uning qalbida Vatanga muhabbat tuyg‘usini ham shu qadar to‘lqinlantira oladi va mazkur tuyg‘uning mustahkamlanishiga, e‘tiqodga aylanishiga madadkorlik qiladi. Yozuvchi asar qahramoni besh yashar Hayotni ana shunday harakatlar qildirish evaziga voqelikni - turmush haqiqatini kichkintoylar saviyasiga munosib aks ettira olgan.

Adibning zamonaviy mavzuda yaratgan ikkinchi asari “Aziz qishlog‘im” qissasidir. Bu asar 1967- yilda yozilgan bo‘lib, 1969-yilda nashr etildi. Sh.Sa‘dulla asarda xalqimiz hayotining yangi bir manzarasini – qishloqdagi qaynoq turmushni shaharlik bola Habibullaning qishloqqa qilgan sayohati jarayonida ko‘rsatadi. “Aziz qishlog‘im”da mavjud obrazlarning barchasida ijobiy insoniy fazilatlar mujassam, shunga qaramay, yozuvchi qissa konfliktini inson va tabiiy ofat o‘rtasidagi kurash negizida qurib, “Inson degan so‘zning mag‘rur jaranglashi”ni (M.Gorkiy) real ifodalay olgan.

1966-yilda Toshkent zilzilasi faqat toshkentliklarnigina emas, balki butun mamlakatni, hatto million-million bolalarni ham bezovta qilgani tarixiy haqiqatdir. Sh.Sa‘dulla qissada xuddi shu mavzuga qo‘l urib, shu bahonada qishloq ahlining zilzila jafokashlariga xayrixohlik tuyg‘ularini ifodalashga intiladi. Bu hol, ayniqsa, qishloqliklarning toshkentlik bola Habibullaga munosabatlari fonida yorqin gavalantirilgan.

Shukur Sa‘dulla “Kachal Polvon yoxud yog‘och qo‘g‘irchoqning sarguzashti” ertak-qissani yaratishda o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining chodir xayol va chodir jamol tipidagi ikki turida o‘ynaladigan Kachal Polvon sarguzashtlariga doir xalq komediyalariga asoslanadi. Xalq komediyalari mazmunini ijodiy qayta ishlab, g‘oyaviy-badiiy niyatiga muvofiq qisqartirdi, to‘ldirdi va yangi detallar, epizodlar ijod qilib boyitdi. Xalq komediyalarining qo‘g‘irchoq qahramonlarini esa asarning qahramonlariga–badiiy obrazlariga aylantirdi. Shu asosda ertak-qissada fantaziya va realizm o‘zaro uyg‘unlashib, asarning yaxlit syujetini vujudga keltiradi. Bunda Sh.Sa‘dullaning italiyalik adib K.Kollodining “Pinokkioning sarguzashtlari” hamda rus adibi A.Tolstoyning “Oltin kalit yoki Buratinoning boshdan kechirganlari” (1936) asarlaridan ijodiy ta’sirlanganligi ham muhim rol o‘ynagan. Asardagi obrazlarning qariyb hammasi qo‘g‘irchoq komediyalarining qahramonlaridan iborat. Adib tayyor obrazlarni o‘z holicha ishlatavermaydi. Ularga o‘z g‘oyaviy-estetik konsepsiyasiga muvofiq ijodiy yondashadi. Fantastik ertak-qissada Sh.Sa‘dulla tomonidan ijod qilingan salbiy va ijobiy xarakterdagi to‘qima obrazlar ham yo‘q emas. Adib har bir xarakterning o‘z qiyofasiga, xarakter belgilariga ega bo‘lishini ta’minlash maqsadida turli badiiy vositalarga murojaat qiladi. Ertak-qissada ellikka yaqin obraz mavjud. Mazkur obrazlarni g‘oyaviy-badiiy estetik xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalariga ko‘ra uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

**1. Xalq tiplari.** Bu guruhga Kachal Polvon, Shomamat ota, Orif jarchi, Boybuva ko‘sa, Beknazar karnaychi, Ernazar maymunchi, Jo‘ra qiziq, Mullajon, Bichaxon, To‘tixon, yetim qiz Mohira, kayvoni, askiyachilar, Qo‘zi cho‘tir, Ro‘zi gov, Dehqon ota, Jalol polvon, rohatijonfurush, egizak aka-ukalar Alijon va Valijon, mehtarbozlar boshlig‘i Mirsalim, Qurbonali otalar mansubdirlar. Bular

orasida markaziy o'rinda Kachal Polvon obrazi turadi. Kachal Polvon individual belgilarga ega umumlashma tip. U sho'x, quvnoq, xushchaqchaq, sodda va dilkash. Vaziyatni mudom to'g'ri baholay oladi. Bu xususiyatlar uning do'stlari bilan olib borgan siyosiy kurashida qozongan g'alabasini mantiqiy asoslashda o'zini ko'rsatgan.

To'g'ri, Kachal Polvon inqilobchi obrazi emas, shunga qaramay Kachal Polvon Abdurahmonbek saltanatiga qarshi eldoshlari-faqir mahallaliklarning ozodligi, haq-huquqlari uchun astoydil kurashgan xalq qahramoni timsoliday kichkintoylar qalbiga yo'l topib, ularga xalqparvarlikdan saboq beradi. Ertak-qissada Kachal Polvon yakka harakat qilmaydi. Hamma faqir mahallaliklar bilan kengashib, ular bilan belgilangan maqsad sari olg'a intiladi. Natijada, doimo g'alaba qozonadi. Yozuvchi shu taxlitda jamoatchilik qudratini va yengilmasligini hayot haqiqatiga muvofiq talqin qiladi. Xalq tiplariga mansub boshqa barcha ijobiy obrazlar epizodik xarakterdadir. Adib bu personajlarning ma'lum g'oyaviy-badiiy qimmatiga va har birining o'ziga xos individual belgilariga ega bo'lishini esda tutishga intiladi.

**2. Satirik obrazlar.** Bu guruhga hokim Abdurahmonbek, Iso avliyo, Nosir bo'ri, Qora Mirshab, To'racha-chinoq, maktabdor domla, xalfa, Eshonqul, Sarsinboy chavandozlar mansub. Bu salbiy personajlar ijobiy personajlarga nisbatan birmuncha mukammalroq ishlangan. Bulardan tashqari, satirik obrazlar qatoriga savdogar Abdurahim, Mirzasalim oqsoqol, jarchi Mullagarang, ayg'oqchi talabalar – Umar echki, Salim tajang, Ashirbek kabi nomda boru aslida qiyofasini ko'rsatmaydigan personajlar ham bor.

Abdurahmonbek– bosh salbiy personaj. Aslida “Sarkardalar” deb ataluvchi chodirxayol qo'g'irchoq teatrida o'ynaluvchi xalq komediyasida Farg'ona viloyatining zolim hokimi qiyofasida ko'rinadigan bu personaj Sh.Sa'dulla talqinida afsonaviy qo'g'irchoqlar mamlakati Shirinsoyning sohib saltanati. U - feodal ierarxiyasining cho'qqisida turgan hamda adolatsiz tizimni butunicha o'zida tajassum etgan zolim va telba hukmdorning timsoli. Unda feodal hukmdorga xos barcha xususiyatlar mavjud. Yozuvchi Abdurahmonbek personajini xarakterlashda rang-barang bo'yoqlarga murojaat etadi. Bunda fosh etuvchi sotsial yumor, ayniqsa, katta rol o'ynagan. Natijada, Abdurahmonbek zolimlikda tengsiz shaxs va feodal davlat arbobining umumlashgan tipi darajasiga ko'tarilgan.

Boshqa salbiy personajlarni ishlashda ham Sh.Sa'dulla Gorkiyning dushmanni hamisha xunuk va nafratangiz etib ko'rsatish to'g'risidagi maslahatlariga amal qilib, ular dunyosini ma'naviy qashshoqlar va badkirdorlar dunyosi tarzida kichkintoylar ko'z o'ngida gavdalantirgan. Shu yo'l bilan kichkintoylarda yomonlik va xunuklikni ezgulik va go'zallikdan tez ajrata bilish malakasini shakllantirishni ko'zlagan.

**3. Afsonaviy maxluqlar, hayvonlar, hasharotlar va qushlar obrazlari** jumlasiga ajdar, kavsar dev, oq chavkar ot, quyonlar, chumolilar, ko'rshapalak, kaptarlar, kakliklar, bedanalar va qirg'ovullarni kiritish mumkin. Bularning barchasi ham asar qahramonlari hayotida, xususan, Kachal Polvon faoliyatida

muhim rol o'ynaydi. Ajdar, kavsar dev kabi afsonaviy maxluqlar hamda ilon yovuzlik timsoli hisoblansalar-da, Kachal Polvonning ijobiy fazilatlarini bo'rttirishda xizmat qiladilar. Kichkina kitobxon oppoq qanotlarini kitob o'rnida Kachal Polvonga taqdim etgan kapalaklarni ham, boylar zo'ravonlik bilan o'zini qilib olgan kambag'allar bug'doyini qaytarishda jonbozlik ko'rsatgan va Kachal Polvonning ozodlikka chiqishiga katta madad bergan zahmatkash chumolilarni ham, Kachal Polvoni jazodan ogohlantirgan ninachini ham, oldingi oyoqlarini ko'tarib, bir-biriga urib qarsak chalgan quyonlarni ham, xushxon-u raqqos bedanalar, kakliklar, qirg'ovullarni ham sira unutmaydi.

Sh.Sa'dulla ertak-qissaning badiiy jihatdan qiziqarli bo'lishi, unda xalq komediyalariga xos milliy ruhning barq urib turishi uchun o'zbek xalq ijodiyoti, hatto bolalar folklori namunalariga keng murojaat qildi, xushchaqchaq askiyalardan, yumorni va o'ychanlikni kuchaytiradigan topishmoqlardan, tez aytishlar, sanamalar, dono maqollari va matallaridan unumli va o'rinli foydalandi.

Bu asarlarda yaxshilik bilan yomonlik, tadbirkorlik va takabburlik, mehr va g'azab, sabr bilan toqatsizlik o'rtalaridagi shafqatsiz kurash ifodalaniib, pirovard-natijada yaxshilik, tadbirkorlik, mehr va sabrning tantanasi ko'rsatiladi. Bolalarga shu tushunchalarning mohiyati singdiriladi. Binobarin, bu asarlar bolalarda yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashda va ularning zavqini, qiziqishlarini oshirishda ahamiyatlidir.

Sh.Sa'dulla folklor materiallaridan ijodiy foydalanib, bir necha dramatik asarlar ham yozdi. Uning "Yoriltosh" musiqali ertak-dramasi (1937) va opera librettosi (1967), "Chol bilan bo'ri" kichik she'riy pyesasi (1967), "Zubayda" (1969) ertak-dramasi o'zbek bolalar dramaturgiyasining yuksalishida hissa qo'shildi.

"Yoriltosh"– Sh.Sa'dullaning dramaturgiyaga dadil qo'l urishi tufayli bitilgan va asosan, o'smirlarga mo'ljallangan musiqali ertak-dramadir. Asar birgina "Yoriltosh" ertagi sujetini stilizatsiya qilish asosidagina emas, balki shu ertakda tasvirlangan o'gaylik motivlariga hamohang bo'lgan boshqa bir qancha xalq ertaklaridan ijodiy ilhomlangish va ta'sirlanish negizida yozilgan. Dramaturg uni uch marta qayta ishlab, o'zbek bolalar dramaturgiyasining yorqin namunasiga aylantira oldi. "Yoriltosh" ertak dramasi katta-yu kichikni birdek qiziqtiradi. U folklordagi shu ertak asosida yozilgan. Shukur Sa'dulla xalq ertagini badiiy jihatdan to'liq qayta ishlagan. Bu avvalo, ertak-drama kompozitsiyasida ko'rinadi. Xalq ertagi sujeti asosan, nasriy qismdan iborat. Faqat Gulnoraning toshga, Oymomaning opasiga yulvorib aytgan so'zlari she'riy ifodalangan. Ertak drama esa ko'proq she'rlar asosida tuzilgan. U to'rt parda, olti ko'rinishli bo'lib, ham nasriy, ham nazmdan tashkil topgan. Xususan, qahramonlarning ichki kechinmalari, orzu havaslari, tuyg'ulari she'r orqali beriladi. Sahna Gulnoraning bog' etagida, boshida gulchambar, ashula aytib yurgan ko'rinishi bilan boshlanadi:

Erkin-erkin yursam men,  
Davri-davron sursam men,  
Baxtli kunlar ko'rsam men,  
Qandi-navvot so'rsam men.

Bo'lsa chamber boshimda,  
Xuddi guldek yoshimda,  
Bulbul bo'lsa qoshimda,  
Shakar bo'lsa oshimda...

Shukur Sa'dulla bu asarni musiqiy ertak- dramaga moslab yozgani sababli, unda shunga o'xshash she'riy matnlar talaygina. O'gay ona va Gulnora o'rtasidagi ziddiyatlar barcha o'gaylik motividagi ertaklarga o'xshab ketadi: albatta, sho'rlik qizga jabr-sitam qilinadi, uying barcha yumushiuning bo'ynida, tag'in ikki gapning birida haqoratli so'zlar bilan xo'rlanadi. Gulnora ham ana shu zulmlar dastidan dod deyishga majoli va andishasi qo'ymay, o'zini kuylashga, yuragini yozishga harakat qiladi. O'gay ona Gulnorani qancha xo'rlagani, yomon ko'rgani sari undan qutulgisi ham yo'q. Gulnora o'gay ona zulmidan qutilmoqchi bo'lganda, o'gay ona unga: "Qutulasan-a, qutulasan. Osmonga chiqsang oyog'ingdan tortaman, yerga kirsang qulog'ingdan. Hali chuchvarani xom sanab yuribsan... Bo'l tezroq, bor, o'tin keltir, to'ngak yor, choy qaynat, hovlini shipir, ayvonn tuzat, ko'rpacha yoz qorayer..."—deydi. O'gay onaning tub maqsadi keyin fosh bo'ladi. Uning So'loqmon arzandasiga Gulnorani olib berish uchun to'y boshlangan edi. Gulnoraning dugonalari, yigit-u qizlar dastlab qo'shiq aytishib, o'yin tushganda ham Gulnora nima gapligini tushunmaydi.

Shukur Sa'dulla asarda qizlar ashulasi, o'yini, Gulnora va qizlarning lapar aytishuvini ijodiy mahorat bilan ifoda etadi. Negaki, xalq ertagi sujetida bunday laparlar yo'q. Bu yor-yor va laparlarning aksariyati to'ylarda, qiz yig'inlarida aytiladigan matnlardir. Masalan,

Hay-hay o'lan, jon o'lan, mis panjara,  
Har jafoga ko'nadi qiz bechora.

Yoki,

Uzun-uzun arg'amchi halinchakka,  
Doka ko'ylak yarashadi kelinchakka.  
Doka ko'ylak etagiga tut qoqaylik,  
Yigitlarning yuragiga o't yoqaylik.

Shuningdek, Gulnora bilan qizlar o'rtasidagi aytishuvlarning ba'zilari shoir ijodi ekanligi yaqqol ko'rinadi. Masalan, qizlar bilan qo'shilib o'ynab-kulayotgan Gulnora oldiga keltirilgan kelin sarpolarini ko'rib, hayratlanadi. O'z shubhalarini o'rtoqlaridan so'raganda, ular bunday javob qiladilar:

Aytsak xafa bo'lmaysan, go'zal Gulnora,  
Bu baloga, azizim, top o'zing chora.  
Bu o'ltirish, bu kulgu, bu o'yin yalla,  
Chinni aytsak boshlangan to'ying, Gulnora.

Yoki, bu so'zlarni endi chinligiga ishonmay iloji qolmagan Gulnora shunday bo'zlaydi:

O'gay akam.. Voy sho'rim, koshkiydi o'lsam,  
G'unchaligimda tezroq, ochilmay so'lsam...  
Yuragim pora-pora bo'ldi... Uf...Evoh...  
Na qilay... qayga bordim...sho'rim qurdi... oh...

Ko‘rinadiki, Shukur Sa‘dulla “Yoriltosh” ertak dramasini anchayin ijodiy qayta ishlagan. Keyingi sahnalarda ham Gulnoraning tog‘- Toshlar orasidan o‘gay onasi va o‘gay akasi ta‘qibidan qochib, kuylagan g‘azallari goh mumtoz adabiyotga xos vaznda, goh folkloriy ohangda ifoda etilgan. Aytaylik, “Zulm ila tushdi boshimga ko‘p jafu, ey do‘stlarim, Ayriliqqa yo‘lni soldim, za‘farondir yuzlarim”,– deb boshlanuvchi g‘azal aruz vaznda yangrasa,

Ey xarsang tosh-xarsang tosh-a,

Xo‘rlanganman, ko‘zda yosh-a.

Yorilgin tosh, yoril tosh-a,

Men senga yo‘ldosh, yo‘ldosh-a, – misralari xalq ohanglariga hamohang. Ertak drama sujeti xalq ertagidan deyarli tafovut qilmasa-da, shunga o‘xshash sahna ko‘rinishlari, Gulnoraning kechinmalari bilan bog‘liq aytim-olqishlar, yoxud, o‘gay ona qarg‘ishlari shoirning ijodiy mahsuli ekanligi ko‘rinib turadi.

Sh.Sa‘dulla ertak drama sujetida ham ayrim o‘ziga xos obraz va detallar kiritadi, albatta. Masalan, Gulnoraga tosh uni berkitishini onasidan yodgor qolgan marjon tosh aytadi va uning yo‘lini yoritib boradi. Ertak dramaning oxirigacha ana shu marjonlar opa-singillarga homiylik qiladi. Oymomaga opasi alla aytishi ham shoir ijodiy to‘qimasi, deyish mumkin.

Gulnora va Oymoma sahroda uxlab qolgach, Ajdarning paydo bo‘lishi, bu ularning o‘gay akasi ekanligi, ular olishib, oxiri ajdar kechirim so‘rab, onasining kirdikorlarini xabar berib ketishi ham ertak dramaga jon bag‘ishlaydiki, bu ham xalq ertagida kuzatilmaydi.

Bundan shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘gay ona va uning o‘g‘li sehr jodu bilan ish qiladi. Ular ertaklardagi demonologik obrazlarga o‘xshab, turli qiyofalarga kira oladilar. O‘gay ona Gulnorani xotin qilib olgan shoh uyiga Parixon qiyofasiga kirib borishida ham bu dalilni ko‘rish mumkin.

Umuman, ertak dramada she‘riy yo‘l bilan yozilgan qismlar ko‘proq. Shunga qaramay, shoir bolalarbop ifoda usuli bilan eng dolzarb mavzularni tilga olgan. Shoirning “Pyesalar” kitobida bu ertak dramaning yozilgan yili 1937-1938-yillar deb ko‘rsatilgan. Shuning o‘ziyoq “Yoriltosh”ning ramziy ma‘no kasb etishi anglashiladi. Biz bilamizki, bu yillar millatimiz tarixida eng qirg‘inbarot, yalpi qatag‘onlik davri sifatida achchiq xotira bo‘lib qolgan. E‘tibor berilsa, ertak dramada asosan ozodlik, erkinlik haqida ko‘p kuylanadi. Yana Gulnoraning tilidan tog‘u Toshlarga nido qilinadi. O‘gay ona va akaning yovuz qiyofalarga kirib opa-singillarga kun bermay, yovuzlik qilishi o‘sha yillar fojealarini esga soladi. Bekoyim bilan Parixonning til biriktirib, Gulnoraga qasd qilishlari zamirida ham yovuzlik yotadi. Bularning barchasi avvalo Shukur Sa‘dullaning xalq og‘zaki ijodining boy merosidan unumli foydalana olgani bo‘lsa, ikkinchidan, shoir iste‘dodi namunasidir. Zotan, u xalq ijodiga xos motivlarni ham ertak dramada o‘rinli ifodalay olgan.

Xullas, Shukur Sa‘dulla ham shoir, ham yozuvchi, ham dramaturg, ham tarjimon, ham folklorshunos sifatida bolalarga qirqdan ortiq kitob hadya etgan.

**MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:** pyesa, ertak drama, kompozitsiya, motiv, ertak-qissa, hajviy hikoya, she'riy imzo, epigramma, portret-she'r, topishmoq she'r, chistonnavislik, doston-ertak, masnaviy, poetik shakl, epik poeziya, personaj, fanatizm, punktuatsiya.

***Bilim, ko'nikma va malakani rivojlantirishga yo'naltiruvchi savollar:***

1. Q.Muhammadiyning ijodiy faoliyati qay jihatlar bilan ajralib turadi?
2. Shoir asarlarining mavzusi va g'oyasi haqida ma'lumot bering.
3. "Tabiat alifbesi"ning tarkibiga kiruvchi she'rlar to'plami qanday nomlanadi?
4. S.Jo'raning pedagog shoirligini asoslang.
5. "Harflar paradi" qanday she'rlar turkumiga kiradi?
6. "Tinish belgilarining majlisi" qaysi fanga doir she'r?
7. Portret she'r nima?
8. She'riy imzo-chi?
9. Sh.Sa'dulla qanday janrlarda ijod qilgan?

***Mavzuga oid test savollari:***

**1. Toshkent qishloq xo'jalik texnikumi, O'rta Osiyo davlat universiteti biologiya fakultetini tamomlab, maktabda botanika o'qituvchisi bo'lib ishlashiga qaramay, ijodkor sifatida mashhur bolalar shoirini aniqlang?**

- a) Sulton Jo'ra;
- b) Zafar Diyor;
- c) G'afur G'ulom;
- d) Quddus Muhammadiy;

**2. Bir maktabda gap mish-mish**

**Turg'unning dumi bormish...** Ushbu misralar muallifi, she'rning nomi va yo'nalishi qaysi javobda to'g'ri?

- a) Zafar Diyor, "Qahramon", hajviy;
- b) Q.Muhammadiy, "Dum", yumoristik ;
- c) Q.Muhammadiy, "Lapashang", satiric;
- d) Q.Muhammadiy, "Nomsiz erkatoylar", yumoristik.

**3.Q.Muhammadiy ijodining cho'qqisi – besh kitobdan iborat to'plamlarining nomi, mundarijasi qaysi javobda to'g'ri qayd etilgan?**

- a) 1-kitob – "Tabiat alifbesi", quyosh, havo, yer va suv haqida;
- b) 2-kitob – "Cho'pon bobo qo'shig'i", jonivorlar haqida; 3-kitob "Qanotli do'stlar", 100 dan oshiq qushlarning hayoti aks etgan;
- c) 4-kitob – "Bog'larda bolalar", o'simliklar va dov-daraxtlar haqida; 5-kitob "Odam-olam qo'shig'i"–insonlar haqida;
- d) A, B, C javoblar.

**4. Q.Muhammadiyning ertak- dostonlari qaysi javobda to'g'ri?**

- a) "Bir o'zboshimcha chumchuq haqida", "Qo'ng'izoy va Sichqonboy", "Sandal va pechka";
- b) "Tabiat alifbesi", "Odam-olam qo'shig'i";
- c) "Momaqaymoq", "Shaftoli doktor";
- d) "Asalari va Ahmadjon", "Mamajon shofyor".

**5. Ushbu misralar muallifi kim?**

*Do'stlar mening yurtimni,*

*O'zbekiston deydilar.*

*Dong'i tutgan dunyoni*

*Bog'u bo'ston deydilar.*

- a) Hamid Olimjon;
- b) Zafar Diyor;
- c) Q.Muhammadiy;

d) Q.Hikmat.

**6. “Kapalak”, “Binafsha”, “Navbahor”, “Qushlar haqida qo‘shiq” singari mashhur she‘rlar muallifi va bu asosan qaysi yoshdagi bolalarga mo‘ljallanganini aniqlang?**

- a) G‘.G‘ulom, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga;
- b) Q.Muhammadiy, bolalar va o‘smirlarga;
- c) Z.Diyor, kichik maktab yoshidagi bolalarga;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

**7. Zafar Diyorning lirik-epik asarlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) “Mashinist”, “Yuksak tog‘, keng o‘tloq va mard o‘rtoq haqida qissa”;
- b) “Qushlar haqida qo‘shiq”, “Madridan kelgan mehmon”;
- c) “Tilsiz o‘rtoq”, “Madridan kelgan mehmon”, “Mamlakat”, “Kazbek”;
- d) A va D javoblar.

**8. Zafar Diyorning qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish mavzusidagi asari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) “Kichkina bog‘bon haqida doston”;
- b) “Yuksak tog‘, keng o‘tloq va mard o‘rtoq haqida qissa”;
- c) “Madridan kelgan mehmon”;
- d) “Mashinist”.

**9...1907- yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. 1925-yilda esa uning birinchi she‘ri “Chuvalachi” e‘lon qilindi. Qaysi javob ma‘lumotga mos?**

- a) Zafar Diyor;
- b) Shukur Sa‘dulla;
- c) Quddus Muhammadiy;
- d) G‘afur G‘ulom.

**10. 1910-yilning 15- yanvarida Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Qag‘altom qishlog‘ida tug‘ilgan bolalar adibi qaysi javobda keltirilgan?**

- a) Omon Muxtor;
- b) Safar Barnoyev;
- c) Sulton Jo‘ra;
- d) Zafar Diyor.

**11. Sulton Jo‘raning ilk she‘rlari qachon va qayerda chop etilgan hamda dastlabki kitoblarning nomi to‘g‘ri qayd etilgan javobni aniqlang?**

- a) 1933- yilda Buxoro yosh shoirlarining “She‘rlar” to‘plamida;
- b) 1939- yilda “Fidokor”, 1941- yilda “Moskva” she‘riy to‘plamlari, 1942- yilda “Iroda” nomli pesasi nashr etilgan;
- c) shoir vafotidan so‘ng “Havo rang gilam”, “Zangori gilam”, “Bruno”, “Parvoz”, “Qaldirg‘och”, “Tanlangan asarlar” kitoblari bosilib chiqqan;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

**12. Sulton Jo‘raning Vatan urushi yillarida yaratgan asarlari nomi keltirilgan javobni aniqlang?**

- a) “To‘pchi Muhammad”, “Pulemyotchi ovozi”, “Chavandoz”, “Uch og‘ayni botirlar”, “Sog‘inchli salom”;
- b) “Nayzamiz”, “Qahramon Qo‘chqor”, “Jahon seni olqishlar”, “Berlin artekasida”, “Salom xat”;
- c) “Qaldirg‘och”, “Zangori gilam”, “Dengiz tagida”, “Tinish belgilarining majlisi”;
- d) A va B javoblar.

**13. Sulton Jo‘raning pedagog –shoir sifatidagi ta‘lim-tarbiyaviy she‘rlari qaysi javobda to‘g‘ri?**

- a) “Kimning xati chiroyli”, “Tinish belgilarining majlisi”, “Harflar paradi”;
- b) “Oy nechta”, “Mamatning kechirmishi”, “Yaxshi”ning maqtovi”;
- c) “Sog‘inchli salom”, “Salom xat”, “Sog‘inish”, “Yolg‘onchi”;

d) to'g'ri javob yo'q.

**14. Uqdingizmi? Yetadimi? Bormi savol?**

**Yoki o'zim so'rayinmi sizdan savol?** *bu misralar nimani tilidan aytilgan, qaysi she'rdan olingan va uning muallifini aniqlang.*

- a) "Gunafsha", binafsha tilidan, Zafar Diyor
- b) "Tinish belgilarining majlisi", so'roq belgisi tilidan, Sulton Jo'ra;
- c) "Harflar paradi", harflar tilidan, Sulton Jo'ra;
- d) "Temirlar o'yini", temirlar tilidan, Q.Muhammadiy.

**15. Gar undalma gapda kelsa qoq o'rtada,**

*Uning ikki yonboshida men jo'rtaga...*

*Gar undalma gap so'ngida kelsa, u choq,*

*Undan oldin qo'ilarman, tushun o'rtoq!* **Bu ta'rif qaysi tinish belgisiga xos. Sh'er nomi**

**va muallifini aniqlang.**

- a) qo'shtirnoqqa, "Kimning xati chiroyli", Sulton Jo'ra;
- b) "A" harfiga, "Harflar paradi", Sulton Jo'ra;
- c) tirega, "Tinish belgilarining majlisi", Sulton Jo'ra;
- d) vergulga, "Tinish belgilarining majlisi", Sulton Jo'ra;

**16. Chiroyli yoz, yozsang xat!**

*Chunki bu ham zo'r san'at...* **ushbu she'r nomi, muallifi va mohiyati qaysi javobda**

**to'g'ri?**

- a) "Kimning xati chiroyli", Sulton Jo'ra,
- b) yozuvning go'zal bo'lishida partada to'g'ri o'tirish qoidasiga qat'iy rioya qilish;
- c) bolaning sog'lom, baquvvat bo'lib kamol topishi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**13. Shukur Sa'dulla asarlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

a) "Shohista", "Dastyor qiz", "Ozoda", "Komandirning boshidan kechirganlari" she'rlar va hikoyalar to'plami;

b) "Yoriltosh", "Bizning bog'chamiz", "Ikki blakuzuk", "Zubayda", "Afsona yaratgan qiz" pesalari;

c) "Ism qo'yilmagan xat", "Sening bayraming", "Mening aziz bolalarim" qissa va ertak-dostonlari

d) noto'g'ri javob yo'q.

**14. Milt etib chiqdi quyosh,**

*Dedi:-Do'stlar, qish odosh.*

*Ko'rsak yo'q qora bulut,*

*Yer yuzi ko'k gilam -o't.* **Bu misralar Sh.Sa'dullaning qaysi she'ridan olingan va nima**

**ta'riflanmoqda?**

- a) "Yomg'ir yog'aloq", yomg'ir;
- b) "Boychechak", gul;
- c) "To'rt fasl", bahor ;
- d) "To'rt fasl", kuz.

**15. Shukur Sa'dullaning xalq ertaklari uslubida yozilgan asarlarini aniqlang?**

a) "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", "Ari bilan qaldirg'och", "Laqma it";

b) "Ivirsiq", "Anqov", "Komandirning boshidan kechirganlari";

c) "Ikki donishmand", "Yalqov ayiqcha", "No'xat polvon", "It o'ziga qanday qilib do'st topdi", "Chol bilan bo'ri";

d) A va C javoblar.

**16. Shukur Sa'dullaning qissalari qaysi javobda keltirilgan?**

a) "Shohista", "Yalqov ayiqcha", "Dastyor qiz";

b) "Aziz qishlog'im", "Komandirning boshidan kechirganlari";

c) "Kachal polvon", "Ism qo'yilmagan xat";



d) B va C javoblar.

***Tavsiya etilgan adabiyotlar:***

1. O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. –T.:Fan, 1989.
2. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild. –T.:O‘qituvchi, 2006.
3. O‘zbek bolalar adabiyoti. Maqolalar. –T.:Yosh gvardiya, 1969.
4. Muhammadiy Q. Tabiat alifbesi. 1-kitob, –T.:Yosh gvardiya, 1974; yana: Bog‘larda bolalar. 2-kitob. –T.,1976.
5. Muhammadiy Q. Cho‘pon bobo qo‘shig‘i. 4-kitob. –T.,1975; yana: Odam-olam qo‘shig‘i. 5-kitob. –T.,1981.
6. Qobilov N. Kichkintoylarning katta shoiri. –T.:Yosh gvardiya, 1973; yana: Elbek. –T. G‘ASN, 1988.
7. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. –T.:Ma‘naviyat, 2005; yana: Uyg‘ongan millat ma‘rifati. – T., Ma‘naviyat, 2011.
8. Qodiriy A. Kichik nasriy asarlar. – T.,1989
9. Shermuhamedov P., Tursunov J., Safarov O., Egamov X. O‘zbek bolalar adabiyoti. Darslik-xrestomatiya. –T.:O‘qituvchi, 1976.
10. Nazarov B. G‘afur G‘ulom olami. –T.: Fan, 2004.
11. Safarov O. Zamonlar tongining charoqlarisiz. –Buxoro, 2003.

## **VIII. BOLALAR ADABIYOTI TARAQQIYOT SARI**

### **Reja:**

1. Ilyos Muslim – bolalar shoiri.
2. Hakim Nazir – o‘zbek bolalar realistik nasrining sohibkori.
3. Mirkarim Osim – tarixiy-biografik qissanavis adib.
4. Po‘lat Mo‘min bolalarning qo‘shiqnavis shoiri.
5. Quadrat Hikmat she‘rlarining badiiy-tasviriy xususiyatlari.
6. Nosir Fozilov ijodida bolalar va o‘smirlar ruhiyati talqini.
7. Farhod Musajon – bolalar adibi va kinodramaturgi.

### **Ilyos Muslim-bolalar shoiri**

(1909-1993)

Bolalar uchun asar yaratishdek sermashaqqat va qutlug‘ ishga umrini bag‘ishlagan Ilyos Muslim 1909-yilda Qirg‘izistonning Bishkek shahrida cho‘yan quyuvchi – hunarmand oilasida dunyoga keladi. I.Muslim 1927-yilning kuzida Toshkentga kelib, erlar bilim yurtiga o‘qishga kiradi. 1930-yilda u bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagach, Qashqadaryoning Yakkabog‘ tumanidagi Shaman-qirg‘iz va Sheroziy qishloqlarida o‘qituvchilik qilib, yoshlarga bilim beradi.

1931-1942-yillarda Ilyos Muslim O‘zbekiston davlat nashriyotida, badiiy adabiyot, yoshlar va bolalar adabiyoti nashriyotlarida turli lavozimlarda ishlaydi. Shoirning birinchi she‘rlar to‘plami 1932-yilda “O‘suv” nomi bilan kitobxonlar hukmiga havola etildi. 1934-yilda “Zaharxandalar” degan ikkinchi to‘plami, “Miqti kelldi” dostoni bosilib chiqadi. 1938-yilda esa “She‘rlar” to‘plami nashrdan chiqadi. 1942-1947-yillarda harbiy xizmatda bo‘lib qaytgan shoir yana adabiy ijodga qizg‘in sho‘ng‘iydi. Shundan keyin uning birin-ketin “Turnalar”(1952), “Bizning maktab”(1954), “Sening sovg‘ang”(1957), “Tilla

qo'ng'iz"(1960), "Ishchan asalarilar"(1962), "Oylar aytishuvi", "Oyxon va rayhon" (1964), "Ko'rik"(1969) kabi qator she'riy to'plamlari bolalar adabiyoti taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shildi.

Shoir she'rlarida o'ziga xos poetik obrazlar, o'xshatishlar ko'zga tashlanadi. Masalan, u bahor elchisi boychechakni ta'riflar ekan, uni yorqin detallari—rang va xususiyatlarini kichkintoylar tafakkuriga mos talqin etadi:

Hali erimasdan qor,  
Dala, qirda gulbahor.  
Chiqdi mitti gul-chechak,  
May elchisi boychechak.  
Askar kabi turar tik,  
Barglari yashil, tetik.  
Uning rangi sariq, oq,  
Boshida kumush qalpoq.

I.Muslim she'rda obrazning kichkintoylar tasavvuriga xos ko'rimlilikini ta'minlagan. Bahor dala-qirdan boshlanishi bejiz emas. Quyosh nuri eng ko'p tushadigan, iliqlik tafti ilgariroq seziladigan joy bepoyon qir-u dalalardir. Boychechak ham dastlab dala-tuzda yashnab ochiladi. U qadimda Navro'z elchisi sifatida bolalar quvonchiga sabab bo'lgan. Undan guldastalar yasashgan bolakaylar hovlima-hovli yurib, qo'shiq kuylab, boychechak ulashib, bahor xabarini berib, suyunchi olishgan. U haqdagi xalq qo'shig'ida qadimgi ajdodlarimizning ilk bahor kunlaridagi "qozon to'ldi" marosimi va bahor kelganiga ishora qilinadi. Shoir xalq orasida qadimdan bolalar tomonidan kuylanib kelinayotgan qo'shiqqa aniqlik kiritib, uning yangi qirralarini tasvirlaydi. May turfa gullarning qiyg'os ochilgan pallasi, boychechak esa uning dastlabki nishonasi ekanligi shu tariqa bolalarga ayon bo'ladi. Bu jajji gulning askarga o'xshatilishi ham tasodif emas. Uning sovuq va erib ulgurmagan qordan qo'rqmay, bosh ko'tarib turishi askarlarga xos jasoratga qiyoslanmoqda. Kumush qalpoq tushunchasi faqat gulning (oq rang) tashbehlanishi bo'lib qolmay, qor ostidan ham bosh ko'tarib turishiga ishoradir.

Shoir she'rlarining aksariyati maktabgacha ta'lim yoshidagi, yoxud kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga mo'ljallab yozilgan she'rlar mazmun-mundarijasidan anglashiladi. Bu yoshdagi bolalarni ko'proq hayvonlar, qushlar va jonivorlar, gullar, zilol suvlar-u yoz ne'matlari, yoki, qorbobo va qish, yam-yashil archa juda-juda qiziqtiradi. Ilyos Muslim bolalarga olam-olam shodlik keltiruvchi ana shunday mavzularga tez-tez murojaat qiladi. Shoirning "Laylak keldi", "Turnalar", "Quyong", "Toychog'im", "Laylak", "Gul teramiz", "Archa qo'shig'i", "Maktabimiz" singari she'rlari shu ma'noda ardoqli.

I.Muslimning mehnat mavzuida yozilgan she'rlari o'quvchilarda faqat mehnatga ko'nikma hosil qilish, mehnatning hayotiy ehtiyoj ekanini uqtirib qolmasdan, balki ular da mehnatdan zavqlanish tuyg'ularini ham shakllantirib boradi. Shu jihatdan shoirning "Sening sovg'ang", "Oyxon va rayhon" she'rlari ahamiyatli. Masalan, dastlabki she'rda jajji qo'lchalari bilan kashta tikib onasiga sovg'a qilishga chog'lanayotgan qizaloq haqida so'z borsa, ikkinchi she'rda

jambil rayon ekib, jo'yaklariga suv qo'yib ko'kartirgan Oyxon ta'riflanadi. She'rlarda shoir o'zi xulosalaganday, halol mehnat rohatini totish zavqi yorqin aks etgan. "Odobli qizcha"da esa qiz bolalarga xos tartiblilik, saranjom-sarishtalikka da'vat etiladi:

Ra'no kichkina hali,  
Ishiga hamma hayron.  
Qo'lda jajji supurgi,  
Chinnidek hovli, ayvon  
Uyni tartibli tutar,  
Chang qo'nmas divanga hech.  
Buni ko'rib qo'shnilar  
Maqtashadi erta-kech.

Albatta, bunday she'rlarning mazmuni ancha sodda, badiiylikdan ko'ra oddiy so'zlar bayoni tarzida ifoda etilgan bo'lsa-da, yarim asr ilgarigi avlod kichkintoylarining zehn idrokiga muvofiqligi ayon haqiqat. Qolaversa, bugungi kichkintoylar ibrat olsa arziydigan xalq qadriyatlar mavjud unda.

Ilyos Muslim qator yumoristik she'rlar ham yozgan. "Eshmatvoyning qiligi", "Befahm Eson" she'rlarida bolalarda uchrab turadigan ayrim qusurlar hajv qilinadi. Shuningdek, uning "Oylar aytishuvi" she'rida taqvimdagi 12 ta oyning o'ziga xos muhim xususiyatlari, navbat bilan ketma-ket almashib kelishi, el-yurtning obod etishi kuylanadi. Zero, Ilyos Muslim boy ijodiy tajribaga hamda xalq e'tirofiga sazovor shoirlardan biridir.

### Hakim Nazir – o'zbek bolalar realistik nasrining sohibkori (1915-2008)



Bolalar dunyosi keng, o'ziga xos, ajib dunyo. Oz quvonch-tashvishlari, orzu-havaslari, sarguzasht-hangomalari, o'yin-kulgilari-yu, o'z sir-u jumboqlariga to'la. Bu boy dunyoga kirib qolgan odam undan chiqib ketgisi kelmaydi. Hakim Nazir o'zbek bolalar nasrining otaxon ijodkorlaridan, kichkintoylarning sevimli adiblaridan biri bo'lib, ana o'sha ajib dunyo bilan umrining oxirigacha qalin aloqada bo'ldi. Bolalar olami uni ohanraboday o'ziga

tortib, har tomonlama qamrab olgan. Uning kechmish-kechirmishlari, ishlari, maqsad-niyatlari bilan kichkintoylar olamiga chambarchas bog'lanib ketishi alohida e'tirofqa sazovor. U bolalar uchun o'ndan ziyod qissa, roman, pyesa, son-sanoqsiz hikoyalar yaratdi. "Lochin qanotlar" romanini, "So'nmas chaqmoqlar", "Yonar daryo", "Kenjatoy" qissalari, o'nlab hikoyalari ko'pgina xorijiy tillarga tarjima etilib, chet ellarda tanildi. Binobarin, adib ijodining serqirra talqiniga e'tibor mustaqillik yillarida yanada ortgani bejiz emas.

O'zbek bolalar nasrining zahmatkash adiblaridan biri Hakim Nazir 1915-yilda Toshkentning Arpapoya mahallasida mahsido'z-kosib oilasida dunyoga keldi. Hakimjon og'ir mehnat hisobiga kun kechiradigan jafokash oilada katta

bo'lgani uchun yoshlikdan mehnatni hurmat qilish ruhida tarbiyalangan. Ehtimol uning ko'nglida bolalik yillaridayoq ota kasbiga yashirin mayl paydo bo'lgandir, u maktabda boshlang'ich ma'lumot olgandan so'ng, 1931-yilda oyoq kiyim fabrikasiga ishga kiradi. Dastlab shogird, keyinroq master bo'lib ishlaydi. Fabrikada o'z hunarining ustasi bo'lish bilan qanoatlanib qolmay, ayni vaqtda kechki ishchilar universitetida o'qib, umumiy malakasini oshirishni davom ettiradi. Hakimjon o'qib va ishlab yurgan damlarida adabiyotga juda qiziqib qoladi. Gazeta va jurnallarda bosilgan badiiy asarlar, rus va o'zbek yozuvchilarining kitoblari uning doimiy hamrohiga aylanadilar. O'qilgan qissalar, hikoyalar esa Hakimjonda, o'sha yillari uning o'zi ham izohlay olmagan ajib kayfiyatlarni hosil qiladi. Buning ilk mevalari sifatida o'z atrofida ro'y berayotgan yangiliklar, voqealar haqidagi ocherklar, lavhalar maydonga keladi. Bunga bir jihatdan oila muhiti ham katta ta'sir etdi. Uning ota-onasi o'z davrining o'qimishli kishilaridan bo'lib, ularning uyida tez-tez kitobxonlik bo'lib turardi. Qo'ni-qo'shnilar, uzoq-yaqindagi tanish-bilishlar ularnikida yig'ilishib, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab g'azallaridan tortib, xalq doston va ertaklari, "Qissasul anbiyo", "Bobo Ravshan", "Yusuf-Zulayho"largacha o'qishar edi. Hakimjon ularni maroq bilan tinglar, ayrim parchalarini yodlab olar, keyin o'rtoqlariga aytib berardi. Eshitgan narsalarining mag'zini chaqishga intilar, so'rab-surishtirar shu tariqa, uning qalbidagi adabiyotga havas tuyg'usi ortib borar edi. Hakimjon Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ini ham birinchi marta mana shu kitobxonlar davrasida ommaviy o'qishda tinglagan. Nihoyat, yosh Hakimjonning adabiyot bo'stoniga oshinoligi ona suti, mehri, maftunkor ertaklari bilan tarbiya topdi, deyilsa to'g'riroq bo'ladi. Adabiy ijodga tunganmas ixlos va muhabbat uyg'otgan ana shu omillar keyinchalik yorqin bo'y ko'rsatdi.

O'zbekiston vaqtli matbuoti adabiyotimizning yirik arboblarni bag'riga olib tarbiyalagan, qalamiga kuch va ijodiga sayqal bergan dargohdir. Shuning uchun Hakim Nazir o'z yoshlik g'ayrati, bilim va iste'dodini yozuvchilikka bag'ishlashga qaror qilgach, bu ezgu niyatga olib boradigan yo'l matbuot orqali o'tajagini anglaydi. 1933-1941- yillar mobaynida "Lenin uchquni" (hozirgi "Tong yulduzi"), "Yosh leninchi" ("Turkiston") gazetalari redaksiyalarida xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalar gazetasida ishlagan yillarida yetuk shoir Zafar Diyor bilan ijodiy hamkorlikda bo'lish natijasida bolalarga iliq muhabbat bilan qarashga, ularning xarakteri va psixologiyasini kuzatishga o'rganadi. Bolalarning maktabdagi hamda oiladagi hayotini tasvirlovchi kichik-kichik badiiy asarlari jamoatchilikning e'tiborini o'ziga torta boshlaydi. Qo'li yozuvchilikka ancha kelishib qolgan Hakim Nazir o'rta ma'lumot bilan ko'zlagan maqsadga erishish qiyin ekanini tushunadi. 1936-yilda shu tilak bilan V.G.Belinskiy nomidagi Toshkent kechki pedagogika institutining til va dabiyot fakultetiga o'qishga kiradi. Institutni 1941-yili tamomlab, birmuncha vaqt o'qituvchilik qiladi.

Maktab Hakim Nazir uchun ayni muddao bo'lgan muhit edi. Bu yerda bevosita bolalar orasida ishlash yozuvchiga boy material beradi, voqelikka yanada yaqinlashtiradi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, O'zbekiston radio eshittirishlarida ishlaydi. Xalqimiz ikkinchi jahon urushlari frontlarida qahramonona jang

qilayotgan kunlarda Hakim Nazir xalqni, yosh avlodni ona-Vatanga cheksiz muhabbat, yovuz dushmanga o'tkir nafrat ruhida tarbiyalovchi ocherklar, hikoyalar, publitsistik maqolalar yozib, radiodan eshittiradi. Radio komitetda o'n bir yil ishlab, bolalar va yoshlar uchun maxsus qiziqarli adabiy-badiiy eshittirish programmaları tuzishning tashabbuskorlaridan bo'ladi. Elliginchi yillar boshida respublika yozuvchilar uyushmasida xizmat qiladi. U yerdagi qizg'in ijodiy muhit, o'zbek adabiyotining Gafur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Shayxzoda kabi atoqli namoyandalari bilan tanishish Hakim Nazirning istiqboli uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Yozuvchi adiblarning tez-tez o'tkazilib turadigan yig'ilishlari, nasr bo'limining o'sha yillardagi rahbari, zabardast adib Abdulla Qahhorning malakali konsultatsiyalari yosh hikoyanavis uchun mahorat maktabi rolini bajaradi. Yozuvchi sifatida shakllanishida Abdulla Qahhorning ta'siri kuchli bo'lganini, novellachilik sirlarini shu san'atkordan uqib olganini keyinchalik Hakim Nazirning o'zi matbuotda shunday bayon qilgan edi.

“...Mening o'zimda ham hikoyachilikka havas uyg'otgan yozuvchilardan biri Abdulla Qahhor bo'ldi. Biz birinchi hikoyalarmiz bilan Abdulla akaga duch kelganimizdayoq uning g'oyat qattiq qo'lli, talabchan ustoz ekanligini bildik. Bundan o'n yilcha burun Abdulla aka hikoyalarmizdan birini o'qib chiqib: “Buni go'ngdan tozalansa, durust hikoya bo'ladi” degani yodimdan chiqmaydi, haqiqatda o'sha hikoyamda agrotexnikaga oid gaplar ko'payib ketib, odam obrazi, uning psixologiyasi yaxshi ochilmay qolgan edi. Axir badiiy adabiyotning asosiy materialini inson-da! Odamlarning ichki va tashqi qiyofasini yaqqol ochib berish uchun ularning turli taqdirini chuqur o'rganib, aniq ko'z oldinga keltirib yozgandagina yaxshi asar maydonga kelishini Abdulla aka tajribasida ko'p uchratdik ...”<sup>38</sup>. Garchi Hakim Nazir hikoyalari Respublikamizda chiqadigan gazeta va jurnallarda urushdan oldingi yillardanoq ko'rina boshlagan esa-da, uning to'ng'ich kitobi “Qishloqdagi jiyanlarim” 1948- yilda nashr etildi. “Boshqoq”, “Bir tup g'o'za”, “Tanish surat” singari bir qancha hikoyalardan iborat bu kitob qisqa muddat ichida tez tarqaldi va o'quvchilarning qo'lidan tushmaydigan bo'lib qoldi

Hakim Nazirning bolalar yozuvchisi sifatida bosib o'tgan ijodiy yo'li doimo adabiy tanqidchilikning diqqat-markazida bo'lib keldi. Dastlab, “Salim otaning ginasi” hikoyasi bilan so'z zarshunosi A.Qahhor nazariga tushadi. Shundan so'ng yozuvchilardan P.Tursun, N.Safarov, A.Muxtor, X.To'xtaboyev, S.Barnoyev; adabiyotshunos tanqidchilardan O.Sharafiddinov, M.Yunusov, L.Qayumov, U.Normatov, O.Tog'ayev, M.Normatov, B.Imomov, P.Shermuhamedov, O.Safarov, X.Egamov va boshqa o'nlab tanqidchilar vaqti-vaqti bilan yozuvchi ijodidagi yangilik va kamchiliklarni o'rganib, qizg'in munozaralarga sabab bo'ladigan maqolalar yozganlar.

Qunt, chidam bilan o'z ustida ishlashi, tinimsiz ijodiy izlanishi tufayli Hakim Nazir bolalar yozuvchisi sifatida kitobxonlarga tanilib ulgurdi. Hikoya janri yozuvchi bilan yosh kitobxonlar olamini birlashtirishda go'yo ko'priklar vazifasini

<sup>38</sup>Bu haqda qarang: Yunusov M. Serilhom qalb, saxiy qalam. Kitobda: Hakim Nazir.TA. Ikki tomlik. 1-tom. –T., “Yosh gvardiya”, 1969, 7-bet.

o'tadi. Bu ko'prik orqali Hakim Nazir bolalarning boy, go'zal, quvnoq, ajoyibotlarga to'la dunyosiga kirib boradi. Bir-biridan ta'sirli, bir-biridan o'qimishli, bolalarcha jonli hikoyalari dunyo yuzini ko'rdi. Bularda kichkintoylarning quvonchlarga to'la turmushi, his-tuyg'ulari, o'qishi, xulq-odobi, kattalarga hurmati, mehnatga munosabati, milliy qadriyatlar o'z badiiy ifodasini topdi. Hikoyalarda yozuvchining kichkintoylar saviyasi va ruhiyatini ko'rsatishga alohida e'tibor bergani e'tirofqa sazovor. Shu jihatdan adibning "Besh baho" (1955), "Cho'l havosi" (1958), "Yaxshi ism"(1962), "Meni taniysizmi?" (1963), "Bolajonlarim" (1964) nomli hikoyalar to'plamlari birin-ketin e'lon etilib, bolalar va o'smirlarning ma'naviy mulkiga aylandi.

Hakim Nazirning ko'pgina hikoyalari bog'cha yoshidagi yoki endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan bolalar hayotini aks ettirishga bag'ishlangan. Adibning "Bir og'iz so'z", "Rasmi kitobcha", "Davronning qushchasi", "Qaysargina ukam", "Yaxshi ism", "Ikki o'rtoq", "Bulbul", "Igna", "Bir tup g'o'za" kabi hikoyalari bu fikrni yaqqol dalillaydi. Bu kabi hikoyalarda bolalar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, axloq-odob, a'lo o'qish, jamoat ishlarida faollik ko'rsatish, kattalarning yumushlariga ko'maklashish, qushlar va jonivorlarga g'amxo'r bo'lish, orzu-umidlar qanotida yashash kabi masalalar aks etadi.

Bolalarda orzu-umid, yaxshilik sari intilish kattalarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. "Yaxshi ism" hikoyachasida adib shu to'g'rida fikr yuritadi. Shoir endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan. U hali maktab qonun qoidasini yaxshi bilmaydi. Shuning uchun qizcha o'qituvchisi Zuhra yulduziga raketa uchirilganligi to'g'risidagi axborotni ro'znomadan o'qib berganida butun sinfni boshiga ko'tarib:

–Topdim! Topdim! Topdim!!!– deya baqirib yuboradi.

Ayon bo'lishicha kecha Shoiraning onasi unga singilcha tug'ib bergan bo'lib, chaqaloqqa nima deb ism qo'yish janjal bo'lib turgan ekan. Shoirada havas yaxshi, niyat kuchli. Unga raketa va ayniqsa, Zuhra yulduzi yoqib qoladi. Shu onda singilchasiga Zuhra deb ism berish fikri tug'iladi. Bu haqda butun sinfga so'zlab beradi. "Yaxshi ism"ning xulosasi ham bolalar orzu qilgandek yakunlanadiki, asarni o'qigan har bir bolaning Shoiraga, u tanlagan ismga, qudratli texnikaga, shirinsuxan muallimaga va otaga havasi keladi.

Bolalarga har tomonlama to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, tushuntirish, o'rgatish, ularda ko'nikmalar hosil qilish kattalarga bog'liq. Yozuvchi o'zining "Bulbulcha" hikoyasida bu masalaga katta e'tibor beradi. Ona tabiatga, qushlarga mehribonchilik qilish g'oyasi bu asarning g'oyasini tashkil qiladi.

Qobiljon qushlarni ehtiyot qilish, e'zozlash kerak ekanligini, ularni urish, ozor berish yomonligini hali tushunib yetmaydi. Shu sababli qo'shni hovliga kelib sayragan bulbulni urmoqchi bo'ladi. Olim aka ishdan qaytganda Qobiljon qo'shnilarnikiga bulbul kelganidan xabar beradi.

– Dada, dada!– dedi u ko'zini katta ochib, – nega bizning boqqa bulbul kelmaydi-a?

– Qo'rqadi,– dedi dadasi.

– Nimadan qo'rqadi?–dedi u ajablanib.

- Sendan!– dedi dadasi.
- Iya, nega endi mendan qo‘rqadi?
- Axir kesak otsang, mayib bo‘ladi-da? Bu ishing yaramaydi deb aytib edim-ku. Qobiljon indamay o‘ylanib qoldi: endi nima bo‘ladi? Rostdan ham bulbuljon uning bog‘iga hech kelmasmikin-a?
- Kesak otmasam keladimi, dada?– dedi oxiri Qobiljon.
- Albatta, keladi,– deb ishontirdi dadasi.
- Bo‘pti! – dedi Qobiljon va shu paytdan boshlab qushlarga kesak otmaydigan bo‘ldi.

Adibning maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlab yozgan juda ko‘p hikoyalari kitobxonni ona yurtni sevishga, mehnatkash bo‘lishga, mehnat ahlini, ota-onani e‘zozlashga, kasb-hunar egasi bo‘lishga chorlaydi.

Hakim Nazir hikoya janrida muvaffaqiyat bilan qalam suradigan bo‘lgandan keyin, bolalar uchun maroqli qissalar yozish orzusiga tushadi. 1954–yilda maydonga chiqqan “Ko‘korol chiroqlari” o‘sha orzuning amalga oshuvi edi. Katta hajmli asarlar yaratishdagi birinchi tajriba hisoblangan “Ko‘korol chiroqlari” muayyan nuqsonlardan xoli emasdi. Asar muallifning do‘stlari bildirgan istaklar, mulohazalar asosida qayta ishlanib, 1958- yili “So‘nmas chaqmoqlar” nomi bilan nashr qilindi. “So‘nmas chaqmoqlar” baxtli bolalik haqidagi qissadir. Unda bolalar va o‘smirlarning bir yoqadan bosh chiqarib, nihoyatda ahil bo‘lib yashaganliklari uchun o‘qishda ham, ijtimoiy foydali mehnatda ham maqtanishga loyiq yutuqlarga erishganliklarini ko‘rish mumkin.

Hakim Nazir har bir yangi asari uchun materialni o‘ziga hamnafas zamondoshlarining kechib turgan real turmushidan olishga o‘rganganidan, respublikamiz bo‘ylab kezib yuradi. Uning asarlari mavzuiga ko‘ra ba‘zan Farg‘ona vodiysida, ba‘zan Buxoro gazchilari orasida, ba‘zan esa, paxtakorlar delegatsiyasi orasida Ozarbayjon dalalarida ko‘rish mumkin.

Yozuvchining “Kenjatoy” (1976) qissasida hunar maktabi hayoti qiziqarli va jozibador aks ettirilgan bolib, o‘smirlarda ishchi kasbidan faxrlanish tuyg‘usini tarbiyalashga xizmat qiladi.

“Tohir-Zuhra qissasi”ning (1985) bosh muammosi hayotga qadam qo‘yayotgan, balog‘at pallasidagi o‘spirin bilan qizaloqning yosh qalblarida tug‘ilmish ilk sevgi kechinmalariga qaratilgan, qahramonlarning yoniq iztirobiga keng o‘rin berilgan.

“Dadamni topib beringlar” qissasida (1991) bir dehqon oilasi boshiga tushgan nohaqlik fojiasi kichiklar nazari orqali o‘tkazilib, ularning ongi va ruhiyatiga yetkazgan salbiy ta‘siri badiiy tahlil etilganini ko‘ramiz va kitobxon yosh qahramonlar bilan iztirobga tushadi.

Hakim Nazir so‘nggi kitobini “Oq fotiha” deb atadi. Bu xotira-qissa bo‘lib, bolalik sarguzashtlariga bag‘ishlanadi. Muallif bezovtalik, g‘ulg‘ula hayajonlarga to‘la bolalik chog‘lari ko‘rgan-kechirganlarini jonli lavhalarda hikoya qiladi, kichiklikda ota-onasidan olgan ilk insoniy saboqlari uchun ularga chuqur va samimiy minnatdorchiligini izhor qiladi.

Darhaqiqat, endigina mustaqil hayot ostonasiga qadam qo‘yayotgan o‘smirlarni yosh niholga o‘xshataman: niholni qanchalik avaylab-asrasang, unga mehringni bersang, shuncha to‘g‘ri va ko‘rkam bo‘lib o‘sadi; e‘tiborsizlik qilsang o‘tinga aylanadi.

Hakim Nazirning qissalarida o‘smirlar olamining eng dolzarb muammolarini ko‘tarib chiqqan Hakim Nazir ijodiga xos bo‘lgan yana bir xususiyat bu qissalarida sanoat mavzusiga murojaat qilinganidir: “So‘nmas chaqmoqlar”da qishloq xo‘jaligini texnikalashtirish; “Suv gadosi”da suv ombori barpo qilish; “Yonar daryo”da mamlakatda “yonar daryo” oqizayotgan olovkorlarni; “Lochin qanotlari”da aviamodelchilik to‘garagi haqida fikr yuritadi.

Albatta, yozuvchi asarlarida yoshlar va texnikaga murojaat qilishi bejiz emas. Hakim Nazir texnikasi qudratli bo‘lgan mamlakatda rivojlanish bo‘lishini yaxshi anglaydi. O‘zbekistonning ham e‘tiborli mamlakatlar qatoridan o‘rin egallashini orzu qiladi, shu qudratli texnikani O‘zbekistonlik aqlli, zukko, fidoiy yigit-qizlar boshqarishini istaydi.

1959-yilning iyul-avgust oylari. Respublikaning iqlimi mo‘tadil joylarida qumga tuxum ko‘msa ko‘z ochib-yumguncha pishadigan paytlar-u, Hakim Nazir Qizilqum barxanlarini o‘tib Gazliga ketayapti. Shu damda “Gazlida qum bo‘roni shaxmat donalaridan batartib o‘rnashgan yangi binolarga to‘qnashib, avjiga chiqar va bo‘ri kabi uvlardi. Shunga qaramay, bu ishchi posyolkasida hayot qaynardi...” Odamlar sayohat uchun kelmaydigan yerlarga ko‘nglida biror “dardi” bo‘lmasa kelardimidi? Bu “dard” shubhasiz, qum sahrolari o‘rtasida “Shahri azim” barpo qilib, undan butun o‘lkaga “yonar daryo” oqizayotgan mo‘jizakor kishilarni madh etish “Gaz qaynar dostoni”, “O‘tlar tutashganda” nomli ocherklar olovkorlarni kuylash namunasidir.

Yozuvchi qumlar qal‘asidan olib kelgan taassurotlar, qalbiga yaqin bo‘lib qolgan katta-kichik quruvchilar ko‘p edi. Ular bir-ikki ocherk doirasiga sig‘maganidan alohida maroqli qissa yozishga ahd qiladi. Nihoyat, “Gazqaynar” manzarasini yorqin bo‘yoqlarda gavalantiradigan “Yonar daryo” qissasi (1965) yaratiladi. Asarning mazmunini ushug‘ligi uchun “mitti” laqabini olgan o‘quvchi bola Damirning oila muhiti, o‘rtog‘i Bo‘ron Gazqaynarga boshlab borganda ko‘rgan-kechirganlari tashkil qiladi. Muallif oiladagi kattalarning munosabatiga, yaxshi-yomon hodisalarga, turli predmetlarga Damirning ko‘zi bilan qaraydi. Bundan ikki yil avval otasi vafot etib, singlisi Popuk ikkovi onasining qaramog‘ida qolishgan. Ko‘p vaqti ishda o‘tadigan ona bolalar tarbiyasiga durustroq vaqt ajratolmaydi. Damir esa keksa buvisining o‘ta mehribonligi, yumshoqligi orqasida o‘yinqaroq, o‘qishga kamhafsala, o‘jar bo‘lib qolgan. Jadvalda ko‘rsatilgan kun tartibini istagancha o‘zgartiradi, onasiga bo‘yin egmaslikka harakat qiladi.

Damirlarga uzoq qarindosh bo‘lgan Sulton amakining bu oilaga bot-bot keladigan bo‘lgandan beri bolalar unga o‘rganib qoladilar. Sulton amaki o‘zi bilan birga bu uyda yetishmay turgan, ota mehriga yaqin iliqlik olib keladi. Keyinchalik ota sifatida shu oilaga kirgan Sulton amaki Damir xarakterining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Damir hayotidagi ikkinchi voqea uning Qizilqumga safari



bo'ladi. O'rtog'i Bo'ron tili bilan aytganda, "shu choqqacha o'z uyasidan tashqariga chiqmagan" beshinchi sinf o'quvchisi ko'z o'ngida yangi olam ochiladi.

"Yonar daryo"da muallif o'smirlar ruhiyatini ustalik bilan tasvirleydi. Go'yo o'z qahramoni bilan izma-iz yuradi-yu, u nimani ko'rsa shuni qayd qilib, nima desa shuni yozib oladi. Damir sir yashirmaydigan ochiq bola. Onasidan arazlab ovqatga bormay och qolganida, darsi miyasiga kirmay "daftar betidagi raqamlar, harflar xuddi chigirtkaday dik-dik sakrashib" ketgani bormi, Sulton amakini dada qilib olib kelmoqchi bo'lganlarini eshitganda "g'ashi kelib buvisidan jahli chiqqani" bormi, dadasi oilani cho'lga olib ketaman deganda onasi gap o'rgatib, "bormaymiz" deyishga undashi ko'ngliga yoqmagan bormi, hamma-hammasini ro'y-rost aytib beraveradi.

Qissadagi "Adajon" sarlavhali hikoyada Damir va otasi o'rtasidagi rishtalarning nechog'li bog'lana borganini ko'rish mumkin. Chunki, Sulton amaki ham o'zini bu oilaning haqiqiy a'zosidek tutishida hali nimalardir xalaqit beraredi. Ayniqsa, bu yerga kelgandan buyon uydan biror marta xat kelmagani uni shubha gumonlarga solardi. Shu sababli u o'g'lidan so'raydi:

- Damirjon!,- deydi u ovozi qaltirab,- chin o'g'lim bo'lsang, bir so'z so'rayman, to'ppa-to'g'ri javob aytasan, kelishdikmi?
- Himm,- deydi Damir.
- Qani aytchi: oying meni hech eslaydimi?
- Himm,- deb yuboradi-yu, lekin nima deb eslaganini aytib o'tirmaydi...

"Eh, Sulton amaki, Sulton amaki! O'ylaydi ichida Damir. Sizning uydan ketib qolganingiz, oyimning hadeb xafa bo'lavergani kelishga majbur qildi meni. Bo'lmasa u yoqda oyimni xavotir oldirib, sizning oldingizda o'zimni qiynab yurarmidim?" So'ngra, singlisining xarxashasi-yu, buvisining kasal bo'lib qolganlarini birma-bar gapiriub bergach: "– Borasizmi, ada?"- deb yuboradi. Bu Damirning birinchi bor "ada"lashi edi. Aytishga aytadi-yu, ichidan chuqur xo'rsiniq keladi, qulog'i shang'illab, ko'zi tinib ketadi. Sulton amaki ham shunday bo'ldimi, ancha vaqt indamay, qon talashgan uyqusiz ko'zlarini Damirga tikib qoladi. "Bu tikilishi menga juda ham yumshoq, mehribon, ich-ichimdagini bilib turganday yaqin ko'rindi",- deydi Damir. Keyin Sulton amaki birdan egiladi-yu, kuchli qo'llari bilan qo'ltig'idan olib osmonga ko'taradi va:

– Sanga aytsam o'g'ilginam, hoziroq uyga qanot boylab borardik! Ammo bu yerdagi ishlar, o'zing ham ko'ryapsan, og'irlashib ketyapti, ko'ngil uzolmay turibman,- deydi.

Shu tariqa, ota-bola o'rtasida mehr rishtalari mustahkamlana boradi. Bu cho'lda ish qizib ketadi. Sulton amaki chinakam jasoratlar ko'rsatib, Damir ko'z o'ngida qahramonga aylanadi.

Hakim Nazir 1973-yilda "Lochin qanotlari" romanini yaratdi. Bunda urushga ketgan ota-onalarning o'rnini bosgan O'ktam, Umri va boshqa vatanparvarlar obrazlari gavdalantirildi. Tadqiqotchilar "Lochin qanotlari" romani o'zbek bolalar adabiyotida deyarli qo'l urilmagan mavzuni – urush yillari

kichkintoylarning buyuk g'alabaga qo'shgan hissasini ko'rsatishga bag'ishlangan yirik asar sifatida qimmatlidir, deb ta'kidlaydilar.

Yozuvchining "Chiranma g'oz – hunaring oz" nomli pyesasi ko'p yillar davomida Yosh tomoshabinlar teatri sahnasida qo'yildi.


Hakim Nazir ijodida kattalar uchun yozilgan asarlar ham anchagina. Jumladan, "Odamning qadri" (1958), "O'tlar tutashganda" (1960), "Onaizor" (1961), "Aziz odam" (1964) kabi hikoya va ocherklar to'plamlari; "Suv gadosi"(1962), "Ko'kterak shabadası" (1968) shu ma'noda e'tirofqa sazovor.

Hakim Nazir insoniylik, zamonaviylik va mehr-oqibat kuychisi sifatida ijtimoiy hayotimizdagi har bir o'sish-o'zgarishni sinchkovlik bilan kuzatadi. Kuzatganlarida qalbiga ma'qul tushganlarini o'rnak tarzida adabiyotga olib kirdi. Shuning uchun ham uning qissalarida insoniy qadr-qimmat asosiy o'rinda targ'ib etildi. Yozuvchi har lahzada insonni sharaflashni o'zining burchi deb anglab, bu mas'uliyatli vazifaga katta mehr va mas'ullik hissi bilan qaraydi.

Shunisi ahamiyatga molikki, Hakim Nazir hayotni kuzatar ekan, undagi yangiliklarni faqat yangi bo'lganligi, yangi mavzuga material bo'la olishi uchungina olib kirmaydi. "Men ijobiy qahramonni zamon barometriga o'xshataman. Qahramonning o'y-fikri, orzu-umidi, xatti-harakati, ruhi-kayfiyatida zamon nafasi, davrning tomir urishi aks etib turadi... Kitobxon qo'lga kitob olishi bilan undan o'z qahramonini izlashi turgan gap. U o'ziga yoqib qolgan qahramonga qalb to'ridan joy beradi. Unga taqlid qilgisi, uning ishlari va xatti-harakatlarini takrorlagisi keladi, har ishda, unga o'xshashga harakat qiladi",–deydi u.

Shu sababli adib hayotga badiiy obrazlar yangiligi nuqtayi nazaridan yondashadi. Qalb yangiligiga, gap yangiligiga intiladi. Yangi gapni aytishga munosib yangi muammolar yaratishga jazm etadi. Quدرات, Kolya, Mehri, Damir, Bo'ron, Fotima, Tohir, Zuhra, Sobir, Raisalar yana shunday yangi gap aytish istagida tug'ilgan tiplar bo'lib, bolalar adabiyotida har birining o'z o'rnı bor.

Hakim Nazir O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti va X.K.Andersen nomli Xalqaro faxriy diplom sovrindoridir.



Hikoya mazmuran boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonning hatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea- hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujretini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish asosiy o'rin egallaydi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.



## Mirkarim Osim – tarixiy-biografik qissanavis adib (1907-1984)

Adabiyotda xalqimizning tarixiy o'tmishi mavzuini badiiy aks ettirish to'g'risida mulohaza yuritilsa, taniqli adib Mirkarim Osimning bu sohada qilgan xizmatlarini eslamaslik mumkin emas. Yozuvchi tarixiy o'tmishga hamisha va astoydil qiziqib kelgan. Xalq o'tmishiga qiziqish uning ijodida tarixiy mavzuni bosh yo'nalishga aylantirdi.

O'zbek sho'ro adabiyotining to'ng'ich avlodiga mansub Mirkarim Osim 1907- yilda Toshkentda, ziyoli oilasida dunyoga kelgan. 1918-yildan “Shamsul urfon” nomli boshlang'ich maktabda o'qidi. 1921-yildan Alisher Navoiy nomidagi respublika bilim yurtida tahsil ko'rdi. Do'stlari Oybek va H.Yoqubovlar bilan bu texnikumda adabiyot-san'at turlarini o'rgandi. 1926-yilda esa Moskva Davlat pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida o'qib, uni 1930-yilda tugalladi. Samarqandda o'qituvchilar tayyorlash kursida, 1932-yilda O'zbekiston Maorif Xalq komissarligi, Pedagogika ilmiy-tadqiqot ilmgohida ishladi. Tarix fanidan qo'llanma, tavsiya, darsliklar yaratdi. Mirkarim Osim badiiy ijodni she'rlar yozish bilan boshlagan. So'ngra hikoya va qissa janrlarida ham qalam tebrata boshlagan. 1940-yilda Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida “Astrobod”, “Alisher Navoiy va Darvishali”, “Badarg'a”, “Navoiyning xislatlari”, “Ulug'bek va Navoiy” singari hikoya va tarixiy qissalar yoza boshladi. Adib bir umr tarixiy qissalar yozish bilan mashg'ul bo'lib, yangi-yangi avlodlarni o'tmish va uning ilg'or shaxslariga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyaladi. Vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini ulug'ladi.

Mirkarim Osim 50-yillar Stalin qatag'onining begunoh ma'naviy qurbonlaridan biridir. Uning vatanparvarlik, millatparvarlik, o'tmish tarixga muhabbat ruhidagi asarlari o'z muallifiga qora kunlar olib keldi. Adib ko'p yillar

sho‘ro rejimining azoblarini chekdi. 40-yillarning oxirida qatag‘onga uchradi, 50-yillarda ozodikka chiqdi. Tarixiy mavzularda hikoyalar, qissalar yozdi. Barcha asarlarida xalq tarixi, nurli siymolar xarakteri yorqin tasvirlanadi.

60- yillarda Vatanga qaytgan san’atkor tarixiy asarlar yozishda davom etadi. Adabiy nashriyotlarda kichik adabiy xodim vazifalarida ishladi. Mirkarim Osim tarixchi adiblar orasida asl manbaani buzmay, qayta badiiy jonlantirishi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunos M.Sattorov tarixchi adibning asarlarini davriy jihatdan shartli ravishda uch guruhga ajratadi.

1. *Tariximizning qadimgi davrlari haqida hikoyalar* (Makedoniyalik Iskandar, arab xalifaligining, keyinroq eroniy shohlarning O‘rta Osiyoga yurishlari haqidagi bitilgan hikoya, qissa va turli obrazlar talqiniga oid asarlar).

2. *O‘rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi asarlar* (Mo‘g‘ullar istilosi, fan va madaniyatning buyuk arboblari haqida biografik qissa va hikoyalari).

3. *XVIII asrdan to Oktabr to‘ntarishiga qadar (1917-yil) bo‘lgan davr tarixiy hayotini badiiy aks ettirgan asarlar* turkumi.

Chindan ham muallif asarlari davriy jihatdan keng qamrovli. Ayniqsa, adibning O‘rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi tarixiy-biografik qissalari alohida e’tirofga sazovor. Ayni paytda Mirkarim Osim asarlarini uch katta mavzu yo‘nalishi bo‘yicha tahlil qilish, baholash mumkin:

–tarixiy qahramonlik mavzuidagi asarlar.

–tarixiy-maishiy mavzu.

–tarixiy-biografik asarlar.

Adib yarim asrlik ijodiy faoliyatida ana shu uch davr va uch mavzuviy yo‘nalish bo‘yicha samarali ijod qilib, o‘zbek nasrini, o‘zbek qissachiligini boyitdi. Xususan, u tarixiy qissachilikda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bu yo‘nalishda u qadim ajdodlarimizning, Vatanimiz tuprog‘iga bostirib kirgan chet ellik bosqinchilarga (eron, arab, mo‘g‘ul, rus) qarshi olib borgan qahramonona kurashlari, o‘tmish ilm-fan madaniyatimiz yulduzlarining jahon madaniyati xazinasiga qo‘shgan beqiyos hissalarini, o‘zbek xalqining ikki tomonlama zulm-istibdoddan tinkasi qurib, adolatsizlikka qarshi isyonga o‘tlanib, milliy ozodlik uchun kurashgani haqida bir qator asarlar yaratdi. Jumladan, muallifning “O‘ror”, qissasi fikrimizni dalillay oladi. Unda o‘zbek xalqining 1216-1220- yillardagi siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayoti badiiy aks ettiriladi. Qissada tarixiy voqealar talqini barobarida xalqning maishiy turmush sharoiti, kasb-kori, mashg‘ulotlari tasviriga ham keng o‘rin ajratilgan. Shuning uchun uni tarixiy-maishiy yo‘nalishdagi asar deb qarash lozim.

Mirkarim Osim ijodida tarixiy-biografik mavzu ham katta oqimni tashkil etadi. Adibning “Jayhun ustida bulutlar” qissasi ulug‘ qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning, “Ibn Sino qissasi” esa nomi jahonga mashhur buyuk hakim va olim Abu Ali ibn Sinoning, “Aljabrning tug‘ilishi” hikoyasi mashhur matematik al-Xorazmiyning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan.

Adib o‘z tarixiy-biografik asarlarini odatda, bu ulug‘ insonlarning tavallud ayyomining tantanali nishonlanishi munosabati bilan sovg‘a sifatida yaratgan. Jumladan, “Jayhun ustida bulutlar” qissasi Abu Rayhon Beruniyning 1000

yilligiga, uch-to‘rt biografik hikoyalardan tashkil topgan “Ibn Sino qissasi” Abu Ali ibn Sinoning 1000 yilligiga, “Aljabrning tug‘ilishi” hikoyasi al-Xorazmiyning 1200 yilligiga bag‘ishlab yozilgan. Shuningdek, adibning XV asr hayotiga oid “Zulmat ichra nur” qissasi atoqli shoir Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyiga tortiq qilingan edi. O‘smirlar va bolalarga bag‘ishlangan bu asarda bobokalon shoirimiz hayoti va ijodiy faoliyatining barcha davri hissiy nozikliklari bilan yaxlit qamrab olingan. Yoxud, adibning “Nur va zulmat” qissasi ham Jahon otin Uvaysiyning qalb iztiroblarini tarannum etadi. Shunga ko‘ra bu kabi asarlar tarixiy-biografik asarlarning eng ajoyib namunalaridan hisoblanadi. Bundan tashqari, qahramonlik mavzuga ijodkorning “To‘maris”, “Temur Malik”, “Aleksandr va Spitamen” kabi asarlarini kiritish mumkin bo‘lsa, maishiy mavzudagilarga “Mohlar oyim va Xonposhsha”, “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Elchilar” kabi asarlari, shuningdek, “Karvon yo‘llarida”, “Do‘stlik qaldirg‘ochlari”, “Tilsiz guvoh”, “Zulmat va muhabbat nuri” kabi tarixiy qissalari hayotimizning, aniqrog‘i, xalqimiz tarixining ilmiy va badiiy jihatdan nisbatan kam tadqiq qilingan davrlari – XVII-XIX asrlar hayotiga, o‘sha davr xalqlarimiz turmushining tarixiy taraqqiyotiga bag‘ishlanadi

Tarixiy mavzularda asar yaratish olijanob vazifa va ayni paytda benihoya mas‘uliyatlidir. Tarixni baholash vaqtning zimmasida, albatta. M.Osim tariximizning ochilmagan sahifalarini birma-bir varaqlab, unga murojaat etdi. “U kishi nafaqat yozuvchi,— deb yozgan edi O.Yoqubov,— balki har qanday tarixshunos olim bilan (albatta, tarixiy voqealar haqida gap ketganda) bellasha oladigan, tarixni besh qo‘ldek biladigan zukko edi. Shu boisdan, oddiy kitobxonlar qatori tarixshunos olimlarimiz ham uning asarlarini o‘qib o‘rganadilar”.<sup>39</sup>

Tarixiy qissalar ilmiy-nazariy ma‘lumotlarga qaraganda ta‘sirchan va tarbiyaviy-estetik ahamiyat ustuvor ekanligini S.Anorboyev mulohazalaridan ham anglash mumkin. Uning e‘tiroficha, 1940-yillarda hali adabiyot darsliklari va xrestomatiyalarda A.Navoiy haqida qisqacha biografik ma‘lumotlar bo‘lmagan bir paytda, olimlarning davriy matbuotda e‘lon qilingan Navoiy hayot yo‘li, ijodining keng tahlili o‘quvchilar ommasiga boy ma‘lumot bera olgan. “Mirkarim Osimning “Alisher Navoiy va Darvishali”, “Astrobod”, “Alisherning yoshligi”, “Badarg‘a” hikoyalarini o‘qiganimda esa, – deb yozadi muallif alohida qoniqish bilan, – Alisher mening ko‘zimga goh uyqusirab otdan yiqilib, Yazd cho‘lida qolib ketgan ziyakkina bola, goh navqiron yigit, goh...johil ruhoniylardan tap tortmay hajv qiluvchi tili o‘tkir zabardast shoir, goh adolat tig‘ini baland ko‘targan davlat arbobi qiyofasida namoyon bo‘ladi.”<sup>40</sup>

1963-yilga kelib, Alisher Navoiy haqida adibning “Zulmat ichra nur” qissasi yaratildi. Qissada Alisher Navoiy obrazi boshqa shu mavzudagi asarlarga nisbatan teran aks etgan. Sababi, M.Osim Alisherning tadrijiy kamolotini ko‘rsatishda shoir hayotidagi eng muhim qirralarga e‘tibor qaratadi. Ya‘ni, to‘rt yoshli bolaning shoir tog‘alarini hayratga solib Qosim Anvor g‘azallaridan yod aytishi, kitobga

<sup>39</sup>Yoqubov O. Vatanni tanitgan adib. // “Sharq yulduzi”, 2002, 2-son, 134-b.

<sup>40</sup>Anorboyev S. Tarixdan saboqlar. // “Guliston”, 1977 yil, 12-son, 15-bet.

ixlos qo'yishi, kekxa tarixchi bilan bo'lgan uchrashuvlari, qushlar tiliga muhabbati, Farididdin Attor haqidagi rivoyatlarni zavqu-shavq bilan tinglashi tizimli ravishda tasvirlanadi. M.Osim Alisherning "Mantiq ut-tayr"ga mukkasidan ketib, asosiy o'qishiga ulgurolmay qolayotganini ham haqqoniy ko'rsatadi.

"Devorlari ganch suvoq bilan o'ymakor qilib ishlangan maktabxona qiy-chuvga to'lgan. Yumshoqnamat ustida tiz cho'kib o'tirgan bolalar chuvvos ko'tarib oldilaridagi taxta ustiga qo'yilgan kitoblarni o'qishadi. Kichikroq bolalar alifbe va "Abjad" yozilgan taxtalarga qarab:"Alif, be, te, se", deb qichqiradi, ba'zilari "Haftiyak"ni hijjalaydi...Alisher esa taxta ostiga Attorning "Mantiq ut-tayr"ini qo'yib zavq bilan o'qiydi. Bu kitobni o'qiganda ko'z o'ngida ajoyib bir manzara hosil bo'ladi..." Alisher asarga diqqati jalb bo'lib, domlaning tanbehini eshitadi: "–Alisher, xayol surmay, sabog'ingni takrorla, hali seni qoshimga chorlagaymen..."

Alisher "Qushlar tili"ni berkitib, taxta ustida ochiq turgan Qur'on kalimalarini takrorlay boshlaydi. "Yosin" surasining bir qismini yod olib kelish topshirilganiga qaramay, Alisher bunga kam vaqt ajratgani bois, domla uni yoniga chaqirib so'raganda, tutilib qoladi. "–Bo'lmaydi, sabog'ingni o'qimabsen",– deb o'shqiradi domla unga, ammo savashga qo'li bormaydi.

Shu tasvirdayoq Alisher obrazi ifodasida tabiiylik yaqqol seziladi. Garchi so'z bo'lajak shoir haqida ketayotgan esa-da, uning hamma bolalarga xos xususiyatlari, bir narsaga qiziqdimi, butun xayoli o'shanga band bo'lib, asosiy vazifalardan chalg'ishi o'rinli tasvirlangan.

Qissada Alisherning ana shu bolalik tasviridan so'ng, o'n olti yoshli o'spirinligi davriga e'tibor qaratiladi. U maktabdosh do'sti Husayn bilan Abulqosim Bobur saroyida xizmatga kiradi. Bu davr ham Alisher hayotida burilish yasaydi. Podshoh vafot etishi bilanoq, taxt uchun kurash alanga oladi, o'n sakkizga kirgan barvasta Husayn Mirza ham bir kuni Navoiyni chodiriga chaqirib, o'zi bilan birga safarga chiqishni taklif qiladi:

"– Men qazoqliqqa chiqib keturmen,– deydi Husayn xipcha belidagi kamarga qilich-qinini osar ekan. –Yuring men bila Semurg' qushini izlamoqqa!

Uning izlagan Semurg' qushi panjasi va tumshug'i qon, odam go'shtiga o'ch yirtqich parranda ekanini Navoiy yaxshi bilardi, shu sababdan sobiq maktabdoshining taklifini rad etib:

– Men Mashhad shahrida qolib, madrasada o'qimoq niyatidadurmen,– deydi.

– Afsuski, siz qilich emas, qalam bila mashq qilib kelgansiz, bo'lmasa menga ergashib ketgan bo'lur erdingiz. Mayli, siz ilm xazinasidin durdonalar tera bering, yurt uchun yarab qolar. Men ersam ko'kragimni shamolga berib, Semurg' qushini izlaymen".

Bu tasvirda ham Alisher Navoiyning ilm va ma'naviyatga ulug' e'tiqodi ko'rsatilgan. Ammo shu bilan birga Navoiy iztiroblari ham yonma-yon berib boriladi. Xususan, qissaning "Pahlavon Muhammad hazili" faslida yosh shoirning hayotda duch kelgan mashaqqatlari haqida fikr yuritiladi. Jumladan, uning ota onadan yetim, homiysiz qolgani yetmaganidek, musofir yurtida mafosil (suyak

zirqirashi) kasaliga muhtalo bo'lishi, u turgan pastak hujrada kechirgan kunlari, Mashhadda Pahlavon Muhammaddan ko'rgan ezguliklari hikoya qilinadi. Shu munosabat bilan ulug' ustozning unga qilgan qaltis hazili, ya'ni, Navoiy kechqurun yozib chontagiga solib qo'ygan yangi g'azalni uni ko'rgani kelganda uyqusi elitgan shoirga sezdirmay, qoziqqa ilingan jomaning chokini tikish uchun olgan Pahlavon Muhammad bu g'azalni ikki-uch marta o'qiboq, yodlab oladi-da, yana joyiga qo'yadi. Navoiy uyg'onib, ustozni keltirgan taomdan tanovul qilgach, adabiyot, she'riyat haqida suhbat boradi va gap kelib, otashnafas shoirlarga taqaladi, Navoiy Lutfiyini ehtirom bilan tilga oladi; Pahlavon Muhammad esa Sayid Hasimiy haqida kuyib-yonib gapiradi-da, Navoiyning shu bugun ertalab yozgan she'rini zavq bilan o'qib beradi:

Har qayon boqsam yuzumga ul quyoshdin nur erur,

Har sori qilsam nazar ul oy menga manzur erur.

She'rning so'nggi ikki misrasini o'qiyotganda "Navoiy" so'zi o'rniga "Nasimiy" so'zini qo'yib o'qiydi:

Gar Nasimiy simbarlar vaslin istab ko'rsa ranj,

Yo'q ajab, nechunki xom etgan kishi ranjur erur.

Shu tariqa, keksa ustoz oldida lol qolgan yosh shoirning g'alat ahvoli, chinakam namoyon bo'lgan. M.Osim bu hikoyatni asarga o'rinli singdira olgan. Bundan tashqari, Navoiy o'z davrining eng ulug' shoiri, mutafakkiri bo'lib yetishuvi oson kechmagani, doimo o'ziga yarasha ziddiyatlar, qiyinchiliklarga ro'para bo'lgani ham qissada tilga olinadi. Shu ma'noda qissadagi "Yaxshining sharofati", "Badarg'a", "Samarqand bo'sag'alarida" fasllari Navoiy hayotining murakkab qismatlarini o'zida aks ettirgan.

M.Osim Navoiyning ana shunday notinch zamonda ham tinmay ijod bilan shug'ullanishini, u sahargacha mijja qoqmay ishlashi hikoya qilinarkan, quyidagi tasviri yanada e'tiborni tortadi: "Shoirning tog' yon bag'riga solingan shiyponi o'rtasida, pastak kursi ustida bir sham lip-lip yonib turar, mis qandil ustiga ko'z yoshlarini to'kar edi. Oydinsiz kechalarda sham **nuri zulmatning** bag'rini yorib o'tib, olisdan miltillab ko'rinardi..."

Ha, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan haqiqat shuki, Navoiy yashagan ijtimoiy davr, hayot qop-qorong'u zulmatdan iborat bo'lsa-da, uning siy mosi, ijodi o'sha zulmat bag'rini yorib o'tgan nur edi, go'yo. Olisdan miltillab ko'ringan sham misoli zamon to'fonlaridan omon qola olgan Navoiy ijodi o'zi orzu qilganidek, bugun yorqin yog'du taratayotir, albatta.

Avtobiografik qissalarni o'rgangan A.Abrorov yozadi: "Avtobiografik qissalar o'z uslubiga ko'ra ikki turli bo'ladi. Bir necha turdagi avtobiografik asarlarda yozuvchi o'z boshidan kechirgan voqea va hodisalarni, faktlarni boshqa badiiy obraz orqali tipiklashtiradi. Aniqrog'i, avtorning o'zi asarning markazida tursa ham, u boshqa nom bilan sujetda harakat qiladi.

Ikkinchi tur avtobiografik asarlarda bosh qahramon sifatida bosh qahramon o'z nomi bilan qatnashadi. Avtorning o'z hayotida yuz bergan voqea va faktlar, o'zi ko'rgan yoki ishtirok etgan epizodlar asarning asosiy materiali bo'ladi" .

Ushbu fikrlarni adibning tarixiy-biografik qisalariga tatbiq etadigan bo‘lsak, ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin:


1. Tarixiy shaxs boshidan kechirgan voqea va hodisalarni, dalillarni boshqa badiiy obraz orqali tipiklashtirish. Boshqacha qilib aytganda, badiiy to‘qimaga asoslangan tarixiy-biografik qissalar.

2. Bosh qahramon sifatida tarixiy shaxsning o‘zi tanlanadi. Ya’ni tarixiy voqelikka asoslangan tarixiy-biografik qissalar. Adibning yuqorida nomlari zikr etilgan qissalarini ikkinchi guruhga kiritish mumkin.

Adib tarixiy-biografik qissalarida tariximizda munosib nom qoldirgan ko‘plab tarixiy shaxslar obrazlari yaratilgan. Bu haqda adabiyotshunos P.Shermuhamedov yozadi: “Mirkarim Osimning yana bir guruh asarlari borki, ularda xalqimiz tarixining zarvaraqlarida o‘chmas qilib yozib qo‘yilgan siymolarning tabarruk obrazlari tasvirlangan. “Jayhun ustida bulutlar” qissasining qahramoni Beruniy, “Yulduzlar sayri”dagi Ulug‘bek, “Zulmat ichra nur” asaridagi Navoiy, “Ixlos tuzog‘i” qahramoni Mashrab mana shunday obrazlardir.” Binobarin, “Yulduzlar sayri” tarixiy-biografik qissasidagi badiiy lavhalar fikrimizni tasdiqlaydi. Unda Ulug‘bekning bolalik yillari tasvirlanadi.

Bundan tashqari, Mirkarim Osim tarix bilan tillashgan adib sifatida To‘maris, Shiroq, Spitamen, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Mashrab kabi ulug‘ ajdodlarimiz siymosini ham tarixiy manbaalar asosida shunday yorqin chizgilarda yarata olgan. Zotan u o‘tmishimiz bilimdoni sifatida e’tirof etilib, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoniga sazovor bo‘lganligi bejiz emas. Taniqli adib 1984-yili vafot etdi. Mustaqilligimizning o‘n yilligi arafasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan o‘zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan M.Osim “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi.

Bugungi kunning mashhur va tanilib kelayotgan tarixchi adiblar Mirkarim Osimni haqli ravishda o‘zlarining ustozlari deb biladilar.



## Po‘lat Mo‘min-bolalarning qo‘shiqnavis shoiri

(1922-2004)

Bolalarning suyuqli shoiri Po‘lat Mo‘min yoshligidanoq adabiyotga havas qo‘ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o‘qib yurgan vaqtida adabiyot to‘garagiga faol qatnashadi. Adabiyotni qunt bilan o‘qidi, o‘rgandi. O‘rta ma’lumot olgach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat Pedagogika universitetining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetiga o‘qishga kirib, uni muvaffaqiyatli tamomladi, aspiranturada o‘qidi, maktablarda o‘qituvchilik qildi. So‘ngra O‘zbekiston Davlat nashriyotida ishladi. P. Mo‘min qayerda ishlamasin, doimo adabiyotga muhabbat bilan qaradi, uni qunt bilan mutolaa



qildi, o'rgandi. Kichik-kichik she'rlar yoza boshladi. 1944-yilda "Bahorga sayohat" nomli birinchi she'ri bosilib chiqadi. Birinchi she'rlar to'plami esa 1949-yilda "Sayrang, qushlar!" nomi bilan nashr etiladi. Kitob adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. To'plamdan munosib o'rin olgan "Haykal", "Alla va Jalla" (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqarliligi bilan kitobxonlarning e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bolalarga atab ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonishi uchun qobiliyat va istakning o'zigina yetmaydi. Belinskiy ta'rifi bilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilish kerak. Bu bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo'lsin, nozik did egasi, go'dak tabiati va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimiy, bolalarcha soddadil ham dono bo'lsin, degan mazmunni taqozo etadi, albatta. Po'lat Mo'min ijodida ana shunday xususiyatlar mujassamligi ayon haqiqat. Shoirning tinimsiz ijodiy mehnati tufayli "Hunardan unar", "To'g'ri o'sgan gul bo'lar", "Aql qayerda bo'lar", "O'rinbosarlar", "Oltin nay", "Bir yarim Karim", "Endi adashmaydi", "Barcha bola do'st bo'lsa", "Rahmatga rahmat", "Gazpolvon ertak aytar", "Do'sting qancha ko'p bo'lsa", "Oftob va odob", "Yaxshilarga o'xshasam", "Bu juda soz", "Eson va Omon", "Oltin oltin qo'l", "Ustozlar izidan", "Bolalarning baxti kulgan", "Bir yuz bir oltin qo'l" she'riy to'plamlari; "Chanoqvoy bilan Qovoqvoy", "Bahodirning botirligi", "Oq fil yo'qoldi", "Suqatoy-konfetvoy", "Ona bolam deydi" kabi ertaklari, pyesalari yuzaga keldi. Bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she'r va qo'shiqari, doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganki, bu faqat shoirning emas, balki o'zbek bolalar adabiyotining ham yutug'idir. Kimda-kim a'lo va yaxshi baholarga o'qish uchun astoydil intilsa, harakat qilsa, zahmat cheksa, shubhasiz, u maqsadiga erishadi, samarali bilim oladi. Agar bu intilish jismoniy mehnat bilan qo'shib olib borilsa, yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Po'lat Mo'min ta'lim va jismoniy mehnatga bag'ishlangan she'rlarida mehnat va mehnatsevar bolalar haqida fikr yuritadi. Ba'zan ishyoqmas, dangasa, yalqov o'quvchilarni tanqid qiladi, ularning kamchiliklarini ochib tashlaydi. Masalan, "Besh oldim, besh!" she'rine qahramoni uzoq vaqt past bahoga o'qib yurardi, fanlarni ko'ngildagidek o'zlashtira olmaganidan do'stlari, ota-onasi va o'qituvchilar oldida gunohkordek his qilardi o'zini. O'quvchi bunday qiyin ahvoldan faqat ko'proq dars tayyorlashi, kitob o'qishi bilan qutulib ketishi mumkinligiga ham ishonardi. Bir kuni u uyga berilgan topshiriqni qayta-qayta o'qib, dars va kitobdan boshqa hech narsani o'ylamaslikka harakat qiladi. Natijada, ertasi kuni "besh" baho oladi. Shu-shu bola kitobni sevib qoladi. Qunt qilish, berilgan topshiriq ustida ko'p mehnat qilish lozimligini tushunib yetadi. O'zidagi bunday ijobiy o'zgarishdan xursand bo'ladi. Boladagi bu quvonch va hayajonni shoir yosh kitobxon ruhiyatiga mos ravishda chizib beradi:

Shunday qilib do'stlarim,  
Aytsam yurak so'zlarim,  
Yurishib qoldi ishim  
Ko'payib ketdi "besh»"im.

Bolalar shoirining “Tuganmas kon”, “O‘qituvchi baho qo‘yganda”, “Ko‘chalarni to‘ldirib”, “Sizga nima bo‘ldi, o‘g‘ilbolalar?”, “Yuqumli “2”lar”, “Bilsa bo‘lar ekan-ku!”, “Sentabrda kim sevinar?” kabi she‘rlarida ham a‘lo va yaxshi o‘qish uchun intilayotgan, harakat qilayotgan bolalar to‘g‘risida yozilganidir. Ba‘zan o‘quvchi-yoshlar orasida mug‘ambir bolalar ham topilib qoladi. Shoirning “Qo‘l ko‘tarib qo‘lga tushdi” degan she‘rida shunday bolalar kulgi qilinadi. Asar qahramoni aslida dangasa, ishyoqmas, qoloq o‘quvchi. U buni o‘qituvchisiga sezdirmaslik uchun har kuni dars paytida “Men aytaman, deb ko‘taradi qo‘l”. O‘qituvchi esa bolaning bunday mug‘ambirligini sezmaydi, u darsni yaxshi o‘zlashtiribdi, deb undan so‘ramaydi. Oxiri bir kuni “Mayli, ayta qol” deydi. Shunda haligi bola savolga javob bera olmay, o‘qituvchi va o‘quvchi do‘stlari oldida izza bo‘ladi:

Darvozasiga  
Urilganday gol,  
Qo‘lga tushgandi  
U ko‘tarib qo‘l.

Shoir she‘rlarida kichkintoylarning jismoniy mehnatga intilishlarini ham ochib berishga harakat qiladi. Uning “Yer chopildi – javob topildi” she‘rining yosh qahramoni uyga berilgan topshiriq – misollarni dastlab, ishlay olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi – yer chopadi; terlab-pishib, ko‘ngli yorishadi, fikri oydinlashadi. Nihoyat, uyga berilgan misollarni qiynalmay yechadi; yer chopilgach misolning javobi ham topiladi. Shoirning “Oftob chiqdi olamga” she‘ri u xalq og‘zaki ijodidagi yalinchoq janri stilizatsiyasi asosida yozilgan. She‘rda bolalarning harakati, urinishi, kattalar ishiga ko‘maklashishi zavqovar hikoya qilingan. Shu tariqa, shoir oftobning olam-olam quvonch, shodlik, mehnat, yashash, yasharish ramzi ekanligini kichkintoy do‘stlari qulog‘iga quyishga, buni bola obrazi orqali yanada yorqinroq, ta‘sirliroq aks ettirishga harakat qiladi:

Oftob chiqdi olamga,  
Chopib bordim dadamga.  
Dadam ko‘chat ekardi,  
Salom berdim dadamga.

Po‘Iat Mo‘minning “5” baho qo‘shig‘i”, Xursandmisiz? Xursandmiz”, “Uch baho – puch baho” singari qo‘shiqlari o‘qish, ilmi bo‘lish mavzuiga bag‘ishlangan. O‘z ustida ko‘p ishlash, kitob o‘qish, dars qoldirmaslik “a‘lo” o‘qishning mustahkam garovi ekanligini shoir “Uch baho – puch baho” qo‘shig‘ida ancha tanqid qilib o‘tadi. Onalarni, keksalarni hurmat qilish, e‘zozlash (“Achom-achom buvijon”, “Mehribonim, oyijon!”); o‘zaro hurmat, do‘stlikni ulug‘lash (“Bir jahon bolalarmiz”); har bir shodiyona, bayramlarni zo‘r tayyorgarlik bilan kutib olish, chevarlik kasbini bolalikdan bilib borish (“Ko‘ylagim”) mavzulariga bag‘ishlab shoir o‘nlab qo‘shiqlar yaratganki, bunday qo‘shiqlar hamon bolalar tilidan tushmay keladi.

P. Mo‘minning “O‘ktam avlod” qoshig‘i 5 hijoli misralardan tashkil topgan. Unda barkamol avlod siymosi chizib berilgan:

Sog‘lom, barkamol  
Avlod bo‘lsalar,

Ilm-u hunarda  
Kuchga to'lsalar.  
Vatanga ular  
Har doim kerak,  
Sheryurak, asl  
Farzandlar kerak.

Qo'shiqning mazmunida vatanparvarlik hissi ustuvor. Uning ritmik jarangdorligini yuzaga keltirgan "b", "l", "m", "k" "r" kabi tovushlar takrori – alliteratsiya ritmik ohang hosil qila olgan. Har misraning o'zi turoqlanib kelish bilan birga, mavzuning lirik ifodasi o'quvchiga ta'sirliroq aks etgan.

Bolalar bo'lsa,  
Topqir bo'lsalar.  
Chaqqon-u epchil,  
Chopqir bo'lsalar.  
Ko'zlari o'tkir  
Merganlar kerak  
Mardona ko'krak  
Kerganlar kerak.

Shoirning "Oftob ham yaxshi, odob ham yaxshi" she'rida ham "o", "u", "o" unlilari, "d", "t", "b", "z", "s", "f" undosh tovushlari alliteratsiyasini kuzatish mumkin. Ayniqsa, "odob-oftob", "lolalar-bolalar", "odam-olam" tarzida to'liq qofiyalangan jumlar she'rning ritmik, o'ynoqi ohangdorligi hamda yod olishga qulayligini belgilagan. Muhimi, bu she'rning mazmundorligiga putur yetkazmaydi. Po'lat Mo'min axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu masala ko'proq uning "Birovlar", "Bir odamning afsusi", "So'zi shunaqa – o'zi shunaqa", "Behzodni bilasizmi?", "Ulg'aydimi aqlingiz?", "Qo'ling oltin –yo'ling oltin", "Birinchi bo'l, birinchi" kabi she'r va qo'shiqlarida ochib beriladi. Po'lat Mo'min "Alla bilan Jalla", "Ziyrak fil va ziqna boqqol", "Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga", "Unutgan o'g'il", "Oltin nay", "Dono bola", "Bilganni qari–bilmaydi pari" singari ertak-dostonlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangani ko'rinib turadi. Po'lat Mo'min dostonchi-shoir sifatida ham juda qadrlidir. Uning "Oltin nokli bog", "Ko'cha–ko'pchilik uchun", "Eh, rosa shirin ekan", "Xolning jiyron velosipedi", "Ko'ngil istar yaxshilik" degan poemalari allaqachon kichkintoylarning sevimli asarlariga aylanib ketgan. Shoirning dostonlarida bolalalar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik, o'qituvchi va jonajon maktabga muhabbat, birlik, baynalminallik kabi masalalar ilgari surilgan. Bolalar hayotida sodir bo'ladigan yutuq va kamchiliklar badiiy bo'yoqlarda, qiziqarli epizodlarda chizib berilgan.

Po'lat Mo'min o'zining ertak-pyesalari bilan ham yosh kitobxonlar o'rtasida shuhrat qozondi. Uning "Qovoqvoy bilan Chanoqvoy", "Suqatoy-konfetvoy", "Ona bolam deydi, bola onam deydi" nomli fantastik ertak-pyesalari uzoq vaqtlardan beri bolalarning quvonchiga quvonch qo'shib kelayotir. Qovoqvoyning dangasaligi, lapashangligi, erkalgigi, tantiqligini o'tkir kulgi ostiga oluvchi va Chanoqvoyning bilimdonligi, donoligi va mehribon do'stligini ulug'lovchi "Qovoqvoy bilan

Chanoqvoy” bolalarni yaxshilikka da’vat etadi. Asarning ta’im-tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Undagi ertaklarga xos shartli, allegorik obrazlar tomomila aniq va hayotiy zaminga asoslangan. Pyesaning bosh qahramonlaridan biri Qovoqvoydir. Uning timsolida shoir dangasalik va beg’amlik oqibatida darslarni o’zlashtira olmay, sinfda qoluvchi lapashang va po’k bolaning tadrijiy takomilini mujassamlashtirgan. Do’stlari ta’sirida Qovoqvoyning asta-sekin tuzala borishi, ilg’orlar qatoriga kirib, mehnatsevarlik va epcillik darajasiga ko’tarilishi bilan bog’liq voqealar, bu yo’ldagi kishilar o’rtasidagi munosabat, tortishuv va kurashlar pyesaning asosini tashkil etadi. P. Mo‘min ertak sujetini harakatga keltirishda bosh va yordamchi konfliktlardan foydalanadi. Qishloq xo’jalik ekinlarining ashaddiy dushmanlari chigirtka va kapalaklar o’z urug’larini paxtakorlarga tarqatmoqchi bo’ladilar-u, Tarvuz, Qovun, Chanoqvoy, Paxtaoy, G’ujumoy, Lavlagi hamda Sholg’om kabi kuchlar ta’qibidan qo’rqadilar. Qovoqvoyning b e fahm, landovur, beg’am hamda qo’rqoqligi zararkunandalarga ish beradi. Ular paxtazorlarga sochishni buyurib, tuxumlari solingan xaltachani Qovoqvoyga zo’rlab tutqazadilar. Hasharotlar undan o’z maqsadlari yo’lida foydalanish uchun harakat qilsa, ijobiy qahramonlar Qovoqvoyni tarbiyalamoqchi. Mana shu o’rtadagi kurash asar konfliktining boshqa yetakchi tomonini tashkil etadi. Mehnatga bo’yni yor bermay, darslarni o’zlashtira olmaganidan tashqari, Qovoqvoy tanbal, yalqov, fahm-farosati kam, bo’shang, ayni vaqtda u haddan ziyoda chiranchiq. Uning xarakteridagi bu sifatlar asardagi ijobiy kuchlar bilan bo’lgan ziddiyat va to’qnashuvlarda ochib tashlanadi, Qovoqvoy asta-sekin tuzalish tomon yo’naltiriladi. Bir-birini o’rtoqlarcha samimiy tanqid qilishga asoslangan ijobiy kuchlar o’rtasidagi shu ziddiyatlar dramatik konfliktning yordamchi chizig’ini yuzaga keltiradi. Po’lat Mo‘min Qovoqvoyning maqtanchoqligini fosh etib, uni izza qilishda to’g’ridan-to’g’ri zalga - tomoshabinlarning o’ziga murojaat etishi orqali asarning jonliligini ta’minlaydi. Qovoqvoyning “Mendan karra jadvalni so’rang, suv qilib ichib yubordim”,– degan mazmunda kerilib savol-javob o’ynashi zalni faollashtiradi, maqtanchoqning miyasi g’ovlab, o’sal bo’lishi qalblarga samimiy kulgi shavqini soladi. Chiranchiq Qovoqvoyning jismoniy zaif va po’kligi kamtarin Tarvuz bilan yuz bergan tortishuv va to’qnashuvlarda, boks musobaqalarida bilinib, sharmanda bo’ladi. Qovoqvoy Tarvuzdan yengilib zil ketsa, ikkinchi tomondan qadam-baqadam g’ayratga kira boradi, badan tarbiya mashqlari foydasini, mehnatsevarlik manfaat keltirishini angelaydi. Qovoqvoyning qayta tarbiyalanishida ayniqsa Chanoqvoy hal qiluvchi rol o’ynaydi. Boshda Chanoqvoyning odilona, samimiy, do’stona maslahatlariga mensimay qarab, quloq solmagan Qovoqvoy “Sehrgar” gaplarini jon dili bilan tinglaydi, uning ko’rsatmalariga amal qilib, karra jadvalni o’rgana boradi, g’ayratga kiradi, faollashadi; zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish, ularni tutishda faollik ko’rsatish darajasiga ko’tariladi. Biroq uning xarakteridagi zaif tomonlari tezda uzil-kesil yo’qolmaydi. U endi do’stlariga “Sehrgar”ni uchratganligi bilan maqtanadi. Muhimi shundaki, do’stlar uni qayta tarbiyalashga, o’z saflariga qaytarishga muvoffaq bo’ladilar.

Pyesaning she'riy kuchi, yumoristik va satirik fazilatlari ham Chanoqvoy, Qovoqvoy, Tarvuzvoy nutqida, ularning dialog va monologlarida yaxshi ko'rinadi.

Bu asardagi yaxshi fazilatlar dramaturgning boshqa bir ertak-pesasi «Suqatoy-konfetvoy»da ham ko'ringan. Mavzusi va g'oyaviy yo'nalishi, uslubi jihatidan bu ikki asar bir-biriga yaqin. Unda ham ilm, odob, halollik va mehnatsevarlik ulug'lanadi. Voqea Bilim xola, Janjal xola, Qurt o'rtasidagi kurash asosida rivojlanadi.

Po'lat Mo'minning butun e'tibori, ijodining mohiyati bolalarga hayot yo'lini ko'rsatib berishga intilishdan iborat. Shu pyesadagi Aqljon bilan Odojjon aytganidek:

Aql, Odob, Fan yo'li,  
Yo'llarning eng ma'quli,  
Kimki yursa uch yo'ldan,  
Ishi keladi o'ngdan,  
Yo'llar eltar maktabga,  
Yetkazadi maqsadga.

Anglashiladiki, Po'lat Mo'min ijodining yetakchi g'oyasi yosh avlod ma'naviy kamolotini yuksaltirish hamda axloqiy qadriyatlardan saboq berishdir.



### **Qudrat Hikmat she'rlarining badiiy-tasviriy xususiyatlari** (1925-1968)

Qudrat Hikmatning bolalar shoiri sifatidagi qirralari rang-barang. Uning badiiy olami nihoyatda boy. Shoirning so'z va topilmalari, o'z fikrini badiiy tamsillar yordamida obrazli ifodalash orqali betakror badiiy nutq yarata olish mahorati o'ziga xos uslubini belgilaydi.

Qudrat Hikmat Toshkentning eng qadimgi mahallalaridan biri bo'lgan Sebzorda 1925-yil kambag'al dehqon oilasida dunyoga kelgan. U onasidan yoshligidanoq yetim qoladi. O'rta maktabni bitirib chiqqach, adabiyotga, she'riyatga bo'lgan ixlosi ijodkorlar huzuriga boshlaydi. U o'quvchilik chog'lardayoq, Q.Muhammadiy rahbarligidagi ijodkorlar to'garagiga qatnagan. 1945-yildan Qudrat Hikmat she'rlari o'sha davr matbuotida nashr etila boshlagan.

1947-yilda esa Oybek tavsiyasi bilan xalq og'zaki ijodini puxta o'rganish maqsadida Samarqandga borib, Islom shoirning kotibi sifatida ish boshlaydi. 1950-yilda yosh shoirning ilk kitobi "Mening Vatanim" nomi bilan nashr etildi. Shundan so'ng Qudrat Hikmat nafaqat matbuotdagi chiqishlari, balki birin- ketin chop qilingan "Baxtli bolalar"(1951), "Obodlik"(1954), "Do'stlik"(1955), "Moskvaga sayohat", "Chirchiq", "Ilonshoh vauning amaldori Ari haqida ertak", "Uch o'rtoqning sovg'asi", "Soatjonning soati "(1964) kabi she'riy to'plamlari

orqali tanilib bordi. Quدرات Hikmatning mehnat faoliyati ham asosan, bolalar matbuoti va nashriyotlarida kechgan.

Quدرات Hikmat she'rlaridagi lirik qahramonlar obrazi, umuman bolalik olami ifodasi keng va mo'l. Ularning ko'pchiligi juda kichkina, hatto endi tili chiqqan-u shunda ham o'z mulohazaga ega. Shoirning "Ajoyib" she'ri shu jihatdan etiborli. She'rdagi lirik qahramonning kechinmalari kichkintoy qizaloqning fe'l xarakter xususiyatini eng yorqin detallarda izohlay olishi orqali teranlashadi. U qizning do'mbillab yurishini, chug'irlashini behuda ta'kidlamagan. Demak qizchasi endi 3-4 yoshga kirib, biyron gapirishga o'tayapti. Ammo hali na o'simliklar va na tabiat hodisalarini yaxshi tushunmaydi. Shu sababli osmondagi quyoshni ham o'zining qo'lidagi pufagi kabi tasavvur qiladi:

Talpinib der quyoshga  
Qarang ular katta shar  
Ustlariga o'rashib  
Qo'yishibdi tilla zar

Unga o'rtoq yuboray  
Qulog'iga gul taqib  
Bog'imizdan ketmasin  
Boshqa yoqqa uloqib

Qizcha o'z pufakiga gul taqib, yuqoriga uzatmoqchi. Quyosh boshqa yoqqa uloqib ketmasin tag'in degan xayol uni bezovtalantirgan. Shoir lirik qahramon tilidan qizchadagi ana shu holatni yorqin tasvirlaydi.

Quدرات Hikmatning ko'pgina she'rlarida bolalar tilidan hikoya qilish ustuvor. Shoir she'rlarini mutoala qilgan kattalar ham beixtiyor bolalar dunyosini sirli olamiga kirgandek his qiladi o'zini. "Yomg'ir va men" she'rida buni yaqqol ko'rish mumkin:

Asfalt yo'ldan kelardim  
Uyim ham yaqin  
Bo'ldi momoqaldiraq  
Chaqnadi chaqin

Yig'lab tuya bulutlar  
Qochdilar qirga  
Yo'l yarqirar oynadek  
Uchrab yomg'irga

Men o'zimga qoyilman  
Bosib ancha yo'l  
Botinkam yap-yangiday  
Bo'lmapti hech ho'l

Quدرات Hikmat bola tilida uning dilidagilarni shundaygina qofiyaga sola olgan. Bulutlarni tuyaga o'xshatilishi, ularning qirga qarab qochishi esa aynan kichkintoy tasavvurlariga xos. Muhimi, bolajon botinkasining yomg'irda yap-

yangiday bo‘lishidan behad xursand. Bu detal shoirning kichkintoylar istagi va sodda tasavvurini yaxshi bilganligidan dalolatdir.

Qudrat Hikmatning bolalar uchun yozilgan ko‘pgina she‘rlari kitobxonlarni o‘ylantiradi, ularni fikrlashga, hayot haqida mulohaza etishga da‘vat etadi. Jumladan “Nok nusxa lampochka”, “Qo‘lqop kiygan askarga, o‘xshaydi mix polvon ham”, “Tog‘dan kelar pildirab, ariqlarda shildirrab”, ”Serhosil, qaychi bargcha, xuddi bir qarich archa” kabi satrlari ko‘p jihatdan sodda topishmoqlarga o‘xshaydi.

Shoir she‘rlarining badiiy olami ulardagi rang-barang tasviriy ifodalar, obrazlar orqali ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Bahor” she‘rida o‘ziga xos topilmalar mavjud.

Uchib yurar mayin shamollar  
Yelpib- yelpib anhor yuzini  
Qirg‘oqlarda soyabon tollar  
Oyna suvda ko‘rar o‘zini

Tong yellari o‘ynoqlab sekin,  
Jiydazorga kirib yo‘qolar  
Maysa o‘tlar tebranib sekin  
Orqasidan kuzatib qolar.

Chumchuqlarning og‘zida cho‘p- xas,  
In qo‘yishar tutlar ustiga  
Ko‘kni quchgan teraklar to‘ymas  
Oro berar kulrang po‘stiga

She‘rni o‘qigan har qanday kitobxon uning estetik tasviri va jozibadorligini darrov ilg‘aydi. Bolalar she‘riyatida fasllar to‘g‘risida ko‘plab she‘rlar bitilgan. Ammo, shoir bahorni shunday tasvirleydi-ki, natijada she‘rning har bir misrasida yangi-yangi obrazlar jilolanadi. Bunda shoir tashxis san‘atidan mohirona foydalanib, ko‘klam obrazini qaytadan inkishof etadi. Natijada, bahor o‘ziga oro, zeb berib, husnidan sarxush bo‘lgan go‘zal qiz timsolida yaxlit umumlashma obrazga aylanadi; tonggi shabboda, tol, maysa, o‘t-o‘lanlar, chinor va teraklar bir-birlarini kuzatadilar, ilhomlanadilar, yoki o‘zlarini yelpiydilar. Bunday tasviriy usul o‘quvchilarning xayolot olamini yanada kengaytirib, mushohadalashga o‘rgatadi. Shu bilan birga, yosh avlodga tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va o‘xshashlikni anglashga yordamlashadi.

Qudrat Hikmat bolalar shoiri sifatida she‘r ohangdorligiga katta e‘tibor beradi. Uning “Eshak nega hangraydi?” she‘rida dolzarb ijtimoiy g‘oya ham aks etgan. Sher bir kuni o‘rmonga filni, tulki, kiyik, eshak va cho‘chqani chaqirib majlis qiladi. Ularga savol tashlaydi:

– Qaysi hayvon dunyoda  
Kuch-quvvatda ziyoda?

Boshqa hayvonlar nima deyishlarini bilmasdan, o‘ylanib qolishganda,”Eshak hangrab tepib yer: – Ho men, i-ho men der.” Sher uni chindan ma’qullab: “– mayli, sen zo‘r, ko‘p kuching!” deydi. Sher yana:

– Qaysi hayvon dunyoda  
Go‘zallikda ziyoda?!–

deb savol berganida, na bo‘rsiq, na jirafa, na kenguru biror marta gapga og‘iz ochmay, eshak yuqoridagi javobni qaytaradi. “Xo‘p, sen ko‘rkam”,– deb qutuladi sher. Nihoyat,

Bahsda go‘yo tong otar,  
Sher so‘ng marta so‘z qotar:  
– Dunyoda eng ahmoq kim?  
Majlis ahli qolar jim

Bu gal ham el burundan  
Eshak turib o‘rindan  
– I-ho men, i-ho men!– der  
– Ha, sen o‘zing!– deydi sher.

Demak, shoir ahmoqlik belgilarini eshak xatti-harakatlari misolida aks ettiradi.

Zukko o‘quvchi she’rdagi kinoyani tez payqaydi. Jamiyatda, insonlar orasida o‘zini dono sanaydigan nodonlar ko‘pligi va ularning kulgili ahvoli haqida xulosa chiqaradi. Kamtarinlik insonga kamol bag‘ishlashiga iqror bo‘ladi. Zotan, shoirning g‘oyaviy maqsadi ham shu. Quдрat Hikmat she’riyatning badiiy xususiyatlari serjilo, shoir fikrlarni rassom singari chizayotganga o‘xshaydi.

Quдрat Hikmat “Ilon shoh bilan uning amaldori Ari haqida ertak” nomli she’riy- adabiy ertakda esa folklor motivlaridan keng foydalangan. Buni shoir quyidagicha e’tirof etadi:

Yangi emas bu ertak,  
Tinglang aytib beraman,  
Uni xalqdan olgandim,  
Xalqqa qaytib beraman...

Darhaqiqat, shoir bu adabiy ertakni yozishda xalq rivoyatiga asoslanadi. Ammo uni ifodalashda, obrazlarni tasvirlashda, voqea sujetini bayon qilishda bolalarbop ohang, sodda tilni asos qilib oladi. Shoir ertak rivoyat boshlanmasida dastlab, ilon, bo‘ri, tulki kabi hayvonlar fe‘l-atvori, yashash tarzini ham bayon qiladi. Shuningdek, qovoq arining “ayg‘oqchiligi”ni uzun kun g‘un-g‘unlab turli mish-mishlarni shohga yetkazishi, hukmdor shoh Ilonning tulki kabi hiylakorlar ichida qanday siyosat yuritishni birma-bir ta’kidlab o‘tadi.

Xalq rivoyatiga ko‘ra, Ilon ariga eng shirin qonni aniqlashni buyuradi. Ari barcha jonzotlarning qonini birma-bir totib chiqqach, eng mazali qon insonning tanasida oqayotganini bilib oladi. Bu xushxabarni Ilonga yetkazish uchun shoshilib ketayotgan ariga duch kelgan qaldirg‘och bu ma’lumotni sevinch bilan qarshi oladi va tilidan o‘pish bahonasida arining tilini uzib oladi. Shundan buyon ari nuqul g‘ung‘illaydi, qaldirg‘och esa inson tepasida in qo‘yib, osoyishta yashaydi, deyilgan inonch mavjud.



Bu sujet Quadrat Hikmat she'riy -adabiy ertagida yangicha talqin, qo'shimcha voqealar va obrazlar bilan to'ldiriladi hamda she'riy ifodalanadi. Shoir bo'rining yovuzlik, tulkinging ayyorlik qirralarini xalq ertaklari an'anasiga tayanib teranroq ochib beradi..

Masalan, hukmdor shoh vaziri-tulkini yurtni kezib, yerning xayrixohligini, sir-asrorini bilib kelishga yuborganida, tulki o'z odati bo'yicha ish ko'radi. Avval qo'raga ko'z olaytiradi, g'ozni yemoqchi bo'lganida, it vovullab huradi. Shunda odamlar uni ushlab, kaltaklab uradilar. Arang qutulib qolgan tulki odamga nisbatdan kekini unutmaydi.

Yoki Ilonshoh do'lga qolib, betob bo'lganda tulki paytdan foydalanadi: qovoq ariga eng shirin qon topib kelish amrini buyuradi. Garchi adabiy ertak xalq rivoyatidagidek yakun topsa-da, arining qon ta'mini aniqlashdagi sarguzashtlari, ari va qaldirg'och, qaldirg'och va Ilon shoh muloqotlari yorqin voqealar ta'sirida jozibador hikoya qilingan. Natijada asar nihoyasidagi g'oya tarbiyaviy xarakter kasb etadi: Ilon xilvatda baqa ovlaydi. Yuzi shuvut tulki esa har joyda pisib yuradi. U qush, odam bor joyda qorasini ko'rsatmaydi. Ammo:

Katta-kichik qaldirg'och,  
Uchib keng yer kaftida  
Yashar ekan shod- inoq.  
Har xonadon shiftida,  
Hanuzgacha insonlar,  
Uni chorlab qoshiga,  
Sof dilligi tufayli,  
Ko'tarishar boshiga.

Binobarin, xalq rivoyatidagi aqida she'riy ertakda yanada ta'sirchan tarbiyaviy g'oyalarga boy tarzda aks etgan. She'riy ertakda fabula o'zgarishsiz saqlansa ham shoir g'oyaviy maqsadini allegoriya va antropomorfizm usullari vositasida ifodalaydi. Ya'ni, tulki, arining xatti-harakatlarida kinoya, istehzo yarq etib ko'zga tashlansa, hayvonlar va qushlarning o'zaro so'zlashuvida, ularning hukmdor, vazir, soqchi va ayg'oqchi kabi vazifalarni bajarishida insonga xos xususiyatlar mujassamdir. Bu esa o'z navbatida, Quadrat Hikmat asarida ham ma'rifiy- axloqiy maqsadlarni singdirish imkoniyatini bera olgan. Zotan, bu kabi she'riy-adabiy ertaklar nafaqat xalq rivoyatlari talqini nuqtayi nazaridan diqqatga sazovor, balki, ular orqali bolalarga jamiyatdagi turli toifali insonlarning xarakter xususiyatlari, munosabatlari mohiyatini real ifodalashi bilan ahamiyatlidir.

Quadrat Hikmat bundan tashqari, "Chovkar", "Toshbaqalar hujumi", "Qum ostida qovunlar" kabi she'riy ertaklarida ham xalq og'zaki ijodining u yoxud, bu qirradi zamonaviy masalalar omixtaligida talqin etiladi.

Zotan, Quadrat Hikmat she'rlaridagi voqeabandlik, obrazlilik qofiyalarning ixchamliligi, hatto, sodda tuzilishi, til xususiyatlari – barcha-barchasi shoir she'rlarining g'oyaviy-badiiy emotsionalligini oshirishga xizmat qiladi. Hamchunin, Quadrat Hikmat she'rlarini o'qib- ulg'aygan o'quvchi o'z ona tilimiz boyliklaridan voqif bo'lib, badiiy so'z qudratini teran his etadi, Vatan va yurt iftixori bilan yashaydi.



**Nosir Fozilov ijodida bolalar va o‘smirlar  
ruhiyati talqini**  
(1929-yilda tug‘ilgan )

Nosir Fozilov 1929-yili Qozog‘istonning Chimkent viloyati Turkiston tumanining Koriz qishlog‘ida tavallud topadi. Uning ota va onalari dehqonchilik bilan shug‘ullangan. “Ijod deb atalmish yo‘lning boshi,— deb yozgan edi N.Fozilov,— tom ma’noda, tug‘ilish, bolalik dunyosi, bu dunyoning ulg‘ayib, katta yo‘llar yaratishi bilan chambarchas bog‘liq”. Bu o‘rinda yodga albatta, ota-ona, oila, muhit, tarbiya keladi, zero ular har bir farzand uchun hayot maktabi.

Bo‘lajak yozuvchining otasi Fozil, onasi Jahonbibi – ismi-jismiga monand xulq-atvorli, mehnatsevar insonlar bo‘lishgani adibning o‘zi tomonidan e’tirof etiladi. Nosir Fozilovning bolaligi 1930-1933-yillardagi ocharchilik va urush davriga to‘g‘ri kelgan. Adibning xotirlashicha, ularning qishlog‘ini ikkiga bo‘lib yuborishadi. Ular ko‘chib o‘tgan Yoyilma degan qishloqdagi 70-80 xonadon chorva bilan shug‘ullangan. U paytlarda odamlar o‘qish-yozishga havas qo‘yishdan ham ko‘proq qorin qayg‘usi bilan qattiq bog‘langan edi. Qishloqda faqat bitta – Qahhor degan odamda patefon bo‘lib, salgina bo‘lsa-da, dillardan g‘amlarni yuvib, kishini uzoqlarga olib keta olardi. Biroq kitobxonlik kuchli bo‘lgan. Odamlar o‘qish-yozishni deyarli bilmasalar-da, Nosir Fozilovga o‘xshash 7-8 yoshdan maktabga borib, sharillatib o‘qishni qoyillatadigan bolalarga kechalari xalq dostonlari – “Go‘ro‘g‘li”dan “Hasanxon”, “Ravshanxon”, “Avazxon” dostonlarini takror va takror o‘qitishgan, sel bo‘lib tinglashlardan charchashmagan. “Keyinchalik tushunsam,—mushohada yuritadi adib,— ular shu dostonlarda ushalmagan armonlarini ko‘rishar, ular bilan birga tug‘ilib, birga yashab, g‘am-hasratlarini unutishar ekan. Adabiyotning kuchini qarang-a”...

Bo‘lg‘usi adib ham o‘qib, ham mehnat qilgan. U o‘z tengdoshlaridan ancha kech, ya’ni 1949-yilda o‘rta maktabni tugatgan. So‘ng Toshkentga kelib, Universitetga o‘qishga kiradi va uni 1954-yilda tugatadi. Shundan keyin “Gulxan”, “Sharq yulduzi” kabi jurnallarda, “Yosh gvardiya”, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotlarida turli lavozimlarda ishlaydi.

Adibning birinchi hikoyasi “Lenin uchquni” (hozirgi “Tong yulduzi”) gazetasida 1953- yilda bosilgan bo‘lsa, uning birinchi kitobi 1959- yilda “Irmoq” nomi bilan chop qilinadi. So‘ngra, “Oqim”(1962), “Robinzonlar”(1964), “Qush qanoti bilan”(1965), “Qorxat”(1968), “Ko‘klam qiyoslari”(1970), “Diydor”(1979), “Tanlangan asarlar” 2 jildlik (1983-84), “Shum bolaning nabiralari”(1985),

“Ustozlar davrasida”(1988), “Bolaligim-poshsholigim”(1989), “Topdim-u yo‘qotmadim” (2010) kabi kitoblari nashrdan chiqadi.

1985-yilda unga “Shum bolaning nabiralari” kitobi uchun O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining G‘.G‘ulom nomidagi, 1986-yilda esa qozoq adabiyotidan qilgan tarjimalari uchun Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasining Boyimbet Maylin nomidagi, “Ustozlar davrasida” asari uchun esa Hamza nomidagi Davlat mukofoti berildi. 1990-yilda esa u “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” unvoniga sazovor bo‘ldi. Shuningdek, Qozog‘iston Prezidentining “Tinchlik va ma‘naviy hamjihatlik uchun” xalqaro mukofoti (1994), Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasining “Olosh” nomli xalqaro Mukofoti (2000), G‘alabaning 50 yilligi munosabati bilan medal (1995), “El-yurt hurmati” ordenlari (1999) sohibidir.

Yozuvchi qissalari mavzusiga ko‘ra o‘tmish va zamonaviy voqealarni ifoda etishi bilan ajralib turadi. O‘tmish deganimiz, o‘tgan asrning birinchi yarmi. Bunda milliy tariximizdagi dolg‘ali yillarda xalq hayoti, bolalar va o‘smirlar olami o‘quvchi ko‘z o‘ngida yorqin gavdalanadi. N.Fozilovning o‘ziga xos badiiy mahorati shundaki, u nafaqat o‘zbek, balki qardosh xalqlar turmush tarzi, tilini ham yaxshi biladi va ularni tabiiy aks ettira oladi. Shu ma‘noda, uning qissalarida turli davr va turli millat o‘smirlarining obrazlari gavdalanadi. Binobarin, “Shum bolaning nabiralari” qissasi oddiy voqeadan boshlangan. Bolalar maktabdagi “Qizil iztoparlar” to‘garagiga a‘zo bo‘lishgan va bu a‘zolar ro‘yxati “Gulxan” jurnaliga yuborilgach, muharririyat bolalarga maxsus xat yo‘llab, urush veteranlari jasoratini o‘rganish bilan bog‘liq topshiriq beradi. Anvar Furqat nomiga kelgan shunday xatni pochta qutisidan o‘g‘irlayotgan payt o‘rtog‘ining o‘zi kelib qoladi va xatni na o‘zi o‘qiy oladi, na do‘stiga ko‘rsata oladi. Ammo Furqat maktabdagi yana bir shunday to‘garak a‘zosi G‘ayrat nomiga kelgan xatdan xabardorligi uchun bu topshiriqni bajarish haqida Anvarga maslahat soladi.

Yozuvchi Anvar obrazini tasvirlashda G‘afur G‘ulomning shum bolasiga taqlidan yondashgani sezilib turadi. Faqat Anvar taraqqiy etgan davr bolasi ekanligidan, uning shumliklari ham zamonaviyroq. Masalan, u maktabda fizika to‘garagiga ham a‘zo. Sababi, temir-tersak uning jonu dili. Radiomi, eski televizormi, zvonogu dazmolmi-ey, xullas qo‘llariga nima tushib qolguday bo‘lsa, bilsa-bilmasa kavlashgani-kavlashgan. Shuning uchun hatto choraklik baholari ham pasayib ketadi... Uyda ham shu sababli turli hangomalarni qo‘zg‘ab yuradi. Anvar maktabdan kelganida singlisi Mahfuza chiqib qoladi.

– Endi o‘lasan!

– Nega o‘lar ekanman?!– deydi Anvar hangu-mang bo‘lib.

– Radioni buzibsanku...

– Buzganim yo‘q. Proigrevatelni olib, maktabdagi radioga qo‘ydik. Anu maktabda muzika to‘garagidagi radio ishlamas ekan... Shunga qizlar tansa tusholmay... Shu orada oyisi chiqib qolgach, bu chorakda “ikki” tushmaganligidan maqtanmoqchi bo‘lgan Anvarning sumkasidan dazmol ham chiqib qolib, tag‘in bahona izlashga tushadi. Oyisining avzoyi buzuqligini sezgach esa, devordan oshib, qochib qoladi. Anvar oyisidan ham ko‘ra singlisi Mahfuzadan jahli chiqqan

edi. Go‘yo o‘sha hammasini oyisiga chaqib bergan. Endi ko‘chada sovqotib, qayerga borishni bilmay asabiylashayotib, undan qasd olish payiga tushib, navbatdagi hangomani boshlaydi. Barcha qo‘ni-qo‘shnilarni bola-chaqasi-yu, butun oilasi bilan mehmonga, onasining “Tug‘ilgan kuni”ga aytib chiqadi. Maqsadi esa mehmon ko‘p kelsa, qozon-tovoq yuvishni yomon ko‘radigan singlisiga ish ko‘paytirib, o‘ch olmoqchi... Rostdan ham kechqurun hovli mehmonga to‘ladi. Mahfuzaga ish ko‘payib ketadi. Anvarning shumtakaligi kattalar tomonidan kulgi qilinib, uning bobosiga o‘xshashligi, Nazarbekdagi voqealar, kimlar ishtirok etgani tilga olinadi va 20-yillardagi voqealar eslanadi...

Nosir Fozilovning qissadan qissaga ko‘chib yuruvchi tasvirlar, tashbehlar, obrazlar (Karim ko‘zoynak, Izatulla, Jalil, Abdunabi, Po‘lat amaki, A‘zam...), hatto sujetlar(chalov o‘rish, “eshak karvon” bilan g‘alla tashish, o‘smir yigitlar o‘rtasidagi o‘zaro nizolar) silsilasi mavjud... Bu uning o‘ziga qadrdon dalalar, ang‘iz va jing‘il kabi buta-yu to‘qayzorlar, bolaligidanoq ko‘z o‘ngiga jo bo‘lgan manzaralar (masalan, “qishlog‘imiz oqshomini bir ko‘rsangiz: odamlar daladan qaytib kelayotgan, poda orqasida bulutdek chang qoldirib, qishloq sari siljiyotgan, kunbo‘yi ang‘iz ustida donlab, g‘ujg‘on o‘ynayotgan qora zag‘chalar qishloq osmonini ajib bir kuyga to‘ldirib, Sir bo‘yiga-qo‘noq joyiga shoshilayotgan...” Yoki, “bolalarning qiy-chuvi-yu, sigirlarning mo‘rashi, itlarning vovullashi, ...sigirlarning tuyoqlaridan ko‘tarilgan oppoq changning kattakon juldur ko‘rpaga o‘xshab havoda muallaq qalqib yurishi” kabi), odamlar, voqealar va h.k. Uning qahramonlari o‘zbek adabiyotida deyarli uchramaydi. Aytaylik, Iriskeldi, Supabek otalarning podachilik sir-u sinoatlari, ularga yordam beradigan Qalmaqon, Karim, Kamola kabi o‘smir yigit-qizlarning balog‘at pallasiga yetish tuyg‘ulari... Bolalarning uyma- uy yurib osh-u halol yig‘ishlari, chalov o‘rishi-yu, xirmonda ishlab, eshak, ot va tuyada shahar bilan qishloq o‘rtasida sut-u qatiq sotib, oilani tebratishga yordam berishi, “eshak karvon”larda g‘alla tashishi, dala- dashtni kezib, to‘qayzorlar kechib ov qilishi, daryo -yu dengizda baliq tutib, o‘z mehnati lazzatini anglab yetishi kabilar o‘zbek kitobxonlari uchun ohori to‘kilmagan hikoyalardir. Qolaversa, bu qissalarda qozoq, o‘zbek, tatar, qirg‘iz, ukrain, pol‘yak kabi turli millat vakillarining umumlashma obrazi mavjud. Qissa qahramonlari qaysi millatga mansub bo‘lishidan qat‘iy nazar o‘zaro bir yoqadan bosh chiqarib, ishlaydilar, qahramonlik ko‘rsatadilar, yoxud o‘zaro birodarlik aloqalarini yo‘lga qo‘yadilar. Va bunday asarlar davr talabiga ko‘ra sun‘iy ifoda emas, tabiiy manzara kasb etgani bilan e‘tiborga loyiq. N.Fozilov talqin etgan obrazlar chindan ham o‘z asosiga ega. Turkistonlik, qoraqalpog‘istonlik o‘zbek-u qozoqlar ana shunday qon-qarindosh bo‘lib yashayotgani ayni haqiqat. Demak, bu tabiiy jarayonni o‘smirlar kitobxonligida N.Fozilov maromiga yetkazib tasvirlayotgani e‘tirofga joiz. Ayni paytda qissalarda bu yoshlarning o‘zboshimchaliklar qilib, ba‘zan tashvish ham tug‘dirishi yoki, o‘zlarini katta bo‘lib qolgandek mustaqil ish tutishga intilishlari bolalar adabiyotining o‘ziga xosligini ochishga xizmat qiladi...

O‘zbek bolalar adabiyoti o‘zining hozirgi bosqichida jamiyatimizda kechayotgan dolzarb masalalarni ma‘rifiy-tarbiyaviy va boshqa rang-barang ijodiy uslublarda aks ettirmoqda. Xususan, bu davr bolalar qissachiligi ijodkorlarning

yangicha shakl va uslublarga murojaati hisobidan boyidi. O'tgan asr bolalar qissachiligidagi tarixiy, avtobiografik, sarguzasht, detektiv, fantastik yo'nalishlar uning alohida tamoyillarini belgilagan bo'lsa, yangi asr bo'sag'asida inson ruhiyati, aniqrog'i bolalar va o'smirlarning ichki olami teran tadqiq etilgan psixologik asarlar ijobiy mazmun kasb etayotir. Negaki, milliy bolalar adabiyoti qariyb bir asr davomida o'z an'analaridan uzib qo'yilgan edi. Unda xalq pedagogikasidagi axloqiy qarashlar, ta'lim-tarbiya usullari, urf-odatlar va mehr-oqibat ko'rinishlarining hayotiy ifodasi badiiy tadqiq etilmadi. Mustaqillik davri bolalar adabiyotida ijtimoiy dolzarb masalalarga bag'ishlangan qissa va badihalar shu ma'noda samara berayotir.

Nosir Fozilov ijodiga xos bosh fazilat uning faqat o'zi yaxshi bilgan, chuqur his etgan vapuxta o'rgangan mavzu, voqea va odamlar to'g'risida qalam tebratishidir. Uning "Oqim", "Qush qanoti bilan" va "Qorxat" qissalari kitobxonlarda alohida taassurot qoldiradi. Yozuvchining "Qush qanoti bilan..." qissasi etuk adabiyotshunos To'xtasin Jalolovga bag'ishlangan bo'lib, qatag'on qurbonlari, shaxsga sig'inish davri oqibatlarini badiiy adabiyotda yoritilgan dastlabki asar sifatida dolzarb. Muhimi, qissada tuhmatga uchrab nohaq qamalgan Akmal aka qismati o'smir yigit Sarvar tilidan hikoya qilinadi. Ya'ni davr ziddiyatlari, qamoqdan bo'shab surgun muddatini o'tagani Turkiston qishloqlaridan biriga yuborilgan Akmal akaga qishloq ahli, avvalo bolalar qilgan g'amxo'rlik, do'stliklarining tarannum etilishi mustabid sho'ro istibdodi avj olgan 60-yillar adabiyotida o'ziga xos jasorat edi.

Qissadagi yana bir jihat kitobxonning alohida diqqatini tortadi. Bu aynan bolalar va o'smirlar orasidagina uchrab turadigan yashirin til ifodasi. Akbar, A'zam, Sarvarlar dalada mehnat qilisharkan, ularga tushlikda qatiqolib keladigan Hasan ko'zoynakning aldayotganini sezib qolishadi. Ya'ni qatigda maza-matrasa yo'q, suv qo'shib, suyultirib kelayotgani bilingach, uni nima qilish haqida bahslashayotgan paytda, ularga boshliq etib tayinlangan akmal aka kelib qoladi. Bolalar nima qilishni bilmay turganda, Akbar gapida davom etaveradi:

- Lamaymizmipoy?
- Dayqan libqi?– deydi A'zam.
- Tato'rt labo libbo' laymizpoy. Rimizbi, maningfer nidayo, rimizbi tao'r dayo'l. Mixo'p?
- Tibo'p.
- Chonqa mizboshlay.
- Rbi atdanso ngso'.

Akmal aka bu qanaqa til degandek bolalarga qaraydi. Ular tushuntirishadi. Maktabda maynabozchilik uchun shunaqa tilda gaplashishlarini, bir so'zni aytmoqchi bo'lishsa, u so'zning **oxirgi bo'g'inini oldiga olib** gapiraverishlari, qizlarniki yanada boshqacharoq, masalan "Uyga ketasanmi?"– demoqchi bo'lsa: "Ultishga keltishasanmi?" tarzida ekanini tushuntirishadi.

Yozuvchining tasvir uslubi, leksik qatlami bolalar uchun katta xazina. Bunday ifodalar asarning bir necha o'rnida takrorlanib keladi. Masalan, "Saraton" qissasi shunday tasvir bilan boshlanadi: "Arpa boshloqlari sarg'ayib, bug'doy

boshloqlariga rang kira boshlagan, qovun palaklari tanob yozib, tuynaklar etik boshiday bo‘lib qolgan palla. Dehqonlarning tili bilan aytganda: yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uziladigan payt...”

Shundan keyin asar qahramonlari Kamola va To‘ra, ularning podachilik kasblari haqida so‘z boradi. Podachilik o‘zbek-u qozoq, turkman-u tojik, qirg‘iz xalqlarining qadimiy va azaliy kasblaridan biri hisoblanadi. Vatan urushi yillarida ham bu asosiy tirikchilik hamda mehr oqibat manbai sanalgan. Shu ma‘noda, uning o‘ziga xos mashaqqatlari, o‘smirlarning bu kasbga munosabati badiiy talqin etilgan. Jumladan, quyidagi satrlarda baayni yaylov manzarasi jonlanadi: “Poda har kuni oftob tikkaga kelganida belariq bo‘yiga – suvotga (mol sug‘oriladigan joy) olib kelinadi. Hozir ham Kamola bilan To‘ra poda ketida changga botib kelishyapti. Kun issiq, dim bo‘lishiga qaramay, ular ustilariga qalin fufayka, paxtali shim, kirza etik kiyib olishgan, boshlariga quloch bog‘ichlari qaytarilgan quloqchin. Egnilariga kiyimlarining rangi qanaqaligini bilish u yoqda tursin, chang-to‘zon orasida ularning qaysi biri Kamola-yu, qaysi biri To‘raligini ham ajratish qiyin edi... G‘iyos aka podaning oldida, eshakka minib olgan, ustidapaxtalik sirma chopon, boshida ko‘hna tulki tumoq... Suvot podachilarning, qolaversa mollarning bir oz orom oladigan joyi.... ariq bo‘yida xuddi kampirning tishidek siyrak o‘n-o‘n besh tup tol bor, soya-salqin... tagidan g‘ir-g‘ir shabada esib turadi”.

Ha, bu tasvir, manzaralar XXI asr bolasiga g‘ayritabiiy tuyulishi mumkin. Ammo qiyinchilik va urush yillarida bu oddiy hol ekanligiga keksa avlodlar, jumladan, yozuvchining o‘zi ham jonli guvoh. O‘smirlarning ana shu hayotni hech ranjimasdan qabul qilishi, ota-onalari qatori turmushning og‘ir mashaqqatini elkalariga olishi asarda yaqqol aks etgan. Yozuvchi bu hayot qiyinchiliklariga bo‘yin egmaydigan bir tuyg‘u–o‘smirlarning balog‘atga etishi va ajib his tuyg‘ularga o‘zlari sezmagan holda bandi bo‘lish onlarini ta’sirchan bo‘yoqlarda aks ettiradi.

Yozuvchi asarlarining yosh kitobxonlarga maqbul bo‘ladigan qirralari bisyor. Uning ko‘pgina asarlari qahramon tilidan hikoya qilinadi. Bunday qissa va hikoyalar markazida ham ko‘proq o‘smirlar turadi. Aytaylik, “Qorxat” qissasining sujeti real voqelik asosiga qurilganidan tashqari, bolalarni chidamli, topqir, bilimli va irodali bo‘lishiga da’vat etgan. Yoki, yozuvchi “Tashvish” qissasida Safaralining urush davri bilan bog‘liq xatiga nazar tashlaydi. Shunda ham adabiyotimizda nisbatan kamroq qalamga olinayotgan, ammo nihoyatda muhim bo‘lgan o‘smirlarning katta dunyo sari qadam qo‘yishi, undan o‘z o‘rnini qidirishi, qalblarda birinchi bor chechak otgan musaffo va shirin muhabbat romantikasini ilhom bilan tasvirlaydi. Huri, Muso, To‘ra, Kamola muhabbatlari betakror jozibali tasviri, andisha va hayoga to‘la samimiy, pok ilk tuyg‘u sifatida kishini hayratga soladi. Bularning barchasida o‘sha o‘smirlik ziynati zohir.

Shunday adabiy janrlar bo‘ladiki, ular o‘quvchida nafaqat badiiy-estetik zavq uyg‘otadi, balki ilmiy-nazariy bilimlarini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bunday asarlar kitobxon ma’naviy-axloqiy olami yangi o‘zanlarining ochilishiga turtki bo‘ladi. Adabiy xotira-yodnoma asarlar shu jihatdan tadqiqotchilar va keng

kitobxonlar ommasida alohida qiziqish uygʻotadi. Umuman, xotira orombaxsh - tuygʻu. U har bir insonga deyarli hamroh, qalbiga sirdosh, keksayganida esa yagona dilkash suhbatdosh. Eng shirin kechinmalar, koʻngil ardogʻidagi doʻstlar faqat xotiradagina tiniq aks etadi. Yillar oʻtib, qadrdonlar davrasi, suhbatu-yu siyrati bu olamda omonatligi anglanganda, xotiralar bilan taskin topadi inson qalbi. Xotira yozish ham shu maʼnoda sohir qalb sogʻinchiga xos bir ilinj.

Adibning 1988- yilda nashr etilgan “Ustozlar davrasida” kitobi oʻz davrida yuqori baholangan edi. Oradan yigirma yildan ziyodroq vaqt oʻtib, bu mavzuga tagʻin qoʻl urishi bejiz emas, albatta. Yozuvchi endi bu kitobini ustozu Said Ahmadning “Topganlarim va yoʻqotganlarim” kitobiga javob shaklida– “Topdimu yoʻqotmadim” deb ataydi. Shu nomdayoq, asarning bosh muddaosi oydinlashadi. Kitobda qirqaqa yaqin adabiyot salafining yorqin siymosi muallif xotirasi orqali qayta jonlantirilgan.

N.Fozilov oʻz adabiy xotiralarida ustoz sanʼatkorlar hayotining nodir sahifalarini yosh avlodga “tiriltirib” koʻrsatib beradi. Chindan ham muallifning umr boʻyi topganlari–doʻstu birodarlari eng qimmatli gavharga teng. Ularning yodi, olgan saboqlari yoʻqolmas inju. Buni keng kitobxonlar ommasi bilan baham koʻrmaslik esa bila turib ularni shunday ganjinadan mahrum etishday bir gap.

Shunga koʻra, bu kitob bugungi avlodlar uchun ulkan maʼnaviy -hayotiy tarbiya maktabini oʻtay olishi bilan diqqatga sazovor.

Darhaqiqat, Nosir Fozilovning bolaligidan shu kungacha tanigan-bilgan ustozlari, oʻzbeku qozoq ijodkorlar, umuman, yaxshi insonlar yodi, ruhi bilan yashayotganligi ibratli hayotining mazmunini belgilaydi. Binobarin, adib asarlari har jihatdan bugungi avlodlar uchun ulkan maʼnaviy-hayotiy tarbiya maktabini oʻtay olishi bilan eʼtiborga loyiq.

Bolalar adabiyoti,–deb yozgan edi N.Fozilov,–nozik adabiyot. Bolalar adabiyoti biz bilgan kattalar adabiyotining boshi...Bolalar yozuvchilari oʻz asarlari bilan katta adabiyotga boshlovchi dargʻalar. Bu adabiyot– hurmattalab adabiyot, eʼzoztalab adabiyot... Bolaning koʻngli ham shunday. Uni sindirib boʻlmaydi. Unga hamisha eʼtibor darkor. Shundagina uning koʻngli toʻlib oʻsadi. U-mehrtalab. Shundagina u muhabbatingiz mevasiga aylanadi, izingizni bosadi.”



**Farhod Musajon**  
(1933-2013)

Farhod Musajonov – koʻp qirrali ijodkor. U 1933-yilning 19-dekabrida Toshkentda tavallud topgan, nosir, dramaturg va kinosenaristdir. 1956-yilga kelib, Toshkent Davlat universitetining Sharq fakultetini muvaffaqiyatli tugatgan.

Respublika radiosi, televideniyesi hamda “O‘zbekiston madaniyati” gazetasi, “G‘uncha” va “Sharq yulduzi” jurnallarida ishlagan. “O‘zbekfilm” (1967) studiyasida xizmat qilgan. 1968-1970- yillarda Moskvada senaristlar Oliy kursida o‘qigan. 1976-yillari “O‘zbekfilm”da turli lavozimlarda, “O‘zbekkino” aksionerlik kompaniyasida xizmat qilgan.

F. Musajonov adabiy ijodining boshlanishi 50-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. O‘z ijodini bolalarga she‘r va hikoyalar yozishdan boshlaydi. “Daradagi qishloqda” deb nomlangan birinchi hikoyasi 1956-yilda chop qilingan. Uning “Oftobni quvalab”, “Bo‘sh kelma, Aliqulov!”, “Bir qultum buloq suvi” kabi qissalari va oltmishga yaqin hikoyalari dunyo yuzini ko‘rgan.

Hozirgacha uning 30 ga yaqin to‘plami nashr etilgan. Ayni chog‘da u kattalar uchun ham “Bu ko‘zlarga ishonsa bo‘ladi”, “Zo‘raki kashanda” kabi asarlarni yaratgan. Bundan tashqari, F.Musajonov dramaturg sifatida “Oq kabutar”, “Najot istab”, Hamza teatrida qo‘yilgan “Olifta”, “Xizmatingga hozirman”, “Talvasa” kabi dramalarni yozgan.

Shuningdek, “Jazirama oftob ostidagi uy”, “Birovning boshi”, “Minoralar ostidagi sirk”, “Ko‘zlarim yo‘lingda”, “Huvaydo”, “Askiya”, “Qiziqchi”, “So‘nmas ziyo” kabi senariylar muallifi hamdir. Uning “Dushanba, nonushtadan so‘ng” (1974), “Bog‘ ko‘chamni qo‘msayman” (1977), “Qilich va shamshir”, “Ko‘rgulik”, “Qilich va soz” (2000), “Lafz” (2003) kabi qissalari o‘z o‘quvchisiga ega.

Iste‘dodli bolalar adibi, dramaturg va ssenarist F.Musajonov “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan (2000). 2013- yil 28- may kuni Toshkent shahrida vafot etgan.

Farhod Musajonov taniqli bolalar adibi sifatida kichkintoylar uchun qator hikoyalar yozgan. Uning “Sovg‘a”, “Yaxshilik”, “Saxiy bog‘bon”, “Yomg‘ir” hikoyalari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘ota oladi. Aytaylik, “Yaxshilik” hikoyasi qahramoni Erkin ismli maqtanchoq bola. U ko‘chada o‘ynab yurib, qo‘shnilari Pirmat boboning tuguncha ko‘tarib kelayotganini ko‘rib qoladi va hovliqib o‘rtog‘iga maqtanadi:

– Hozir-chi, men borib Pirmat bobomlarga yordam beraman. Qo‘llaridagi tugunchani ko‘tarib kelaman. Meni Pirmat bobo juda yaxshi ko‘radilar. “Aqlli bola ekansan, haqiqiy o‘quvchi shunday bo‘lishi kerak”,–deb maqtaydilar. Ishonmasang, men bilan yurgin, o‘zing ko‘rasan.

Bolalarga yaqinlashib qolgan Pirmat bobo Erkinning so‘zlarini eshitib qoladi. Shu sababli uyiga yetganidan keyin Pirmat bobo Erkinning qo‘lidan tugunchani oladi, lekin har galgidek, “Barakalla, rahmat bolam, aqlli ekansan”,–deb maqtamaydi. Faqat “Rahmat” deydi va engashib Erkinning qulog‘iga allanarsalar deb pichirlaydi.

Ha, Erkindagi maqtanchoqlik uning yaxshiligini yuvib yuborgandi. Pirmat bobo unga ana shuni tushuntirgan edi. Bu xususiyat Erkin tengi ko‘pchilik bolalarga xos, albatta. Bunday o‘quvchilar biror kishiga yordamlari tegsa, maqtanish uchungina qiladilar, go‘yo. Ammo buni ta‘kidlash, o‘z yaxshiligini



ko‘z-ko‘z qilish odobdan emasligi hikoyada jonli tasvirlanganki, hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati ham shunda.

F.Musajonovning “Yomg‘ir” hikoyasida ham asosan kichik yoshdagi bolalar orasida uchrab turadigan mug‘ambirlik, yalqovlik alomatlarining paydo bo‘lishi Erkinjon obrazi orqali ko‘rsatib o‘tilgan. Yomg‘irli kunda issiqqina uyda mazza qilib derazadan ko‘chani tomosha qilib o‘tirgisi kelib, o‘zini kasalga solgan yosh qahramon o‘rnidan turgisi kelmaydi. Unga onasining “Ha, nima bo‘ldi senga, kasal bo‘lib qolmadingmi?” degan gapi xush yoqib, “Boshim og‘riyapti” deydi. Onasi ishga ketgach, u chaqirgan doktor keladi va Erkinjonga “kasaling og‘ir, oldini olmasang bo‘lmaydi, ishing chatoq,”—deb haqiqiy tashxisni qo‘yib ketadi. Shu tariqa, Erkinjondagi yolg‘onchilik sababi yalqovlik ekani, qolaversa onasini mug‘ambirlik bilan aldagani har qanday kasaldan ham xavfli ekani anglashiladi. Shubhasiz, bu hikoya tahlili jarayonida o‘quvchilar o‘zlarida mavjud shu kabi nuqsonlarni tuzatishga, ya‘ni o‘z “kasal”larini davolashga harakat qiladilar. Erkinjondek izza bo‘lmaslik uchun yalqovlikdan qochishlari tayin. Hikoyada doktor Erkinjonga: “Shu dorini ichsang, tuzalib ketasan”,—deydi. Bu dorining nima ekanligini zukko o‘quvchining o‘zi tushunib olishi lozim. Ya‘ni, har ertalab barvaqt turish, badantarbiya bilan shug‘ullanish, jismoniy sog‘lomlik har qanday o‘quvchini yalqovlikdan qutqaradi. Shunda yolg‘on gapirishga ham o‘rin qolmaydi.

Yozuvchining “Saxiy bog‘bon” hikoyasida esa mehnatning haqiqiy maqtovi hissini tuygan kichkintoy obrazi tasvirlangan. Odiljon otasi bilan birgalikda hovlilariga gul ko‘chatini o‘tqazishi, uni parvarishlab, g‘uncha tukkanidagi cheksiz quvonchi, nihoyat, g‘uncha uchi yorilib, qip-qizil piyoladay atirgulga aylanganidagi shodligi jonli aks etgan. Shunday kunlarda o‘zi tengi qo‘shnisi Shohista uni tug‘ilgan kuniga taklif qiladi. Oila a‘zolari Odiljonning nima olib chiqishini maslahat qilishadi. Shunda dadasi:

– Atirgulingni olib chiqaqol,—deydi.

– Ho...— deydi Odiljon,— hali men Shohista uchun shuncha ovora bo‘lib gulni o‘stirgan ekanman-da. Kerak emas,—deydi. Shunda dadasi va buvisi ibratomuz fikrlar aytadi. Uning yolg‘iz o‘zi uchun ish qilishidan hatto xafa bo‘lishadi. Shohistaning gulni juda yaxshi ko‘rishini ta‘kidlashadi. Odiljon shundagina rozi bo‘lib, qip-qizil atirgulini Shohistaga sovg‘a qiladi. Natijada hammadan shirin maqtov, yaxshi bog‘bon shunday saxiy bo‘ladi, degan gaplarni eshitib, xursand bo‘ladi.

Farhod Musajonov hikoyalarida shu tariqa, kichkintoylarning rang-barang olami bilan birga, ulardagi endigina kurtak ota boshlagan nuqsonlarning tuzalishi tasvirlanadi. Bunday hikoyalarning o‘rganilishi o‘quvchilarda axloqiy tarbiya namunasi sifatida e‘tirofga sazovor. Hikoyalardagi badiiy so‘z mohiyati, ularda qo‘llangan o‘xshatish, sinonim va antonimlar, shuningdek, gullarni parvarish qilish hamda uning ochilishi bilan bog‘liq tasvirlar esa o‘quvchining bu boradagi ma‘rifiy sabog‘ini oshiradi. Qolaversa, yozuvchida kichkintoylar ruhiyati, ular olamidagi turfa ranglarni tasvirlay bilishi hikoyalarning jonliligini, qiziqarliligini

ta'minlagan. O'z navbatida, bu kichik yoshdagi o'quvchilarning hikoyalar mazmunini tushunishi va undan o'zi uchun kerakli bilimni olishiga yordam beradi.

Adibning "Bo'sh kelma, Aliqulov!", "Bir qultum buloq suvi", "Orzuga ayb yo'q" qissalari esa o'smirlar kitobxonligidan keng o'rin olgan. Unda o'smir yoshidagi qahramonlarning turli kechinmalari, kattalar bilan va o'zaro munosabatlari goh yumoristik, goh hazin, yoxud jiddiy mushohadalar tarzida ifoda etiladi.

Farhod Musajonov asarlari rus, ukrain, qozoq va qoraqalpoq tillariga ham tarjima qilingan.

**MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:** *tashbeh, taqvim, realistik nasr, roman, ocherk, lavha, novella, tarixiy-biografik, tarixiy-qahramonlik, tarixiy-maishiy, fantastik, ertak-pyesa, epizod, dramatik konflikt, voqeaband, kinoya, istehzo.*

***Bilim, ko'nikma va malakani rivojlantirishga yo'naltiruvchi savollar:***

1. Po'lat Mo'min she'rlarining mundarijasi haqida to'xtaling.
2. "Oftob ham yaxshi, odob ham yaxshi" she'ri xususiyatlari haqida fikr yuriting.
3. Po'lat Mo'min she'riy-adabiy ertaklari mavzusini oydinlashtiring.
4. Q.Hikmat she'rlari badiiyati haqida nima deya olasiz?
5. Q.Hikmatning "Bahor", "Qish to'zg'itar momiq par", "Ayamajiz" she'rlaridagi badiiy-tasvir vositalar haqida fikr yurita olasizmi?
6. N.Fozilov hikoyalari mundarijasini aniqlang.
7. N.Fozilov asarlarida o'smirlar psixologiyasi qanday o'ringa ega?
8. N.Fozilovning "Saraton" qissasi haqida mulohaza yurita olasizmi?
9. "Topdim-u yo'qotmadim" qanday asar?

***Mavzuga oid test savollari:***

**1. Po'lat Mo'minning ertak-pyesalari va ertak-dostonlari qaysi javobda keltirilgan?**

- a) "Qovoqvoy bilan Chanoqvoy", "Suqatoy-konfetvoy", "Ona bolam deydi, bola onam";
- b) "Alla bilan Jalla", "Ziyrak fil va ziqna boqqol", "Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga", "Unutgan o'g'il";
- c) "Oltin nay", "Dono bola", "Bilganni qari-bilmaydi pari", "Tish cho'tka, Poroshok va Atirsovun ertagi";
- d) A, B va C javoblar.

**2. Po'lat Mo'mining she'riy to'plamlari qaysi javobda keltirilgan?**

- a) "Hunardan unar", "To'g'ri o'sgan gul bo'lar", "Bir yarim Karim" "Bir yuz bir oltin qo'l", "Rahmatga rahmat") "Oftob va odob", "Bu juda soz";
- b) "Gazpolvon ertak aytar", "Do'sting qancha ko'p bo'lsa" "Eson va Omon" "Oltmish olti oltin qo'l";
- c) A va B javoblar;
- d) "Ayyor chumchuq", "O'zboshimcha chumchuq haqida ertak".

**3. Po'lat Mo'minning "Suqatoy-konfetvoy" ertak-pyesasining g'oyaviy mundarijasi va obrazlari qaysi javobda to'g'ri?**

- a) ilm, odob, halollik va mehnatsevarlik ulug'lanadi;
- b) voqea Bilim xola, Janjal xola, Qurt o'rtasidagi kurash asosida rivojlanadi;
- c) Qovoqvoy va Chanoqvoy o'rtasidagi kurashdan tashkil topgan;
- d) A va B javoblar to'g'ri.

**4. Tarvuz, Qovun, Chanoqvoy, Paxtaoy, G'ujumoy, Lavlagi, Sholg'om qishloq xo'jalik ekinlari va zararkunanda hasharotlar chigirtka, kapalak hamda yalqov, tanbal, beg'am Qovoqvoylarning allegorik obrazi Po'lat Mo'minning qaysi asarida tasvirlangan?**

- a) "Alla bilan Jalla";

- b) “Ona bolam deydi, bola onam deydi”;
- c) “Suqatoy va Konfetvoy”;
- d) “Qovoqvoy bilan chanoqvoy”.

**5. “Saraton” qissasining muallifi va qahramonlari qaysi javobda ko‘rsatilgan?**

- a) N.Fozilov; Kamol, To‘ra;
- b) F.Musajonov, Tohir, Zuhra;
- c) H.Nazir, Damir, Omon;
- d) X.To‘xtaboyev, Hoshimjon, Akram

**5. “Qishloqdagi jivanlarim”, “Besh baho”, “Cho‘l havosi”, “Yaxshi ism”, “Meni taniysizmi?”, “Bolajonlarim”, kabi hikoyalar qaysi bolalar adibi qalamiga mansub?**

- a) Shukur Sa‘dulla;
- b) Hakim Nazir;
- c) Omon Muxtor;
- d) Zafar Diyor.

**6.Hakim Nazirning kichik yoshdagi bolalar hayotini aks ettirishga bag‘ishlangan asarlari qaysi javobda to‘g‘ri?**

- a) “Bir og‘iz so‘z”, “Rasmi kitobcha”, “Davronning qushchasi”, “Qanddon”;
- b) “Qaysargina ukam”, “Yaxshi ism”, “Ikki o‘rtoq”, “Bulbul”, “Igna”, “Bir tup g‘o‘za”;
- c) A,B javoblar; d) barcha javob to‘g‘ri.

**7. H.Nazirning “Yonar daryo” qissasida qanday manzaralar aks etgan va voqealar kimning tilidan hikoya qilinadi?**

- a) Qizilqum sahrosi kishilarining jasorati va “Gaz qaynar” manzarasi;
- b) oiladagi bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan o‘rni;
- c) voqealar o‘n ikki yoshli o‘quvchi Damir tilidan hikoya qilinadi;
- d) A, B va D javoblar

**8. H. Nazirning “Kenjatoy” va “Tohir-Zuhra” qissalarining yetakchi mavzusi qaysi javobda to‘g‘ri?**

- a) “Kenjatoy”da hunar maktabi hayoti aks etgan bolib, o‘smirlarda ishchi kasbiga havas uyg‘otishga xizmat qiladi;
- b) “Tohir-Zuhra”da balog‘at yoshidagi o‘spirin va qizaloqlarning qalbida tug‘ilgan ilk sevgi kechinmalari hikoya qilingan;
- c) A va B javoblar to‘g‘ri;
- d) qissalarning har ikkida qishloq hayoti aks etgan.

**9. Hakim Nazirning so‘nggi xotira-qissa kitobi va uning mavzui qaysi javobda ko‘rsatilgan?**

- a) “Oq fotiha”, bolalik sarguzashtlariga bag‘ishlangan; adib bu kitobida bolalik chog‘lari ko‘rgan-kechirganlarini jonli lavhalarda hikoya qiladi; kichikligida ota-onasidan olgan ilk insoniy saboqlari uchun chuqur va samimiy minnatdorchiligini izhor etadi;
- b) ijodiy yo‘li haqidagi adabiy suhbatlar;
- c) urush yillaridagi qahramonlar hayotiga bag‘ishlangan;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

**10. H.Nazir 1973- yilda qanday roman yozgan va uning asosiy obrazlari qaysi javobda to‘g‘ri?**

- a) “Chiranma g‘oz, hunaring oz” ;
- b) “Lochin qanotlari”, urushga ketgan ota-onalar o‘rnini bosgan farzandlar ; “Dadamni topib beringlar”, bir dehqon oilasi boshiga tushgan nohaqlik;\*
- c) romanda O‘ktam, Umri kabi yosh vatanparvarlar obrazi gavdalantirilgan;
- d) B va D javoblar to‘g‘ri.

**11. H. Nazir qanday pyesa yozgan?**

- a) “Bir tup g‘o‘za”;
- b) “Ko‘korol chiroqlari”;

- c) “So‘nmas chaqmoqlar”;
- d) “Chiranma g‘oz - hunaring oz”.

***Tavsiya etilgan adabiyotlar:***

1. Jumaboyev M. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Majmua. – T. “O‘qituvchi”, 1996
2. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Ikki jildlik, 2-jild, –T., “O‘qituvchi”, 2006
3. Nazir H. Asarlar. 5 tomlik. –T., “Yosh gvardiya”, I t-1977; II t-1978; III t-1979; IV t-1980; VI t-1981.
4. Nazir H. Tohir-Zuhra qissasi. –T., “Yosh gvardiya”, 1983
5. Nazir H. Dadamni topib beringlar. –T., “Cho‘lpon”, 1991
6. Nazir H. Oq fotiha. –T., “Cho‘lpon”, 1995
7. Nazir H. Lochin qanotlari, –T., “Yosh gvardiya”, 1973
8. Fozilov N. Shum bolaning nabiralari. –T., “Yosh gvardiya”, 1985.
9. Fozilov N. Ustozlar davrasida. –T., “Yosh gvardiya”, 1988.
10. Fozilov N. Saraton. –T., “Sharq”, 2006.
11. Fozilov N. Topdimu yo‘qotmadim. –T., “Sharq”, 2010.

## **IX. BOLALAR ADABIYOTI YUKSALISHDA**

### **Reja:**

1. Xudoyberdi To‘xtaboyev – bolalarning sargzasht va romannavis adibi.
2. Miraziz A‘zam she‘riyatining falsafiy-badiiy o‘ziga xosligi.
3. Safar Barnoyev – bolalar shoiri va nosiri.
4. Tursunboy Adashboyev she‘riyatida bolalik va tabiat munosabati ifodasi.
5. Anvar Oobidjn – bolalar shoiri, adibi va dramaturgi



### **Xudoyberdi To‘xtaboyev – bolalarning sargzasht va romannavis adibi** (1932-yilda tug‘ilgan)

Xudoyberdi To‘xtaboyev – katta-yu kichik bolalarning sevimli adibi. U hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotida sargzasht va fantastika janrlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib kelayotgan adib sifatida kitobxonga ma‘lum va mashhurdir. Xudoyberdi To‘xtaboyev 1932-yilning 17-dekabrida Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumaniga qarashli Kattatagob qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi ham poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas, qishloqda bo‘ladigan hamma mehnatlarda baholu qudrat ishtirok etdi, hayot nimadan iborat ekanligini yoshligidanoq bila boshladi. Bo‘lajak adib ikkinchi jahon urushi yillarida o‘qishni yig‘ishtirib, dalada ketmon chopdi, hisobchilik qildi, mashaqqatli mehnat bilan suyagi qotdi. Qo‘qon pedagogika bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan X.To‘xtaboyev ona qishlog‘ida muallimlik qilar ekan, unda ilmga cheksiz ishtiyoq uyg‘onadi. Shuning uchun ham u o‘qituvchilikni tashlab, Toshkent davlat dorilfununiga o‘qishga kirdi. Bu yerda Alisher Navoiy,

Bobur, G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor asarlarini sevib o'qidi, o'rgandi. Universitetni tugatib, Bog'dod tumanida o'qituvchilik qildi. Ilmiy bo'lim mudiri, direktorlik lavozimlarida ishlab, yoshlarni ilm-fan nurlaridan bahramand etish ishlarida faoliyat ko'rsatdi. She'riy mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilina boshladi. Bu esa bo'lajak adibni markazga –Toshkentga ijodiy ish bilan jiddiy shug'ullanishga chorlar edi. Shunday ham bo'ldi. U 1958- yilda Toshkentga ko'chib keldi. "Toshkent haqiqati" gazetasiga ishga kirdi. X.To'xtaboyev bolalikdan to'g'ri so'z, halol, pok va mehnatsevar bo'lib o'sganligi uchun, gazetada ishlar ekan, ba'zi nopok odamlarni ko'rib, ularning qilmishlarini hazm qila olmadi. Bunday kishilarning sir-asrorlarini fosh etishga, el-yurt o'rtasida munofiqlarning yaramas tomonlarini ochib tashlashga qaror qildi. Bu borada unga feleton janri qo'l keldi. 1962- yilda respublikamizning otaxon gazetasi – "O'zbekiston ovozi"ga feletonchi bo'lib ishga o'tdi. Bu yerda 300 dan ziyod feleton yozdi.

X. To'xtaboyev bolalar uchun ham hikoyalar yarata boshladi. Uning "Birinchi daraxtim", "Qochoqlar", "Qizg'anchiq", "Dadajon, yozmang", "Kelvordim, dada", "Vali bilan Salim", "Shoshqaloq", "Yaxshi-yaxshi" singari o'nlab hikoyalari yosh kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otdi. X.To'xtaboyev uzoq yillar feletonchi bo'lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o'rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo'layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog'iga botgan, molu dunyoga hirs qo'ygan shaxslar haqida bir talay feletonlar yozdi. "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" nomli asarlari ana shu dalillarni umumlashtirish asosida yuzaga keldi, desak to'g'ri bo'ladi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning birinchi yumoristik-sarguzasht qissasi bolalar hayotidan olingan "Sehrlil qalpoqcha"dir. U tez orada o'quvchilar hurmatiga sazovor bo'ldi. Yozuvchining yumorga moyilligi, oddiy vaziyatlardan ham kulgi chiqara olish iste'dodi yorqin seziladi.

Adib "Sariq devni minib" asarini qiziqarli sujet asosiga quradi; asarning hikoyachisi – bayonchisi qilib undagi barcha voqealarning ishtirokchisi, guvohi bo'lmish Hoshimjonni qo'yadi, tilga olinadigan voqealar uning nomidan hikoya qilinadi. Yozuvchi Hoshimjonning hikoyasi orqali uning hayot yo'li sarguzashtlarini, o'ziga xos xarakteri va psixologiyasini atroflicha ochib beradi. Shuningdek, Hoshimjon xarakterida Xo'ja Nasriddinning va xalq ertaklaridagi "tegirmonga tushsa butun chiqadigan" zukko bolalarning fazilatlarini yaqqol mujassamlashganligini ko'ramiz. "Sariq devni minib"da o'qish, ilm cho'qqilarini egallash uchun va insonning o'z orzusi, ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan, zamonamizda yashashga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotda yengil-yelpi yashashga yo'l axtargan va adashgan bolalar –hoshimjonlar kulgi ostiga olinadi: Hoshimjon dehqon oilasidan chiqqan, sho'xligi olamni buzadigan bir bola. U hayotdagi ko'p narsaga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz oson yo'l bilan erishgisi keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsaga erisha olishi, katta obro' orttirishi mumkin, deb o'ylaydi. O'z fikrida qat'iy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergan ertakdagi sehrlil qalpoqchani izlashga tushadi, uzoq izlanishlardan keyin istagan ishini hech qanday

mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrli qalpoqchani tashlandiq molxonadan topib oladi. Endi u o'zini orzulariga batamom erishadiganday his etadi, "Ortiqcha" fanlarni dars jadvalidan chiqarishni rad etgan direktor, har xil vazifalar berib "miyasini qotiradigan" o'qituvchilariga o'qimasdan ham har qanday kasb egasi, mashhur odam bo'la olish, ko'krak to'la nishonlar bilan shon-shuhratlar, katta obro'ga ega bo'lish mumkinligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ladi va shu maqsadda sehrli qalpoqcha bilan safarga chiqadi. Shunday qilib, uning sarguzashtlari boshlanadi. Ming afsuski, sehrli qalpoqcha bu borada Hoshimjonga ko'mak berolmaydi. Sehrli qalpoqcha muhayyo etgan imkoniyatlar har safar kutilmagan ko'ngilsiz oqibatlariga olib kelaveradi. Hoshimjonning baxti endi kulay deb turganida ishning pachavasi chiqib qolaveradi. U davlat xo'jaligida agronom bo'lib ham, "shoirlik qilib" ham, qurilishda muhandislik qilib ham, qo'g'irchoq teatrida artistlik qilib ham ko'radi, mashhur sayohatchi sifatida butun dunyoni kezmoqchi ham bo'ladi. Lekin hamma yerda ilmining, tajribasining yo'qligi ishning pachavasini chiqaraveradi. Hoshimjon qayerga bormasin, qanday ish qilmasin, pirovardida sharmanda-yu sharmisor bo'ladi. Uning agronomlik va muhandislik "faoliyati" jinoyatga olib keladi, qamalishiga sal qoladi, shoir bo'laman deb rasvo bo'ladi, "ulug' artist" teatrdan quviladi. Qissada Hoshimjon o'z sayohati davomida qanchadan-qancha ajoyibotlarning guvohi bo'lib, qiziq, kulgili sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U o'qimay, mehnat qilmay, o'z ustida ishlamay juda ko'p narsalarga erishmoqchi bo'ladi, lekin u hech narsaga erisha olmaydi. Chunki unga ilmsizligi pand beradi. Yozuvchi Hoshimjon obrazini butun qirralari bilan ochishga uringan. Bolalarga xos o'yinqaroqlik ham, soddalik-u beg'uborlik ham, g'ururlilik, to'g'ri so'zlik, shumlik bir oz maqtanchoqlik, hatto o'rnida yolg'onni ham do'ndirib yuboradigan, o'zini boshqalardan ajratib ko'rsatishga intilish odatlari, bolalarga taqlidchilik, dovyurak, epchil va ruhiy tetiklik, xafachilik va tushkunlikdan yiroqlik ham Hoshimjon xarakteriga xos xususiyatdir.

X. To'xtaboyevning "Sariq devning o'limi" sarguzasht romani asosida ham Hoshimjon sarguzashtlari yotadi. Bu romanda ham sehrli qalpoqcha yana madadga keladi, ajoyib-g'aroyib karomatlar ko'rsatadi. U Hoshimjonga jiddiy masalalarda – o'g'ri, muttaham, tekinox'rlarni fosh etishda yordam beradi. Endilikda Hoshimjon aynan avvalgi o'yinqaroq Hoshimjon emas, balki to'qqiz yillik maktabni bitirib, ulg'ayib, birmuncha quyulib, esi kirib, oq-qorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o'z hayoti, taqdiri, jamiyatga foyda yetkazadigan odam bo'lib yetishi haqida jiddiy o'ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshida sartarosh bo'ladi. "Bilasizku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmaguncha qo'ymaydigan odatim bor. Jonimni qiynab bo'lsa ham maqsadimga erishaman", deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog'laydi. Keyin militsiya maktabiga kirib o'qib, uni bitirgandan so'ng militsionerlikka ishga o'tadi. Kitobdagi barcha voqea-hodisalar, sarguzashtlar Hoshimjonning ana shu militsionerlik nuqtasidan boshlanadi, barcha gap-so'zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog'liq holda davom etadi. Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida militsiya polkovnigi Salimjon, uning madadkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battol gavdalanadi. Ular o'rtasida tinimsiz shiddatli kurash ketadi. Odil nihoyatda makkor,

u Salimjon boshiga juda ko‘p og‘ir savdolar solgan, uyiga o‘t qo‘ygan, uning yakka-yu yolg‘iz farzandining qo‘liga to‘pponcha tutqazgan, jinoyatga yetaklagan. Asar pirovardida butun umri davomida xalqqa, yaxshi odamlarga zarar yetkazish bilan shug‘ullangan Odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag‘lubiyatga uchraydi, haqiqat, adolat, ezgulik g‘olib chiqadi. Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘z romanida yulg‘ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo‘lib birlashsa, bu ishni butunlay o‘z qo‘liga olsa, Odil battollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi.

“Qasoskorning oltin boshi” romani markazida esa bosh qahramon – tarixiy shaxs, xalq qasoskori Namoz taqdiri yotadi. Ammo bu asar tarixiy-biografik roman emas, shuning uchun ham muallif Namozning hayotini batafsil yoritib berishni maqsad qilib olgan emas. Shunday bo‘lsa-da, adib o‘rni-o‘rni bilan uning hayotiga doir ma‘lumotlar berib borgan. Namoz faqat jismonan emas, aqlan ham yetuk. U haqiqat uchun qasoskor, qo‘rqmas, tadbirkor, ochiq ko‘ngilli qahramon sifatida gavdalanirilgan. U atrofiga o‘zi kabi dovyurak yigitlarni to‘plab, zulmkorlarga qarshi kurashga undaydi. Halolligi, mardligi, adolatliligi, yetimparvarligi uchun xalq Namozni yaxshi ko‘radi va uni Go‘ro‘g‘liga qiyos qiladi. “Go‘ro‘g‘libek Namozboy qiyofasida paydo bo‘lgan emish. Afsun o‘qisa, ko‘zdan g‘oyib bo‘lib qolarmish, undan o‘q o‘tmas emish, qilich chopmas emish...”

Namozning mardligi, jasorati xalq qalbida mangu yashab kelayotganligi “Qasoskorning oltin boshi”da yaxshi chizib berilgan.

Talantli bolalar adibi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sir ochildi”, “Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida qissa”, “Besh bolali yigitcha”, “Shirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarili jangi”, “Mungli ko‘zlar”, “Jannati odamlar” kabi yirik asarlarining vujudga kelishi o‘zbek bolalar adabiyotining yutug‘i hisoblanadi. U bolalar uchun yanada o‘qimishli asarlar yaratish maqsadida tinimsiz izlanmoqda. O‘zbek xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi X. To‘xtaboyevning asarlari nafaqat respublikamizda, balki chet ellarda ham ma‘lum va mashhurdir.

“Sariq devni minib” asarimning jahon tillariga tarjima qilinishiga sabab – 1971-yili Italiyaning Rim shahrida bo‘lib o‘tgan jahon bolalar yozuvchilarining kengashida J.Rodarining shu asar haqida aytgan iliq gaplaridir.

Xo‘sh, adibning nomini mashhur qilgan bu asarning siri nimada?

Nima uchun roman aynan shunday nomlangan?

Shu o‘rinda, avvalo, “Sariq dev” iborasining majoziy ma‘nosini ifodalash joiz.

Nima uchun aynan “sariq”, qora yoki oq emas?

Ma‘lumki, sariq–nafs, olov ma‘nolarini bildiradi. Xalqimizda nafsini tiya olmagan, nafsining quliga aylangan, ya‘ni nafs bandalari “Nafsi olovlar” deb ham ataladi.

Darhaqiqat, kimki nafsini tiya olmas ekan, bir kunmas bir kun, nafs olovida kuyib kul bo‘ladi. Olov esa, tabiiyki, sariq rangdadir.

Ibora tarkibidagi “dev” afsonaviy yovuzlik timsoli sanaladi. Ertaklarda bayon qilinishicha, yovuz dev komiga tushgan har qanday jonzot hech qachon tirik qolmagan. Asar qahramoni Hoshimjon ham o‘z nafsiga anchagina erk beradi:

Nafs deviga minib yo'lga tushadi. Undagi voqealar bosh qahramon Hoshimjon tili bilan sodda, aniq, qolaversa, bolalarcha o'y-fikrlar orqali hikoya qilinadi. Hoshimjonning gap-so'zlari va xatti-harakatida bolalarcha tafakkur tarzining saqlanishi asar sujetining yutug'ini ta'minlashga xizmat qilgan. Romanning keng kitobxonlar ommasiga manzurligining bosh sabablaridan yana biri "sehrli qalpoqcha"ning ishtirokidir. Hoshimjon aynan sehrli qalpoqcha vositasida bir-biridan ajoyib va g'aroyib sarguzashtlarni boshdan kechiradi.

X.To'xtaboyev qahramonlarining har biri o'ziga xos qiyofa va gapirish tarziga ega bo'lsa-da, ularni adib asarlaridan asarlariga sayqal topib kelgan quvnoq va hayotbaxsh yumor birlashtirib turganini ilg'ash qiyin emas. "Rostini aytsam, – deydi Hoshimjon, – o'zim ham unchalik yomon bola emasman. Aqlu hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfnig intizomli o'quvchilaridanman. Bir xil, haligi sho'x bolalarga o'xshab, kun bo'yi ko'cha changitib yurmayman. Yashirib nima qilaman, k'ocha changitib yurgandan k'ora komandaga bo'linib olib, to'p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham ovozi yetmaydigan joyga borib olib, chillak o'ynagan ming marta yaxshi".

"Xudoyberdi To'xtaboyev ijod qila boshlaganidan beri,—deb yozadi A.Rasulov,— zamon, tuzum, mafkura, adabiy-estetik qarash o'zgardi. Lekin yozuvchi salkam ellik yillik ijodi davomida qanday roman, qissa yozgan bo'lsa, ularga bo'lgan qiziqish susaymadi. Chunki yozuvchi hamisha tirik insonni, o'z "men"i, yo'l-yo'siniga ega odamni tasvirlagan edi." Darhaqiqat, olim to'g'ri ta'kidlaganidek, X.To'xtaboyev "Sariq devni minib", "Shirin qovunlar mamlakati", "Mungli ko'zlar" asarlari orqali XX asrning 2-yarmidagi ijtimoiy-ma'naviy-ruhiy hayotining badiiy tarixini ishonarli ochib bergan. Zafarning ("Mungli ko'zlar") ota-onasi pul, oltin yig'adi. Ular boyiganlari sayin o'zlarini boshqara olmay qoladilar. Topilgan pullar oilaga kulfat, baxtsizlik, fojea olib keladi.Yoqutxon, Saidlarning pul-boylklari do'st-dushmani tanib olishda o'ziga xos vosita vazifasini o'tagan. Oila boshiga tushgan tashvishlar farzandlar ruhiyatiga keskin zarba beradi. Katta o'g'li nogiron Akbarjon dang'illama hovliga qo'shib o'ziga o't qo'yib yuboradi, Zufar avtohalokatga uchraydi, Zafar ota-onasining sadoqatsiz do'stlaridan o'ch olish maqsadida jinoyat yo'lga kiradi, Nigora esa qattiq iztirobdan teri kasaliga chalinadi. Umuman, asarni ko'zda yosh bilan o'qigan kitobxon mol-dunyoni har narsadan ustun bilgan va oxir-oqibatda guldek farzandlarning achchiq qismatiga sabab bo'lgan ota-onalarga achinishi, shubhasiz.

"Xudoyberdi To'xtaboyev ijodida Zafarlar yangi, avval ko'zga tashlanmagan qahramonlar",— deb yozadi A.Rasulov. Olim yozuvchining boshqa asarlaridagi Orif ("Besh bolali yigitcha"), Hoshim ("Sariq devni minib"), Akrom ("Shirin qovunlar mamlakati") kabi qahramonlar bilan Zafar, Zufarlarni taqqoslab, "Mungli ko'zlar" romani qahramonlari katta shaharda, dang'illama koshonada yashashlari, ular boy ota-onaning farzandlari ekanini ta'kidlaydi. Chindan ham to'g'ri ta'kidlanganidek, yozuvchi bir koshona tanazzulini ochib beradi: otnig o'limi – itning bayrami degandek, Yoqutxon ko'zining yog'ini yegan kazo-kazo ulfatlari ro'y-rost tubanlik, talovchilik, muttahamlik qila




boshlaydilar. Qo‘mondon xola “Volga”ni ilib ketadi, Qozi xola tilla taqinchoqlarni o‘maradi; ular olgan narsalaridan tonadilar. Yoxutxonni ayblab, Zafarni jinniga chiqarib qo‘yadilar... Bir oilaning tag-tomiri bilan yemirilishi sabablari asar konsepsiyasini belgilaydi.

“Mungli ko‘zlar” asari qahramonlariga, chunonchi, Yoqutxon, Said Karimov, Qozi xola, Qo‘mondon xola, Shahodat amma singarilarga insof, diyonat, qanoat yetishmasligi haqiqat. Sho‘ro hukumati ilk qadamidanoq xalqlarning e‘tiqodiga, qadriyatlariga qarshi murosasiz kurash boshlagan. Natijada minglab oilalar e‘tiqodidan, ma‘naviyatdan, komillikdan mahrum yashaganlari ham achchiq haqiqatdir. Zotan, Yoqutxon va Said oilasini qanoatsizlik, gunohdan qo‘rqmaslik yemirgani rost. Zafaru Zufarlar sirdan tomosha qilguday bashing, kelishgan bo‘z bolalar edilar. Ammo ularning qalbi, ma‘naviyati o‘ta qashshoq edi.



Xudoyberdi To‘xtaboyevda yozuvchilikka ishtiyoq uyg‘otgan, qobiliyatining shakllanishida muhim rol o‘ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergan narsa hayot, vaqtli matbuot, redaksiyalardagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o‘qish, o‘rganish, o‘z ustida ishlash bo‘lganiga shubha yo‘q.



### **Miraziz A‘zam she‘riyatining falsafiy-badiiy o‘ziga xosligi (1936-yilda tug‘ilgan)**

Miraziz A‘zam o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga barakali hissa qo‘shgan shoirlardan biridir. U ham bolalar, ham kattalar shoiri, ayni chog‘da publitsist, yetuk tarjimon hamdir. Shoir 1936-yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Maktabda o‘qib yurgan kezlari dayoq she‘riyatga qiziqqan. She‘riy mashqlarini taniqli bolalar shoiri Quddus

Muhammadiy va keyinchalik Quدرات Hikmat boshchilik qilgan adabiy to‘garakda sinovdan o‘tkazar, ijodiy izlanish, o‘qish va o‘rganishni qizg‘in davom ettirar edi. Adabiyot va she‘riyatga bo‘lgan chanqoqlik uni ToshDUga yetakladi. Adabiy mashqlari bolalar va o‘quvchilar gazetalarida, “Gulxan”, “G‘uncha” jurnallarida bosila boshladi.

Toshkent Davlat universitetini muvaffaqiyatli tugatgach, Toshkent telestudiyasida, “G‘uncha” bolalar jurnalida, so‘ngra, “Yosh gvardiya”, G‘afur G‘ulom nashriyotlarida muharrir bo‘lib ishlagan. Ko‘p yillar O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasida maslahatchi, boshqaruv kotibi vazifasini bajargan.

Miraziz A‘zam ijodi talabalik yillarida yanada kuchaydi. Uning birinchi she‘ri 1960- yilda “G‘alati tush” nomi bilan chop etilgan, birinchi she‘riy to‘plami esa “Metallurg” nomi bilan nashr qilingan (1964). Shundan so‘ng shoirning bolalar uchun “Aqlli bolalar” dostoni (1969), “Senga nima bo‘ldi” (1970), “Yer aylanadi” (1973), “Yerga dovrug‘ solamiz” to‘plamlari (1970), “Bir cho‘ntak yong‘oq” saylanmasi (1990) e‘lon qilingan. Ularda shoir bolalarning qalbi va tuyg‘ulari tasviri orqali olamni, odamni bilishga, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga, halol va pokiza mehnatni ulug‘lashga intiladi.

Miraziz A‘zam dunyo bolalar adabiyoti vakillaridan yuzga yaqin muallif asarlari, chunonchi, Korney Chukovskiy, Edvard, Lir, Uolter De la Mer, Janni Rodari, Jak Prever, Jeyms Kryus, Yulian Tuvim, Iskandar al-Huriy, Tavfiq Fikrat, Ali Oqboosh, Mustafo Ruhiiy Shirin, Mustafo Rahmondo‘st, Dzyun Takami va boshqalarning asarlarini tarjima qilgan. U “Dunyo bolalar adabiyoti” degan antologiya muallifidir.

Miraziz A‘zam ijodida bolalar uchun yozgan asarlari salmoqli o‘rin tutadi. Jumladan, uning “Aqlli bolalar” (1969), “Senga nima bo‘ldi” (1970), “G‘alati tush” (1972), “Yer aylanadi” (1973), “Yerga dovrug‘ solamiz” (1976), “Bir cho‘ntak yong‘oq” (1990), “Qirq bolaga qirq savol” (2000) kabi qator she‘riy to‘plamlari, 2003-yilda “Eng yorug‘ yulduzlar” nomli maktab sahnasiga mo‘ljallangan pyesalar, tarixiy hikoyachalar, maqolalar to‘plami nashr etildi. 2005- yilda uning bolalarga yozgan asarlari “Saylanma” holida nashr etildi.

Miraziz A‘zam she‘riy asarlarining obrazlar olami rang-barangdir. Ularda ikki oylik chaqaloq obrazidan boshlab, turmushning achchiq-chuchugini totgan, keksa bobo-buvilar obrazigacha tasvir etilganligini kuzatish mumkin.

Aytish kerakki, shoirning bolalarbop she‘rlarida bola obrazi yetakchi o‘rin tutadi. Uning “Ko‘zlari xayolga tomgan hoy bola” she‘rida bola obrazi asosiy o‘rin egallagan. Shoir bu she‘rida nimadandir ruhiy azob chekayotgan, qalbidagi hasratini bayon etolmay, cheksiz xayolotga berilgan bola timsolini gavdalandiradi. Shuning oqibatida bolaning kundan-kunga zaiflashib, ozib-to‘zib borayotganidan xavotirga tushadi va unga dalda berishga shoshiladi.

Miraziz A‘zamning “Yo‘tal bola” deb nomlangan she‘ri ham bor. Bu she‘rida shoirning yana yuqoridagi kabi bolaga hamdardlik ko‘rsatishga urinishini his etish mumkin. Chunki bu bola avji o‘ynab-kulib, o‘qib, yayrab yuradigan yoshida kattalar tomonidan bajariladigan qiyin ish – paxta yig‘im-terimiga jalb etilgan...

Miraziz A'zamning bola obrazi aks etgan she'rlarini ularning nomlanishidan ham bilib olsa bo'ladi. Jumladan, shoirning "Bolalar ko'chalarda", "Tog'lik bolalarga", "Otasiz bolalar", "Bolaligimda" singari she'rlari bu jihatdan fikrimiz dalili bo'la oladi.

Shoir "Bolalar ko'chalarda" she'rida ko'chaga to'planib, hammompish o'ynayotgan bolalarning o'ziga xos obrazini, shu bolalar o'yinining muhim tomonlarini chizib ko'rsatishga harakat qilgan. Shoir "Tog'lik bolalarga" she'rida o'zbek bolalarini boshqa joydagi bolalar bilan qiyoslar ekan, ularning sira qolishmasligini shunday uqtiradi:

Siz ham boshqalardan kam emassiz.  
Uchoqlar yasashni o'rganing,  
shunday uchsinki uchoqlaringiz  
havasdan entiksin boshqalar ham.  
Siz ham boshqalardan kam emassiz,  
bizning ham ajoyib  
san'atimiz bor,  
O'zbek ohangini kiriting  
yaxmalak o'yinlariga.

Shoir "Otasiz bolalar" she'rida 1941-45- yillarda yuz bergan urush oqibatida jangohlarga ketib halok bo'lgan otalarning yetim bolalari obrazini yaratgan. Bunday bolalarning oilada yetar-yetmaschilik bilan ulg'aygani, ayniqsa, to'ng'ich farzand bo'lsa, otasi o'rnini bilintirmaslik uchun onasi qanotiga kirib mehnat faoliyatini juda erta boshlagani, ukalariga bosh bo'laman deb, o'z bolalik orzularidan voz kechgani, ba'zan ayrim nokaslar tomonidan "yetim" deb kamsitilgani talqin qilingan.

Shoir she'rlarida milliy madaniyatimiz, tilimizni qadrlashga doir she'rlar o'tgan asrning so'nggi choragidayoq ko'zga tashlangan edi. Ona tili haqida qayg'urish yosh avlod ma'naviyatiga poydevor bo'luvchi bolalar adabiyotida ham shu tariqa ko'zga tashlandi, desak yanglishmaymiz. Shoirning "Til darsi" she'rini falsafiy, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan o'zlikka qaytish, deyish mumkin. U 1975- yilda yozilgan. She'rdan anglashilishicha, lirik qahramon gruzin bolasidan dars tinglayd:

- Gruzin tilini bilasizmi? – dedi,
- Gruzin tilini bilmayman, – dedim.
- Gruzin tilini o'rgataymi?– dedi.
- O'rgat,–dedim.

Fiala ismli bola "mehmon"ga o'z ismi, qishlog'ining nomini faxr bilan aytib, darrov ona tilini o'rgata ketadi. Suhbatdosh bir pasda boladan "aka", "opa", "qo'l", "oyoq", "men", "sen", "kitob" kabi so'zlarning gruzinchasini bilib oladi; ayni paytda o'zi ham Fialaga "uy", "xalq", "ko'cha" degan o'zbekcha so'zlarni o'rgatayotganda manziliga yetib keladi. Ammo, ana shu qisqa muddatda lirik qahramon kichkintoy boladan bir jahon saboq oladi. Uning o'z tiliga munosabati, iftixori ong-u shuurini sergaklantiradi:

Lekin qulog'imda qoldi, so'zlarining qo'ng'irog'i,

Ko‘zlarimda, “bilingizmi”,–deganday,  
Ko‘zlarining jovdirashi

Va lirik qahramon endi kitobxonlarga murojaat qiladi:

– Bolalar! Siz shunday qilasizmi hech?  
Sizning shahringizga, qishlog‘ingizga,  
Mehmon kelsa, uzoq ellardan,  
Siz o‘zbek tilini o‘rgatasizmi?  
O‘zbek so‘zlarining jarangini,  
Mehmon qulog‘ida yangratasizmi?

Bu “dars”ning ta‘sirchanligi muammoning dolzarbliigi mustaqillik yillarida teranroq anglandi.

Shoirning “Qirq bolaga qirq savol” she‘ridagi ayrim detallar ham kichkintoylarning o‘z eli, millatini anglash, uni sevish va obod etishga qaratilgan. Eng muhimi, shoir yosh avlodning ertasiga umid qiladi. Ularga berilgan tarbiya bejiz ketmasligiga ishonadi. Shu sababli M.A‘zamning ona tili haqidagi she‘rlari istiqloq yillarida asl mohiyati bilan namoyon bo‘ldi. Shoirning yosh lirik qahramoni endi o‘z ona tilini kattalardan kam sevmaydi:

Ona tilim, turkiy tilim,  
Ardoqligim o‘zbek tilim,  
Avaylayman seni doim  
Qaboq ila ko‘zdek, tilim.

She‘rda o‘zbek tilining qadimligi, ko‘rki, donoligi, onaga tengligi uchun ham uni almashtirib bo‘lmasligi ta‘kidlana boriladi. Shoir ona tilini avaylashni ko‘zu qaboqqa mengzashi ham bejiz emas. Ko‘z insonga berilgan ilohiy ne‘matlar ichida eng ardoqlisi. U yorug‘ olam ma‘nosi bo‘lishdan tashqari, inson botinini o‘zida namoyon etadi. Donishmandlar odamni ko‘ziga qarab, kimligini ayta olishgan. Ko‘zimizni asrash bilan nafaqat, hayot mazmunini, demakki, o‘zligimizni, ko‘nglimizni asragan bo‘lamiz. Xuddi shu xususiyat ona tiliga ham xosligini shoir:

Turkiy tilim, ko‘rkli tilim,  
O‘zbek tilim, ko‘zdek tilim,

misralarida jo etgan. Muhimi, bolalarga yoshligidanoq o‘z ona tillarini sevishga da‘vat etish ana shunday satrlar ta‘sirida ommalashdi. Istiqloq yillarida bolalar adabiyotida bu mavzu turli ohang va mazmunda jilolandi.

Miraziz A‘zamning juda ko‘p she‘rlari tarbiyaviy mazmunining chuqurligi, teran mazmunni ixcham va qulay badiiy shaklda ifoda etganligi nuqtayi nazaridan boshlang‘ich sinf darsliklariga kiritilgan. Aytaylik, “Vatan” she‘rida shunday ehtirosli misralar uchraydi:

Vatan–bizning uyimiz,  
Vatan – bizning ko‘chamiz,  
Soylardagi suvimiz,  
Maza qilib ichamiz.  
Vatan – bizning tog‘imiz,  
Olma-anor bogimiz,  
Bug‘doy, arpa dalamiz,

O‘ynab maza qilamiz.  
Oltin tola konimiz,  
Tandir tola nonimiz.  
Vatan – maktab-onamiz,  
O‘qishni o‘rganamiz.

Miraziz A‘zamning “Mardlik va aql yorug‘ligi” she‘rida o‘qish, ilm cho‘qqilarini egallash uchun va insonning o‘z orzusi, ezgu niyatiga erishishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan zamonamizda yashashga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotga yengil-yelpi yo‘l axtargan va adashgan bolalar kulgi ostiga olinadi. Shoir bolalarni hamisha mard bo‘lishga chorlaydi:

Mardlik buzilib ketgay  
Miltiq chiqqan zamonda.  
Yuzta mardni bir nomard  
Otib tashlar maydonda.  
Miltiqni mardlik bilan  
O‘rganib bolmas lekin.  
Kitob varaqlash kerak  
Qunt bilan sekin-sekin.  
Aqlni faqat ilm  
Yorug qilar, ukajon.  
Yorug‘ aql Vatanni  
Olg‘a boshlar begumon.  
O‘g‘ilga mardlik kerak,  
Ilm ham kerak tayin.  
Ilmsiz mardning esa  
Holiga yig‘lar maymun.

M.A‘zam mustaqillik, ozodlik mavzusida ham bolalar uchun qator she‘rlar yozgan. Shoir “Qo‘lni qo‘lga beraylik”, “Nima yaxshi-yu, nima yomon” she‘rlarida do‘stlik, hamjihatlik, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, odobli bo‘lish, sidqidildan o‘qish uchun intilish, kurashish kabi masalalarni ko‘proq ochib berishga harakat qiladi.

M.A‘zam bolalar uchun turli janrlarda ijod qildi. Ayniqsa, uning ijodida doston, adabiy ertaklar ko‘p uchraydi. Shoir xalqning ertakchilik tajribalariga murojaat etar ekan, avvalo, o‘z asarlarining g‘oyaviy-badiiy va mavzuiy jihatdan barkamol, qiziqarli bo‘lishiga ham erishishni ko‘zda tutgan. U o‘zi yaratgan asarlarning xalqchil bo‘lishi uchun ertaklardan mahorat bilan foydalandi. Shoirning barcha ertaklarida yaxshilik yomonlikka, soddalik ayyorlikka, olijanoblik yovuzlikka, go‘zallik xunuklikka qarshi qo‘yiladi. Insonga mehru muhabbat ulug‘lanadi.

Miraziz A‘zam yaratgan she‘riy adabiy ertaklar o‘nga yaqin. Shoirning qaysi ertagiga nazar tashlamang, barchasida bolalar zavq oladigan qirralar bor. Xususan, uning “Erk qushi” ertak-dostoni ancha mashhur. Ta‘kidlanishicha, bir mamlakatning dong‘i uzoq ellargacha taralgani sabab unga dunyoning turli tomonlaridan juda ko‘p mehmonlar, savdo karvonlari yog‘ilib kelib turar ekan.

Tashrif buyurgan mehmonlar esa uning ko'rkiga hayrat bilan boqarkan. Ayniqsa, mamlakatning osmono'par minoralari, muhtasham arklari sirli jilva taratib, kelganlarni lol-u hayron qoldirar ekan. Shahar tevaragidagi qir-adirlardan ajoyib atir hidi ufurib turarkan.

Mamlakatning bozori ham dunyoga dong taratgan ekan. Undagi turli-tuman mollarning xaridori juda ko'p ekan. Ertakda bu bozor xuddi xalq dostoni "Ravshaxon" dagiday alohida ta'riflab keltirilgan:

Turli-tuman mollari  
Gavjum ekan bozorlar.  
– Kep qoling, – der  
chollari, –  
mana, olma-anorlar!..

Dostonda shu tariqa o'zbek bozorlarining jonli tasviri o'ziga xos aks etgan. Unda meva-cheva, gazmol va zargarlik mollari bozori manzaralari chizib ko'rsatilgan. Savdogarlar bunday yurtning hech qachon ko'rishmagan ekan. Shuning uchun ular bu yurtning ovozasini boshqa yurtlarga ham yetkazishibdi. Ko'p vaqt bu yurt uzoq ellarga andoza bo'libdi. Biroq qo'shni yurtning hokimi bu gaplarni eshitib, hasadi qo'zib, ko'p sonli lashkar to'plaganicha uning ustiga bostirib kelibdi. Yetmish makkorlikni bilgan yovuz bosqinchi chigirtka galasiday qo'shini bilan yopirilib, yurtning xonavayron etibdi. Bozor rastalari toptalibdi. Hamma yoqqa o't qo'yilibdi. Shahar uch kecha-yu uch kunduz tinmay yonibdi. Xalqi esa butunlay talanib, haqoratlar va qiynoqlar bilan qullikka mahkum qilinibdi. Lekin bosqinchi shoh har qancha zulm o'tkazmasin, xalq baribir qullikka bo'yin egishdan bosh tortibdi. El bo'ysunmabdi va erk istab kurash yo'liga kiribdi. Mamlakatdagi barcha hunarmandlar: kulol, kosib, qassobu boshqalar sher yanglig' jangga otilib, yovni boplab qiribdi. Bundan jigar-bag'ri xun bo'lgan bosqinchi hoqon hiyla yo'liga o'tibdi.

Voqealarning mana shu rivojlanish o'rnida shoir lirik chekinish qilib shunday deydi:

Ammo, do'stlar, bilasiz,  
baravar emas besh qo'l.  
Har el aro, shubhasiz,  
uchrab turar besh-o'n go'l.

Elu yurt ozodligi uchun hamma bir jonu bir tan bo'lib kurashayotgan pallada daryo bo'yida istiqomat qiladigan Nahang qassob alohida matonat ko'rsatadi. U nihoyatda sershijoat va sershitob yigit bo'ladi. Achinarli tomoni shundaki, uning sevib olgan nihoyatda go'zal xotini kutilmaganda vafot etadi. Bundan yigit juda chuqur tushkunlikka tushadi. Unga xotinidan o'n yoshli Olmos ismli qiz va sakkiz yoshli O'lmas ismli o'g'il qoladi. Yurtdoshlari Nahang boshiga tushgan ayriliqqa juda achinishadi. Lekin yurt boshiga ish tushib, dushman bostirib kelganda, Nahang o'z dardini unutib, xalq dardi bilan yashay boshlaydi. U elu yurti mustaqilligi va erki uchun kurashga otilib, dushman bilan beayov jang qiladi. Bahodir va o'ktam yigit Nahang qassob na'ra tortib jangga kirar ekan, uning boltasi zarbidan yov lashkari parday to'zg'ib ketadi. Bundan vahimaga tushib

qolgan dushman lashkari esa zudlik bilan o‘z hoqoniga chopar yuborib, pahlavon Nahang shijoatidan uni ogohlantiradi. Shunda dushman hoqoni quda bo‘lish bahonasida elni hiyla bilan bo‘ysundirmoqchi bo‘ladi. Bu haqda ertakda shunday deyiladi:

Bo‘ysunmagan ellarni  
oladi quda bo‘lib,  
“Qizlar olgan bu yerni!” –  
der so‘ng ko‘krakka urib.

Hoqon keksa vaziri bilan maslahatlashib olar ekan, uning o‘gitiga binoan tul yigit Nahangni kuyov qilish hiylasini ishlab chiqadi. U Nahangga yoshgina qizini bermoqchi bo‘ladi. Bu gapni Nahangga yetkazganlarida, dastlab u qovoq uyadi. Ammo hoqon tomonga borib, uning qizini ko‘rgach, uylanishga rozi bo‘ladi. Uni hoqonning qizi bir qarashda maftun etadi. Shundan so‘ng Nahang:

–Uylanaman qiziga!  
To‘y o‘tgan kun ertasi  
lashkar qaytsin iziga! –

deya qat‘iy xulosaga keladi. Keyin to‘y va sulh sharafiga katta ziyofat bo‘lib o‘tadi. Barcha ziyofat bilan bo‘ladi. Hech kim dushman hiylasini sezmaydi. Dushman lashkari esa tun bo‘yi ishlab, xalqni zanjirband qilish uchun kishan tayyorlab chiqadi. Odamlar sahar turib qarasa, shahar darvozasiga g‘alaba nishoni sifatida dushman tug‘i osilgan. Nahang esa bundan bexabar, mast uyquda yotibdi.

Shunday qilib, yillar o‘tibdi. O‘gay ona O‘lmas va Olmos qachon bo‘lsa-da bizdan o‘ch oladi deya, ularni turtkilar, kamsitar ekan. Ammo bolalar bunga parvo qilmay, mag‘rur bo‘lib o‘saveribdilar. Ayniqsa, Olmos juda haqgo‘y ekan. U o‘gay onaga qarata shunday ta‘nali she‘rlar aytarkan:

– Oftob chiqdi olamga,  
yugurib bordim onamga.  
Ona, ona, kulcha ber,  
onam dedi, o‘tin ter.  
O‘tin terdim bir quchoq,  
kulcha yopdi bir o‘choq.  
Yedi o‘zi suyugin.  
Menga berdi kuyugin.

Olmosning bu gaplari o‘gay onaning jon-jonidan o‘tib ketarkan. U bu gaplarga dosh berolmay, alamdand to‘lg‘anib, yuragi yonarkan. Xususan, o‘gay ona O‘lmasdan juda hadiksirar va qo‘rqarkan. Negaki:

Qo‘rqinchli ekan rosa  
Olmosidan O‘lmasi,  
bir xo‘mrayib qarasa  
qisilarkan nafasi:  
“Shuning ko‘zini o‘ysam...  
indamay qo‘yib qo‘ysam  
yigit bo‘lar burgutdek”, - derkan.

O'gay ona shu alam tufayli bir kuni Nahang uyga kelishi bilan yig'lab turib, unga tush ko'rganini, tushida bir chol ko'rinib, homilador bo'lganini bildirganini, ammo O'lmas tirik ekan, sen yasholmaysan deganini aytadi. Nahang go'llik qilib, xotining bu gapiga ishonadi. U yo o'g'lini, yo xotinini deyishi kerak bo'ladi. Nahangga xotini aziz tuyuladi. U bir kuni yarim tunda hamma uxlaganidan foydalanib, o'g'lini dast ko'targanicha oq tulporga ortadi-yu qirga jo'naydi. U yerda o'z qo'li bilan o'g'lini o'ldiradi.

O'lmasning opasi – Olmos bo'zlaganicha ukasining jasadini izlab qirlarni kezadi. Qirdan uning suyakchalarini topib, etagiga yig'ib oladi. So'ngra ularni uygancha, ko'k lattaga solib, gul tagiga ko'madi. Qiz ukasiga bag'ishlab shunday yig'i qo'shig'i kuylaydi:

“Ona mehrin ko'rmagan,  
ozod Vatan istagan,  
o'z uyiga sig'magan  
voy ukam, voy ukam.  
Otam seni so'ydimi,  
o'gay onam to'ydimi,  
qismating shu bo'ldimi,  
voy ukam, voy ukam.  
Rozimasman, ishqilib,  
tirilmasang qush bo'lib,  
uchib yurgin o'ch olib,  
voy ukam, voy ukam”.

Navro'z kelgan vaqtda O'lmasning ruhi bir qush bo'lib shu qizil gulning tagidan uchib chiqibdi va chappar urib havoda ucha boshlabdi. U juda go'zal va biyron qush ekan. U yurt osmonida mag'rur-mag'rur qanot qoqib parvoz qilaveribdi. Ammo qushning ko'ksida bir oh borligi sezilib turarkan. Shuning uchun uning sayrashi odamlar ko'nglini ezibdi. Bir kun qush bozorga uchib kelibdi va bir attorning boshida charx urib uchib, qo'shiq ayta boshlabdi. Uning qo'shig'i shunday ekan:

“O'z otam so'ydi,  
o'gay onam to'ydi,  
omon bo'lgur egachim  
ko'k lattaga tugdi,  
gulning tagiga qo'ydi,  
kuk-ku,  
kuk-ku!”

Attor bu gapiradigan qushni ko'rib, hayron bo'lib qolibdi. “Nima deding, yana ayt?” – desa, qush evaziga o'nta juvoldiz so'rabdi. Qush juvoldizlarni olib, otasining boshiga uchib boribdi. Otasi ham bu gapiradigan qushni ko'rib lol qolibdi va she'rini takrorlashni so'rabdi. Ammo qush otasiga ko'zingizni yumib, og'zingizni ochib tursangiz aytaman, deya shart qo'yibdi. Otasi shunday qilgan ekan, qush juvoldizlarni uning og'ziga tashlabdi. Otasi juvoldizlarni yutib, halok bo'libdi. Qush esa qah-qahlab uchib ketibdi.



U o'gay onasini ham shu tariqa o'ldiribdi. Hoqon qalbiga vahima solib, xalqni erk va ozodlik kurashiga chorlabdi. Qushchani birgina opasi tanibdi.

Qushchanning chaqirig'i bilan katta jang boshlanibdi. Bu jangda opasi Olmos ham Barchinoyday kurashib, g'alabaga bosh bo'libdi. Xalq Olmosni o'ziga podsho qilib belgilabdi. Olmos yurtni adolat bilan boshqarib, xalqning ko'nglini so'rabdi. Mamlakatni tiklab, avvalgiday gulga burkabdi.

Ertak yaratishda Miraziz A'zam xalq badiiy an'analariga sodiq qoladi. Ertak qahramoni fahm-farosat, aql bilan ish ko'rib, o'z murod-maqsadiga yetadi, baxtiyor bo'ladi. Miraziz A'zamning barcha personajlari pishiq-puxtaligi bilan ajralib turadilar.

Zamon muammolarini ertak libosida ifodalashda Miraziz A'zam alohida rag'bat va g'ayrat ko'rsatdi. U ijodiy imkoniyatlarini shu janrda sinab ko'rar ekan, butun mahoratini ishga sola olgani uchun bolalarning sevimli ertakchi shoirlaridan biri sifatida tanildi.

Ertak-doston o'z nihoyasida ezgulikning yovuzlik, oydinlikning qorong'ulik, haqiqatning nohaqlik, hayotning o'lim, aqllilikning nodonlik, adolatning jaholat va to'g'rilikning egrilik ustidan g'alaba qozonishini tarannum etadi.

Shoir ertaklari badiiy qurilishining ixchamligi, soddaligi va yaxlitligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ulardagi har bir tafsilot, badiiy detal va obraz, voqea, motiv, ifoda vositalari, poetik usul ijodkor estetik qarashlarini ifodalash uchun xizmat qiladi.

## **Safar Barnoyev – bolalar shoiri va nosiri**

(1938-2001)



Bolalarning sevimli shoiri va yozuvchisi Safar Barnoyev 1938-yil 6-mayda Buxoro shahrida Dilkusho mahallasida tug'ilgan. 1949-59-yillarda o'rta maktabni tugatgach, harbiy xizmatga ketadi. 1960-61-yillarda Buxoro viloyatining Romitan tumanidagi sho'ro xo'jaligida hisobchi vazifasida ishlaydi. 1961-66-yillarda ToshDUning (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika bo'limida tahsil oladi. 1959-yili uning birinchi she'ri hozirgi „Tong yulduzi“ gazetasida e'lon qilingan. Safar Barnoyev o'qishni tugatmasidanoq, 1966-yilning mart oyida „Tong yulduzi“ gazetasi tahririyatiga ishga taklif qilingan. Shu yillardan boshlab uning she'r, hikoya, qissalari respublika gazeta va jurnallarida muntazam ravishda chop etila boshlaydi. Safar Barnoyevning birinchi she'rlar to'plami 1970-yilda „Tog'lardaman“ nomi bilan chop etilgan. Shundan keyin „Birinchi tabassum“, „Nur yog'ilgan kun“ qissalari bosiladi. Adibning „Birinchi tabassum“ (qissalar, 1972), „Dadamning qo'llari“ (she'rlar va dostonlar, 1972), „Sog'inch“ (she'rlar, balladalar, 1975), „Yulduzxon va Bahorjon“ (she'rlar va ertaklar, 1977), „Askar qaytgan kun“ (hikoyalar, qissalar, 1980), „Oq laylaklar“ (hikoya, qissalar, 1982), „Chehralar“ (balladalar, 1984), „Egizaklar“ (hikoyalar, qissalar, 1985), „Mukofot“ (hikoyalar, 1985), „Tinchlikni ulug'laymiz“ (she'rlar,

dostonlar, 1986), “Karimjon-karlson“ (hikoyalar, qissalar, 1988), “Dadam haqida qo‘shiq“ (she‘rlar, ertaklar, 1989), “Yangi kunlar“ (qissa, 1990), “Nilufarning olmalari“ (hikoyalar, 1996), “Kichkina Xo‘ja Nasriddin“ (qissa, 1998) singari kitoblari nashr qilingan. Adibning ko‘pgina asarlari rus, tojik, qirg‘iz, ukrain, belorus, polyak, ingliz tillariga tarjima qilingan. Uning “47-yil hikoyalari“, “Afg‘on bolalari“ hikoyalar turkumi adabiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholangan.

U jurnalistika fakultetida o‘q‘iy boshlagan kezlarda shu haqiqatni anglab yetdiki, bolalar uchun yozmaslik “dadajoni janggohga olib kelgan bolaligi”ga xiyonatdir. U yana shuni ham anglab yetdiki, bunday xiyonatning alomati behad og‘ir. Shundanmikan, butun ijodida ikkinchi jahon urushi davridagi bolalikni ketidan qayta tiklash va undan axloqiy-estetik saboq chiqarishni yetakchi tamoyil qilib oldi.

Safar Barnoyev o‘zbek bolalar adabiyotining Zafar Diyor, Sulton Jo‘ra, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa‘dulla, Hakim Nazir, Mirkarim Osim, Qudrat Hikmat va Po‘lat Mo‘min singari namoyandalari, shuningdek, jahon xalqlari bolalar adabiyotlarining zabardast vakillari ijodlarini qunt bilan o‘rgandi, xususan, xalq ijodiyotiga, bolalar folkloriga hayratlanib nazar soldi. U iste‘dodini bolalar adabiyotlarining betakror namoyondalaridan biri Sulton Jo‘raning adabiy vorisi sifatida bo‘y ko‘rsata oldi.

Ya‘ni, Sulton Jo‘ra ikkinchi jahon urushida bevosita qatnashib, uning bolalar qismatiga ko‘rsatgan fojeali ta‘sirini ifodalab, o‘zbek bolalar she‘riyatida shu mavzuni yuksak sa‘natkorlik bilan ifodalagan “Sog‘inib”, “Sog‘inchli salom” singari go‘zal epistolyar she‘rlar yaratib q‘oldirgan sa‘natkor edi. U jangchi sifatida urush dahshatini o‘z tanasida sinab ifodalagan edi. Safar Barnoyev esa bola sifatida urushning barcha kulfatlarini ko‘rdi, otasini yulib olib, uni yetim qilgan urush haqida, o‘zga xonadonlarga q‘ora xatlar kelganida ko‘kka o‘rlagan faryodlarni eshitib o‘shandagi iztirobli yig‘ilardan q‘albi ozurda bo‘lib:

Iztirobli yig‘idan  
Uyg‘ondi tor ko‘chamiz  
Q‘ora xatday q‘orayib  
Ketdi bizning kechamiz,—

deya o‘sha ma‘shum kunlarga nazar sola olgandi.

Zotan, urush mavzusida Sulton Jo‘ra she‘rlari tugagan joyda, urush haqidagi bolalik xotirasi bilan Safar Barnoyev bo‘y ko‘rsata boshladi. Urush uning qalbida bitmas-tuganmas alam va jarohat qoldirgan. Shoirning “Non”, “Nur yog‘ilgan kun” hikoyalari, “Oq laylaklar” qissasi, yoxud, afg‘on bolalari turmushiga bag‘ishlangan hikoyalarida urush xotiroti asosida bolalik qismatiga nazar solinadi.

Safar Barnoyev asarlarida moziy bilan bo‘y o‘lchashgan Buxoroyi sharifning bolalarga xos tasavvuridagi suvratini ko‘rish mumkin. Muhimi, shoir she‘rlarida jajji bolakaylar timsoli yarq etib ko‘zga tashlanib turadi.

Bilasizmi, dadam meni erkatoym dedilar,  
Yozda bayram bo‘lganida toychoq olib berdilar.  
Bilasizmi, oyim meni yurardilar o‘ynatib,

Tili shirin o'g'lim deya, yurardilar so'ylatib.

Qo'ldan-qo'lga olib uni ko'tarishib yurishar.

15 hijoli satr negizidagi bu she'rdagi poetik nutq vositasida maktabgacha yoshdagi kichkintoylarga xos hayajon tovlanishlarini g'oyat jozibali ohanglarda ifoda etilgani anglashiladi. O'zi hali kichkina bo'lgan lirik qahramon o'rnini egallayotgan ukajonidan kuyayotganini yopish uchun "yig'lashni qo'ymayotgani, dadasi uxlayolmayotganligi"ni vaj ko'rsatib, o'z haqiqatini himoya qilayotir. Fe'lida yilt etgan shu qarama-qarshi mayllar asosida zuvalasi bichilayotir. Bolaning shakllanishidan iborat murakkab jarayon bor bo'yicha shunday ko'rinib turibdi.

Safar Barnoyev buni bola nutqidagi takrorlar bilan yanada jonliroq qilib aks ettirgan. Garchi bu yoshdagi kichkintoylar uchun 3-7 va 8-9 hijoli tizimdan iborat she'rlar yozish an'anaga aylangan bo'lsa-da, Safar Barnoyev bu yoshdagilar uchun bolalar nutqiga xos ohang tovlanishlarini asos qilib, behad samimiy va ravon she'rlar yoza olgan:

Mehmon kelsa uyimizga, menga bayram bo'ladi,

Shokolad-u konfetlarga cho'ntaklarim to'ladi.

Boshqa paytlar konfet desam, oyim berar urishib,

"Konfet yesang, labi-lunjing ketar deya burishib".

15 hijoli bu satrlar kichkintoyning poetik nutq'i. 14 hijoli tizimga asoslangan "Feruza" she'ri aslida kattalar erkalamasi. Unda Feruzaxonni kuta-kuta intiq bo'lgan, nihoyat uning kelganidan qalbi quvonchga to'lgan lirik qahramonning farahbaxsh qiyofasi tiniq chizilgan. Bunda anafora san'ati ohang samimiyatini ta'minlagan:

Feruza quyosh bilan tongda turar jilmayib,

Feruza quyosh bilan tongda kular jilmayib.

Feruza kulsa agar, olam yayrab ketadi,

Feruza kulsa agar, qushlar sayrab ketadi,

Feruza kulgusidan har uyga kelar sevinch,

Feruza kulsa agar, demak olam bo'lar tinch.

Shoir "Mening tarjimai holim" she'rida q'uyidagi satrlarni bitgan:

Qaysi kun,

Qaysi yilda tug'ilganimni,

Taxminan

Bitib bergan sho'ro kotibi,

Necha bor daraxtdan yiqilganimni

Hamon aytib yurar qo'shnimiz xotini.

Tut pishig'ida tug'ilgansan deb,

Onam aytganlar,

Pishiqchilikda...

Safar Barnoyev – Buxoro yurtining farzandi. Uning bolaligi shu qadim shahar ko'chalarida o'tgan. Labihovuz, Registon, moviy gumbazlar, Minorai kalon, hatto unda in qo'ygan oq laylaklar... Bularning barchasi adib ijodiga umr

bo‘yi ilhom baxsh etib keldi. Yana sharif shahar jinko‘chalari, muhtasham yodgorliklar-u zalvorli toshdevorlar ijodkor armonlarining tilsiz guvohi...

Safar Barnoyev ijodiga o‘zbek bolalar adabiyotining rang-barang muammolari, chunonchi, bolalar taqdirida o‘chmas iz qoldirgan urush dahshatlari aks etgan. “Chehralar” to‘plamidagi she‘rlar va balladalarining, “Afg‘on hikoyalari” turkumidagi asarlarning asosiy qismi ushbu mavzuni badiiy yoritishga bag‘ishlangan.

“Qirq yettinchi yil hikoyalari” deb nomlangan turkumga kirgan asarlarida butun bir avlodning urush tugagan pallalarda voyaga yetgan, oq-qorani tushuna boshlagan, ko‘ngli bir umr yarim bo‘lib qolgan bolalar avlodining qiyofasi aks etgan. Ota diydoriga to‘ymagan bu avlodning bir vakili sifatida Safar Barnoev “Ota o‘g‘li”, “Dadamning qo‘llari”, “Dadam haqida qo‘shiq” asarlarida o‘sha davr bolalarining armonlarini tasvirlagan.

Safar Barnoev asarlarida fikriy tarbiya tasvir va talqin, tushunish va tushuntirish, hissiy idrok va badiiy ifoda vositasida amalga oshiriladi. Shuning uchun hatto aksariyat she‘rlari sujetli-voqeaband. Ko‘rgan, bilgan, his qilgan narsalarni voqealar jarayoni ila yaxlit bir butunlikda ko‘rsatishga mayli kuchli. She‘rlar xotimasidagi poetik obraz zimmasiga yuklangan ma‘no ana shu mohiyatni, hikmatli mazmunni aks ettiradi. Shoirning “Sirli sado” she‘ri bunga dalil bo‘la oladi:

Amakimning yo‘qdir ikki  
Oyog‘i.  
Oyoqlari – uning qo‘ltiq  
Tayog‘i.  
Qo‘ltiq tayoq ingrab borar,  
“To‘-o‘q, to‘-o‘q”.  
Bu degani urishga yo‘l-  
Yo‘-o‘q, yo‘-o‘q!

Inson – hayot guli. Voqealikdagi xunuklik ko‘rinishlarini bartaraf etilgani sayin hayot ham, tiriklik ham yanada chiroyli bo‘la boradi. Safar Barnoyev asarlaridagi tarbiyaviy jihatlar xilma-xil. Ijodkorning “Urush bolalari”, “Tunda osoyishtalik cho‘kkanida borliqqa”, “Jabbor otaning aytganlari”, “Uka, men senga aytsam”, “O‘ttiz yoshlilar”, “Mening o‘z burchim bor”, “Bobomning qo‘llari”, “Otamning o‘rtoqlari” singari qator she‘rlari va inson taqdiri masalasini poetik tadqiq etishda o‘ziga xos yo‘nalishga ega. Ularda, avvalo, qalbning iztirobli tajribalari–dardlari muhrlangan; u aynan shu avlodning qalbidan silqib oqqan, ko‘z qorachig‘iga tugilib qolgan dard.

“Bolalar xulosalarni, isbot-dalillarini va mantiqiy tafsilotlarni talab qilishmaydi, – deydi V.G.Belinskiy, – ularga obrazlar, bo‘yoqlar va ohanglar kerak. Bolalar g‘oyalarni unchalik xush ko‘rmaydi; ularga sarguzashtlar, qisqa-qisqa tarix saboqlari, qissalar, ertaklar, hikoyalar kerak. Obrazlar bilan so‘zlash uchun shoir bo‘lmasa-da, jilla qursa jonli, ziyrak va quvnoq fantaziyaga ega bo‘lgan hikoyachi bo‘lish lozim. Bolalar bilan obrazlar vositasida so‘zlashish

uchun bolalarni bilish kerak, shoirning o‘zi, katta yoshli bola bo‘lishi lozim. Ya’ni, oq ko‘ngil, soddadil, go‘dak tabiatli bo‘lib tug‘ilishi zarur”.

Zotan S.Barnoyev “Uchburchak maktublar”, “Jabbor otaning aytganlari”, “Bobomning qo‘llari”, “O‘ttiz yoshlilar” singari she‘rlarida bolalar bilan ana shunday jonli, obrazli tilda so‘zlashadi. O‘quvchi xotirasida uzoq saqlanib qoladigan tiniq manzaralar chizadi.

Shoirning aksariyat she‘rlarida urush va inson taqdiri masalasini turli xil qirralardan o‘ziga xos yo‘sinda yoritishga mayl kuchli. “Jabbor otaning aytganlari” she‘rida urushda bedarak yo‘qolgan o‘g‘lini hamon intiq kutayotgan, o‘z mehriга o‘zi isinib yashayotgan yetim mo‘ysafidning (“Men deyma:— Juda yomon otalar yetim qolsa”) armonli hasratini eshitamiz. “Uka men senga aytsam” asarida esa urushda ko‘plab jarohat orttirgan, hozirgi kunda ham ba’zi olchoq va “qochoqlar”dan yuragidagi jarohati kuchaygan jangchi o‘z ko‘nglini bo‘shatadi. “Otamning o‘rtoqlari”da oltmishning teng yarmida ota degan nomga ega bo‘lgan lirik qahramonni keksa jangchilar g‘oyat izzat qilishadi (“Otam o‘rnida ko‘rib, ular meni sizlashar”), ularning borligidan lirik qahramon ham cheksiz faxrlanadi. Ular yurtga jon fido qilishgan, bugun hamon hayot jabhasining oldingi safida. Shu boisdan ham otasining o‘rtoqlari oltmishdan oshib qolsa-da, belidagi belbog‘lari unga jangchining kamarini eslatadi. “Qo‘shni kampir iltijolari” she‘rida esa uch o‘g‘lini urushga jo‘natib, uchovidan ham qora xat olgan, yo‘lga qarayverib ko‘zlari to‘rt bo‘lgan mushtipar kampirning dil nolalari yuraklarni zirqiratadi.

E’tiqod tuyg‘ulari, yaxshi xulq yoki yaxshi odat malakalari inson bilan birga tug‘ilmaydi. Ularni jamiyat va odamlar shaxs tabiatida tarbiyalab kamolga yetkazadilar, ya’ni, ushbu fazilatlarni biz hayotimiz davomida o‘qish, o‘rganish, turli xil tarbiya ko‘rinishlari orqali o‘z shaxsimizda shakllantirib boramiz. Shaxsning ma’naviy saviyasini, intellektual darajasini voqelikning ijtimoiy-falsafiy asoslari belgilab beradi. Safar Barnoyev she‘rlarining yoshlar tarbiyasida salmoqli o‘rni, burchi-vazifasi bor. Bu o‘ziga xoslik – ota-bobolarning ezgu ishlariga sadoqatda ko‘rinadi. Bu borada shoirning “Mening o‘z burchim bor” she‘ri ibratlidir. Unda lirik qahramon ellar – elatlarga ezgulik urug‘ini ekmoqlikni, yomonlarning boshlarini egmoqlikni, go‘daklar kulgusini, Vatanning sof havosini asramoqlikni o‘z burchi, deb biladi. Shu boisdan ham “Agar yaxshilik deb kurashmasam, hech kimman”, – deya qat’iy ayta oladi.

S.Barnoyev asarlarida ruhiy holat tahlili yetakchi. Bu avvalo, ijodkor bolaligi xotiralarining mustahkamligidir. “Menga qolsa, umr daftarini – bolalik daftari deb atardim,– deydi adib “Begubor damlar” maqolasida. – Chunki bolalikda ko‘rgan, bilganing, eshitganing bir umr senga hamroh bo‘ladi. Ana o‘shaning zavqi bilan yashaysan. Har bir daqiqada bola bo‘lgining kelaveradi. Bolalik dunyosi o‘ziga chorlab turadi. Bu dunyo qalbga muhrlanib qolgan. O‘tgan kunlarni eslash, bugungi kunlarning qadriga yetmoq kerak, degan gap-da”.

Umuman, Safar Barnoyev hikoyalaridagi bosh qahramonlar kitobxon bolalar qalbiga yaqin bo‘lib qoladi. Yozuvchi o‘tmishga aylangan urushni ko‘rsatish orqali bugungi hayotimizning naqadar mashaqqat va yo‘qotishlar evaziga, ota-bobolarimizning mislsiz qahramonliklari va mardliklari hisobiga

yaratilayotganligini ta'kidlaydi. Maqsad esa bolalarni Vatanni sevishga, uni asrashga undashdir, o'tmishni bilmasdan turib, bugungi va ertangi kunning qadriga yetib bo'lmasligini uqtirishdir.

Binobarin, Safar Barnoyev yigirmaga yaq'in she'riy va nasriy kitoblarini bitib, o'zbek bolalar she'riyati va nasrini goho hazin, goho quvnoq ruhiyatga sug'orilgan she'rlar-u, hayajonbaxsh adabiy ertaklar, xilma-xil mavzulardagi hikoyalar-u qissalari bilan boyitdi. U istiqlol tufayli mamlakatimizda bolalikka munosabatning tubdan qayta qurilayotganiga teranroq razm sola boshlagan edi. Bu hol uning ijodida bolalik muammolaridan bahs etuvchi publitsistikaning faollashuviga yo'l ochdi. Zotan, uning davr ruhiyatiga sug'orilgan qator dolzarb publitsistik maqola va ocherklari yuzaga keldiki, bular XX asrning so'nggi choragidagi o'zbek bolalar publitsistikasi qiyofasini belgilashda ahamiyat kasb etdi.



## **Tursunboy Adashboyev she'riyatida bolalik va tabiat munosabati ifodasi** (1939-yilda tug'ilgan)

Taniqli shoir Tursunboy Adashboyev 1939- yil 1-yanvarda Qirg'izistonning Jalolobod viloyatiga qarashli Olabuqa tumanidagi Safed Bulon qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, ToshDU (hozirgi O'zMU) ning jurnalistika fakultetida (1962-1968) o'qigan. Moskvadagi Adabiyot institutida ham tahsil olgan. T. Adashboyev dastlab

“Qirg'iziston haqiqati” gazetasi tahririyatida, O'sh viloyati Yozuvchilar uyushmasida xizmat qilgan. U hamisha O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etgan, she'riy, nasriy asarlari o'zbek tilida chop etilgan.

T. Adashboyev “Cho'lpon” nashriyotida 1987-1999 yillargacha muharrir, bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinbosari sifatida faoliyat ko'rsatadi. T. Adashboyev “Kamolning olmasi” (1965), “Biz sayohatchilar” (1967), “Olatog'-lolatog'” (1978), “Jo'nataman quyoshni” (1982), “Arslonbob afsonasi” (1988), “Uch bo'taloq va sirli qovoq” (1990), “Topishmoqli alifbe” (1997) singari 20 dan ortiq she'riy to'plam muallifi. U qirg'iz adabiyotidan 30 ga yaqin asar tarjima qilgan. Ular orasida ”Manas”ning nasriy bayoni, “Singan qilich” romani bor. Tursunboy Adashboyev “O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi”(1993), “Qirg'izistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi” (1999), “Do'stlik” ordeni (1909), “Manas” ordeni (1995) sohibi. T. Adashboyev bola ruhiyatini yumorga moyil tarzda nozik ifodalaydi. Uning kattalar uchun yozilgan asarida ham o'ziga xoslik sezilib turadi. T. Adashboyev o'zi tug'ilib o'sgan qardosh Qirg'iziston

Respublikasi O‘sh viloyati tabiatini shu qadar mehr, samimiyat bilan tasvirlaydiki, ko‘z oldingizda marjon-marjon manzaralar xushbo‘yini sochib tizilaveradi:

Asqar tog‘dan suv tushar  
Qoyalarda yanchilib.  
Deysan, nahot qarag‘ay  
Ko‘kda qolgan sanchilib.  
Kelar chanqoq bosgani  
Kiyik, qulon ohista,  
Arxar shohi ilinib  
To‘kilar xandon pista.  
Qorli cho‘qqi eslatar  
Qirg‘iz og‘am tumog‘in.  
Tog‘ asalning hididan  
Bitib qolar dimog‘ing.  
(«Sarichelek»)

Bolalarda bir xususiyat bor – o‘yinga, mashg‘ulotga shu qadar beriladiki, uning o‘yinligini ham unutadilar. Yosh qalbda hali rostu yolg‘on, soxta-yu haqiqiy degan tushunchalar o‘rtasida aniq chiziqlar tortilmagan. Ular hamma narsaga ishonadilar, tabiiy deb qabul qiladilar. Hattoki, o‘zlari o‘yin uchun yaratgan narsalarni ham tirik mavjudlik kabi yaxshi ko‘rib qoladilar:

Eh xayriyat, yomg‘ir bu gal  
“Suvga oqib ketmasaydi  
Yo‘lda qolgan rasmlar” deb,  
Dilshod tunda uxlay olmay  
Tashvishlanib chiqdi hadeb,  
Suratlarni o‘chiribdi  
Mashinalar, kaptarlarni  
Cho‘chitmabdi, uchirmabdi.

(«Asfaltdagi rasmlar»)

Taraqqiyot sari intilish – zamonlar uchun qonuniyat. Lekin taraqqiyot munis o‘t-o‘lanlar o‘sgan jaydari yerlarni bosib-yanchib o‘tmasligi, bir-biriga oqibatli mehnatkash chumolilarning uyini buzmasligi kerak. Fan-texnika nechog‘li taraqqiy etmasin, inson bolasi, o‘zini eng avvalo ona tabiat bag‘rida to‘laqonli his etadi. Katta zamonaviy shaharlarda tug‘ilib o‘sgan bolalar qishloqqa borib qolsa, mitti qo‘ng‘izcha bilan kun-tun o‘ynab zerikmasligida hikmat ko‘p. Tursunboy Adashboyev she‘rlarida bola qalbining quvonchi, hayratlari, beg‘uborliklari ufurib turadi:

Chaqmoq ko‘kda yong‘oq chaqdi,  
Qizg‘aldoqlar selda oqdi,  
Quyosh yana kulib boqdi.

T. Adashboyev she‘rlarining qahramonlari “Loyni bir oz tindirib suv zahrini sindirib” g‘isht quyayotgan, “Sapchib oqqan suv bilan kim o‘zarga yugurgan”, xolasiga yordam uchun “... nonni botirib, qotirib qaymoq yegan”, “Tog‘dan

ko'tarilgan quyoshni onasi yopgan patirga" o'xshatgan, buvisining ajinlariga qarab "Dazmol bosib olsangiz, tekis bo'lib ketardi", deb maslahat beradigan, kun bo'yi bog'dagi sirpanchiqda "vagon" bo'lib uchishgach, "Oqshomuyga... Shimning orti suzilib" qaytadigan quvnoq, topqir, xayolkash, mehnatkash, zavqi-yu ishtahasi tobida bo'lgan bolalar.

Ayrim she'rlardagi voqelik, tuyg'ular kechinmasidan shoir bu she'rni o'z boshidan kechirganlari ta'siridanmi yoki kuzatganlari asosida yozganmi–bilinib turadi. Lekin T.Adashboyev she'rlarida bunday chegara yo'q – oddiy chizgilardan salmoqli voqealargacha lirik qahramonning yuragidan o'tgan.

Ag'darishmachoq soz o'yin,  
Polvonlar egmas bo'yin.  
Davrani keng olamiz.  
Chunki tengqur bolamiz.  
Shaylandim minib eshak,  
Akmal ham chiqdi beshak.  
Tushim ekan, xayriyat,

Bu she'rlardagi kitobxonga eng yoqadigan xislat – samimiyat, xolislik. Shoir bolalar, kattalar tabiatining, o'zligining yarq etgan bir qirrasini ko'rsatib qo'yadigan manzara, voqea, bahsning suratini so'zlarda chizadi. Shu orqali o'quvchilarni bag'ri kenglikka, mustaqil mushohada yuritishga o'rgata boradi.

Bolalar arzimagan bir xasdan ham kashfiyot qilishlari, uni langarcho'p deb miriqib o'ynashlari mumkin. Ba'zan farzandlarimiz ertak qahramonlariga aylanadilar: gullar bilan suhbatlashadilar, xazonlarni qayiq qilib sayohatga chiqadilar, nima uchun qushlar ularning qo'liga qo'nmayotganidan ajablanadilar... Dunyo bolalar adabiyotida kichkintoylarning shu xislatiga asoslangan ajoyib ertaklar bor.

T.Adashboyev ijodida ixcham, manzara she'rlar borki, bolalar uchun filmlar yaratuvchi mohir rejissor ular asosida ajoyib asarlarni suratga olishi mumkin. Mana bu to'rt qator she'r go'yo multfilmday.

Boychechaklar nish urib  
To turguncha o'rnidan  
Bahor qishni tarnovga  
Osib qo'ydi burnidan.

Yoki,

Tolning bargi suvga tushib  
Qayiq bo'ldi.  
Bu ayniqsa qumursqaga  
Loyiq bo'ldi.  
Qo'sh qirg'oqni to'lqin yalab  
Ko'kka sapchir,  
Eshkakni-chi, o'zi yakka  
Eshar abjir.  
Teng-tushlari qoldi gap-so'z  
Tayinlashmay.



Qumursqa ham jo‘nab ketdi  
Xayrlashmay...

Tursunboy Adashboyevning turli davrlarni, ya‘ni o‘zining bolalik yillarini eslatuvchi she‘rlarini, farzandlarining bolaligini tasvirlovchi she‘rlarini – barchasini ichki bir yaxlit tuyg‘u – mehr, mehribonlik birlashtirib turadi. Shoir yaratgan obrazlarning hayotiyliги bola tabiatiga yaqinligidadir. Uning “Do‘ppi”, “Kesib turdim”, “Mayiz” she‘rlari quvnoq yumor bilan sug‘orilgan. Kichkintoylarning goh sodda, goh beg‘ubor, goh esa ozgina quv, ayyor xarakteri ochib beriladi. Aytaylik, “Mayiz” she‘rining qahramoni Lola ismli jajji qizcha. U mehmon tog‘aning savollariga juda aqlli javob qaytaradi:

- Oting nima, qizaloq?
- Men-mi, tog‘a, Lolaman.
- Ol mayizdan bir hovuch,
- Yo‘q, odobli bolaman.  
Hovuchingiz kattaroq,  
Siz bersangiz olaman...

She‘rda bolalarning o‘ziga xos topqirligi ham aks etib turibdi. Chunki, qizcha mayizdan o‘zi olib yesa odobsizlik ekanini biladi, mehmon tog‘a olib bersa, uning qo‘lini qaytarib bo‘lmaydi-ku, axir...Mehmon tog‘aning hovuchi ancha kattaligi esa ayni muddao.

“Alam, alam” she‘rida Lolaning teskarisi bo‘lgan Saida ismli qizaloq xarakteri yaratiladi.

- Betoqat qiz Saida  
Sensan nafsing payida,  
Turmaysan dasturxondan  
Uyalmaysan mehmondan.  
Uyat-uyat!
- O‘zing anor yeyolmay,  
Ozgina ber deyolmay,  
Ko‘zing to‘rt-ku bechora,  
Ololmasang ne chora,  
Alam-alam!

Ko‘rindiki, T.Adashboyevning juda ko‘p she‘rlarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar va qizaloqlarning turli fe‘l-atvorlari quvnoq va samimiy talqin etiladi. Kichkintoy lirik qahramonlar goh o‘zlarining soddaliklari tufayli kulgili holatga qoladilar, gohida o‘zlarini dono hisoblab, kattalarga gap uqtiradilar: tufllari eski bo‘lmasligi uchun sandiqqa solib qo‘yadilar, kiyishga qizg‘anib, asrab yurgan tor kelgan shimni katta bo‘lsam kiyaman deydilar, do‘ppisini o‘rtoqlari koptok qilib tepganda darvozabon bo‘lgani uchun choki so‘tilganida ham o‘zini aybsiz hisoblaydi, yoki qo‘g‘irchoqlari-o‘quvchilarining barchasiga qattiqqo‘llik bilan ikki qo‘ygan “o‘qituvchi” barcha beshni o‘ziga qo‘yadi va h.k.

Bundan shuni anglash mumkinki, Tursunboy Adashboyevning qalbi bolalik beg‘uborliklari, samimiyati, soddaligi, yorqin hayrat-u quvnoq topqirliklari

olamida sobit turibdi. Binobarin, shoir ijodi adabiyotshunoslikda keng o'rganilib, alohida tadqiqot mavzuiga ham aylanib ulgurgan. Jumladan, B.Ashurov o'z ishida shoir ijodining uch asosiy bosqichini ajratib ko'rsatadi:

1. XX asrning 60-70-yillari. Bu davrda u xalq og'zaki ijodi, jahon bolalar adabiyoti hamda o'zbek bolalar adabiyoti yetakchi namoyandalarning eng yaxshi an'analarini o'zlashtirgan.

2. XX asrning 80-yillari. Bu davrda Tursunboy Adashboyev o'zbek bolalar adabiyotida o'z o'rniga, o'z so'ziga ega bo'lgan shoir sifatida shakllandi, ijtimoiy dolzarb masalalarni bolalar she'riyatiga olib kirdi.

3. Istiqloq davri. Bu davr T.Adashboyev ijodiy kamolotiga rivoj qo'shdi. U ona-Vatan, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq, milliy, tarixiy, madaniy va adabiy qadriyatlarimiz haqida to'lib-toshib kuylovchi, yosh avlodni ularga sadoqat ruhida tarbiyalashga da'vat etuvchi sermahsul ijod bilan mashg'ul bo'ldi.<sup>41</sup>

Shoir salkam ellik yillik ijodi davomida ko'plab ballada, ertak va dostonlar yaratgan. "Ustaning baxti", "Dovonlar", "Burgutning o'limi", "Qismat" balladalar; "Sirli sharshara", "Nur daryo" dostonlari; "Adolatli qozi", "Oriyatli xo'roz", "Oltin yolli tulpor qissasi", "Roston xola–doston xola" ertaklari xalq og'zaki ijodi ta'sirida yozilgan.

Uyg'ur xalq ertagi asosida qayta yaratilgan "Adolatli qozi" ertagi sujetini jo'jalarga qiron keltirayotgan Tulki ustidan tovuqlarning qoziga arz qilishi bilan bog'liq voqealar tashkil etadi. Majoziy usulda bitilgan ushbu ertakda birinchi qozi – Arslon. Tovuqlarning arz-dodini tinglagan qozi haqiqatni ayon qilish uchun Tulkini so'roqqa chaqirtiradi:

Paydo bo'ldi quv Tulki,  
Yetmish yetti bukilib.  
Qo'ltig'ida paryostiq,  
Ta'zim qilar yukinib:  
– Davlatingiz bir umr,  
Bo'lsin bekam, ziyoda.

Ayyor, xushomadgo'y Tulki men tovuqning go'shtiga emas, patiga o'chman, chunki men yostiqdo'zman, mana, tovuq patlaridan Sizga atab paryostiq tikdim, deya paryostiqni Qozining yonboshiga suyaydi. Sovg'a-salom olgan qozi ishni tekshirtirishni orqaga tashlaydi. Natijada Tulki qutulib qoladi.

Kun ortidan tun o'tib,  
Falak charxi aylandi.  
Bu orada Qashqir  
Qozi qilib saylandi.

Tovuqlar endi bu qozi haqiqatni ro'yobga chiqarar, jinoyatchining jazosini berar degan umidda Qashqirga murojaat qiladilar. Tulki yana eski usulni qo'llaydi, bu qoziga ham paryostiq sovg'a qilib, qutulib qoladi. Ammo uchinchi marta Tayg'on qozi etib saylagan vaqtda tulkining hiylasi o'tmaydi. Shu sababli Qozi:

<sup>41</sup>B. Ashurov. Tursunboy Adashboyevning poetic mahorati. T., "Fan", 2009; yana: Hozirgi o'zbek bolalar adabiyoti va Tursunboy Adashboyev ijodi. –Kitobda: Beg'uborlik kuychisi. Maqolalar to'plami. T., "Navro'z", 2011. –B.38

– Bu makkorni hoziroq,  
Qirga quvib chiqinglar.  
Tulki zoti uchrasa,  
Tutib somon tiqinglar...

Deb farmon beradi. Shu tariqa, xalq ertaklaridagidek, yaxshilik murodiga yetadi.

“Oltin yolli tulpor qissasi”da Olabuqa qishlog‘idan o‘n chaqirim naridagi Chotqol tizma tog‘larining etagida joylashgan, “chor atrofni archazorlar kiprik misol to‘sgan” Tulpor ko‘l afsonasi qalamga olinadi. Bu adabiy ertakda inson tabiatidagi azaliy ochko‘zlik, boriga qanoat qilmaslik oqibatlarini xalq ertaklariga monand aks etgan. Adabiy ertakdan ma‘lum bo‘lishicha, Chotqol tomondan baytalini yeldirib, ovuliga qaytib kelayotgan cholning ayni peshin chog‘ida Tulpor ko‘l bo‘yiga yetib kelishi voqea sujetiga asos bo‘lgan. Chol issiqdan tolganligi sababli ko‘lning yam-yashil qirg‘og‘i yaqinida bir pas dam olmoqchi, qolaversa, peshin namozini o‘qish niyatida otdan tushadi. U namoz o‘qish bilan mashg‘ul bo‘lgan vaqtda esa ko‘lning o‘rtasidan oltin yolli tulpor chiqib, “ko‘kka sapchib pishqirib, ko‘zi yonib, shaylanib”, bo‘z baytal atrofidan uch marta aylanadi.

Cho‘pon esa beg‘am, befarq,  
Ibodatin buzmasdan—  
Turib boqsa duldul ayg‘ir  
Sho‘ng‘idi ko‘l qatiga.

...Oradan o‘n ikki oy o‘tib, cholning baytali oltin yolli qulun tug‘adi. Ammo mol-dunyoga hirs qo‘ygan kampir yana bitta shunday qulunli bo‘lish dardida qaysar cholni aldab-avrab, Tulpor ko‘lga qayta borishga ko‘ndiradi. Chol baytalni minib, ko‘l tomonga yo‘l oladi, oltin yolli toychoq ham onasining ketidan qolmay, ularga ergashadi. Chol yana avji peshin chog‘ida ko‘l bo‘yiga yetib keladi va:

Yozdi shoshib chakmonini  
Olib-olmay tahorat.  
Chol shunchaki, nomi uchun  
Namoz o‘qib o‘tirar.  
Oltin yolli ot tashvishi  
Yuragini o‘pirar.

Shunga yarasha, ko‘ldan chiqqan tulpor toychoqning bo‘ynidan tishlab, o‘zi bilan qo‘l ostiga olib ketadi. Chol esa barmog‘ini tishlab qolaveradi.

Ko‘rinadiki, bu adabiy ertakda ham xalq og‘zaki ijodida va A.S.Pushkin ertaklariga o‘xshash insonning o‘z ochko‘zligi, qanoatsizligi tufayli boridan ham ajrab qolishi, mahrum bo‘lishi haqqoniy ochib berilgan.

Xullas, T.Adashboyevning ertak va she‘rlarida zamondosh o‘quvchiga ma‘naviy-ma‘rifiy oziq bera oladigan qahramonlar, obrazlar hamda detallar juda ko‘p. Vatan, ona, qadrdon shahar yoki qishloq, saxovatli tabiat, ko‘ngli daryo odamlarga mehru muhabbatimiz rishtalarini bog‘lagan o‘tgan kunlarimizni sog‘inamiz. Shu sog‘inchning ildizlari qalbimizda qanchalar chuqur bo‘lsa, demak, taqdir bizni siylabdi. Tursunboy Adashboyev she‘rlarida hammadan

oldin Vatanning muqaddas ostonasi bo‘lgan ona qishloqqa juda yoshligidan o‘ychan termulgan, undagi har bir mavjudlikni ixlos bilan ardoqlagan; sodda-yu to‘pori, qismati mehnat va yana mehnat bo‘lgan, odamlarni yoshiga nisbatan ulug‘roq nigoh bilan kuzatgan qalb manzaralari ko‘zga tashlanadi.

## Anvar Oobidjn – bolalar shoiri, adibi va dramaturgi (1947-yilda tug‘ilgan)



O‘zbekiston xalq shoiri **Anvar Obidjon** 1947-yilning 8-yanvarida Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida tug‘ilgan. U o‘zbek bolalar adabiyotini o‘zining qisqa va mazmunli she‘rlari, qiziqarli hikoya, qissa, pyesalari bilan boyitib kelayotgan adib va dramaturgdir. A.Obidjon hozirgi O‘zbekiston milliy

universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. U bir qator gazeta va jurnallarda xodim, bo‘lim mudiri bo‘lib ishlagan.

A.Obidjon sermahsul ijodkor. Uning “Ona Yer” (1974, she‘rlar), “Bahromning hikoyalari” (1980, she‘rlar), “Ey, yorug‘ dunyo” (1983, qissa), “Olovjon va uning do‘stlari” (1983, qissa va hikoyalar), “Bezgakshamol” (1985, hajviy she‘rlar), “Masxaraboz bola” (1986, she‘rlar), “Akang qarag‘ay Gulmat” (1987, qissa va hajviyalar), “Juda qiziq voqea” (1987, she‘rlar), “Oltin yurakli Avtobola” (1988, qissa va hikoyalar), “Dahshatli Meshpolvon” (1989, qissa va pyesalar), “Yerliklar”(1990, hajviyalar), “Alamazon va Gulmat hangomasi” (1992, qissa, pyesa, she‘r), “Ajoyibxona” (1993, she‘riy taqvim), “Meshpolvonning janglari” (1994, qissa va doston), “Alisher ila Husayn yoki uch dono va o‘g‘ri” (1996, doston va she‘rlar), “Alamazon va Gulmat” (1998, qissa va she‘rlar), “Oltiariq hangomalari”, (1999, hajviyalar), “Bulbulning cho‘pchaklari” (2001, she‘r va hikoyalar), “Odobli bo‘lish osonmi?” (2001, hikoya), “Meshpolvon” (2003, qissa), “Bezgakshamol-2” (2003, hajviy she‘rlar) kabi to‘plamlari nashr etilgan.

Respublika yosh tomoshabinlar teatri hamda Farg‘ona, Qarshi, Qo‘qon, Guliston teatrlarida Anvar Obidjonning “Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi”, “Pahlavonning o‘g‘irlanishi”, “Topsang, hay-hay”, “To‘tiqul”, “Qorinbotir”, “Navro‘z va Boychechak” pyesalari sahnalashtirilgan. Uning asarlari asosida “O‘zbekfilm” kinostudiyasi tomonidan “Tilsimoy-g‘aroyib qizaloq”, “Dahshatli Meshpolvon” komediyalari kino tasmasiga tushirilgan. Anvar Obidjon she‘rlariga bastalangan qo‘shiqlarning asosiy qismi bolalarga bag‘ishlangandir.

Uning “Kulchalar” va “Botirvoyning kundaligi” turkumlaridagi qahramonlarning deyarli hammasi turli yoshdagi bolalardir. Bu she‘rlarda bolalik tuyg‘ularining sofliqi, orzu-umidlarining beg‘uborligi, tabiatan bir oz shumligi, quvnoqligi kata iste‘dod bilan ochib beriladi, o‘quvchini goh yayrab-yayrab

kulishga, gohjimgina o'ylashga, fikrlashga, xulosalar chiqarishga undaydi. Adibning mahorati shundaki, u bola dunyoqarashidagi o'ziga xosliklarning tub-tubini ko'ra oladi. Ichki olamini, o'y-xayollarini, kichik qalbida kechayotgan ruhiy jarayonlarni nozik did bilan kuzatadi. Bir qaraganda, juda oddiy ko'rinadigan kichik-kichik she'rlarda inson tabiati shakllanishining dastlabki bosqich jarayonlari keng ko'lamda tahlil etib beriladi. Samimiy yumor, yengil hajv elementlari yorqin ko'zga tashlanadi. Shoirning "Hali o'zim bolaman-ku!", "Sinchkov bola", "Shu ham fil-mi?" kabi o'nlab she'rlari shu jihatdan nihoyatda xarakterlidir.

Dadajonim,  
Dadajon,  
Otim nega  
Otajon?  
Axir kimga  
«Ota»man?  
Shuni o'yla-a-ab  
Yotaman.

She'zni o'qiganda endigina so'zlar ma'nosini anglay boshlayotgan bolakayning holati ko'z o'ngimizga keladi. Uning kutilmagan «muammo»li masala oldidagi o'ychanligi o'quvchining labiga nurli tabassum paydo qiladi.

Anvar Obidjon shariyati obrazlar olamining kengligiva rang-barangligi bilan ajralib turadi. Aytaylik, "Siz eshitmagan qo'shiqlar" turkumida ellik besh qo'shiq bor. Bu o'rinda "qo'shiq" atama sifatida qo'llanmaydi. Balki, turli jonivorlar, qushlarning sayrashi, yoxud predmetlarning kechinmasi tarzida berilib, ramziy mohiyat kasb etadi. Masalan, "Kaklik qo'shig'i", "Koptoklar qo'shig'i", "Chirmanda qo'shig'i", "Miltiqcha qo'shig'i", "G'ulg'ultovuq qo'shig'i", "Qirchang'i qo'shig'i", "Shippak qo'shig'i", "Ruchka qo'shig'i" kabilar. Jumladan, "Bedana qo'shig'i" shunday yangraydi:

Mayli quring to'r qafas  
Pit-piliq,  
Hech yo'q, sayrab tursam bas,  
Pit-piliq,  
Azal erkindir zog'lar,  
Pit-piliq,  
Qafasdadir sayroqlar  
Pit-piliq

Shoir xulosasi shuki, zo'r sayroqi qushlarni qafasga soladilar, zog'lar ozod yuribdi. Anvar Obidjon she'riyatining yana bir ahamiyati, shoir she'rining rang-barang shaklidan foydalangan. Bir misrali she'r, ikki, uch, to'rt, besh misrali she'rlar: bu bandga ko'ra rang-baranglik. Ayni damda, to'rt hijodan boshlab, to'qqiz hijo, ba'zan o'n bir hijoli she'rlar yaratgan. "Chumoli" she'ri ancha sodda:

Qayga borar  
Chumoli  
Boshda parang

Ro‘moli  
Yelkasida chamadon  
Chamadonda  
Arpa non

Shoir she’rlarining kaliti sarlavhasidadir. Aks holda bunday she’rlar oddiy bir qofiyabozlikdan iborat bo‘lib qoladi. Masalan, “Quyoning tug‘ilgan kunida” she’rining sarlavhisi bo‘lmasa uning mohiyati ochilmaydi, she’r ma’noga ega bo‘lmaydi. Chunki tug‘ilgan kunda:

Ari keldi.  
Asal olib,  
Echki qopga  
Karam solib  
Ayiqlik keldi  
Qoshiqlik bilan  
Bo‘ri – pichoqlik  
Sochiqlik bilan.

Shundagina har bir hayvonning o‘zi nimani xush ko‘rsa o‘shani ko‘tarib kelgani ayon bo‘ladi.

O‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida o‘z o‘rni, hissasi bo‘lgan shoir she’riyati o‘ziga xos shaklga, obrazlar tizimiga qofiyalanish tartibiga egaligini alohida qayd etgan Z. Ibrohimova yozadi: “... u bola dunyoqarashidagi o‘ziga xosliklarning tub-tubini ko‘ra oladi. Ichki olamni, o‘y xayollarini, kichik qalbida kechayotgan jarayonlarni, nozik did bilan kuzatadi. Bir qaraganda, juda oddiy ko‘rinadigan kichik-kichik she’rlarda inson tabiati shakllanishining dastlabki bosqich jarayonlari keng ko‘lamda tahlil etib berilgan”.<sup>42</sup>

Darhaqiqat, Anvar Obidjon bolalarga shunchaki yozmaydi. Uning she’rlari o‘quvchiga ta’lim va tarbiya beradi. Shoir kichik yoshli o‘quvchilarga she’rlar taqdim qilgan ekan, ular tushunmaydilar deb fikrni soddalashtirmaydi :

Ona quyosh , aksingni  
Chizdim yo‘lakka  
Sen hammaga mehribon,  
O‘zing bo‘lakcha  
Nur tushmagan joylarda,  
Kezarmish kulfat.  
Yo‘lagimni hech qachon ,  
Bosmasin zulmat.

Barmoqlikda yozilgan bu she’rni bog‘cha bolasidan tortib, istagan yoshdagi o‘quvchi o‘qishi, undan zavq olishi mumkin. Sababi, vazni yengil , ya’ni hijolar soni kam. Anvar Obidjon o‘z she’rlarida o‘simliklar dunyosini ochib beradi.

Ismim:–  
Kadi-oshqovoqlik  
Barg ostida

<sup>42</sup>Ibrohimova Z. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. Toshkent, 2005. –B.17

Yotaman  
Tomga  
Palak otaman.

She'rxon oshqovoqning shevada "kadi" deb yuritilishini, bargi katta bo'lib, palak otib, tomga chiqib ketishini o'rganadi. Shu bilan birga uning tabobatdagi ahamiyati oydinlashadi:

Qo'shib yesang  
Shakarga,  
Dori-darmon  
Jigarga...

Shoir oshqovoqning foydasi haqida so'zlashdan tashqari, o'quvchiga hazillashib qo'yishni unutmagan:

Nega uzding  
Bandimni,  
Sog'indingmi  
Mantimni ?

Bunday she'rlarda biologiya, zoologiya, tabiatshunoslik va boshqa fanlarga doir ma'lumotlar badiiy talqin etilishi orqali ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyat ko'zlangani e'tirofga sazovor. Shu ma'noda, shoirning "Turp", "Piyoz", "Nok", "Shaftoli", "Anor", "Gilos", "Pomidor" va boshqa mevalar talqin etilgan she'rlari kichkintoy o'quvchilarda sabzavot va mevalar haqida yaxlit tasavvur uyg'ota olishi bilan e'tiborli.

Anvar Obidjon "Anor" she'rida anorning donalarini askarlarga o'xshatgan. Ma'lumki, Alisher Navoiy "Anor" chistonida anorning foydali xususiyatlarini yashirib bersa, Uvaysiy "Anor" chistonida anorni gumbazga o'xshatadi, anor donalarini "yuzlarida parda tortig'liq o'ltururlar bag'ri qon" deb ta'riflaydi. Anvar Obidjon she'rini ham lug'z desa arziydi. Shoir anor so'zini tilga olmay "har donasi bir askar, bir qal'ada ming lashkarligini, ular panada oq pardali xonada tinch" yotganini tasvirlaydi. She'rning yakuni hamo 'ziga xos :

Xonalar tinch  
Atrof jim,  
Qal'achani  
Buzsa kim  
Boshlanadi  
To'polon....  
U yog'i  
Sizga ayon.

Shoirda she'riy topishmoq deyishga loyiq she'rlar bor. Faqat shoir dastlabki satrlarda yoki nomida o'sha jismning nomini berib qo'yadi. "Baqlajon", "Mosh", "Handalak", "O'rik", "Pista", "Sarimsoqqiyoz", "Qalampir" kabi she'rlarida shunday holatni ko'rish mumkin. Ammo "Ho'kizning tarjimai holi", "Maymunning tarjimai holi", "Qizilishtonning tarjimai holi" kabi she'rlaridan sarlavhani olib tashlanishi kifoya: bola uchun topshiriq tayyor bo'ladi. Bu turli yoshdagi har xil saviyadagi bolalarni fikrlashga o'rgatadi.

Aslida shoir bunday she'rlarni "Topishmoqlar" nomi ostida berib, sarlavhasini olib qo'ysa, she'rlarning g'oyaviy-badiiy qimmatini yanada oshadi:

**Bahorda to'n  
Bichaman,  
Uni kuzda  
Yechaman.  
Shamol kelsa  
Guvillab,  
To'kilaman  
Duvillab.  
Oling meni,  
Akalar,  
Yeb ketmasin  
Hakkalar.  
Bolangizga  
Yoqaman.  
Ham meva,  
Ham soqqaman.**



Bunday she'rlar topishmoq janr stilizatsiyasiga dalil bo'ladi:

**Behi  
Ikki yuzim  
Burishqoq.  
Dema meni  
Urishqoq.  
Ishga solib  
Aqlimni,  
Sezdirmayman  
Jahlimni.  
Agar shirin  
Bo'lmasam,  
Xushomadni  
Bilmasam,  
Meni darrov  
Kesishar,  
O'rnimga  
Nok ekishar.**



Anvar Obidjonning "0099-raqamli yolg'onchi", "Ey, yorug' dunyo", "Alamazon va uning piyodalari" kabi qissalarida hamda, "Botinkaning tufliga xati" tipidagi turkum she'rlari ham o'quvchini befarq qoldirmaydi. Anvar Obidjon faqat tabiatni tasvirlovchi, turfa xil ramziy, majoziy obrazlar yaratuvchigina emas, balki ijodining kata qismida bolalar dunyosi, ruhiyatini ham tasvir etgan. Uning "Dahshatli Meshpolvon" ertak-qissasi esa mustaqillik arafasida yozilgan tom ma'nodagi "ozodlik varaqalari" edi (Sattorov M.). Asarda vatanparvarlik va mustaqillik tuyg'usi yosh qahramon timsolida gavdalangan. Adib bu ertak qissani "Alpomish", "Ravshan" kabi xalq dostonlari ohangida yozadi. Bu o'z navbatida bolalar adabiyotiga xalq dostonlari ruhini olib kirdi, desak yanglishmaymiz. Yozuvchi qahramonini o'z tilidan xomsemiz, anchayin mechkay, yebto'ymas, hatto bir qadar tekinxo'r tasvirlaydi. Bolaligida buvisining qo'lga qarab o'sgan bo'lsa-da, aqli kira boshlagach, ota-onasini bosqinchi dushmanlar asir qilib olib ketgani, ularning qiynoqda azoblanayotganlarini his qilgach, qalbida isyon



tuyg‘usi jo‘sh uradgi. Meshpolvon ozodlik yo‘lida tish-tirnog‘igacha qurollanadi: ostida oqsoq xachir, qo‘lida dastkalla, o‘qlov, qalqon-qozonning yog‘och qopqog‘i. Bu yurish ishtirokchilaridan biri do‘sti, Go‘ro‘g‘libek va Ravshanxonlar avlodidan bo‘lgan Oshiqbola. Muallif Oshiqbolani ham polvonlikda bobolaridan kam emasligini xalq dostonlariga monand tasvirlaydi: masalan, oltisida o‘zini otda erkin tutadigan, yettisida nonga xanjarda yog‘ surtadigan, sakkizida o‘q-yoy bilan tangani yirtadigan... o‘n birida uyida oshna kutadigan, o‘n ikkisida haftalab ovga ketadigan va h.k. Meshpolvon o‘z lashkari bilan bosqinchi Sepkilshohga qarshi ayovsiz jang qiladi. Ular Qizqo‘rg‘onga yetib kelgach, shundan voqif bo‘ladilarki, bu yerda turli mamlakatlardan qul – asira qilib keltirilgan go‘zal qizlarni qo‘rg‘onda “tarbiyalab”, so‘ng sayillarda katta pulga sotar ekanlar. Asarda Sepkilshoh saltanatining ma’naviy chirikligi bukri chol tilidan aytilgan fikrlarda oydinlashgan. Doston-qissa nihoyasidagi hayot-mamot jangi ezgulik va adolatning g‘alabasi bilan tugaydi. Sepkilshoh bandilari ham isyon ko‘targach, Meshpolvon lashkarlarining qo‘li baland keladi. Meshpolvon boshiudan qattiq jarohatlansa ham uning ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, millatdoshlari, Vatani ozod bo‘ladi. Qahratoniya Meshpolvonning do‘sti Oshiqbola qo‘liga o‘tadi. Uni Oytumorga o‘ylantirib qo‘yishadi. Meshpolvon ota-onasi va tabib qiz Achaxon bilan o‘z yurtiga qaytadi. Umuman, ertak qissada xalq og‘zaki ijodining ko‘pgina janrlaridan keng foydalanilgani uning xalqchilligi, qiziqarliligini ta’minlashga xizmat qilgan. Asarning g‘oyaviy dolzarbligi esa hamon pasaygani yo‘q.

Anvar Obidjonning bolalarga atalgan nasriy asarlaridan yana biri “Alamazon va uning piyodalari”dir. Adibning bu turkum qissalari ham yosh avlodga, aniqrog‘i “ona yurtning jasur farzandlariga bag‘ishlangan”. Bu asarning qahramoni ham o‘smir yoshidagi olovqalb yigit – Alamazon. U toshtaqaliklar shevasida gurkirab yonayotgan gulxanni anglatadi. Alamazon turkumidagi qissalar ikki mustaqil asardan iborat. Birinchisi –“Alamazon va uning piyodalari”, ikkinchisi “Yaltiroq tugma”. Ularning har ikkalasi ham mustaqil sujet, maqsad-mohiyatiga ega. Har ikkala asarda qahramon o‘z nomiga munosib ekanligi ayonlashadi. Ular o‘z yurti, qishlog‘i qismatiga bezovta qalb bilan yondashadi. Alamazondagi mushohadakorlik, hayot jumboqlarini yechishga kuchli ishtiyoq, jamiyatda faol munosabatda bo‘lish sezilib turadi. Jumladan, Alamazon – tafakkuri uyg‘oq bola. U katta odamlarga o‘xshab, xohlagan kitobini tanlab o‘qiy olmasa-da, jahon bolalar adabiyotidagi mashhur Chippolino, Buratino, Tom Soyer, Gek Finn, Ravshanbek, Alpomish kabi qahramonlar bilan “Alifbe”ni yod olgandan buyon olishadi. Shuningdek, akasining kitob taxmonidan “O‘tkan kunlar”(A.Qodiriy), “Sarob”(A.Qahhor), “Choliqushi” (Rashod Nuri Guntekin), “Anna Karenina” (L.N.Tolstoy)ni ham o‘qib chiqishga muyassar bo‘ladi.

Bu kitoblardan ta’sirlangan Alamazon do‘sti Eshmat bilan birga xazina qidirishga, agar topsalar yaylov etagida o‘n ming kishilik stadion, ko‘p qavatli uy qurish, marmar devorli kattakon choyxona qurish, ko‘chalarga asfalt yotqizish, o‘zlari yashayotgan Qo‘chqorsaroy ustidagi ko‘prikni yangilash, hatto qishloqda bitta durustroq oshxona qurishni ham mo‘ljallashadi. Shuningdek, butun umri

boshlang'ich sinflarga dars berish bilan o'tgan Ahmadali otaga atab terak bo'yi haykal o'rnatmoqchi bo'ladilar.

Umuman, qissalardagi obrazlar, nomlar va tafsilotlar goh fantastik detallar orqali, goh tamsiliy, kinoyaviy ifoda etilarkan, yozuvchining ko'zlagan maqsadi yosh kitobxonlarni mushohadaga undash, o'z yurti tarixini o'rganish, Vatani va xalqining taraqqiyotiga hissa qo'shishga undash ekanligi anglashiladi. Alamazon tog'asi kashf qilgan uxlatadigan doridan ichib uxlab qoladi-da, asar tarkibidagi sarguzashtlar, g'orga qilingan sayohatlar aslida tushda bo'lgani, Zimistonsaroy, Yulduzistondagi voqealar, kishilarni uyqusida ko'rgani dori ta'siri ketgach ayonlashadi. Ammo, Alamazon uyqudan uyg'onsa ham uning ta'siridan qutulolmaydi. U g'ordagi odamlarga yorug' dunyoni boshlab borishiga va'da beradi:

“–Azizlarim, menga ishoning, men baribir sizlarni yolg'iz qoldirmayman. Sizlarni, siz bilan birga Yulduzistondagi hamma odamlarni qorong'u g'ordan yetaklab chiqaman. Hammangiz quyoshni ko'rasiz, quyoshni! Men Yorug' dunyo nomidan gapiryapman...”

Anglashiladiki, Anvar Obidjonning yuqoridagi qissalarida Vatan mustaqilligi orzusi ilgari surilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek bolalar adabiyotining yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishdagi muhim o'rni avvalo, shunday asarlar orqali yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyotida ham mavzularning rang-barang talqini, g'oyaviy dolzarbligi obraz va mundarijasi takomillashdi. Yangi voqelikni o'zida teran aks ettirayotgan adabiy ijod namunalari bugungi bolalar adabiyotining eng katta yutug'idir. Bu jihat A.Obidjonning ertak-dostonlarida yaqqol ko'rinadi:

### “Odil Burgutshoh va “Zamburug”



- Anvar Obidjonning Odil Burgutshoh va “Zamburug” laqabli josus haqida ertak” ertak -dostonining bosh qahramoni-Burgutshoh. Shoir bu asarda kontrast usuli, ya'ni holatlarni qarama-qarshi qo'yishdan foydalanadi. Asarda burgut va qarchig'ay, lochin va sor, qizilishton bilan qorayaloq, bulbul bilan boyqush qarama-qarshi qoyilgan. Yosh kitobxon o'zaro zid qo'yilgan obrazlarni solishtirib, tabiatda ular qanday qushligini o'rganish bilan birga, shoir ularni bejizga zidlantirmaganini anglay oladi.

- **Negaki Burgut mag`rur qush,**
- **U o`laxa yemaydi, o`lganda ham mag`rur, o`zini qoyalarga urib o`ladi. Qarchig` ay burgutga yetolmaydi. Shuningdek, bulbul sayroqi qush, boyqush esa tunda yuradigan vahimali ovoozda sayraydigan, ayniqsa, bola etini junjiktiradigan qush.. Ertakning tuguni Qarchig` ay va Burgut orasidagi qarama-qarshilikdan boshlanadi. "Zamburug`"ning josus bo`lib Burgutning yurtiga kelishi tugundagi sirlilikni oshiradi. "Zamburug`" laqabli popishak josus sifatida saroyga kirar ekan, malika Shabnamga ustozlik qiladi.**



**Malika Shabnam va shahzoda Quyosh bir-birlarini sevar ekanlar. Ammo Shabnamga Chaqmoq uylangan. Chaqmoq to`ng`ich shahzoda bo`lib, bo`lajak tojdor. Shoir voqealar rivoji jarayonida fitnadan foydalanadi:**

Ho`ng-ho`ng yig`lab yotarkan  
 Shabnam Шабнам,  
 Kirdi Chaqmoq xonaga ildam:  
 – Sendek makkor xotinga la`nat!  
 La`nat yog`sin menga ham abad!  
 Buncha kalta bo`lmasa fahmim,  
 Nechuk idrok etmabdi aqlim, –  
 Mamlakatga bo`lgin deya shoh,  
 Eringga baxt tilaganing choq  
 Qilganding-ku ukamga g`araz.



## Ertakning kulminatsion nuuqtasida

- Quyosh zaharlanib o`ladi. Chaqmoq xotinini aybdor hisoblab, uni o`ldirishga urinadi. Asl aybdor Popishakligini bilgach, o`zini baland qasrdan yerga otadi. Shoir voqealarni shunchaki tasvirlab qo`ymaydi, balki, fitna, josuslik, xiyonat har doim mavjudligini, bu iflosliklar bois begunoh ezgu insonlar bevaqt o`lishi mumkinligini uqdiradi. Popishak zindondaligida soqchi Qarqunoqni aldab-suldab, o`zini ozod qilishga chorlaydi, behisob boyliklar, yaxshi hayot va`da qiladi. Oqibat Popishak ozod bo`lgach, qarqunoqni o`ldiradi.



## Shoir xulosasi ertakning ahamiyatini ko`rsatuvchi jihatlaridan biridir:

Qichqirgan payt laqma Qarqunoq,  
Ko`kragiga sanchildi pichoq.  
Tanlolmadi o`zibop jo`ra,  
Bo`lolmadi yot yurtida to`ra,  
Bulg`andi el unga bergan tuz,  
Qolib ketdi uyida yolg`iz  
Xotini tul,  
Bolasi sag`ir...  
O, sotqinning qismati og`ir?



Demak, shoir asar xulosasida vatanfurushlikning jazosi eng og`irligini ana shunday timsollarda ochib berishga erishgan.

Mendek mashhur  
Qarchig`ayshohga  
Shartta qurbon bo`lmagan sallot-  
Iltifotga loyiqmas...

Jallod!!!

Tiz cho`kib

Dod soldi "Zamburug`";

Ketingizga bo`layin quyruq"

Popishak o`ldiriladi. "O, josusning qismati og`ir!".

Shoir josusning qismatini ham yosh kitobxonnga shu tariqa uqdiradi.



Bu ertak-doston 1987-yilda e`lon qilingan.



Demak, asar shoirning istiqlogacha bo`lgan davr ijodi namunasi. Shoir odil shoh haqida fikr yuritadi, muhimi, u buyuk o`zgarishlarni, bugungi yorug` kunlarni ijodkor qalbi bilan his qila olgan:

Mo`l bo`larmi sandiqlarda don?

Uxlolgaymi tunlar yosh jahon.

Eldoshlarin taqdirin bedor?

Boqolgaymi yovlarga hushyor?

Yurt tarixin supurmasmi yel?

O`zligini saqlolgaymi el?

Buzilmasmi ko`hna qasrlar?




Toptalmasmi qutlug` qabrlar?

Va undagi o`ychan lolalar?

...Ertak tamom.

Xayr, bolalar!





## **MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:**

### ***Bilim, ko'nikma vama lakani rivojlantirishga yo'naltiruvchi savollar:***

1. Safar Barnoyev she'riyatidagi urush bolalari taqdiri ifodasini izohlang?
2. Miraziz A'zam she'rlarining obrazlar olami qaysi jihatlar bilan o'ziga xos.
3. 1940-80 - yillar o'zbek bolalar nasridagi tamoyillar haqida nima deya olasiz?
4. Anvar Obidjonning meva va sabzavotlar to'g'risidagi she'rlar turkumiga munosabat bildiring?
5. Milliy istiqlol yillaridagi bolalar nasri tamoyillari haqida ma'lumot bering?
6. Safar Barnoyevning zamonaviy mavzudagi qanday asarlarini bilasiz? Tarixiy mavzudagi-chi?
7. Tursunboy Adashboyev she'riyatining mavzular olami haqida mulohaza yuriting?
8. Milliy istiqlol yillarida bolalar publitsistikasi qanday tamoyillarga boy bo'ldi?
9. M.A'zamning til to'g'risidagi she'riyatining g'oyaviy dolzarbligi nimada?

### ***Mavzuga oid test savollari:***

1. **Bolalarning sehrli-fantastik va sarguzasht romannavis adibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) X. To'xtaboyev;
- b) H.Nazir;
- c) A.Obidjon;
- d) S.Barnoyev

2. **“Lochin qanotlar” romani muallifi va mavzusi to'g'ri belgilangan javobni aniqlang.**

- a) X.To'xtaboyev; urush va bolalik mavzui talqini;
- b) H.Nazir, urush va bolalik mavzui talqini;
- c) S.Barnoyev, urush bolalari;
- d) A.Obidjon, istiqlol g'oyasi.

### ***Tavsiya etilgan adabiyotlar:***

1. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. –T.:Fan, 1989.
2. O'zbek bolalar adabiyoti antalogiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild. –T.:O'qituvchi, 2006.
3. O'zbek bolalar adabiyoti. Maqolalar. –T.: Yosh gvardiya, 1969.
4. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayoni. – T.: Fan, 1989
5. Jumaboyev M. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Majmua. –T.: O'qituvchi, 1996
6. Yo'ldoshev S. Quدرات Hikmatni eslab. // “Gulxan” jurnali, 1998, 11-son 8-13 bet.
7. Yo'ldoshev S. Baxtiyorlar kuychisi. – Kitobda: Sayidjonning soati. –T.: Yosh gvardiya, 1964.
8. Barnoyev S.Karimjon-Karlson. –T.:Yosh gvardiya, 1988.
9. Barnoyev S. Oq laylaklar . –T.:Yosh gvardiya, 1982.
10. Nazarov B. Qorachiqqa singgan chehralar. // O'zAS, 1984- yil, 17-avgust
11. Anvar Obidjon. Ey, yorug' dunyo... –T.: G'Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti , 1985. –B.66.
12. Anvar Obidjon. Juda qiziq voqea . – T.: Yulduzcha, 1987. –B. 224
13. Anvar Obidjon. Alamazon va Gulmat hangomasi. –T.: Cho'lpon, 1992. –B 352 .
14. Anvar Obidjon. Meshpolvonning janglari. –T.: Cho'lpon, 1994. –B.352
15. Barakayev R. Jonajonim she'riyat. –T.: Cho'lpon, 1997.
16. Isomiddinov Z. Dil ko'prigi. // Jahon adabiyoti, 1998, 12-son.

## X. ISTIQLOL DAVRI BOLALAR ADABIYOTI

### Reja:

1. Istiqlol davri bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Hamza Imonberdiyev ijodida istiqloq g‘oyalari ifodasi.
3. Kavsar Turdiyeva – bolalar shoiri va dramaturgi.
4. Dilshod Rajabov – bolalar shoiri.
5. Abdusaid Ko‘chimov ijodida bola ruhiyati talqini.

**Istiqlol davri bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari.** Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti hayotni o‘rganish-bilishning badiiy vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. U zamondoshlarimizning, jumladan, yosh avlodning ruhiy holatini teran tadqiq etishga, fikr doirasini kengaytirishga, his va tushunchalarining shakllanib, voqelikka to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga da‘vat etadi. Bugungi adabiyot tom ma‘noda hayot darsligiga aylanayotgani shu jihatdan e‘tirofga sazovor.

Prezidentimiz mustaqillikning ilk yillaridayoq jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ma‘nan va jismonan sog‘lom avlod tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo‘ydi. “Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi,– deb ta‘kidlagan edi, shu munosabat bilan yurtboshimiz I.A.Karimov,– aytish mumkinki, hayotining ma‘nosi qobil farzandlar o‘stirish, ularni ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko‘rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir”.<sup>43</sup>

Chindan ham ilgari bolalar adabiyoti haqida gapirganda yosh avlodni ma‘naviy, axloqiy va jismoniy to‘g‘ri tarbiyalash maqsadida ular diqqatini ijtimoiy hayotning o‘tkir muammolariga tortish–bolalarning nozik qalblariga ozor yetkazish, jarohatlash hisoblanardi. Bugungi kunda esa bolalar uchun ham ijtimoiy dolzarb mavzudagi asarlar ko‘plab yaratilmoqda. Shu bilan birga badiiy saviyasi pishiq asarlar yuzaga kelayotir. Hodisa bu davrda yangicha tafakkur in‘ikosi sifatida ko‘zga tashlandi. Milliy bolalar adabiyotining mazmun va mohiyatidagi tub burilish yaqqol ko‘zga tashlandi. Zamonaviy bolalar adabiyotida yosh qahramonlar xarakteri tahlili masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Bolalar adabiyoti shakl va mazmun jihatdan-da yangi tamoyillar kasb eta bordi. Adabiy tanqidchilikda bolalar adabiyotiga munosabat kuchaydi. Milliy bolalar matbuoti mavzu material, g‘oyaviy-badiiy jihatdan o‘sdi, bolalar ijodkorligi namunalari ko‘proq ommalashtirildi va rag‘batlantirib kelinmoqda.

Mustaqillik yillarida bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e‘tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining qiziqishlari, ruhiy, ma‘naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali o‘quvchilarda axloqiy-ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berildi. Hozirgi adabiy jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq mavzu talqinlarning ustuvorligi (S.Barnoyev, E.Malikov, T.Malik asarlarida), kichkintoylar va bolalar fe‘l-atvoridagi xarakter xususiyatlarning hajviy-

<sup>43</sup> I.A.Karimov. Sog‘lom va barkamol avlod uchun. Istiqlol va ma‘naviyat. T:O‘zbekiston 1994, 126-bet.

yumoristik, fantastik, sarguzasht ifodasi (X.To‘xtaboyev, A.Obidjon ijodi) bolalar va o‘smirlarning murakkab ruhiyat manzaralarining teran aksi (N.Fozilov, M.A‘zam), keng dunyo, tabiat va jamiyat muammolarini ma‘naviy-falsafiy aks ettirgan asarlar (M.A‘zam, A.Obidjon, T.Adashboyev) tahlili dolzarb vazifa. Bunda asrimiz boshlaridayoq bolalar asarlarining g‘oyaviy-badiiy, axloqiy-ma‘rifiy, falsafiy va psixologik jihatdan monografik tahlili, salmoqli tadqiqotlar, risola hamda adabiy-tanqidiy maqolalarning vujudga kela boshlagani muhim hodisa bo‘ldi. Adabiyotshunos olimlar-u tadqiqotchilarning ko‘pgina maqola va risolalarida o‘zbek bolalar adabiyoti tarixi va muammolari ilmiy-nazariy aspektda o‘rganilib, badiiy jihatdan yuksak asarlar tahliliga e‘tibor zarurligi ko‘rsatib berildi. Shuningdek, olimlar o‘tmishdagi bolalar kitobxonligi asoslarini o‘rganish g‘oyalarini ilgari surib, XX asr o‘zbek bolalar adabiyoti salafllari ijodini yangi nuqtayi nazarlar bilan boyitish zarurligini asosladilar. O.Safarovning “Zamonlar tongining charoqlarisiz” (2003), “She‘rim – ochil dasturxon” (2011) adabiy portretlari shu ma‘noda, alohida mazmun kasb etadi. Bu risolalarda yetuk shoirlar siymosi yangi asr ko‘zgisida yaxlit namoyon bo‘ladi. Ular she‘rlarining mavzu mundarija, obrazlar olami, badiiy jozibadorligiga ko‘ra mumtoz o‘zbek adabiyoti, rus va jahon bolalar adabiyoti namunalari bilan muqoyasalanib, o‘zaro ta‘sir aloqalari oydinlashtirilganki, bu o‘z navbatida o‘zbek bolalar she‘riyatidagi yangi tamoyillarni yoritishga bag‘ishlangani va XX asr bolalar she‘riyati manzarasini tasavvur qilishga yordam berishi bilan diqqatga sazovor.

Bir asrlik tarixga ega o‘zbek bolalar adabiyoti qiyofasini belgilashda R. Barakayevning “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” (2004) risolasi ham muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, bolalar adabiyotshunosligida shoirlar ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlar qatorida B.Ashurovning “Tursunboy Adashboyevning poetik mahorati” (T., 2009) nomli kitobi e‘tirofqa loyiq. Zotan, T.Adashboyev she‘rlari bolalar adabiyotining yangi tamoyillari nuqtayi nazaridan tadqiq etilgani, bolalar she‘riyatida shu vaqtgacha e‘tiborga olinmagan badiiy mahorat masalalari, hozirgi yosh avlod tarbiyasi uchun muhim bo‘lgan Vatan va vatanparvarlik mavzusi talqinlari, tabiat manzaralari tasviri, lirik qahramon obrazini yaratish borasidagi o‘ziga xosliklar, ularni xalq og‘zaki ijodi va jahon bolalar adabiyoti an‘analarini ijodiy o‘rganish vositasida tasnif etilishi ilmiy ommalashtirilgani jihatdan e‘tiborni tortadi.

Istiqlolning uchinchi o‘n yilligiga qadam qo‘ygan bo‘lsak-da, XX asr o‘zbek bolalar adabiyotining qiyofasini belgilovchi ko‘plab shoir-u yozuvchilar ijodi, jumladan, Q.Hikmat, M.A‘zam, N.Fozilov, X.To‘xtaboyev, A.Obidjon singari iste‘dod egalarining badiiy yuksak asarlari umumadabiyot mezonidagi tahlillarga ehtiyoji katta.

Shu jihatdan qaraganda bolalar adabiyoti namoyandalari haqidagi qator to‘plamlar, monografik risolalar ham o‘zbek bolalar adabiyotining tadrijiy, janriy tamoyilini belgilashda o‘ziga xos omil bo‘layotir, desak yanglishmaymiz. Jumladan, “Bolajonlik saodati”da (T., 2011) Safar Barnoyev asarlariga yozilgan taqrizlar alohida qimmatga ega. Adibning turli yillarda chop etilgan to‘plamlariga bag‘ishlab bildirilgan mulohazalarda istiqlol davri bolalar adabiyotiga xos yangi



janrlar, obrazlar, mavzular, badiiy detallarning rang-barang talqini uchraydi. Ijodkor asarlari orqali o'zbek bolalar adabiyotining umum masalalari, muammolari va dolzarb vazifalariga daxl qilingan. Shuningdek, S.Barnoyev ijodiy olamiga bag'ishlangan ilmiy-adabiy maqolalar risolani ma'nan boyitgan.

Bunday fikrni "Beg'uborlik olami kuychisi" (T., 2011) to'plami haqida ham aytish mumkin. Xususan, "She'r va talqin" faslidagi maqolalarda Tursunboy Adashboyev she'rlarining yangi qirralari inkishof etilishi bilan birga, o'zbek bolalar adabiyotining ayrim tamoyillari xususida so'z boradi: A.Rasulov T.Adashboyev ijodi misolida bolalar adabiyotida nasr materialini she'rda tasvirlay olish, parodiya (teskari tanqid) janrini maromiga yetkazish, "uch tug'ishgan – hayvonot, nabotot va jamodot aro uzviy bog'liqlik, o'zaro ta'sir mukammal ko'rsatilishi", masal, lof janrlari ahamiyatini ko'rsatadi. Shoirning mutarjim sifatidagi yutuqlari o'zbek bolalar she'riyati o'zanlarini yangilagan ta'kidlanadi.

A.Obidjon XX asr o'zbek bolalar she'riyati xususiyatlari, 20- 30-70- va 80-yillardagi yangi oqimlar, M.A'zam singari ijodkorlar misolida bolalarning faqat aqliga emas, ko'ngliga ham ta'sir o'tkazish yo'lini izlashga tutinish, T.Adashboyev ham shu silsilada boshqalarga o'xshamagan she'riyati bilan bu olamga kirib kelganini ta'kidlab o'tadi. Shoirning "Bolalikka qaytaman" turkumiga kirgan, yoxud, "Yo'lchi yulduz", "Fufayka" singari she'rlari sobiq tuzum davrida o'z bahosini topmagani tilga olinadi. A.Obidjon, T.Adashboyev she'rlarini adabiyotshunos, o'quvchi hamda shu adabiyotning yetuk salafi nuqtayi nazaridan o'rganarkan, bolalar adabiyotshunosligini yanada taraqqiy ettirish zarurligini o'rinli ta'kidlaydi.

S.Matchon, Q.Yo'ldosh, Q.Qahramonovlar bolalar adabiyotshunosligi masalasida fikr yuritsalar, R.Barakayev, B.Ashurov T.Adashboyev ijodini kengqamrovli, monografik izchillikda talqin etadilar. Natijada, o'zbek bolalar she'riyati, adabiyoti sohasida ham nihoyat, teran anglanayotgan vazifalar, tamoyillar oydinlashadi.

Yetuk adabiyotshunos olim A.Rasulovning X.To'xtaboyev romanlari haqidagi "G'aroyib saltanat" (Toshkent, "Adib" nashriyoti, 2012 ) hamda A.Obidjon ijodining ayrim qirralariga bag'ishlangan "O'zlik sari yo'l" (Toshkent, "Adib" nashriyoti, 2012) risolalari aytish mumkinki, bolalar adabiyotshunosligida yangi yo'nalaish hisoblanadi. Olim bolalar asarlarini tipik va konseptual, yozuvchi mahorati, badiiy olami, makon va zamon, adabiy tur va janr nuqtayi nazaridan o'rganish, ya'ni jahon va umumadabiyot o'lchovida tahlil qilish ehtiyojini asoslaydi. Ayni paytda qahramon xarakterini yoritishning an'anaviy va modern usullariga e'tiborni qaratadi.

"Istiqlol davri yangi bolalar adabiyotining maydonga kelishiga,– deb yozadi R.Barakayev,– 80-yillarning ikkinchi yarmi katta ta'sir ko'rsatdi. Ayni shu davrda bolalar adabiyotimiz tom ma'nodagi haqiqatga tik boqadigan adabiyotga aylandi, yosh avlodni erksevarlik tuyg'ulari ruhida tarbiyalashda ilk qadamlarini qo'ydi."<sup>44</sup>

---

<sup>44</sup>Bu haqda qarang: Barakayev R. Istiqlol davri o'zbek bolalar adabiyoti: an'ana, vorisiylik va izlanishlar. // O'zbek tili va adabiyoti j. 2003, 3-son, 4-b.

Binobarin, istiqloqlga erishgan dastlabki kunlardan oq, yoshlarimizni ma'naviy sog'lom, barkamol etib tarbiyalash masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgani ular adabiyotida ham o'z aksini topa bordi. Bolalar adabiyoti, ushbu vazifani ado etishdagi eng muhim vositalardan biridir. Bu ishga badiiy so'z qudrati bilan hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli yozuvchilar talaygina. Aytaylik, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq g'oyalar S.Barnoyevning publitsistik maqola va hikoyalarida, A.Obidjon, T.Adashboyev, M.A'zam, T.Malik, H.Imonberdiyev, K.Turdiyeva, A.Akbar, D.Rajab kabi shoirlarning she'riy asarlarida o'z ifodasini topdi. Xususan, istiqloq davri bolalar adabiyotida yangidan tanilgan shoir va yozuvchilar ijodi diqqatga loyiq.

**Hamza Imonberdiyev** (1954-1997). H.Imonberdiyev bolalar adabiyotining rivojiga hissa qo'shgan adiblardan. U uzoq yillar "Tong yulduzi" gazetasida, so'ngra 1986-yildan umrining so'nggi damlarigacha "Cho'lpon" bolalar nashriyotida faoliyat ko'rsatgan. Uning turli yillarda nashr qilingan "Quvnoqlar quvonchi", "Shokoladxo'rlar", "G'aroyib pufak", "Oydagi tomosha", "Lofchilar - aldoqchilar", "G'aroyibkent hangomalari" singari she'riy va nasriy to'plamlari bolalar kitobxonligida shuhrat qozongan. Shoirning bolalar uchun yozgan she'rlarida bolalarning xarakter-xususiyati, orzu-o'ylari aks etgan. Masalan, "Bir so'z" she'rida Loladan astoydil ranjigan, unga birgina "shaddod" degan so'zi uchun "badbashara", "xumbosh" kabi yomon so'zlarni eshitganidan arazlab, boshqa o'rtoq topishga ahd qilgan bola timsoli gavdalanadi. "Urishqoqlar"da esa o'g'il bolalar ko'proq o'ynaydigan "urush-urush" o'yini manzarasi chizib berilgan. Ayniqsa, qo'lda yog'och-avtomat bilan kalishlardan esa granata o'rnida foydalanishlari, bir-birlarini poylab turib, "o'q" uzishlari bolalar tilidan mardona hikoya qilinadi.

– Paq-puq, otdim, yiqil,– deb.

Dushman tan olmas:– O'qing

Qiyshiq ketdi,–nuqul deb.

Hamma bola o'yinda

"Jang" qiziydi tobora...

Faqqatgina Nodir bu jangga qo'shilmay, raketa yashash bilan ovora bo'ladi.

Chunki:

– Urishqoqlar ichida

Yashab netaman,– der u.

Olis sayyoralarga

Uchib ketaman,– der u.

Buni eshitib, qolgan bolalar "o'zing bilan bizni ham ola ket",– deb so'raydilar. Do'stlari rozi bo'ladi:

– Chiqinglar,– deb imlaydi.

– Biz kashf etgan sayyora

Urush nima bilmaydi!

Ko'rinadiki, bolalar garchi "urush-urush" o'ynasalar ham aslida urush nimaligini bilmaydigan sayyorani kashf etmoqchi. Uning salbiy oqibatlarini his qila olgan bolagina shunday fikrlaydi. Barcha bolalar tinchlikni sevishlari Nodirga

ergashib ketmoqchi bo'lgan do'stlar niyatidan anglashiladi. Binobarin, H.Imonberdiyev yosh qahramoni tilidan, urushqoqlar o'yinini qoralaydi. Ularni orasida yashahni xohlamaydi.

Uning "Vaqtning hajmi qancha?" she'ri falsafiy mazmunga ega. Vaqt haqida tasavvur, tushuncha yosh bolalarda hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Aniqrog'i, vaqt ular uchun mavhum tushuncha. Shoir bir soat misolida uni aniqlashtirishga, bolalarbop vositalar yordamida oydinlashtirishga erishgan.

Oylab ko'rsam, vaqt degan  
Rezinali to'rxalta.  
Neki tiqsang ichiga  
Sig'averar, zo'r xalta

Bunga shoir keyingi misralarda aniqlik kiritadi: bir soatda nimalar qilish mumkinligini o'quvchiga ular xarakteridan kelib chiqqan holda tushuntiradi. Ya'ni, kitob, gazeta o'qish, samokat minish mumkinligi, do'sting bilan urushib, hatto yarashib olish, yoki, tort yeyayotgan ukangga "yordamlashish", "qarashish"; yoki, uy ichini alg'ov-dalg'ov qilib, so'ng yig'ishtirish; yoki bo'lmasa, telefon orqali uy ishini ko'chirish kabilarni bor-yo'g'i bir soatda bajarish, ha, faqatgina harakat zo'r bo'lsagina, ana shuncha ishni qilish mumkinligini ta'kidlaydi. H.Imonberdiyev kichik yoshdagi o'yinqaroq bola nazdida bir soat hech nima emasligini to'g'ri ilg'agani uchun, uning qadrini yuqoridagi yumushlar bajarilishi bilan asoslaydi. Demak, bola qisqa muddatda ko'p narsaga erishish insonning o'ziga, xatti-harakatiga bog'liqligini shu tariqa tushunib yetadi.

H.Imonberdiyevning "Qish tongida" she'ri tabiiy manzara talqiniga bag'ishlangan:

Erta tursam hovuzda  
Birov oyna solibdi.  
Ko'm-ko'k, tiniq, zilol suv  
Eng ostida qolibdi.  
Oynani solgan usta  
Unutgan-ov, hoynahoy.  
Suv olishga ozgina  
Qoldirmabdi ochiq joy.

Bola tasavvuri, tafakkuri aynan shunday fikrlashga moyil. Zotan, she'r jonli tasvir asosida yaratilgan. Shoirning "Qo'pollik" she'rida esa kichkintoy bolakaylarning uchqur xayoli, qahramonlik ko'rsatishga moyil tabiati ochib beriladi. Ya'ni, qo'pollik qilib, akasidan "– Bor, ko'zimga ko'rinma, hech keraging yo'q",– degan do'g'ini eshitgan ukaning ginalari, shu bilan birga, akasining o'z yoniga kelishi uchun hatto:

Balki sharga osilib,  
Uchaman oyga.  
Balki minib  
G'irko'kni  
Jangga kiraman.  
Yog'och qilichim sermab

Yovni qiraman.  
Dushman bilan solishib  
O‘larman oxir.  
Nima qila olardim  
Akamsiz axir.  
Kelib qabrim boshiga  
Akam bosh egar,  
Kechir meni, uka, deb  
Balki yosh to‘kar,-

Degan xayollarga boradi. Shu payt “Uka!” deb akasi boshiga kelganda, xayollari har yoqqa sochilib ketadi. Yosh qahramonning xufton dili charaqlab ochilib ketadi va quyidagi qarorga keladi:

Akam bo‘lsa yonimda  
Quvnab ketaman.  
Shunday akam turganda  
O‘lib netaman?!

Chindan ham she‘r voqeaband sujet asosiga qurilgan. Aka-uka munosabatlarida tabiiylik ustivor. O‘zbek oilalarida uka har doim akaga suyanadi. Aka ham o‘z navbatida ukani suyaydi, ko‘nglini cho‘ktirmaslikka harakat qiladgi, ungag‘amxo‘rlik qiladi. Bu hissiyot bolalikdan boshlanishi esa yuqoridagi she‘rda yorqin aks etgan.

Umuman, H.Imonberdiyev she‘rlarida fikr ustuvor, g‘oya dolzarb, tasvir hayotiy. Uning qator ertak-dostonlarida esa bahodirlik, mardlik motivlari kuylanadi. Shoir ijodida istiqlol g‘oyalari ko‘zga tashlanadi. Sor burgutning o‘z polaponini uchishga o‘rgatishda baland qoyalardan pastga otib yuborishi, yiqilay deganda ushlab olishi misolida xalq farzandlarini dovyuraklikka chorlaydi.

**Kavsar Turdiyeva** (1958-yilda tug‘ilgan). K.Turdiyeva Toshkent davlat universiteti va Sankt-Peterburg davlat universitetlarida o‘qigan. 1994-yilda “Hozirgi zamon bolalar she‘riyatida ma‘naviyat muammolari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U dastavval, bolalar shoiri sifatida tanilgan. Shoiraning “Varrak”, “O‘ynayapman, o‘ylayapman”, “Qush bo‘lib uchgan ona”, “Raqamlar bo‘ylab sayohat”, “Quvnoq alifbo bo‘ylab sayohat” kabi kitoblari chop etilgan.

K.Turdiyeva bolalar kinochiligi sohasida ham ijod qiladi. U multfilmlar, telefilmlar uchun yozgan qo‘shiqlari bilan-da mashhur bo‘lgan. Shoir “Irkitvoy va Kirketjon” multfilmini va M.To‘ychiyev bilan hamkorlikda “Katta oyi” badiiy filmini yaratishda faol ishtirok etdi. K.Turdiyeva bolalar qo‘shiqchiligi sohasida ham o‘z hissasini qo‘shib kelayotir. Uning she‘rlariga A.Nazarov, M.Mahmudov, Sh.Yormatov kuy bastalagan. Shoiraning “Toshkesarlar mamlakatida” dramatik ertagi “Sog‘lom avlod yili”ga bag‘ishlangan tanlov sovrindori bo‘lgan.

Shoiraning “Baxillik haqida rivoyat” o‘quvchilarga ma‘naviy saboq bera oladi. Unda o‘ziga xoz motiv va detallar uchraydi. Rivoyat xalq ertaklariga o‘xshash an‘anaviy zachinga ega:

Juda qadim yillarda,

Juda uzoq zamonda  
Kampir-u chol yasharkan  
Bilmama qaysi tomonda

Shu kampir va cholning juda badfe'lligi, xasis va baxilligi tufayli qarindoshlar oyog'i ularnikidan uzilgan, hech kim kelmas, hatto kulgi ovozi eshitilmas ekan. Ammo ularning yakka-yu yolg'iz bolasi butunlay o'zgacha, odamoxun, suxandon, o'zgalardan yordamini ayamaydigan bo'lib voyaga yetadi. Asosan, gadolarga, yo'qsillarga boru budini ulasharkan. Chol va kampir ana shundan xunob bo'lishib, bir qarorga keladilar:

Gadoylarning barisin  
Jo'nataylik mozorga,  
Yo'qsa, saxiy bu o'g'lon  
Bor-budimiz yo'q qilar,  
Qaysi gado yo'liqsa  
Uning qornin to'q qilar.

Oqko'ngil o'g'illari bu qora ishga yo'l qo'ymagach, uni tog' tomonga giyoh terishga yuboradilar. Xurjuniga bir kalla qand va non soladilar. Baxil chol-u kampir xamirga zahar qo'shib, non pishirishadi. So'ngra ko'chadan o'tgan nochor, bechoralarga shu nondan ulashadi. O'sha ko'chadan bir oyoqli devona o'tib ketayotsa, chol uni ham uyga chorlab, xaltangga sol deya nondan xurjuniga tiqib yuboradilar. Tog'ma-tog' yurib, tentiragan saxiy o'g'il uyini topolmay, ochlikdan sillasi quriydi.

Shunday ajib bu dunyo,  
Tasodifga to'liqdir.  
Taqdir ekan, devona  
Yigitchaga yo'liqdi...

Yigitga rahmi kelgan devona o'sha nonni xaltasiga solidi. Yigit devonaning ishidan oyoqsiz bir bechora sog' kishiga non berganidan xijolat tortib, hang-u mang bo'lib turganda u g'oyib bo'ladi. Yigit uning ketidan peshma-pesh yuguradi, gadoy rizqini qiymdim deb qiynaladi. Har qancha och qolib, joni qiynalsa ham, uning nonini yeyishga vijdoni yo'l qo'ymaydi. Devonani izlay deb chopgan yigit, o'z qishlog'iga kelib qoladi. Baxil ota-onalar o'g'illarini qarshi oladilar. Ammo qattiq charchagan yigitchani uyqu etadi. Uning xurjunidagi nonni esa alal-oqibat:

O'zim bergan non deya,  
Qora niyat, shum ayol,  
Eri bilan ikkisi  
Uni yerlar bemalol.

Shu tariqa, baxil ota-ona o'zi qazgan chohga ravona bo'ladi, saxiy qalbli bola va devona omon qoladi.

Rivoyat tugallanmasi ham xalq ertaklarini eslatadi. Ezgulik va saxiylikning qo'li baxillik va zulmdan ustun bo'ladi. K. Turdiyeva asar g'oyasida istiqloq davri adabiyotiga xos an'analarni singdira olgan. Yomonlik qilgan inson kim bo'lishidan qat'y nazar yaratuvchi tomonidan jazolanishi muqarrar. Saxiyning Olloh qo'llaydi. Devona qiyofasidagi darvesh ham ilohiy hodisa. Xalq ertaklarida asosan

o'gay onalarga xos bo'lgan yovuzlik timsoli saxiy yigitning o'z ota-onasi obrazida kelishi noan'anaviy talqindir. Ammo, har yomonda bir yaxshilik hikmati bor, degan hadis mazmuni bor asarda. Shu baxil ota-onadan saxiy va qobil farzand dunyoga kelgan.

K.Turdiyevaning "Dunyoni saqlar bolalar" qo'shig'i bolalar ijrosi uchun mo'ljallab yozilgan. Qo'shiq tantanavor ohangda kuylanishi bilan e'tiborni tortadi. Unda naqarot ham berilgan. Ma'lumki, naqarot qo'shiqning har bandidan so'ng muntazam ravishda takrorlanib turuvchi qismi. Qo'shiq va madhiyalarda naqarot boshqa qismlardan musiqiy vazn, uslub va ijro sur'ati bilan farqlanishi mumkin. Xor jamoalariga mo'ljallab yaratilgan qo'shiqlarda naqarot qismi, odatda yalpi xor tomonidan ijro etiladi.<sup>45</sup>

Aytish mumkinki, bu qo'shiq ko'proq xor jamoasi ijrosiga mo'ljallangan va u madhiyaga yaqinligi bilan boshqa qo'shiqlardan ajralib turadi. Aytaylik, qo'shig'ining 1-band tuzilishi aniq ritmni saqlagan, turoqlanishi – 4+4=8, qofiyalanishi –a-b-a-b; a-b-d-b tarzida. 2-band ham shunga yaqin, faqat turoqlanishi va qofiyalanishida o'ziga xoslik bor:

Eshit, zamin, / eshit samo /	-a	4+4=8
Bizning kuyni / etsin navo /	-a	4+4=8
Mehr bilan / ulashsa qalb /	-b	3+4=7
Boshimizga / qo'nar Humo	-a	4+4=8
Humo qushim / samo qushim /	- a	4+4=8
Qutlar gullar / favvoralar /	- b	4+4=8
Yurtga shodlik / va obodlik /	- d	4+4=8
Keltirar kimlar/}		
Bolalar /	- b	5+3 =8

Bu sakkizlikning 3- va 8- misralari turoqlanishida o'zgarish bor. 3-misra 7 hijoli bo'lsa, 8-9-misralar qo'shib 8 hijoni, ya'ni bo'g'inni keltirib chiqargan. So'ngra, so'nggi to'rlilikda ichki qofiyalanish bor. Bunday qofiyalanish deyarli barcha band misralarida uchraydi va qo'shiqdagi ichki ohangdoshlikni yuzaga keltirgan. Ammo, 1-sakkizlikda misra oxiridagi qofiyalar ham to'q va ritmli – muntazam takrorlanib kelgan. 2-sakkizlikda esa ichki qofiyalar ritmik ohanglarni jilolab turibdi. Naqarotda esa misralardagi so'zlarning har biri deyarli qofiyadosh va radiflardan tashkil topgan:

N a q a r o t

Dunyoni / poklar bolalar, /  
 Ishonchni / oqlar bolalar, /  
 Tinchlikni /yoqlar bolalar, /  
 Quvonchni /xohlar bolalar, /  
 Ishongan bog'lar / – bolalar, /

<sup>45</sup> Bu haqda qarang: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Toshkent, "OzME", 2003, 292-b.

Suyangan tog‘lar /–bolalar. /  
Kelajakning / iplariga /  
Umidni bog‘lar/ bolalar./

Rost, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, hali qofiya, radif, hijo singari adabiy tushunchaga ega bo‘lmaydilar, ammo ularga bo‘g‘in va tovushlar haqida keng ma‘lumot beriladi. Binobarin, bunday matnlar o‘tilganda avvalo, vatanparvarlik mohiyati uqdirilgani holda, so‘ngra, uning tantanovor kuylanishini ta‘minlovchi unsurlar haqida to‘xtalib o‘tilsa, o‘quvchilarning bunday sh‘rlarni yod olishi, ifodali aytishiga erishiladi.

**Dilshod Rajab** (1964-yilda tug‘ilgan) o‘zbek bolalar she‘riyatining iste‘dodli vakillaridan biri. U Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tug‘ilgan. 1990-1993-yillar Nizomiy nomidagi TDPI aspiranturasida o‘qib, “80-yillar o‘zbek bolalar she‘riyatida poetik mahoratning ayrim masalalari” mavzusida nomzodlik ishini yozib, himoya qiladi. 1994-2004-yillarda O‘zbekiston Davlat matbuot qo‘mitasida, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg‘armasi” nashriyatida, Respublika “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasida turli lavozimlarda ishlagan. 2005-yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining “Muhofaza” jurnali, “Vaziyat” gazetasi birlashgan tahririyatida bosh muharrir o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritmoqda. Yuzdan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik maqolalari chop etilgan.

Dilshod Rajabov majoziy obrazlar orqali talay she‘rlar yaratgan. Shoir she‘riyatida qushlar, uy hayvonlari, turli buyumlar bor. Ular yordamida shoir hayotiy xulosalar qilib, o‘quvchilarni hayotni tushunishga chorlaydi. Goho bir xil obrazlar turli ma‘noda kelishi mumkin. Masalan, Qarg‘a obraziga shunday yondashadi:

Men qarg‘aman, qarg‘aman,  
Bekor so‘kib, qarg‘amang.  
Men-ku bir beozor qush,  
Sizga nima qildim, xo‘sh?

Qarg‘a majoziy obraz sifatida salbiylik kasb etadi. Shoir o‘quvchidagi shu kayfiyatni o‘zgartirish uchun qarg‘aning o‘zini gapirtiradi. Qarg‘a o‘zini beozor qush deb biladi. O‘zining qag‘-qag‘ etib yurishini poetik tarzda izohlaydi :

Bahor yozdamas faqat  
Kuylash kerak hamma vaqt.  
Shunda qolmaysiz qotib  
Va qayg‘u g‘amga botib

Shoir qarg‘a haqida fikrlashda davom etadi. “Qarg‘a” she‘ridagi tasvir “Falokat” she‘rida davom etadi, ammo manzara boshqacha. Shoir oddiy bir tasvirdan falsafiy xulosa chiqara olgan:

Silkinadi daraxtlar  
Tebranadi in-uya.  
Qarg‘alarning yurtida  
Bo‘layapti zilzila.

Qattiq shamol turib, daraxtlar qattiq silkinadi. Oqibat qarg‘alar inini tashlab ketadi. Shoir bu she‘rida qarg‘aga nisbatan salbiy munosabatini saqlaydi. “Zilzila” obrazini qo‘llab, yomon kishilar atrofida zilzila, ya‘ni kuchli o‘zgarish bo‘ladi. Shoir qarg‘a obrazini yaratishda davom etadi, mavjud an‘analarni buzib qarg‘ani “laqma” deb hisoblaydi. Dilshod Rajab salbiy ma‘noni rad etib, Qarg‘ani ijobiy bir tarzda ham, ahmoq qush sifatida ham ko‘rsata olgan. “Laqma” she‘rida shoir xalq ichida o‘zlashib ketgan Qarg‘a, pishloq va Tulki haqidagi masalga ishora qiladi:

Afsuski, sendaylar ko‘p,  
(Qolar mudom kulgiga).  
Shuning uchun mudom to‘q-  
Yurar makkor Tulkilar.

Shoir Piyola, Supurgi, Narvon, Qoziq kabi jonsiz narsalarni obraz darajasiga ko‘tarib, ularning tabiiy holatidan inson hayotiga daxldor xulosalar chiqara olgan. Masalan, “Qoziqning maslahati” she‘rida shunday xususiyat ko‘zga tashlanadi:

Charxla tinmay kallani,  
Bo‘lma to‘mtoq, do‘stginam.  
Boshing o‘tkir bo‘lmasa,  
Yeysan to‘qmoq, do‘stginam.

She‘rni o‘qigan o‘quvchi qoziqning boshiga to‘qmoq bilan urilishini ko‘z oldiga keltiradi va shoirning nima demoqchiligini anglab yetadi. Dilshod Rajab bolalarni tozalikka chaqirishda sochiq majoziy obrazidan o‘rinli foydalanadi :

Nopoklarni sevmayman,  
Ular menga yot doim.  
Kim bo‘lmasin, aslida  
Ikki yuzim oq doim.

She‘rning xulosasi milliy ruh bilan sug‘orilgan. Biz doim toza odamlarni tavof qilamiz. O‘ta toza, halol odamlarni avliyo hisoblaymiz. Shoir shu fikrlarni yosh kitobxonga obrazli qilib yetkazadi:

Pokligim nechun meni  
(Yuvinishib o‘zi ham),  
Tavof qilar odamlar  
Surtishib yuz-ko‘ziga.

Shoir hayvonlar obrazidan foydalanib, bolalar ayni damda, kattalar orasidagi nuqsonlarni birma-bir ochib beradi. “Oshqovoqning shikoyati” she‘rida bu jihat yaqqol ko‘rinadi:

O‘ylamasdan bir gapni  
Aytaverar Mirsaid.  
Men bekorga pushtaga  
Yotmayman-ku ishshayib.  
Xo‘p mazali qilaman  
Odamlarning oshini.  
Nechun menga o‘xshatar  
Norbo‘taning boshini?



O'qituvchilar ko'pincha "ikki"chi bolalarga ko'pincha "Kallami bu, yo oshqovoq" deydi. Shoir fikr yordamida bolalarga aqlsiz odamning kallasidan qovoq ham yaxshi, qovoq shirin va foydali, deydi. Dilshod Rajab majoziy obrazlar yaratar ekan, goh adabiyotdagi an'analarni davom ettirsa, goh novatorona yondashib, majoz yordamida bolalarga ta'lim-tarbiya beradi. Uning bu she'rlari o'zbek bolalar adabiyotida mavjud majoziy obrazlar safini kengaytiradi va bolalarning barkamol bo'lishiga hissa qo'shadi.

Iste'dodli shoir Dilshod Rajabov satira va yumordan foydalanib yozgan she'rlari bilan ham bolalarning ham sevimli shoiriga aylanib ulgurdi. Uning "Qurbaqaning bulbulga degani" she'rida boy mazmun yashirin:

O'zingni shoh sanaysan,  
Qo'nib olib bitoqqa.  
Ko'rardim sayrashingni,  
Tushsang edi botqoqqa.  
Agar rostdan bo'lsang zo'r,  
Botqoqda bir sayrab ko'r.

Chindan ham kitobxon o'ylanib qoladi: qurbaqa botqoqda yashagani uchun qo'pol sayrar, yoki bulbul fazilatli qush bo'lgani uchun chiroyli joylarda sayraydimi? Inson qudratli, ayni damda juda ojiz mavjudotligini anglab qoladi. Bu she'rni o'qigan yosh kitobxon hayotning juda shafqatsiz ekanligini biroz anglaganday bo'ladi. Zamirida haqiqat, sirtida yengil kulgu mavjud. Bu she'r tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shoirning hajv bilan sug'orilgan o'z she'rlari orasida "Qo'yning shikoyati", "Echkining- echkiga shikoyati", "Tuyaning shikoyati" kabi she'rlari ham bor:

Echkivoy bilan yashash,  
Rosti, tegdi jonimga.  
Bigizday shoxlarini,  
Niqtab turar qornimga.

Qo'yning fikricha, yem-xashakning yaxshisini echki yeydi, e'tiroz qilmoqchi bo'lganlarga shoxlarini o'qtaladi:

Ne ham derdim, ko'naman  
Buncha zolim bo'lmasa?!  
Qiyin ekan yashamoq,  
Boshda shoxing bo'lmasa!

Shoir bu she'rda hayotiy voqealikni keltiradi va undan ko'chma ma'noda foydalanadi. Hayotda "shoxli insonlar bor", ularning hamma narsasi bor. Dilshod Rajab qo'yning hikoyasini keltirish bilan cheklanmay, "Echkining shikoyatini keltiradi". Bu bilan har kim o'zicha haqligini ko'rsatadi, demoqchi. Echkining fikricha, qo'y betamiz, u bilan 3 oy yashab, darrov shikoyat qilibdi. Shoir birovga zulm qilib ham o'zini oqlaydiganlarni satira tig'iga oladi:

Hayot sero't yaylovmas,  
Yetmas goh hatto yantoq.  
Sabr qilib bariga  
Bo'lish kerak og'irroq.

Zulmkor bo'lsa-da xatosini tan olmagan echki axiri "soqolimni hurmat qilsin" deb, yaltoqlanadi. Bu gunoh qilib, fosh bo'lganida, o'zini ojiz ko'rsatadiganlar obrazidir.

Arava ikki tomondan ip bilan eshakka bog'lanadi. Shoir shu voqelikdan foydalanib, aravani jonlantiradi. Kitobxon tasavvurida aravaning orzusi gavdalanadi:

Endi somon yo'lini,  
Tushda ko'raman, beshak.  
Qayga ham borar edim,  
Yo'l boshchim bo'lsa eshak.

Xalq beparvo, fahmsiz, aqli kam insonlarni "eshak" deb hisoblaydi. Demak eshakning majoziy obraz sifatidagi mohiyati shu. An'anaviy xulosaga ko'ra ot to'g'ri yo'ldan borsa, eshak adashib ketadi, yo'lni to'g'ri topolmaydi. Shuning uchun arava somon yo'lni orzu qilsa ham eshak yo'l boshchi bo'lgani uchun manziliga yeta olmaydi. Shoir xalqni boshlab boruvchilar chin inson bo'lishini istaydi.

Dilshod Rajab she'rlarida bolalarga xos sodda fikrlab, katta xulosa chiqarish ko'zga tashlanadi. Masalan, shoir "Tungi militsionerlar" she'rida ko'pgina noto'g'ri, sirli ishlar tunda bo'lishini bola tilida ifodalaydi:

Chigirtkalar chirillab,  
Hushtak chalishar tunda.  
Militsioner amaki,  
Esimga tushar shunda.

Shoir bola tafakkuri sifatida militsionerning hushtagi tartibga chaqiruvchi ekanini, xato qilganlarni ogohlantirishini tundagi chigirtkalarining chirillashiga o'xshatadi. Ya'ni, militsioner va chigirtkani vazifadosh qilib qo'yar ekan, shunday xulosa qiladi:

Bular-chi unday emas,  
Tez-tez chalib turishar.  
Ko'p bo'larkanda tunda  
Xato tartib buzishlar.

"Bopladim" she'rida tol ustida g'alva ko'tarib, yig'ilishgan mayna bir-birini so'kib, yumdalashgani tasvirlangan. She'r o'quvchi yoshidagi bola tilidan berilgan. Bola shunday hayratlanadi.

Osmon keng-u adog'i yo'q,  
Dov-daraxtning sanog'i yo'q.  
Boshqasi qurib qolgandek,  
Ehtimol, joyin talashar.

Shoir bir she'rida bola tilidan shaharga borib o'zgarib ketgan Halima opasini tanqid qiladi. Opasi shaharga borib uzun sochlarini kesgan edi, tirnoqlarini o'stirgan edi. Yosh lirik qahramon Halima opasini koyiganini, opasi esa "shaharda moda shu deb" kulganini eshitib, shunday xulosa qiladi:

Yoqtirmadim shaharni,  
Yomon ekan modasi.

Tirnoqlarni o‘stirib,  
Qirqsa uzun sochlarni.

Dilshod Rajab goho shiringina kulgu asosida she‘rlar yozadi, uning “Poyezdning bolasi” she‘ri zavqovar:

Bahorgi ta‘til payti  
Shaharga kelgan Sayfi  
Tramvayda yurganin  
Maqtab der xolasiga:  
– Maza qilib mindim-da,  
Poyezdning bolasiga

Dilshod Rajab bolalar shoiri bo‘lib tig‘ilgan inson. Uning hajvga boy she‘rlari bolalardagi kamchiliklarni tuzatishda, yoshlarni kamol toptirishda muhim rol o‘ynaydi.

Dilshod Rajabning ertaklaridan biri “Toshning boshi” “T to‘g‘risida ertak” bo‘lib, tovush va harflarning qudratini tushuntirishga xizmat qiladi. Toshdagi “T” harfining jonlantirilishi sherxonni qiziqtirishi tabiiy:

Shoir “T”ni mahorat bilan jonlantirganki, sherxon qiziqib o‘qiydi va tovushlar bo‘lmasa, so‘zlar hosil bo‘lmasligini, ayrimlari bo‘lmasa, so‘zlar mohiyatini yo‘qotishini anglaydi. Ertakda tavze, ya‘ni tovush takroridan o‘rinli foydalanilgan:

Tosh qotibdi shunda tosh,  
Tunda ajalning o‘zi.  
Turar tishi g‘ijirlab,  
Tikib arofat ko‘zin.

Yuqoridagi satrlarda “T” “Sh” tovushlari takror kelib, chiroyli ohang hosil qilgan.

Dilshod Rajab – ertaknavis shoir. Uning “Eng buyuk boylik”, “Toshning boshi”, “T to‘g‘risida ertak”, “O‘g‘rining qismati” ertaklari o‘zbek adabiy ertakchiligiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Dilshod Rajab bolalarga she‘rlar bitar ekan, asosan, to‘rtlik, ba‘zan uchlik, ikkilik bandlardan ham foydalangan. Shoir a-a-a-a-a; a-b-a-b; a-a-b-a kabi qofiyalanish tartibini ko‘p qo‘llagan.

Dilshod Rajab o‘z she‘rlarida o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, anafora, tavze, takrori kabi badiiy san‘atlardan foydalanib, she‘rlarining ohangdorligini, jozibadorligini, mazmundorligini oshiradi. Shoir asarlari badiiyati bilan ham ajralib turadi.

Uning she‘rlarida Vatan obrazi asosiy o‘rin tutadi. Shoir majoziy obrazlar yordamida bolalarga to‘g‘ri ta‘lim beradi, ularning barkamol avlod bo‘lib yetishiviga munosib hissa qo‘shmoqda.

**Abdusaid Ko‘chimov** (1951-yili tug‘ilgan). Abdusaid Ko‘chimov Samarqandning Urgut tumanida tugilgan. Toshkent Davlat pedagogika institutining ozbek tili va adabiyoti fakultetini tugatgan. Ilk kitobi – “Kashfiyotchi bolalar” 1978-yilda chop etildi. Shundan so‘ng uning “Mening O‘zbekistonim”(1979) “Mening yulduzim”(1984), “Umid daraxtlari” (1992),

”Chanoq”(1985), ”Ikki bahor”(1990), “Qiyofa”(1996) kabi she’riy va nasriy kitoblari nashr qilindi. “Baland tog’lar”(2002) saylanma kitobiga yozuvchining qissalari, dostonlari, she’rlari kiritilgan. A.Ko’chimov Xalqaro YUNESKO mukofoti, G’afur G’ulom nomidagi mukofot bilan taqdirlangan. Unga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” unvoni, ”Shuhrat” medali, “Mehnat shuhrati” ordeni berilgan.

A.Ko’chimov qalbi jo’shqin, shijoatli bolalar publitsisti hamdir. U mustaqillik g’oyalarini matbuotda keng yoyish, o‘tmish tariximizga oid hamda istiqlol ne’matlarini bolajonlar qalbiga jo etishda dolzarb maqolalari bilan hissa qo‘shib kelmoqda.

A.Ko’chimovning bolalar shoiri sifatidagi o‘ziga xosligi – bolalar qalbini so‘zlatishida. Uning she’rlari mavzusi rang-barang. Shoirning “Biz o‘n yeti o‘rtoqmiz”, “Ikki o‘rtoq bor edi”, “Uch do‘st”, “Mish-mishvoy”, “Yer boyliklar onasi”, “Buvimning istagi” kabi she’rlarida kichik zamondvoshlarning lirik obrazi va uning boy, murakkab ichki kechinmalarini teran aks ettiradi. Jumladan, shoirning “G’affor shamol” she’ri kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar xarakterini ochib bergishga xizmat qiladi. Unda G’affor ismli bola timsolida mashaqqatlardan hayiqadigan, o‘z fikrida turmaydigan, shamol singari qo‘nimsiz bolalar hajv qilingan. Ta’kidlanishicha, G’affor shundayki:

Boksyorlikka havas qo‘yar  
Gohida u.  
Goho birdan oshpazlikni  
Qilar orzu.  
O‘qituvchi, artist, suvchi  
Yoki rassom.  
U “sevmagan” hunar yo‘qdir  
Xullas kalom.

G’affor hamma kasbni shu tariqa oirzu qiladi, ammo o‘z so‘ziidan darrov qaytadi.chunki, uningcha doktorlikning ishi og‘ir; shofyorlikning egni dog‘-dug‘, yag‘ir bo‘ladi; mashhur olim bo‘lish soz-u, o‘qish qiyin; shoirlik xo‘p ajoyib, biroq she’r to‘qish qiyin; xullas, hamma hunarning bir “lekin”i topila qoladi. Lirik qahramon bunday bolalarga achinadi. G’affor singarilarga biror kasbni tezroq tanlab, har daqiqa oltinga tengligini anglashga da’vat etadi.

A.Ko’chimovning yana bir she’ri “Yer – boyliklar onasi” deb nomlanadi. She’rda kichkintoy bolalarga xos “nimavoy”lik hamda undan chiqarilgan ibratli saboq mazmuni aks etgan. Yosh lirik qahramon jajji ukasi Savlatjonning ezma “bilag‘on”ligidan dastlab jahli chiqadi. Chunki u juda ko‘p narsaga qiziqadi: Nega Kunduz chiqmas oy? Nega qishda muzlar soy? Nega tomning tili yo‘q? Nega gulning qo‘li yo‘q? Xayriyatki, ularning tog‘day bardoshli bobosi bor: u erinmay jajji nevaraning barcha “nega-nega”lariga javob beradi. Natijada, lirik qahramonona yer haqidagi tushunchaga ega bo‘ladi: Yer – non tayyorlanadigan bug‘doyning, kiyim-kechak tayyorlanadigan paxtaning, oq qant olinadigan shakar qamishning, temirning, barcha boyliklarning onasi ekanligi ma’lum bo‘ladi. Shuningdek, bobosining hikoyasidan yosh qahramon oqpadar Gitlarning ona-

yerga chang solgani, shu urushda bobosi ham o'ng oyog'idan ajralib kelgani, hozir ham ba'zi yovlar zaminga azob bergib, bog'-rog'larni xarob etayotgani ayonlashadi. Shu tariqa, lirik qahramon ongida Yer oddiy tuproq, zamin holidan buyuk Vatan darajasiga ko'tariladi va "ezmavoy" ukasiga ich-ichidan minnatdorlik bildiradi.

Shoirning "Ikki o'rtoq bor edi", "Mish-mishvoy", "Men g'iybatchi emasman", "Majlis", "Sufliyor" kabi she'rlarida ham maktab o'quvchilari o'rtasida uchrab turadigan turli voqealar, odatlar, yoki, shu yoshdagi o'g'il-qizlarning fe'l-atvori lirik ifodasini topgan. Uning ko'pgina she'rlarining mavzusi esa zamon voqeligini aynan talqin etgani bilan e'tiborni tortadi. "Hiyla" she'rida kattalarga xos fe'l-atvor aslida bolalikdan, aniqrog'i, oiladan boshlanishi ochib berilgan. She'r qahramoni Shodmonjon otasidan xushomadgo'ylik sabog'ini olgach, darhol bu "o'git"ni hayotga tatbiq etadi:

Ertasi erkalanib,  
Oyisidan pul oldi.  
Darsdan keyin G'anining  
Yuragiga qo'l soldi...  
–"Morojniye"ga bir to'ysak.  
Nima deding, jo'rajon?  
G'ani labin yaladi:  
–Attang, pulim yo'q edi..  
Shodmon kerilib:  
–Mana,  
Menda bor, ketdik!–dedi.

Tandirday qizib turgan kunda ikki o'rtoq muzqaymoqni paqqos tushiradilar. A'lochi, yuvosh, morojniy jonu tani bo'lgan G'ani bu siylovdan hayron bo'lib turganda, Shodmon maqsadga ko'chadi:

–Uy ishin ko'chirsam,  
Degandim daftaringdan...

G'anining yo'q demoqqa tili bormay, g'alati ahvolga tushadi. Qo'li titrab portfelini ochadi... "Yegan og'iz uyalar, xushomad zo'r shaytondir".

Shoir shu tarzda yosh kitobxonlarga ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan hodisalar mohiyatini tushuntirgishga, realistik tasvirga e'tibor qaratadi. Bu ham bo'lsa, mustaqillik davri bolalar adabiyotining mavzu va muammoni yoritishda kengqamrovlilik kasb etgani dalolatidir. Shu ma'noda A.Ko'chimov ijodida umuman, insoniyat dardi, ruhiy kechinmalari, iztiroblari, yoxud orzu-o'ylari reallasha boradi, ya'ni, hayotga yaqinlashadi. Shoir she'rlarida yosh qahramonlar–bolalar chinakam "hayot qozonida qaynaydilar". Bu jihat "Ukamning maslahati" she'rida ham yaqqol ko'rinadi. Umuman, shoir she'rlari kichkintoylarni bolalik olamidan kattalik dunyosiga yetaklovchi vosita ekanligi ayonlashadi. A.Ko'chimovning bolalar uchun yozgan adabiy ertak, balladava dostonlarida ham bu xususiyat majoziy, obrazli tasvir etilgan.

Uning "Saboq" she'riy ertagi ijtimoiy dolzarb mavzuga bag'ishlangan. Shoir Chumchuq va Burgut ramziy obrazlari orqali vatanparvarlik tuyg'usini

oydinlashtiradi. O‘z dala-qirida – pastlikda yashashdan or qilgan Chumchuq Burgutga taqlid qilib, o‘rkach-o‘rkach qoyalar tomonga qarab parvoz qiladi. Qora terga botib, jiqqa ho‘l bo‘lgach, nafasi tomog‘iga tiqilib, bir qoyaga urilib yiqiladi. Anchagacha behush yotgan chumchuqqa sor Burgut duch kelib, uning nimjonligiga rahmi keladi. Chumchuqning:

Pastliklarda shuncha yashab  
Qoniqmadi yuragim  
Yo‘q demasang sening bilan  
Yashamoqdir tilagim,-

degan gapiga qah-qah urib kulsa ham, uni yelkasiga mindirib oppoq bulutlar orasiga kirib ketadi. Yer, dala, suv, tog‘, o‘rmon – barchasi ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Ana shundagina yuragini qo‘rquv qoplagan chumchuq yerning naqadar go‘zalligini his qiladi va o‘z xatosini tushunib yetadi. Burgut o‘z makoni bilan cheksiz faxrlanadi: ko‘k bag‘rida yashash, qor-bulutlar qo‘yni-yu shamollar raqsini kechalari porlagan yulduzlar qurshovini otashin muhabbat bilan ta‘riflaydi. “Bilsang, yo‘qdir yer yuzida, suluvlikda bunday joy”,– deb ta‘riflaydi. Ammo Chumchuqqa shunday saboq beradi:

Biroq, uka, har narsaning  
O‘z Vatani bo‘ladi,  
Har narsaning baxt-iqbolini  
O‘z bog‘ida kuladi.

Chumchuq bu fikrdan to‘g‘ri xulosa chiqarib, o‘z do‘stlari bag‘riga shamolday yelib, uchib ketadi.

Ko‘rinadiki, ertak ezgulik bilan tugagan. Shunga muvofiq asarning tarbiyaviy ahamiyati, mavzuviy dolzarbligi katta.

Xullas, shoir ona-Vatan, ijtimoiy-hayotiy voqealar, zamona taloto‘plari, jamiyatda kechayotgan yaxshi-yomon o‘zgarishlarni A.Ko‘chimov o‘ziga xos uslubda, ohangda bolalarbop ifoda etadi. Ijodkorning o‘z ovozi, tahliliy mushohadalarga boy publitsistikasi, esse va ertaklari istiqlol davri bolalar adabiyotini yangi tamoyillar bilan boyitishga hissa qo‘sha oldi. Uning she‘rlarida hurfikrlilik yarq etib ko‘zga tashlanadi, lirik qahramonlari haqiqatga tik boqadi. Uning asarlarida Vatan oldidagi burch va mas‘uliyat eng oliy insoniy tuyg‘u ekanligi anglashilib turadi. Xuddi shu qirralar davr bolalar adabiyotining yetakchi xususiyatlari hamdir.

**MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:** *istiqlol, g‘oy, ma‘naviy, axloqiy, tafakkur, in‘ikos, shakl, mazmun, adabiy tanqid, talqin, falsafiy, hajviy-yumoristik, ruhiyat manzaralari, ilmiy-nazariy aspekt, salaflar, muqoyasa, lirik qahramon, obrazlar tizimi, bolalar kinochiligi, monografik risola, inkishofi, nasr material, voqeaband sujet, umummasala, konseptual, mahorat, hurfikrlilik, ballada, doston, badiiyat, ohangdorlik, jozibadorlik, zamona taloto‘plari, kattalik dunyosi, esse, publitsistika, tamoyil.*

**Bilim, ko‘nikma va malakani rivojlantirishga yo‘naltiruvchi savollar:**

1. Istiqlol davri bolalar adabiyotining o‘ziga xosligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Istiqlol davri o‘zbek bolalar she‘riyatida qanday mavzular yetakchi?
3. Istiqlol davri bolalar nasri haqida mulohaza yurita olasizmi?

4. Mustaqillik davrida bolalar uchun ko‘plab she‘rlar yozgan qaysi ijodkorlarni bilasiz?
5. Hamza Imonberdiyevning qaysi asarlarida istiqlol ruhi yetakchi?
6. Kavsar Turdiyeva qanday ijodi bilan bolalar adabiyotiga hissa qo‘sha oldi?
7. Dilshod Rajab ijodi haqida qanday ma‘lumotga egasiz?
8. A.Ko‘chimov she‘rlari to‘g‘risida mulohaza yurita olasizmi?
9. Istiqlol davri o‘zbek bolalar adabiyotining an‘anaviyligi va o‘ziga xosligi deganda nimani tushunasiz?
10. Davr bolalar adabiyotining muhim xususiyatlari aks etgan mazmun va shakllar haqida munosabatingiz?
11. M.A‘zam, A.Obidjon, S.Barnoyev, T.Adashboyev kabi katta avlod bolalar adiblarining istiqlol yillaridagi ijodida qanday tamoyillar ko‘zga tashlanadi?
12. Mustaqillik yillaridagi o‘zbek bolalar publitsistikasining rivoji haqida nimalar bilasiz?

#### **Mavzuga oid test savollari:**

1. **A.Obidjonning qaysi asari dilogik ertak-qissa hisoblanadi?**
  - a) “Alamazon va uning piyodalari”;
  - b) “Dahshatli Meshpolvon”;
  - c) “Oltin yurakli Avtobola”;
  - d) “Yaltiroq tugma”
2. **“Alamazon ” turkumidagi asarlar muallifi kim?**
  - a) T.Adashboyev;
  - b) S.Barnoyev;
  - c) A.Obidjon;
  - d) A.Ko‘chimov
3. **Uchchanoqlar, ignabarglar, topishmoq she‘rlar yozgan muallif nomi qaysi javobda to‘g‘ri?**
  - a) A.Obidjon;
  - b) S.Barnoyev;
  - c) T.Adashboyev;
  - d) D.Rajab
4. **“Meshpolvon janglari”dagi Oshiqbola, Oytumor obrazlari qanday folklorizm hodisasi hisoblanadi?**
  - a) Janr stilizatsiyasi;
  - b) Sujet stilizatsiyasi;
  - c) Ohang stilizatsiyasi;
  - d) Obraz stilizatsiyasi.
5. **“47-yil hikoyalari” muallifi va mavzusini aniqlang?**
  - a) A.Obidjon, urush mavzusi;
  - b) S.Barnoyev, urush davri bolalari
  - c) T.Adashboyev, urushdan keying yillar;
  - d) K.Turdiyeva, tinchlik mavzusi.
6. **“Oq laylaklar”, “Kichkina Xo‘ja Nasriddin” qissalari muallifi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**
  - a) A.Obidjon;
  - b) S.Barnoyev;
  - c) A.Akbar;
  - d) H.Imonberdiyev
7. **“Tut pishig‘ida tug‘ilgansan deb,Onam aytganlar” misralari qaysi ijodkor tarjimai holiga daxldor?**
  - a) S.Barnoyev;
  - b) A.Obidjon;

- c) X.To‘xtaboyev;  
d) M.A‘zam.
8. **“Til darsi”, “Ona tilim”, “Bir to‘p yong‘oq” turkumidagi she‘rlar muallifi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**  
a) S.Barnoyev;  
b) T.Adashboyev;  
c) M.A‘zam  
d) A.Obidjon
9. **Shoir Piyola, Supurgi, Narvon, Qoziq kabi jonsiz narsalarni obraz darajasiga ko‘tarib, ularning tabiiy holatidan inson hayotiga daxldor xulosalar chiqara olgan bolalar shoiri to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang?**  
a) Kavsar Turdiyeva  
b) Abdurahmon Akbar  
c) Dilshod Rajab  
d) Orif to‘xtash
10. **Biroq, uka, har narsaning, O‘z Vatani bo‘ladi, Har narsaning baxt-iqboli, O‘z bog‘ida kuladi. Ushbu misralar qaysi ijodkor she‘riy ertagidan olingan?**  
a) A.Ko‘chimov, “Saboq”  
b) M.A‘zam, “Erk qushi”  
c) D.Rajab, “Toshning boshi”

***Tavsiya etilgan adabiyotlar:***

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat–yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. –T.: O‘qituvchi, 2002.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. –T.: O‘qituvchi, 2011.
4. Jo‘rayeva G. O‘zbek bolalar she‘riyatida hajviy obraz yaratish mahorati. –T.: Muharrir, 2011
5. Masharipova Z. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –T., 2008
6. O‘zbek bolalar antalogiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild. –T.:O‘qituvchi, 2006.



## XI. CHET EL BOLALAR ADABIYOTI

### Reja:

1. Chet el bolalar adabiyotining an'analari.
2. Aka-uka Grimmlar ertaklarining muhim xususiyatlari.
3. Sh.Perro va X.Andersen adabiy ertaknavis adib.
4. J.Svift va J.Rodari asarlarining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari

**Chet el bolalar adabiyotining an'analari.** Chet el bolalar adabiyoti jahon adabiyoti sifatida ularning xalq og'zaki ijodi, eng qadimgi adabiy yodgorliklari, mif va afsonalar, qo'shiqlar bilan chambarchas bog'liqligi, bunday ijod namunalari axloqiy-tarbiyaviy mohiyati, didaktik tamoyillari hamda jahon xalqlari bolalariga bag'ishlangan asarlarning tasniflanishi, ularning taraqqiyot tamoyillari, janrlar rang- barangligi yuzasidan tushuncha berishni ko'zda tutadi.

Jahon bolalar adabiyoti, dastlab, didaktik adabiyot namunasi sifatida XVII - XVIII asrlarda paydo bo'lgan. So'ngra, bu adabiyot o'zining betakror ko'rinishlari orqali dunyoga tanildi. Barcha xalqlar bolalar ijodkorlari, eng avvalo, o'z mamlakatlarining xalq og'zaki ijodiga murojaat qilgani umumiy hodisadir. Masalan, Sharl Perro kichik kitobxonlarga dastavval, folklordan oziqlangan va badiiy sayqal berilgan eng yaxshi adabiy ertaklarni taqdim etdi.

XIX asr romantiklarining faoliyati keng kitobxonlar ommasiga xalq og'zaki ijodi va har bir xalqning milliy-adabiy manbaalarini ochib berdi. Jumladan, bu bolalar adabiyotining rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, aka-uka Grimmlar, H. K. Andersen va boshqa ko'pgina ijodkorlarning adabiy hamda xalq ertaklari to'plamlari paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Natijada, kichik kitobxonlar endilikda ham kitob, ham o'z tengqurlari hayoti aks ettirilgan badiiy tasvirlarni qo'lga olib boshlagan. Binobarin, bolalar adabiyoti "katta" adabiyotning mustaqil tarmog'iga aylanishida bu jarayon muhim omil hisoblanadi.

Romantizm insonning ruhiy rivojlanishdagi o'z-o'zini anglash davri – bolalikda kashf etilishini ochib berdi. Romantiklar asarlarida bolalik insonning o'zidagi bebaho ichki olam sifatida, shuningdek, teran mohiyati va ajoyibotlari bilan kattalarni ham o'ziga rom etuvchi davr tarzida talqin qilinadi. Kattalik esa xuddi eng samimiy va bolalarcha beg'uborlik tark etilgan davr sifatida yoritiladi. Shuni tan olish kerakki, romantizm nafaqat *bolalik*ni kashf etdi, balki uni eng sof mukammallik namunasi hamda mehr-shafqat timsoli sifatida insonga meros qilib qoldirdi.

Realistik tamoyillarning rivojlanishi, ruhiyatshunoslikning chuqurlashishi bilan bolalar adabiyotida keng qamrovli, ko'p qirrali bolalik obrazi mustahkamlandi. Bunda yozuvchilar insoniyat rivojlanishining ibtidolarini, yosh inson xarakterining tub-tubiga yetib, bola ichki dunyosining murakkabliklariga asta-sekinlik bilan kirib borib, uning mutanosiblikda va ziddiyatlarda, hayotning yorqin hamda qorong'u ham – qayg'uli onlarining kurashlarida shaxs sifatida shakllanishini ochib berishdi. Eng yaxshi yozuvchilar ijodini aniqlovchi asosiy vosita – bu bolalikka ishonch, ulg'ayib kelayotgan insonga hurmat, unda

rivojlanishning bor imkoniyatlarini, sarchashmalarini hamda asosiy omillarini ko'ra olish qobiliyatining borligidir.

XX asr o'zining keskin ijtimoiy muammolari, o'tkir ziddiyatlari, siyosiy qarashlari bilan bolalar adabiyotini ham o'zgartirib yubordi. Dunyoning dahshatlari kichik kitobxon asari sahifalariga kirib bordi. Ularning qahramonlari – ijtimoiy jonzotlar, ular o'z hollaricha insonga nisbatan qilingan vahshiylikka qarshi borishadi, o'zlarining do'stlikka, muhabbatga bo'lgan huquqlarini talab qilishadi hamda kattalarni ularning tushunishlariga chaqirishadi. Zamon muammolari nafaqat realistik asarlarga, balki ertaklarga ham kirib boradi. Ular janriy xususiyatlaridan ozgina chekingan bo'lsalar-da, hamon yaxshilik yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga umid bog'lashadi va shu yo'lda tinimsiz ma'naviy kurashlar olib borishadi.

Ilmiy - texnika taraqqiyoti asri butun yer yuzidagi inson jamiyatiga yashash uchun katta hayotiy zarurat – Yerdagi hayotni saqlab qolish kabi muammoni tug'dirdi. Shuning uchun zamonaviy bolalar adabiyotida ekologik muammolar, atrofimizni o'rab turgan olam, hayvonot va o'simliklar dunyosi haqidagi kitoblar salmoqli o'rin egallaydi. Barcha mamlakatlarning naturalist (tabiat haqida yozadigan) yozuvchilari – bolalarda tabiatga hamda barcha jonzotlarga nisbatan ehtiyotkorona munosabat va ularga nisbatan muhabbat ruhini tarbiyalash vazifasini o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan.

Chet el bolalar adabiyoti bugungi kunda o'zining janriy va tematik xususiyatlari jihatidan turli-tuman, o'ziga xos tarzda shakllanib ulgurdi. Unga dunyoning eng taniqli yozuvchilari o'z iste'dodlarini va faoliyatlarini bag'ishlashgan. Chunki ular insoniyat kelajagi o'sib borayotgan avlod qo'lida ekanligini yaxshi anglashadi...

Eng asosiysi, yosh inson adabiyot yordamida, fransuz shoiri Polya Elyuara ta'biri bilan aytganda, o'zining dunyoqarashida "bir kishi ufqidan barcha kishilar ufqiga" ko'tarila oldi.

Binobarin, hozirgi zamon chet el bolalar adabiyoti quyidagi omillar ta'sirida maydonga keldi, deyish mumkin:

- Folklor asarlari hamda klassik yozuvchilarning avval kattalarga mo'ljallangan, ammo vaqt o'tishi bilan bolalar kitobxonligi doirasiga kirib, kichik kitobxoniga so'zlab berish uchun hikoya tarzida qayta ishlangan asarlari (qadimgi yunon afsonalari, D. Defo, D. Svift, M. Servantesning romanlari).
- Bolalar kitobxonligi doirasiga qisqartmalarsiz va qayta ishlanmasdan kirgan folklor hamda mumtoz asarlar (folklordagi erkalamalar, topishmoqlar, allalar, shuningdek, V. Skott, Ch. Dikens va boshqalarning asarlari).
- Bevosita bolalarga mo'ljallangan asarlar.

### **Aka-uka Grimmlar**

**Aka-uka Yakob** (1785-1863), **Vilgelm** (1786-1859) **Grimmlar** ikki yuz yildan ko'proq vaqt ilgari Xanau shaharchasida, hurmatli byurgaerlar oilasida (bu nasldan ko'pgina taniqli huquqshunoslar va ruhoniylar yetishib chiqqan) Filipp Vilgelm Grimm va uning ayoli Doroteyalar nikohidan katta o'g'illari Yakob, bir

yildan so‘ng esa uning ukasi Vilgelm dunyoga keldi. Tez orada butun oila-o‘rmonli tog‘lar bilan o‘ralgan, tinch osuda shaharcha – Shtaynauga ko‘chib o‘tishdi.

Oila kattagina edi: besh bola va Lotti ismli kichik qizaloq. Bu oilada barcha g‘ayritabiiy ravishda mehnatsevar edi. Va barcha bir-birini sevar, hurmat qilardi. Lekin ular orasida bir yosh farq bilan Yakob va Vilgelm o‘zgacha mehr bilan bir-biriga bog‘langan edilar. Yoshlik chog‘laridanoq – aka-uka Grimmlar juftligi tug‘ilgan edi. Taqdir ularga uzoq hayotni o‘lchab bergan edi. Va ular o‘zlarining keksalik chog‘larigacha bu mustahkam bog‘liqlik hamda mehr-oqibatni tark etishmadi.

Yakob 11 yoshga to‘lganda ular otalaridan ajrab qolishdi. Bola oila boshlig‘i bo‘lib qoldi. U otasi tobuti oldida bolalarcha to‘xtamay yig‘lar, ammo umuman kattalarcha hamda qat‘iylik va iroda bilan endi kichik ukalarining, mitti qizaloq Lottining, g‘amdan gavdasi bukilgan bechora onasining eng katta g‘amxo‘ri, tayanchi o‘zi ekanligini anglagan edi.

Keyin Kasselda gimnaziyada o‘qidi. Belgilangan sakkiz yil o‘rniga – tig‘izlashtirilgan to‘rt yil ichida aka-ukalar o‘qishni bitirib, Marburg universitetiga o‘qishga kirishadi. Universitetda ular qadimgi olmon she‘riyati, runalari bilan qiziqib, shu qiziqishlarini umrlarining oxirigacha olib borishdi.

Universitetni tugatgach, Grimmlar Kasselga qaytishadi. Va shu yerda katta bo‘ron boshlandi: Napoleon armiyasi Olmoniyaga bostirib kirdi. Fransuz hukmronligi – begona odamlar, begona urf-odatlar, shaharning har bir burchagidan eshitilib turgan begona so‘zlashuv Olmoniyaga, uning tiliga, urf-odatlariga, tabiatiga, adabiyotiga mehr qo‘ygan o‘spirinlarni qattiq iztirobga solardi. O‘z xalqining tushgan ruhiyatini ko‘tarish, yurakni ezadigan sukunatga chek qo‘yish ilinji yosh olimlarni nemis xalqi tarixi va adabiyotiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttirdi. Aka-uka Grimmlar vaqtlarini kutubxonalarda noyob qadimgi olmon manuskriptlarini (qo‘lyozmalarni), masalan, nemis adabiyotining birinchi yodgorligi “Xildebran haqida qo‘shiq” asarini o‘rganib, qadimgi nemis she‘riyati to‘plamlarini chop etishdi. Bu bilan ular xalq yuragining tubida mudrab yotgan qadimgi hikmatlarni qayta tiklash maqsadlarini amalga oshirishdi. Ammo bular faqat yozma manbalar bilan bog‘liq edi. Ularni esa yana yiroqroq manzillar – xalq qalbining tubi, zamonlarning eng qadimi qiziqtirayotgan edi. Va ular shu niyat bilan folklorga murojaat qilishdi. Aka-uka Grimmlar o‘zlarining harakatdagi faoliyatlari – ertaklar to‘plash bilan mashg‘ul bo‘ldilar.

Birinchi mustaqil topilmalar 1807-yilga taalluqli bo‘lib, ular Kasseldagi ikki oila: Vildlar va Xassenpfluglar bilan bog‘liq. “Boshmaldoq – bola”, “Aqlli Gretel”, “Navqiron Pahlavon”, “Oq kabutar”, “Mushuk va sichqonning do‘stligi”, “It va chumchuq” kabi ertaklar Vildlar va Xassenpfluglar oilasi a‘zolaridan yozib olingan to‘plamlar sirasiga kiradi. To‘plamlarning jamlanishida o‘zining katta hissasini qo‘shgan dorifurush Vildning beshinchi qizi Ganriett Doroteya Vild, keyinchalik Vilgelmning turmush o‘rtog‘i (Yakob umrining oxirigacha ham uylanmagan) haqida albatta aytib o‘tish joiz. Doroteya aka-uka Grimmlarga “Ganzel va Gritel”, “Yerto‘la bekasi”, “Kuylaydigan danakcha” kabi ertaklarni

taqdim etdi. Askarlarning achinarli, nochor-kambag'allikdagi hayotlari, kamsitilgan shaxsiyatlari haqida so'zlab beruvchi Grimmlarning qayg'uli ertaklari qariya Krauze bayonidan yozib olingan.

“Bolalar va oilaviy ertaklar” kitobiga Grimmlar ukasi Lyudovik tomonidan illyustratsiyalar chizilgan. U 20-dekabrda – Rojdestvo bayrami arafasida kitobxonlar qo'liga tegdi va eng katta sovg'a bo'ldi. To'planning shon-shuhrati aka-uka Grimmlarga uning ikkinchi qismini ham to'plab, chop ettirishga ruhlantirdi. Ikkinchi kitob nashrdan chiqqach, Grimmlar qo'lida yana anchagina ertaklar yig'ilib qoldi va ular uchinchi kitobni bosmadan chiqarishni taxmin qilishdi, ammo keyinchalik o'zlarining fikrlaridan qaytib, ikkinchi qismning keyingi nashrida yig'ilib qolgan ertaklarni qo'shib chop etishni ma'qul topadilar. Nihoyat, 1812- yilda Grimmlar tomonidan yaratilgan ertaklarning birinchi jildi, 1815-yilda ikkinchi jildi, 1822-yilda esa har ikkala jildni umumlashtiruvchi uchinchi jildi e'lon qilingan. Grimmlar bisotida jami 200 dan ortiq ertak mavjud edi. Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy: xo'sh, aka-uka Grimmlarning ertaklari – bu haqiqiy ijodiy asarlarmi yoki xalq og'zaki ijodining shunchaki bayoni – yozma ko'chirmasimi? Darhaqiqat, aka-ukalar, ayniqsa, Yakob ertaklarni o'z aslicha, xalqchil bo'lib qolishining tarafdori bo'lgan; shunga ko'ra, ularni qayta bayon etilishida tuzatish kiritmaslik, zamonaviy ko'rinishda tabdil etmaslik, yoki ijodkor didi bilan yo'g'rilmagan bo'lsin, degan fikrida qat'iy turgan. Vilgelm esa olimdan ko'ra, ko'proq shoirtabiatligi uchun ertaklarga badiiy sayqal berish tarafdori bo'lgan. Shubhasiz, bunday ikki xilda fikr yuritish foydadan xoli bo'lmagan. Natijada, Grimmlar ertaklari o'zlarining xalqchilligini yo'qotmagan holda muallif she'riy uslubining birligini saqlab qolgan. Shu tariqa, aka-uka Grimmlar ertaklari hali-hanuz dunyo kezmoqda va jahon bolalarining maroq bilan o'qiydigan asarlari turkumiga kiradi. Jumladan, Grimmlarni dunyoga mashhur bo'lgan “Zolushka”, “Qor qiz” ertaklarining qahramonlari hammadan turtki yeydigan, so'kish eshitadigan va eng past holda qiyin yumushlarni bajaradigan qizlar bo'lib, ertak davomida o'zlarining halol mehnatlari, oqko'ngilliklari tufayli baxtli bo'ladilar. Xususan, “Yalqov Geys”, “Gansning baxti”, “Botir tikuvchi”, “Yosh pahlavon”, “Bremen musiqachilari” kabi ertaklari o'zbek bolalar kitobxonlarining mulkiga ham aylana oldi. Grimmlar ertagining umumahamiyati shundaki, ularning qahramonlari har qanday og'ir, qaltis vaziyatlarda ham o'zlariga chora topa oladi, tadbir izlaydi. “Tulki bilan g'ozlar” ertagi shu jihatdan ahamiyatli. Unda hiyla va makr ishlatishga usta tulki obraziga tadbirkor g'ozlar timsoli qarshi qo'yiladi.

Tulki o'tloqda yurgan g'ozlarni yemoqchi bo'ladi. Ular o'limlari oldidan bitta qo'shiq aytib, so'ngra tulkiga yem bo'lishlarini so'raydi. Ammo uzundan uzoq “g'a-g'a”lari tulkini zeriktiradi, uning tinka-madorini quritadi, axiyri g'oz-o'ljadan voz kechishga majbur bo'ladi.

Bundan tashqari, aka-ukalar “Nemis grammatikasi”ni, keyinchalik nemis mifologiyasi maktabiga asos bo'lgan – “Nemis mifologiyasi”ni chop etishadi. Umrlarining so'nggida aka-uka Grimmlar Berlin universitetida ma'ruzalar o'qiydilar hamda nemis tili lug'atini tuzish ustida ishlaydilar. Ikki buyuk olim, tilshunos, adabiyotshunos, buyuk ertakchilar yashab o'tgan Kassel shahrida muzey

tashkil qilinib, ularning shaxsiy buyumlari, dunyoda yuzdan ortiq tillarga tarjima qilingan kitoblarining nusxalari, ukalari Lyudvigning san'at asarlari ehtiyotkorona saqlanib kelinmoqda.

**Sharl Perro** (1625 – 1703). 1697-yilda Fransiyada “Mening onajonim Gusinaning ertaklari” deb nomlangan kitob nashrdan chiqdi. Aslida ertakni o'sha davrdagi mashhur shoir, fransuz akademiyasining a'zosi Sharl Perro yozgan bo'lsa-da, uning muallifi P. Dermenkur deb hisoblanardi. Ko'p kitoblar muallifi Sharl Perro ismi sharifini “jiddiy bo'lmagan” ertaklar ostiga qo'yishni o'ziga lozim ko'rmay, uni o'g'lining ismi sharifi bilan imzolagan edi. Lekin aynan shu sehrlil ertaklar jahon adabiyotining oltin fondiga kirib, yozuvchiga shon-shuhrat keltirdi. Perroning ertaklari ko'p marotaba boshqa tillarga tarjima qilingan va nashrdan chiqqan. Ertakning rus tilidagi tarjimasini I.S.Turgenevga mansub.

Perro o'z ertaklarining so'zboshisida ertak janrining asosida yotgan jiddiy hamda kulgili va g'alati narsalarni uyg'unlashib ketishiga ishora qilib: “...bu umuman, bekorchilik emas, balki o'zida foydali pand-nasihatni mujassamlashtirgan... hikoyaning sho'x, o'ynoqi tuzilishini esa faqatgina o'quvchi aqliga ko'proq yoqimli tarzda ta'sir qilish, shu bilan birga unga ham o'rgatib, ham xushnud qilishi uchundir...” degan edi. Bolalikning ilk davridan boshlab bizga “Qizil shapkacha”, “Jimjimaloq bola”, “Zolushka”, “Etikli Mushukcha”, “Uyqudagi malika”, “Ko'k Soqol” kabi ertaklar ma'lum. Bir xil ertaklarning qahramonlari odamxo'r maxluqdan yoki, zolim bo'ridan o'zlarini o'zlari qutqargan bolalardir. Bu odatga ko'ra, Bibliyadagi yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytargan Iosifni esga soladi. Jimjimaloq bola shu kabidir; muallif ertakning oxirida yozishicha, o'zining yaqinlariga yaxshilik qiladi va o'zining butun oilasini – ham otasini, ham og'alarini ta'minlaydi. Zolushka ham xuddi shundaylardan, u qanchalar go'zal bo'lsa, shunchalar oqko'ngil hamdir; u o'gay opalarinio'zi bilan saroyga olib ketadi. Perro ertaklarida yaxshilik va haqiqat g'alaba qozonadi hamda qahramonlarga sehrli personajlar, Zolushka yoki Etikli mushukchada etikdo'zning kichik o'g'lini cho'qintirgan onasi - oqko'ngil Feya yordam beradi. Bo'ri, mushuk inson tilida so'zlashadi, bu folklorning bir ko'rinishi bo'lib, muallif xalq ijodining boy an'alariga tayanadi hamda o'ziga xos mualliflik janrini yaratadi. “Qizil shapkacha” ertagida tipik folklor asos namoyon bo'ladi: bu qizil Shapkachaning buvisiga etayotgan narsasi (“pirojok nesu da gorshochek masla”), savollaridagi hamda buvisining kiyimiga kiyinib olgan bo'ringa javoblaridagi takrorlash va parallelliklarda ko'zga tashlanadi. Perroning boshqa ertaklarida birinchi o'rinni romantik sevgi tarixi egallagan. Qahramon qator sinovlardan o'tib, o'zining mukofotini oladi: yaxshilik yomonlikni ustidan g'alaba qozonadi, ya'ni xuddi “Uyqudagi malika” yoki “Ko'k Soqol” ertaklaridagi kabi. Sharl Perro ertaklari qahramonlarining nomlari allaqachon turdosh otlarga aylanib ulgurgan. Zolushka yoki Ko'k Soqol tarixlari har xil ko'rinishlarda ko'p marta jahon adabiyotida qayta-qayta ishlangan va sahnalashtirilgan.

XVII asr oxiri Sharl Perro ertaklarining yaratilishi bilan belgilanadi va uning ertaklari fransuz adabiy ertaklarining eng zo'r hamda yorqin namunalari sifatida

e'tirof etiladi. Fransiyada XVIII asr esa ertaklarning oltin asri hisoblanadi. Uyg'onish davrida talaygina shoir va yozuvchilar bu universal janrga ko'p murojaat qilgan va uning estetik imkoniyatlaridan foydalanib, dolzarb mavzular bilan boyitib borishgan. Masalan, Valter falsafiy ertaklar yozgan. Sharqning "Ming bir kecha" ertaklari fransuz tiliga tarjima qilingach, sharqona ertaklarga o'xshatishlar paydo bo'ldi. Ammo, shu XVIII asrning o'zidayoq ertaklarning urf bo'lishi ancha pasaydi. Ilgari bolalarga mo'ljallangan maxsus adabiyot yo'qligi uchun kichkintoylar kattalarning asarlarini o'qishar edi. Keyingi asrlarda esa Sharl Perroning qisqartirilgan ertaklaridan aynan bolalar uchun namunalar tayyorlangan. Ulardan shafqatsizlik, erkinlik, badiiy o'yinlar olib tashlanib, anchayin soddalashtirilgan.

**Hans Kristian Andersen** (1805-1875) o'zining ajoyib va g'aroyib ertaklari bilan jahonga tanilgan. U Daniyaning Odens shahrida tug'ilgan. Bolaning yashash sharoiti va o'qishi bu yerda ancha-muncha yaxshi bo'ladi. Bo'lajak yozuvchi 1823-yilda Slagels maktabiga o'qishga kiradi, undan keyin Xelsingyorda ta'lim oladi. Bolaning otasi kavushdo'z, onasi esa kir yuvuvchi bo'lib ishlar edi. Shuning uchun Hans kambag'allar maktabiga o'qishga kiradi. Oradan uncha ko'p vaqt o'tmay, ularning oilasi Kopengagenga ko'chadi. 1828-yilda esa Kopengagen universitetiga o'qishga kiradi. Andersen juda ko'p mamlakatlarni kezib chiqadi. Fransiya, Shveysariya, Italiya, Gretsiya va Ispaniya singari joylarga sayohat qiladi. Andersenning ijodi 20- yillarning boshlaridan boshlanadi. U dastlab lirik she'rlar, roman, drama, yo'l ocherklari, biografik etudlar yaratadi.

1828-yilda Kopengagen universitetini tamomlab, 30-yillarda Fransiya, Shveysariya, Italiya, Gretsiya va Ispaniya bo'ylab sayohat qiladi. Bo'lajak adib xalq og'zaki ijodi bilan chuqur tanishib, u yozgan tarix-ertak asarlari yosh kitobxonlar uchun tanildi. Yozuvchining "Bolalar uchun aytilgan ertaklar" (1835-1842), "Yangi ertaklar" (1843-1848), "Tarix" (1852-1855), "Yangi ertaklar va tarix" (1858-1872) kabi ertaklari uning nomini jahonga tanitdi.

Andersen ertaklarining qahramonlari o'zlarining samarali mehnatlari, aql-idroklari, axloq-odoblari bilan kitobxon qiziqishiga sazovor bo'ladi. „Daniyalik Xolger“, „Qor malikasi“, vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan „Daniya – mening vatanim“, ozodlik g'oyasi mujassamlangan „Soqchi“, „Shiron asiri“ va boshqa she'rlari poeziya janrida yaratgan eng sara asarlari jumlasiga kiradi. Andersen o'z romanlarida („Improvizator“) zamonasi uchun juda muhim bo'lgan voqealarni qamrab olishga harakat qiladi. Uning ijodi ko'p qirrali va rang-barangdir.

Andersen bu kitoblarni yaratishda xalq og'zaki ijodidan unumli foydalandi, ularning orzu-umidlarini qog'ozga tushirishga harakat qildi. Ertaklardagi xarakter va jonli nutqni yanada mukammallashtirishga erishdi. Shuning uchun Andersen yaratgan ertaklar sodda, kitobxon uchun tushunarli bo'lish bilan birga, o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ham ega.

Andersen ertaklarida ko'pincha bosh qahramon shahzoda ham emas, malika ham emas, balki oddiy mehnatkash xalqdir. Ular o'zlarining samarali mehnati, aql-idroki, axloq-odoblari bilan kitobxon tahsiniga muvaffaq bo'ladilar. Uning „Qo'ng'iroqli girdob“, „Kumush tanga“, „Kolbasa sixidan sho'rva“, „Go'ng

qo'ng'iz" va boshqa ertaklari fikrimizga yorqin misol bo'la oladi. Ertakchining "Qo'ng'iroqli girdob" asarini olib ko'raylik. Unda asrlar mobaynida ezilgan, og'ir mehnat va zulmdan tinka-madori qurigan mehnatkash xalq vakili Blakenning o'z xo'jasiga qarshi turishi kitobxonni quvontiradi.

„Bolalar gurungi” asarida hech kim taqdirini, kichkintoy o'sib-ulg'aygach kim bo'lib yetishishini bilishi mumkin emasligini, bu ko'proq o'sha bolaning o'ziga, intilishiga, kattalarning ibratomuz pand-nasihatlariga quloq solishiga bog'liq ekanligini o'qiymiz.

Shohona qasrga to'plangan bir to'da bashang kiyingan aslzoda bolakaylar qasrni to'ldirib maqtanishar, ota-onalarining hisobsiz boyliklari bilan quvonishar, kelajakda ota-onalaridan ham badavlatroq bo'lish uchun harakat qilishlarini kibor bilan ta'kidlar edilar. Bu boy-badavlat bolalarning bir-birlariga gap bermay maqtanishlarini yirtiq-yamoq kiyim kiyib olgan bir kambag'al bola tinglab, xo'rsinar, „Bularga yetish bizga yo'l bo'lsin”, deb qo'yar edi o'zicha. Yillar o'tib o'sha juldur kiyimli bola yaxshi o'qib, rassom bo'lib yetishdi, mamlakatda eng boy odamlardan biriga aylandi, o'ziga munosib bir qasr qurdirdi. Qasr hamda uning ichidagi xazinani ko'rishni hamma istardi.

Ertakchining „No'xat ustidagi malika” asari ham yosh kitobxonning kulgisini qistatadi ham tannoz malikaga qahr-g'azabini qo'zg'atadi. Bir shahzoda haqiqiy malikaga uylanish uchun butun yer yuzini, shahar-u qishloqlarni qidirib hech qayerdan haqiqiy malikani topa olmaydi. Hafsalasi pir bo'lgan, tarvuzi qo'ltig'idan tushgan shahzoda qasrga qaytadi. Kunlardan bir kuni ko'z ko'rib, quloq eshitmagan mo'jiza yuz beradi:

Bir oqshom havo aynigandan aynibdi: shundoq chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gulduros solibdi, yomg'ir chunonam chelaklab quyib beribdiki, dahshatning o'zginasi. To'satdan shahar darvozasi taqillab qolibdi. Keksa qirol borib darvozani ochibdi. Darvozada malika turardi. Yo qudratingdan, uni nimaga o'xshatish mumkin! Suv malikaning sochlari, ko'ylaklaridan sharillab oqib, to'ppa-to'g'ri boshmoqlarining uchlariga, tovonlariga tushardi, u bo'lsa pinagini buzmay: “– Men haqiqiy malikaning xuddi o'ziman”,– derdi.

Malikani sinab ko'rish ishlari ham g'alati bo'ladi. Tunda qirq qavat ko'rpa ostiga bitta no'xatni yashirib, joy solib beradilar. Tannoz oqbilak qiz ertalab o'rnidan turar ekan, „Qanday uxlab turdingiz?” – deyilgan savolga nolish, ichki dard bilan javob beradi: „– Ey, juda yomon! – deydi u.– Ko'zimni yummadim, desam ham bo'ladi. Men qandaydir qattiq narsaning ustida yotdim, butun a'zoyi-badanim ko'karib ketibdi. Naqadar dahshat!”

Shahzoda qizning haqiqiy malika ekanligini bilib, unga uylanadi.

Bolalar, odatda, hayvonlar, parrandalar, hasharotlar haqidagi ertaklarni sevib o'qiydilar. Andersen yaratgan ertaklarning juda ko'pchiligi ana shu mavzuni qamrab olishi bilan ham xarakterlidir.

„Dyumchaxon”, „Irkrit o'rdakcha”, „Botqoqlik shohining qizi”, „Baqa”, „Burga bilan professor” singari ertaklari o'zbek kitobxonlarining ham sevimli asarlariga aylanib ketgan.

Xullas, Daniya ertakchisi Hans Kristian Andersenning ijodi uzoq yillardan beri yosh kitobxonlarga zavq-shavq bag'ishlab kelmoqda.

**Jonatan Svift** 1667-yilda Angliyaning yaqin yaqin qo'shnisi va oroldagi mustamlakasi bo'lgan Irlandiyaning poytaxti Dublinda ingliz muhojiri oilasida tug'ilgan. Otasi u tug'ilmasdan sal avvalroq vafot etgan edi. Ziyrak Jo huquqshunos, advokat tog'asi qo'lida tarbiya topadi. Bola boshlang'ich maktabda tahsil ko'rgach, o'n to'rt yoshida tog'asi Dublin universitetining dindorlik fakultetiga o'qishga beradi. Jonatan universitetni tugatgan vaqtda Dublinda irland katoliklarining inglizlarga qarshi qo'zg'oloni yuz beradi. Shu paytda Irlandiyadan quvilgan ingliz oilalari qatori yosh dinshunos olim Svift ham Dublinni tark etadi va "katta yer" – Angliyaga yo'l oladi. Svift bu yerda otasining do'sti Vilyam Templga kotib bo'lish bilan birga uning asrandi qiziga murabbiylik qiladi. Shuningdek uning boy kutubxonasidan bilimni oshirib, gazetalarga maqola, pamflet, felyetonlar, she'rlar yozib turadi. Uning dastlabki asarlaridayoq ijtimoiy hayot masalalarini, siyosiy voqealarni hajv ostiga oladi. Chunonchi, XVII asrning oxirlarida Fransiyada, keyinroq Angliyada qadimgi adabiyot tarafdorlari bilan yangi adabiyot tarafdorlari o'rtasida qizg'in bahslar bo'lib o'tadi. Bu adabiy bahsga janob Templ va uning shogirdi Svift ham qatnashadi. O'shanda buyuk faylasuf olim Bualo qadimgi adabiyotni, folklorshunos, xalq ijodi muxlisi Sharl Perro yangi davr adabiyotini himoya qilib chiqadi. Svift 1697-yili shu bahsga bag'ishlab (ustoz Templning topshirig'i bilan) "Kitoblar jangi" nomli mashhur hajviy pamfletni yozdi. Sviftning bu ilk asarida qadimiy va yangi kitoblar ramziy ma'noda bir-biriga qarshi qo'shin tortishar, qadimgi yunon shoiri Pindar yangi ingliz shoiri Kauliga qarshi ulug' "Iliada" ijodchisi Homer yangi qasidachi Draydenga qarshi jang qilishardi. Bu jangda Zevs, Afina, Apollon, Afroditalar qadimgi adabiyot qo'shinlarini himoya qilar, yangi davr adabiyotiga esa "Adabiy tanqid" nomli mayib-majruh tangri homiylik ko'rsatardi. Svift ijodiga xos kinoya, qochiriqlar shu dastlabki asardayoq ko'rinib qoladi.

Qadimiy va yangi kitoblar o'rtasidagi jangda Sviftning o'zi ikkala tomonni himoya qildi. U hajviyasini o'rgimchak va asalari haqidagi hikoyat bilan tugatadi. Sviftning fikricha, "Haqiqiy adib o'rgimchak singari o'z ichidan chiqqan to'qima iplari bilan tanob tortaverishi yaxshi emas, asl ijodkor asalariday hamma yerda hayot material shariatini yig'ib, uni san'at asaliga aylantirishi kerak". Sviftning ana shundan keyingi hayoti siyosiy kurashlarda toblanadi, u bo'sh vaqtlarida tibbiyot ilmi bilan shug'ullanadi. Chunki u qachondir dengizchi bo'lishi va bunda ana shu kasb qo'l kelishini yaxshi bilardi. U bu orzusiga erishdi ham. Bir necha yil dengiz, okean kemalarida xirurg bo'lib ishlaydi. O'z qahramoni boshidan kechirgan ko'p voqealarning aynan guvohi bo'ladi. Muhimi, siyosiy kurashlardan toliqqan adib, asarlarida bu jarayonni badiiy-kinoyaviy talqin etadi. Jonatan Svift asli ingliz bo'lib, avvallari Irlandiyaga past nazar bilan qaragan bo'lsa ham, haqiqatgo'y ijodkor sifatida har qadamda bechora irlandlarning insoniy huquqlari toptalayotganini ko'rib jim tura olmaydi. U Dublinda ekanligida, Angliyaning hukmparast, olchoq lordlari irland dehqonlarini xonavayron qilayotganligini, irland hukumatining barcha huquqlari tortib olinganligini, irland xalqining taqdiri



Londonda hal etilayotganligini g‘azab bilan fosh etuvchi asarlar yozdi. Bu singari muammolar “Gulliverning sayohatlari”da ayniqsa yorqin aks ettirilgan. Aslida Jonatan Svift bu asarini boshqa bir buyuk ingliz adibi Daniel Defoning “Robinzon Kruzo” romaniga hajv sifatida boshlagan edi. “Robinzon Kruzo”ning bir necha qismdan iborat davomi bo‘lib, ularda qahramon mavjud qirollik tuzumida, adolatli qonunlar asosida oddiy mehnatkash odam o‘z baxtini topadi, degan g‘oyani ilgari surgan edi. Svift esa aksincha bir-biridan battar olchoq, ochko‘z, molparast, mansabparast, tekinxo‘r, takabbur qirollar va ministrlar hukmronlik qilgan jamiyatda inson hech qachon baxtini topolmasligini Gulliver sayohat qilgan o‘lkalar timsolida ravshan ko‘rsatadi.

Lemyuel Gulliver mittivoylar o‘lkasida Tog‘ (Ulkan odam) odamga aylanadi. Oyog‘i ostida minglab liliputlar uymalashadi. Gulliverning ro‘molchasida chavandozlar ot o‘ynatadi, qahramon 600 ta to‘shakda uxlaydi. Darozlar o‘lkasida esa Gulliverning o‘zi mitti bo‘lib qoladi. Kichkina quticha-sandiqchada yashaydi. Buni burgut changalida osmonga olib chiqib ketadi. Gulliver otlar o‘lkasiga borib qolganda, u yerda otlar odamlarni minib yuradi... Yoxud, mittivoylar “Tog‘ odam”ni 91 ta arqon va 36 ta qulf yordamida bog‘lab-chirmab tashlaydilar. Bu raqamlar muallif hayotiga aloqador deb qaraladi. Aytishlaricha, 36 xil toifadagi guruhlar manfaatini ko‘zlab, 91 ta pamflet – hajviya yozgan.

Umuman, “Gulliverning sayohatlari”dagi juda ko‘p voqealar ramziy ma‘noda hayot voqeligini aks ettirishga qaratilgan. Aytaylik, liliputlar orolida tuxumni uch tarafidan sindiruvchilar bilan poynagidan sindiruvchilar guruhi o‘rtasida ashaddiy bahs boradi. Tuxumni uchidan sindirishdan bosh tortganligi uchun 11 ming kishi o‘lim jazosiga hukm qilingan. Bu masalaga bag‘ishlab yuzlarcha tom kitoblar yozilgan. Adib bu bilan o‘z zamonasidagi katoliklar vaprotstant mazhabidagi dindorlarning ashaddiy ixtiloflari aslida arzimas poydevorga qurilganligi, ammo shu arzimas sabab tufayli juda katta qirg‘inbarotlar yuz berayotganligini alamli qahqaha bilan tasvirlaydi. Yoki, yana bir o‘rinda adib mittivoylar o‘lkasidagi Tremeksenlar va Slemeksenlar, ya‘ni baland poshna tarafdorlari bilan past poshna tarafdorlari o‘rtasidagi janjalni tasvirlaydi. Shuningdek, romanda hukumat rahbarlarining shaxsiga sig‘inish, ularni dabdabali unvonlar bilan ulug‘lash masxara qilinadi. Masalan, “Liliputiyaning qudratli imperatori, jahonning quvonchi va dahshati, podsholarning podshosi, insoniyatning eng ulug‘ farzandi, boshi quyoshga yetgan, bahorday so‘lim, yozday himmatli, kuz singari to‘kin, qish singari qahrli Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin Molli Oliy Gu Oliy hazratlari...”

Romanda Liliputiya-dagi ahmoqona tartiblardan yana biri – yuqori mansablarga qanday odamlar tanlanishi o‘tkir hajviy bo‘yoqlarda tasvirlanadi: “Birorta amaldor vafot etsa yoki imperatorning g‘azabiga uchrasa, bo‘shagan lavozimga da‘vogar bo‘lganlardan besh-olti kishi oliy hazratlari va butun saroy ahlini xushnud etib, dor o‘ynab berish uchun imperatordan izn so‘rashadi. Kimki arqondan qulamay, hammadan balandga sakrasa, bosh o‘rin o‘shaniki bo‘ladi”. Mukofot olish tartiblari ham shunga o‘xshash. Imperator tayoq o‘ynatganida uning

ostidan va ustidan chaqqonlik bilan likillab o'ta oluvchilarga oliy mukofotlar beriladi.

Svift o'z hayoti davomida Angliya hukumati rahbarlariga juda ko'p yaxshiliklar qilgan bo'lsa-da, ular adibga bergan va'dalarini tez unutishdi. Bundan insoniy g'ururi ozor topgan adib "Gulliverning sayohatlari" da shunday hazil qiladi: ...har bir odam birinchi ministr qabuliga kirib, arzini qisqa qilib aytganidan so'ng, esida qolishi uchun uni burnidan chimchilashi yoki qorniga bir tepishi kerak bo'ladi... "Gulliverning sayohatlari" muallifi "Robinzon Kruzo" muallifi bilan bahslashar ekan, hayotning cheksiz rang-barangligini, murakkabligini, kulgili va fojiali voqealarga boyligini idrok etishda Daniel Defoga nisbatan mislsiz yuksaklikka ko'tariladi. Shu bilan birga u inson ruhiy holatlarini, qahramonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitni keng, batafsil tasvirlashni Defodan o'rganadi ham.

Asar qahramoni Gulliver turli afsonaviy joylarga borib, ajoyib-g'aroyib fantastik voqealarni boshdan kechirsa-da, uning xarakteri, fe'l-atvori, ichki dunyosi nihoyatda haqqoniy, realistik bo'yoqlarda chiziladi. U liliputlar o'lkasidagi ahmoqona tartib-qoidalarga norozilik bildirmaydi, ularga barcha fuqaro qatori bo'ysunadi. Liliputiyaning fani, qonunlari, urf-odatlarini, bola tarbiyalash jarayoni, ya'ni buni jamiyat va davlat zimmasiga yuklatilishi haqida ajoyib lavhalar keltiriladi.

Romanning 3-4-qismlarida, ayniqsa, Svift satirasi g'oyat kuchayib, umuminsoniy, falsafiy umumlashmalar darajasiga ko'tariladi. Adib Gulliverning Laputaga sayohati voqealarida o'zga xalqlarni asoratda saqlashga uringan Angliyaning mustamlakachilik siyosatini, davlat rahbarlarining xalqdan uzilib qolganligini, ilm-fanda soxta, savodsiz, ahmoq odamlar ko'payib ketganligini yorqin hajviy bo'yoqlarda tasvirlaydi. Laputa hukumati lapakka o'xshash uchar orolda yashaydi. U faqat xalqdan soliq undiradigan vaqtda, yoki qo'zg'olonlarni bostirish uchun yerga yaqinlashadi. Boshqa vaqtlarda doimo osmonda yashaydi. Laputadagi "Lo'ttibozlar akademiyasi"da ahmoqona "ilmiy" loyihalar ishlab chiqiladi. Masalan, lo'ttiboz olimlar marmarni qumga aylantirish, yungsiz qo'ylarni urchitish, uylarni tomidan boshlab eng so'ngida poydevorini qurish haqida bosh qotirishadi. Yana bir o'rinda Gulliver akademiyaning tilshunoslik maktabiga qilgan tashrifi bayon qilingan. U yerda uch professor ona tilini takomillashtirishning turli loyihalarini muhokama qilishayotgan edi. Birinchi loyihada ko'p bo'g'inli so'zlarni bir bo'g'inlikka aylantirib, fe'l va sifatdoshlarni chiqarib tashlab, so'zlashuv tilini soddalashtirish taklif qilinardi. Muallif faqat otlargina mavjud predmetlarga mos keladi, deb ta'kidlaydi. Ikkinchi loyihada hamma so'zlarni to'liq yo'qotish taklif qilinardi. Ushbu loyiha muallifi buning salomatlik va vaqtni tejash uchun nafi kattaligini asosiy dalil qilib ko'rsatadi. Chunki so'zlarni talaffuz qilish bo'g'iz va o'pkani toliqtiradi, demak umrni ham qisqartiradi. Yoki muallifning matematika maktabiga tashrifi ham qiziqarli ma'lumotlarga boy. Bu yerda shunday metodda o'qitiladiki, buni Yevropada qo'llash amrimahol tuyuladi. Har bir teorema isboti bilan boshog'riq dori o'raladigan qog'ozchaga siyohda yoziladi. O'quvchi ana shu qog'ozchani nahorda

yutib yuboradi va uch kungacha suv hamda nondan boshqa hech narsa yemaydi. Qog‘oz hazm bo‘lgandan keyin uning ichidagi dori o‘zi bilan teoremani yetaklab, miyaga ko‘tariladi. Ammo bolalar dorining achchiqligi va qisman ular sho‘xligidan bo‘lsa kerak, ular sal chetroqqa borib tuflab tashlashadi... Asarning falsafiy utopiya darajasiga ko‘tarilgan oxirgi qismida otlar aqlli zotlarga, odamlar maymunsimon aqlsiz maxluqlarga – yexularga aylanadi. Yexularning eng xunugi va axmog‘i podsho bo‘ladi. Bosh vazirning vazifasi – qirolning boshdan oyog‘igacha yalab chiqish va unga yangi-yangi urg‘ochilar topib kelishdan iborat. Yexularning ishi – hammayoqni vayron etish, bir-birini qirib yo‘qotish. Ular oltinga va boshqa yaltiroq toshlarga sajda qilishadi.

Romanda shu kabi g‘aroyib sarguzashtlar bir talay. Ularning aksariyatida muallif “men”i sezilib turadi.

**Janni Rodari** (1920 - 1980) o‘zining ijodiy faoliyatini jurnalistlikdan boshlab, butun dunyoga mashhur muallif – ertakchi nomini olgan, o‘zining adabiy faoliyati uchun H.K. Andersen nomidagi Oltin medalga sazovor bo‘lgan yozuvchi. U nonvoyning o‘g‘li. Mamalakatning shimolida Alp etaklarida joylashgan kichkinagina shaharda tug‘ilgan Janni bolaligidan o‘zining aqlga sig‘mas fantaziyalari bilan ajralib turardi. Bolaning boy tasavvuriga uni o‘rab turgan barcha narsalar: ko‘lning toza, tiniq suvi, oroldagi qasr va uning o‘rtasida otasining nonvoyxonasi hamda unda po‘rsillab, bijirlab, pufakchalar chiqarib turgan oshgan xamir ozuqa berardi. O‘sha vaqtlarda u bir burda non uchun mehnatning og‘ir mashaqqatlarini chekishiga to‘g‘ri keldi. U o‘zi o‘ylagandek musiqachi ham, rassom ham bo‘lmay, u uchun juda zerikarli va diqqinapas bo‘lgan seminariyada o‘qishga tushib qoladi. Ammo Rodari o‘zini hayoti ustidan hukm chiqara oladi; institutda ma‘ruzalar tinglaydi, o‘qituvchilik qiladi, ammo “quruq o‘qituvchi” bo‘lmaydi, bolalarga tushunarli, xushchaqchaq o‘qituvchi bo‘lib yetishadi. U bir narsaga amin edi: maktab yumorga muhtoj, chunki unda “kam kulishadi”, lekin “o‘rganilishi kerak bo‘lgan ko‘p narsani achchiq ko‘z yoshlar bilan foydasiz o‘rgatishadi, biroq shu narsani kulib o‘rgansa ham bo‘ladi”. Rodari o‘zining birinchi she‘rlarini bosmadan chiqarishni “Unita” gazetasida, unga “Bolalar sahifasi”ni topshirishganda boshlagan edi. Gazeta kommunistik gazeta bo‘lib, unda birinchi navbatda kambag‘al bolalar hayoti aks ettirilishi kerak edi. “Hunarlardan nima keladi?”, “Hunarlar qaysi rangda?”, “Ovchi”, “Baliqchi”, “Farrosh” kabi she‘rlarining nomiyoq, uning adabiy ijodi qaysi yo‘nalishdaligini yorqin ko‘rsatib turadi. Yozuvchi o‘z ijodining asosiy qismini ertaklarga bag‘ishladi. “Men o‘ylaymanki, - deb yozgan edi Rodari, - ertaklarning ham yangisi, ham eskisi aqlni tarbiyalashda yordam bera oladi. Ertak bu turli xil gipotezalarning xazinasi. Ertak bolalarga atrof-muhitni anglashga, o‘zining tasavvuri bilan unga tanqidiy yondoshishga, borliqqa yangi yo‘llar bilan kirishga kalit bera olishi mumkin”. Ammo Rodarini katta ertak yozishga undagan narsa Kollodining “Pinokkio” asaridir. Faqat uning “Chippolino”sida qo‘g‘irchoqlar emas, odamlarga juda o‘xshagan sabzavot va mevalar ishtirok etgan. Ular yaxshi va yomon his-tuyg‘ular hamda yumor bilan yo‘g‘rilgan. Hikoya insoniylikni hamda bechora kambag‘al odamlarning hayotiy muammolarini imkon qadar

kengroq yoritishga qaratilgan. Muallifning bitmas-tuganmas fantaziyasi tufayli bechoralar obrazi Qovoqboy, usta Uzumcha, professor Nok kabilarda o‘z ifodasini topadi. Rodarining qahramonlari doimo ijtimoiy jihatdan aniq belgilangan, shuning uchun ertakning boshqa tomonida Limon shahzoda, ishyoqmas Apelsin, izquvar Sabzilar obrazi mavjud. Chippolino butun piyoz oilasi bilan Limon qirolligida yashaydi. Ularda sodir bo‘layotgan barcha yomonliklar qahrli shahzodaning xohish-istagi bilan bo‘ladi, ammo “ular o‘zlari yaxshi odamlar bo‘lsalar-da, hamma narsaning to‘g‘risini aytish kerak, ularning omadlari hayotda chopmagan. Nima ham qila olardik, qayerda piyoz bo‘lsa, o‘sha yerda ko‘z yosh ham bor”.

Ertakona qahramonlarning hayoti ko‘p hollarda hayotiy muammolar bilan bog‘liq. Masalan, mingoyoq otaga ikkita o‘g‘lining oyoq kiyimini almashtirish to‘g‘ri keladi. Ammo usta Uzumchanning esa poyafzal tikishga shuncha charmi yo‘q. Uning ustiga ota shuncha poyafzal pulini to‘lashi uchun bir umr ishlashiga to‘g‘ri kelar edi. Bechoralar vaziyatdan chiqish imkonini o‘ylab topishadi: faqatgina eng eskirib ketgan poyafzallarning bir nechtasini almashtirishadi xolos. Hikoya bayonining oxirigacha personajlar xarakterlaridagi o‘ziga xos tomonlarini sabzavotlarga, mevalarga, hasharot hamda hayvonlarga xos bo‘lgan xususiyatlarini yo‘qotmaydilar. Shu bilan bir qatorda muallif kichik kitobxonlarni yaxshi va oq ko‘ngil odamlar yana ham yaxshiroq yashashga intilishlari, yomon va badxulq odamlar o‘zlarining bo‘lmag‘ur odatlarini tark etishlari hamda yaxshilarni ezmasliklari kerak, degan xulosaga kelishlariga chorlaydi. Ijobiy qahramonlarning barcha sarguzashtlari va his-tuyg‘ulari bir maqsadga – haqiqatni qaror toptirishga qaratilgan. Ertakning oxirida shu ro‘yobga chiqadi. Lekin kekxa Chipollone o‘zining o‘g‘li Chipollinoga takrorlaganidek, “do‘stim, hech qachon esingdan chiqarmagilki, dunyoda yomonlar ko‘p, sen haydab chiqarganlaring esa bir kun kelib qaytishi mumkin”... Rus tilida bu asarni mashhur bo‘lib ketishiga sababchi bo‘lgan adib esa S.Y.Marshak edi. Rodari o‘zining butun ijodi davomida ijtimoiy qarashlariga, haqiqat g‘oyalariga sodiq qoladi. Hattoki, “Osmondagi tort” asarining sujeti aql bovar qilmas darajada o‘zgarib ketganda ham, ya‘ni atom bombasi bahaybat ulkan tortga aylanib qolib, ishchilar shaharchasi ustida muallaq turib qolishi, muallif ta‘kidlaganidek, bunda ham o‘git “shaffof”dir: agar inson tabiat resurslaridan qurollanishga emas, balki yaxshi ishlar uchun foydalanganlarida edi, unda nafaqat millionlab och, kambag‘allarni to‘ydirish, kiyintirish mumkin edi, balki shokoladli tortlar hamma uchun yetarli bo‘lgan bo‘lard, degan fikr bolalarcha talqin etiladi.

“Yangi yil archalari sayyorasi” asari qahramoni Marko kosmik kemada sayr qilib yurib, o‘zga sayyoraliklar bilan uchrashib, ularning do‘stona munosabatlarini ko‘rib, kosmik svilizatsiyalarga tegmasdan, barcha sayyoralarning odamlarini birlashtirish imkoniyati borligi haqidagi fikrga keladi. “Jip televizorda” ertagida esa butun dunyoni qurollantirish haqida fikr yuritayotgan olimlarning tafakkurini Koinotni tinch yo‘l bilan zabt etish yo‘llarini izlashga qaratadi. Insonning umri, hayoti har narsadan ustun ekanligi Rodari asarida yana bir bor yorqin satrlarda ta‘kidlanib, insoniyat barhayotligining asosi barcha uchun foydali bo‘lgan

mehnatda ekanligi takror uqtirib o‘tiladi. Ammo insoniyatga kerakli bo‘lish uchun tayyorgarlikni bolaligidan boshlash kerak. Shuning uchun yozuvchi o‘zining asarlarini bilishga oid ma’lumotlar bilan boyitgan holda “Dunyodagi barcha narsalar haqida” deb nomlangan she’rlar majmuasini hamda “Nima uchun? Nimaga? Nima sababdan?” deb nomlangan kichik, jozibador novellalar bilan qo‘shilgan she’rlar to‘plamini yozadi.

Yozuvchining barkamol insonni tarbiyalash g‘oyasi haqidagi fikrlari “Jelsomino yolg‘onchilar mamlakatida” deb nomlangan ertagida mujassamlashgan. Uning asosiy g‘oyasi – yolg‘on bilan kurashish. Rodarining ta’kidlashicha, “insoniyatning eng xavfli dushmanlari – bu yolg‘onchilar”. Asar sujetining yanada yorqinroq chiqishi uchun telba-teskari usuldan foydalanadi: barcha haqiqatlar teskari qurilgan bu shaharda hamma narsa “aniqlikdan teskari tomonga” tarzidagi bema’ni ko‘rinishga ega: biror-bir narsani faqatgina soxta pullarga sotib olish mumkin, mushuklar vovillashadi, “qo‘rqinch” so‘zini o‘rniga “jasurlik” so‘zini ishlatish qabul qilingan va h.k. Rodarining bosh qahramoni har doimgidek, yomonlik bilan yolg‘iz kurashadi. U go‘zal ovoz sohibi, ovozining sehrini juda o‘rinli hamda unumli ishlatgan asar qahramoni: “Bu qirollikni vayron qilish uchun, faqatgina qo‘shiqni maromiga yetkazib kuylashning o‘zi kifoya edi”, - deydi.

Rodarining “Fantaziya grammatikasi” (Sarguzashtlar o‘ylab topish san’atiga kirish) asari uning fantaziya tabiati haqidagi fikrlari va tajribalari borasidagi mehnati samarasidir. Bu asarda adib o‘zining shu sohadagi kuzatishlari, ertaklar yozishda qanday usullardan foydalanishi, ertaklar yozuvchining xayolotida qanday vujudga kelishi haqidagi fikr-mulohazalarini umumlashtiradi.

## **XII. RUS BOLALAR ADABIYOTI**

### **Reja:**

1. A.S.Pushkin ertaklari ahamiyati.
2. L.Tolstoy – bolalar kitobxonligida.
3. K.Chukovskiy – bolalar shoiri va adibi.
4. S.marshak – bolalar shoiri

**Aleksandr Sergeevich Pushkin** (1799-1837) ta’lim-tarbiyasida Yevropa madaniyati, fransuz Uyg‘onish davri adabiyoti ta’siri katta. U bolaligidan fransuz va rus tillarida erkin so‘zlasha olgan. Bo‘lajak shoir litseydagi talabalik davridayoq antik adabiyotning mumtoz hamda Yevropa yozuvchilarining asarlarini sevib o‘qish bilan birga, rus klassiklarining kitoblarini ham sevib mutolaa qilgan. Qadimgi rus adabiyoti unga kam tanish bo‘lsa-da, ammo uning estetik jihatdan shakllanishida xalq folklori eng katta ta’sir ko‘rsatgan. Pushkin davrida, hatto dvoryanlar oilalarida ham, ertaklar aytish urf bo‘lgan. Shoir bolaligida ertaklarni o‘z enagasi Arina Rodionovna Matveevadan, buvisi Mariya Alekseevna Gannibaldan, uy xizmatchisi Nikita Kazlovdan hamda Moskva yaqinidagi Zaxarova qishlog‘ining dehqonlaridan eshitganligini ko‘p ta’kidlaydi.

U Ukrainada janubda, Nijegorod shahridagi Boldinoda, Janubiy Ural va Orenburg tomonlarda bo‘lib ertaklar, maqollar, matallar, qo‘shiqqlar eshitgan va yozib olgan.

Pushkin ijodida bolalar mavzusi kam uchraydi. Faqatgina uncha katta bo‘lmagan “Go‘dakka” (1824), “Go‘dakka epitafiya” (1828) (epitafiya – qabr toshi ustidagi bitik) she‘rlari bevosita bag‘ishlovdir. Ammo uning ko‘pgina lirik she‘rlari, doston va adabiy ertaklari bolalar kitobxonligida mashhur. Shu sababli Tvardovskiy haqli ravishda, u bizning hayotimizga bolaligimizning ilk davrlaridan boshlab kirib keladi va umrimizning oxirigacha bizni hech qachon tark etmaydi, degan edi. Muhimi, Pushkin yangi rus adabiyotini realistik va xalqona tamoyillar bilan boyitdi. U “Ruslan va Ludmila” dostonini yozishni o‘n yetti yoshida boshlab, yigirma yoshida tugatadi. Shoirning ana shu ilk ijod namunasidayoq ertak ajoyibotlari olami mavjud. Bu bir necha yuz yillardan buyon o‘quvchilarni doimo o‘ziga rom etib kelayotir. “Ruslan va Ludmila” dostonining mashhur muqaddimasi kitobning ikkinchi nashri (1828-yilda) bilan paydo bo‘ldi va u mustaqil asar deb talqin qilinadi.

Muqaddimaning asosiy qahramoni qo‘shiqchi hamda ertakchi bo‘lgan “Bilimdon Mushuk” (“Kot uchyoniy”). Muallifning ertakona sujet mozaikasini oldindan berishi bejiz emas, bunda qo‘shiqqlar hamda ertaklar qanday dunyoga kelishi, inson tomonidan o‘ylab, to‘qib bo‘lmaydigan g‘ayritabiiy xalq g‘oyalari sirli rishtalar bilan bog‘langani anglashiladi. Shu sababli shoir o‘sha sirli manzil (Yashil eman daraxti o‘sayotgan Dengiz bo‘yi)da ertaklar eshitganini, shu jumladan “Ruslan va Ludmila” ertagini ham tinglaganini muqaddimada ta’kidlaydi. Ajoyibotlarning tasviri go‘zal suv parisi va suv alvastisi, yovuz kuchlar (demonologiyadan), ya’ni xalq ishonadigan qahramonlar talqinidan boshlanadi. Keyin misli ko‘rilmagan olam tasvirlanadiki, buni to‘qima yo haqiqiyliги anglash qiyin. “Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan yo‘lakchalarda misli ko‘rilmagan hayvonlarning oyoq izlari...” Va shu zahotiyog, notanish manzarani haqiqiy rus ertagi sujeti egallaydi: “U yerda, eshiksiz, derazasiz tovuq oyoqli kulbacha...” xalq ijodida o‘tloq va o‘rmon orasidagi chegara ma’nosini anglatuvchi, ya’ni ikki qirollik orasidagi chegara – qahramon oilasi yashaydigan odamlar qirolligi hamda yovuzlik hukmronlik qiladigan “boshqa” O‘lmas Kasheshey istiqomat qiladigan personajlar tasviri. “U yerda o‘rmon va mo‘jizalar to‘la maydoncha...” - shoir sirli tabiat bilan sehrli g‘oyalarning bog‘liqligini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi, so‘ngra esa dengizdan ajoyibotlarni paydo bo‘lishini “ko‘rsatadi”: “U yoqda tongdan to‘lqinlar xabar berar, Va o‘ttiz uchta pahlavon o‘zlarining dengiz bobolari bilan birin-ketin suvdan chiqib, kimsasiz va qumloq sohilda saf tortib turar”... O‘quvchi endi haqiqatdan shahzodani ham, maftunkor shohni ham, pahlavon bilan uchib yurgan jodugarni ham, yovuz bo‘ri bilan malikani ham ko‘rishga tayyor. Va nihoyat, xalqning oddiy taxayyulidan paydo bo‘lgan eng buyuk qahramonlar – Yalmog‘iz kampir (Baba Yaga) hamda o‘lmas podshoh Kasheshey (Tsar Kashey) paydo bo‘lishadi. “U yerda rus ruhiyati.... U yerda Rus ufurib turibdi!” - shu tariqa, shoir tomonidan olib chiqilgan rus xalq ertagiga oliy baho beriladi. “Men ham u yerda bo‘ldim, bol ham tatidim...” Shoir xalq folklori xotimasini so‘zma-so‘z bayon qilib, o‘zining ijodining sarchashmasi

xalq she'riyatidan olinganligini barchaga ayon qiladi. Shu tariqa, Pushkin ertaklarni yuqori adabiy janrlar bilan bir qatorga qo'yadi. Shoir nigohida ularning har biri butun birdoston. Binobarin, bolalar kitobxonligi doirasiga kiruvchi "Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak" (1831), "Shoh Saltan, uning shavkatli va pahlavon bahodir o'g'li knyaz Gvidon", "Oqqush malika haqida ertak", "Baliqchi va baliq haqida ertak" (1831) kabi o'nlab ertaklar shoir ijodining eng gullab yashnagan, mashhur asarlari yaratilgan vaqtida yozilgan. Bularning barchasi Pushkinning xalq og'zaki ijodiga yuksak munosabatini ko'rsatadi. Shunisi e'tiborliki, Pushkinning ko'pgina ertaklari jahon xalq ertaklari sujeti asosida yozilgan. Jumladan, uning "Baliqchi va baliq haqida ertak"i nemis ertakshunoslari aka-uka Grimmlarning "Baliqchi va uning xotini" ertagi sujetiga monand. Yakob va Vilgelm Grimmlar ertagi 1815-yilda nashr qilingan "Bolalar va oilaviy ertaklar" to'plamida chop etilgan. Grimmlarning ertagi V.A.Jukovskiy tomonidan 1826-yilda rus tiliga tarjima qilingan va "Detskiy sobesednik" jurnalida chop etilgan. Aytish mumkinki, Pushkin ijodida ularning alohida ta'siri bo'lgan. Natijada, bir xil sujet asosida yozilgan ertaklarning o'ziga xos mushtarak va farqli xususiyatlarini kuzatish mumkin. Aka-uka Grimmlar ertagining G.Petnikova tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasi nasriy bayonga ega va unda baliqchi chol kambala-baliqlarning shahzodasini tutadi; undan avval yangi uy, qasr so'raydi. So'ngra kampir malika, imperator, rim papasi bo'lishni orzu qiladi. Barcha tilaklari amalga oshgan kampir endi quyosh va oyning chiqishi-yu botishini o'zi belgilamoqchi, xudo darajasiga ko'tarilishni istaganda, eski uyiga qaytib qoladi. Pushkin esa ertakni xalqona uslub, qofiyasiz she'r shaklida yozadi. Bu vazn ertak hikoyasiga musiqiylik baxsh etgan. Vaznga mos tarzda unda ma'naviy-falsafiy mazmun ham mavjud. Chol oltin baliqdan avval yangi tog'ora, so'ngra uy, keyin qasr so'raydi. Malikaga aylangan kampiri dengiz hukmroni bo'lishni xohlab, cholni haydaganda eski uycha va teshik tog'ora qaytib oldida paydo bo'ladi. Demak, Grimmlar ertagida bitta istak ziyod bo'lishdan tashqari, siyosiy hayot va davlat boshqaruviga daxldor shartlar qo'yilgan. Chol ham o'z kampirining har bir xohishiga qarshi borib, uni insofqa chaqirishga harakat qiladi, baliqni boshqa bezovta qilmaslikni so'rab, yalinib-yolvoradi. Shunga o'xshash, chol-kampir munosabatida muloyimlik, har bir orzu ro'yobga chiqqach, kampirning cholga nisbatan mehri iyib, "Ko'ryapsanmi, qanday yaxshi?", "Ha, nima axir, bu ajoyib-ku?", – degan iqrorlari ko'zga tashlanadi. Ya'ni, ertak qahr-g'azabdan xoliroq va xalqning shunchaki xayolparastlik tuyg'usiga monand. Kampir boy-badavlat, hatto, "imperator" va "Rim papasi" bo'lganda ham o'z choliga munosabati o'zgarmagan. U bilan odatdagidek muomala qiladi, yashaydi...

Pushkin ertagi variantida esa real hayot manzaralari ustuvor. Kampir har safar cholni "Eh, sen ahmoq, sodda chol, qani, jo'na dengizga!", – deb so'kadi. Va har gal orzusi ro'yobga chiqqach, tag'in-da darg'azab bo'lib, cholni haqoratlaydi hamda unga xizmatkoridek munosabat ko'rsatib, haydab soladi. Chol ham "la'nati kampir"ga qanday chora ko'rishni bilmaydi. Aslida u oltin baliqchani hech ta'masiz qo'yib yuborgan edi ("Tangri yoring bo'lsin, baliqcha"). Shu sababli baliq ham cholga har gal minnatdorlik yordamini ado etadi: "Qayg'urmagil, tangri

yor bo'lsin!". Kampir esa oltin baliqchaga o'zining ushalmas orzularini ro'yobga chiqarish vositasi sifatida qaraydi. U dastlab o'zini zarur narsalarnigina istayotgandek tutadi, keyin esa ko'proq va yana mo'ltiroq narsalar xohlaydi. Zero, kampirga hokimiyatning tashqi ko'rinishi kifoya qiladi, u zodagonlik va qirollik xizmatining ichki mazmun-mohiyatini tushunmaydi va istamaydi ham. Bu oddiy xalq nazdidagi "hokimiyat ahlining boy, farovon hayot kechirishi"ga oid sodda fikrlashining ifodasidir. Ertakning asosiy g'oyalardan biri – "buyuk" vazifalarni bajarishni da'vo qilishdan ko'ra, har kim o'z kuchi etadigan ishni (masalan, kampir ipini yigirishi, chol to'rida baliq ovlashi) bajarishi yaxshiroq ekanligidir.

Dengiz Pushkin uchun doimo erkin odatlar, ya'ni o'ziga xos olam, har xil chegaralardan xoli o'zgacha dunyo sifatida qarab kelingani e'tiborga olinsa, ertakda insoniyatning boyluk va mansab cho'qqilari sari intilish kuchi yoki uni o'ziga maftun qilib, domiga tortayotgan orzu-istaklar ko'proq yerga xosligi anglashiladi. Insonning ochko'zligi va ahmoqligi tufayli tabiatdagi mutanosiblik buzilishini shoir teran his qiladi. Shu sababli, ertak oxirida barcha narsalarning tartibi o'z o'rnini topadi: chol o'z kampirini o'sha yerto'la va teshik tog'ora oldida ko'radi. Muammo yechimi – aqlsizlikning mag'lub bo'lishi. Bu jihatlarda har ikkala ertak varianti uchun daxldor bo'lsa-da, Pushkin o'z ertagida keskinlikni oshiradi. Bunda kampir shafqatsiz, qahrli va xudbin tasvirlangan. Cholning g'azabi, kinoya va pichinglari ham shunga yarasha dag'al. Demak, bir xil sujetga ega ertaklarning talqinida har bir xalqning qarashlari, ijtimoiy turmush tarzi, voqelikka munosabati turlicha aks etadi. Aytish mumkinki, A. S. Pushkin ertagida ijodiy g'oya, badiiy sayqal va real davr voqeligi yorqinroq ko'rinadi. Va bu shoir asarlarining sarchashmasi xalq ijodiyoti ekanidan dalolat berish bilan birga, unga ijodiy yondashganligini e'tirof etadi. Zero, uning yosh yozuvchilarga ko'proq ertaklar o'qishni maslahat berishi bejiz emas.

**Tolstoy Lev Nikolayevich** (1828-1910) rus yozuvchisi. Rossiyadagi qadimiy dvoryanlar sulolasidan, Qozon universitetining arab-turk va huquqshunoslik fakultetlarida o'qigan. 1851-53-yillarda Kavkazda bo'lib, janglarda ishtirok etgan. 1855-yilda Peterburgga borib, N. A. Nekrasovning "Sovremennik" ("Zamondosh") jurnali va jurnal atrofidagi yozuvchilar (I. S. Turgenev, I. A. Goncharov, N. G. Chernoshevskiy va b.) bilan hamkorlik qilgan. Bolalik kezarida rus va arab xalq ertaklari, A.S.Pushkin she'rlari, shuningdek, Yusuf haqidagi Injil rivoyati ta'sirida she'rlar yozgan. Birinchi yirik asari – "Inson kamolotining to'rt davri" avtobiografik asari ("Bolalik", 1852; "O'smirlik", 1852-54; "Yoshlik", 1855-57; "Yigitlik", yozilmay qolgan). Urush lavhalari va askarlarning maishiy turmushi Tolstoyning "Sevastopol hikoyalari" (1855) to'plamiga kirgan hikoya va ocherklarida o'z ifodasini topgan.

50-yillar Tolstoy ruhiy hayot lavhalari va maishiy turmush tafsillarini tarixiy voqealarning keng manzarasi, hayotning axloqiy-falsafiy asoslari tasviri bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi.

Rus va jahon adabiyoti xazinasidan mustahkam o'rin olgan "Urush va tinchlik" (1863-69) epopeyasi Tolstoyning 60-yillarda ijodiy kamolotga erishganidan shahodat beradi. Ayrim adabiyotshunoslar garchand bu asarni



Tolstoyning o'z davri muammolaridan qochishi, deb baholagan bo'lsalarda, yozuvchi "Urush va tinchlik" romani bilan o'z davrida ro'y bergan va o'zi shaxsan guvoh bo'lgan voqealarga faol munosabat bildirgan. Eng muhimi, u Napoleonning 1805-07 va 1812-14 yillardagi harbiy yurishlari mavzuiga murojaat etib, ko'plab qahramonlar ishtirok etgan epik voqealar bilan birga qahramonlarning ruhiy tasvirlari ilk bor katta mahorat bilan uyg'unlashgan tarixiy roman janrini yaratdi. Holbuki, 19-asr o'rtalarida epik asarlar davri o'tdi, degan fikrlar keng tarqalgan, 60-yillarda rus jamiyatida kuch ola boshlagan sinfiy ziddiyat va kurashlar esa "Urush va tinchlik"dek epopeyaning maydonga kelishi uchun unumli zamin bo'la olmas edi. 1812- yildada Rossiyaning Napoleon qo'shinlari tomonidan bosib olinishi mumkinligi bir-biri bilan kelisha olmagan turli tabaqa va sinflarni dushmanga qarshi kurash shiori ostida birlashtirdiki, Tolstoyning rus xalqi ongidagi ana shu uyg'unlashga murojaat etishi "Urush va tinchlik" romanining yuzaga kelishi uchun hayotbaxsh zamin vazifasini o'tadi.

Tolstoyning 70-yillar ijodida "Anna Karenina" romani alohida mavqega ega. "Urush va tinchlik"dan bu romanni yozguniga qadar bo'lgan davrda Tolstoyning rus jamiyatidagi ijtimoiy tenglik va adolat to'g'risidagi orzu umidlari ro'yobga chiqmadi. 60-yillardagi islohot yozuvchi kutgan natijani bermadi. Mazkur romanda Tolstoyning jamiyat hayotida kechayotgan noxush jarayonlar haqidagi iztirobli o'ylari aks etdi. Romanda Kareninlar, Oblonskiylar va Levinlardan iborat 3 oilaning bir-biri bilan chatishgan, ammo mustaqil sujet chizig'iga ega bo'lgan tarixi tasvir etilgan. Tolstoy aksar rus yozuvchilaridek, nasroniy diniga katta e'tiqod qo'ygan, hayotda ro'y berayotgan voqealarga va kishilarning xatti-harakatlariga ham shu din nuqtayi nazaridan yondashgan. Uning diniy qarashlari jamiyat va shu jamiyatda yashovchi kishilarga, binobarin, u yoki bu qahramoniga bo'lgan munosabatiga, shak-shubhasiz, ta'sir o'tkazgan. Tolstoyning oila masalasiga, chunonchi, Kareninlar oilasida sodir bo'layotgan voqealarga yondashuvida ham diniy qarashlari seziladi. U jamiyat a'zolarida qanday chirkin xislatlar mavjud bo'lmasin, kishilar diniy qonun-qoidalar doirasida harakat qilishlari lozim, aks holda jamiyat halokat sari boradi, degan fikrdan kelib chiqib, qahramonlar obrazini yaratadi.

70-yillarda ruhiy iztirob iqlimida yashagan Tolstoy o'z hayot yo'lini qayta nazardan o'tkazdi va shu jarayonda ijtimoiy kelib chiqishi, tarbiyasi va hayot yo'li bilan bog'liq jamiyat qatlamining ma'naviy asoslari yolg'onga asoslangan, degan xulosaga keldi. Uning bunday qarashlari "Iqornoma" (1880) va "E'tiqodim nimada?" (1884) asarlarida o'z ifodasini topdi.

Tolstoyning bolalar uchun yozgan qator hikoyalari Saidrasul Aziziy ("Ustodi avval", 1902), Aliasqar Kalinin ("Muallimi soniy", 1903), Abdulla Avloniy ("Birinchi muallim", 1909; "Ikkinchi muallim", 1912) singari jadid ma'rifatparvarlarining o'quv qo'llanmalari va darsliklarida e'lon qilingan hamda usuli savtiya maktablarida o'qitilgan.

**Korney Chukovskiy** (1882-1969) XX asr bolalar adabiyotining asoschilaridan biri, 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar psixologiyasining tadqiqotchisi. Bundan tashqari u ajoyib adabiy tanqidchi, tarjimon, adabiyotshunos

olim ham bo‘lgan. “Men bolalarni o‘rganishga ahd qildim... Bir vaqtlar xalqqa qaytganlaridek men ham “bolalikka qaytishga” qaror qilib, kattalar jamiyati bilan munosabatimni deyarli uzdim va uch yoshli bolalar bilangina muloqotga kirishdim”, – deb yozgan edi Chukovskiy o‘zining kundaliklarida.

Rus bolalar adabiyotining ulkan daholaridan biri Korney Chukovskiy yirik yozuvchi, shoir, taniqli olim, mohir tarjimon sifatida tanilgan so‘z ustasi edi. U o‘z asarlarida bolalarga xos ajoyib xislatlarni – rahmdillik va insoniylik, do‘stlik va birodarlik, yovuzlikka nisbatan shafqatsizlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarini targ‘ib etadi. K.Chukovskiy bolalar uchun asarlar yaratish, ijod qilishni o‘zi uchun katta baxt deb biladi.

Chukovskiyning dastlabki “San’at nima?” maqolasi 1901-yilda “Odisseykie novosti” gazetasida bosilib chiqqan. 1903-yilda u gazeta muxbiri sifatida Angliyaga boradi. Londonda xizmat qila boshlaydi. Lekin bu yerdagi faoliyati uzoq davom etmaydi. Gazeta unga maosh to‘lamay qo‘yadi. U Britaniya muzeyiga ishga kirib, tirikchilik o‘tkazishga majbur bo‘ladi.

1905-yilda K.Chukovskiy Odessaga qaytib keladi va bu yerda “Signal” degan jurnal chiqara boshlaydi. Jurnal sahifalarida chor hukumati siyosatiga qarshi materiallar bosilganligi uchun uni sud qilishadi.

Keyingi yillarda u bolalar adabiyoti bilan mashg‘ul bo‘ladi, bolalar adabiyoti to‘grisidagi ko‘plab maqolalar yozadi, 1907-yilda “Bolalar tili” asari maydonga keladi. Adib tanqidchi sifatida o‘sha davrda mashhur bo‘lgan ba’zi yozuvchilarning soxta iste’dodlarini tanqid ostiga ola turib: “qaysi bir bola shu narsani tushunishi mumkin, bu yerda zarracha ham qalb, ruhiyat ifodasi ko‘zga tashlanmaydi, faqatgina vintchalar, prujinkachalar, g‘ildirakchalar...” deb yozadi Charskaya haqida. Muallifning 1911-yilda “Onalarga bolalar jurnallari haqida” deb nomlangan kitobi nashrdan chiqadi. Unda “Zadushevnaya slovo” jurnalini qattiq tanqid ostiga olib, uni bolalarning yosh xususiyatlarini bilmasdan turib, kichik kitobxonlarga muhrlangan dahshatlarni, o‘zini yo‘qotishlarni, behushliklarni, vasvasa, yomonliklar bilan bog‘liq bo‘lgan “qahramonlik”larni targ‘ib qilishni fosh etadi. Tanqidchi “Zadushevnaya slovo” jurnaliga “Yunaya (Navqiron)Rossiya”, “Rodnik” (“Chashma”), “Semya i shkola” (“Oila va maktab”), “Yuniy chitatel” (“Yosh kitobxon”) jurnallarini qarama-qarshi qo‘yib, “Bu yerda bola bilan ohista va tetik so‘zlasha turib, uni sevishadi va hurmat qilishadi, aldashmaydi va uning oldida tovlanishmaydi, deb yozadi, ammo ular ham bolani bilishmaydi hamda tushunishmaydi”.

Chukovskiyning ta’kidlashicha bola o‘zining dunyosini, o‘zining mantiqini, o‘zining astronomiyasini yaratadi, agar kim u bilan muloqotga kirmoqchi bo‘lsa, uning olamiga kirishi hamda u yerda yashashi lozim. Bolalar – o‘ziga xos devonalar, chunki aniq va mustahkam voqea-hodisalar ular uchun sho‘x quvnoq va o‘tuvchan. Yo‘q, bolalar jurnalining vazifasi umuman bunda emas, ya’ni bolalarni bolalar aqlsizligidan davolashda emas, ular o‘z vaqtida bizning yordamimizsiz ham o‘zlarini davolab oladi, gap shundaki, bu aqlsizlikning ichiga kirib olishda. Bu antiqa, hayratlanarli, go‘zal, umuman boshqa dunyoga kirib yashashda hamda bolalar bilan ularning tilida, o‘sha boshqa olam tilida

so‘zlashishda, ularning qiyofalarini o‘zida qabul qilishda hamda o‘ziga xos mantiqini tushunishda (chunki bu olamning mantiqi o‘zgacha)”.

Ko‘pincha bolalar poeziyasiga she‘rni tushunmaydiganlar, yoki bolalarni tushunmaydiganlar, ba’zida esa unisini ham, bunisini ham-na she‘rni, na bolalarni tushunmaydiganlar kirib kelishadi. Menga bu narsa jinoyatdek tuyuladi. Kattalar yozuvchisi iste’dodsiz bo‘lsa, bo‘lishi mumkin, ammo lekin bolalar yozuvchisi iste’dodli, mahoratli bo‘lishi shart. Chukovskiy bolani imkon qadar tezroq katta qilishga va uni tezroq jiddiylashtirishga harakat qilgan mualliflardan nafratlanardi. Shuning uchun ham jahon bolalar adabiyotida haliga qadar birorta quvnoq bolalar kitobi yo‘q. Bola bilan bolalarcha kulish naqadar muhimligini u qayta-qayta ta’kidlaydi. Chukovskiy bolalarni faqatgina bema’ni narsalar bilan tarbiyalash kerak degan fikrdan yiroq bo‘lib, “shu bema’ni narsalar olib tashlangan bolalar adabiyoti, 3 va 4 yoshli bolalarning sermahsul instinklari talablariga javob bera olmaydi va ular foydaliroq bo‘lgan aqliy ozuqadan mahrum qiladi”, – degan fikrni ilgari suradi. Bolalarga bolalar kitoblari orqali ularning yosh xususiyatlariga to‘g‘ri kelmaydigan yoki ularga tushunarsiz bo‘lgan narsalarni singdirish – bu ularning kitobxonlikka bo‘lgan xoxish-istaklarini umuman yo‘q qilib yuboradi. Bu tanqidchining fikricha, emizikli bolani ona suti o‘rnida majburlab bifshteks bilan boqishga o‘xshaydi. Chukovskiy har qanday bola ulkan ijodiy imkoniyatlarga, hatto daholikka ega bo‘lishi mumkin.

Bola ona tili daryosida buyuk zahmatkash kabidir. Chunki u grammatik shakllar tartibotida hech narsa bo‘lmagandek mo‘ljol oladi, lug‘atni zehn bilan o‘zlashtiradi, mustaqil o‘qishni o‘rganadi, degan fikrni isbotlab beradi. Kattalarga esa ayniqsa bolalar yozuvchilari va pedagoglariga bolaga ergashish emas, balki bola bo‘lish kerakligini uqtiradi.

Adibning “Ikkidan beshgacha” kitobining “Bolalar nashrlariga nasihatlar” bobi ana shunday mulohazalarga boy. Aslida bu kitobni Chukovskiy oltmish yildan ortiq vaqt mobaynida yozgan. Uning yaratilishi bolalar nutqi haqidagi suhbatdan boshlanib, vaqt o‘tgan sayin kitob bolaning o‘zi haqidagi, uning ruhiyati, atrof olamni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar, uning ijodiy qobiliyatlari haqidagi fundamental asarga aylandi.

Kitobning “Bolalar shoirlariga o‘gitlar” bobi shunisi bilan diqqatga sazovorki, unda Chukovskiyning bolalar adabiyoti borasidagi shaxsiy tajribasi, uning hamkasblari Marshak, Mixalkov, Barto, Xarms, Vvedenskiy kabi boshqa ko‘plab shoirlarning umumlashma qarashlarini o‘zida mujassamlantirgan. Bundan K. Chukovskiy shunday xulosaga keladi: xalq poeziyasi va bolalarning so‘z ijodkorligi bitta qonuniyat asosida yaratiladi. Bolalar yozuvchisi xalqdan o‘rganishi kerak, chunki xalq ko‘p asrlar mobaynida ideal badiiy uslublarni hamda bolaga to‘g‘ri pedagogik yondashish mahoratini o‘z qo‘shiq va ertaklarida mukammal ishlab chiqqan. Bolalar shoirlarining ikkinchi o‘qituvchisi – bolaning o‘zi. Ular o‘z she‘rlari bilan bolaga murojaat qilishdan avval ularning didini va ehtiyojlarini o‘rganib chiqish, unga to‘g‘ri psixologik ta’sir ko‘rsatish malakasini egallashi zarur.

Chukovski shoir asari matnining har bir bandida rassom uchun material bo'lishga katta ahamiyat bergan. Tasviriy obraz hamda ohang birikib bir butunni tashkil qilishi, har ikki misradan bitta rasm paydo bo'lishi kerak. Bunday sifatga ega bo'lgan she'rlarni Chukovski "grafikali" she'r deb ta'rif bergan bolalar shoirlariga birinchi o'git sifatida uqtirgan.

Ikkinchi o'git esa obrazlarning zudlik bilan almashinishi. Bolalarning ko'rish qobiliyati narsalarning sifatini emas, balki ularning harakatini qabul qiladi, shuning uchun she'r serharakat hamda turli-tuman personajlarga boy bo'lishi kerak.

Uchinchi o'git: bu so'z tasvirining lirikligiga daxldor. Qo'shiq va raqs ham she'r uchun zarurdir. Bolalar o'zlarini shirin ohanglar bilan ovutishadi, she'rlar bilan xuddi musiqadek sarmast bo'lishadi.

Beshinchi o'git: poetik nutqning yuqori darajada musiqiyliigi.

Oltinchi o'gitga ko'ra bolalar uchun yozilgan she'rlarning qofiyasi bir-biri bilan juda yaqin masofada qo'yilishi kerak.

Yettinchi o'gitda qofiyadosh so'zlar she'rning asosiy ma'nosini anglatuvchi bo'lishi shart. Chunki aynan shu so'zlar bolaning diqqat e'tiborini o'ziga jiddiy jalb etadi. "Bolalar she'rlarining har bir satri o'zining shaxsiy hayoti bilan yashashi kerak", – deb ta'kidlanadi sakkizinchi o'gitda. Chukovskiyning o'gitlari qotib qolgan dogmalar emas, bu haqda muallifning o'zi ham eslatib o'tadi. Tabiiyki, bolalar yozuvchilari uchun eng asosiy o'git-baxtiyorlik, shodlik holati.

Chukovskiyning ertaklari va she'rlari butun bir komik eposni tashkil etib, ko'pincha "krokodiliada" (muallifning sevimli qahramonlarining nomi bilan) deb ataladi. Bu asarlar doimiy qahramonlari, bir-birini to'ldiruvchi sujetlari, umumiy geografiyasi bilan bir-biriga hamohangdir.

Chukovski ertaklar olamining yaratilishi 1915-yildan "Krokodil" poemasiining ilk bandleri yozilishi bilan boshlanadi. U 1917-yilda juda ko'p rasmlar bilan birga "Niva" bolalar jurnalida "Vanya va Timsuh" nomi bilan chop etilgan. Bu yangi nashr bolalar poeziyasida katta shov-shuvga sabab bo'lgan edi. Y. Tityanov bu haqda keyinroq shunday deb yozgan edi: "Shiddatli she'rlar, o'lchamlarning tez almashinishi, jo'shqin qo'shiq, qofiya, yangi ohanglar-quyidagilarni o'z ichiga olgan, xuddi adabiyotda yangilik yaratilganda sodir bo'ladigan shov-shuv ko'tarishib, qiziqish uyg'otib, hayratda qoldirib Korney Chukovskiyning "Krokodil"i paydo bo'lgan edi. Nimjon oyoqlarida zo'rg'a qaltirab turgan gullarning harakatsiz fantastikasi birdan shovqin-suronli ajoyib hayvonlar bilan almashinishi hamda qahramonlar va muallifning hayratini qo'zg'atuvchi jonli, real sarguzashtlarning paydo bo'lishi barchaga birdek taassurot qoldirgan edi. Yo'llarni, ulardagi harakatlarni, har xil xarakterlarni, sarguzashtlarni tasvirlash uchun kitoblar ochildi. Bolalar adabiyoti poeziyasi kino san'atiga, kinokomediya yaqin bo'lib qoldi" ("Korney Chukovski" ocherkidan).

"Krokodil"dagi boshqa ertaklarda odatiy holga aylangan yaxshilik va yomonlik keskin ajratilmaydi. Shuningdek, yoqimtoy qahramonlarning

xususiyatlariga haqqoniy baho berishni muallif kichik qahramonlarning o'ziga havola qiladi.

Chukovskiyy dastlab A.M.Gorkiyy hikoya qilib bergan sujet asosida bugungi kunda o'z axamiyatini yo'qotmagan badiiy baquvvat "Timsoh" ertagini yozdi. 1918-yilda esa "Archa" nomli to'plami bosilib chiqdi. O'sha yili "Jahon adabiyoti" nashriyotiga ishga kirdi. 1919-yilda N.A.Nekrasov asarlarining to'la to'plamini nashr ettirdi. Shu yillarda uning mashhur "Moydodir", "Suvarakxon" ertaklari, "Kichik bolalar" kitobi bosilib chiqdi.

"Pashsha-xarxasha", "Barmaley", "Telefon", "Fyodor o'tkazgan alam", "O'g'irlangan quyosh", "Doktor Voyjonim" asarlari Korney Chukovskiyyning nomini olamga yoydi, kitobxonlar hurmatini qozondi.

Korney Chukovskiyyning ertak-poemalarida ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi, baxt, yorqin hayot sari keskin kurash bo'rtib turadi. Masalan, shoirning "Мойдодыр" asarida bolalarning odobli, ozoda, har doim to'g'ri so'z bo'lishi va tozalikka rioya qilish mavzusi ilgari surilgan.

Asar qahramoni qator fazilatlariga loyiq. Lekin bir aybi bor. Faqat kir-chir yuradi. Shuning uchun bir kuni unga xizmat qiluvchi barcha narsalar ish tashlaydi, undan yuz o'girib qochib ketishadi. Bola voqeaga tushunmay, xafa bo'lib turganida joniga yuz-qo'l yuvgich oro kiradi.

Shoirning "Pashsha-xarxasha", "Telefon", "O'g'irlangan quyosh", "Filisa kitob o'qir", "Kirpilar kuladi" singari asarlari ham bolalar uchun maroqlidir. "Doktor Voyjonim" asari bir umr bolalarga shodlik-quvonch bag'ishlab kelmoqda. Voyjonimning oqko'ngilligi, mehribonligi, jonkuyarligi, hayvonlar bilan inoq, do'stligi ibratomuz chizib berilgan.

Chukovskiyyning she'rlari ertaklariga nisbatan kamroq. Uning har bir she'ri go'yoki bir zumda mustaqil sujetga aylanib, butun bir ertak tusini oladiganga o'xshab ketaveradi. Masalan, "Ajoyib daraxt"ni Chukovskiyy ertak deb hisoblagan, unga o'xshash "Quvonch"ni esa she'r deb. Muallif o'z she'rlarida xalq bolalar poeziyasiga hamohang bo'lgan qo'shiq, raqs, o'yinlarni ishlatgan. Uning poeziyasining asosiy mavzusi beg'ubor sho'xlik, bolalarga baxt-saodatdir.

Chukovskiyy she'rlarining lirik qahramoni qoidaga ko'ra, shoirning o'zi, u katta odam, ammo u bir vaqtning o'zida bola bilan birga bo'la oladi, uning xursandchiligiga sherik bo'lib, u bilan birga ko'ra oladi, eshita oladi, orzu qila oladi, hatto bolalarcha soddalik bilan chalkashib, adashib ketadi. Kattalarning "men"i va bolalarcha "sen" orasida hech qanday chegara yo'q, bola o'zini shoir ruhiy dunyosida shunchalar erkin his etadiki, xuddi otasi bag'rida o'tirgandek.

Chukovskiyy o'zining she'rlarida rus va ingliz xalq bolalar poeziyasining an'analarini mujassamlashtirishga harakat qiladi. Masalan, "Buterbrod", "Tipratikan", "Objara" ("Yeb to'yamas"), "Ona fil o'qimoqda", "Cho'chqalar" v.b.

Tarjimalar va ishlanmalar Chukovskiyyning ijodida alohida yo'nalishni tashkil etadi. Uning tomonidan valliyy xalq ertagi "Ulkan odamlarni zabt etuvchi Djek" (1918), E.Raspening "Baron Myunxauzenning sarguzashtlari" (1935), D.Defoning "Robinzon Kruzo" asarini (1935) rus tiliga o'girib, qayta ishlagan. Uning tarjima asarlarida yosh kitobxonlar qadimgi yunon mifologiyasi bilan

tanishishadi. “Jasur Persey” (1940) eng mashhur qayta ishlangan asar, o‘zining so‘z ifodalari, voqea-hodisalarning aniq bayoni, esda qolarli tasvirlari bilan mashhur hamda hikoyadagi barcha narsalar bolaning qabul qilish qobiliyatiga bo‘ysundirilgan. Yozuvchi nasrda ijod qilar ekan, bola talaffuzi uchun har bir so‘z oson, yengil bo‘lishiga ahamiyat bergan, katta, qiyin so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib bergan. Masalan, “ка-раб-ле-кру-ше-ние” (ke-ma-ning ha-lo-ka-ti), yoki, il-lyu-mi-nat-siya kabi. Shu tariqa u kichik kitobxonlarni hayvonlar tiliga “o‘rgatadi”.

Chukovskiyning bolalar nasridagi ijodi deyarli to‘la-to‘kis sarguzasht adabiyotga mansub. Yozuvchi xatarli sarguzasht sujetlarini uzoq ekzotik mamlakatlarga o‘tkazib yuboradi. Afrikaga, Janubiy Amerikaga, “yovvoyi” orollarga uning uchun har qanday sarguzashtning ma‘nosi yuksak maqsadga qaratilgan, mard-jasur qahramonlar yaxshilik uchun hech narsadan tap tortmay, o‘zlarini xavf-xatarga qo‘yib kurashga otlanadilar. Chukovskiy “Bobil minorasi” kitobining ruscha nashriga muharrirlik qilgan. “Bobil minorasi” – Injildagi afsonaning qayta ishlangan ko‘rinishi. Bu afsonalar ertaklarga yaqinlashtirilgan hamda hikoyada qadimgi umuminsoniy donishmandlik qayd etilib, unda diniy-mistik ruh olib tashlangan.

K.Chukovskiy o‘zining hamda boshqalarning ish tajribalari asosida badiiy tarjimaning nazariyasini yaratadi. Adibning “Yuqori san‘at” kitobi 1919-1964-yillar mobaynida yaratilgan.

**Samuil Yakovlevich Marshak** (1887-1964) o‘zidan keyin juda katta hamda serqirra ijodiy meros qoldirgan. Uning bolalar va kattalar uchun she‘rlar, o‘qish hamda namoyish qilish uchun ertaklar, satirik epigrammalar, tarjimalar, tanqidiy va memuar nasriy asarlari shu ma‘noda e‘tirofli. Zero, uning hayotidagi asosiy ishi bolalar adabiyoti bo‘lganligini ta‘kidlab o‘tish joiz. U avvalo, rus bolalar adabiyotida kichkintoylar uchun katta she‘riyat yaratib bergan mohir san‘atkor, taniqli tarjimon, yetuk dramaturg, mohir pedagog va bilimdon muharrirdir.

1927-1937-yillarda bolalar yozuvchilarini o‘ziga jalb etadigan markazlar – bu bolalar folklorining tadqiqotchisi O.I.Kapitsa tomonidan tashkil etilgan to‘garak, Detizdatning (“Bolalar nashriyoti”) Leningraddagi nashriyoti “Yangi Robinzon”, “ЧиЖь” va “ЕЖь” (Tipratikan) bolalar jurnallarining nashriyoti edi. Bunda asta-sekin hamfikrlar doirasi paydo bo‘la boshladi. Bolalar uchun yozilgan asarlar mualliflari, chunonchi, B.A.Lebedev, E.L.Shvars, T.G.Gobbe, A.I.Lyubarskaya, L.K.Chukovskaya kabilarni adabiyotshunos I.A.Raxtanov “Marshak akademiyasi” deb atagan edi. “Akademiya”da muharrirlik san‘ati sayqal topayotgan, yosh mualliflar bilan ishlash usullari ishlab chiqilayotgan edi. Binobarin, kelajakda bolalar adabiyotining mumtoz vakillariga aylangan yozuvchi, shoirlar shular davrasidan chiqqan edi. Masalan, L.Pantelev, D.Xarms, A.I.Vvedenskiy, N.A.Zabolotskiy va boshqalar .

Samuil Yakovlevich Marshak 20-yillarda o‘zining she‘r, ertak va poemalari bilan yosh kitobxonlarning sevimli shoiri sifatida tanildi. “Qayerda ovqatlaning, ey chumchuq”, “Ahmoq sichqoncha haqida ertak”, “Kecha va bugun”, “Sirk” va boshqa shu kabi mashhur asarlari o‘sha yillarda maydonga kelgan edi.

S.Y.Marshak rus bolalar adabiyotini rivojlantirish uchun A.M.Gorkiy

hamda V.V.Mayakovskiyalar bilan yelkama-yelka turib mehnat qildi. 1939-yilda Marshakning “Petya nimadan qo‘rqar edi?”, “Korablcha” singari mashhur she‘rlari bosilib chiqdi. Vatan urushi davrida shoir ijodining asosiy temasini urush, bosqinchilarga qarshi kurash mavzui tashkil etdi. Ayniqsa, 1943-yilda yaratilgan “O‘n ikki oy” nomli ertak-dramasi tez orada millionlab yosh kitobxonlar orasida mashhur bo‘lib ketdi.

S.Y.Marshakning nomini olamga yoygan, bolalar shoiri sifatida tanitgan she‘rlaridan biri “Ahmoq sichqoncha haqida ertak”dir. Bu ertakda shoir bolalar xayoti va xarakteriga mos bo‘lgan qiziqarli sujet topa olgan. Kimki o‘ziga ortiqcha oro bersa, oqibatini o‘ylamay ko‘r-ko‘rona ish tutsa, o‘zidan kattalarning pand-nasihatiga amal qilmasa, hayotda ko‘p narsa yutqazadi, o‘z baxtini qo‘ldan boy beradi, degan fikr ertakning asosiy g‘oyaviy mazmunini tashkil etadi.

S.Y.Marshak “Ahmoq sichqoncha haqida ertak” asarida majoziy obrazlar orqali bolalar hayotiga oid muhim masalalarni ilgari suradi. Shoir noshukur, farosatsiz, mehnatsiz kun kechiruvchilarni ahmoq sichqoncha obrazi misolida fosh qiladi. S.Y.Marshak “Yong‘in”, “Pochta”, “Musobaqalar doskasi” asarlari bilan ham rus bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi.

Shoir o‘zining “Stol kelgan qayerdan?” degan she‘rida maktab mebellari o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaganligini, buning uchun kattalarning qanchadan-qancha vaqtlari, mehnatlari sarf etilganligini tushuntirib bersa, “Bir yil nima” asarida esa juda qimmatli vaqtini behuda o‘tkazib, maktabda yaxshi o‘qimay, o‘qituvchi-ustozlarning pand-nasihatlariga amal qilmay, o‘z vaqtida darslarini tayyorlamay, natijada sinfdan-sinfga o‘ta olmay xijolat bo‘lib yuradigan qoloqlarga qarata:

Dalalarda saranjom ish,  
Zavodda ham plan qoyil,  
Maktabda yo‘q,  
Qoloqlar hech.  
Bil, bir sinfda o‘qish –  
Bir yil!

Marshak uchun bolalar adabiyotida mayda-chuyda yo‘q edi. O‘quvchining yoshi qancha kichik bo‘lsa, u bus-butunligicha qabul qilayotgan kitobga bo‘lgan talabi ham shuncha jiddiy, ya‘ni uning mazmuniga, tiliga, bezaklariga, shirifti va formatiga, nomerning sifatiga... Marshak ishlanmagan yoki qolip so‘z va fikrlarni, shuningdek o‘chirilgan so‘zlarni umuman hazm qila olmasdi. Uning shiori: “Kichiklar uchun katta adabiyot” deb jaranglardi.

Dramaturgiya Marshak uchun bolalar adabiyotiga kirib kelishida ilk pog‘onani o‘tagan. 1920-yillarning boshlarida u Krasnodarsk bolalar teatri uchun bir qator ertak-pyesalar yozdi. Ular orasida “Mushuk uyi”, “Echki haqida ertak”, “Petrushka”, “Qayg‘u-yomon baxt” kabilar keng tarqalgan. Keyinchalik Marshak bu ertaklarni qayta ishlab chiqqan. Birinchi pyesalari folklordan unib chiqqan bo‘lib, sho‘x, harakatli o‘yinlarni eslatadi. Ularning voqeligi atayin sodda, ammo nozik did va yumor bilan yo‘g‘rilgan. Obrazlari ham oddiy, ayni paytda juda moslashuvchan, muloyim. Personajlarning monologlari hamda replikalarida juda

ko‘p so‘z ishlatilmaydi, ammo ular juda ifodali. Pyesalarning o‘ziga xosligi – epizodlarning takrorlashishida, harakat ketma-ketligining uzluksizligida va voqea-hodisalarning ajoyib tarzda rivojlanishidadir.

Marshak o‘z ijodini bir aktli kichik pyesalardan boshlab, asta-sekin ko‘p aktli dramatik asarlarga, shu bilan bir qatorda o‘zining tomirlari bilan xalq folkloridan kelib chiqqan yetuk asarlar sari boradi. “O‘n ikki oy”, “G‘am-qayg‘udan qo‘rqqan baxtga erisha olmaydi”, “Aqlli narsalar” kabi asarlari shular jumlasidandir. Uning pyesalari musiqa va ohangga, raqslarga, so‘z o‘yinlari bilan to‘la bo‘lgan xalq teatriga monand. “Mushuk uyi” – ertak-pyesasini kattalar dramaturgiyasidan olingan kundalik turmush dramasi desa bo‘ladi.

**MAVZUGA DOIR TAYANCH TUSHUNCHALAR:** *seminariya, qirollik, kosmik sivilizatsiya, novella, sarchashma, arxaik, antik, slavyan, vizantiya, grek, monolog, dialog, alifbo-kitob, alifbo-yozuv, sentimentalizm, lubochnaya, lubka, gravyura, taxtakach, masal, grammatika, miniatura, ertakona sujet, mozaika, badiiy sayqal, ertakshunos, germanistika, naturmort, illyustratsiya, mifologiya.*

***Bilim, ko‘nikma va malakani rivojlantirishga yo‘naltiruvchi savollar:***

5. Italiya adabiyoti Uyg‘onish davri vakillari kimlar?
6. Italiya xalq ertaklarining dastlabki to‘plovchisi?
7. “Pantameron” qanday asar?
8. Kollodi italyan bolalar adabiyotining haqiqiy asoschisi deyilishiga sabab?
9. “Pinokkioning sarguzashtlari yoxud bir qo‘g‘irchoq tarixi” asarining yaratilish va ommalashish tarixi?
10. Janni Rodarining mashhur nomi?
11. “Chippolino” va uning muallifi haqida nimalarni bilasiz?
12. “Yangi yil archalari”, “Osmondagi tort”, “Jip televizorda”, “Jelsomino yolg‘onchilar mamlakatida” nomli novellalarda qanday mavzu-g‘oya ilgari surilgan?
13. “Fantaziya grammatikasi” qanday asar?
14. K.Chukovskiyning ijod yo‘li?
15. S. Marshakning ijod yo‘li.
16. “Doktor Voyjonim” qissasida timsollar?
17. Varvara timsoliga ta’rif bering.
18. Qissada qaysi hayvonlar haqida so‘z boradi?
19. “Ahmoq sichqoncha” asari mavzusi.
20. “Ahmoq sichqoncha” asarida timsollar?
21. “Stol kelgan qayerdan?” asari haqida gapiring.
22. She’rning tarbiyaviy ahamiyati nimada?
23. Qadimgi nemis poeziyasi qaysi manbalarda tilga olingan?
24. Nemis bolalar adabiyotining folklorga munosabati?
25. V.Y.Grimmlarning adabiy-ilmii ijodi va tadqiqotchilik faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
26. Grimmlarning ertaklar to‘plami va folklorshunoslikka oid asarlarini sanang.
27. Ikki buyuk olim, tilshunos va adabiyotshunos, ertakchilarning nemis bolalar adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissasi?
28. “Gulliverning sayohati” asarining yozilish tarixi va muallifi haqida ma’lumot bering.
29. Asarning janriy xususiyatlari va g‘oyaviy mundarijasini oydinlashtiring.



30. Lemuel Gulliverning mittivoylar o'lkasiga sayohati va uning badiiy talqinida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
31. Sayyohning darozlar o'lkasidagi hayoti ifodasida-chi?

**MAVZUGA DOIR TEST SAVOLLARI:**

**1. Aka-uka Grimmlarning faoliyatlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.**

- a) ertaklar to'plash bilan mashg'ul bo'ldilar;
- b) "Xildebran haqida qo'shiq" asarini o'rganishgan;
- d) qadimgi nemis she'riyati to'plamlarini chop etishdi;
- e) hamma javoblar to'g'ri.

**2. "Ularni xalq qalbining tubi, zamonlarning eng qadimi qiziqtirayotgan edi. Va ular folklarga murojaat qilishdi". Bu e'tirof kimga nisbatan aytilgan?**

- a) aka-uka Grimmlarga;
- b) Sharl Perroga;
- d) X.Andersenga ;
- e) J.Rodariga.

**3. "Bolalar va oilaviy ertaklar" to'plamining muallifini aniqlang.**

- a) J.Rodari;
- b) Sharl Perro;
- d) X.Andersen;
- e) aka-uka Grimmlar.

**4. Aka-uka Grimmlar chop etgan asarlarni aniqlang.**

- a) "Nemis grammatikasi", "Nemis mifologiyasi"
- b) "Ramayana"
- d) "Mahabxorat"
- e) "Illiada" va "Odisseya"

**5. Grimmlar tomonidan yaratilgan ertaklarning 1-jildi qachon va qaysi nom bilan nashr etilgan?**

- a) 1812 yilda, "Bolalar va oilaviy ertaklar";
- b) 1815 yilda, "Tilla g'oz"
- d) 1822 yilda, "Uch aka-uka";
- e) 1850, "Quyvon bilan tipratikan".

**6. "Men odam qadam bosmagan, huvillagan bir orolda sargardon bo'lib qoldim, qutulish uchun hech umidim yo'q". Bu parcha qaysi asar qahramoni kundaligidan olingan?**

- a) "Gulliverning sayohati", Gulliver;
- b) "Robinzon Kruzo", Robinzon Kruzo;
- d) "Pinokkioning boshidan kechirganlari", Pinokkio;
- e) "Harri Poter", Harri Poter.

**7. Tulki o'tloqda yurgan g'ozlarni yemoqchi bo'ladi. Ular o'limlari oldidan bitta qo'shiq aytib, so'ngra tulkiga yem bo'lishlarini so'raydi. Ammo uzundan-uzoq "g'ag'a" lari tulkini zeriktiradi... Bu ertak nomi va muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.**

- a) "Tilla g'oz", aka-uka Grimmlar;
- b) X.K.Andersen, "Yangi ertaklar"
- d) "Tulki va g'ozlar", aka-uka Grimmlar,
- e) "Tilla g'oz", Sharl Perro.

**8. "Kitoblar jangi" nomli mashhur hajviy pamfletn kimning qalamiga mansub?**

- a) Jonatan Svivt;
- b) Daniel Defo;
- d) K.Chukovskiy

e) Sharl Perro

**9. Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin Molli Oliy Gu Oliy hazratlari... Bu qaysi mamlakat imperatori?**

a) Liliputiyaning qudratli imperatori;

b) Angliya hukumati rahbarlari;

d) Laputu mamalakatining rahbari;

e) Nilotlar o'lkasi rahbari.

**10. "Gulliverning sayohatlari" da asar qahramoni qaysi o'lkalarga sayohat qiladi?**

a) Liliputiya, Laputiga, darozlar olkasiga;

b) "Lo'ttibozlar akademiyasi" ga, Angliyaga

d) Oyga, Amerikaga,

e) kimsasiz orolga.

**11. "Qizil shapkacha", "Jimjimaloq bola", "Zolushka", "Etikli Mushukcha", "Uyqudagi malika", "Ko'k Soqol" kabi ertaklar muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.**

a) Sharl Perro;

b) X.Andersen;

d) Grimmlar;

e) J.Rodari

**12. A.S.Pushkin bolaligida ertaklarni kimlardan eshitganligini ko'p ta'kidlaydi?**

a) o'z enagasi Arina Rodionovna Matveevadan;

b) buvisi Mariya Alekseevna Gannibaldan;

d) uy xizmatchisi Nikita Kazlovdan hamda Moskva yaqinidagi Zaxarova qishlog'ining dehqonlaridan ;

e) javoblarning barchasi to'g'ri.

**13. U Ukrainada, janubda, Nijegorod shahridagi Boldinoda, Janubiy Ural va Orenburg tomonlarda bo'lib ertaklar, maqollar, matallar, qo'shiqlar eshitgan va yozib olgan. Bu fikr kimga nisbatan aytilgan?**

a) Marshakka;

b) Pushkinga;

d) L.Tolstoyga;

e) A.Tolstoyga.

**14. U .... dostonini yozishni o'n yetti yoshida boshlab, yigirma yoshida tugatadi. Tushirib qoldirilgan asar nomi va uning muallifi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.**

a) "Shoh Saltan va knyaz Gvidon", Pushkin;

b) "Ruslan va Lyudmila", Pushkin;

d) "Baliqchi va uning xotini", Grimmlar;

e) "Oygul bilan Baxtiyor", H.Olimjon.

**15. "2 yoshdan 5 yoshgacha" bo'lgan bolalar psixologiyasining tadqiqotchisi qaysi javobda to'g'ri?**

a) L.Tolstoy;

b) A.S.Pushkin;

d) K.Chukovskiy;

e) S.Marshak.

**16. "Men bolalarni o'rganishga ahd qildim... Bir vaqtlar xalqqa qaytganlaridek men ham "bolalikka qaytishga" qaror qilib, kattalar jamiyati bilan munosabatimni deyarli uzdim va uch yoshli bolalar bilangina muloqotga kirishdim",- deb yozgan edi ....o'zining kundaliklarida. Tushirib qoldirilgan muallif nomini aniqlang.**

a) L.Tolstoy;

- b) A.S.Pushkin;
- d) K.Chukovskiy;
- e) S.Marshak.

**17. K.Chukovskiy asarlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) “Shoh Saltan va knyaz Gvidon”
- b) “Ruslan va Lyudmila”
- d) “Baliqchi va uning xotini”
- e) “Moydodir”, “Pashsha-xarxasha”, “Doktor Voyjonim”

**18. “Ahmoq sichqoncha haqida ertak” qaysi ijodkor qalamiga mansub?**

- a) L.Tolstoy
- b) A.S.Pushkin
- d) K.Chukovskiy
- e) S.Marshak

**19. K.Chukovskiyning “Muxa –sokotuxa” asarining o‘zbekcha tarjimai qanday nomlanadi?**

- a) “Jonsarak pashsha”
- b) “Pashsha-xarxasha”
- d) “Pashsha-oypashsha”
- e) Barchasi to‘g‘ri.

***Tavsiya etilgan adabiyotlar:***

1. Арзамасцева И.Н., Николаева С.А. Детская литература. М.:Академия, 2000.
2. Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. T.:Fan, 1964.
3. Будур Н.В., Иванова Э.И., Николаева С.А., Чеснокова Т.А. Зарубежная детская литература. –Москва, “Академия”, 1998.
4. Barakayev R. Abdulla Avloniy va bolalar adabiyoti. T.: Fan, 2004
5. Barnoyev S. Dadam haqida qo‘shiq. T.: Yulduzcha, 1989.
6. Barnoyev S. Kichkina Xo‘ja Nasriddin. T.: Yozuvchi, 1998.
7. Белинский В.Г., Чернишевский Н.Г., Добролюбов Н.А. О детской литературе. – М., Дет.лит. 1983
8. Janni Rodari. Rim ertaklari. –T.:Raduga, 1989.
9. Чуковский К. От двух до пяти. Т.1,2. М.: Правда, 1990
10. Барицня – герцогиня. Сказки зарубежных писателей. –Т.:Yosh gvardiya, 1988.
11. Swift J. Gulliverning sayohatlari. T., :Sharq, 2006.
12. Зарубежная литература для детей и юношества. – М., 1989.
- 13.Брандис Е. От Эзопа до Джанни Родари. – М.,1980
14. Детская литературе Австрии, Германии, Швейцарии. Учебная хрестоматия. – М.,1997

**Glossariy**

**Avtobiografik asar** – (yun. Autos-o‘zimiz, bios–hayot, grafo–yozaman)– muallifning o‘z hayoti haqida izchil hikoya qilishiga asoslangan adabiy janr. Avtobiografik asar muallifi o‘z hayotini qaytadan yashab ko‘radi, uni bir butun sifatida idrok etishga intiladi. A.a.aksar hollarda mualliflarning ijodiy yetuklik pallalarida, umrlari nihoyasida yoziladi. (mas. Oybekning “Bolalik” qissasi.) U memuar, kundalik va sayohatnomalarga o‘xshab ketsa-da, ulardan tubdan farq

qiladi. Shuningdek, A. a. avtobiografik xarakterdagi asarlar hamda turli munosabatlar bilan yoziladigan tarjimayi hollardan tafovutlanadi.

**Adabiyot** – (ar. adab–go‘zal xulq) – keng ma‘noda, inson tafakkurining mahsuli o‘laroq dunyoga kelgan, o‘qish uchun mo‘ljallab yozilgan asarlar jami. Tor ma‘noda – so‘z san‘ati, badiiy adabiyot.

**Adabiyotshunoslik** – (ar. –adab, fors. tanish, o‘rganish)– badiiy adabiyotning kelib chiqishi, mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy aloqalarni o‘rganuvchi fan. A.ning obykti bo‘lmish badiiy adabiyotga taalluqli ilmiy muammolar ko‘lami-predmeti juda keng. Zamonaviy A. fani uchta asosiy sohadan tashkil topadi: *adabiyot tarixi*, *adabiyot nazariyasi* va *adabiy tanqid*. Uning matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya singari yordamchi sohalari ham mavjud.

**Allegoriya** – (yun. allos-o‘zgacha, agoreuo-gapiraman)– 1) mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko‘chim turi. Mas. tulki–ayyorlikni ifodalaydi.

**Alliteratsiya** – (lot.al- yonida, litera–harf) – she‘riy nutqda (nasrda nisbatan kam) bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi. Mas. sochilgan sochingdek sochilsa siring (Cho‘lpon).

**Annotatsiya** – (lot. annotatio- izoh, sharh) – asar mazmunining qisqacha bayoni. Noshirlik amaliyotida kitoblarning ichki muqovasida, ilmiy maqolalarning sarlavhasidan keyin beriladi. A. asarning o‘ziga xos pasporti bo‘lib, u bilan umumiy tarzda tarzda tanishtiradi.

Antologiya– (yun. guldasta)– biror milliy adabiyot, davr, adabiy yo‘nalishga mansubligi jihatidan tanlangan ijodkorlar asarlaridan namunalarni jamlovchi to‘plam.

**Aforizm** – (yun. ta‘rif, ixcham ifoda) – muallifi ma‘lum bo‘lgan, ixcham shaklda va ta‘sirli ifoda etilgan umumlashma fikr.

**Badiiy tahlil** – (ar. tekshirish, hal qilish) – adabiy asarning mazmun mohiyatini idrok etish, uning yaxlit estetik hodisa sifatidagi mavjudliginiturli aspektlarda o‘rganib, o‘ziga xosligini ochib berish va qimmatini belgilashga qaratilgan hissiy-intelektual faoliyat.

**Badiiy to‘qima** – (ruscha kalka-xud.vim.)– yozuvchining ijodiy tasavvur va taxayyuli mahsuli, voqelikda real asosi yoki to‘liq o‘xshashi mavjud bo‘lmagan badiiy obrazlar, hayotiy holatlar, voqealar yaratishda namoyon bo‘luvchi bad. Ijodning muhim komponenti.

**Band** – she‘rning ritmik ritmik – intonatsion va mazmuniy jihatdan nisbiy mustaqillikka ega bo‘lagi.

**Gimn** – (yun. madhiya) –qadimgi yunon adabiyotida ilohlarni ulug‘lash, maqtash uchun kuylangan qo‘shiq. Mas. yunonlar Appoloni madh etgan. Keyinchalik tarixiy voqealar, qahramonlar madhetiluvchi tantanovar qo‘shiqlar ham gimn deb yuritilgan.

Mazmunan dasturiy xarakterdagi she'r asosidagi tantanovar qo'shiq, muayyan ijtimoiy harakat, uyushma, davlat va shu kabilarning atributlaridan biri, madhiyasi.

**Detektiv adabiyot**– (yun. izquvar) –sarguzasht adabiyotining bir tarmog'I, sujeti asosida sirli jinoyatlarni ochish bilan bog'liq voqealar yotuvchi asarlarning umumiy nomi.

**Didaktik adabiyot** – (yun. o'rgatuvchi, ta'limiy) – muayyan ta'limiy, tarbiyaviy maqsadlarda yaratilgan adabiy asarlarning umumiy nomi. Mas. sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Kaykovusning "Qobusnoma" asari.

**Improvizatsiya** – (lot. kutilmagan, birdan)–badiiy ijodning alohida bir ko'rinishi bo'lib, bunda asar bevosita ijro jarayonida yaratiladi.

**Interpretatsiya** – (lot. tushuntirmoq) – talqin;adabiy asar mazmunini idrok qilish, uning mazmuni, badiiy konsepsiyasini anglash, tushunish.

**Insenirovka** – (lot. sahna) – aslida sahnaga mo'ljallab yozilmagan asarlarni (ko'proq, epic asarlarni) sahnalashtirish uchun qayta ishlash. I. sahnalashtirilishi mo'ljallangan asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini qayta yaratishni taqozo etadi.

**Intonatsiya** – (lot.-kuchli talaffuz etaman) – jonli nutqning ifodaviyligini ta'minlovchi asosiy omil, tipning fonetik vositalari ( tovush toni, talaffuz tempi, tembr, pauzalar, melodika, mantiqiy va so'z urg'ulari) majmui. U estetik emotsional ta'sir o'tkazishda muhim ahamiyatga ega.

**Remarka** – (fr. - izoh) – dramatik asarlarda muallif tomonidan sahna voqeasining boshlanishi oldidan beriluvchi yoki uning kechishi davomida qavs ichida berib boriluvchi izohlar. Remarka parda yoki ko'rinish oldidan berilgan hollarda vopqea kechayotgan joy, vaqt, ishtirok etuvchilar va sh.k.lar haqidagi zarur ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

**Epigraf** – (yun. – bitik. sarlavha) – asarning boshlanishida sarlavhadan keyinoq yoki uning bo'lim (bob.fasl)lari boshida keltiriluvchi qisqa, odatda, e'tiborli manbalardan (xalq ijodi, mashhur kishilarning purhikmat so'zlari va sh.k) olingan ko'chirma, sitataning bir ko'rinishi.

## ADABIYOTLAR KO'RSATKICHI:

### I.Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. T., “Ma'naviyat”, 2008.
8. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. T., “O'qituvchi”, 2002.
9. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. T., “O'qituvchi”, 2011.
10. Jo'rayeva G. O'zbek bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish mahorati. T.: “Muharrir”, 2011
11. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008

### II.Qo'shimcha adabiyotlar

1. Asotirlar va rivoyatlar. Toshkent, “Yozuvchi”, 1993.
2. Арзамасцева И.Н., Николаева С.А. Детская литература. М.:Академия, 2000.
3. Arzamaseva I.N., Nikolayeva S.A. Detskaya literatura. M., “Akademiya”, 2000.
4. Белинский В.Г., Чернишевский Н.Г., Добролюбов Н.А. О детской литературе. – М., Дет.лит. 1983
5. Bolalar adabiyoti va zamonaviylik. T., “Fan”, 1981.
6. Boychechak. O'XI. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Safarov. T.G'ASN, 1984.
7. Ibragimova Z. Anvar Obidjon– bolalar shoiri.– T.: Yangi asr avlodi, 2006
8. Barakayev R. O'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. T., “Fan”, 2004
9. Murodov M. Oltin sandiq ochildi. Toshkent, “O'qituvchi”, 1994.
10. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., “Musiqqa”, 2010; yana: Bolalik kuychisi. T., “Fan”, 1978; yana: Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari. T., 1985; yana: Oliy o'quv yurtlarida bolalar adabiyotini o'qitish muammolari. “Til va adabiyot ta'limi” j., 1999y., 3-4 -sonlar.
11. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. T. “Fan”, 1989.
12. O'zbek bolalar adabiyoti antalogiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild. T., “O'qituvchi”, 2006.
13. O'zbek bolalar adabiyoti. Maqolalar. T., “Yosh gvardiya”, 1969.
14. G'aniyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. T., “Fan”, 1998

### III.Badiiy adabiyotlar

1. Adashboyev T. Orzularim qo'sh qanotim. T.: Sharq, 2003.
2. Attor F. Ilohiynoma. T.1994
4. Avesto. Hurmuzd.Yasht. O'zbekchaga M.Ishoqov tarj. –O'TA,1999, 1-6-son.
5. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar.1-2-jild. T., Ma'naviyat, 1998; yana: Turkiy guliston yoxud axloq. T.:O'qituvchi,1992
6. Barakayev R. Jonajonim she'riyat. T.: Cho'lpon, 1997
7. Barnoyev S. Dadam haqida qo'shiq. T.: Yulduzcha, 1989.
8. Barnoyev S. Kichkina Xo'ja Nasriddin. T.: Yozuvchi, 1998.
9. Bolalar olami. T.,Yosh gvardiya,1989
10. Berdiyev H.Rasulov R.. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. T.:O'qituvchi,1989
11. Drachuk Viktor. Yozuvlar o'tmish sirlari shohidi. T., 1980
12. Fozilov N. Saylanma. 2 jildlik. T.,G'ASN, 1982 ; yana: Ustozlar davrasida. T.,1988
13. Fattoyev M. Atoqli pedagoglarimiz. T.,1988
14. Hakim Nazir. Tohir Zuhra. T.,1980.
15. Hakim Nazir. Lochin qanotlar. T.,1987.
16. Hakim Nazir. Yonar daryo. T.: Yosh gvardiya, 1966
17. Hozirgi o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligi. T.: Fan, 1984.
18. Ibrohimova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. T.: O'qituvchi,1994.
19. Irisov A. Ibn Sino ma'rifatparvar adib. T.,1992;

20. Imom Ismoil al-Buxoriy.Hadis.Al-jome' as-sahih. 4 kitob.T.,1991-1994; yana: Al-adab al-mufrad. T.,1990.
21. Imomov B. O'zbek sovet bolalar adabiyoti yuksalish yo'lida. T.:Y.g.,1973; Yana: Po'lat Mo'min. Adabiy portret. T.,1982
22. Jamilova B. O'zbek bolalar publitsistikasi. T.: Fan, 2006
23. Kaykovus. Qobusnoma.. T.,1986.
24. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. T., 2010
25. Malik Tohir. Qaldirg'och. T.,Yosh gvardiya,1987
26. Matchonov S. Tiriklik suvi. T.,Yosh gvardiya, 1986
27. Muhammadiy Q. Tabiat alifbesi. 1-kitob, T.:Yosh gvardiya, 1974 : yana:Bog'larda bolalar. 2-kitob. T.,1976.
28. Muhammadiy Q. Cho'pon bobo qo'shig'i. 4-kitob. T.,1975; yana: Odam-olam qo'shig'i. 5-kitob. T.,1981.
29. Muxtor Omon. Uchqur poyezdlar.Hujjatli qissa. T.:Yosh gvardiya, 1988.
30. Malik T. Alvido bolalik. T., 1986; yana: Qaldirg'och. T., 1987 ; yana: Shaytanat. 1-4-kitob. T.: Sharq, 1999-2003
31. Mirkarim Osim. Karvon yo'llarida.Saylanma.T.G'ASN, 1987.
32. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. T.,1983; yana: Hayrat ul-abror. T., 1978; yana: Arba'in hadis. Qirq hadis. T.:yozuvchi,1991
33. Niyoziy H.H. Mukammal asarlar to'plami. 4 tomlik, 2-tom.Pedagogik risolalar. T.:Fan, 1980: yana: Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi. MAT, 2-t. T.,1981
34. Olimjon H. Oygul bilan Baxtiyor. T.:Yulduzcha, 1988.
35. Obidjon A. Oltin yurakli avtobola. T., 1988.yana: Dahshatli Meshpolvon. T.:Yulduzcha, 1989; yana: Alamazon va Gulmat hangomalari. T.: Cho'lpon, 1992.
36. Oybek. Bolalik. T.,2005; yana: Alisherning yoshligi. T., 2007
37. Ravshanov P. Bolalikning sehrli olami. T.:Yosh gvardiya, 1985; yana: Tarix badiiyati. T.,1989
38. Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o'zbek bolalar adabiyoti. T.: Fan, 1991.
39. Qobilov N. Kichkintoylarning katta shoiri. T.:Yosh gvardiya,1973; yana: Elbek. T. G'ASN, 1988.
40. Qosimov B. Milliy uyg'onish. T.:Ma'naviyat, 2005; yana: Uyg'ongan millat ma'rifati. T., "Ma'naviyat", 2011.
41. Qodiriy A. Kichik nasriy asarlar. N.,1989
42. Qahhor A. O'tmishdan ertaklar. T.,2005
43. Qo'shjonov M. Onaga ta'zim, bolaga mehr. T.:Yosh gvardiya, 1983.
44. Quvvatova D. Sirli olam musavviri. T.:Fan, 2003
45. Sa'dulla Sh. Sening bayraming. T.,Yosh gvardiya, 1972; yana: Mening aziz bolalarim. Qissalar. T.,1974; yana: Kachal polvon yoki yog'och qo'g'irchoqning boshidan kechirganlari. Ertak-qissa. T.:Yosh gvardiya,1969: yana:Yoriltosh. Ertak-drama. T.,1971.
46. Sattorov M. Mirkarim Osim. Adabiy portret. T.G'ASN,1977.
47. Sulton Jo'ra. Qaldirg'och. T.,1989.
48. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. T.,1982.
49. To'xtaboyev X. Qasoskorning oltin boshi. T.,1980; yana: Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrarlar jangi. T.,1986; yana: Mungli ko'zlar. T.,1988.
50. To'xliyev B. Bilim ezgulik yo'li. T.:Fan, 1990
51. Uvvatov U. Imom Ismoil al-Buxoriy. T.,1998
52. Uvaysiy. Ko'ngil gulzori. T.,G'ASN, 1983
53. Yassaviy A. Hikmatlar. T.G'ASN, 1991.
54. Yusuf xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.,1990.
55. O'zbek xalq ertaklari. T.:Sharq, 2006; yana: O'zbek adabiy ertaklari. T.:Meros, 1992

56. G'aniyev A. Sadridin Ayniyning pedagoglik faoliyati. T.:O'qituvchi, 1965.
57. G'ulom G'afur. Shum bola. T.,1992;
58. Shermuhammedov P.,Tursunov J., Safarov O. Egamov X. O'zbek bolalar adabiyoti. Darslik –xrestomatiya. T.:O'qituvchi,1976.
59. Shermuhammad Munis. Savodi ta'lim. T.,1991.
60. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov I. Hikmatnoma. T.,1990.
61. Shermuhammedov P. Ona sutidek pokiza. T.: Yosh gvardiya, 1975; yana: Istiqbolni o'ylab. T.,1987
62. Chor kitob. Olim Bo'ri tarj. T.: Cho'lpon,1992.

#### **IV. Xorijiy manbalar**

1. Arzamaseva I.N., Nikolayeva S.A. Detskaya literatura. M.:Akademiya, 2000.
2. Budur N.V., Ivanova E.I., Nikolayeva S.A., Chesnokova T.A. Zarubejnaya detskaya literature.Moskva, "Akademiya", 1998.
3. Belinskiy V.G., Chernishevskiy N.G., Dobrolyubov N.A. O detskoy literature. M.,Det.lit. 1983
4. Kerroll L. Priklyucheniya Alisi v strane chudes. T., :O'qituvchi, 1986.
5. Karlo Kollodi. Pinokkioning boshidan kechirganlari. T., 2009
6. Janni Rodari. Rim ertaklari. T.:Raduga, 1989.
7. Chukovskiy K. Ot dvux do pyati. T.1,2. M.,”Pravda”, 1990
8. Barishnya-gersoginya. Skazki zarubejnix pisateley.T., Yosh gvardiya, 1988.
9. Swift J. Gulliverning sayohatlari. T., :Sharq, 2006.
- 10 .Perro Sh. Skazki matushki gusini.- M.,1991
11. Zarubejnaya literature dlya detey i yunosheatva. Pod.red. N.K.Mesheryakovoy, I.S.Chernyayevskoy.- M., 1989.
12. Brandis Yevg. Ot Ezopa do Djanni Rodari. -M.,1980
13. Detskaya literature Avstrii, Germanii, Shevetsarii. Uchebnaya xrestomatiya. -M.,1997

#### **V. Dasturning informatsion - uslubiy ta'minoti**

##### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www. pedagog. uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www. Ziyonet. uz)
4. [www. edu. uz](http://www. edu. uz)
5. [tdpu-INTERNET. Ped](http://tdpu-INTERNET. Ped)
6. [WWW. nuqf. intal. Uz](http://WWW. nuqf. intal. Uz)



## MUNDARIJA

	<b>I. Bolalar adabiyoti fanining nazariy asoslari</b>	
	<b>KIRISH.....</b>	7
I.1.	Bolalar adabiyoti istilohi haqida tushuncha.....	9
I.2.	Bolalar adabiyoti fanining predmeti va vazifalari.....	10
I.3.	Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.....	11
I.4.	Bolalar adabiyotida adreslilik. ....	21
	<b>II. Bolalar folklori</b>	
II.1.	Bolalar folklori tabiati.....	33
II.2.	Bolalar fol'klarining janriy tasnifi .....	35
II.3.	Allalar.....	41
II.4.	Bolalar qo'shiqlari.....	43
II.5.	Maqollar .....	44
II.6.	Topishmoqlar.....	48
II.7.	Ertaklar .....	52
	<b>III. Bolalar o'yin folklori</b>	
III.1.	Ma'naviy (so'z) o'yinlar.....	66
III.2.	Harakatli o'yinlar.....	71
III.3.	Tez aytishlar.....	73
	<b>IV. O'zbek bolalar kitobxonligi</b>	
IV.1.	Bolalar kitobxonligi tabiati.....	81
IV.2.	Alisher Navoiy – bolalarga.....	86
IV.3.	Muhammad Sharif Gulxaniy –bolalarga.....	96
IV.4.	Alifbe manzumalar bolalarning dastlabki o'qish kitobi.....	99
	<b>V. O'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi</b>	
V.1.	Milliy uyg'onish harakatining bolalar adabiyotini yuzaga keltirishdagi roli. (XIX asrning so'nggi va XX asrning birinchi choragigacha ).....	111
V.2.	Abdulla Avloniy -islohotchi pedagog va bolalar shoiri.....	128
V.3.	Hamza Hakimzoda - ma`rifatparvar va bolalar shoiri. ....	135
V.4.	Elbek bolalarlar shoiri va islohotchi pedagog.....	140
	<b>VI. Bolalar adabiyoti rivojlanish sari</b>	
VI.1.	Adabiy ertak va uning bolalar adabiyotini yuzaga kelishidagi ta'siri.	151
VI.2.	G'afur G'ulom bolalar shoiri va nosiri sifatida.....	155
VI.3.	Oybekning bolalik olami.....	165
VI.4.	Hamid Olimjon bolalarning ertaknavis shoiri.....	168
	<b>VII. Bolalar adabiyoti rivojlanish bosqichida</b>	

VI.5.	Sulton Jo'ra.....	176
VI.6.	Zafar Diyor.....	184
VI.7.	Quddus Muhammadiy .....	189
VI.8.	Shukur Sa'dulla.....	205
<b>VIII.Bolalar adabiyoti taraqqiyot sari</b>		
VII.1.	Ilyos Muslim.....	215
VII.2.	Hakim Nazir.....	217
VII.3.	Mirkarim Osim.....	230
VII.4.	Po'lat Mo'min.....	236
VII.5.	Qudrat Hikmat.....	241
VII.6.	Nosir Fozilov .....	246
VII.7.	Xudoyberdi To'xtaboyev.....	253
VII.8.	Farhod Musajon.....	258
<b>IX. Bolalar adabiyoti yuksalishda</b>		
VIII.1.	Miraziz A'zam.....	262
VIII.2.	Safar Barnoyev.....	270
VIII.3.	Tursunboy Adashboyev .....	276
VIII.4.	Anvar Obidjon.....	283
<b>X. Istiqlol davri bolalar adabiyoti</b>		
IX.1.	Istiqlol davri bolalar adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari.....	295
IX.2.	Hamza Imonberdiyev.....	298
IX.3.	Kavsar Turdiyeva .....	301
IX.4.	Dilshod Rajabov .....	304
IX.5.	Abdusaid Ko'chimov ijodida bola ruhiyati talqini .....	308
<b>XI. Chet el bolalar adabiyoti</b>		
X. 1.	Chet el bolalar adabiyotining an'analari.....	313
X. 2.	Aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar.....	315
X. 3.	Sharl Perro.....	317
X. 4.	Xans Kristian Andersen.....	318
X. 5.	Jonatan Svift.....	320
X. 6.	Janni Rodari.....	323
<b>XII. Rus bolalar adabiyoti</b>		
XI. 1.	A.S.Pushkin.....	325
XI. 2.	Lev Tolstoy .....	328
XI. 3.	Korney Chukovskiy.....	330
XI.4.	Samuil Marshak.....	334
	Glossariy.....	342
	Adabiyotlar ro'yxati.....	345

**Oxunjon Safarov, Bashorat Jamilova,  
Nigora Safarova**

## **BOLALAR ADABIYOTI VA FOLKLOR**

Muharrir: N.Egamqulova  
Texnik muharrir: M.Rahmonov  
Sahifalovchi: M.Muxamadiyeva

**“Turon zamin ziyo” nashriyoti**  
**Litsenziya: AI №171. 2010 yil 11 iyunda berilgan.**  
**Toshkent sh. Yunusobod-14. 27/35.**

2015- yilning 00 dekabrda terishga berildi. 2015-yilning 00 dekabrda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 00,0 shartli bosma tobog'. 00,0 hisob nashriyot bosma tobog'i. Ofset qog'oziga ofset usulida chop etildi. Adadi 00 nusxa. 73-sonli buyurtma.

**«Standart Poligraf» x/k bosmaxonasida chop etildi**  
Buxoro shahri, Navoiy shohko`chasi 6-uy.

